

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLI GI**

**Toshkent Moliya instituti**

**YO.ABDULLAYEV, T.QORALIYEV,  
SH.TOSHMURODOV, S.ABDULLAYEVA**

# **BANK ISHI**

O‘quv qo‘llanma

Toshkent  
“IQTISOD-MOLIYA”  
2010

## 65.262.1

**Taqrizchilar:** Sh.Abdullayeva – i.f.d., prof;  
M.Marpatov – i.f.n., O‘zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki xodimi

**Abdullayev Yo.**

**B28** **Bank ishi.** O‘quv qo‘llanma –T.: “IQTISOD-MOLIYA”,  
2010-yil. - 532 bet.

Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S.

«Bank ishi» faniga bag‘ishlangan mazkur o‘quv qo‘llanmamizda oddiy va sodda tilda, savol va javob tariqasida bank tizimi to‘g‘risida tushuncha, bank ishi fanining predmeti va obyekt, uning faoliyatidagi tavakkalchilikni baholash, bank kreditini berish siyosati, bankning investitsion funksiyalari va bank menejmenti kabi masalalar yoritilgan.

Qo‘llanma “Bank ishi” va uning nazariy asoslari hisoblangan “Pul, kredit va banklar” fanlari dasturlar asosida tayyorlangan.

Qo‘llanmada bank ishiga taalluqli savollar va javoblar bilan birgalikda har bir bo‘lim bo‘yicha alohida tayanch iboralar, test va nazorat savollari keltirilgan. Qo‘llanmada masalalar to‘plami ham mavjud.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada «Siz bank xodimlari attestatsiyasiga tayyormisiz?» turkumidagi savollarga javoblar ham berilgan.

O‘quv qo‘llanma oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida iqtisodchi mutaxassislar, bank xodimlarini tayyorlovchi o‘quv yurtlari va fakultetlarida hamda biznes maktablarida o‘quv mashg‘ulotlar, ilmiy seminarlar va suhbatlar, treninglar uyushtirish uchun mo‘ljallangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent moliya instituti qoshidagi ilmiy-uslubiy Kengash tomonidan chop etishga tavsiya etilgan (2009-yil 16-apreldagi 3-sonli Kengash qarori).

**BBK 65.262.1ya73**

# *Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bank tizimi lokomotiv vazifasini bajarishi kerak.*

**Islom Karimov**

## **KIRISH**

Dastlab, shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining hozirgi bank tizimi mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan davrdagi bank tizimidan tubdan farq qiladi. Ma'lumki, o'sha davrda bank tizimining o'zagini:

- Sobiq Ittifoq davlat banki;
- Qurilish banki;
- Davlat mehnat jamg'arma kassalari tashkil etar edi.

Ittifoqdosh respublikalarda esa ushbu banklarning respublika, viloyat kontoralari va tuman (tashqi iqtisodiy faoliyat bankidan tashqari) bo'limlari faoliyat ko'rsatardi, xolos. Bu banklarning joylardagi bo'limlari faqatgina ko'chiruvchi operator rolini bajarar edi. Butun bank tizimi markazdan boshqarilib, kreditlash limitlari ham, naqd pul chiqarish limitlari ham markazning ruxsati bilangina amalga oshirilar, hamma masalalar yuqoridan hal qilinardi.

Qisqasi, joylarda mustaqil ijodiy ishlashning o'zi yo'q edi hisob. Bozor munosabatlari xususida umuman gap bo'lishi mumkin emas edi. Respublika aholisiga faqat bir narsa ma'lum bo'lib, u ham bo'lsa, o'z qo'lida bo'sh pullarni Davlat mehnat jamg'arma kassalarida qat'iy belgilangan foizlar olish sharti bilan saqlashlari mumkin edi. Boz ustiga, bank tizimini ommaviy axborot vositalarida yoritishga ruxsat yo'q, bino-barin, bank faoliyati to'g'risida birorta ma'lumot matbuotda yoritilmasdi.

Faqatgina 1987-yilning ikkinchi yarmidan boshlab, asosan Davlat banki negizida «Agrosanoatbank», «Uyjoy ijtimoiybank», «Sanoat-qurilishbank» va boshqa tarmoq banklari tashkil etila boshlandi. Biroq bu o'zgarishlar ham kutilgan natijalarni bermadi. Chunki markazlashgan boshqaruv tizimi hali davom etar va o'z izmini o'tkazar edi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi iqtisodiy mustaqillik sari qo'yilgan ilk qadam bo'ldi. Mustaqil davlatimiz siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bank tizimini isloh qilish va uni tubdan o'zgartirishga qaratildi. Bank tizimini isloh qilish hukumatimizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish dasturiga muvofiq amalga oshirila boshlandi.

Bank tizimini isloh qilishning dastlabki bosqichida 1991-yilda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bozor sharoitlariga mos banklar institutini vujudga keltirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mazkur qonunga muvofiq SSSR davlat bankining hududiy bo‘limi O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga aylantirildi va u bevosita davlat boshchiligida bank tizimini isloh qilishni boshladi.

Juda qisqa muddat ichida ikki pog‘onali bank tizimini vujudga keltirish borasida birinchi qadamlar qo‘yildi. Markaziy bankning tashkiliy strukturasi va ish uslublari qayta qurilib, tijorat banklari aksiyalashtirildi va bugungi kunda ularning soni 29 taga yetdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, va tijorat banklaridan tashqari yuzlab nobank kredit tashkilotlari ham faoliyat yuritmoqda. 2008-yilda yuzaga kelgan va barcha rivojlangan mamlakatlar moliya-kredit tizimi hamda iqtisodiyotini larzaga keltirgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz moliya-bank tizimida izchil islohotlar doimiy ravishda olib borilishi lozimligini yana bir bor isbotlamoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, “Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta’siri, undan ko‘riladigan zararning darajasi va ko‘lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog‘liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog‘liqligini isbotlashga hojat yo‘q...”<sup>1</sup>

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, undan bank ishining nazariy asoslari naqt pulsiz hisob-kitoblar, xalqaro valuta-kredit munosabatlari va pul muomalasiga oid savollarga ham javob topasiz.

Qo‘llanmaning oxirida keltirilgan masalalar to‘plamini tuzishda dots. X.K. Kashapovning “Bank ishi” fanidan tayyorlangan to‘plamidan foydalanildi.

Mualliflar o‘quvchilarni bugungi kunda bank tizimida bo‘layotgan islohotlar ko‘lami, shuningdek, «Bank ishi» fani dasturiga binoan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan nazariy va amaliy masalalar bilan tanishtirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. O‘quv materiallari jamlangan ushbu o‘quv qo‘llanma o‘quvchilar bilimini oshirishga xizmat qilsa, barcha sa’y-harakatlarimiz bekor ketmagan bo‘lard.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2009, 7-bet.

## 1-bob. BANK ISHI – MUSTAQIL FAN

### 1.1. Bank ishi fanining predmeti va obyekt

[1]. «Bank ishi» mustaqil fandır. Chunki u o‘zining mustaqil predmeti, obyekt va metodiga ega. U:

- bank faoliyatining huquqiy asoslari;
- banklarni tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibi;
- bank faoliyatini tartibga solish;
- banklarning huquq va majburiyatlari;
- banklarga vasiylik qilish tartibi;
- banklarning moliyaviy ahvoli;
- bank operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari;
- pul tizimi hamda pul muomalasini tashkil etish qoidalari;
- valutani tartibga solish va xalqaro rezervlarni boshqarish;
- banklarni nazorat qilish;
- banklarda hisob yuritish va hisobot;
- bank menejmenti;
- bankning rivojlanish tarixi kabi masalalarni o‘rganuvchi fandır.

Aynan shu jarayondagi munosabatlar «Bank ishi» fanining **predmeti** hisoblanadi. Bank va uning turli ko‘rinishlari «Bank ishi» fanining o‘rganish **obyekti** hisoblanadi (1-jadval).

[2]. Har qanday fan o‘z obyektini ma’lum usullarni qo‘llash yordamida o‘rganadi. Bank faoliyati, undagi sir-sinoatlarni ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilishda «Bank ishi» fani quyidagi **usullardan** foydalanadi (2-jadval).

Ilmiy jihatdan asoslangan tahlil qayd qilingan usullarni chambar-chas ravishda bog‘lab olib borilishini taqozo etadi.

[3]. «Bank» so‘zi italyanacha «**Banca**» so‘zidan olingan bo‘lib, «**stol**», aniqrog‘i «**pulli stol**» degan ma’noni anglatadi. XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni «**Bancherii**» deb atashgan. Agar puldordardan birortasi ishonchni oqlamasa va o‘z ishiga mas’uliyatsizlik qilsa, u o‘tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «**Banco rotto**», ya’ni «**bankrot**» deb atashgan. Bugungi kunda bizga ma’lum bo‘lgan «bankrot» so‘zi ham italyanacha «**Banca rotto**» so‘zidan olingan.

## Bank va uning turlari

t/r	Turkumlash belgilari	Bank turlari
1.	Vakolatiga qarab	<input type="checkbox"/> emissiya qiluvchi banklar <input type="checkbox"/> tijorat banklari <input type="checkbox"/> investitsion banklar <input type="checkbox"/> universal banklar
2.	Operatsiyalarni bajarish xarakteriga qarab	<input type="checkbox"/> tarmoqlar bo'yicha <input type="checkbox"/> mijozlar tarkibi bo'yicha <input type="checkbox"/> miqdor bo'yicha <input type="checkbox"/> regionlar bo'yicha xizmat qiluvchi banklar
3.	Mulk shakliga qarab	<input type="checkbox"/> ixtisoslashgan (masalan, ipoteka) banklar <input type="checkbox"/> davlat banklari <input type="checkbox"/> aksioner (hissador) banklar <input type="checkbox"/> xususiy banklar <input type="checkbox"/> aralash banklar
4.	Faoliyat miqyosiga qarab	<input type="checkbox"/> bank konsorsiumlari <input type="checkbox"/> yirik banklar <input type="checkbox"/> o'rta banklar <input type="checkbox"/> mayda banklar
5.	Xizmat qilish sohasiga qarab	<input type="checkbox"/> mahalliy (regional) banklar <input type="checkbox"/> regionlararo banklar <input type="checkbox"/> milliy banklar <input type="checkbox"/> xalqaro banklar
6.	Sho'balari soniga qarab	<input type="checkbox"/> sho'basi bor banklar <input type="checkbox"/> sho'balari yo'q banklar

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida bankka quyidagicha ta'rif berilgan:

«Bank – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuyini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish;
- qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish;
- investitsiyalash uchun foydalanish;
- to'lovlarni amalga oshirish<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 3-bet – T.: Adolat, 2003.

## «Bank ishi» fanining tahlil usullari

t/r	Tahlil usullari	Mazmuni
1.	Tizimli yondashuv	<input type="checkbox"/> bank tizimi yaxlit tarzda olib qaraladi. Bu yondashuv turlicha bo'lishi mumkin: <input type="checkbox"/> tizimli-kompleks yondashuv <input type="checkbox"/> tizimli-funksional yondashuv <input type="checkbox"/> tizimli-tarkibiy yondashuv <input type="checkbox"/> tizimli-kommunikatsion yondashuv.
2.	Kompleksli yondashuv	<input type="checkbox"/> bank tizimi boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'lanishda va aloqadorlikda qaraladi.
3.	Tarkibiy yondashuv	<input type="checkbox"/> bank tizimini tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi.
4.	Vaziyatli yondashuv	<input type="checkbox"/> bank tizimining muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab tegishli ma'qul usul qo'llaniladi.
5.	Integratsion yondashuv	<input type="checkbox"/> bank tizimi yuqoridagi usullar (vaziyatli, kompleksli, tarkibiy yondashuvlar) ni birgalikda qo'llash yordamida tahlil qilinadi.
6.	Modellashtirish usuli	<input type="checkbox"/> bank tizimini tahlil qilish uchun turli chizmalar, modellar, xomaki materiallar tayyorlanadi.
7.	Iqtisodiy matematik yondashuv	<input type="checkbox"/> maqbul qaror qabul qilish maqsadida matematik usullar keng qo'llaniladi.
8.	Kuzatish usuli	<input type="checkbox"/> bank tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'planiladi.
9.	Tajriba usuli	<input type="checkbox"/> tahlil jarayonida bank tizimiga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullar qo'llaniladi.
10.	Sotsiologik kuzatuv usuli	<input type="checkbox"/> turli anketali so'rovlar, suhbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillar o'tkaziladi.

Demak, bank – bu pul mablag'larini o'zida mujassamlashtiruvchi va jamg'aruvchi, kredit beruvchi, pul hisobini olib boruvchi, pul va qimmatli qog'ozlarni emissiya qiluvchi, oltin va chet el valutalari bilan operatsiyalarni bajaruvchi yirik muassasadir.

Ko'pgina moliya institutlari, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi dilerlar, broker firmalari, sug'urta kompa-

niyalari ko‘proq o‘zlarining ko‘rsatgan xizmatlari bilan banklarga tenglashishga va bankka xos ishlar bilan shug‘ullanishga harakat qiladilar.

Ana shunday moliya institutlari o‘zlarini nobank kredit tashkilotlari deb ataydilar (3-jadval).

### 3-jadval.

#### Nobank kredit tashkilotlari (asosiy muassasalar)

t/r	Nobank kredit tashkilotlari	Mashg‘uloti
1.	Ipoteka kompaniyalari	<input type="checkbox"/> tijorat maqsadida foydalaniladigan bino yoki yashash uylaridan samarali foydalanish uchun qisqa muddatli kredit berish bilan shug‘ullanadilar
2.	Faktoring kompaniyalar	<input type="checkbox"/> vaqtinchalik moliyalashni ta‘minlash maqsadida (asosan debitorlar schyotidan) korxonalaridan qisqa muddatli aktivlarni sotib oladilar
3.	Trast kompaniyalar	<input type="checkbox"/> korxonalar, xususiy shaxslar va zarar bilan ishlaydigan tashkilotlar mulklarini boshqaradi va ularni himoya qiladi. Mijozlarning qimmatli qog‘ozlarini xususiy investorlarga joylashtiradilar
4.	Ma‘lumotlarni qayta ishlash kompaniyalari	<input type="checkbox"/> ma‘lumotlarni kompyuterda ishlab, ularni uzatish bilan shug‘ullanishadi
5.	Sug‘urta kompaniyalari	<input type="checkbox"/> sog‘liqni va kishilar hayotini turli xavflar va baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish bilan shug‘ullanadi. Shu bilan bir qatorda ular bilan bog‘liq bo‘lgan kreditlarni beradilar
6.	Qimmatli qog‘ozlar savdosi bilan shug‘ullanuvchi brokerlik firmalari	<input type="checkbox"/> opsiya shartnomalari, valutali moliyaviy fyucherslar, muomaladagi qimmatli qog‘ozlarning oldi-sotdisi bo‘yicha mijozlarning buyruqlarini bajaradilar
7.	Moliyaviy masalalar bo‘yicha maslahat beruvchi firmalar	<input type="checkbox"/> aktivlarni boshqarish va investitsiya masalalari bo‘yicha mijozlarga maslahat beradilar
8.	Qimmatli qog‘ozlarni tarqatish bilan shug‘ullanuvchi firmalar	<input type="checkbox"/> davlat va munitsipal zayomlarni, korporatsiyalar aksiyalarini, qimmatli qog‘ozlarni, korporatsiyalarning qarz majburiyatlarini, mijozlar schyotlari bilan ta‘minlangan qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi, shuningdek, yuqorida qayd qilingan qimmatli qog‘ozlarni investorlarga takroriy sotishni taklif qiladilar
9.	Moliyaviy kompaniyalar	<input type="checkbox"/> korxonalar va xususiy shaxslarga qisqa va uzoq muddatli kapital miqdorlarini aniqlash bilan shug‘ullanadilar



10.	Kredit kartochkalari bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar	<input type="checkbox"/> chakana savdo korxonalarini qo'llab-quvvatlash va xususiy shaxslarga qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullanadilar
11.	Lizing kompaniyalari	<input type="checkbox"/> aktivlarni sotib oladi va muhtoj korxonalarga, xususiy shaxslarga ularni ijaraga beradi
12.	Sug'urta agentliklari	<input type="checkbox"/> kredit yoki moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan sug'urta polislarini sotadilar yoki to'la-to'kis brokerlik va sug'urtaviy xizmatlarni bajaradilar
13.	Ko'chmas mulk operatsiyalari bilan bog'liq xizmatlarni bajaruvchi firmalar	<input type="checkbox"/> ko'chmas mulkni baholash va ular bilan bog'liq bo'lgan tijorat loyihalarini moliyalashtirish bilan shug'ullanadilar
14.	Lombardlar	<input type="checkbox"/> Qimmatbaho buyumlar garoviga kredit beradilar
15.	Kredit uyushmalari	<input type="checkbox"/> Omonatlar qabul qiladi va kredit ajratadi
16.	Mikrokredit tashkilotlari	<input type="checkbox"/> Mikrokreditlar ajratadi
17.	Omonat, ssuda berish bilan shug'ullanuvchi assotsiatsiyalar	<input type="checkbox"/> asosan xususiy shaxslar va oilalarga omonat depozitlarga jamg'ariladigan mablag'lar rejalarini, shuningdek, uy-joy qurish uchun kredit taklif qiladilar

80-yillarda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi va brokerlik bilan keng faoliyat boshlagan «Meril Linch» va «Dreyfus korporeyshn» firmalari bank bo'lmagan banklarga misol bo'la oladi.

[4]. Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi va ularning rivojlanib borishi banklarning paydo bo'lishiga asos soldi. O'rta asrlarda banklar dastlab puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida qarz so'ragan subyektlarga vaqtinchalik foydalanishga bergan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishga olib kelgan.

Dastlab, jirobanklar nomi bilan XVI asrlarda (aniqrog'i 1587-yilda) Florensiya va Venetsiyada kichik banklar vujudga kela boshlagan. Ular turli shaharlar va mamlakatlarning pul belgilarini almashtirishga ixtisoslashgan bo'ladilar. Keyinchalik shunday banklar Amsterdamda (1605), Gamburgda (1618), Milanda, Nyurnbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar asosan o'z mijozlari-savdogarlarga xizmat qilgan. Ular asosan o'z mijozlari o'rtasidagi hisob-kitoblarni naqd pulsiz amalga oshirishgan.

Tarixda birinchi yirik bank 1694-yilda Angliyada tashkil etilib, unga

davlat nomidan banknotlar chiqarishga ruxsat berilgan. U bank aksiyador-emission bank hisoblangan. Keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, xususan, sanoatning rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil qilina boshlanadi.

Natural xo'jalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pullik hisob-kitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo'l ochdi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi yollanma mehnatni borgan sari ko'p jalb qilishga olib kelgan. Yollanma mehnat uchun haqning pul shaklida to'lanishi doimiy pul aylanishini yuzaga keltiradi. Pul aylanishi esa muayyan boshqaruvni talab qildi. Bu vazifani banklar bajara boshladi.

Shunday qilib, banklar mablag'larni yig'ish va taqsimlash orqali ssuda kapitali harakatini boshqara boshladi.


XX asrning boshlarida yirik Yevropa mamlakatlarida o'zining ko'p filiallariga ega bo'lgan, yirik sanoat monopoliyalari bilan uzviy bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan banklar vujudga keldi. Bular jumlasiga xalqaro pul, hisob va kredit munosabatlarini olib boruvchi quyidagi xalqaro banklarni kiritish mumkin:

- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki;
- Xalqaro valuta fondi;
- Xalqaro Moliya korporatsiyasi;
- Xalqaro hisob-kitoblar banki;
- Yevropa investitsiya banki va boshqalar.


Xorijiy banklar to'liq yoki qisman chet el investitsiyalariga tegishli bo'lgan banklar bo'lib, ular o'z faoliyatini mahalliy qonunlar doirasida olib boradi. Hozirgi vaqtda bunday banklar yirik banklarning sho'balari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Eng yuqori darajada rivojlangan bank tizimidan biri Germaniyada shakllangan (1-chizma).

[5]. Ma'lumki, mustaqillikka erishilgunga qadar O'zbekiston hududidagi bank muassasalari sobiq Ittifoq bank tizimining tarkibiy qismiga kirar edi. Ular «Ittifoq» bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Bank tizimi 3 turdagi banklardan tashkil topgan edi (2-chizma).



**1-chizma.** Germaniya bank tizimi.



**2-chizma.** Sobiq Ittifoqdagi bank tizimi.

Sobiq Ittifoq bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo‘lib, o‘z vaqtida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish va xo‘jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi markaz hisoblanardi. Ham emissiya, ham hisob-kitoblar, ham kreditlar bo‘yicha mijozlarga xizmat ko‘rsatish funksiyalarining bir joyda monopollashuvi Davlat bankini boshqaruv va nazorat organiga aylantirgan edi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi iqtisodiy mustaqillik sari qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi. Mustaqil yosh davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bank tizimini isloh qilishning dastlabki bosqichida 1991-yilda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bozor sharoitlariga mos banklar institutini vujudga keltirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Mazkur qonunga muvofiq SSSR davlat bankining hududiy bo‘limi O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga aylantirildi va u bevosita davlat boshchiligida bank tizimini isloh qilishni boshladi. Juda qisqa muddat ichida respublikamizda ikki pog‘onali bank tizimi vujudga keltirildi.


«O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshchiligidagi ikki bosqichli bank tizimini tashkil qilish respublikaning iqtisodiy mustaqillikka erishish hamda bozor munosabatlariga o‘tish ehtiyojlariga mos keladi»,<sup>1</sup> ya’ni ikki pog‘onali bank tizimining yuqori pog‘onasining bosh maqsadi milliy valuta – so‘mning barqarorligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan Markaziy bank, quyi pog‘onasini esa bevosita mijozlar bilan ishlovchi tijorat banklari tashkil etadi (3-chizma).

Shunday qilib, O‘zbekistonda bank tizimi ikki pog‘onali bo‘lib, birinchi pog‘onada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, uning markaziy apparati va viloyatlari bo‘yicha Markaziy bank bosh boshqarmalari tursa, ikkinchi pog‘onada tijorat banklari, ularning sho‘balari, chet el banklari sho‘balari turadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan hamma banklar bank faoliyatining subyektlari hisoblanadi va ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1999.



**3-chizma.** O‘zbekiston Respublikasining bank tizimi.

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va unga tobe’ bo‘lgan muassasalar;
- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki; «Asaka» ixtisoslashtirilgan davlat-aksioner-tijorat banki;
- Respublika aksioner-tijorat Sanoatqurilish banki;

- Respublika aksioner-tijorat Paxta banki;
- Respublika aksioner-tijorat Mikro kredit banki;
- Respublika aksioner-tijorat Mevasabzavot banki;
- xususiy banklar.
- boshqa banklar.

## **1.2. Bankning vazifalari**

[6]. Ko‘pchilikning tasavvurida bankning iqtisodiyotda tutgan o‘rni faqatgina omonatlarga mablag‘larni jalb qilish va kreditlar berishdan iborat. Lekin zamonaviy banklar o‘zlarining raqobatbardoshligini saqlash va jamiyatning talablarini qondirish maqsadida yangi vazifalar bajarishni ham o‘rganishi lozim. Bugungi kunda bu vazifalar quyidagilar-dan iborat (4-jadvalga qarang).

[7]. Bank o‘z faoliyati jarayonida quyidagi xizmatlarni ko‘rsatadi:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklar-ning hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda hisobvaraqlar bo‘yicha hisob-kitob qilish;

- omonatlarni jalb qilish;

- o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan o‘z no-midan kreditlar berish;

- chet el valutasini naqd pul va naqd bo‘lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish, sotish va ayirboshlash;

- pul mablag‘lari, veksellar, to‘lov va hisob-kitob hujjatlarini in-kasso qilish;

- uchinchi shaxs nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;

- uchinchi shaxs nomidan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

- Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobni yuritish va saqlash, ularni boshqarish va boshqa operatsiyalarni bajarish;

- davlat faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

- kichik va o‘rta tadbirkorlikni kredit bilan ta’minlash;

- trust xizmatlari - ishonch qog‘ozlar orqali mijozlar aktivlarini boshqarish;

- faktoring xizmatlarni amalga oshirish;

- moliyaviy lizingni bajarish;

- iste’mol kreditini berish;

- moliyaviy maslahat va axborot xizmatlarini bajarish;

## Bankning hozirgi zamon vazifalari

t/r	Banklarning roli	Izoh
1.	Vositachilik roli	<input type="checkbox"/> jismoniy shaxslardan qabul qilib olgan mablag' - larni yangi binolar, asbob-uskunalar va boshqa ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish maqsadida kredit oladigan firma va korxonalar o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi
2.	To'lovlarni amalga oshirishda ishtirokchilik roli	<input type="checkbox"/> tovarlar, qimmatli qog'ozlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun talabnomalar, majburiyatlar va cheklarni kliring asosida o'zaro surishtirishga asoslangan elektron to'lovlar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib boradi.
3.	Kafolatchilik roli	<input type="checkbox"/> bank kafolatchi sifatida tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'lashga imkoniyati yetmayotgan bank mijozlari qarzlarni akkreditiv ochish yo'li bilan yoki faktoring operatsiyalari orqali to'laydi.
4.	Agentlik (dallollik) roli	<input type="checkbox"/> bank mijozlar mulkini boshqarish va himoya qilish, mijozning topshirig'iga binoan uning qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish kabi yumushlarni bajarishda agentlik vazifasini o'taydi.
5.	Siyosiy roli	<input type="checkbox"/> ijtimoiy maqsadlarni hamda iqtisodiyotning rivojlanishini ko'zlab davlat tomonidan yuritilayotgan siyosat targ'ibotchisi vazifasini bajaradi.

- naqd pul mablag'larini boshqarish;
- yuqori tavakkalchilikka ega kreditlar berish;
- sug'urta xizmatlarini sotish;
- qimmatliklar bilan bo'ladigan operatsiyalarda brokerlik xizmatlarini amalga oshirish;
- investitsiya va boshqa xizmatlarni ado etish.

**[8].** Barcha zamonaviy banklar muomaladagi vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini to'playdilar va kredit beradilar.

Hozirgi vaqtda barcha rivojlangan yirik davlatlarda tovarlar va xizmatlar uchun olinadigan haq asosan chek ko'rinishida bo'ladi.

Chek hujjatlarining ikki turi mavjud:

**Birinchidan**, mijozga kredit berilganda, u oddiy vekselga imzo qo'yadi va o'z o'rnida bank unga talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ini ochadi. Qarzdorning oddiy vekseli pul hisoblanmaydi, undan tovarlar va xizmatlar uchun to'lov sifatida foydalanish mumkin emas. Lekin bankning depoziti pul hisoblanib, undan mijoz xohlagan vaqtda xohlaganicha sarf qilishi mumkin. Shunday qilib, bank qarz berib, o'z mijoziga depozit ochadi va mijoz undan erkin foydalana oladi.

**Ikkinchidan**, bank tizimidagi barcha banklar mijozlarga kreditlar berib, pul ishlaydilar. Bu kreditlar boshqa banklarga depozit mablag' bo'lib tushadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, bank jalb qilgan depozitlarini kafolatlash uchun zaxiralar fondini tashkil qiladi. Shunday qilib, har bir jalb qilingan depozit qo'yilmasi zaxiralar hajmining ortib borishini ta'minlaydi va bu mablag'lar kredit sifatida ishlatilishi mumkin. Kreditlar boshqa banklarga depozit ko'rinishida oqib o'tadi va yangidan kreditlar berish imkoniyati yuzaga keladi. Oxir-oqibatda, banklarning kredit berish vazifasiga asosan, ularning depozit hisobvaraqlarida turgan pul mablag'lari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Banklarning pul ishlash qobiliyatiga ega ekanligi ular faoliyatining davlat tomonidan tartibga solib turilishining asosiy sababidir.

Banklarning o'zaro kredit olishlaridan maqsad o'z resurslarini oshirish ular hisobidan kreditlar berish hamda qo'shimcha daromad olishdan iborat.

[9]. Banklar faoliyatidagi xizmat turlarining ortib borishi va kengayishi yaqin kelajakda ularning hozirgi banklarga qaraganda butunlay o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu o'zgarishlarning sodir bo'lishiga quyidagilar ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Xizmat turlari va ularning sifatlariga bo'lgan talabning ortishi. Ba'zi bir zamonaviy banklar sug'urta kompaniyalari faoliyatida ishtirok etish, sug'urta savdosida brokerlik qilish, loyihalarni investitsiyalash, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda brokerlik qilish, moliyaviy rejalashtirish, soliq tizimiga, xususiy shaxslarga maslahatlar xizmatini taklif qilmoqdalar.

2. Raqobatning o'sishi. Banklar va bankdan boshqa moliya institutlarida xizmat turlarining kengaytirishi natijasida ular o'rtasidagi raqobat kuchayadi. Bu raqobat kelajakda banklarda xizmat turlarini yanada kengaytirilishiga olib keladi.

3. Texnologiya sohasidagi o'zgarishlar, ya'ni to'lovlarning yangi integratsiyalashgan vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan



bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi.

4. Banklarning xizmat ko'rsatish doirasi va uning hududiy jihatdan kengayishi.

5. Bankrotlik (inqiroz) xavfining ortishi va depozitlarning, sug'urta tizimining kuchsizlanishi, o'sib borayotgan raqobat banklarning sinishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun banklar samarali faoliyat ko'rsatishlari lozim. Chunki ular davlat korxonalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydilar, xususiy shaxslarni moliyalashtiradilar va davlatning pul-kredit siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

Bu o'rinda, banklarning samarali faoliyat ko'rsatishlarida bank boshqaruvchilarining tutgan o'rni juda katta ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bank boshqaruvchilari quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

- professionalizm, ishga ijodiy yondashish, o'ziga ishonch, qat'iylik va ishga fidoyilik;

- yangicha fikrlash, topqirlik, tashabbuskorlik va g'oyalarni hayotga tatbiq eta olish qobiliyati;

- odamlarga ruhiy ta'sir ko'rsata olish salohiyati;

- chiqishimli bo'lish va yutuqni hisob qilish;

- hissiyotga berilmaslik va ruhiy zarbalarga chidash;

- ochiq ko'ngillilik, tadbirkorlik va yuz berayotgan o'zgarishlarga oson moslashish;

- vaziyatni boshqara olish va korporativ tuzilmalarda shaxsga xos g'ayrat-shijoat ko'rsatish;

- o'zini-o'zi o'stirishga va o'zini safarbar etishga ichki ehtiyoj sezish;

- serg'ayrat va bardoshli bo'lish;

- o'zini muvaffaqiyatli himoya qilishga moyillik va samarali hujumga o'ta olish;

- o'z ishi va qabul qilingan qarorlari uchun mas'uliyatni his qilish;

- jamoada va jamoa bilan ishlashga o'zida ehtiyoj sezish.


Boshqaruvchi keng bilim sohibi bo'lishi, yangicha fikr yurita olishi, uni qo'llab-quvvatlashi va psixologik qobiliyatga ega bo'lishi, oqilona ish yuritishi, kerak bo'lganda, tavakkaliga ish ko'ra olishi lozim. Biznesloyihalarni ishlab chiqish, tuzatishlar kiritish, marketing tadqiqotlarini amalga oshira olish, bozortalab ehtiyojlarni oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, axborot va umumiy axborot

potensialini, vaqt va xodimlardan mohirona foydalanib, ularning koʻnglidagini ochiq aytishga, guruhlar munozarasini samarali oʻtkazishga ragʻbatlantirish, qisqasi, mohir yetakchi boʻlish orqali yuksak natijalarga erishishni taʼminlashga harakat qilishi lozim.

### 1.3. Bank faoliyatini tashkil qilish va bank tarkibi

[10]. Banklarning bajaradigan vazifalari va koʻrsatadigan xizmatlari hajmi ularning katta-kichikligiga, ustav kapitalining hajmiga va ixtisoslashuviga bogʻliq. Ular uch xil boʻladi: mayda, oʻrta va yirik banklar (ustav kapitalining hajmiga qarab boʻlishi mumkin).

Kichik va oʻrta banklar asosan mayda va oʻrta hajmdagi xoʻjalik subyektlariga xizmat koʻrsatib, bu banklarning asosiy vazifasi xususiy shaxslardan mablagʻlarni depozitlarga qabul qilib olish, mayda korxonalariga turli kreditlar berishdan iborat. Bunday banklar koʻp hollarda quyidagi tashkiliy chizmaga ega (4-chizma).



4-chizma. Kichik va oʻrta banklarning tashkiliy chizmasi.

Kichik va oʻrta banklar faoliyatini direktorlar Kengashi nazorat qiladi va bank rahbari muntazam ravishda ularning oldida hisobot berib boradi. Mayda va oʻrta banklar faoliyatining yaxshi-yomon boʻlishi uni oqilona boshqarish bilan birga ular joylashgan hududga hamda mijozlar sifatiga bogʻliq. Bunday banklar asosan juda yuqori boʻlmagan tavakkalchilik bilan ishlaydilar.

Yirik banklarning tuzilishi mayda banklar tuzilishidan umuman farq qiladi (5-chizma).

Ular odatda bank-xolding kompaniyalariga, yaʼni bir nechta yirik banklar va moliya institutlari uyushmasiga boʻysunadi. Ularning aksiyadorlari kuzatuv Kengashini saylaydilar va bu Kengash bank-xolding kompaniyalariga qarashli moliya institutlari ustidan nazorat olib boradi. Bank-xolding kompaniyasi Kengashining bir nechta aʼzolari bu kompaniyaga qarashli banklar Kengashlarining aʼzolari ham boʻlishi mumkin.

Yirik banklarning eng katta muammosi – boshqarish muammosidir: rahbariyat oʻzining banki faoliyati haqida toʻliq maʼlumotlarga ega boʻladi, lekin boʻlimlar faoliyatlari bilan yaxshi tanish boʻlmaydilar. Bank xizmatlari keng qamrovli boʻlganligi tufayli mavjud jiddiy muammolar haftalar, hatto oylar davomida sezilmasligi mumkin. Yirik banklarning mayda banklardan ustunligi shundaki, ular turli va koʻp sonli mijozlarga, bozorlarga xizmat qiladilar.

[11]. «**Xolding**» soʻzi (ingliz tilida “holding”) «egalik qilish» maʼnosini anglatadi. Xolding kompaniyalari turli moliyaviy subyektlarni birlashtirish maqsadida tuziladi. Ushbu subyektlarni boshqarish huquqini olish, shu subyektlar aksiyalarining nazorat paketini sotib olish orqali amalga oshiriladi.

Bank xoldingining ikki turi bor: **sof xolding** – faqat maxsus nazorat va boshqaruv maqsadlarida tuziladi; **aralash xolding** – nazorat va boshqaruv vazifalari bilan birga sanoat, savdo, transport, kredit-moliya va boshqa sohalarda tadbirkorlik faoliyati bilan ham shugʻullanadi.

[12]. Amaldagi qonunchilikka asosan, taʼsischilar yangi bank ochish uchun Markaziy bankdan dastlabki ruxsatnomani olganlaridan keyin taʼsis shartnomasini tasdiqlaydilar. Shundan soʻng, bir oy muddat ichida bank ochishga ruxsat soʻrab, Markaziy bankka quyidagi hujjatlar toʻplamini taqdim qiladilar:

□ muassislar tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlangan uch nusxadagi taʼsis shartnomasi (asli va ikki nusxasi). Muassislar imzosi va taʼsis shartnomasi notarius tomonidan tasdiqlangan boʻlishi lozim;

□ muassislar majlisida tasdiqlanib, ular tomonidan imzolangan bank Ustavi uch nusxada;

□ bankni tashkil etish to‘g‘risida, Ustav sarmoyasi hajmi haqida, bank Ustavini tasdiqlash haqida hamda bank Kengashi, taftish komissiyasi va bank Boshqaruvini saylash to‘g‘risidagi qaror qayd etilgan muassislar majlisi bayonnomasi. Bu hujjat nusxalari bank Kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Muassislar haqida quyidagi ma’lumotlar keltiradi:

□ muassislar ro‘yxati; ularning to‘liq nomi, manzili, telefon raqami, to‘lov rekvizitlari, ustav kapitaliga ulushi, shu jumladan, foiz hisobida.

Bankni tashkil qilishda ovoz berish huquqiga ega aksiyalarning 5 foiziga ega muassislardan quyidagi ma’lumotlar talab qilinadi:


□ **jismoniy shaxslar bo‘yicha:** mutaxassisligi va kasbi to‘g‘risida to‘liq axborot, shu jumladan, yashash joyi, telefon raqami, mazkur vaqt-gacha ishlagan yoki aksiyador bo‘lgan korxonalar va muassasalar nomi, so‘nggi ikki yil uchun soliq deklaratsiyasi (jismoniy shaxs – rezidentlar bundan mustasno), shaxsiy balans qaydnomasi;

□ **yuridik shaxslar bo‘yicha:** nomi, davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi hujjat, manzili, telefon raqami, to‘lov rekvizitlari, agar o‘z aksiyasiga ega bo‘lsa, ularning soni, shuningdek, foiz hisobida, soliq nazorati va auditor firmasi tomonidan tasdiqlangan so‘nggi ikki yillik balans hisoboti.

Yangi tashkil etilayotgan bank Kengashi a‘zolari, uning raisi va o‘rinbosarlarining ismi-shariflari, yashash joylari, egallaydigan lavozimlari Markaziy bank tomonidan qo‘yiladigan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi ma’lumotlar bitilgan ro‘yxat.

Bank ochish uchun amaldagi qonunchilikka binoan biznes-reja, moliyaviy reja tuzilgan, sarmoyaning tarkibi tahlil qilingan, tegishli bank binolari va uskunalari mavjud bo‘lishi lozim. Qabul qilingan qarorlar, qonun va bank faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlar hamda bank xizmatidan foydalanuvchi barcha subyektlar talablariga javob berishi lozim.

[13]. 1995-yilning iyul oyida davlatimiz rahbari Islom Karimovning tashabbusi bilan mamlakatimizning deyarli barcha banklarini birlashtirgan O‘zbekiston banklari Uyushmasi dunyoga keldi. Respublika hukumati tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bank tizimini rivojlantirishning Kompleks dasturi endigina dunyoga kelgan mazkur tashkilotning bosh hujjatiga aylandi.



**5-chizma.** Yirik banklarning tashkiliy tuzilishi.

Ushbu hujjatda O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi oldida turgan va yaqin yillarga mo‘ljallangan vazifalar, ya’ni:

- rivojlangan bank infratuzilmasini yaratish;
- qulay investitsiya muhitini shakllantirish;
- milliy bank tizimini jahon banklari hamjamiyatiga integratsiyalashtirish kabilar o‘z aksini topdi.

Respublika hukumatining ulkan g‘amxo‘rligi tufayli Kompleks dasturni amalga oshirishning ishonchli mexanizmi yaratildi.

Chunonchi, respublikadagi barcha banklar 2 yil muddatga soliqlardan ozod etildi, undan bo‘shagan mablag‘lar esa Uyushma orqali dasturni moliyalash va bevosita banklarning mustaqil oyoqqa turib olishi uchun sarflandi. MDH hududidagi bironta ham davlatda, O‘zbekistondagiday, bank tizimi rivoji uchun bu qadar qulay shart-sharoitlar yaratilgan emas.

Bugungi kunda O‘zbekiston banklari Uyushmasi o‘z bag‘rida 24 ta tijorat bankni birlashtirgan demokratik tuzilma bo‘lib, mavjud banklar manfaatlarining o‘zaro mutanosibligini va davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvorligini ta’minlash faoliyatining asosiy yo‘nalishidir.

O‘zbekiston banklari Uyushmasi o‘tgan davr mobaynida o‘z zimmasiga qo‘yilgan vazifalarni bajara borib, mamlakatimizda birinchi marta moliyaviy xizmatning to‘la majmuyini ko‘rsatishga qodir va xalqaro andozalarga mos keladigan quyidagi 12 ta kompaniyani tashkil etdi:

- «Omonat-moliya» sug‘urta jamg‘armasi (1998-yil)
- «Ishonch» sug‘urta kompaniyasi (1996-yil)
- «Baraka» lizing kompaniyasi (1996-yil)
- «Uzkeysagrolizing» qo‘shma korxonasi (1997-yil)
- «Uzkeysservis» qo‘shma korxonasi (1997-yil)
- «Invest-trast» kompaniyasi (1996-yil)
- «Axbor-reyting» reyting kompaniyasi (1996-yil)
- «Hamroh-loyiha-invest» injiniring – konsalting kompaniyasi (1996-yil)
- «Plastik-kart» innovatsiya kompaniyasi (1996-yil)
- «Moliya-huquq-xizmat» huquqiy xizmat markazi (1996-yil)

O‘z Ustav jamg‘armasining hajmiga ko‘ra, bu kompaniyalar Markaziy Osiyodagi eng yirik nodavlat tuzilmalari hisoblanadi.

O‘zbekiston banklari Uyushmasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

□ xo‘jaliklarning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish dinamikasini boshqarishga ko‘maklashish;

□ O‘zbekiston Respublikasi bank ishini rivojlantirishda, hokimiyat organlari va boshqarmalar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan iqtisodiyotni, pul muomalasini barqarorlashtirishga qaratilgan tadbirlarda va pul-kredit siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

□ bank tizimiga xizmat qiluvchi infratuzilmani rivojlantirish;

□ chet el va mamlakat tajribasini o‘rganish asosida iqtisodiy islohotlar sharoitida banklar ishini tashkil etishda yordam berish;

□ bank ishida xalqaro andozalarni joriy etish;

□ yirik dasturlarni bajarishda, banklar resursini ta‘minlashda banklarga ko‘maklashish;

□ bank mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish;

□ o‘zaro ishonchni, banklar obro‘cini, ularning rahbarlari va mutaxassislari bilan aloqasini, ishonchlilik va halollikni, o‘zaro va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni, amaliy sherikchilikni qo‘llab-quvvatlash;

□ banklarning xalqaro hamkorligini rag‘batlantirish, xalqaro moliya institutlari, chet el banklari, ularning ittifoqi va birlashmalari bilan amaliy aloqalarni rivojlantirish;

□ hokimiyat, qonunchilik va ijroiya organlarida, Markaziy bankda, huquqni muhofaza etish va moliya organlarida banklar tutgan yo‘lni ifodalash va banklar amaliy manfaatini himoya qilish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish uchun Uyushma:

□ qonunchilik va ijroiya organlari tomonidan bank tizimini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, ularning ishonchliligi va mustaqilligini mustahkamlovchi hujjatlar qabul qilinishi yuzasidan takliflar kiritadi, banklarni ularning kundalik faoliyatini ma‘muriyat va nazorat organlarining aralashuvidan saqlaydi;

□ o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi banklari bilan muvofiq-  
lashtiradi;

□ hokimiyat organlari va boshqarmalar bilan aloqa o‘rnatadi;

□ pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha banklar va boshqa kredit muassasalari faoliyati ustidan nazoratni takomillashtirishga, pul muomalasini barqarorlashtirishga qaratilgan, kredit bozori va banklarga nisbatan oqilona soliq siyosatini qo‘llash bo‘yicha takliflar kiritadi;

□ iqtisodiyot, bank ishi, kredit va qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish yo‘lida faoliyat ko‘rsatadi;

□ banklarni tezkor, ilmiy-uslubiy axborotlar bilan ta‘minlaydi;

□ turli konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar va ko‘rgazmalar tashkil etadi;

□ xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va ularning birlashmalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

□ tashqi iqtisodiy faoliyat olib boradi va boshqalar.

Tijorat banklari, qo‘shma, chet el, investitsion va boshqa bank muassasalari, shuningdek, bank tizimiga xizmat qiluvchi korxonalar, muassasa va tashkilotlar Uyushma a‘zolari bo‘lishlari mumkin.

Uyushmaning yuqori boshqaruv organi – qatnashchilar qurultoyi hisoblanadi. Qatnashchilar qurultoyi uch yilda bir marta chaqiriladi. Kengashga uch yil muddatga saylanadigan rais boshchilik qiladi.

Uyushma faoliyati qatnashchilar qurultoyi qarori yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan boshqa asoslar bo‘yicha to‘xtatiladi.

**[14].** Banklar o‘zining tarkibiy tuzilishi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi lavozimlar bo‘yicha xodimlarga ega bo‘lishlari mumkin:

□ kredit mutaxassisi;

□ kredit tahlili bo‘yicha mutaxassis;

□ kreditlarni to‘lash (uzish) rejasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis;

□ bankning operatsion faoliyatini boshqaruvchi;

□ bo‘lim boshlig‘i;

□ bank axborot texnologiyasi, ya‘ni kompyuterlar tahlili bo‘yicha mutaxassis;

□ audit va nazorat bo‘yicha mutaxassis;

□ moliyaviy tahlil mutaxassisi;

□ trust operatsiyalari mutaxassisi;

□ bankning xususiy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassislari;

□ xazinachilar;

□ qimmatli qog‘ozlar va ular savdosi tahlili bilan shug‘ullanuvchilar;

□ uzoq muddatli rejalashtirish bilan shug‘ullanuvchilar;

□ marketing bo‘yicha mutaxassis;

□ kadrlar boshqaruvchisi;

□ xalqaro moliya va biznes masalalari bo‘yicha mutaxassis;

□ xorijiy valuta savdosi bo‘yicha mutaxassis;

□ bank investitsiyalari bo‘yicha mutaxassis;

□ xavfsizlik bo‘yicha mutaxassis;



#### **1.4. Bank ishi va uning davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi**

[15]. Banklar moliya tizimida mablagʻlarni isteʼmolchilarning talabi, ehtiyoji va imkoniyatiga koʻra kreditlar berish bilan shugʻullanadilar, shuningdek, faoliyatlarini tartibga solib turuvchi «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʻrisida», «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunlar va boshqa koʻpgina meʼyoriy hujjatlarga boʻysunishlari lozim.

Yangi tashkil qilinayotgan har qanday bank Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsatnomasiz oʻz faoliyatini boshlay olmaydi.

Banklar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirib turish zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Banklar jamoatchilik mablagʻlarining eng ishonchli saqlanadigan joyidir. Lekin oʻz mablagʻlarini saqlash xohishiga ega boʻlganlarning koʻpchiligi bankning ishonchliligini baholashda va moliyaviy masalalarda yetarli maʼlumotga ega emaslar. Shu tufayli, banklar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organlar banklar moliyaviy holatini tahlil qilish uchun kerakli boʻlgan barcha maʼlumotlarni toʻplashga masʼuldirlar. Bu bilan ular omonatchilarni himoya qilib, ularning moddiy zarar koʻrishlarining oldini oladilar.

2. Davlat tomonidan vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan taftishlar natijasida bank mablagʻlarining noqonuniy sarf qilinishi, firibgarlik, qalloblik, birovning haqiga xiyonat qilish va suiisteʼmolliklarning oldini oladilar.

3. Omonatchilar qoʻyilmalarining asosiy qismi qisqa muddatli depozitlardan iborat boʻladi. Shu bilan birga, banklar yirik hajmdagi uzoq muddatli kredit berish va mablagʻlarni investitsiyalarga yoʻnal-tirish bilan ham shugʻullanadilar. Bu oʻz navbatida banklarni oʻz omonatchilari oldida juda ayanchli ahvolga solib qoʻyishi mumkin. Bu oʻrin-da banklar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, boshqarishni taʼminlash zaruriyati yuzaga keladi.

4. Banklar arzon narxdagi depozitlarni kreditlarga yoʻnaltirish bilan mamlakat iqtisodiyotiga juda katta taʼsir koʻrsatadilar, chunki jamgʻarilgan pul massalari iqtisodiyot bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, pul qadrsizlanishining oldini oladi yoki unga imkoniyat yaratib beradi. Shuning uchun nazorat organlarining muomaladagi pul hajmini nazorat qilishi oʻta muhimdir.

5. Banklar xususiy shaxslarning iste'mol va investitsiya ehtiyojlarini qondirish uchun mablag'larni kreditga beradilar. Banklarning bu faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solishning ahamiyati shundaki, xususiy shaxslar manfaatlari himoya qilinadi va ularning hayot tarzi yaxshilanishi uchun imkoniyat yaratiladi. Bizning mamlakatda kishilarning yoshi, jinsi, millatiga va irqiga qarab kredit berish yoki bermaslikni hal qilish qattiq taqiqlangan.

**[16].** Nima uchun banklarning faoliyati davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi? Buning sababi shundaki, banklar azaldan xalqning, avvalo, xususiy shaxslar va oilalarning mablag'lari saqlanadigan joydir. Davlat banklar ishini nazorat ostiga olib va tartibga solish orqali hamisha omonatchilar va kreditorlarni moliyaviy yo'qotishdan himoya qilishga va banklarning inqirozga yuz tutishi tufayli kelib chiqadigan oqibatlardan saqlashga harakat qiladi.

Bir bankning inqirozga uchrashi tufayli o'nlab va yuzlab korxonalar, ko'p minglab oddiy omonatchilar juda qiyin moliyaviy ahvolda qolishlari mumkin.

Bankning operatsiyalari va taklif qilinayotgan xizmat turlari, kreditlarning sifati va miqdori, bank sarmoyasining yetarliligi, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati doimo nazoratchilar tomonidan puxta tekshiriladi.

Banklar kreditlar berish yoki to'sqinliksiz sarf qilinadigan depozitlar hisobiga o'z investitsiya faoliyatlarini amalga oshirish yo'li bilan pul ishlash imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli ham qattiq nazorat ostida bo'ladilar. Hosil qilinayotgan pul miqdorining o'zgarishi iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni pul qadrsizlanishining kuchayganligi yoki ortganligi aniqlanadi.

Banklar ustidan kuchli nazorat borligining yana bir sababi shuki, ular xususiy shaxslar va firmalarga kreditlar beradilar va bu yo'l bilan iste'mol xarajatlarini va investitsiya talablarini qondiradilar.

**[17].** Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi banklar tizimi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, xususan, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarga amal qiladi.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qo-

nun 1995-yil 21-dekabrda, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun esa 1996-yil 25-aprelda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan.

«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonun 9 bobdan tashkil topgan bo‘lib, 60 ta moddadan iborat.

Bu qonunda Markaziy bankning huquqiy maqomi, bosh maqsadi va asosiy vazifalari, hisobdorligi, mustaqilligi, tashkiliy tuzilishi, hukumat organlari bilan munosabatlari, moliyaviy ahvoli, boshqaruvning vakolatlari, pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari, tijorat banklarini qayta moliyaviy ta‘minlash, valutani tartibga solish, bajaradigan operatsiyalar, majburiy zaxira talablari, banklarni nazorat qilish va ular faoliyatini tartibga solish vakolatlari, tijorat banklariga nisbatan qo‘llaydigan chora va sanksiyalar va banklar bilan o‘zaro munosabatlar belgilangan.

Markaziy bank me‘yoriy hujjatlar va yo‘riqnomalarni ishlab chiqish huquqidan to‘liq foydalangan holda, bu yo‘nalishda o‘z faoliyatini juda faollashtirmoqda. Markaziy bank tomonidan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimidagi banklar faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar to‘plami tayyorlangan bo‘lib, bu to‘plam Respublika banklarida bank hisobvaraqlarini ochish tartibi, banklarni ro‘yxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash, banklarning chet el valutilari bilan bajaradigan operatsiyalari, hisob-kitoblarni amalga oshirish, faktoring, moliyaviy lizing, konsalting operatsiyalarini amalga oshirish, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni bajarish tartiblari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun 6 bobdan va 44 moddadan tashkil topgan.

Bu qonunda bank faoliyatining subyektlari va ular faoliyatining huquqiy asosi, banklar operatsiyalari, banklarni tashkil qilish va tugatish, banklarning mustaqilligi, davlat va banklarning mas‘uliyatini chegaralab qo‘yilishi, ularning pul mablag‘larini zaxiralash va umumiy iqtisodiy me‘yorlarga rioya qilish sohasidagi burchlari, bankka aloqador shaxslar bilan tuziladigan bitimlardagi chegaralar, banklarning hisobot va boshqa axborotlarni taqdim etish majburiyatlari, banklarning o‘z mijozlari oldidagi javobgarligi, banklarda hisob-kitob va ularni nazorat qilish tartiblari belgilangan.

«Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra, banklar aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil qilinadi. Bank ustavida bankning (to‘la va qisqartirilgan) nomi va manzili, operatsiyalari ro‘yxati, boshqaruv organlari, ularni tashkil qilish tartibi, bank auditini o‘tkazish tartibi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

## 1.5. Tayanch iboralar

- |  |   |
|--|---|
| <input type="checkbox"/> bank                        | <input type="checkbox"/> I pog'onali bank tizimi  |
| <input type="checkbox"/> bank ishi predmeti          | <input type="checkbox"/> II pog'onali bank tizimi |
| <input type="checkbox"/> bankrot                     | <input type="checkbox"/> xolding                  |
| <input type="checkbox"/> Nobank kredit tashkilotlari | <input type="checkbox"/> bank-xolding             |
| <input type="checkbox"/> xalqaro banklar             | <input type="checkbox"/> sof xolding              |
| <input type="checkbox"/> tijorat banki               | <input type="checkbox"/> aralash xolding          |
| <input type="checkbox"/> xususiy bank                | <input type="checkbox"/> Charter                  |
| <input type="checkbox"/> mini bank                   | <input type="checkbox"/> Bank Assotsiatsiyasi     |
| <input type="checkbox"/> yirik bank                  |   |

## 1.6. Test topshiriqlari va masalalar

### 1. «Bank ishi» fani:

- mustaqil fan;*
- mustaqil predmetiga ega;*
- mustaqil metodiga ega;*
- noto'g'ri javob yo'q.*

### 2. «Bank ishi» fani:

- banklarni tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibini o'rganadi;*
- banklarning huquq va majburiyatlarini o'rganadi;*
- pul tizimi hamda pul muomalasini tashkil etish qoidalarini o'rganadi;*
- noto'g'ri javob yo'q.*

### 3. Banklar vakolatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- emissiya qiluvchi banklar;*
- yirik banklar;*
- tarmoqlar bo'yicha banklar;*
- davlat banklari.*

### 4. Banklar operatsiyalarni bajarish xarakteriga qarab:

- tijorat banklariga bo'linadi;*
- investitsion banklarga bo'linadi;*
- universal banklarga bo'linadi;*
- tarmoqlar bo'yicha banklarga bo'linadi.*

### 5. Mulk shakliga qarab banklar:

- regionlar bo'yicha xizmat qiluvchi banklarga bo'linadi;*

- b) aksioner (hissador) banklarga bo'linadi;*
- c) o'rta banklarga bo'linadi;*
- d) mahalliy banklarga bo'linadi.*

**6. Faoliyat miqyosiga qarab banklar:**

- a) xususiy banklarga bo'linadi;*
- b) davlat banklariga bo'linadi;*
- c) mayda banklarga bo'linadi;*
- d) tijorat banklariga bo'linadi.*

**7. Quyida qayd qilingan usullarning qaysi biri «Bank ishi» fa-  
nining tahlil usullaridan hisoblanadi:**

- a) tizimli yondashuv;*
- b) tarkibiy yondashuv;*
- c) modellashtirish usuli;*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**8. Xizmat qilish doirasiga qarab banklar:**

- a) xalqaro banklarga bo'linadi;*
- b) sho'basi bor banklarga bo'linadi;*
- c) aralash banklarga bo'linadi;*
- d) emissiya qiluvchi banklarga bo'linadi.*

**9. «Bank» so'zi italyancha «Banca» so'zidan olingan bo'lib:**

- a) «stol» degan ma'noni anglatadi;*
- b) «pulli stol» degan ma'noni anglatadi;*
- c) almashish shoxobchasi ma'nosini beradi;*
- d) b + c.*

**10. Bank – bu:**

- a) pul mablag'larini o'zida mujassamlashtiruvchi va jamg'aruvchi yirik muassasa;*
- b) kredit beruvchi yirik muassasa;*
- c) qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi muassasa-  
salar;*
- d) a + b.*

**11. Bank – bu:**

- a) yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qiluvchi yuridik shaxsdir;*
- b) qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit beruvchi yu-*

*ridik shaxsdir;*

- c) to'lovlarni amalga oshiruvchi shaxsdir;*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**12. Quyida qayd qilingan muassasalarning qaysi biri nobank kredit tashkilotlari deb ataladi:**

- a) ipoteka kompaniyalari;*
- b) kredit kartochkalari bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar;*
- c) faktoring kompaniyalar;*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**13. Dastlabki banklar jirobanklar nomi bilan XVI asrlarda (aniqrog'i 1587-yilda):**

- a) Angliyada tashkil topgan;*
- b) Florensiya va Venetsiyada vujudga kelgan;*
- c) Germaniyada tashkil etilgan;*
- d) Yaponiyada tashkil topgan.*

**14. Quyida qayd qilingan banklarning qaysi biri sobiq Ittifoq bank tizimiga kirgan?**

- a) Ittifoq davlat banki;*
- b) Ittifoq qurilish banki;*
- c) Ittifoq tashqi iqtisodiy aloqalar banki;*
- d) a + b + c.*

**15. O'zbekistonda bank tizimi:**

- a) uch pog'onalidir;*
- b) bir pog'onalidir;*
- c) ikki pog'onalidir;*
- d) to'rt pog'onalidir (Respublika, viloyat, tuman, korxon).*

**16. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» gi Qonun:**

- a) 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan;*
- b) 1994-yil 21-dekabrda qabul qilingan;*
- c) 1993-yil 21-dekabrda qabul qilingan;*
- d) 1992-yil 21-dekabrda qabul qilingan.*

**17. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun:**

- a) 1995-yil 25-aprelda qabul qilingan;*
- b) 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan;*

- c) 1994-yil 25-aprelda qabul qilingan;
- d) 1993-yil 25-aprelda qabul qilingan.

**18. O‘zbekiston banklari Assotsiatsiyasi:**

- a) 1992-yil iyulda tashkil etildi;
- b) 1993-yil iyulda tashkil etildi;
- c) 1994-yil iyulda tashkil etildi;
- d) 1995-yil iyulda tashkil etildi.

**1.7. Nazorat uchun savollar**

1. «Bank ishi» fani nimani o‘rganadi?
2. «Bank ishi» fani qanday usullardan foydalanadi?
3. Bank deganda nimani tushunasiz? Nobank kredit tashkilotlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Banklarning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. O‘zbekiston Respublikasida bank tizimi qanday tashkil etilgan?
6. Bankning hozirgi zamon iqtisodiyotidagi roli qanday?
7. Bank qanday xizmatlar ko‘rsatadi?
8. Nima uchun banklar pul ishlaydi, qarz olish bilan birga qarz ham beradi?
9. So‘nggi yillarda bank ishida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda? Bank boshqaruvchilari o‘zlarini qanday tutishlari lozim?
10. Yangi bank ochish uchun nimalar talab qilinadi? Charter nima?
11. Mayda va yirik bank deganda nimani tushunasiz? Ular tarkiban bir-biridan nima bilan farq qiladi?
12. «Bank xolding» kompaniyasi deganda nimani tushunasiz?
13. O‘zbekiston banklari Assotsiatsiyasi qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?
14. Bankda qanday lavozimlar bor va ularga qanday erishish mumkin?
15. Bank faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirib turish zaruriyati nimada?
16. Bank faoliyatidagi qaysi jihatlar yoki vazifalar davlat nazorati ostida turadi?
17. Bank faoliyati to‘g‘risida O‘zbekistonning qaysi qonunlarini bilasiz?

## 2-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

### 2.1. Markaziy bank – yuridik shaxs

[18].

#### Markaziy bankning asosiy vazifalari

- Monetar siyosatni hamda valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish.
- O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta’minlash.
- Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, ularga kredit berish.
- O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valuta rezervlarini, shu jumladan, kelishuv bo‘yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish.
- Davlat budjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etish.
- Rasmiy oltin-valuta zaxiralarini saqlash, pul emissiyasini amalga oshirish.
- Bank faoliyati bilan shug‘ullanishga litsenziya (ruxsatnoma) berish. Hukumatning moliyaviy agenti vazifasini bajarish.
- Hisobga olish, hisobot berish, hisob-kitob, ssuda va valuta operatsiyalarini amalga oshirishning yagona qoidalari va me’yorlarini belgilash
- Tashqi iqtisodiy faoliyat operatsiyalarini amalga oshirishi va h.k.

Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimi sifatida o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalarni tashkil etadi. U Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti, viloyatlarning markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan bosh boshqarmalarni tuzadi. Markaziy bankka qarashli xizmatlar va muassasalar Markaziy bank boshqaruvi tasdiqlaydigan nizomlar asosida faoliyat ko‘rsatadi. Markaziy bank yuridik shaxs sifatida davlat mulkiga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida xarajatlarni o‘z daromadlari hisobidan qoplaydi. Markaziy bankning molmulki uning pul va boshqa boyliklaridan iborat bo‘lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.

Markaziy bank iqtisodiyotni boshqarish va bank tizimini nazorat qilishda muhim o‘rin tutgani sababli uning faoliyati butun dunyo amaliyotida qo‘llaniladigan Ustav va mazkur mamlakatda bank sohasida amal qilayotgan qonun bilan tartibga solinadi. O‘zbekistonda amal



qilayotgan bunday qonun 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonundir.<sup>1</sup>

Markaziy bank o‘z faoliyati jarayonida boshqa banklarga o‘xshab foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan. Shuning uchun ham, u moliya bozorlarida tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari bilan raqobat kurashini olib bormaydi. Uning bosh maqsadi mamlakat pul birligining barqarorligini ta‘minlashdir. Asosiy maqsadi – xo‘jaliklarni uzluksiz to‘lov vositalari bilan ta‘minlash (ya‘ni ularning to‘lov qobiliyatlarini yetarli darajada bo‘lishiga yordam berish), hisob-kitoblar tizimini tartibga solish, boshqa banklar faoliyatini nazorat qilishdir. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun Markaziy bank quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

- tijorat banklari zaxiralarini saqlaydi;
- banklarga mavsumiy moliyaviy uzilishlarni qoplashga va boshqa qisqa muddatli ehtiyojlariga kredit beradi;
- mamlakat miqyosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qiladi;
- boshqa banklar faoliyatini o‘rganadi, tahlil qiladi va nazorat qiladi.

Hozirgi kunda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida tijorat banklari o‘zlari jalb qilayotgan resurslarning Markaziy bank tomonidan belgilangan bir qismini Markaziy bankda saqlaydilar. Bu zaxiralar miqdori-ning yuqori va past chegaralarini Markaziy bank belgilaydi.

Markaziy bank tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari uchun eng yuqori pog‘onadagi kredit beruvchi organ hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi», – deyilgan. Shu sababli u banklarning banki deb ataladi.

[19]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risidagi qonunning 6-moddasida Markaziy bank va Davlatning munosabatlari haqida shunday yozilgan:

«Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasidagi qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir. Davlat Markaziy bankining majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, basharti, bular o‘z zimmalariga bunday majburiyatlarni olmagan bo‘lmasalar yoki qonunlarda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa».

Markaziy bank mustaqil yuridik shaxs sifatida quyidagi vakolatlarga

---

<sup>1</sup> “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni // «Xalq so‘zi», 1996 yil 13-yanvar.

ega.

Uning birinchi va eng asosiy vakolati – bu davlat bank tizimining markazi bo‘lish huquqiga egaligidir. Bu vakolat doirasida u bank tizimi sohasida Nizom, qoida, tartiblarni ishlab chiqish, ya’ni banklar va banklarga qarashli bo‘lmagan tashkilotlar uchun bajarilishi shart bo‘lgan bank operatsiyalarini amalga oshirish, banklarda hisob-kitob yuritish, buxgalterlik va statistik hisobotlar tuzish va taqdim etish qoidalarini ishlab chiqish huquqiga ega.

Markaziy bank vakolatining asosiy yo‘nalishi uning pul-kredit sohasida davlat nazoratini amalga oshirishini tashkil etishdir. U o‘z nazoratidagi subyektlarning operativ xo‘jalik faoliyatiga aralashmagan holda bank faoliyatining qonuniyligini nazorat qiladi.

Markaziy bank davlat boshqaruvi organi sifatida davlat pul-kredit siyosatini amalga oshirish bo‘yicha faoliyat yuritadi.

Qayd qilingan vakolatlar doirasida Markaziy bank mustaqil qarorlar qabul qiladi va u O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi.

Markaziy bank hukumat bilan munosabatlarga kirishadi hamda jahon amaliyotiga muvofiq uning bankiri, fiskal (xazina) agenti (vakili) hamda o‘z vakolatlariga kiruvchi hamma muammolar yuzasidan maslahatchisi vazifalarini bajaradi, shuningdek, iqtisodiy hamda moliyaviy masalalar yuzasidan davlat budjetini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan ma’lumotni hukumatga taqdim etadi. Markaziy bankka bunday vakolatlarni berilishi ikki bosqichli bank tizimining unumli ish yuritishini ta’minlash imkonini beradi.

[20]. Markaziy bank kredit tizimida etakchilik va boshqaruvchi, ya’ni bank tizimini tartibga solib turuvchi vazifasini bajaradi. Markaziy bank to‘g‘risidagi qonunning 3-moddasida ta’kidlanganidek, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta’minlashdan iborat. Mazkur maqsad bank oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

Markaziy bank mamlakatda muomalaga pul belgilarini chiqarish borasida monopol huquqqa ega bo‘lgan organdir va bu huquq banklar faoliyati to‘g‘risidagi qonunda belgilab qo‘yilgan. Markaziy bank boshqa barcha banklar va kredit muassasalari uchun turli qoidalar va yo‘riqnomalar ishlab chiqadi hamda ularning to‘laligicha bajarilishini nazorat qiladi.

Markaziy bank hukumatning bosh bankiri va moliyaviy maslahatchisi hisoblanib, davlatlararo turli kelishuvlarda barcha moliyaviy

hamda umumiy iqtisodiy masalalarni hal qilishda ishtirok etadi.

[21]. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasida ta’kidlanganidek, quyidagi faoliyat turlari Markaziy bank uchun taqiqlanadi:

– moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanish;

– tijorat bilan shug‘ullanish;

– O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining, shuningdek, Markaziy bank faoliyatini yuritishni ta’minlovchi korxonalar va tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etishini istisno etganda, banklar va boshqa yuridik shaxslar kapitalida qatnashishga haqli emas.

Bulardan tashqari, Markaziy bank tijorat banklari bilan raqobat qilmasligi uchun uning funksiyalari biroz cheklangan bo‘ladi, ya’ni Markaziy bank faqat banklarga va davlatga xizmat qiladi.

[22]. Markaziy bank xorijiy banklar bilan hamkorlik qiladi. Uning boshqa davlatlar banklari va kredit muassasalari bilan o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, banklararo bitimlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida Markaziy bank quyidagilarga (9-modda), ya’ni:

- boshqa davlatlarning markaziy banklari, xalqaro banklar va o‘zga moliya-kredit muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilishga;
- moliyaviy operatsiyalarni bajarishga, shu jumladan chet el hukumatlari, chet el markaziy banklari va pul-kreditni tartibga solish organlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlarga bank xizmati ko‘rsatishga;
- xorijiy davlatlarda vakolatxonalar ochishga;
- O‘zbekiston Respublikasida chet el banklarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilishga haqlidir.

Markaziy bank mamlakatning iqtisodiy, valuta va boshqa turli manfaatlarini ta’minlashga ko‘maklashgan holda:

–davlatlararo savdo, to‘lov bitimlarining shartlarini ishlab chiqishda qatnashadi;

– xorijiy valutada aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar (devizlar) sotib oladi, xorijiy valutadagi foyda hisobidan valuta fondlarini tashkil qiladi;

– boshqa turli tijorat banklarining tashqi iqtisodiy faoliyatini muvofiq-lashtiradi;

– milliy pul birligi «soʻm»ning xorijiy valutilarga nisbatan kursini belgilaydi, tartibga soladi, mustahkamlaydi va bu borada turli tadbirlar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi.

## **2.2. Markaziy bankni boshqarish**

[23]. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida hisobot beradi va oʻz vakolatlari doirasida qarorlarni mustaqil qabul qiladi. Markaziy bankning oliy organi uning Boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yoʻnalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi. Boshqaruv tarkibi oʻn bir kishidan iborat boʻlib unga Markaziy bank Raisi, uning oʻrinbosarlari, shuningdek, bankning asosiy boʻlimlari rahbarlari kiradi. Markaziy bank Raisi Boshqaruvning Raisi hisoblanadi. Boshqaruv aʼzolarini Markaziy bank Raisining taqdimnomasiga koʻra Oliy Majlisning Kengashi tasdiqlaydi.

Markaziy bank Raisi:

– Markaziy bank va uning Boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun javobgar boʻladi;

– Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi;

– boshqaruv qarorlarini imzolaydi, buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

– Markaziy bank faoliyati va joriy operatsiyalarini operativ tarzda boshqarish boʻyicha harakatlarni amalga oshiradi;

– Oliy Majlisda, hukumatda, vazirliklar va idoralarda, sudlarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida bank faoliyatiga doir barcha masalalar boʻyicha Markaziy bank nomidan ish koʻradi;

– ayrim masalalarni hal qilishni oʻzining oʻrinbosarlariga, markaziy apparat tarkibiy boʻlinmalarining rahbarlariga, hududiy muassasalarning rahbarlariga topshiradi.

Markaziy bank Raisining vakolat muddati besh yil.

[24]. Boshqaruv quyidagi vakolatlarga ega:

Monetar siyosatning asosiy yoʻnalishlarini, shu jumladan, Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari koʻlami, Markaziy bankning hisob va ssuda berishdagi foiz stavkalari hamda banklarning Markaziy bankdagi majburiy rezervlari normasini belgilaydi.

Markaziy bankning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki masalasini hal qiladi.

Banknotlar va tangalarning nominal qiymati va namunalarini, shuningdek, pul belgilarini muomalaga chiqarish shartlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beriladigan ssudalar miqdori va shartlarini tasdiqlaydi.

Banklar uchun iqtisodiy normativlarni tasdiqlaydi va ularga rioya etilishini kuzatib boradi.

Bank faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalar berish va ularni qaytarib olish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi.

Markaziy bank xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi.

Markaziy bankning yillik va moliya hisobotlarini ko‘rib chiqadi.

Markaziy bankning tarkibiy bo‘linmalari, muassasalari va korxonalari rahbarlarini tasdiqlaydi.

Markaziy bank tarkibiy bo‘linmalari, uning muassasalari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari hamda ma‘ruzalarini tinglaydi.

Markaziy bank xodimlarini yollash, ishdan bo‘shatish, ularning mehnatiga haq to‘lash shartlarini, shuningdek, ularning kreditlar olish va aksiyalar sotib olish tartibini qonun hujjatlariga muvofiq belgilaydi.

Bulardan tashqari, Boshqaruv Markaziy bank vakolati doirasidagi boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi va hal qiladi.

Boshqaruv o‘z majlislarini oyiga kamida bir marta o‘tkazib turadi. Majlisni Markaziy bank Raisi chaqiradi. Majlislar, shuningdek, Boshqaruvning kamida uchta a‘zosining talabnomasi bo‘yicha chaqirilishi mumkin. Boshqaruv majlislariga Markaziy bank raisi, u bo‘lmagan paytlarda esa o‘rinbosarlardan biri raislik qiladi.

Boshqaruv a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan Boshqaruv majlisi haqiqiy hisoblanadi. Boshqaruv qarorlari qatnashayotgan a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng kelgan taqdirda Markaziy bank raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Boshqaruv majlislari, odatda, yopiq tarzda o‘tadi. Boshqaruvning to‘xtami esa qaror shaklida qabul qilinadi.

[25]. Markaziy bank Raisining egallab turgan lavozimidan ozod etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- vakolat muddati tugaganida;
- iste‘foga chiqishni so‘rab, sabablarini ko‘rsatgan holda yozgan shaxsiy arizasiga ko‘ra;
- jinoyat sodir qilishda qonunda belgilangan tartibda aybdor deb

topilganda;

– o‘zining xizmat vazifalarini salomatligiga ko‘ra bajara olmaganda, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida;

– egallab turgan lavozimiga munosib bo‘lmagan xatti-harakatlar qilganida, shu jumladan, «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunni qo‘pol ravishda buzganida va Markaziy bank manfaatlariga katta zarar yetkazganida.

Bulardan tashqari, Markaziy bank Raisi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra ham egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Raisning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari esa Markaziy bank Raisining taqdimiga ko‘ra Oliy Majlis Kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qo‘mita yoki uning topshirig‘iga asosan auditor tashkilotlar tomonidan tekshirilishi mumkin.

[26]. Markaziy bank bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta‘minlash maqsadida banklar faoliyatini nazorat qiladi, tartibga soladi va banklar o‘rtasida haqiqiy raqobat tamoyillariga amal qilinishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklarning haqiqiy moliyaviy mustahkamligini ta‘minlash, ularning mijozlari manfaatlarini himoya qilish maqsadida Markaziy bank:

– kapitalning monandlik koeffitsiyentini;

– bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga riskning eng ko‘p miqdorini;

– yirik kredit riski va investitsiyalarning eng ko‘p miqdorini;

– likvidlik koeffitsiyentlarini;

– aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, shuningdek, bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va harakatsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;

– qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqish va ularni bank daromadlari hisobvarag‘iga kiritishga doir talablarni;

– ochiq valuta mavqeyi limitlari kabi me‘yoriy-iqtisodiy normativlarni belgilaydi va ularga asoslanib, banklar faoliyatini tartibga soladi.

Markaziy bank iqtisodiy normativlarning o‘zgarishi to‘g‘risida kamida bir oy oldin e‘lon qiladi.

[27]. Markaziy bank bank operatsiyalarini amalga oshirish, bux-

galteriya hisobi va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlar tuzish yuzasidan banklar uchun majburiy bo‘lgan qoidalarni belgilaydi.

Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha quyidagi vakolatlarga ega:

- banklarning hisoboti va boshqa hujjatlarini olish hamda tekshirish, ularning faoliyati, shu jumladan, operatsiyalari to‘g‘risida axborot so‘rash va olish;

- olingan axborot yuzasidan izoh talab qilish;

- banklar, ularning filiallari va bank bilan uzviy bog‘langan yuridik shaxslarning faoliyatini tekshirish va tartibbuzarlarga nisbatan sanksiyalar qo‘llash;

- banklarning ichki auditi bo‘yicha qo‘yiladigan talablarni belgilash;

- bank aktivlarini ularning sifatiga qarab tasnif qilish va aktivlar bo‘yicha kutilishi mumkin bo‘lgan zararlar o‘rnini qoplash uchun shunga monand rezervlar yaratishni talab qilish;

- ishonchsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va tartibini aniqlash;

- banklarga ularning faoliyatida aniqlangan tartib buzilishlarni bartaraf qilish to‘g‘risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar yuborish;

- bank aksiyadorlari bank aksiyalarining 20 foizidan ortig‘ini sotib olgan taqdirda ularning moliyaviy ahvoli va mavqeyi to‘g‘risida axborot so‘rash va olish;

- banklar va ularning filiallari rahbarlari hamda bosh buxgalterlariga nisbatan malaka talablarini qo‘yish.

Tekshirishlar Markaziy bankning vakolatli vakillari va Markaziy bank belgilaydigan auditorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bir yoki o‘zaro shartnomalar bilan bog‘langan bir necha shaxslar, shuningdek, sho‘ba yoki bir-biriga qaram bo‘lgan yuridik shaxslar guruhi bank aksiyalarining 20 foizidan ortig‘ini sotib olishi uchun oldindan Markaziy bankning roziligini olishi talab qilinadi.

Aksiya sotib oluvchilarning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi aniqlangan taqdirda Markaziy bank bank aksiyalarining 20 foizidan ortig‘i xarid qilinishi va sotilishiga rozilik bermaslik huquqiga ega. Markaziy bank iltimosnoma olingan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmay, ariza beruvchiga o‘z qarori to‘g‘risida yozma ravishda xabar beradi.

Markaziy bank auditorlardan Markaziy bankning normativ hujjatlariga, shu jumladan, tartib va uslubiyatlariga rioya etishlarini talab

qilishga, shuningdek, ulardan bank auditi bilan bog‘liq har qanday ma‘lumotlarni bevosita olishga haqli.

[28]. Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda Markaziy bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undirish yoxud ayrim operatsiyalarni o‘tkazishni 6 oygacha bo‘lgan muddatga cheklab qo‘yish huquqiga ega.

Agar yo‘l qo‘yilgan tartibbuzarliklar yoki bank o‘tkazayotgan operatsiyalar omonatchilar va kreditorlarning manfaatlariga aniq xavf tug‘dirsa, u holda Markaziy bank quyidagilarga haqlidir:

- banklardan ustav kapitali eng kam miqdorining bir foizidan oshmagan sum-mada jarima undirish;
- bankdan bankni moliyaviy sog‘lomlashtirish, shu jumladan, aktivlar tuzilmasini o‘zgartirish, bank xarajatlarini kamaytirish va aksiyadorlarga dividendlar to‘lashni to‘xtatish tadbirlarini ko‘rishni, bank yoki uning filiali rahbarlarini almashtirishni, bankni qayta tashkil etishni, filialni tugatishni talab qilish:
- bank uchun iqtisodiy normativlarni 6 oylik muddatgacha o‘zgartirish;
- bankning ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishini bir yilgacha bo‘lgan muddatga, shuningdek, filiallar ochishni g‘am shuncha muddatga taqiqlab qo‘yishga;
- bankni moliyaviy sog‘lomlashtirish yoki Markaziy bank ko‘rsatmalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan davrda mansabdor shaxslar aksiyadorlar ega bo‘lgan barcha vakolatlarni vasiyga berib, bankka vasiylik qilish tartibini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani qaytarib olish.

Bank filiallari to‘lovlarni o‘z vaqtida o‘tkazmagan va ularning vakillik hisobvaraqlari qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan hollarda, Markaziy bank bank filialidan ushbu harakat natijasida olingan daromadni qat’iy tartibda undirib oladi, shuningdek, shunday miqdorda jarima soladi.

### **2.3. Markaziy bankning pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish vositalari**

[29]. «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning IV qismida quyidagi moddalar Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari sifatida qayd etilgan:

23-modda. Monetar siyosatning asosiy yo‘nalishlari.

24-modda. Pul massasi o‘zgarishining aniq maqsadli mo‘ljallari.

25-modda. Ochiq bozordagi operatsiyalar.



26-modda. Markaziy bankning hisob operatsiyalari.

27-modda. Hisob va kredit operatsiyalarining foiz stavkalari.

28-modda. Majburiy rezerv talablari.

29-modda. Majburiy rezerv talablari normasini bajarmaganlik uchun sanksiyalar.

30-modda. Markaziy bankning banklarni qayta moliyaviy ta'minlashi.

31-modda. Markaziy bankning mijozlarga xizmat ko'rsatishi.

Markaziy bank kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishida kamida o'ttiz kun oldin Oliy Majlisga bu haqida axborot beradi.

**[30].** Monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi asosiy yo'nalishlar doirasidagi operatsiyalarni bajaradi. Bu operatsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- iqtisodiy kon'yunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlari;
- muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralari;
- pul massasi yillik o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan, Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishi;
- valuta hamda foiz siyosatining asosiy yo'nalishlari;
- pul-kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko'rsatkichlari.

Monetar siyosat davlatning pul muomalasini tartibga solishdagi g'oyat muhim usullaridan biri bo'lib, u pirovardida jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga qaratilgan. O'z navbatida, makroiqtisodiy barqarorlik keng qamrovli tushuncha sifatida, quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi:

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar**



- narxlar umumiy darajasi va uning o'sish yoki kamayish sur'atlari;
- xalq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sish yoki kamayish sur'atlari;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan to'liq bandlik darajasi;
- to'lov balansining holati, milliy valutaning barqarorligi, uning qadri darajasi.

Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bunday ko‘rsatkichlar makroiqtisodiyotni tartibga solishning **sehrli kvadrati** deb yuritiladi.

[31]. Bank tizimining taraqqiy etishini va o‘z vazifasini ishonchli darajada barqaror bajarishining asosi – bu iqtisodiyotni pul-kredit vositasida tartibga solishning moslanuvchan mexanizmini shakllantirishdir. Bu mexanizm Markaziy bankka:

- xo‘jalik faolligiga samarali ta‘sir ko‘rsatish;
- muassasalar faoliyatini nazorat qilish;
- pul muomalasi barqarorligiga erishish;
- naqd va naqd pul bo‘lmagan jami pul massasining o‘zgarishini nazorat qilish;
- o‘z faoliyatining maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlarini tanlash;
- pul-kredit siyosatining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish;
- qo‘yilgan masalalarga erishishning muayyan usullari, dastaklari hamda vositalarini tanlash imkonini beradi.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirish jarayonida kreditlar va pul massasi miqdorlarining zarur darajada kengayishini ta‘minlashga harakat qiladi. Bu esa ichki narxlar barqarorligiga rioya qilgan holda o‘z borayotgan iqtisodiyotning uzoq muddatli ehtiyojlariga mosdir. Birmuncha qisqa muddatlar uchun pul-kredit siyosati, odatda, nomatlub inflatsiya va deflatsiya jarayonlariga qarshi turish maqsadida amalga oshirilishi kerak.


Pul-kreditni tartibga solishdan asosiy maqsad narxlar barqarorligini ta‘minlash, ortiqcha xarajatlarning oldini olish, iqtisodiy o‘zlashga yordam beruvchi sharoitlarni yaratish, nomatlub inflatsiya va deflatsiya jarayonlariga qarshi tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

Ma‘lumki, pul massasining haddan tashqari ko‘payishi mamlakatda ishlab chiqarilgan yoki chetdan keltirilgan tovarlarga qilinadigan xarajatlarning yuqori sur‘atlar bilan o‘zlashiga, yoxud narx-navoning ko‘tarilishiga olib keladi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning cheklangan miqdorda taklif qilinishi tufayli pul mablag‘larining talaygina qismini chetda ishlab chiqarilgan tovarlarga yo‘naltirilishi oqibatida to‘lov balansida tang holat yuz beradi.

[32]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bank pul-kredit siyosatini ro‘yobga chiqarishda quyidagi usullardan foydalanadi (6-chizma).

**Ma‘muriy usullarga** Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatiga, uning miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga nisbatan belgilaydigan

bevosita cheklovlar (limitlar) yoki taqiqlar kiradi. Ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashda ko'pincha quyidagi vositalardan foydalaniladi:



**6-chizma.** Markaziy bankning pul-kredit siyosatini ro'yobga chiqarish usullari.

- turli toifadagi qarzlarni berishning va kredit resurslarini jalb qilishning eng yuqori miqdor (yoki limit)larini joriy etish;
- tijorat banklarining filiallari va bo'limlarining ochilishini cheklash;
- vositachilik haqining, har xil xizmatlar ko'rsatganlik uchun tariflarining, foiz stavkalarining miqdorlarini limitlash;
- operatsiyalarning, ta'minotning ayrim turlarini, shuningdek, ba'zi xil operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat berilgan banklar ro'yxatini belgilash.

Bu usullar yordamida bankdan tashqari sohada vujudga kelayotgan moliyaviy sharoitlar, ya'ni foiz stavkalari va kreditlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat amalga oshiriladi.

**Iqtisodiy usullarga** asosan bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tadbirlar kiradi. Bu usullar ko'proq, bozor iqtisodiyotiga xos bo'lib, bunda o'z-o'zini boshqarish jarayonlarining rivojlanishi ikkilamchi darajaga mansub har bir kredit muassasasi tomonidan mikro darajada mustaqil pul-kredit siyosati amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu siyosatning natijalari va samaradorligi mazkur kredit muassasasining bank tizimidagi ahamiyatini belgilab beradi va raqobatni rag'batlantiradi.

Bu usullar banklar va bankdan tashqari muassasalarning harakatlari faqat bozor kuchlari yordamida ta'sir ko'rsatish yo'li bilan amal qiladi. Ana shu maqsadda Markaziy bank o'zining vakolatlaridan muomaladagi pul massasi hajmini belgilash uchun foydalanadi va iqtisodiyotga pul bozoridagi foiz stavkalarining o'zgarishiga qarab ish tutish imkonini beradi.

Ma'muriy va iqtisodiy usullarga quyidagicha ta'riflar berish mumkin:

– ma'muriy usullar direktiv boshqaruvchi va me'yoriy qoidalar shaklini oladi, iqtisodiy usullar esa bozor mexanizmi orqali bilvosita amal qiladi:

– ma'muriy usullar tijorat banklar balansining o'zgarishlariga bevosita sabab bo'ladi, iqtisodiy usullarning ta'siri esa Markaziy bank balansida bilvosita aks etadi;

– ma'muriy usullar tijorat banklari beradigan kreditlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiy usullar esa banklarning kredit imkoniyatlarini kamaytirib yoki ko'paytirib, ularning likvidligiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, Markaziy bank pul muomalasiga ikki yo'l bilan, ya'ni kreditlar hajmlarining va ular bo'yicha foiz stavkalarining miqdorlarini (yoki o'zgarishlar yo'lagini) bevosita belgilash yoki pul bozoridagi talab bilan taklif shartlarini tartibga solish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

[33]. Foiz stavkalari ustidan nazorat turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Binobarin, foiz miqdorini ma'muriy tartibda bevosita belgilabgina qolmay, balki banklar uchun qayta moliyalashning tartibga solinadigan **stavkalari** va qat'iy belgilangan **marjalarini** joriy etish yo'li bilan ham nazorat qilinadi.

Moliyaviy munosabatlar sohasida tijorat banklari bilan ularning bankdan tashqaridagi mijozlari o'rtasidagi depozit va jamg'arma omonatlari bo'yicha foiz stavkalari mustaqil belgilanadi va Markaziy bank tomonidan faqat me'yoriy qoidalar yordamida bevosita nazorat qilinadi.

Markaziy bank o'zining hisob va kredit operatsiyalari bo'yicha stavkalarni mustaqil ravishda belgilaydi. (27-modda)

Pul bozoridagi foiz stavkalari pul muomalasi tezligiga va pul-kredit siyosatining samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, muomaladagi pul massasining ko'payishi pulni arzonlashtiradi yoki foiz stavkalarini kamaytiradi. Ammo foiz stavkalarining pasayishi amalda depozit va kredit bozorlarida ko'pincha bir xil bo'lmaydi, ya'ni:

– banklar depozit stavkalari pasayganda kredit foiz stavkalarini pasaytirmasliklari mumkin, bunda muomala tezligi uncha o'zgarmasligi yoki umuman o'zgarmasligi mumkin. Bu hol ko'zlangan maqsadlarni barqaror qilib qo'yadi.

– foiz stavkalari bir tekis pasayib borganida depozit va kredit foiz stavkalarining pul mablag'lari muomalasi tezligiga ta'siri bir-birini yo'qqa

chiqarib yuboradi va pul-kredit siyosatining amal qilishi tobora samarador bo‘ladi.

Pul taklif qilish maqsadlari bilan foiz stavkalari o‘rtasidagi nomuvofiqlik **maqsadlar dilemmasini** keltirib chiqaradi. Bu dilemma rahbar pul taklif qilishni hamda foiz stavkalarini bir vaqtning o‘zida barqarorlashtira olmaganida ham kelib chiqadi.

Qarama-qarshi **maqsadlar kolliziyasi** natijasida ancha pragmatik, maqsadli o‘rtacha pozitsiyani ishlab chiqish mumkin bo‘ladiki, bunda foiz stavkalariga ham, shuningdek, pul taklif qilishga ham ma‘lum darajada e‘tibor beriladi. Biroq ularning birortasi ham ochiqdan-ochiq afzal ko‘rilmaydi.

Moliya bozorlari yetarli rivojlanmagan bir sharoitda pul-kredit siyosati vositalari bilan foiz stavkalari o‘rtasida bog‘lanish kuchsizligi ayniqsa aniq kuzatiladi. Masalan, 1990-1995-yillarda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida pul-kredit siyosati pul bozorlarida foizlar hosil bo‘lishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgani yo‘q. Tijorat banklarini qayta moliyalashda markazlashtirilgan va banklararo kreditlarning ustunlik qilishi, zaxira talab qilishdagi yuqori me‘yorlar pul bozorlarida foiz belgilash shakllantirilishiga to‘sqinlik qildi.

Moliya bozori rivojlanmaganligi natijasida turli foiz stavkalari o‘rtasida o‘zaro kuchsiz bog‘lanish mavjud bo‘lib turdi. Bu hol Markaziy bankning foiz siyosatiga to‘sqinlik qilgan va uni tijorat banklari krediti bo‘yicha foizlar belgilash ustidan **nazorat qilishning** bevosita choralari qo‘llashga majbur qilgan edi.

Davlatning xalqaro siyosati ham foiz stavkalariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Foiz stavkalarini **oshirish** mamlakatga chet el moliyaviy investitsiyalarni ko‘paytiradi, ichki milliy valutaga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Milliy valuta qiymatining oshishi uning chet el valutariga nisbatan kursi oshishiga, sof eksportning pasayishiga olib keladi.

Foiz stavkasining pasayishi xorijdan moliyaviy kapital kirib kelishini kamaytiradi. Binobarin, milliy valuta kursi pasayadi, sof eksport esa oshib boradi. Shu sababli, mamlakatda foiz stavkasining o‘zgarishi tufayli kelib chiqqan kapital oqimlari mamlakat ichida pul-kredit siyosatini kuchaytiradi.

[34]. Kreditning eng yuqori miqdoriy chegarasini belgilash usuli yordamida pul-kredit siyosatini o‘tkazish, odatda, iqtisodiyot tuzilmasini qayta qurish davrida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Bunday kredit resurslari birinchi navbatda ustuvor tarmoqlarga ajratiladi. Boshqa tarmoqlar

uchun cheklangan kreditlash tartibi joriy etiladi. Kreditning eng ko‘p miqdorlarini belgilash quyidagi hollarda amalga oshiriladi.

**Birinchidan**, iqtisodiyotning faqat ustuvor sohalariga ko‘p miqdorda kredit ajratish. Bunday kreditlash tanlab amalga oshirilgan kreditlash deb yuritiladi. Bu kredit qarzlarning muayyan turlari (masalan, iste‘mol va ipoteka qarzlari) uchun yuqori darajani belgilashga asoslangan **ijobiy nazoratga** va iqtisodiyotning bir qator ustuvor sohalari (masalan, qishloq xo‘jaligi uchun) qarzlarning quyi miqdorlarini belgilashni o‘z ichiga oladigan **salbiy nazoratga** bo‘linadi.

Tanlab amalga oshiriladigan **ijobiy nazorat** bankning ehtiyotkorligi (iqtisodiyotning muayyan sohasiga bank qarzlari berishni, ularning tabaqalanishi va shu tariqa kredit riskining qisqarishini rag‘batlantirish uchun cheklash) nuqtayi nazaridan yoki makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Tanlab amalga oshiriladigan **salbiy nazorat** makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun emas, balki u mikroiktisodiy maqsadni, ya‘ni mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun hayotiy muhim va ayni paytda tanazzulni boshidan kechirayotgan sektorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga nisbatan ana shunday usul qo‘llanilmoqda.

**Ikkinchidan**, bank tomonidan beriladigan kreditlarning umumiy summasiga nisbatan joriy etiladigan kreditning eng yuqori miqdori. Bu miqdor, odatda, ayrim banklar uchun bir xil bo‘lmaydi va ko‘pincha har bir bankning uzilmagan kreditlar summasiga bog‘liq. Limitlarni belgilash chog‘ida mezon sifatida bank sarmoyasining miqdoridan ham foydalanish mumkin.

**Uchinchidan**, kredit ekspansiyasining inflatsiya oqibatlarini (uni moliyalash usuli) ga bog‘liq ekanligini hisobga oladigan kreditning yuqori miqdorlari. Banklar o‘z kreditlarini uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar chiqarish yoki uzoq muddatli jamg‘arma omonatlarini jalb qilish hisobiga moliyalashlari mumkin. Bu hol kreditlarni joriy omonatlar hisobidan moliyalashga qaraganda inflatsiyada kamroq aks etadi.

#### **2.4. Markaziy bankning pul tizimi va pul muomalasini tashkil etishdagi hamda valutani tartibga solishdagi roli**


[35]. «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida» gi qonunning 32-moddasida pul tizimi to‘g‘risida quyidagicha yozilgan:

«O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi rasmiy pul birligini, pul

muomalasini tashkil etilishini va uni tartibga solishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining rasmiy pul birligi so‘mdir. Bir so‘m yuz tiyindan iborat. So‘m O‘zbekiston Respublikasida yagona, cheklanmagan va qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadi».

Umuman, pul tizimi deganda turli mamlakatlarda tarixan vujudga kelgan va odatda qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan pul muomalasining tashkiliy shakli tushuniladi.

Pul tizimini tavsiflovchi eng muhim tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat:



Muomaladagi pul turlariga qarab vaqt o‘tishi bilan pul muomalasining ikki tizimi ajralib chiqadi:

□ **Metall tangalarning muomalada bo‘lish tizimi.** Bunda pulning barcha vazifalarini bajaradigan to‘laqonli oltin va kumush tangalar muomalada bo‘ladi, qog‘oz pullar esa pullarga birinchi talab bilanoq metall (tanga va quyma tarzidagi) ga aylantirilishi mumkin.

□ **Oltinga almashtirilishi mumkin bo‘lmagan kredit va qog‘oz pullar muomalasi tizimi.** Bunda oltinning o‘zi muomaladan chiqarib yuborilgan bo‘ladi.

[36]. Pul tizimi haqida gapirilar ekan, Tomas Grexem (XVI asrda yashagan angliyalik bankir) qonuni haqida eslatmasdan hech iloj yo‘q. Bu qonunga ko‘ra sanoat endigina paydo bo‘lgan davrlardayoq pul «yomon» va «yaxshi» pullarga bo‘lingan.


Ushbu qonunga muvofiq «yomon» pullar «yaxshi» pullarni chetga surib chiqaradi. Buning mohiyati shundaki, «yomon» pullar va rasmiy belgilangan kursga nisbatan bozor qiymati oshib boradigan pullar muomaladan chiqib ketadi. Ular shunchaki xususiy uylarda, bank seyflarida

yashirib qo‘yiladi yoki pinxoniy (xufiya) iqtisodiyotga o‘tib ketadi va shu tariqa muomala muhitidan chetga chiqib qoladi.

XX asrda turli mamlakatlarda kundalik pul muomalasidan oltinni chetga chiqarib qo‘ygan xilma-xil qog‘oz banknotlar «yomon» pul rolini o‘ynagan.

[37]. Metall pullar tarixan metall tangalar shaklida ikki ko‘rinishda shakllangan (7-chizma).

**Monometallizm**da pul metali roli faqat bitta qimmatbaho metallga biriktirib qo‘yiladi. **Bimetallizm**da esa bu vazifani ikki metall (oltin va kumush) bajaradi.



**7-chizma.** Metall pullar tizimi.

Qiymati yuqoriligi va ixchamligi tufayli oltin pul vazifasini bajarishga ko‘proq mos keladi. Shu bois oltin monometallizmi oxir-oqibatda kumush monometallizmini va bimetallizmni siqib chiqaradi. XX asr oxiriga borib u ustuvor pul tizimiga aylanadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, pul muomalasida pul metali deb qabul qilingan metallardan tayyorlangan tangalar asosiy rolni o‘ynadi: kumush monometallizmida – kumush, oltin monometallizmida – oltin. Bulardan tashqari muomalada mis chaqalar, shuningdek, qiymat belgilari – kredit va qog‘oz pullar ham mavjud bo‘lgan.

Bimetallizm uzoq vaqt saqlanib turdi. Masalan, AQSHda butun XIX asr mobaynida kumush bilan oltin o‘rtasidagi rasmiy tenglik darajasi (paritet) bir unsiya oltin uchun 15-16 unsiya kumushni tashkil etib kelgan, lekin metallarning bozor kurslari ancha keng o‘zgarib borgan. Bu esa doim ham oltin foydasiga bo‘lavermagan. O‘tgan asr oxiriga kelib kumush sekin-asta mayda tanga holatiga o‘tib qoldi. 1933-yil AQSHda bimetallizm tizimi butkul tugatildi.

O‘sha davrda, o‘tgan asr oxiriga kelib, oltin ayniqsa katta ahamiyat kasb etdi. Oltin monometallizmi deb ataluvchi tizim yoki oltin tanga kapitalizmigacha ma’lum bo‘lgan barcha pul tizimlari orasida eng

<sup>1</sup> 1929-1933-yillardagi Buyuk depressiyaga qadar jahonda **oltin andoza tizimi** ustuvor edi. Bu tizimga muvofiq har bir pul tizimi u yoki bu og‘irlikdagi oltin bilan ta’minlangandi. Mamlakatlar orasidagi tovar ayirboshlashda vujudga keladigan saldo (qoldiq) oltin transferi bilan to‘lanardi. Chunki ayni shu metall jahonda to‘lov va jamg‘arish vositasi bo‘lib xizmat qilardi.



barqaror mavqeni egalladi. Birinchi jahon urushi oqibatida aksariyat davlatlarda bu tizim ham barham topdi. Shu urushda qatnashgan barcha mamlakatlarda (AQSHdan tashqari) banknotlarni oltinga almashtirish to‘xtatildi, oltin tangalar muomaladan chiqib ketdi va ularning o‘rnida qadrsizlanadigan qog‘oz pullar paydo bo‘ldi.

[38]. «Buyuk depressiya» nomi bilan tanilgan 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy tangligi pul tizimlarining yangi turi – kredit va qog‘oz pullar tizimining shakllanishiga asos soldi. Bu tizimning vujudga kelishi quyidagi zaruriyatlar bilan izohlanadi:

- oltinning muomaladan to‘la chiqib ketishi;
- banknotlarni oltinga almashtirishni to‘xtalishi va ular qadrining oltin bilan o‘lchanishini bekor qilinishi;
- davlat tomonidan tadbirkorlik sohasini keng kreditlash maqsadida pul emissiyasining ko‘paytirilishi;
- naqdsiz aylanmaning sezilarli kengayishi.


Bundan tashqari qog‘oz pullarning paydo bo‘lishi tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi hamda metall pullarning edirilishi, ishdan chiqishi va yo‘qolishi tufayli ularning haddan ziyod qimmatga tushishi hol-lari bilan bog‘liq.

Qog‘oz pullarni chiqarishga qilinadigan xarajatlar metall pullarni chiqarishga qilinadigan xarajatlarga nisbatan kam darajadadir.

U yoki bu davlatda ishlab chiqarish kuchlari rivojlangani sayin muomaladagi qog‘oz pullar tobora kamayib, ularning o‘rnini **kredit pullar** egallay boshlaydi.

**Kredit pullar** – kredit hamda pulning to‘lov vositasi sifatidagi vazifalari rivojlanishi asosida vujudga kelgan to‘lov va muomala vositalaridir.

Kredit pullarning besh asosiy turi bor (8-chizma).



**8 - chizma.** Kredit pullar tizimi.

**Veksel** – qat’iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati bo‘lib, uning egasi (veksel to‘lovchi)ga muddat tugaganidan keyin qarzdordan yoki akseptantdan shu hujjatda ko‘rsatilgan pul summasi to‘lanishini qat’iy talab qilish huquqini beradi.

aylanmasida cheklanmagan miqdordagi shaxslar qatnashi-shi mumkin. Chunki veksel muayyan pul summasini talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish tartibida beriladi. Aksariyat vekselar naqd pul ishtirokisiz veksel majburiyatlarini o‘zaro surishish yo‘li bilan qoplanadi. Biroq naqd pul o‘rnini veksel muomalasi bilan bosishning ham chegaralari bor. Bu chegaralar quyidagilar bilan izohlanadi.

**Birinchidan**, tijorat krediti tovar aylanmasining faqat bir qismini, asosan ulgurji savdoni qamrab oladi.

**Ikkinchidan**, veksel majburiyatlarini o‘zaro surishishi bo‘yicha saldo naqd pul to‘lanishini talab qiladi.

**Uchinchidan**, vekselar cheklangan sohada aylanadi.

**To‘rtinchidan**, vekselar aylanishi ularning muddati bilan cheklab qo‘yiladi.

Shu munosabat bilan tijorat vekselari aylanishi chegarasi ularni **banknotlarga** aylantirish yo‘li bilan bartaraf etiladi.

**Banknot** – emitent banklar chiqaradigan va kredit pullarning asosiy turini amalga oshiruvchi foizsiz majburiyat (bank bileti).

**Klassik banknotlar** veksel (tovar) va oltin (Markaziy bankning oltin zaxirasi) bilan ta’minlanadi.

Metall bilan ta’minlanmagan emissiya **fidutsiar emissiya** deb ataladi.

Klassik banknotlarning ikki tomonlama – kredit va metall bilan ta’minlanishi banknotlar muomalasining nisbatan barqaror va moslashuvchan bo‘lishiga kafolat beradi. 30-yillardan boshlab barcha rivojlangan mamlakatlarda oltinga almashtirilmaydigan banknotlarga chiqarila boshlandi. Hozir faqat ayrim mamlakatlar qonunlarida banknotlar oltin bilan ta’minlanishi ko‘zda tutilgan. Aksariyat davlatlarda u qonun yo‘li bilan bekor qilingan.

<sup>1</sup>Bu haqda mazkur turkumning 2-soniga qarang. (Abdullayev Yo., Qoraliyev T. Pul. – T.: Mehnat, 1997.)

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tarixan pulning to'lov vositasi vazifasidan vujudga kelgan va bank tizimi yuqori darajada rivojlangan sharoitda keng qo'llaniladigan kredit vositasi bo'lgan **cheklar** ayniqsa ko'p tarqalgan.

**Chek** – ingl. *Check* – bank (yoki boshqa kredit muassasasi) dagi hisobvaraqa egasining chekda ko'rsatilgan summani shu hisobvaraqdan chek ushlovchiga to'lash yoki uni chek ushlovchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi yozma topshirig'i.

Chek bilan haq to'lash ayniqsa mamlakatning ichki to'lov aylanmasida keng rivojlangan, biroq ulardan eksport va import, chet el sayyohligi bo'yicha hisob-kitoblar hamda nosavdo to'lovlari chog'ida tashqi to'lov aylanmasida ham foydalaniladi. Chekdan foydalanish naqd pul bilan qilinadigan hisob-kitoblarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Shuni ta'kidlash zarurki, chek aylanmasining asosiy unsurlari umumiy bo'lgani holda ayrim mamlakatlar qonunchiligida chek operatsiyalarining ba'zi jihatlarini turlicha tartibga solish ko'zda tutilgan. Chek berish, unga pul to'lash va chek muomalasining yagona qoidalarini belgilash maqsadida 1931-yilda Jenevada xalqaro chek konvensiyasi (Jeneva konvensiyasi deb ataladi) tuzildi.

[39]. Chek muomalasining rivojlanishi chek daftarchasiga ko'plab imzolar qo'yilishi bilan bog'liq bir qancha muammolarni keltirib chiqardi. Shu sababli, 50-yillardan boshlab, dastlab AQSHda, keyinroq esa G'arbiy Yevropada cheklar **kredit kartochkalari** bilan almashtirila boshlandi.

**Kredit kartochkasi** – bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasasi tomonidan biror kishi nomiga berilgan pul hujjati.

Kredit kartochkasida pul egasining joriy hisobidagi summa ko'rsatiladi. U egasiga chakana savdo tarmoqlarida pulsiz tovarlar va xizmatlar xarid qilish huquqini beradi. Kredit kartochkasiga binoan xaridor hisobidagi pul summasi uning ixtiyoridan olinib, tovar sotgan korxonaga hisobiga o'tkaziladi.

Hozir kredit kartochkalari jahonda keng tan olingan va o'z egasi obro'-e'tiborining o'ziga xos belgisi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda ham kredit kartochkalaridan keng foydalanilmoqda.

Bugungi kunda pullar tabaqalanmoqda, ularning turlari ko'z o'ngimizda ko'payib bormoqda. Cheklar va kredit kartochkalaridan keyin

«elektron pullar» deb ataluvchi pul paydo bo‘ldi.

**Elektron pul** – hisob-kitoblarni elektron hisoblash mashinalari yordamida bajarish uchun qo‘llaniladigan kredit pullarining eng so‘nggi turi, kredit kartochkalariga o‘xshagan pul.

Bu pullar kapitalistik mamlakatlarda 80-yillar oxirida paydo bo‘lgan. Elektron pullar kompyuter operatsiyalari va plastik debet kartochkalarini bo‘lib, ulardan bir depozitdan boshqasiga pul o‘tkazishda foydalanish mumkin.


G‘arb iqtisodchilari kelajakda qog‘oz pullar, banknot va cheklar butunlay yo‘qolib ketadi hamda ularning o‘rnini elektron banklararo transaksiyalar (blanksiz shakl) egallaydi, deb o‘ylashyapti. Bunday transaksiyalar xarajatlari qog‘oz pul tayyorlash chiqimlaridan 3-4 marta kam. Bunday holatda pul yo‘qolib ketmaydi, lekin u «ko‘rinmas» va «chaqqon» bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston bu sohada rivojlangan mamlakatlar darajasiga ancha yaqinlashib oldi. Respublikaning barcha tijorat banklari elektron to‘lovlarni tizimiga qo‘shilgan. 1996-yil mart oyida kompleks dasturlarni joriy etish tugallandi. Bu esa banklararo to‘lovlarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga qarashli 13 ta hisob-kitob markazi orqali o‘tkazish imkonini berdi. Mazkur holat shu operatsiyalarning viloyatlar ichida 1-2 soatgacha, viloyatlar o‘rtasida esa 1 kungacha tezlashishiga olib keldi.

[40]. Bank tizimining taraqqiy etishi va muntazam sur‘atda o‘z vazifasini barqaror bajarishi ko‘p jihatdan pul muomalasini to‘g‘ri tashkil qilinishi va uni optimal ravishda tartibga solinishiga bog‘liq.

**Pul muomalasi** – pulning tovar va xizmatlar oldi-sotdisi jarayonida o‘z funksiyalarini bajarishdagi uzluksiz harakatidir.

Pul harakati bankdan boshlanadi. Pul muomalasi naqd pul va naqd bo‘lmagan pul muomalasiga bo‘linadi (9-chizma).



**9-chizma.** Pul muomalasi turlari.

**Naqd pul** bankdan chiqqach, korxonalar, tashkilotlar kassasiga va aholi qoʻliga oʻtadi. Oldi-sotdi va toʻlov harakatlari bajarilgach, yana bankka qaytadi.

**Naqd boʻlmagan pul** muomalasiga firma, korxonalar, tashkilotlar va aholining bankdagi hisobida turgan pulning harakati kiradi va bunday muomala:

- chek;
- kredit kartochkasi;
- veksel;
- toʻlov topshiriqnomasi;
- toʻlov talabnomasi;
- akkreditiv va boshqa vositalar harakati shaklida olib boriladi.

Xullas, pul takror ishlab chiqarishga xizmat qiladi. U doimo aylanmada, muomalada (harakatda) boʻladi. Jamiyatdagi pul muomalasi (aylanmasi) moddiy aylanmasini, yaʼni yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar harakatini bildiradi. Muomaladagi pul harakati pul muomalasi qonuni bilan muvofiqlashtiriladi. Bu qonunning mohiyati quyidagicha:

Tovar aylanmasiga xizmat qiluvchi pul miqdori (PM) tovar bahosiga (B) toʻgʻri proporsional, pul aylanmasi tezligiga (POT) teskari proporsional oʻzgaradi.  $PM = \frac{B}{POT}$

Aytaylik, quyidagilar aylanmasi (muomala) da boʻlsin:

100 kg apelsinning narxi 1 dollar;

50 kg uzumning narxi 2 dollar;

1 ta erkaklar kostyumining narxi 100 dollar;

Shundan barcha tovarlarning umumiy bahosi:

$$100 \times 1 + 50 \times 2 + 1 \times 100 = 300 \text{ dollar boʻladi.}$$

Agar 100 dollar qayd qilingan tovarlarning harakatini uzluksiz taʼminlashga xizmat qilsa, u holda 100 dollar uch marta aylanmasida boʻlib, jami 300 dollarlik tovarlarni sotishga xizmat qilgan boʻladi. Shunday qilib, mazkur tovar muomalasini taʼminlash uchun 100 dollarlik pul miqdori zarur boʻladi:

$$PM = \frac{B}{POT} = \frac{300}{3} = 100$$

Pul qanchalik tez aylanib tursa, pulga talab shunchalik qisqaradi.

Muomala uchun zarur boʻlgan pul miqdorini (PM) yanada aniqroq

hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$PM = \frac{\Sigma B - \Sigma T + \Sigma TMTB - \Sigma O'T}{POT}$$

Bu yerda,

- $\square B$  – sotishga mo'ljallangan tovar va xizmatlarning jami bahosi;
- $\square T$  – mazkur davr doirasidan tashqarida bo'lgan tovarlar uchun to'lovlar summasi;
- $\square TMTB$  – to'lov muddati tugagan tovarlar summasi;
- $\square O'T$  – o'zaro to'lovlar summasi;
- $POT$  – pul aylanmasi tezligi.

Turli ilmiy maktab vakillari muomaladagi pul miqdorini aniqlashni turlicha taklif qiladilar. Masalan, amerikalik iqtisodchi I.Fisher (1867-1947) uni quyidagicha aniqlashni lozim topadi:

$$MPM \cdot POT = B \cdot TXS$$

Bu yerda:

$MPM$  – muomaladagi pul miqdori;

$POT$  – pul aylanmasi tezligi;

$B$  – o'rtacha tortilgan baho darajasi;

$TXS$  – tovar va xizmatlar soni.

Bunda  $POT$  va  $TXS$  uzoq muddatli doimiy miqdor bo'lganligi sababli o'zgarmas miqdor sifatida faraz qilinadi. Muomaladagi pul miqdorini boshqacharoq aniqlash tartibini ingliz iqtisodchi A.Pigu (1877-1959 – Kembrij doktrinasi) quyidagicha taklif qiladi:

$$MPM = d_{yd} \cdot B \cdot IChM$$

Bu yerda:

$d_{yd}$  – yillik daromad salmog'i (pul ko'rinishida);  $B$  – baho darajasi;

$IChM$  – haqiqiy ishlab chiqarish miqdori.

Pul muomalasini to'g'ri tashkil qilish va uni tartibga solish Markaziy bankka xo'jaliklar faolligiga samarali ta'sir o'tkazish, muassasalar faoliyatini nazorat qilish, pul muomalasi va narxlar barqarorligiga erishish, iqtisodiy o'sishga yordam beradigan sharoitlar yaratish, pul-kredit sohasida vujudga kelgan amaldagi vaziyatni obyektiv baholash imkonini beradi.

[41]. Pul darrov paydo bo'lgan emas, u dunyoga kelgunicha o'ziga ajratilgan rol uchun «pishib yetilish»ning uzoq yo'lini o'z shakllari evolyutsiyasi orqali bosib o'tgan. Tarix fanining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston tovar-pul munosabatlari juda qadimdan paydo bo'lgan va

rivojlangan kamdan-kam davlatlardan biri hisoblanadi. Chunki bu yerda pul ishlatila boshlanganiga 2 ming yildan oshgan.

Hozirgi O'zbekiston hududida yashagan xalqlar va qabilalar foydalangan dastlabki pul belgilari hamda tangalar eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Ahamoniylar saltanatida zarb qilingan **oltin dariklar** va **kumush sikllar** bo'lgan. Biroq tovar-pul munosabatlari bu yerda Iskandar Zulqarnayn yurishidan keyingi davrda, Salavkiy va Yunon-Baqtriya davlati barpo etilganidan so'ng chinakamiga rivojlandi.

O'rta asrlar boshlarida O'rta Osiyo davlatlarida oltin tangalar zarb qilinmagan. Bu davrda kumush tangalarni nomlash uchun yunoncha «**draxma**» atamasi qo'llanilardi, bronza tangalar esa so'g'd tilidan «**pani**» va o'zimizga tanish «**tanga**» («denga») so'zlari bilan atala boshlangan.

O'rta Osiyoga arablarning kirib kelishi bu yerdagi tanga zarb qilish ishlarini tubdan o'zgartirdi. Bu davrda O'rta Osiyo davlatlarida pul muomalasi musulmoncha pul yuritish ishlari qoidalari va me'yorlariga to'la-to'kis moslashtirildi. **Oltin dinorlar** (Rimdagi «dinarin» so'zidan), kumush dirhamlar (yunoncha «draxma» so'zidan) va **mis fuluslar** chiqarila boshlandi. Dastlabki musulmon fuluslari O'zbekiston hududida hijriy 143-yilda (760-761-yillar) Samarqandda, besh yildan keyin Buxoro, Axsikent (Farg'ona), Termizda chiqarildi.

Ma'lumki, IX asr oxiriga kelib, Movarounnahrda amalda mustaqil Somoniylar davlati vujudga keldi. Buxoro uning markazi bo'lib qoldi. Deyarli butun O'rta Osiyoni qamrab olgan Somoniylar davlati davrida pul chiqarish ishi, ayniqsa, yuksak darajada rivojlandi. Kumush tangalar, ayniqsa, tarkibida kumush juda ko'p bo'lgan siniq deb ataluvchi dirhamishikastlar donalab yoki vazni bo'yicha muomalada bo'lardi. Movarounnahr bilan keng savdo aloqalari o'rnatgan sharqiy slavyan qabilalari bu tangalarni juda yuqori baholashardi. Mazkur savdo aloqalari kengayishi natijasida kumush ommaviy ravishda Yevropaga o'tib keta boshladi. Arxeologlarning Uraldan to Angliya va Norvegiyagacha bo'lgan nihoyatda katta hududdan topayotgan xazinalari shundan dalolat beradi. XI asr boshlarida Somoniylar davlati o'rnida turk qabilalari sulolasi paydo bo'ldi. Natijada pul muomalasida ham o'zgarishlar yuz berdi.

Shunday qilib, kumush bilan oltin pul muomalasining asosiy unsurlari bo'lib qoldi. Biroq Yevropada XVIII-XIX asrlarga kelib oltin va kumush tangalar bilan bir qatorda qog'oz pullar ham muomalada bo'la boshladi. Qog'oz pullarni qadimgi Xitoy savdogarlari ixtiro qilgan. Dastlab saqlash uchun tovar qabul qilingani, soliqlar to'langani va kredit

berilgani to'g'risidagi tilxatlar qo'shimcha ayirboshlash vositalari vazifasini bajargan. Bunday tilxatlarni, ya'ni qog'oz pullarning «qadimiy ajdodlari»ni zargar ustalar berishgan. Zargar oltinni qabul qilgach, qoida tariqasida patta (kvitansiya) bergan. Ana shu hujjat qog'oz pullarning dastlabki vakillari, shuningdek, birinchi shakli bo'lgan.

1501-yilda Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbek qabilalari boshlig'i Muhammad Shayboniyxon Samarqandni zabt etdi. Garchi u hukmronlik qila boshlagan dastlabki davrda temuriylarning kumush va mis tangalari muomalada bo'lsa-da, 1507-yilga keliboq to'la-to'kis pul islohoti o'tkazildi.

Oltin tangalar ashrafiy yoki tillo deyilar, kumushlari tanga, tangacha, misligi dinori, fulus deb atalardi. Eng mayda tanganing nomi «pul» edi. Shuningdek, yirik nominaldagi tangalarning qismlari, masalan, dinorning uchdan ikkisi va hatto oltidan biri ham zarb etilgan. Kumush tanga og'irligi 5,2 gramm bo'lib, rasmiy kurs bo'yicha u shunday vazndagi 36 mis dinorga almashtirilgan. Tangalar ulkan davlatning ko'plab shaharlarida, masalan, Samarqand, Buxoro, Hirot, Mashhad, Balx, Nishopur, Saraxs va boshqa joylarda chiqarilgan.

[42]. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning «Pul tizimi hamda pul muomalasini tashkil etish» nomli beshinchi bo'limining etti moddasi pul muomalasini tashkil qilishni o'zida aks ettiradi.

□ **33-modda.** Markaziy bankning pul belgilarini chiqarishdagi vakolatlari.

□ **34-modda.** Pul belgilarini tayyorlash va saqlash.

□ **35-modda.** Muomaladagi pul belgilaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar.

□ **36- modda.** To'lovlarni amalga oshirish.

□ **37- modda.** Shikastlangan pul belgilari.

□ **38- modda.** Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish.

□ **39- modda.** Pul belgilarini muomaladan qaytarib olish.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega (33-modda). Ularni qalbakilashtirish va noqonuniy tarzda tayyorlash qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Muomalada bo'lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jamiki aktivlari bilan ta'-



minlanadi. Markaziy bank yo‘q qilib yuborilgan, yo‘qotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo‘qotgan banknotlar va tangalarning o‘rmini qoplamaydi.

Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalari, shuningdek, ularning dizaynini Oliy Majlisning Kengashi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi. Banknot va tangalar dizayni Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank yangi namunalardagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek, ularning tavsifini ommaviy axborot vositalarida e‘lon qiladi.

Markaziy bank va u vakolat bergan banklar talabga ko‘ra bir nominal qiymatdagi banknot va tangalarni boshqasiga hech qanday to‘lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Muomaladagi pul belgilaridan foydalanishga qo‘yiladigan talablar xususida mazkur Qonunning 35-moddasida quyidagicha yozilgan:

«Markaziy bank muomalaga chiqargan banknot va tangalar O‘zbekiston Respublikasining butun hududida to‘lovlarning barcha turlariga yozilgan qiymati bo‘yicha qabul qilinish, shuningdek, hisobvaraqlar, omonatga o‘tkazish va jo‘natma sifatida o‘tkazish uchun qabul qilinishi majburiydir».

Markaziy bank banknotlar bosilishi va tangalar zarb qilinishi, muomalaga chiqarilmagan pul belgilari saqlanishini, shuningdek, bosma qoliplar va bo‘yoqlar saqlanishi hamda yo‘q qilinishini ta‘minlaydi, naqd pullarni saqlash, tashish va inkassa qilish, shuningdek, ularni yo‘q qilib yuborish qoidalarini belgilaydi.

[43]. Pul muomalasini tashkil etishda bir vaqtning o‘zida ikkita bir-biriga qarama-qarshi vazifani hal qilishga to‘g‘ri keladi.

**Bir tomondan:**

– muomaladagi pul massasining o‘zgarishini mumkin qadar qayishqoq va moslanuvchan qilish;

– xo‘jalik holati (konyunkturasi) dagi har qanday o‘zgarishlarga tezkor munosabat bildira olish;


– o‘sib borayotgan amaliy faollikni qo‘llab-quvvatlash.

**ikkinchi tomondan:**

pul massasining ko‘payishini ma‘lum darajada cheklash:

muomalaga ortiqcha to‘lov vositalari massasining tushishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Pul muomalasining holatiga ko‘pdan-ko‘p omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Pul muomalasi nazariyasida pulning muvozanatlilik holatiga ta‘sir ko‘rsatadigan ikki guruh omillar ajratiladi (10-chizma).



**10-chizma.** Pulning muvozanatlik holatiga ta'sir qiluvchi omillar.

**Pulga bo'lgan talab** bilan pul taklif qilishning bir-biriga moslashish jarayoni juda murakkabdir. Bunday moslashishning salbiy natijalari esa mamlakat xalq xo'jaligida turli buzilishlar va nomutanosibliklarga olib keladi. Pul muomalasining muvozanatda bo'lmasligi quyidagi sabablar va oqibatlar tufayli yuzaga kelishi mumkin:

- tovar aylanmasining real sektoridagi o'zgarishlar;
- pul aylanishining tezligi;
- tashqi iqtisodiy omillar;

– moliya sohasining pulni haddan tashqari ko'p yoki kam taklif qilishi kabilar tufayli pulga bo'lgan talab o'zgaradi.

Agar aylanmasiga to'lov vositalari tushishining asosiy manbayi bo'lgan bank tizimi, korxonalar va aholi uchun pul massasini kengaytirishning talab qilinadigan sur'atlarini ta'minlamasa, xalq xo'jaligining pulga bo'lgan ehtiyojini qondirmasa, bu hol to'lovga qobiliyatli talabning qisqarishiga sabab bo'ladi va ishlab chiqarishning kamayishiga hamda ish bilan bandlikning qisqarishiga olib keladi.

Aksincha, bank sohasi muomalaga haqiqatda keragidan ortiqcha pullarning muntazam kelib turish manbayi bo'lsa, bu hol inflatsiya tazyiqini kuchaytiradi va milliy valuta xarid qobiliyatining tushib ketishiga sabab bo'ladi.

[44]. Har qanday mamlakat iqtisodiyotida qog'oz va kredit pullar pul massasi asosini tashkil etadi.

**Pul massasi** – bu muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullar (xazina va bank biletleri) ning jami miqdoridir.

Boshqacha qilib aytganda, pul massasi – bu har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiyl shaxslar, muassasaviy mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, xususiyl firmalar) va davlat egalik qiladigan naqd va naqdsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuyidir. Almashuv va to'lov operatsiyalarini

bajarish uchun mavjud bo‘lgan pul massasi, eng avvalo, bank sektori tomonidan taklif qilinadigan pulga va pulga bo‘lgan talabga, ya’ni no-bank sektorning o‘z ixtiyorida muayyan pul massasining bo‘lishiga intilishi yoki talab qilib olinuvchi omonatlarga bog‘liq (11-chizma).


Ko‘rib turibmizki, pul massasi oddiy tushuncha emas va u umumiy qabul qilingan tasavvurga mos kelmaydi. Odatda, kishilar pulni avvalo naqd mablag‘ – qog‘oz kupyuralar va mayda chaqa tangalar deb hisoblashga o‘rganishgan. Aslida esa naqd pullarning umumiy pul massasidagi ulushi juda kam bo‘lib, korxonalar orasidagi, chakana savdodagi bitimlarning asosiy qismi rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida bank hisobvaraqlaridan foydalanish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Mamlakatda rivojlanish va pul muomalasi barqarorligi darajasi bilan pul massasidagi naqd pul ulushini bir-biriga bevosita bog‘liq deb hisoblash mumkin. Masalan, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich «VISA» kabi ilg‘or tizimlar qanchalik keng tarqalganiga qarab 5-10 foizdan oshmaydi. MDH davlatlarida va bizning respublikamizda, xususan, bu ulush darajasi 30 foizdan oshib, pul tizimini moslashuvchanlikdan mahrum etgan va xilma-xil suiiste‘molliklarga nisbatan ta’sirchan qilib qo‘ygan.


[45]. Har bir pul tizimining asosiy tarkibiy qismlari tarixan shakllangan va tegishli mamlakatlarning qonun hujjatlarida rasmiy mustahkamlangan. Pul massasi tarkibi aktiv va passiv qismdan iborat (12-chizma).

Bulardan tashqari, pul massasi bevosita xarid yoki to‘lov vositasi sifatida foydalanish mumkin bo‘lmagan tarkibiy qismlarni ham qamrab oladi. Bularga:

– muddatli hisobvaraqlardagi, jamg‘arma omonatlardagi va tijorat banklaridagi depozit sertifikatlar



## 11-chizma. Pul massasining tarkibiy qismlari.



– investitsiya fondlarining aksiyalaridagi mablag'lar kiradi.

Bunday tarkibiy qismlar hozir O'zbekiston Respublikasida tobora kengroq tarqalmoqda. Bu tarkibiy qismlar «kvazi-pullar» nomi bilan birlashgan.

**Kvazi-pullar** – bu tijorat banklaridagi muddatli va jamg‘arma omonatlarda turgan naqdsiz shakldagi pul mablag‘laridir.

Kvazi so‘zi lotincha «quasi» – mavhum, tagi-tugi yo‘q, o‘xshash, deyarli ma’nosini bildirib, Xalqaro Valuta Fondining metodologiyasi bo‘yicha tijorat banklarida muddatli va omonat qo‘yilmalarida saqlanayotgan naqd bo‘lmagan pul mablag‘larini anglatadi. Bunday pullar pul muomalasi tarkibida ancha salmoqli va dinamik rivojlanayotgan qismini tashkil etadi.

Kvazi-pullar to‘g‘ri ma’noda pul bo‘lmas-da, shunga qaramay, likvid aktivlar, ya’ni qiymatini yo‘qotmay, osongina pulga aylantirsa bo‘ladigan aktivlar hisoblanadi.

Albatta, eng likvid aktiv pulning o‘zidir (mutlaq likvidlik), biroq qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar, san’at asarlari kabilar bu borada u bilan bir xil darajada turadi. Binolar, uskunalar, mashina va boshqalar likvidligi biroz kamroq. Odatda, boyliklarning bu toifasi «**muzlatilgan**» aktivlar deb yuritiladi. Kvazi-pullar ham ancha likviddir. Chunki muddatli omonatlar, obligatsiyalar hamda aksiyalar-ning ayrim turlari rivojlangan mamlakatlarda qisqa vaqt ichida naqd pulga aylantirishi mumkin.

Ayni paytda tarixdan ma’lumki, davlatga qandaydir ehtiyojlar uchun katta pul mablag‘lari zarur bo‘lib qolgan hollarda pulning bu turini uzoq muddatga muzlatib qo‘yish hollari bo‘lgan va u bu tadbirni ixtiyoriydan majburiy tadbirga aylantirgan.

Odatda, siyosiy yoki iqtisodiy tanglikdan chiqayotgan mamlakatning pul siyosati ana shunday «**muzlatilgan omonatlar**» ni indeksatsiya qilish yo‘li bilan aholi ishonchini tiklashdan hamda shu tariqa iqtisodiyotdagi investitsiya faolligini jonlantirish uchun mablag‘larni jalb etishdan boshlanadi. O‘zbekistonda bu jarayon Vazirlar Mahkamasining «Aholi omonatlaridagi va davlat sug‘urtasi bo‘yicha mablag‘larni indeksatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 1996-yil 12-fevralda chiqargan qarori bilan boshlandi. Bu qarorda 1992-1995-yillardagi narxlar indeksi o‘rishini hisobga olib, aholi pul mablag‘larini indeksatsiya qilish hajmlari belgilangan.

[46]. Pul massasi tarkibida  $M_1$  va  $M_2$  kabi jamlama tarkibiy qismlar yoki **pul agregatlari** ajratiladi.

**Pul agregati** deganda jamgʻarila borib, xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalari, yaʼni likvidlik darajasiga qarab pul massasining barcha birlashgan komponentlari tushuniladi.

Pul agregatlariga naqd pullar, maʼlum muddatga va muddatsiz bankka qoʻyilgan pullar, sertifikatlar va boshqalar kiradi (13-chizma).

AQShda pul massasi quyidagi tarkibiy unsurlarni oʻz ichiga oladi:


$M_1 = \text{naqd pul} + \text{chek omonatlari}$

$M_2 = M_1 + \text{cheksiz jamgʻarma hisob} + \text{mayda muddatli omonatlar}$   
varaqlardagi omonatlar.


$M_3 = M_2 + \text{yirik miqdordagi muddatli omonatlar.}$

Buni quyidagi chizma yordamida izohlash mumkin (14 -chizma).

Bizning mamlakatimizda pul massasining quyidagi tarkibi qabul qilingan (13-chizma).



**13-chizma.** Pul agregatlari nisbati.



**14-chizma.** Pul agregatlarining tarkibiy qismlari.

$M_0 =$ naqd pullar, ya'ni muomaladagi metall va qog'oz pullar								
$M_1 = M_0$	+	Tegishli hisob varaqlardagi pul qoldiqlari	+	Mahalliy budget mablag'lari	+	Byudjet, jamoat va boshqa tashkilotlarning mablag'lari		
$M_2 = M_1$	+	Banklardagi muddatli omonatlar						
$M_3 = M_2$	+	Chiqarilayotgan sertifikatlar	+	Aniq maqsadli zayom obligatsiyalari	+	Davlat zayom obligatsiyalari	+	Xazina majburiyatlari

**15-chizma.** Pul agregatlarining tarkibiy qismlari.

Mamlakatimiz bozor o'zgarishlarini keng rivojlantirish yo'lidan olg'a borayotganini hisobga olsak, naqd pul bilan naqdsiz pul orasidagi chegara sekin-asta yo'qolishi lozim. Pul agregatlaridan faol foydalanish ham bunga ko'p jihatdan yordam beradi. Taraqqiy etgan davlatlarda naqd pullar tovar aylanmasining 1 foizini ta'minlaydi.

[47]. Pul tovar ekan, u talab va taklif ta'sirida bo'ladi.

**Pul taklifi** – bu muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir.

Pul taklifi talabdan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin: kam bo'lganda to'lov krizisi yuzaga keladi. Pul taklifi uning muomalaga chiqqan miqdori bilan o'lchanadi, bu miqdor esa uning aylanma tezligiga qarab har xil bo'ladi.

**Pulga talab** – bu pul muomalasi, ya'ni xo'jalik aylanmasi uchun kerak bo'lgan pulga ehtiyojdir

Pulga talabni korxonalar, tashkilotlar, aholi va davlat bildiradi, chunki ular xo'jalik subyektlari, ishlab chiqaruvchi yoxud iste'molchilardir. Pulga talab pulning ikki funksiyasidan, ya'ni:

– muomala vositasidan, xususan, kundalik xaridlarni va bitimlarni amalga oshirish;

– jamg'arma vositasidan, xususan, puldan qiymatni saqlash vositasi sifatida foydalanish va o'z ixtiyorida yetarli miqdorda likvid pullarni yig'ish zaruriyatidan kelib chiqish.

Har ikkala maqsadga erishish uchun pulning real xarid kuchi barqaror bo'lishiga erishish muhim rol o'ynaydi.

Pulga talabning miqdoriy o'lchami bor. Uni hisoblab chiqish odatda ayirboshlashning miqdor tenglamasiga ( $PM \cdot PO = N \cdot YaIM$ ) asoslanadi. Umuman muomaladagi pul miqdori uch asosiy omilga bog'liq:

– narxning absolut darajasi ( $R$ ). Qanchalik narx baland bo'lsa, shunchalik pulga bo'lgan talab ko'payadi (boshqa holatlar teng bo'lgan sharoitlarda);

– yaratilgan real mahsulot darajasi ( $Q$ ). Bu ko'rsatkichning o'sishi bilan aholining real daromadi oshadi. Ularni to'lash uchun ko'proq pul kerak bo'ladi.

Pul aylanmasi tezligiga ( $V$ ), ya'ni pul yiliga necha marta daromad bo'lib qaytadi va necha marta oldi-sotdiga xizmat qiladi. Bu bog'lanishlarni quyidagi formulalar yordamida ifodalash mumkin:

$$V = \frac{P \cdot Q}{M}$$

Bu yerda:

$V$  – pul aylanmasi tezligi;

$P$  – narxning absolut darajasi;

$Q$  – yaratilgan real mahsulot;

$M$  – muomaladagi pul miqdori.



$$M = \frac{P \cdot Q}{V}$$

Bu yerda:

$P \cdot Q$  – sotiladigan tovarlarning jami bahosi.

Aytaylik, quyidagi tovar turlari tegishli narxlarda muomalada bo‘lgan (5-jadval).

### 5-jadval.

#### Pulga bo‘lgan talabni aniqlash tartibi

№	Tovarlar turi	Tovarlar		Tovarlar jami bahosi (p•q)
		Soni (q)	Narxi, \$ (p)	
1.	Apelsin (kg)	100	1	100
2.	Uzum (kg)	50	2	100
3.	Kostyum (dona)	1	100	100
	Jami	x	x	300

Agar 100 dollar uch xil tovarni sotishga muttasil ravishda xizmat qilsa, u holda 100 dollar jami 300 dollarlik tovarni sotib 3 marta aylanmada bo‘ladi. Demak, tovar muomalasi uchun 100 dollar zarur ekan:

$$M = \frac{P \cdot Q}{V} = \frac{300}{3} = 100 \text{ dollar}$$

Ko‘rinib turibdiki, muomaladagi pul miqdori (M) tovarlarning jami bahosining ( $P \cdot Q$ ) pul aylanmasi tezligi (V) ga bo‘lgan nisbatiga teng. Agar V bilan M ning o‘rnini almashtirsak, u holda:

$$V = \frac{P \cdot Q}{M} = \frac{300}{100} = 3 \text{ marta}$$

Keynschilar pul miqdoriga ta’sir etuvchi omillarga qo‘shimcha tarzda yana uch omilni ko‘rsatib o‘tadilar:

- to‘lov uchun pul zarurligi;
- har ehtimolga qarshi pulni vaqtincha bo‘lsa-da, jamg‘arib, kerak bo‘lib qolganda birdan ishlatishga intilish;
- boylikni zarar ko‘rish xataridan asrash uchun pul shaklida saqlash.

Keynschilar pul miqdoriga boylik egalarining subyektiv xatti-harakatlari, intilishlarini ham ta’sir etishini inobatga olganlar.


Eng so‘nggi nazariyotchilar, masalan, monetaristlar (M.Fridman,

AQSh) pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillarga aytilganlardan tashqari **bank foizi** darajasi va **inflatsiya sur'atlarini** kiritadilar. Ular foiz darajasini pul miqdoriga ikki xil ta'sirini inobatga oladilar:

**Birinchidan**, foiz normasi pasaysa, qarzga pul olish ko'payadi, ishlab chiqarish kengayib daromadlar oshadi. Albatta, bu o'z-o'zidan pul miqdorini oshiradi. Foiz kamayganda boylikni bankda pul shaklida emas, balki, masalan, aksiya, obligatsiya shaklida saqlash qulay bo'ladi. Foiz oshganda boylikni pul shaklida saqlash kuchayadi, pulga talab kengayadi, ammo ishlab chiqarishga pul kam qo'yilib, daromad kamayadi, pulga talab qisqaradi.

Foiz stavkasi bilan pulga bo'lgan talab o'rtasidagi bog'lanishni quyidagi grafikda ifodalash mumkin (1-grafik).

Jamg'arish istagi yoki moliyaviy aktivlarni xarid qilish va shunga mutanosib ravishda dividend olish jarayoni bevosita bankning foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi pasayib borishi bilan pulga talab oshib boradi va aksincha. Bu yerda bog'lanish teskari proporsionaldir.



**1-grafik.** Pulga talabning egri chizig'i.

**Ikkinchidan**, inflatsiyaga kelsak, u pul miqdorini to'g'ridan-to'g'ri oshiradi, chunki pul birligining qadri tushib, xo'jalik aylanmasi uchun tobora ko'proq pul talab qilinadi. Eng so'nggi pul nazariyalarida boylik ortishi bilan uni pul shaklida saqlash ishtiyoqi ham kuchayadi, iqtisodiy konyunktura yomonlashsa, aks hodisa yuz berishi qayd etiladi.

Ko'rib chiqilgan hamma nazariyalarda pul miqdori ishlab chiqarish holatiga, narxga, pul aylanmasi tezligiga bog'liq ekanligiga e'tibor beriladi. Pul miqdorining ishlab chiqarishga aloqasi pulning tovar bilan ta'minlash zarurligini, pulning maxsus tovarligini va shu jihatdan bog'liq bo'lishini ko'rsatadi, uning aylanishi ishlab chiqarishdagi

omillar – resurslar va shuningdek, yaratilgan tovar – xizmatlar harakatini bildiradi.

Markaziy bank pulga bo‘lgan talabni aniqlashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarga amal qiladi:


- bazaviy davrning narxlarida yalpi ichki mahsulotning taxmin qilinayotgan o‘shishi;
- rejalashtirilayotgan davrda pul aylanishining taxminiy tezligi;
- taxmin qilinayotgan davrda narxlar o‘shishining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori darajasi.

Iqtisodiy faollikning yuqori darajasi yalpi ichki mahsulot hajmi orqali taxminan ifodalanishi mumkin. Potensial YaIM umumiy ishlab chiqarish imkoniyatiga beriladigan bahoni aks ettirishi kerak. Markaziy bank mutaxassislari ushbu ko‘rsatkichni hisoblab chiqish chog‘ida Kobba-Duglas shaklidagi ishlab chiqarish funksiyalaridan, uzoq muddatga doir ma’lumotlar asosida regression modellardan foydalanadi.

Kelgusi yilda kutiladigan narxlar o‘shishini Markaziy bank narxlar dinamikasining avvalgi holati (trendi)ni hisobga olgan holda me’yor sifatida qabul qiladilar. Muomala tezligi ham ushbu ko‘rsatkichning avvalgi holati asosida statistika usullarini qo‘llash yordamida belgilanadi.

Pulga bo‘lgan talabni empirik baholash oldingi davrlarda mavjud bo‘lgan pul bilan YaIM, inflatsiya, foiz stavkalari va boshqa omillar o‘rtasidagi nisbatlar statistikasiga asoslanishi mumkin. Bunda, odatda ular o‘rtasidagi aloqaning mustahkamligini baholash imkonini beradigan korrelatsion-regression modellardan foydalaniladi.

Pul taklifi Markaziy bank tomonidan quyidagi chizmada boshqariladi (16-chizma).



**16-chizma.** Markaziy bank tomonidan pul taklifining boshqarilish chizmasi.


Mazkur chizma asosida Markaziy bank pul taklifini nazorat qiladi va kreditlash shartlarini belgilab oladi.

[48]. **Pul bozori** – bu shunday bozorki, u yerda pulga talab va taklif ta'siri ostida foiz stavkasi darajasi va pul «bahosi» shakllanadi. Pul bozorida pul tovarga o'xshab «sotilmaydi» va «sotib olinmaydi». Aynan shu xususiyati bilan pul bozori boshqa bozorlardan tubdan farq qiladi. Pul bozorida pul nominal foiz normasi birligiga ega bo'lgan muqobil likvid vosita bilan almashinadi (2-grafik).

Grafikdan ko'rinib turibdiki, taklif chizig'i ( $S_m$ ) vertikal to'g'ri chiziq shakliga ega. Buning sababi shundaki, Markaziy bank muomaladagi pul massasini nazorat qiluvchi organ sifatida foiz stavkasining o'zgarib turishidan qat'iy nazar pul taklifini o'zgarmas darajada ushlab turishga harakat qiladi. Har qanday turdagi bozorga o'xshab pul bozorida ham talab va taklif chizig'i bir-biri bilan kesishadi. Grafigimizda bu kesishish nuqtasi E bilan belgilangan bo'lib, aholi va firmalar foiz stavkasi faqat 6,9 % bo'lgan taqdirdagina o'z ixtiyorlarida 150 mln. so'mlik pulni saqlab turishlari mumkin.

Foiz stavkasi nisbatan past bo'lgan hollarda ular o'z portfellaridagi pullar miqdorini ko'paytirishga harakat qiladilar va shu orqali qimmatli qog'ozlar bahosini pasaytirishga, foiz stavkasini oshirishga intilib, pul bozorida pulga bo'lgan talab va taklif muvozanatiga erishadilar va aksincha.

Nominal foiz stavkasi %



**2-grafik.** Pulga talab va taklifning tipik egri chizig'i.

Bu yerda:

$D_m$  – pulga bo'lgan talabning egri chizig'i;

$S_m$  – muomaladagi pul massasi (taklif);

$E$  – pulga talab va taklifning muvozanat nuqtasi.

[49]. Muomaladagi pul massasining kengayishini ikki bosqichdan iborat jarayon deb tasavvur qilish mumkin:

– pul massasining birlamchi hosil bo‘lishi. U Markaziy bankning davlat organlari va bank tizimi oldidagi majburiyatlari ortishi natijasida yuz beradi;

– pul massasining depozit banklarda ikkilamchi o‘shishi. Bunga ushbu banklarda deponentda saqlanayotgan mablag‘larni «multiplikatsiyalash» yo‘li bilan erishiladi. Natijada ushbu mablag‘lardan berilgan kreditning bir qismi qarzdor tomonidan foydalanib bo‘linganidan keyin yangi omonatlar tarzida depozit banklarga qaytadi va ular yana qarzga berilishi mumkin.

**Pul multiplikatori** – bu pul bazasining bir pul birligiga ko‘payishi tufayli (kelib chiqqan) pul taklif qilishning o‘shishini ifodalaydigan koeffitsiyentdir.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:  $T = \frac{PB}{M}$

Bu yerda:

$T$  – pul multiplikatori;

$$PB = MO + VR$$

$PB$  – pul bazasi (Markaziy bank aktivi);

$MO$  – banklardan tashqari ochiq bozorda muomaladagi pul mablag‘lari;

$BR$  – bank zaxiralari;

$$M = MO + D$$

$M$  – jami pul massasi;

$D$  – omonatlar.

Agar pul multiplikatorining miqdori hisoblab chiqilsa, pul bazasi o‘zgarganida pul massasi qancha o‘zgarishini aniqlash imkoni tug‘iladi. Boshqacha qilib aytganda, agar pul bazasining va multiplikatorning o‘zgarishlari ma’lum bo‘lsa, jami pul massasi va uning agregatlarini bashoratlash imkoniyati vujudga keladi.

Hozirgi iqtisodiyotda zaxira pullar ( $VR$ )ning o‘zgarishi bilan pul multiplikatori ( $m$ ) o‘rtasida kuchli teskari aloqa mavjud. Masalan, ochiq bozorda muomaladagi naqd pullarni ko‘paytirishga (ya’ni, pul bazasi hajmini o‘stirishga) qaratilgan operatsiya ko‘pchilik hollarda bir qator asosiy foiz stavkalarining o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida:

- ortiqcha zaxiralar darajasiga;
- muddatli depozitlar bilan talab qilib olinadigan depozitlar o'rtasidagi nisbatga;

- pul muomalasi darajasiga;
- pul multiplikatoriga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda 90-yillarning birinchi yarmida vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilish, tijorat banklarining pul massasi ko'payishiga ta'siri hali juda oz bo'lganini ko'rsatdi.

Respublika tijorat banklari jalb qilinayotgan resurslarning aylanish tezligini yetarlicha ta'minlashadi. Bu hol pul multiplikatori qiymatining pastligi bilan tasdiqlanadi, u:

1994-yil boshidan to iyuligacha:  $m = 1,4$  ga;

2001-yilning noyabrigacha:  $m = 1,7$  ga;

1995-yilda pul multiplikatori:  $m = 1,5$  doirasidan chiqmadi.

Bunday past multiplikatsiya samarasi ma'lum darajada kreditning yuqori darajasi, kreditlarning qaytib kelishining sustligi, aholining naqd pulni afzal ko'rishi bilan izohlanadi. Bu hol mazkur davrda muomala-dagi pul massasining Markaziy bank tomonidan vujudga keltirilganidan (ya'ni emissiya qilinganidan) dalolat beradi.

Pul multiplikatori konsepsiyasi pul bazasining qudratli kuchga ega pul ekaniga qat'iy ishontiradi. Pul bazasi (PB) bilan pul massasi (M) o'rtasidagi multiplikatsiya aloqasi Markaziy bankning pul massasini taklif qilish jarayoniga qay tarzda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushunishga sharoit yaratadi.


Markaziy bank pul bazasini aniqlovchi asosiy tashkilotlardan biridir. Shu bilan birga, u ma'lum maqsadlarga muvofiq pul bazasining miqdori yoki multiplikatorning miqdoriga yoxud birga olingan ikkala ko'rsatkichga ta'sir etishi mumkin.

Ayni vaqtda bozor iqtisodiyotida Markaziy bank **pul bazasining** miqdorini to'liq nazorat qila olmaydi va boshqara olmaydi. Tijorat banklarining (Markaziy bankdan kredit olish), davlatning (ijtimoiy siyosat, tovon to'lash, soliq siyosati) va aholining (pullarning kirib kelishi va chet elga chiqib ketishi), xatti-harakatlari **pul bazasining** o'zgarishi ustidan to'liq nazorat o'rnatishda ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi.


Multiplikator xususida ham shuni aytish zarurki, naqd pullar koeffitsiyentlari, ortiqcha zaxira me'yorlari va boshqa tarkibiy qismlar aholi hamda tijorat banklarining psixologiyasi bilan xatti-harakatlari ta'sirida o'zgarib turadi: pul multiplikatorining miqdori banklarning

(zaxira me'yorlari orqali), shuningdek, bankdan tashqari soha harakatiga (naqd pullar va koeffitsiyentlari orqali) bog'liq.

[50]. Pul-kredit siyosati iqtisodiy pasayish davrida xarajatlarni rag'batlantirish uchun pul taklif qilishning ko'payishiga, inflatsiya davrida esa, aksincha, xarajatlarni cheklash uchun pul taklif qilishning cheklanishiga olib kelishi zarur. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:



Konyunktura jonlangan, ish bilan bandlik va ishlab chiqarish hajmlari o'sgan sharoitda pulga talab oshishi munosabati bilan Markaziy bank «**arzon pullar**» siyosatini yoki pul-kredit siyosatida **ekspansiyani** qo'llaydi.



Bunda odatda:

- kreditlash ko'lami kengayadi;
- muomaladagi pul miqdorining o'sishi ustidan nazorat susayadi;
- soliq stavkalari qisqaradi;
- foiz stavkalari darajasi pasayadi.

Pul taklif qilishning ko'payishi uchun Markaziy bank tijorat banklaridagi ortiqcha zaxiralarning o'sishi haqida qayg'urishi kerak. Bunday holda qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilmog'i kerak?

**Birinchi**dan, ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib olish operatsiyalarini kengaytirish zarur;

**Ikkinchi**dan, zaxiralash normasini shunday pasaytirish kerakki, bu hol o'z-o'zidan zarur zaxiralarni ortiqcha zaxiralar holatiga o'tkazadi va pul mul'tiplikatorining miqdorini ko'paytiradi;

**Uchinchi**dan, tijorat banklarini Markaziy bankdan qarz olish vositasida o'z zaxiralarni ko'paytirishga undash uchun hisob stavkasini pasaytirish muhimdir.

Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan bunday siyosiy qarorlar turkumi **arzon pullar siyosati** deb ataladi. Bu siyosatni amalga

o'shirdan maqsad jami xarajatlar hajmini va ish bilan bandlikni ko'paytirish uchun kreditni arzon va oson olish mumkin bo'ladigan qilib qo'yishdan iborat.


Iqtisodiyotdagi nomutanosibliklar kuchayib, inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan, chayqovchilik kengaygan bir sharoitda Markaziy bank pul massasini chegaralash yordamida konyunkturani «qizib ketishi»ning oldini olishga harakat qiladi. Bunda Markaziy bank quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

– tijorat banklarining zaxiralarini qirqish yo'li bilan pul massasini qisqartirish uchun ochiq bozorda tijorat banklari va aholiga davlat qimmatli qog'ozlarini sotish bo'yicha operatsiyalar kengaytiriladi;

– tijorat banklarini ortiqcha zaxiralardan o'z-o'zidan ozod qilish hamda pul multiplikatorini kamaytirish maqsadida zaxiralash me'yori oshiriladi;

– tijorat banklarining Markaziy bankdan qarz olish vositasida o'z zaxiralarini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishni kamaytirish maqsadida hisob stavkalari ko'paytiriladi.

Markaziy bank tomonidan ko'riladigan bu chora-tadbirlar jami «**qimmat pullar**» siyosati yoki pul-kredit siyosatining **restriksion** turi deb ataladi.



Bunday siyosat tijorat banklari amalga oshiradigan kredit operatsiyalari shartlarini qiyinlashtirishga va hajmlarini cheklashga qaratilgan. Uni amalga oshirish:

– soliqlarning oshirilishini;  
– davlat xarajatlarining qisqartirilishini;  
– inflatsiyani jilovlashga;  
– bir qancha hollarda esa to'lov balansini sog'lomlashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Restriksion siyosat inflatsiyaga qarshi kurash maqsadlarida foydalanishga qaratilgan bo'lishi va amaliy faollikning davriy o'zgarishlarini baravarlashtirishga qaratilishi mumkin.

[51]. Restriksion va ekspansion turdagi pul-kredit siyosati yalpi yoki selektiv tusda bo'lishi mumkin.

**Yalpi pul-kredit siyosatida** Markaziy bankning tadbirlari bank tizimining barcha muassasalarini qamrab oladi. **Selektiv pul-kredit**



**siyosatida** esa muayyan kredit muassasalarini yoki ularning guruhlarini, yo bo'lsa bank faoliyatining muayyan turlarini qamrab oladi.

Selektiv pul-kredit siyosati Markaziy bankka ma'lum yo'nalishda tanlab ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bu siyosat amalga oshirilganida quyidagi vositalar to'plamidan yoki ularning xilma-xil uyg'unlashuvidan foydalaniladi:

- hisob va qayta hisob operatsiyalari limitlarini (masalan, tarmoqlar, mintaqalar va h.k. bo'yicha) joriy qilish;
- bank operatsiyalarining (ular guruhlarining) ayrim turlarini limitlash;
- turli moliya-kredit operatsiyalarini amalga oshirganda marjaning eng yuqori darajasini belgilash;
- qarz oluvchilarning har xil toifalariga ayrim turdagi qarzlarni berish shartlarini chegaralab qo'yish;
- kreditning eng ko'p miqdorini belgilash va h.k.

O'zbekistonda 1994-1996-yillarda umumiy turdagi vositalardan ham (masalan, tijorat banklari majburiyatlari bo'yicha 30 foiz zaxira talablari), shuningdek, selektiv turdagi vositalardan ham (masalan, kreditlar bo'yicha qayta moliyalash vositasining eng yuqori 50 foizlik marjasini belgilash) foydalanildi.

Markaziy bank o'tkaziladigan pul-kredit siyosati tartibga solishni amalga oshirishning turini, shunga muvofiq esa tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vositalari turkumini tanlab olar ekan, har bir alohida xo'jalik konyunkturasining holatini hisobga oladi. Ana shunday tanlab olish asosida ishlab chiqilgan pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari albatta qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlanadi.

**[52]. Oltin andozasi (standarti)** – bu pul tizimi bo'lib, unda oltin umumiy ekvivalent rolini o'ynaydi va erkin zarb qilinadigan oltin tangalar yoki oltinga almashtiriladigan qiymat belgilari muomalada bo'ladi.

Oltin andozasi (standarti) quyidagi beshta iqtisodiy holatning namoyon bo'lishini anglatadi:

1. Oltin tangalar muomalada bimalol harakatda bo'ladi.
2. Pulning barcha vazifalarini oltin bajara oladi.
3. Oltin tangalar erkin zarb etiladi.
4. Qiymat belgilari oltinga bimalol almashtiriladi.
5. Jismoniy shaxslar va davlatlar o'rtasida oltin cheklanmagan miqdorda harakat qila oladi.

1976-yil 1 yanvardan boshlab Xalqaro valuta fondi tomonidan

oltinning qat'iy belgilangan jahon bahosi bekor qilindi. Ungacha to'la qiymatga ega oltin tangalar haqiqiy muomalada bo'lar, qog'oz pullar chiqarish esa Markaziy bank yoki xazinadagi markazlashtirilgan oltin zaxirasining miqdori bilan qonunan bog'lab qo'yilgan edi.

Oltin andoza sharoitida pul muomalasini tartibga solish tizimi o'zining ancha kam harakatliligi va moslanuvchan emasligi bilan ajralib turar edi. Pul chiqarish jarayoni mamlakat aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning pulga bo'lgan obyektiv ehtiyoji bilan emas, mamlakatga nodir metallarning kelish yoki mamlakatdan chiqib ketishi bilan mexanik tarzda belgilanar edi.

Oltin standart mexanizmining amal qilishi xalq xo'jaligida pulning yetishmasligini kuchaytirar edi, chunki tanglik davrida mamlakatdan oltinning chiqib ketishi pul emissiyasiga ehtiyoj eng yuqori nuqtaga chiqqan ayni vaqtda muqarrar sur'atda keskin qisqarishga olib kelar edi.

Shunga qaramay, oltin andoza davridagi pul tizimi milliy pul birligining barqarorligini o'z-o'zidan ta'minlab turganligini qayd etish kerak. Bu barqarorlik quyidagicha ta'minlanar edi:

Oltin andoza oltinning barqaror va qat'iy belgilab qo'yilgan narxini taqozo etadi. Agar pul belgilarining soni haddan tashqari ko'payib ketgan bo'lsa, biroq oltinning narxi belgilab qo'yilgan darajada qolaversa, mijozlar uchun «ortiqcha» pulga xazinadan nisbatan arzonlashgan oltinni sotib olish foydali edi va shu tariqa xazina ortiqcha pul belgilarini muomaladan chiqarib olar edi.

Aksincha, pul belgilarining soni haddan tashqari kamayib, ular normal xo'jalik aylanmasi uchun yetarli bo'lmay qolganida oltinning narxi oshar va odamlar xazinaga o'zlarining qimmatlashgan oltinlarini sotar edilar.

1976-1978-yillarda Yamaykada to'rtinchi jahon valuta tizimini yuzaga keltirish maqsadida o'tkazilgan davlatlararo kelishuvga asosan oltinni demonetizatsiya qilish, ya'ni uning pulning barcha vazifalarini bajarishdan mahrum etishga qaror qilindi. Uning o'rnini Markaziy banklarning pul siyosati tamoyillariga asoslangan murakkab va ko'p bosqichli «**pulni boshqarish**» tizimi egalladi.

[53]. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 40-moddasida valutani tartibga solish xususida quyidagilar yozilgan.

Markaziy bank valutani tartibga solish va valutani nazorat qilish davlat organidir. Markaziy bank:

– O'zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar uchun majburiy

bo'lgan valutani nazorat qilishga doir normativ hujjatlar chiqaradi;

– banklar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valutasida operatsiyalar o'tkazish uchun litsenziyalar beradi va litsenziyalarni qaytarib oladi, ularning faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi;

– banklar uchun ochiq valuta mavqeyi limitlarini va boshqa iqtisodiy normativlarni belgilaydi;

– milliy valutaning chet el valutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilaydi;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini tasarruf etadi va boshqaradi.

Markaziy bank o'z nomidan yoki hukumat topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi nomidan chet elda joylashgan kliring (tovarlar, qimmatli qog'ozlar, xizmatlar uchun o'zaro majburiyat talablarini, ya'ni bir-biriga beradigan pullarni hisobga olish bilan naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimi) muassasalari bilan kliring hamda to'lov bitimlari, shuningdek, har qanday shartnomalar tuzishga haqlidir (41-modda).

Markaziy bank o'zining balans hisobvaraqlarida O'zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini shakllantiradi. Bu rezervlar quyidagilarni:

– oltin va boshqa qimmatbaho metallarni;

– naqd chet el valutasini;

– chet el banklarida, xalqaro moliya tashkilotlarida hisobvaraqlar va depozitlarda bo'lgan chet el valutasidagi qoldiqlarini;

– chet el hukumatlari, banklari va xalqaro moliya tashkilotlari chiqargan yoki kafolatlagan chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududi va uning tashqarisida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga hamda xalqaro amaliyotga muvofiq chet el valutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishga haqlidir (43-modda).

## **2.5. Markaziy bankning nazorat funksiyasi**

[54]. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 50-moddasida banklar faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishga doir quyidagi vazifalar belgilangan:

– Markaziy bank bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida

banklar faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi;

– Markaziy bank banklarni ro‘yxatga oladi va ularga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi. Banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziyalar berish uchun haq olinadi;

– Markaziy bank banklarni davlat ro‘yxatiga olish daftarlarini yuritadi. Banklarning ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar e‘lon qilinishi lozim.

Nazoratni tashkil qilish mamlakatning qonunchilik bazasiga va xalqaro bank tashkilotlarining tavsiyalariga asoslanadi.

**[55]. – [27] ga qarang.**


**[56].** «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunning 52-moddasida banklar uchun majburiy bo‘lgan quyidagi iqtisodiy normativlarni qo‘llash ta’kidlangan:

- kapitalning yetarlilik koeffitsiyentini;
- bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko‘p miqdorini;
- likvidlik koeffitsiyentlarini;
- aktivlarni tavsiflash va baholashga doir talablarni, shuningdek, bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va harakatsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;
- qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqish va ularni bank daromadlari hisobvarag‘iga kiritishga doir talablarni;
- ochiq valuta mavqeyi limitlarini belgilaydi.

Markaziy bank iqtisodiy normativlarning o‘zgarishi to‘g‘risida kamida bir oy oldin e‘lon qiladi.

**[57]. – [28] ga qarang.**

**[58].** Banklar faoliyatini nazorat qilishning bir qancha turlari mavjud (17-chizma).



**17-chizma.** Banklar faoliyatini nazorat qilish turlari.

**Davlat nazorati** banklar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining amaldagi

tizimi bilan belgilanadi. Hamma kredit muassasalari va banklar, shu jumladan, Markaziy bank ham qonunlar doirasida ish olib boradi. Bank nazoratining tashkiliy tuzilmalari juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Buyuk Britaniya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya kabi mamlakatlarda nazoratni milliy markaziy banklar amalga oshiradi.

Germaniya, AQSh va Yaponiyada aralash tizim mavjud bo'lib, bunda markaziy banklar nazorat vazifalarini davlat organlari bilan bo'lishib olgan. O'zbekistonda nazorat organi vazifalarini kredit muassasalarni tekshirish yuzasidan tasdiqlangan qoidalar asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash va boshqarish departamenti bajarmoqda.

**Idoraviy nazorat** Bank Boshqaruvi, ichki audit xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Idoraviy nazoratning vazifalari, maqsad va chegaralari tegishli qonun va me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan.

**Mustaqil nazorat** – bu idoralardan tashqari mustaqil tashkilotlar, ya'ni auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir. Tijorat banklari ishonchlilikni oshirish hamda o'z ishlarining sifatli bo'lishini ta'minlash uchun ichki bank nazoratini, yoki ichki auditni tashkil etadi va amalga oshiradi. Tashqi audit amalga oshirilgan vaqtda ichki nazorat tizimining mavjudligi va uning naqadar samarali ish olib borayotgani albatta tekshiriladi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishning hamma turlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, uning maqsad va vazifalari tijorat banklari va umuman butun bank tizimi faoliyatini barqaror va bezarar bo'lishini ta'minlashdan iborat.

[59]. Bank nazoratini amalga oshirish mamlakatning qonunchilik bazasiga va xalqaro bank tashkilotlarining tavsiyalariga asoslanadi. Quyidagilar tekshiruv obyekti hisoblanadi:

- nazorat qilinishi kerak bo'lgan muassasalar turlari;
- bank operatsiyalarini amalga oshirishga litsenziyalar berish;
- buxgalterlik hisobi, bank va statistika hisobotining andoza (standart) lari;
- bank faoliyatini amalga oshirishga berilgan litsenziyalarni bekor qilish yoki bank operatsiyalarini chegaralash tartibi;
- auditorlik tekshiruvlarining majburiyligi;
- bankni boshqarish bo'yicha muvaqqat ma'muriyatni tayinlash tar-tibi;
- bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish.

Nazorat organining asosiy vazifasi kelajakda bank ishida muam-molar vujudga kelish ehtimolini aniqlashdan iborat. Nazorat organlari


o‘z vakolatlarini bank faoliyatiga:

- litsenziyalar berish;
- bajarilgan operatsiyalar doirasini cheklash haqida qarorlar qabul qilish;
- ishlab turgan banklar ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida ro‘yobga chiqarishi mumkin.

**Bank faoliyati uchun litsenziyalar berish** chog‘ida ustav kapitali to‘g‘ri tashkil etilganligi va uning manbalari, uning belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi, bank bajarishni nazarda tutayotgan bo‘lajak operatsiyalar doirasi, shuningdek, bankning maqsadi, vazifalari va strategiyasi aniqlanadi.

**Banklarning iqtisodiy normativlarga rioya qilishi ustidan nazoratni** nazorat organlari taqdim etilayotgan hisobotlarni tahlil qilish orqali amalga oshiradi. Belgilab qo‘yilgan normativlarga rioya qilinmaganida nazorat organlari iqtisodiy jazo choralarini qo‘llaydi.

Nazorat organlari tijorat banklari faoliyati ustidan nazoratni joylarda tekshiruv ishlarini tashkil etish yo‘li bilan olib boradi. Tekshiruvlar ikki xil bo‘lishi mumkin (18-chizma).



**18-chizma.** Banklarni tekshirish usullari.

**Kompleks tekshiruv** ko‘pi bilan 30 kun muddatda amalga oshiriladi va bankning barcha asosiy operatsiyalarini, operatsiya kunining o‘z vaqtida tugallanishini hamda kundalik balansning tuzilishini nazarda tutadi, hamma tijorat banklari ikki yilda kamida bir marta kompleks tekshiruvdan o‘tkazilishi shart.

**Tanlab tekshirish** 15 kungacha muddat bilan cheklangan va u bank faoliyatining ayrim (odatda, tartibbuzarlik ehtimol ko‘proq kutilgan) sohalarini qamrab oladi. Tekshiruv natijalari bo‘yicha dalolatnoma 3 nusxada tuzilib, ularning har birini tekshiruv rahbari, tekshirilayotgan bankning rahbari va bosh buxgalteri hamda boshqa mansabdor shaxslar imzolaydi. Dalolatnoma nusxalaridan biri tekshirilayotgan bank rahbariyatiga topshiriladi.

Bankning majburiy-iqtisodiy normativlarga rioya etishi amaldagi

qonun hujjatlari va iqtisodiy normativlarni hisoblab chiqish tartibi haqidagi ko'rsatmalar asosida tekshiriladi. Banklar faoliyatiga qo'yiladigan yagona talablarning mavjudligi alohida olingan har bir bankning ham, butun bank tizimining ham barqaror va qat'iy ishlashi uchun sharoit yaratib berish imkonini tug'diradi.

[60]. Bankning kredit portfeli qisqa muddatli, uzoq muddatli va muddati o'tgan kreditlar bo'yicha balans hisobvaraqlaridagi mablag'larning qoldiqlaridan tashkil topadi. Bu majmua o'zining mutlaq va nisbiy, ya'ni miqdoriy va sifat tomonlariga ega (19-chizma).



Miqdor jihatdan	Sifat jihatdan
<ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> qisqa muddatli kredit</li> <li><input type="checkbox"/> uzoq muddatli kredit</li> <li><input type="checkbox"/> muddati o'tgan kreditlar bo'yicha balans hisob varaqlaridagi mablag'larning qoldiqlari</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> kreditni qaytarib berishni ta'minlash darajasi</li> <li><input type="checkbox"/> kredit bo'yicha asosiy qarz summasi va ular bo'yicha foizlarning qaytarilmasligini qisqartirishni ta'minlash darajasi</li> </ul>

**19-chizma.** Bank kredit portfeli miqdor va sifat jihatlari.

Kredit portfelining sifat jihatlaridan bankning kreditlarni qaytarib berishni ta'minlashni baholash hamda kredit tavakkalchiligining, ya'ni kredit bo'yicha asosiy qarz summasi va ular bo'yicha foizlarning qaytarilmasligini qisqartirishni ta'minlashni baholash uchun foydalaniladi.

**Kreditni qaytarib berishni ta'minlash:**

- ma'lum bir bankda kredit jarayonini tashkil etishga;
- qarz berish va uni uzish tartibiga rioya qilishga;
- muddati uzaytirilgan hamda muddatida qaytarilmagan qarzlarni hisobda to'g'ri aks ettirishga;
- bankning tahlil ishiga hamda qarzlarning tasniflashning to'g'riligiga;
- qarzar bo'yicha ko'riladigan zararni qoplashda foydalaniladigan zaxiralar miqdoriga;
- banklararo kreditlar bo'yicha va markazlashtirilgan resurslar hisobidan beriladigan kreditlar bo'yicha operatsiyalarning qonuniyligiga bog'liq bo'ladi.

Bank nazoratining vazifasi ana shu qayd etilgan yo'nalishlarni tekshirishdan hamda hisobotlarni tasdiqlashdan iborat.

Nazorat organlari amalga oshirgan tekshirish natijasida bank kredit portfelining sifati va bank kredit riskining miqdori tasdiqlan-mog' i kerak. Bu miqdor (zaxira) yetarli bo'lmasa, ular uni tashkil etish manbalarini ko'rib chiqib, tijorat bankiga tegishli tavsiyalar beradi.

Kredit riski kredit berish chog'ida bank bergan har bir qarz bo'yicha va har bir hisobot bo'yicha baholanadi.

**[61]. Kredit** deganda pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni keli-shilgan ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum mud-datga qarz berish tushuniladi.

Qarzga mablag' (kredit) beruvchi tomon **kreditor** (davlat, korxon, bank, xususiy shaxs va b.), ssuda (qarz) oluvchi tomon esa **debitor** (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdor foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Kreditlar muddati bo'yicha ikki xil bo'ladi:

- qisqa muddatli (1-yilgacha, ayrim hollarda 2-yilgacha);
- uzoq muddatli.

**Qisqa muddatli kredit** korxon va tashkilotlarning aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Uzoq muddatli kredit** esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag'lar ajratish manbayi hisoblanadi. Amaliyotda kreditning quyidagi turlari mavjud (6-jadval).

Kreditni kredit riskining u yoki bu guruhiga kiritish tartibi qarz oluvchining:

- doimiy daromadi borligini;

## 6-jadval.

### Kredit turlari

<b>№</b>	<b>Kredit turlari</b>	<b>Izoh</b>
1	2	3
1.	Blank (rasmiy qog'oz) krediti	<input type="checkbox"/> bu ta'minot manbayi bo'lmagan kredit.
2.	Davlat krediti	<input type="checkbox"/> aholiga sotiladigan davlat zayomlari, obligatsiyalari bilan amalga oshiriladi. Bunda davlat jismoniy yoki yuridik shaxslardan kredit oladi.
3.	Iste'mol krediti	<input type="checkbox"/> aholiga iste'mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy xarajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o'zaro yordam kassasi qarzlari va b. ko'rinishlarda beriladigan kredit.
4.	Kafolatli kredit	<input type="checkbox"/> banklar yoki hukumat organlari kafolati bilan berilgan



		kreditlar.
5.	Moliya krediti	<input type="checkbox"/> tijorat krediti shakli; eksportyorlarga ayrim kredit bitimlari bo'yicha importyorlarga sotib oladigan tovarlariga to'lashi uchun pul ko'rinishida bo'ladi.
6.	Tovar krediti	<input type="checkbox"/> tijorat krediti shakli; eksportyorlar importyorlarga yetkazib berilgan tovarlar uchun to'lovlar muddatini cho'zib beradi.
7.	Qoplama kredit	<input type="checkbox"/> qarzni uzishda pul (valuta) o'rniga olingan qarz hisobiga ko'rilgan korxonalar mahsulotlari beriladi.
8.	Xalqaro kredit	<input type="checkbox"/> muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan kredit, shuningdek, chet el obligatsiyalari, chet el korxonalari aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga foyda olish maqsadlarida kapital qo'yish.
9.	Ta'minlangan kredit	<input type="checkbox"/> real qiymati qarzga teng yoki undan ortiq bo'lgan likvid garovi tarzidagi ta'minotga ega yoki bank yoxud hukumatning kafolatiga ega yo belgilangan tartibda sug'urtalab qo'yilgan kredit.
10.	Yetarli darajada ta'minlanmagan kredit	<input type="checkbox"/> qisman ta'minotga ega (qiymati jihatdan qarzning kamida 60 foizi miqdorida), lekin uning real qiymati yoki realizatsiyasi shubhali bo'lgan kredit.
11.	Ta'minlanmagan kredit	<input type="checkbox"/> ta'minotga ega bo'lmagan yoki ta'minotning real qiymati qarz miqdorining 60 foizidan kam bo'lgan kredit.
12.	Andoza (standart) kredit	<input type="checkbox"/> <b>birinchi guruh riski</b> jumlasiga kiradigan qarzlarda bo'yicha asosiy qarz, shu jumladan belgilangan tartibda muddati uzaytirilgan, lekin ko'pi bilan ikki marta uzaytirilgan, shuningdek, 30 kungacha muddati o'tkazib yuborilgan ta'minlangan qarzlarda o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanadi. Tijorat banklari standart qarzlarda uchun ehtimoldagi yo'qotishlarni nazarda tutib berilgan qarzlarda miqdorining kamida 2 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart.
13.	Nostandart kreditlar	<input type="checkbox"/> <b>ikkinchi guruh riski</b> jumlasiga 30 kungacha muddati o'tkazib yuborilgan yetarli darajada ta'minlanmagan qarzlarda, shuningdek, 30 kundan 60 kungacha muddati o'tkazib yuborilgan ta'minlangan tijorat banklari andoza qarzlarda uchun ehtimoldagi yo'qotishlarni nazarda tutib, berilgan qarzlarda miqdorining kamida 5 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart.
14.	«Shubhali kreditlar»	<input type="checkbox"/> <b>uchinchi risk guruhiga</b> 30 kungacha muddati kechiktirib yuborilgan yetarli darajada ta'minlanmagan qarzlarda, 30 kundan 60 kungacha kechiktirib yuborilgan

		yetarli darajada ta'minlanmagan qarzlarni uchun ehtimoldagi yo'qotishlarni nazarda tutib, berilgan qarzlarni miqdorining kamida 30 foiz miqdorida zaxira tashkil etishlari shart.
15.	«Xavfli kredit»	<input type="checkbox"/> <b>to'rtinchi risk guruhiga</b> 30 kundan 60 kungacha kechiktirib yuborilgan ta'minlanmagan qarzlarni, shuningdek, 60 kundan 180 kungacha muddati kechiktirib yuborilgan yetarli darajada ta'minlanmagan qarzlarni kiradi. Tijorat banklari standart qarzlarni uchun ehtimoldagi yo'qotishlarni nazarda tutib, berilgan qarzlarni miqdorining kamida 75 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart.
16.	«Umidsiz kredit»	<input type="checkbox"/> <b>beshinchii risk guruhiga</b> 60 kundan 180 kungacha muddati o'tkazib yuborilgan ta'minlanmagan qarzlarni va 180 kundan ortiq muddati o'tkazib yuborilgan barcha qarzlarni kiradi. Tijorat banklari bunday qarzlarni uchun ehtimoldagi yo'qotishlarni nazarda tutib, berilgan qarzlarni miqdorining kamida 100 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart.

- yoshini;
- salomatligini;
- ilgari olgan majburiyatlarini qanday bajarganligini;
- garov (kafolat) ning mavjudligini hisobga olgan holda belgilanadi.

[62]. Nazorat organlari tomonidan tijorat banklarida buxgalteriya hisobining quyidagi jihatlari tekshiriladi:

- noreal (ishonarli bo'lmagan) aktivlar va passivlarni aniqlash, bank balansining realligi va ishonchliligini tasdiqlash;
- buxgalteriya hisobi holatini, uning tashkil etilishini tijorat banklarining amaldagi me'yoriy nizomlariga muvofiqligini tekshirish;
- iqtisodiy normativlar hisobining to'g'ri chiqarganligini tekshirish;
- xo'jalik-moliyaviy faoliyatni tahlil qilish va maslahat berish. Shunga muvofiq bank menejmentining sifati, aktivlar va passivlarni boshqarish sifati tekshiriladi.

Bank nazorati organlari uzoq muddat kechiktirib yuborilgan qarzlarni va ular yuzasidan yozilgan foizlarni bankning **noreal aktivlar va passivlari** deb hisoblab, ularni balans hisobidan chiqarish haqidagi talablarni asosli ravishda qo'yishlari kerak.

Tekshiruvchilar, odatda, tijorat banki xodimlariga maslahatlar beradi va ularga bank balanslarini qarz operatsiyalari hamda foiz daromadlarini hisobga olish jihatdan ishonarli va real qiladigan ichki yo'riqnomalarni tuzishda yordam beradi.

[63]. Daromadlarni shakllantirish va chiqimlarni xarajatga o'tkazishni amalga oshirganda tijorat banklari ma'lum me'yoriy va yo'riq-noma hujjatlarga asoslanadi. Daromadlarni shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha operatsiyalar bankning ichki operatsiyalari jumlasiga kiradi va bu operatsiyalar to'g'ri amalga oshirilganligini tasdiqlaydigan hujjatlar alohida yig'ma jildlarda saqlanadi.

Foiz stavkasi tijorat bitimining maqsadi bo'lib, mijoz bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida qayd etiladi. Foiz stavkalarining miqdori, ularni yozish tartibi, davri, qo'shish muddatlari hamda undirib olish tartibi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, agar tijorat banki daromadining 90 foizini o'z buxgalteriyasining farmoyishi asosida shakllantiradigan bo'lsa, u korporativ odob qoidalarini buzgan va bunday harakatlar noqonuniy deb hisoblanadi.

Bank nazorati organlari hisobotda to'g'ri aks ettirilishini va tasdiqlanishini tekshirish yuzasidan olib boradigan asosiy ishi quyidagi daromadlarning hamma summasini bank foydasiga to'g'ri o'tkazilganligini tekshirishdan iborat:

- aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- bankka qarashli boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan dividendlar va foizlar;
- boshqa banklar, korxonalar va tashkilotlar faoliyatida ulush qo'shib qatnashishdan olingan daromadlar.

Markaziy bankning uslubiy materiallarida ko'rsatilgan xarajatlar va chiqimlar tijorat banklari faoliyatlarining bevosita moliyaviy natijalari jumlasiga kiradi. Bank nazorati organlari faoliyatining eng muhim yo'nalishi bank oladigan foyda hisobidan qoplanishi kerak bo'lgan xarajatlarning bank xizmatlari tannarxiga kiritilgan xarajatlarga o'tkazish holalarining oldini olishdan iboratdir.

Tijorat bankini soliqqa tortish holatini tekshirish oldida quyidagi vazifalar turadi:

- banklar olgan daromadlarning to'g'riligini tasdiqlash;
- bank xizmatlari tannarxiga kiritiladigan hamda soliqda soliq tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadigan xarajatlarning to'g'riligini tasdiqlash;
- soliqqa tortguniga qadar foyda summasining, moliyaviy natijalarga kiritiladigan daromadlar va xarajatlarning to'g'ri hisoblab chiqarilganligini

tasdiqlash;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lab bo‘linganidan keyin bank tomonidan foyda hisobidan qilingan xarajatlarning to‘g‘riligini tasdiqlash;
- soliqlarni hisoblash va budjetga to‘lash muddatlarining to‘g‘riligini tekshirish.

## 2.6. Markaziy bankning moliyaviy ahvoli

[64]. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunning II qismi «Bankning moliyaviy ahvoli» deb atalib, unda 10-14 moddalar o‘z aksini topgan. 10-moddada «Markaziy bankning ustav kapitali» to‘g‘risida quyidagilar yozilgan:

Markaziy bankning ustav kapitali miqdori 2 milliard so‘mdan iborat. Bu miqdor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga muvofiq oshiriladi. Markaziy bankning ustav kapitali boshqa shaxslarga berilishi mumkin emas.

Bu ustav kapitali Nizom jamg‘armasi deb yuritilib, u faqatgina Markaziy bankning o‘z faoliyati uchun ishlatilishi mumkin. Markaziy bank Nizom jamg‘armasini xorijiy davlat valutasida ham tuzishi mumkin.

Nizom jamg‘armasidan tashqari Markaziy bank turli maqsadlarga mo‘ljallangan jamg‘armalar tashkil qiladi, ularni o‘z Nizomiga asosan boshqaradi va ulardan foydalanadi. Bu jamg‘armalarning manbayi bo‘lib Markaziy bankning olayotgan foydasi hisoblanadi.

Markaziy bankning **kredit resurslari** quyidagilardan tashkil topadi:

Markaziy bank ustavi;

zaxira va boshqa g‘amlamalar;

tijorat banklari tomonidan majburiy o‘tkazilgan ajratmalar dan tashqari qo‘shimcha ravishda o‘tkazilgan omonatlari;

boshqa mamlakat banklari va hukumatlarining omonatlari;

Markaziy bank ustavida ko‘zda tutilgan boshqa mablag‘lar.

[65]. Markaziy bankning foydasi har bir moliya yili uchun: ishonchsiz, shubhali qarzlarni va boshqa aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash zaxiralari shakllantirilgandan so‘ng;

umumiy qabul qilingan buxgalterlik amaliyotiga muvofiq amalda barcha daromadlar va chiqimlar hisoblanganidan, shuningdek, aktivlar va passivlar baholanganidan so‘ng aniqlanadi.

Markaziy bankning foydasi Boshqaruv belgilagan tartibda, yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir paytda taqsimlanadi. Boshqaruvning qaroriga muvofiq aniq maqsadli turli jamg‘armalar va fondlar shakllantirilishi

mumkin.

Fondlar va majburiy gʻamlamalar belgilangan tartibda toʻldirilganidan keyin foydaning qolgan qismi respublika budjeti daromadiga yoʻnaltiriladi.

Yillik hisobot koʻrib chiqilmaguncha foydaning respublika budjetiga oʻtkazilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Markaziy bank va uning muassasalari soliqlar, yigʻimlar, bojlar va boshqa toʻlovlardan ozod qilinadi (12-modda)

Markaziy bankning hisobot davri 1-yanvar – 31-dekabr qilib belgilanadi. Yillik hisobot 15-maydan kechiktirilmay, Oliy Majlis koʻrib chiqishi uchun taqdim etiladi (13-modda).

Markaziy bankda auditorlik tekshiruvi mustaqil auditor tashkilotlar tomonidan har yili oʻtkaziladi (14-modda)

**[66].** Bank tomonidan koʻrsatilgan xizmat turlari, ularning hajmi bankning moliyaviy hisobotida oʻz aksini topadi. Bank boshqaruvchisi, mijozlar (ayniqsa, depozitlari sugʻurtalanmagan yirik mijozlar) nazorat va muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar vakillarini eng avvalo ikki turdagi moliyaviy hisobot qiziqtiradi:

- moliyaviy balans (moliyaviy holat boʻyicha hisobot);
- daromad, xarajat va foyda toʻgʻrisida hisobot.

Moliyaviy holat boʻyicha hisobotda pul mablagʻlarining hajmi va manbalarining tarkibi batafsil koʻrsatiladi. Ular moliyaviy oqimlar kirimi hisoblanadi. Bu mablagʻlar bank tomonidan investitsion faoliyatni hamda kreditga boʻlgan oʻzining ehtiyojlarini moliyalash uchun ishlatiladi. Shuningdek, ularning bir qismi kredit berish yoki qimmatli qogʻozlarni sotib olish va boshqa maqsadlar uchun sarflanadi (moliyaviy oqimlar chiqimi). Bu balans va hisobot quyidagi koʻrinishga ega (20-chizma).

Jalb qilinadigan moliyaviy omillar va daromad, xarajat, foyda boʻyicha moliyaviy faoliyat natijalari bank faoliyati uchun ishlatilgan depozitlar va boshqa mablagʻlardan qay darajada foydalanganligini ifodalaydi. Xarajatlarning qismiga omonatchilarga va bankning boshqa kreditorlariga toʻlanadigan foizlar, ish haqi boʻyicha toʻlovlar, bino va uskunalarni sotib olish, ulardan, shuningdek, davlat xizmatlaridan foydalanganligi uchun toʻlovlar kiradi. Daromad, xarajat va foyda boʻyicha hisobotda keng ommaga koʻr-

satilgan bank xizmati, lizing operatsiyalari, mijozlarga kredit berilgani va depozit xizmatlari uchun tushgan daromadlar yoritiladi.

Va nihoyat, bu hisobotda bankning sof daromadlari to'g'risida ma'lumot ham keltiriladi.

<b>Balans (moliyaviy holat bo'yicha hisobot)</b>		
Aktiv yoki mablag'lardan foydalanish (moliyaviy oqimlar chiqimi)	Mablag'lar manbai yoki majburiyatlar plus hisador kapitali (moliyaviy oqimlar kirimi)	
<input type="checkbox"/> kredit va ijara to'lovi; <input type="checkbox"/> qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish; <input type="checkbox"/> naqd pul va boshqa institutlardagi depozitlar	<input type="checkbox"/> xususiy shaxslar depozitlari; <input type="checkbox"/> nodepozitiv majburiyatlar; <input type="checkbox"/> hisadorlar kapitali	
<table border="1" style="margin: auto;"> <tr> <td style="padding: 5px;"> <b>Aktivlar = majburiyatlar + hisadorlar kapitali</b>  <b>(passivlar)</b> </td> </tr> </table>		<b>Aktivlar = majburiyatlar + hisadorlar kapitali</b> <b>(passivlar)</b>
<b>Aktivlar = majburiyatlar + hisadorlar kapitali</b> <b>(passivlar)</b>		

<b>Foyda va zarar to'g'risida hisobot</b>		
Moliyaviy faoliyat natijalari (mablag'lar va boshqa resurslardan foydalanish evaziga olingan daromadlar)	Jalb qilinadigan moliyaviy omillar (xizmatlar bajarish uchun bankka zarur bo'lgan mablag'lar va boshqa resurslarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar)	
<input type="checkbox"/> Kredit operatsiyalaridan tushgan daromad; <input type="checkbox"/> Qimmatli qog'ozlardan tushgan daromad; <input type="checkbox"/> Boshqa institutlardagi depozitlardan tushgan daromad; <input type="checkbox"/> Ikkinchi darajali xizmatlardan tushgan daromad	<input type="checkbox"/> Depozitlar bo'yicha foizlar to'lovi; <input type="checkbox"/> Hisobga olinmagan depozitlar bo'yicha to'lovlar; <input type="checkbox"/> Ish haqi bo'yicha to'lovlar; <input type="checkbox"/> Ustama xarajatlar <input type="checkbox"/> Soliqlar.	
<table border="1" style="margin: auto;"> <tr> <td style="padding: 5px;"> <b>Bankning sof foydasi = barcha daromadlar - barcha xarajatlar</b> </td> </tr> </table>		<b>Bankning sof foydasi = barcha daromadlar - barcha xarajatlar</b>
<b>Bankning sof foydasi = barcha daromadlar - barcha xarajatlar</b>		

**20-chizma.** Balans, moliyaviy holat bo'yicha hisobot.

[67]. Bank balansining **aktiv** (A) qismi quyidagilardan tashkil topadi:

$$A = S + S + L + M_A$$

Bu yerda:

S – kassadagi mablag'lar va «**nostro**» schyotdagi depozitlar;

S – ochiq bozordan sotib olinadigan davlat va xususiy shaxslarning qimmatli qog‘ozlari;

L – kreditlar va iste‘molchilar taklifi bilan moliyalashtiriladigan ijaralar;

$M_A$  – ikkinchi darajali aktivlar.

**Kassadagi mablag‘lar (S)**, kassa va yo‘ldagi pullar va boshqa banklarda joylashtirilgan barcha depozitlar inkassatsiya qilinmagan cheklar odatda **birlamchi zaxiralar** deb yuritiladi. Chunki aynan shu mablag‘lar kutilmagan holatda mijozlarning talabi bilan ularning qarzlarni qaytarish zarur bo‘lgan taqdirda sarflangan mablag‘ o‘rnini qoplashda «Tez yordam» vazifasini bajaradi. Bu degan so‘z aktivning mazkur qismi bankning **birinchi «himoya chizig‘i»** hisoblanadi. Bu qism jami aktivning, odatda, 8 foizdan kamrog‘ini tashkil qiladi.

**Investitsiyalanadigan qimmatli qog‘ozlar: (S) qoplanadigan (likvidli) qism.** Bu qism likvid qimmatli qog‘ozlarga kapital qo‘yilmalar ajratishga va mavjud talabni zudlik bilan qondirishga sarflanadi. Shu sababli uni bankning **ikkinchi «himoya chizig‘i»** yoki ikkinchi o‘rinda turuvchi zaxira deb yuritishadi. Bu zaxira mavjud pul mablag‘i bilan kredit o‘rtasida turadi va muayyan daromad olishni ta‘minlaydi.

**Kreditlar (L)** bank aktivining 50-75 foizini tashkil qiladi. Bu qism eng katta salmoqqa ega bo‘lib, **kredit – brutto** deb nomlanadi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

«Men bankdan qarzman» nomi bilan atalib, u o‘z ichiga iste‘mol krediti, garovga qo‘yilgan qo‘zg‘almas mulk, tijorat va qishloq xo‘jaligi korxonalariga to‘lanishi lozim bo‘lgan tilxatlar (kreditlar), shuningdek, dilerlarga qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalar bajarish maqsadida ajratilgan muddati cho‘zilgan kreditlarni oladi. Ammo bu summadan kreditlar bo‘yicha joriy va kutiladigan zararlar chegirilib tashlanadi.

**Ikkinchi darajali aktivlarga** amortizatsiyaga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligini hisobga olingan holdagi bino va uskunalarning sof qiymati, sho‘ba korxonalariga qilingan investitsiya summasi, sug‘urta polislari uchun oldindan to‘lovlar va boshqa qiymatlari kiradi. Moddiy mablag‘lar qiymati, ya‘ni bino va uskunalarda o‘z ifodasini topgan aktivlar, odatda, bank aktivlarining juda kam qismi (1-2 foiz)ni tashkil qiladi.

## 2.7. Tayanch iboralar

*Markaziy bank*

*Markaziy bank raisi vakolatlari*

*ijobiy nazorat*

*salbiy nazorat*

- |   |  |
|---|--|
| <input type="checkbox"/> <i>Bank boshqaruvi</i>       | <input type="checkbox"/> <i>pul muomalasi</i>            |
| <input type="checkbox"/> <i>monetar siyosat</i>       | <input type="checkbox"/> <i>pul emissiyasi</i>           |
| <input type="checkbox"/> <i>foiz stavkalari</i>       | <input type="checkbox"/> <i>«yomon» pullar</i>           |
| <input type="checkbox"/> <i>marja</i>                 | <input type="checkbox"/> <i>«yaxshi» pullar</i>          |
| <input type="checkbox"/> <i>maqsadlar dilemmasi</i>   | <input type="checkbox"/> <i>monometallizm</i>            |
| <input type="checkbox"/> <i>maqsadlar kolliziyasi</i> | <input type="checkbox"/> <i>bimetallizm</i>              |
| <input type="checkbox"/> <i>«Buyuk depressiya»</i>    | <input type="checkbox"/> <i>kredit pullar</i>            |
| <input type="checkbox"/> <i>veksel</i>                | <input type="checkbox"/> <i>pul miqdori</i>              |
| <input type="checkbox"/> <i>banknot</i>               | <input type="checkbox"/> <i>pul aylanmasi tezligi</i>    |
| <input type="checkbox"/> <i>chek</i>                  | <input type="checkbox"/> <i>muomaladagi pul miqdori</i>  |
| <input type="checkbox"/> <i>kredit kartochkasi</i>    | <input type="checkbox"/> <i>pul massasi</i>              |
| <input type="checkbox"/> <i>elektron pul</i>          | <input type="checkbox"/> <i>pul agregati</i>             |
| <input type="checkbox"/> <i>aktiv pullar</i>          | <input type="checkbox"/> $M_0, M_1, M_2, M_3$            |
| <input type="checkbox"/> <i>passiv pullar</i>         | <input type="checkbox"/> <i>pul bozori</i>               |
| <input type="checkbox"/> <i>kvazi-pullar</i>          | <input type="checkbox"/> <i>pul multiplikatori</i>       |
| <input type="checkbox"/> <i>pul taklifi</i>           | <input type="checkbox"/> <i>pul bazasi</i>               |
| <input type="checkbox"/> <i>pulga talab</i>           | <input type="checkbox"/> <i>oltin andozasi</i>           |
| <input type="checkbox"/> <i>arzon pullar</i>          | <input type="checkbox"/> <i>bankning kredit majmuasi</i> |
| <input type="checkbox"/> <i>qimmat pullar</i>         | <input type="checkbox"/> <i>kredit</i>                   |
| <input type="checkbox"/> <i>bank nazorati</i>         | <input type="checkbox"/> <i>kredit turlari</i>           |
| <input type="checkbox"/> <i>davlat nazorati</i>       | <input type="checkbox"/> <i>kredit resurslari</i>        |
| <input type="checkbox"/> <i>idoraviy nazorat</i>      | <input type="checkbox"/> <i>bankning sof foydasi</i>     |
| <input type="checkbox"/> <i>mustaqil nazorat</i>      |  |
| <input type="checkbox"/> <i>aktivlar</i>              |  |

## 2.8. Test topshiriqlari va masalalar

### 1. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini:

- Prezident devoni boshqaradi;*
- Vazirlar Mahkamasi boshqaradi;*
- Respublika Markaziy banki boshqaradi;*
- noto‘g‘ri javob yo‘q.*

### 2. Quyida qayd qilingan vazifalarning qaysi biri Markaziy bank vazifalariga taalluqli?

- rasmiy oltin-valuta zaxiralarini saqlash;*
- pul emissiyasini amalga oshirish;*
- moliyaviy yordam ko‘rsatish, tijorat bilan shug‘ullanish;*
- a + b.*

### 3. Markaziy bank boshqa banklar faoliyatini tartibga solishda quyidagi ko‘rsatkichlarning qaysi biridan foydalanadi?

- kapitalning monandlik koeffitsiyentidan;*
- likvidlik koeffitsiyentidan;*
- qarzlarga doir foizlarni hisoblash va ularni bank daromadlari*



*hisob varag'iga kiritishga doir talablardan;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**4. Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda Markaziy bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan:**

*a) 0,1 foizgacha jarima undirish huquqiga ega;*

*b) 0,2 foizgacha jarima undirish huquqiga ega;*

*c) 0,3 foizgacha jarima undirish huquqiga ega;*

*d) 0,5 foizgacha jarima undirish huquqiga ega.*

**5. Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda Markaziy bank ularga ayrim operatsiyalarni o'tkazishni:**

*a) 1 oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega;*

*b) 3 oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega;*

*c) 6 oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega;*

*d) 9 oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.*

**6. Quyida qayd qilingan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning qaysi biri makroiqtisodiyotni tartibga solishning sehrli kvadrati deb yuritiladi?**

*a) narxlarning umumiy darajasi va uning o'sish yoki kamayish sur'atlari;*

*b) xalq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sish yoki kamayish sur'atlari;*

*c) mehnatga layoqatli aholining ish bilan to'liq bandlik darajasi;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**7. Pul-kreditni tartibga solishdan asosiy maqsad:**

*a) narxlar barqarorligini ta'minlashdan iborat;*

*b) ortiqcha xarajatlarning oldini olishdan iborat;*

*c) nomatlub inflatsiya va deflatsiya jarayonlariga qarshi tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**8. Quyida qayd qilingan usullarning qaysi biri pul-kreditni tartibga solish usuli hisoblanadi**

*a) ma'muriy-bevosita usul;*

*b) iqtisodiy bilvosita usul;*

- c)  $a + b$ ;
- d) matematik usul.

**9. Pul-kreditni tartibga solishning ma'muriy usuli:**

- a) bozor mexanizmi orqali bilvosita amal qiladi;
- b) direktiv boshqaruv va me'yoriy qoidalar orqali bevosita amal qiladi;
- c) Markaziy bank balansida o'z aksini bilvosita topadi;
- d) banklarning kredit imkoniyatlarini kamaytirib yoki ko'paytirib, ularning likvidligiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

**10. Pul-kreditni tartibga solishning iqtisodiy usuli:**

- a) tijorat banklar balansining o'zgarishlariga bevosita sabab bo'ladi;
- b) tijorat banklari beradigan kreditlarga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir ko'rsatadi;
- c) banklarning kredit imkoniyatlarini kamaytirib yoki ko'paytirib, ularning likvidligiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi;
- d) direktiv boshqaruv va me'yoriy qoidalar orqali bevosita amal qiladi.

**11. Quyidagilarning qaysi biri kredit pullari deb yuritiladi?**

- a) veksel;
- b) banknot;
- c) chek;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**12. Metall bilan ta'minlanmagan emissiya:**

- a) fidutsiar emissiya deb ataladi;
- b) bir yilgacha muddat bilan chiqariladigan qisqa muddatli davlat zayomlari emissiyasi deb ataladi;
- c) uzoq muddat bilan chiqariladigan davlat zayomlari emissiyasi deb ataladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**13. Kredit kartochkasi – bu:**

- a) hisob-kitoblarni elektron hisoblash mashinalari yordamida bajarish uchun qo'llaniladigan kredit pullarining eng so'nggi turi;
- b) bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasasi tomonidan biror kishi nomiga berilgan pul hujjati;

*c) bankdagi hisobvaraqa egasining chekda ko'rsatilgan summani shu hisobvaraqdan chek ushlovchiga to'lash yoki uni chek ushlovchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi yozma topshirig'i;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**14. Tovar aylanmasiga xizmat qiluvchi pul miqdori (PM)...**

*a) tovar massasi bahosiga (B) to'g'ri proporsional o'zgaradi;*

*b) pul aylanmasi tezligiga (POT) teskari proporsional o'zgaradi;*

*c) tovar bahosiga (B) teskari proporsional o'zgaradi;*

*d) a + b*

**15. Pul massasi tarkibiga:**

*a) faqat naqd pullar kiradi;*

*b) faqat naqdsiz pullar kiradi;*

*c) naqd va naqdsiz pullar kiradi;*

*d) faqat aktiv pullar kiradi.*

**16. Aktiv pullarga:**

*a) bevosita xo'jalik faoliyatiga xizmat ko'rsatuvchi pul mablag'lari kiradi;*

*b) pul jamg'armalari kiradi;*

*c) hisobvaraqlardagi qoldiqlar kiradi;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**17. Passiv pullarga:**

*a) hisobvaraqlardagi qoldiqlar, ya'ni potensial hisob-kitob mablag'lari kiradi;*

*b) pul jamg'armalari kiradi;*

*c) bevosita xo'jalik faoliyatiga xizmat ko'rsatuvchi pul mablag'lari kiradi;*

*d) a + b.*

**18. Kvazi-pullar – bu:**

*a) metall pullar shaklidagi naqd pul mablag'laridir;*

*b) tijorat banklaridagi muddatli va jamg'arma omonatlarda turgan naqdsiz shaklidagi pul mablag'laridir;*

*c) nobank sektoridagi naqd pul mablag'laridir;*

*d) a + b.*

**19. Pul agregati deganda:**

*a) jamg'arila borib, xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul*

*vositalari tushuniladi;*

*b) likvidlik darajasiga qarab pul massasining barcha birlashgan komponentlari tushuniladi;*

*c)  $a + b$ ;*

*d) naqd pullar yig'indisi tushuniladi.*

**20. Quyida qayd qilingan unsurlarning qaysi birlari pul massasi tarkibiga kiradi?**

*a)  $M1 = \text{naqd pul} + \text{chek omonatlari}$ ;*

*b)  $M2 = M1 + \text{cheksiz jamg'arma hisob} + \text{mayda miqdordagi muddatli omonatlar}$ ;*

*c)  $M3 = M2 + \text{yirik miqdordagi muddatli omonatlar}$ ;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**21. Pul taklifi – bu:**

*a) muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir;*

*b) pul muomalasi, ya'ni xo'jalik aylanmasi uchun kerak bo'lgan pulga ehtiyojdir;*

*c) muomaladagi pul massasidir;*

*d)  $a + v$ .*

**22. Pul multiplikatori – bu:**

*a) pul bazasining bir pul birlikka ko'payishi tufayli pul taklif qilishning o'sishini ifodalaydigan koeffitsiyentdir;*

*b) muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdorini tavsiflovchi koeffitsiyentdir;*

*c) muomaladagi pul massasini ifodalovchi koeffitsiyentdir;*

*d)  $b + v$ .*

**23. Pulga bo'lgan talabning kamayishi yoki pul massasini chegaralash:**

*a) «qimmat pullar» siyosatini yurgizishga olib keladi;*

*b) restriksion siyosatni yurgizishga olib keladi;*

*c)  $a + b$ ;*

*d) «arzon pullar» siyosatini yurgizishga olib keladi.*

**24. Pulga bo'lgan talabning oshishi yoki muomaladagi pul miqdorining o'sishi:**

*a) «qimmat pullar» siyosatini yurgizishga olib keladi;*

*b) «arzon pullar» siyosatini yurgizishga olib keladi;*

*c) restriksion siyosatni yurgizishga olib keladi;*

*d) a + v.*

**25. Quyidagi nazorat turlarining qaysi biri banklar faoliyatini nazorat qilish turiga kiradi?**

*a) davlat nazorati;*

*b) idoraviy nazorat;*

*c) mustaqil nazorat;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**26. Davlat nazorati:**

*a) banklar to'g'risidagi qonun hujjatlarining amaldagi tizimiga asoslanib amalga oshiriladigan nazoratdir;*

*b) Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi;*

*c) idoralardan tashqari mustaqil tashkilotlar, ya'ni auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**27. Qarzga mablag' beruvchi tomon:**

*a) debitor deyiladi;*

*b) kreditor deyiladi;*

*c) qarzdor deyiladi;*

*d) a + v.*

**28. Ta'minot manbai bo'lmagan kredit:**

*a) iste'mol krediti deyiladi;*

*b) kafolatli kredit deyiladi;*

*c) blank (rasmiy qog'oz) krediti deyiladi;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**29. Ta'minotning real qiymati qarz miqdorining 60 foizidan kam bo'lgan kredit:**

*a) ta'minlangan kredit hisoblanadi;*

*b) yetarli darajada ta'minlanmagan kredit hisoblanadi;*

*c) kafolatli kredit hisoblanadi;*

*d) ta'minlanmagan kredit hisoblanadi.*

**30. Real qiymati qarzga teng yoki undan ortiq bo'lgan, likvid garovi tarzidagi ta'minotga ega yoki bank yoxud hukumatning kafolatiga ega yondashish belgilangan tartibda sug'urtalab**

**qo'yilgan kredit:**

- a) ta'minlangan kredit hisoblanadi;
- b) ta'minlanmagan kredit hisoblanadi;
- c) yetarli darajada ta'minlanmagan kredit hisoblanadi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**31. Birinchi guruh tavakkalchiligi jumlasiga:**

- a) «Nostandart kredit» turi kiradi;
- b) «Andoza (standart) kredit» turi hisoblanadi;
- c) «Shubhali kredit» turi kiradi;
- d) «Xavfli kredit» turi kiradi.

**32. 60 kundan 180 kungacha muddati o'tkazib yuborilgan ta'minlanmagan qarzlilar va 180 kundan ortiq muddati o'tkazib yuborilgan barcha qarzlilar:**

- a) «Shubhali kredit» toifasiga kiradi;
- b) «Xavfli kredit» toifasiga kiradi;
- c) «Umidsiz kredit» toifasiga kiradi;
- d) «Nostandart kredit» toifasiga kiradi.

**33. 30 kundan 60 kungacha muddati kechiktirilib yuborilgan ta'minlanmagan, shuningdek, 60 kundan 180 kungacha muddati kechiktirilib yuborilgan yetarli darajada ta'minlanmagan qarzlilar:**

- a) ikkinchi guruh tavakkalchiligiga kiradi;
- b) uchinchi guruh tavakkalchiligiga kiradi;
- c) to'rtinchi guruh tavakkalchiligiga kiradi;
- d) beshinchi guruh tavakkalchiligiga kiradi.

**34. 30 kungacha muddati kechiktirib yuborilgan, yetarli darajada ta'minlanmagan, shuningdek, 30 kundan 60 kungacha kechiktirib yuborilgan qarzlilar:**

- a) «Umidsiz kredit» toifasiga kiradi;
- b) «Andoza (standart) kredit» toifasiga kiradi;
- c) «Xavfli kredit» toifasiga kiradi;
- d) «Shubhali kredit» toifasiga kiradi.

**35. «Andoza (standart) kredit» sharoitida banklar berilgan qarzlilar miqdorining kamida:**

- a) 2 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart;
- b) 10 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart;

- c) 30 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart;
- d) 75 foizi miqdorida zaxira tashkil etilishi shart.

**36. «Umidsiz kredit» sharoitida banklar berilgan qarzlarning miqdorining kamida:**

- a) 75 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart;
- b) 100 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart;
- c) 60 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart;
- g) 30 foizi miqdorida zaxira tashkil etishlari shart.

**37. Markaziy bank va uning muassasalari soliqlar, yigʻimlar, bojlar va boshqa toʻlovlardan:**

- a) ozod qilinmaydi;
- b) 50 foizga ozod qilinadi;
- c) ozod qilinadi;
- d) 25 foizga ozod qilinadi.

**38. Bank aktivida birinchi «himoya chizigʻi»:**

- a) investitsiyalanadigan qimmatli qogʻozlar hisoblanadi;
- b) kassadagi mablagʻ, boshqa banklarda joylashtirilgan barcha depozitlar, inkassatsiya qilinmagan cheklar hisoblanadi;
- c) moddiy mablagʻlar qiymati hisoblanadi;
- d) garovga qoʻyilgan qoʻzgʻalmas mulk hisoblanadi.

**39. Kreditlar bank aktivining:**

- a) 50 - 75 foizini tashkil qiladi;
- b) 8 foizidan kamrogʻini tashkil qiladi;
- c) ikkinchi «himoya chizigʻi» hisoblanadi;
- d) birinchi «himoya chizigʻi» hisoblanadi.

**2.9. Nazorat uchun savollar**

1. Nima uchun Markaziy bank banklarning banki deb yuritiladi?
2. «Markaziy bank mustaqilligi» deganda nima tushuniladi?
3. Markaziy bankning bosh maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Nimalar Markaziy bank uchun taqiqlangan faoliyat turlari hisoblanadi?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida Markaziy bank nimalarga haqli?
6. Markaziy bank boshqaruvining oʻziga xos xususiyatlari nimada?

7. Bank boshqaruvi qanday vakolatlarga ega?
8. Qaysi hollarda Markaziy bank raisi o'z lavozimidan ozod etiladi?
9. Markaziy bank boshqa banklar faoliyatini qanday iqtisodiy dastaklarga asoslanib tartibga soladi?
10. Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda qanday vakolatlarga ega?
11. Qaysi hollarda Markaziy bank banklarga sanksiya va choralar qo'llashi mumkin?
12. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda Markaziy bank qanday vositalardan foydalanadi?
13. Monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank qanday operatsiyalarni bajaradi?
14. Pul-kreditni tartibga solishning obyekti va maqsadi nima?
15. Pul-kreditni tartibga solishning qanday usullarini bilasiz?
16. Foiz stavkalari ustidan nazorat qaysi shakllarda amalga oshiriladi?
17. Kreditning eng yuqori miqdori chegarasini belgilashning qanday turlarini bilasiz? Ular qaysi hollarda qo'llaniladi?
18. Pul tizimi deganda nimani tushunasiz? U qanday tarkibiy qismlar bilan tavsiflanadi?
19. Tomas Grexemning pul tizimi to'g'risidagi qonunining mohiyati nimada?
20. Metall pullar tizimi to'g'risida nimalar deyaolasiz?
21. Kredit va qog'oz pullar tizimi deganda nimani tushunasiz? Veksel, banknot va chek nima?
22. Kredit kartochkalari «Elektron pullar»dan nima bilan farq qiladi?
23. Pul muomalasini tashkil etish va uni tartibga solishdan maqsad nima?
24. O'zbekistonda pul muomalasi qanday tarixga ega?
25. Markaziy bank tomonidan pul muomalasi qay tartibda tashkil etiladi?
26. Pul muomalasiga qanday omillar ta'sir qiladi?
27. Pul massasi nima?
28. Pul massasi qanday tarkibga ega? Kvazi pullar deganda nimani tushunasiz?
29. Pul agregati qanday tarkibiy qismlardan iborat?
30. Pulga bo'lgan talab qanday aniqlanadi?



31. Pul bozorida pulga talab va taklif muvozanatiga qanday erishiladi?

32. Pul multiplikatori qanday aniqlanadi? Pul bazasi nima?

33. Arzon va qimmat pullar siyosati yoki pul-kredit siyosatining restriksion va ekspansion usullari deganda nimani tushunasiz?

34. Yalpi va selektiv pul-kredit siyosati nima?

35. Oltin andozasi nima va u sharoitda pul muomalasini tartibga solish qanday amalga oshiriladi?

36. Markaziy bank tomonidan valutani tartibga solish qanday amalga oshiriladi?

37. Banklar faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish bo'yicha Markaziy bank oldida qanday vazifalar turadi?

38. Nazorat vazifalarini bajarishda Markaziy bankka qanday vakolatlar berilgan?

39. Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan qanday iqtisodiy normativlarni belgilaydi?

40. Markaziy bank banklarga qanday chora va sanksiyalarni berish huquqiga ega?

41. Banklar faoliyatini nazorat qilishning qanday turlarini bilasiz?

42. Banklarni nazorat qilishda nimalar tekshiriladi?

43. Bankning kredit majmuasi qanday baholanadi va tekshiriladi?

44. Kreditning qanday turlarini bilasiz?

45. Bankda buxgalteriya hisobining holati qanday tekshiriladi?

46. Bank daromadlari va xarajatlarini shakllantirishning to'g'riligi qanday tekshiriladi?

47. Markaziy bankning ustav kapitali to'g'risida nima deya olasiz?

48. Markaziy bank foydasi qanday aniqlanadi va taqsimlanadi?

49. Markaziy bankning moliyaviy ahvoli to'g'risida hisobot (balans) qanday ko'rinishga ega?

50. Aktiv qanday tarkibiy qismlarga ega?

## 3-bob. TIJORAT BANKLARI

### 3.1. Tijorat banklari to‘g‘risida umumiy tushunchalar

[68]. Tijorat banklari – bank tizimining quyi bo‘g‘ini bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslarning bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan, to‘lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank faoliyati deb hisoblanadigan barcha operatsiyalarni bajaruvchi tijorat tashkilotidir.

Hozirgi davrda tijorat banklarining faoliyati juda ham xilma-xildir. Ular pul muomalasi va kredit munosabatlarini tashkil qilishdan tashqari, xalq xo‘jaligini mablag‘ bilan ta‘minlash, sug‘urta operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi, ayrim hollarda vositachilikni va mulkni boshqarishni amalga oshiradi. Shuningdek, maslahatchi sifatida xalq xo‘jalik dasturlarini muhokama qilishda ishtirok etadilar, statistikani olib boradilar.

Tijorat bankining mohiyatini aniqlash uchun ularning:

- nima bilan shug‘ullanishini;
- qanday operatsiyalarni bajarishini;
- qanday sifatlarga egaligini;
- o‘ziga xos xususiyatlarini;
- asosi nima bilan belgilanishini;
- ichki tizimi qandayligini tushunib etmoq lozim.

Demak, tijorat banki tushunchasi bank faoliyatini xarakterlovchi tasodifiy savollar yig‘indisi emas, balki uslub bo‘yicha qo‘yiladigan aniq savollarni ko‘rib chiqishni talab etadi. Bunday yondashish bankka quyidagilar nuqtayi nazaridan ta‘rif berishga asos bo‘lishi mumkin:

- bank tashkilot yoki muassasa sifatida;
- bank korxonasi sifatida;
- bank tijorat yoki savdo korxonasi sifatida;
- bank vositachi korxonasi sifatida;
- bank birja agenti sifatida;
- bank kredit beruvchi korxonasi sifatida.

Bankka tashkilot nuqtayi nazardan qarash ko‘z oldimizga boshqaruv apparatini gavdalantirsa, korxonasi sifatida qarash esa uni har qanday korxonasi singari mustaqil xo‘jalik subyekti ekanligiga ishonch hosil qildiradi. Bank faoliyatini savdo bilan qiyoslash ham tasodifiy emas. Haqiqatan ham, banklar resurslarni «sotib oladi», ularni «sotadi», taqsimlash sohasida faoliyat ko‘rsatib, tovarlar ayirboshlashini amalga oshiradi.

Bank yetarli miqdorda mablag‘ to‘plab, turli qarz oluvchilar talabiga ko‘ra har xil muddatli kreditlarni tanlash imkonini hosil qiladi. Bu holda bank ikki subyekt – qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasida vositachi rolini o‘ynaydi. Lekin shuni qayd qilish lozimki turli vositachilar bir qator xizmat turlarini: yuridik, komission, pochta kabi xizmatlarni bajarishlari mumkin. Lekin bu bilan ular bank bo‘la olmaydilar. Bank vositachi sifatida bir qator oddiy vositachilardan farq qiluvchi, ya‘ni ham qarz beruvchi, ham qarz oluvchi hamda ular o‘rtasida aloqa bog‘lovchi, shuningdek, hisob-kitoblar vositachisidir.

Bankning muomala sohasidagi faoliyati bilan bog‘liq birja agenti sifatidagi tasavvurlar 20-yillarda paydo bo‘lgan. Bunda banklar mustaqil ravishda birja operatsiyalarini amalga oshirishi, qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bilan bog‘liq operatsiyalarni bajarishi mumkin.

Nihoyat, banklar valuta ayirboshlashi (oldi-sotdisi) kredit savdosi, korxonalar va aholi tomonidan qo‘yilgan bo‘sh mablag‘larga to‘lovlar berish va ularni qarz oluvchilariga «sotish» bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiradi. Aytish joizki, bank aslida bank zaminini yaratgan kreditning rivojlanish natijasida paydo bo‘lgan. Shu yerda bank faoliyatining savdo tashkiloti sifatidagi ta‘rifdan farqini qayd etish kerak. Savdoda tovar o‘z mulk egasini o‘zgartirsa, kreditlashda esa mulk egasi o‘zgarmaydi.

Tijorat banklari bir-biridan quyidagilar bilan farq qiladi (7-jadval).

Yuksak rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarning aksariyat qismi mulk shakli bo‘yicha aksioner va xususiy banklar hisoblanadi. Va hozirgi paytda ham omonatchilar, kichik va o‘rta biznes korxonalariga xizmat ko‘rsatish asosan unchalik katta bo‘lmagan xususiy banklar hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususiy banklar:

- iqtisodiyotga xususiy sarmoyalarni jalb etish orqali samaradorligi yuqori ilg‘or investitsiya-loyihalariga yo‘naltirilgan mablag‘larning ko‘payishiga;
- kichik va o‘rta tadbirkorlarga bank xizmati ko‘rsatish saviyasining oshishiga;
- yangi turdagi bank instrumentlarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil aprelidagi «Xususiy tijorat banklarini tashkil etishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni mazkur jabhada muhim ahamiyatga molik bo‘ldi. Faqat 1998-1999-yillar ichida Toshkentda «Alp-Jamol-

bank», «Turkistonbank», «XIFbank», Andijonda «Hamkorbank», Qarshi shahrida «O‘ktambank», Qoraqalpog‘istonda «Adiletbank», Samarqandda «Parvinabank» kabi banklar tashkil etildi.

**7-jadval.**

**Tijorat banklarining turlari va ularning bir - biridan farq qiluvchi jihatlari**

<b>№</b>	<b>Turkumlash belgilari</b>	<b>Farq qiluvchi jihatlari</b>
1	2	3
1.	Mulkchilik shakliga qarab	<input type="checkbox"/> Davlat banklari <input type="checkbox"/> Aksioner banklar <input type="checkbox"/> Kooperativ banklar <input type="checkbox"/> Xususiy banklar <input type="checkbox"/> Mintaqaviy banklar <input type="checkbox"/> Qo‘shma banklar <input type="checkbox"/> Xorijiy banklar
2.	Bajariladigan operatsiyalariga qarab	<input type="checkbox"/> Universal banklar <input type="checkbox"/> Maxsus banklar (investitsiya banklari, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, Zamin banki va h.k.)
3.	Faoliyat ko‘rsatish hududi yoki joylashgan joyiga qarab	<input type="checkbox"/> Xalqaro bank <input type="checkbox"/> Respublika miqyosidagi bank <input type="checkbox"/> Mintaqaviy bank <input type="checkbox"/> Viloyat banklari
4.	Tarmoq yo‘nalishiga qarab	<input type="checkbox"/> Sanoat banki <input type="checkbox"/> Qurilish banki <input type="checkbox"/> Qishloq xo‘jalik banki <input type="checkbox"/> Savdo banki va h.k.

Mustaqillik yillarida xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi banklarni tashkil etishga davlat tomonidan alohida e‘tibor berildi. Hozirgi paytda Respublikamiz hududida «O‘zprivatbank», «KDF bank», va O‘zbek-Turkiya «UT-bank»i hamda O‘rta Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banking Toshkentdagi sho‘ba banki, Eronning «Soderot» banki samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizda 2 ta davlat banki, 3 ta aksiyadorlik tijorat banki, 10 ta tijorat banki, 15 ta xususiy bank, 3 ta xorijiy sarmoya ishtirokidagi banklar, 2 ta sho‘ba va qator minibanklar faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

[69]. Tijorat banklari o‘z ustaviga ega bo‘lib, shu ustav asosida

faoliyat ko'rsatadi. Bank ustavida:

- bankning (to'la va qisqartirilgan) nomi va qayerda joylashganligi (pochta manzili);

- ustav kapitalining miqdori, muassislar ro'yxati va ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimoti;

- bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etish tartibi, ularning vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma'lumotlar;

- bank auditi tartibi, shu jumladan, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Bank ustavida «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning 8-moddasida belgilangan yuqoridagi talablardan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan quyidagilarni, ya'ni:

- bankka yuridik shaxs maqomini berish to'g'risidagi nizom;

- bankka qarashli muassasalar ro'yxati, ularning maqomi;

- bank va uning filiallarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini to'xtatish tartibi;

- faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni matbuotda e'lon qilish majburiyati (tartibi);

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan o'zaro munosabatlarini ham o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim.

Sherikchilik asosida tuzilgan bankning ustavi yuqorida keltirilgan talablardan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlar va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak. Tijorat banklar ustaviga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi qonunlaridagi o'zgarishlar munosabati bilan kiritiladi va ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

[70].Tijorat banklarining eng muhim vazifalari an'anaviy tarzda quyidagilar hisoblanadi:

- vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari, jamg'armalar va yig'malarni mujassamlashtirish;

- hisob-kitob to'lov mexanizmining faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, xalq xo'jaligida hisob-kitobni amalga oshirish va tashkil etish, to'lov muomalasini yo'lga qo'yish;


- alohida xo'jalik birliklari, yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlash, ichki va tashqi xo'jalik aylanmasiga kredit xizmati ko'rsatish;

- veksellarni hisobga olish va ular bilan operatsiyalar o'tkazish;

- moliyaviy va moddiy boyliklarni saqlash;

□ mijozlarning mulkini ishonchli tarzda boshqarish (trast operatsiyalari).

Zamonaviy bank vazifalarini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin (21-chizma).



### 21-chizma. Zamonaviy banklarning vazifalari.

Tijorat banklarining strategik maqsadi ularning strategik vazifalarini belgilab beradi. Ular quyidagilardan iborat:

- kadrlar siyosatini kuchaytirish;
- bank biznesini olib borishning xalqaro andozalari va printsiplarini joriy etish;
- xalqaro moliya institutlari va banklari bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish;
- bankning ichki fond bozoridagi mavqeyini mustahkamlash, davlat qimmatbaho qog'ozlariga qo'yilmalarni ko'paytirish;
- tuman filiallari va viloyat boshqarmalari darajasida va ular kliringini bosh bank darajasiga yagona korporativ tarmog'ini qurish. To'lov tizimini viloyat boshqarmalari darajasida va ular kliringini bosh bank darajasida yagona korrespondentlik tizimiga o'tkazish;
- elektron plastik kartochkalar tizimni joriy etish, bankomat va elektron terminallar tarmog'ini kengaytirish, kredit hisob-kitob kartochkalariga xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish;
- o'z depozit bazasini ko'paytirish;

- lizing xizmati, shuningdek, iqtisodiyotning aniq sektorini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlashni kengaytirish;

- bank marketingini mijozlar bazasi marketingi bilan muvofiq holda joriy etish va keng ko‘llash;

- kichik, o‘rta biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ichki qoida va tamoyillarni takomillashtirish;

- bank infratuzilmasini rivojlantirish;

- bankka xalqaro reyting agentliklarining reytingini berish bo‘yicha tadbirlar majmuyini amalga oshirish.

**[71].** Banklar faoliyatida tijorat ma‘lum qoidalarga asoslanadi. Ular orasida eng muhimi – xo‘jalik yuritishdan foyda olish qoidasi, iloji boricha, katta foyda ko‘rish. Biroq tijorat bankida ko‘p foyda olish imkoniyatlari cheklangan.

Birinchiidan, katta marja ketidan quvish mijozlardan mahrum bo‘lib qolishga olib kelishi mumkin, chunki ular haddan tashqari katta qo‘yilgan stavkali kreditdan voz kechishlari aniq, ikkinchiidan, banklararo raqobat sharoitida boshqa tijorat banklari orasidan bir qadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etilishi mumkin. Daromadlilik (foyda ko‘rish) qoida sifatida shuni anglatadiki, busiz bank mavjud bo‘la olmaydi. Bank tijoratning bu qoidasi asosan «Arzonroq sotib olish, qimmatroqqa sotish» formulasi orqali amalga oshadi. Biroq bu qoidaga madaniy yondashmoq lozim. U qonunchilikka tayanishi, unga aslo zid kelmasligi, binobarin, bunda shunday shart-sharoit yaratilish kerakki, har bir bank o‘zining tijorat ishlarini amalga oshirayotganda bank xizmati bozori haqida bab-baravar axborot olish imkoniyatiga ega bo‘lsin.

Tijorat nuqtayi nazardan qaraganda, bekor yotgan resurslar bo‘lmasligi kerak. Boshqacha aytganda, bankning hamma pullari, barcha resurslari imkon qadar ishlashi lozim. Biroq haqiqiy ahvol shundan iborat bo‘ladiki, mablag‘larning bir qismi zaxiraga qo‘yiladi, u muomalada kamroq qatnashadi yoki umuman ishtirok etmaydi, yana bir qismi esa iqtisodiyotni kreditlash uchun mo‘ljallanadi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bank biznesi nuqtayi nazaridan qaraganda bu g‘ayritabiiy, shuning uchun ham, birlamchi va ikkilamchi zaxiralarga nisbatan kreditlar salmog‘i qanchalik katta bo‘lsa, foyda ham shunchalik ko‘p kelishini bilib qo‘ygan ma‘qul.

Shuningdek, bank faoliyatining muhim qoidalaridan yana biri shuki,

bank iqtisodiy korxonalar sifatida o'z mablag'i, o'z foydasi ustidan tavakkal ish tutishi mumkin, ammo zinhor mijoz mablag'i yuzasidan emas. Muvaffaqiyatsiz bank tijoratidan bankning o'zi jabr tortishi mumkin, ammo mijoz hech qachon jabrlanmasligi kerak, chunki kredit muassasasi uning uchun yaratilgan.

Bank tijorati «hamma narsa mijoz uchun, hamma narsa uning foydali faoliyatini ta'minlash uchun» qoidasi asosida harakat qilishi lozim. Bankning amaliy faoliyatida eng muhimi mijozning foyda ko'rishi, undan keyingina bankning foydasi, chunki pirovard natijada mijoz foyda olib faoliyat ko'rsatgandagina bank ham foyda olgan bo'ladi, sababi-kreditlar bo'yicha foizlar faqat mijoz olgan foyda hisobidan to'lanadi. Bank mijozning foyda olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak, o'zining manfaatini ham amalga oshirgan bo'ladi.

Afsuski, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ba'zi banklar xo'jalikning foydali yuritish qoidasini butunlay o'z iqtisodiy manfaatlarini qondirish qoidasi deb tushundilar. Bankning foyda ko'rishi kredit muassasasining faoliyatida birinchi o'ringa qo'yildi. Mijozdan «yulib olish» ba'zan aqlbovar qilmaydigan katta miqdorni tashkil etdi.

[72]. Tijorat banklari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan bank operatsiyalarini bajarish huquqini beruvchi litsenziyalar asosida faoliyat yuritadilar. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro'yxati ko'rsatiladi. Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad, davlat budjetiga olib qo'yilishi lozim.

Litsenziya olish uchun ta'sischiylar quyidagi hujjatlarni Markaziy bankka taqdim etadilar:

- litsenziya berish to'g'risida rasmiy iltimosnoma;
- ta'sis etish hujjatlari, ya'ni:
- ta'sis etish shartnomasi;
- bank ustavi;
- bank ustavini qabul qilish va rahbariyatini tayinlash to'g'risidagi yozma bayon;
- iqtisodiy asoslov;
- ta'sischiylarning moliyaviy holati to'g'risidagi auditorlik tashkiloti tomonidan berilgan xulosa;
- bankning ta'sischiylar taklif etgan rahbarlarining (rais va bosh buxgalter) professional ishga yaroqliligi;
- qonunda ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar.



Xorijiy kapital ishtirok etuvchi bank, xorijiy bank uning filialining litsenziya olish hollarida yana qo‘shimcha ravishda belgilangan bir nechta rasmiy hujjatlar taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki barcha tijorat banklari uchun teng raqobat sharoitlarini ta‘minlash maqsadida xorijiy bank ta‘sischilari va xorijiy kapitalli banklarga ularning ustav kapitalini minimal va maksimal miqdorlariga nisbatan qo‘shimcha talablar qo‘yish vakolatiga ega.

Bankni ro‘yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog‘i bilan **olti oy** muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari kerak. Bankni ro‘yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko‘pi bilan **bir oylik** muddatda chiqariladi.

«Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 13-moddasiga binoan Markaziy bank quyidagilarga asoslanib bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

- bankni ro‘yxatga olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar topshirilmaganligi;
- ta‘sis hujjatlarning qonun hujjatlariga nomuvofiqligi;
- bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvolidan qoniqarsizligi;
- bankni ro‘yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to‘planmaganligi;
- bank rahbari va bosh buxgalter lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank operatsiyalarini amalga oshirish litsenziyasini berish bilan bir vaqtda tijorat bankini **qayd qilib** uning tartib raqamini xabar qiladi. Shu paytdan boshlab tijorat banki yuridik shaxs maqomini oladi.

Tijorat banklariga berilgan litsenziya shartlarining bajarilishi Markaziy bank tomonidan nazorat qilib boriladi. Shu maqsadda bank tomonidan xorijiy valutada amalga oshirilgan operatsiyalar taftish qilinadi, tematik jihatdan tekshiriladi.

Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyasini qaytarib olishi mumkin:

- bank to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganda;
- litsenziya berishga asos bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'riligi aniqlanganda;
- bank o'z omonatchilari va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmaganida;
- hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda buzib ko'rsatilganda;
- qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;
- monopoliyaga qarshi qoidalar buzilganda;
- O'zbekiston Respublikasida o'z sho'ba bankini tashkil etgan chet el bankidan litsenziya qaytarib olinganda.

[73]. O'zbekiston Respublikasida bank tizimining barqaror amal qilish sharoitlarini ta'minlash maqsadida, Markaziy bank o'zining 1997-yil 22 avgustdagi «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidalari» (MB 10-sonli yo'riqnoma)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy me'yorlarni joriy etgan:

- yangi tuzilgan va amal qilayotgan banklar uchun ustav (aksionerlik) kapitalining eng kam miqdori;
- bank kapitalining yetarlilik (adekvatlilik) koeffitsiyenti (kamida 0,08);
- bank kapitali va uning majburiyatlari nisbati koeffitsiyenti (kamida 0,05);
- bank likvidligi ko'rsatkichlari;
- lahzalik – kamida 0,25
- joriy – kamida 0,30
- qisqa muddatli – eng yuqori.
- bitta qarz oluvchiga riskning eng yuqori darajasi (0,25);
- barcha yirik kreditlar uchun riskning eng yuqori darajasi (uch martadan ko'p bo'lmagan);
- bitta omonat kreditorga riskning eng yuqori darajasi (aksioner kapitalining 15 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda);
- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda bankning o'z mablag'laridan foydalanish (eng yuqori 0,15).

Shuni ta'kidlash kerakki, Tijorat banklar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan iqtisodiy normativlarga rioya etishlari shart. Banklar o'z kapitali va likvid resurslarini yetarli darajada saqlab turishlari, aktivlarni tasniflash asosida shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi zaxiralarni

tashkil etishlari shart, shuningdek, zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida o'z aktivlari diversifikatsiyalanishlarini ta'minlashlari lozim.

**Banklar:**

- amalga oshirilgan investitsiyalarning turlari yoki shakllariga;
- ko'chmas mulk va boshqa mol-mulk sotib olish hamda unga ega-lik qilishga;
- boshqa yuridik shaxslarning ustav fondlarida qatnashishga doir shartlarga rioya etishlari lozim.

**Banklar:**

- kapitalni taqsimlash natijasida o'z kapitali talab qilinadigan eng kam miqdordan ham kamayib ketadigan bo'lsa, kapitalni taqsimlashga;
- aksiyalar shaklidagi o'z qimmatli qog'ozlari bilan kafolatlangan kredit berishga;
- oldindan Markaziy bankning roziligini olmay turib, o'z aksiyalarini sotib olishga haqli emaslar.

Iqtisodiy me'yorlarning kutilayotgan o'zgarishlari to'g'risida Markaziy bank bir oydan kechikmasdan e'lon qiladi.

[74]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyati ustidan nazorat organi sifatida, ular tomonidan bank qonunchiligi va me'yoriy hujjatlar buzilgan taqdirda, xususan, «Markaziy bank to'g'risida»gi, shuningdek, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarga muvofiq jarima sanksiyalari va boshqa jazo choralarini qo'llashi mumkin. «Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga bank faoliyatini tartibga soluvchi, bank qonunchiligi va me'yoriy hujjatlarni buzganligi uchun qo'llaniladigan choralar va sanksiyalar to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq (1997-yil 25 yanvardagi 74-sonli yo'riqnom), Markaziy bank majburiy zaxira talablari va belgilangan iqtisodiy me'yorlar buzilganligi uchun majburiy zaxira jamg'armalarini shakllantirishdagi qo'yilmagan mablag'lar summasining qayta moliyalashtirish stavkasidan ikki baravar oshmaydigan miqdorda jarima solishi mumkin. Bir necha marta qoida buzilishlari ro'y berganda esa:

- bunday banklarga Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash kreditlarini berishni to'xtatish;
- kredit resurslari auksionida bu banklarning ishtirok etishini man etish;
- belgilangan iqtisodiy me'yorlar banklar va ularning filiallari tomonidan buzilganda har buzilgan normativ uchun ustav kapitalining minimal miqdorini 0,1 % gacha jarima solish (ammo buzilgan nor-

mativlarning barchasi bo'yicha jarima ustav kapitalining minimal miqdorining 1 foizdan oshmasligi lozim);

- ssudalar bo'yicha zaxira jamg'armalarini shakllantirish bo'yicha normativlarga banklar tomonidan uch martadan ortiq hollarda yoki normativ 12 oy davomida bajarilmagan taqdirda Markaziy bank bank faoliyatini yuritish bo'yicha litsenziyani olib qo'yishi mumkin;

- bank muddati o'tgan qarzdorlik kredit qo'yilmalarining umumiy summasini 5 foizdan oshgan taqdirda, uning kelgusida qarzi o'sib borsa, Markaziy bank bank faoliyatini yuritish bo'yicha litsenziyani tortib olish huquqiga ega;

- tijorat banklari qayta moliyalash kreditlarini o'z muddatlarida qaytarmasa, unda bu qarzlar bo'yicha foizlar amaldagi qayta moliyalash stavkalari, ikki barobari miqdorida undiriladi;

- Markaziy bankning markazlashgan kreditlari o'z vaqtida qaytarilmaganda, ular muddatidan oldin yoki qisman qaytarilganda, xo'jalik yurituvchi subyektlardan har bir muddati o'tgan kun uchun amaldagi qayta moliyalash stavkalarini ikki barobari miqdorida undiriladi.

Shuningdek, quyidagi qoida buzilishlar bo'yicha jarima sanksiyalari qo'llaniladi:

- to'lov intizomini buzganligi uchun sanksiyalar;

- valuta operatsiyalarini yuritish tartibini buzganligi uchun sanksiyalar;

- kassa operatsiyalarini yuritish tartibini buzganlik uchun sanksiyalar;

- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar yuritish tartibini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni buzganligi uchun qo'llanadigan choralar;

- bankda hisob raqamini ochish, shuningdek, statistik hisobot tartibini buzganligi uchun sanksiyalar va boshqa sanksiyalar.

[75]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvi raisi tomonidan 1998-yil 9-noyabrda tasdiqlangan 240-sonli «Banklarni tugatish to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq banklarni tugatish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani Markaziy bank tomonidan qaytarib olinishi;

- bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi aksionerlar yoki ta'sischi umumiy yig'ilishining qarori;

- yagona ta'sischi davlat bo'lgan banklar uchun hukumat qarori;

- sud qarori bo'yicha bank bankrot deb e'lon qilinganida.

**Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish** kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi (ishtirokchilari) tomonidan qaror qabul qilingan holda amalga oshirilishi mumkin.

Bank aksiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi qaroriga asosan bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qiladi. Iltimosnoma bilan birga quyidagi hujjatlar ham taqdim etiladi:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi tugatish sabablari ko'rsatilib, qabul qilingan qaror;
- bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qilingan vaqtdagi balans hisoboti;
- tugatish komissiyasi a'zolari ro'yxati;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlagan tugatish qarori.

Bankni majburiy tarzda tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini qaytarib olish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi. Bankni tugatish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- moddiy nazorat va inventarlash;
- aktivlarni tekshirish;
- aktivlarni baholash va sotish;
- sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;
- tugatish jarayonini yakunlash.

Likvidator (tugatuvchi) yoki tugatish komissiyasi Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- tugatish komissiyasining hisoboti;
- bank aksiyadorlari (ishtirokchilari) umumiy yig'ilishining bankni tugatish (ixtiyoriy ravishda tugatilganda) to'g'risidagi bayonnoma;
- Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qarori;
- bankni tugatish to'g'risida gazetalarda e'lon qilingan axborot nusxasi;
- tugatish komissiyasini tuzish to'g'risida qaror;
- bankning oxirgi ish kunidagi balansi;
- tugatish balansi;
- balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha tugatish balansi;
- soliq inspeksiyasining tugatish dalolatnomasi;
- yo'q qilish uchun bank hujjatlari va yig'ma jildlari ajratilganligi

to'g'risida dalolatnoma;

hujjatlarni arxivda saqlash uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;

muhrlarni yo'q qilish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga topshirilganligi to'g'risida tasdiqnoma.

Markaziy bank taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, bankni, banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan chiqarib tashlash to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.

### 3.2. Tijorat banklari resurslari va ularning kapital bazasi

[76]. Tijorat banklarining resurslari bankning:

o'z resurslari;

jalb qilingan mablag'lari;

emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Bu resurslar banklar tomonidan quyidagi passiv operatsiyalarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladi:

qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;

foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;

boshqa kreditorlar mablag'larini jalb qilish;

depozit operatsiyalarini amalga oshirish.

Bu operatsiyalar bank balansining passiv qismida aks ettiriladi. N-mamlakatdagi tijorat banklarining resurslari quyidagilar bilan tavsiflanadi (8-jadval).

8-jadval.

#### Tijorat banklarining resurslari

№	Ko'rsatkichlar	%
1	2	3
1.	<b>Bankning o'z resurslari, shu jumladan:</b>	<b>12,2</b>
	1.1. Bankning fondi, shundan:	6,1
	<input type="checkbox"/> Ustav fondi	2,6
2.	<b>Foyda</b>	<b>6,1</b>
3.	<b>Jalb qilingan resurslar</b>	<b>87,8</b>
	3.1 Talab qilib olgunga qadar qo'yiladigan depozitlar:	25,0
	<input type="checkbox"/> tijorat strukturalarning joriy schyotlardagi depozitlar	15,5
	<input type="checkbox"/> korrespondent schyotdagi depozitlar	1,6
	<input type="checkbox"/> hisob-kitobdagi resurslar	2,2

□ turli kreditorlar	5,7
3.2 Muddatli depozitlar	23,5
□ tijorat strukturadagi depozitlar	3,3
□ aholi omonatlari	1,6
□ bank depozitlari	18,6
shu jumladan:	
MB depozitlari	13,2
3.3 Chet el operatsiyalar bo'yicha schyotlar	39,3

Ko'rinib turibdiki, tijorat banklari resurslarining asosiy manbasi - bu jalb qilingan resurslar bo'lib, ular bank resurslari tarkibida salkam 88 foizni tashkil qiladi. O'z resurslarining salmog'i 12 foiz bo'lib, jahon tijorat banklarining passivlari tarkibiy qismiga bo'lgan talabga javob beradi. Bankning o'z resurslari tarkibida ustav fondi 2,6 foizni tashkil qiladi. Jamg'arilgan resurslari tarkibida tijorat strukturadagi hisob va joriy schyotdagi depozitlar salmog'i 64 foizdan oshadi. Bankning o'z resurslari jumlasiga:

- bankning nizom kapitali;
- zaxira kapitali;
- bankning oladigan foydasi hisobiga yuzaga keladigan boshqa jamg'armalar;
- sug'urta zaxiralari;
- yil davomida taqsimlanmay qolgan foyda kiradi.

Bankning nizom kapitali (sarmoya) bank ishini tashkil etishning tayanch nuqtasidir. Bu jamg'arma bank qatnashchilarining o'z mablag'lari hisobigagina yaratilishi mumkin, xolos, ya'ni ta'sischilarning pay badallari yig'indisidir.

Tijorat banklarining zaxira kapitali aktiv operatsiyalarining chiqimlarini qoplash uchun mo'ljallangan. Ular olingan foyda yetmay qolgan vaqtda bank obligatsiyalari va imtiyozli aksiyalar dividendlari bo'yicha foizlarni to'lash manbasi bo'lib xizmat qiladi. U jamg'arma har yili foydadan ajratiladigan mablag'lar hisobiga shakllantiriladi.

Bank o'z mablag'larining alohida tarkibiy qismi bu aniq operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank tomonidan yaratilgan sug'urta zaxiralari. Bularga birinchi galda qimmatli qog'ozlar mablag'larini ta'minlovchi zaxiralar, shuningdek, ssudalar bo'yicha yo'qotishlar bo'lib qolganda ishlatiladigan zaxiralar kiradi. Bunday zaxiralarni shakllantirish majburiy bo'lib, Markaziy bank tomonidan talab qilinadi.

Bank o'z mablag'larining eng muhim vazifasi bankning omonatchilar oldidagi majburiyatlarining ta'minoti bo'lib maydonga

chiqishdir. Tijorat banklarining o'ziga xos tomoni shundaki, ular o'z mablag'larining miqdorini mustaqil suratda o'zlari belgilaydi va resurslarining juda ko'p qismi o'z mablag'lari hisobiga emas, balki zayom mablag'lari hisobiga shakllantiriladi. Banklarning mablag'larni jalb etish imkoniyati Markaziy bank tomonidan tartibga solib boriladi va bankning o'z sarmoyasi ham tashkiliy-huquqiy tuzilishiga qarab belgilanadi.

Odatda, Markaziy bank tijorat banklari uchun banklarning o'z mablag'lari bilan chetdan jalb qilingan resurslar o'rtasidagi chegarani belgilab beradi. O'zbekistonda bu nisbat 1:20 miqdorida belgilangan.

[77]. Bank kapitali deganda bankning barqaror faoliyatini ga'minlash va favqulodda sodir bo'ladigan zararlarni qoplash maqsadida maxsus tashkil qilinadigan fondlar va zaxiralar tushuniladi. Bu kapital quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ustav kapitali;
- zaxira kapitali;
- umumiy zaxiralar;
- maxsus zaxiralar;
- oldingi va joriy yillardagi taqsimlanmagan va bank ixtiyoriga qolgan foyda;
- riskni qoplash uchun tashkil qilingan zaxira fondlar.

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topib, uning summasi bank ustavida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich, tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bankning tashkil qilinish shakliga qarab uning ustav kapitali ham turlicha bo'lishi mumkin. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, u holda bank ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li bilan tashkil topadi.

Banklarning aksioner kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin:

- o'z aksioner kapitali. Bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hamda taqsimlanmagan foyda hisobidan;
- har xil ko'zda tutilmagan xarajatlarni va to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun tashkil qilingan zaxiralar hisobidan;
- bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) hisobidan.

Bankning ustav kapitali uning balans passivida ko'rsatilib, summasi qonun bilan chegaralanmaydi. Ammo uning uchun eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Va bu eng kam ustav kapitali



bank muassislari tomonidan uni ro'yxatga olish paytigacha to'lanishi kerak.

Kreditga va garovga olingan mablag'lardan hamda jalb etilgan boshqa mablag'lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun budjet mablag'laridan foydalanish mumkin.


Bankning zaxira kapitali – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng sof foyda hisobiga shakllangan zaxiralar, ulardan bank faoliyatida ko'zda tutilmagan turli zararlar hamda qimmatli qog'ozlar kursining tushishi natijasida yo'qotishlarni ular yuzaga kelishi bilanoq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalaniladi.

«Umumiy zaxiralar» – bank faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun, lekin ayrim muayyan operatsiyalar bo'yicha zararlarni qoplashga mo'ljallanmagan zaxiralar. Masalan, milliy valutani devalvatsiyalash uchun mo'ljallangan zaxiralar.

«Maxsus zaxiralar» - «standart», «substandart», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan kredit va lizing operatsiyalari yoki boshqa alohida muayyan aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarga qarshi zaxiralar.

**Taqsimlanmagan foyda** – zaxira fondiga ajratmalar va dividendlar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir.

Bank kapitali quyidagi funksiyalarni bajaradi (22-chizma).



**22-chizma.** Bank kapitalining funksiyalari.

[78]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizom»ga (1998-yil 2 – noyabr O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki boshqaruvida tasdiqlangan) binoan yangi ochilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagi jadvalga muvofiq belgilanadi (9-jadval):


**9-jadval.**

**O‘zbekiston Respublikasida yangi ochilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam miqdoriga qo‘yiladigan talablar.**

	Aholisi 0,5 mln. kishidan ko‘p bo‘lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari	Aholisi 0,5 mln. kishidan kam bo‘lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1998-yil 2-noyabrdan	1,5 mln AQSh dollari ekvivalentida	0,75 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AKSh dollari ekvivalentida	0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida
1999-yil 2-noyabrdan	25,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1,0 mln. AQ1P dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida
2000-yil 2-noyabrdan	2,5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1,25 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida

Faoliyat ko‘rsatayotgan banklar ekvivalenti 2 mln. AQSh dollaridan kam bo‘lmagan summada umumiy kapitalga ega bo‘lishi lozim. Faoliyat ko‘rsatayotgan banklar ustav kapitalini oshirishga doir talablar makroiqtisodiy ahvol, bankning moliyaviy holati va boshqa sabablarga ko‘ra alohida banklarga qo‘yilishi mumkin.

Bank kapitali I va II darajali kapitallarga bo‘linadi (23-chizma).



**23-chizma.** Bank kapitalining tarkibiy qismlari.

**I darajali kapital** umumiy kapitalning 50 foizini yoki undan ko'pini tashkil qilishi lozim. **II darajali kapital** miqdori I darajali kapital miqdoridan oshib ketgan, kapitalning oshib ketgan qismi kapital hisobiga kiritilmaydi.

I darajali kapital quyidagilardan iborat:

1. To'liq to'langan va muomalaga kiritilgan oddiy aksiyalar, nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar:

- muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;
- egasining xohishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas;
- bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin, ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan dividendlar to'lanmaydi.

2. Qo'shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) – oddiy va imtiyozli aksiyalar narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi.

3. Taqsimlanmagan foyda.

4. Kapital zaxiralar.

5. Avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi.

6. Joriy yil zararlari.

7. Aksiya egalari ozchiligining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush sho'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

Dividend stavkalari o'zgarib turuvchi imtiyozli aksiyalar yuqoridagi shartlar bajarilishidan qat'iy nazar I darajali kapital hisobiga kiritilmaydi.

**II darajali kapital** esa quyidagilardan iborat:

– joriy yildagi sof foyda;

– riskni hisobga olgan holdagi aktivlar summasining 1,25 foizi va hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zaxiralar (I darajali kapital aktivlar hisob-kitobi quyida keltirilgan):

– hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali tavsiflarini o'z ichiga olgan vositalar). I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aksiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:

- to‘liq to‘langanligi;
- garov bilan ta‘minlanmaganligi;
- bank tugatilganda ularga doir talablar, bank depozitorlari talablari qondirilgandan so‘ng qondirilishi;
- aksiya egasining tashabbusi bilan va Markaziy bank ruxsatisiz to‘lanmasligi;
- bankning barcha zararlarini qoplashi va bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb e‘lon qilish huquqini bermasligi;
- agar bank oxirgi uch chorak mobaynida foyda olmagan bo‘lsa, emitent xohishiga ko‘ra yoki oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar (foizlar) to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar) ni to‘lash muddati kechiktirishi mumkinligi;
- subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo‘lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so‘ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to‘lash muddati yetib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 30%ga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:
  - garov ta‘minotiga ega bo‘lmaslik;
  - bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo‘yicha talablar depozitorlar talablari qondirilgandan so‘ng amalga oshirilishi;
  - boshlang‘ich to‘lov muddati 5 yildan ortiq bo‘lishi.

Kapitaldan chegirmalar kapital yetarliligi koeffitsiyentlari hisoblanguncha amalga oshiriladi. I darajali kapitaldan chegirmalar nomoddiy aktivlar, shu jumladan, **gudvilni** o‘z ichiga oladi.

[79]. «**Kapitalning yetarliligi**» so‘zi bank barqarorligiga berilgan umumiy bahoni va bankning riskka bardoshlilik darajasini ifodalaydi. yetarlilik tamoyilining mohiyatini quyidagicha ta‘riflash mumkin: o‘z kapitalning miqdori aktiv miqdoriga (riskni hisobga olgan holda) mutanosib bo‘lishi kerak.

Kapitalning yetarliligi quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topadi:

□ **riskka asoslangan kapitalning umumiy summasi (TAKUS)** chegirmalarni hisobga olgan holda I darajali va II darajali kapital yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

$$TAKUS = I \text{ darajali kapital} + II \text{ darajali kapital} + \text{Chegirmalar}$$

□ **riskni hisobga olgan holda aktivlarning umumiy summasi** (THOAUS) chegirmalar ajratilib, tavakkalchilik hisobga olingan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$RHOAUS = \text{Balansdagi aktivlar} + \text{Balansdan tashqari schyotlar} - \text{Chegirmalar}$$

□ umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti ( $K_1$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_1 = \frac{TAKUC}{RHOHOA}$$

$K_1$  ning ruxsat etilgan minimal darajasi 0,1 ga teng (10 foiz)

I darajali kapitalning yetarlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_2 = \frac{\text{I darajali kapital}}{RHOHOA}$$

$K_2$  ning ruxsat etilgan minimal darajasi 0,05 ga teng (5 foiz).

I darajali kapital tavakkalchilikka asoslangan umumiy kapitalning 50 foizidan kam bo'lmashligi kerak.

Kapitalning yetarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda tijorat banklari **nomoddiy aktivlar** va **gudvill** chegirib tashlangan I darajali kapitalning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadigan **Leveraj** koeffitsiyentiga rioya etishlari kerak:

$$K_3 = \frac{\text{I darajali kapital}}{(\text{Umumiy aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} - \text{gudvil})}$$

**Nomoddiy aktivlar** – moddiy va jismoniy shaklga ega bo'lmagan nomonetar, identifikatsiyalanadigan aktivlardir. Ularning ko'p turlari mavjud, jumladan;

- dasturiy ta'minot;
- foydalanish huquqi;
- marketing;
- texnik ma'lumotlar.

Biroq, bank faoliyatida eng ko'p tarqalgan nomoddiy aktiv gudvildir.

**Gudvill** – firmaning moddiy o'lchov ta'siriga tushmaydigan sarmoyasi, masalan, obro'-e'tibor, kasbiy omilkorlik aloqalari, marketing usullari va boshqalar. Boshqacha qilib aytganda, moddiy ishlab chiqarish doirasiga kirmaydigan sohalarda firma jamg'argan aktivlarining «narxi». Bu ibora mijozlarning xayrixohligi, iltifoti, moyilligini

ham ifodalaydi. Gudvill sezilmaydigan asosiy kapital, sezilmaydigan aktivlar bo‘lib, umuman korxonah bahosi bilan uning mavjud asosiy kapitali bahosi o‘rtasidagi farqni ifodalaydi.

**Leveraj** – bank jami aktivlarining kapital bilan ta’minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, u I darajali kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

«**Kuk koefitsiyenti**» – bank kapitalining balansdagi va balans orti aktivlari o‘rtasidagi minimal nisbatni belgilaydi. Uni hisoblashda mamlakatlar bo‘yicha farqlanuvchi tavakkalchilik darajasi va normalari inobatga olinishi kerak. Bu koefitsiyent 8% darajasida o‘rnatilgan bo‘lib, uning eng kamida yarmi bankning o‘z kapitaliga to‘g‘ri kelishi kerak.

### 3.3 Bank aktivining tarkibi va sifati

[80]. Bank aktivini deganda passivlar joylashtirilishi tushuniladi.

Uning tarkibiy tuzilmasi deganda esa har bir aktiv turining jami aktivlarga bo‘lgan nisbati tushuniladi. Tijorat banklarining aktivini va uning tarkibi quyidagilar bilan tavsiflanadi (10-jadval).

Jadvaldagi ma’lumotlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

□ bank aktivining eng asosiy qismini ssudalar, ya’ni bank kreditlari tashkil qiladi – 19,9 dan to 83,2 foizgacha;

**10-jadval.**

#### Tijorat banklarning aktivini va uning turi

№	Aktivlar	%
1.	Kassadagi naqd va unga tenglashtirilgan pullar	0,2 - 12,9
2.	Kreditlar (ssudalar)	19,9 - 83,2
3.	Investitsiya va qimmatli qog‘ozlar	2,1 - 23,9
4.	Boshqa turli aktivlar	0,2 - 7,8
	Jami aktivlar	100

□ ikkinchi o‘rinda investitsiya va qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalar tashkil qiladi – 2,1 foizdan to 23,9 foizgacha;

□ uchinchi o‘rinda kassadagi naqd pullar – 0,2 dan 12,9 foizgacha;

□ boshqa turli aktivlar, ya’ni asosiy fondlarga qo‘yilmalardan tortib, to bankning turli hisob operatsiyalarigacha – 0.2 foizdan to 7,8 foizgachani tashkil qiladi.

[81]. Balans aktivlari risk darajasi bo‘yicha 0, 20, 50, 100 foizli to‘rt guruhga bo‘linadi. Har xil toifali aktivlar nisbiy tavakkal-chiligi o‘z

zimmasiga majburiyatlarni qabul qilgan shaxs turi va garov yoki kafolat tavsifiga bog‘liq. Masalan, naqd pul 0 foizli tavakkalchilik darajasiga ega bo‘lsa, tijorat kreditlari 100 foizli tavakkalchilik toifasiga kiradi. Bu tijorat kreditlari kapitalining muayyan summasi bilan to‘liq ta‘minlangan bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasi har bir aktiv balans summasini unga tegishli tavakkalchilik miqdoriga ko‘paytirish va tavakkalchilik bo‘yicha aniqlangan aktivlar yig‘indisi orqali topiladi. Quyida bank aktivlari toifalarining ta‘rifi keltirilgan (11-jadval).

Tavakkalchilik darajasi hisobga olingan aktivlar summasi hisob-kitob qilinganda balansdan tashqari barcha vositalar hisobga olinadi. Ichki bozorda tuzilgan **forvard**, **svop bitimlari**, sotib olingan opsionlar va shunga o‘xshash boshqa (**derivativ**) vositalar bundan mustasno.

### 11-jadval.

#### Bank aktivlari toifalarining ta‘rifi

№	Bank aktivlari toifalari	T a ‘ r i f l a r
1	2	3
1.	Tavakkalchilikdan xolis bo‘lgan aktivlar (tavakkalchilik koeffitsiyenti - 0 foiz)	<ul style="list-style-type: none"> <li>– bankda va uning filiallarida naqd pul ko‘rinishida saqlanayotgan milliy va chet el valutasini (jumladan, yo‘ldagi naqd pul va bank omborlarida yoki Markaziy bank omborlarida saqlanayotgan oltin quymalar);</li> <li>– Markaziy bank va uning hududiy boshqarmalarida vakillik va zaxira hisob raqamlaridagi mablag‘lar;</li> <li>– hukumat va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri talablar va emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar;</li> <li>– Iqtisodiy hamkorlik va Taraqqiyot (IHTT) Tashkilotiga kiruvchi mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklariga qo‘yiladigan boshqa talablar;</li> <li>– aktivlar yoki ularning O‘zbekiston Respublikasi IHTTga kiruvchi mamlakatlar milliy valutalariga denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta‘minlangan hamda bankda alohida cheklab qo‘yilgan depozit hisob raqamida saqlanayotgan qismi;</li> </ul>

2.	Minimal tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik koeffitsiyenti - 20 foiz)	<ul style="list-style-type: none"> <li>– IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlariga nisbatan talablar, shu jumladan, qarzarlar va pul bozori vositalari;</li> <li>– IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlari kreditlari bilan ta‘minlangan boshqa barcha aktivlar. IHTT davlatlari depozitar institutlarining kapitali bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar yuqori tavakkalchilik darajasiga (100%) ega aktivlar qatoriga kiradi;</li> <li>– bankning IHTT davlatlari mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari, shuningdek, ular tomonidan kafolatlangan bank aktivlari. Bu talablar va kafolatlar bo‘yicha to‘lovlar alohida loyihalar bo‘yicha tushumlardan emas, balki yuqorida ko‘rsatilgan tashkilotlar budjeti hisobidan amalga oshiriladi.</li> <li>– bankning Jahon banki, Xalqaro valuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;</li> <li>– joriy bozor qiymatida baholangan va Jahon banki, Xalqaro valuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bilan ta‘minlangan aktivlar va ularning qismlari;</li> <li>– bankning IHTTga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarning milliy valutariga denominatsiya qilingan va milliy valutadagi majburiyatlar bilan qoplangan, IHTT ga a‘zo bo‘lmagan davlatlar Markaziy Hukumatlari va markaziy banklariga nisbatan talablari. Milliy valutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismi tavakkalchilik darajasi yuqori (100 foiz) bo‘lgan aktivlar qatoriga kiritiladi;</li> <li>– joriy bozor qiymatida baholangan va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki IHTTga kiruvchi davlatlar Markaziy Hukumatlari tomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishidagi garov bilan ta‘minlangan yoki kafolatlangan aktivlar, ularning qismlari va balansdan tashqari majburiyatlar. Qimmatli qog‘ozlar bank tasarrufida bo‘lishi va belgilangan tartibga muvofiq unga berilishi lozim. Kafolatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va hech qanday shartlarsiz, ya‘ni</li> </ul>
----	--	--



		<p>ularni qo'llashni cheklovchi biron-bir qo'shimcha shartlarni o'zida qamrab olmagan bo'lishi kerak;</p> <p>– o'tkazish jarayonidagi pul hujjatlari (yo'ldagi naqd pullar hisobga kirmaydi).</p>
3.	<p>O'rtacha tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik koeffitsiyenti - 50 foiz)</p>	<p>– joriy bozor qiymatida baholangan va O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki IHTTga kiruvchi davlatlar Markaziy Hukumatlari tomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan aktivlar, ularning qismlari va balansdan tashqari majburiyatlar. Qimmatli qog'ozlar bank tasarrufida bo'lishi va belgilangan tartibga muvofiq unga berilishi lozim. Kafolatlar to'g'ridan-to'g'ri va hech qanday shartlarsiz, ya'ni ularni qo'llashni cheklovchi biron-bir qo'shimcha shartlarni o'zida qamrab olmagan bo'lishi kerak;</p> <p>– o'tkazish jarayonidagi pul hujjatlari (yo'ldagi naqd pullar hisobga kirmaydi).</p> <p>– jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy (xonadon) sotib olish yoki berilgan va dastlabki garov (garov predmetiga egalik qilishning imtiyozli huquqi) sifatida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joy (xonadon) bilan ta'minlangan kreditlar. Bunda ssuda miqdorining garov qiymatiga nisbati 60 foizdan oshmasligi kerak. 60 va undan ortiq kunga muddati o'tgan, foizlar hisoblash to'xtatilgan yoki restrukturizatsiyalangan kreditlar tavakkalchilik darajasi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar toifasiga kiradi.</p> <p>– Bir oila uchun uy-joy qurish maqsadida beriladigan kreditlar, shu uy-joyda yashamoqchi bo'lgan xususiy shaxslargagina berilishi kerak. Bank dastlabki garov huquqiga ega bo'lmasa, bunday kreditlar tavakkalchiligi yuqori (100 %) bo'lgan aktivlar hisoblanadi;</p> <p>– bankning IHTTga kiruvchi davlatlar mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari yoki bu talablar va kafolatlar bo'yicha to'lovlar mazkur majburiyatlar bo'yicha moliyalashtiriladigan muayyan loyiha tushumlariga bog'liq bo'lsa, ushbu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan aktivlar. Yuqoridagi tashkilotlar tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar.</p>
4.	<p>Yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik)</p>	<p>– bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, jumladan, tadbirkorlik tuzilmalari, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar, shuningdek, iste'mol va ipoteka kreditlari 3 – 5 tartib raqami bilan</p>

	koeffitsiyenti – 100 foiz)	ko‘rsatilgan kreditlar bundan mustasno. – bankning asosiy vositalari, inshootlari, jihozlari va shaxsiy ko‘chmas mulki; – boshqa barcha aktivlar.
--	----------------------------	---

[82]. Bank aktivining sifati quyidagi ko‘rsatkichlar tizimi orqali tavsiflanadi:

- bank aktivining likvidlik ko‘rsatkichlari;
- tavakkal aktivining miqdori;
- kritik va to‘liq bahoga ega bo‘lmagan aktivlar salmog‘i;
- daromad keltiruvchi aktivlar miqdori.

Likvidlik darajasiga qarab bankning jami aktivini quyidagi uchta guruhga bo‘lish mumkin:

- yuqori darajadagi likvid aktivlar;
- likvid aktivlar;
- uzoq muddatli likvid aktivlar.

**Yuqori darajadagi** likvid aktivlarga quyidagilar kiradi:

- naqd pullar va unga tenglashtirilgan mablag‘lar;
- Markaziy bank hisob varag‘idagi mablag‘lar;
- davlatning qarz majburiyatlari;
- norezident banklar korschyotlaridagi mablag‘lar;
- davlatning ichki zayomlari uchun ajratilgan mablag‘lar.

Bu mablag‘larni zaruriyat tug‘ilishi bilanoq bank hisobvarag‘idan olib ishlatish mumkin.

**Likvid aktivlar** tarkibiga yuqori likvid aktivlari tarkibiga kiruvchi mablag‘lardan tashqari quyidagilar ham kiradi:

- yaqin 30 kun ichida qaytarish sharti bilan so‘mda va chet el valutasida berilgan kreditlar;
- yaqin 30 kun ichida mazkur bank hisob varag‘iga o‘tkazilishi kutilgan to‘lovlar.

Uzoq muddatli likvid aktivlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- bir yilgacha qaytarish sharti bilan so‘mda va chet el valutasida bank tomonidan berilgan kreditlar;
- 50 foiz kafolat sharti bilan bir yildan ko‘proq muddatda qaytarish sharti bilan berilgan kreditlar;
- hukumat tomonidan kafolatlangan muddati kechiktirilgan ssudani chegirib tashlangan qoldiq kredit;
- garovdagi qimmatli qog‘ozlar;
- garovdagi nodir metallar.

Yuqori darajali likvid aktivlar me'yorlari (normativi) quyidagicha hisoblanadi:

$$N_{yud} = \frac{\text{Yuqori darajali likvid aktivlar}}{\text{Talab qilib olinadigan schyotdagi bank majburiyatlari}}$$

Likvid (joriy) aktivlar me'yorlari (normativi) quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{lb} = \frac{\text{Joriy likvidli aktivlar summasi}}{\text{30 kungacha muddat ichida talab qilib olinguncha schyotdagi bank majburiyatlari}}$$

Barcha tijorat banklari joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari shart. Ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidli aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi.

Ushbu ko'rsatkich 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Uzoq muddatli likvid aktivlar me'yorlari (normativi) quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{um} = \frac{\text{To'lov muddati bir yildan oshiq bo'lgan aktivlar summasi}}{\text{To'lov muddati bir yildan oshiq bo'lgan bank majburiyatlari}}$$

Quyida keltirilgan taxminiy normativlar bank aktivlarini boshqarishda qo'llanilishi mumkin (12-jadval).

### 12-jadval.

#### Aktivlarning taxminiy normativlari

№	Aktivlar	Bazis yil	Joriy yil	Tafovut
1.	Yuqori likvid aktivlar	45,1	48,5	+3,4
2.	Joriy likvid aktivlar	28,2	23,3	-4,9
3.	Uzoq muddatli likvid aktivlar	-	-	-
4.	O'rta muddatli aktivlar	4,6	4,2	-0,4
5.	Nolikvid aktivlar	22,1	24,0	+1,9
	Jami aktivlar	100	100	0

Keltirilgan ko'rsatkichlarning pasayishi bankning resurslar barqaror bo'lmagan manbalarga tayanganligi yoki bank portfelidagi yuqori likvid

aktivlar ulushining kamayganligini anglatadi. Bu yerda bank likvidligini tahlil qilinayotgan davr (oylik, choraklik, yillik) mobaynida o'zgarishlar tendensiyasiga ahamiyat berilishi va o'zgarishlar ahamiyatini hamda xarakterini o'tgan davrlarga nisbatan baholashi, resurslar jalb qilishning o'tgan va joriy strategiyalarini baholashi, shuningdek, imkoni bo'lsa, o'xshash banklar bilan qiyoslash lozim.

Shuni qayd qilish lozimki, yuqorida keltirilgan likvidlik koeffitsiyentlari o'z-o'zidan likvidlikning yetarliligi bo'yicha aniq ma'lumot bermaydi. Ularga umumiy bahoning bir qismi sifatida qarash kerak. Shuning uchun ham, bank rahbariyati yuqorida likvidlik ko'rsatkichlaridan tashqari o'zining likvidlik ko'rsatkichlari to'plamini ishlab chiqish va undan foydalanish kerak. Bu ko'rsatkichlar mazmunli bo'lishi va har doim bankning moliyaviy holatini baholovchi boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda baholanishi lozim.

**[83].** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan 1998-yil 9 noyabrda tasdiqlangan 242-sonli «Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi»ga binoan aktivlar quyidagi toifalar bo'yicha tasniflanadi (13-jadval).

Aktiv bir toifadan ortiq toifalarda tasniflanishi ham mumkin. Summasi asosiy qarzning to'lanmagan qiymatidan kam bo'lgan ta'minotga ega muammoli ssuda quyidagicha tasniflanishi mumkin (ta'minot sotilishi mumkin bo'lgan bozor mavjudligi sharti bilan):

- qiymati ta'minotning bozor qiymatiga teng bo'lgan asosiy qarz qismi odatda substandart sifatida tasniflanadi;
- asosiy qarzning qolgan qismi ushbu bo'limda ko'rsatilgan tartibda shubhali yoki umidsiz kabi tasniflanadi.

### 13-jadval.

#### Aktivlarning tasniflanish tizimi

№	Aktivlar toifalari	Izoh
1	2	3
1.	«Yaxshi» aktivlar	Ushbu aktivlar bo'yicha qarzlarning o'z muddatida to'lanishi shubha tug'dirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag'lari oqimiga ega. Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olish, yaxshi

		<p>mahsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejani taqdim etadi va o'z mahsulotlari uchun marketing rejasiga ega bo'ladi. Qarzdor mavqeyini baholash kreditga doir to'lovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi (mulk va ko'chmas mulk, kafolat) kabi omillarni o'z ichiga qamrab oladi.</p>
		<p>Garov «yaxshi ta'minlangan» kredit mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi qonunchilikka muvofiq notarial jihatdan puxta tasdiqlangan bo'lishi va zarur hollarda tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi lozim. Bank kredit qaytarilmagan holda cheklovlersiz va erkin ravishda uni garov hisobidan undirib olishi mumkin. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak.</p> <p>«Yaxshi» deb tasniflangan kreditlarda ular qaytarilmasligi alomatlari bo'lmaydi. Foizlar muddati o'tgan kreditlar «Yaxshi» deb tasniflanishi mumkin emas.</p>
2.	«Standart» aktivlar	<p>Standart toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi to'lov manbasi (kafolat yoki garov bilan) puxta ta'minlangan bo'lishi lozim. Umuman olganda, qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanib, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yo'nalishlar mavjud bo'lsa, ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha uyg'onishi mumkin. Shu bilan birga, moliyaviy ahvol yoki garovni nazorat qilish borasida birmuncha shubhalar bo'lishi mumkin. Kredit hujjatlarida yetarlicha axborot bo'lmagan yoki garov ta'minoti bo'yicha hujjatlari bo'lmagan «yaxshi» kreditlar (aktivlar) ham «standart» aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin. To'lanmagan foizlari yangi kreditga aylanadigan (kapitallashtiriladigan) kredit hech bo'lmaganda «Standart» aktiv sifatida tasniflanish zarur. Qisqa vaqt mobaynida (30 kungacha) kechiktirilgan kreditlar «Standart» aktivlar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Biroq, kechiktirilgan maqomi aktivning tasniflanishini baholashda asosiy omil bo'lmashligi lozim. «Standart» sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasing 10 foizi miqdorida zaxiralar tuzishi shart.</p>
3.	«Substandart» aktivlar	<p>Substandart aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega bo'lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg'otadi.</p> <p>«Substandart» sifatida tasniflangan kreditlarda qarz to'lashning dastlabki manbasi qarzga xizmat ko'rsatish uchun yetarli darajada bo'lmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qo'shimcha manbalar (garovdan undirish va qarzdor tomondan ssuda qaytarilmaganda garovni sotish, asosiy fondlarni sotish singari manbalar)ni qidirishga majbur bo'ladi.</p>
		Shuningdek, substandart aktivlar ishonchli joriy

	<p>moliyaviy ahvol va qarz oluvchining to'lov qobiliyati bilan himoyalangan. Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan qoniqarli joriy moliyaviy axborotning yo'qligi yoki garov hujjatlarining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo'lgan kreditlarni ifodalaydi. Ular bo'yicha foizlar yoki asosiy qarz 30 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta'minlanmagan kreditlar, hech bo'lmaganda, substandart sifatida tasniflanishi zarur, shuningdek, 90 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta'minlangan kreditlar ham substandart sifatida tasniflanishi lozim.</p> <p>Shuningdek, quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bo'lsa, aktiv to'lov muddati to'lgunicha substandart sifatida tasniflanishi mumkin:</p> <p>a) asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun yetarli emas, bank garovga qo'yilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag'larini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan boshqa qarz mablag'larini qayta moliyalash kabilarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topishi kerak bo'lgan holda;</p> <p>b) qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larini mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarini qoplash uchun yetarli bo'lmagan hollarda;</p> <p>c) qarz oluvchi korxonaga kapitali ko'p darajada yetarli bo'lmagani taqdirda;</p> <p>d) ushbu sohaga nisbatan yo'nalish va istiqbollar barqaror bo'lmagan holda;</p> <p>e) kreditlar (aktivlar), garov qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lgan holda (ya'ni, kredit qisman ta'minlangan bo'lsa).</p> <p>«Substandart» sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 25 foiziga teng bo'lgan zaxiralarni shakllantirishi lozim.</p> <p>Bu aktivlar substandart deb tasniflanuvchi aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga qo'yadi va kam ishonchli qilib qo'yadi. Ziyon ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha «shubhali» deb tasniflanmaydi. Quyidagi omillarning kamida bittasi mavjud bo'lsa, aktiv «shubhali» deb tasniflanishi mumkin:</p> <p>a) «substandart» aktivlarning hech bo'lmaganda bironta ko'rsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa noqulay tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiluvchan garovning mavjud emasligi yoki qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);</p>
--	---

4.	Шубхали активлар	<p>b) yaqin kelajakda aktivning qisman to‘lanishi ehtimolining mavjudligi, shuningdek, ushbu paytda aktivning «umidsiz» deb tasniflanishi zarur emasligi.</p> <p>Aktivni «umidsiz» deb tasniflashga imkon beruvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– bank aktivlar bo‘yicha ayrim to‘lov turlarini yoki hech bo‘lmaganda qisman to‘lovlarni oladi;</li> <li>– bank garovni undirib olish bo‘yicha huquqiy xatti-harakatlarni qo‘llay boshlaydi va ta‘minot sotuvini o‘z vaqtida amalga oshiradi (90 kun ichida);</li> <li>– qarzdor tomonidan keyinchalik aktivni to‘liq ta‘minlaydigan qo‘shimcha ta‘minotni taqdim etish harakatlarining amalga boshlanishi.</li> </ul> <p>«Shubhali» deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha bank asosiy qarz to‘lanmagan summasining 50 foizli miqdorida zaxirani tashkil etishi shart. Bunday aktivlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank aktivlari sifatida ularning hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Bunday tasniflash kreditlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Lekin banklar o‘z balanslarida bu qarzdorlikning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish choralarini ko‘rish yoki uni qaytarish choralarini qo‘llashi kerak.</p> <p>Kamida 180 kunga kechiktirilgan aktiv «umidsiz» deb tasniflanadi.</p> <p>Yuqorida ko‘rsatilgan davr mobaynida aktiv qaytarilmasligidan dalolat beruvchi faktlar va belgilar mavjud bo‘lsa, ushbu aktiv «umidsiz» deb tasniflanishi mumkin.</p>
5	Umidsiz aktivlar	<p>Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha bank asosiy qarzning to‘lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak. Buning uchun bank o‘z foydasi hisobiga, foyda etmagan hollarda esa o‘z sarmoyasi hisobiga umidsiz aktivlarni balansdan chiqarishi kerak.</p>

- [84].** Quyidagilar aktivlarning likvid ta‘minoti vazifasini bajaradi:
- O‘zbekiston Respublikasi hukumatining so‘zsiz kafolati;
  - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so‘zsiz kafolati;
  - banklarda ochilgan hisobvaraqlarda erkin ayirboshlanadigan valuta shaklidagi garov;
  - O‘zbekiston Respublikasi hukumati qimmatli qog‘ozlari shaklidagi garov;
  - andozaviy qimmatbaho metallar shaklidagi, ya‘ni oltin va kumush quymalari shaklidagi garov.

Quyidagi aktivlar nolikvid ta'minotga ega deb hisoblanadi:

- ko'chmas mulk, o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan yerga bo'lgan huquqni hisobga olgan holda;
- ko'chmas mulk;
- xususiy korxonalarining qimmatli qog'ozlari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning kafolatlari.

Aktivlar bo'yicha ta'minot hisoblanuvchi garov bank tomonidan kreditni qoplashni asosiy manbayi deb hisoblanmasligi kerak. Garov kreditni to'lashning ikkilamchi manbayi deb qaralishi kerak. Xavfsiz va ishonchli faoliyat andozalariga muvofiq tarzda banklar garovni kreditni qaytarishning asosiy vositasi deb hisoblangan holda, kredit bermasliklari kerak, shunga muvofiq ravishda bank asosiy qarz summalarining qaytarilishini va garovni sotishdan olinadigan foizlarni baholashi kerak.

**[85].** Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qo'llaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni ham ko'zda tutadi.

Mazkur tizim bank boshqa aktivlari, jumladan, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, olishga doir hisobvaraqlar, uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarni bajarish bo'yicha sotib olingan talab qilish huquqi va qaytarilmaslik xatari mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo'yicha qarzdorni baholashdan boshlanadi:

- tendensiya va tarmoq (iqtisodiy sektor) kelajagi;
- qarzdorning moliyaviy ahvoli;
- mijozning kredit tarixi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi (nizomi);
- korxonadagi rahbarlik va boshqarish sifati (agar kredit korxonaga berilsa).

Kredit tahlili va aktivlar tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, kreditlarni to'lash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garovning mavjudligi kabi omillarga bog'liq. Ushbu omillarni kredit portfeli va tijorat bankining boshqa aktivlariga xos bo'lgan tavakkalchilikni aniqlash va baholashda qo'llash juda muhimdir.

Markaziy bank Boshqaruvining 1996-yil 20-iyul 242-sonli «Tijorat banklari va ularni sho'balari tomonidan tashkil etilgan ssudalar bo'yicha yo'qotish ehtimolligida aktivlarni tasniflash, zaxiralarni shakllantirish



va foydalanish tartibi» haqidagi yo‘riqnomaga muvofiq ssudalar bo‘yicha yo‘qotish ehtimolini qoplash uchun zaxiraga o‘tkaziladigan mablag‘larning quyidagi mezonlari o‘rnatilgan (14-jadval).

**14-jadval.**

**Ssudalar bo‘yicha yo‘qotish ehtimolini qoplash uchun zaxiralarga o‘tkazish me‘yorlari**

Kreditlar sifati darajasi	Zaxiralarga o‘tkazish me‘yorlari (%)
Yaxshi kreditlar	-
Standart kreditlar	10
Substandart kreditlar	25
Shubhali kreditlar	50
Umidsiz kreditlar	100

Yuqoridagi 242-sonli yo‘riqnomaga muvofiq kreditlar quyidagi beshta toifa bo‘yicha tasniflanadi (15-jadval).


**15-jadval.**

**Ssudalarni ta‘minlanganlik darajasiga qarab ularni qaytarish muddatlari**

Aktivlarning sifati darajasi	Ta‘minlangan ssudalar	To‘liq ta‘minlanmagan ssudalar	Ta‘minlanmagan ssudalar
Yaxshi	Ssudaning o‘z muddatida qaytarilishi. Muddati o‘tgan qarzdorlik, 30 kungacha	Ssudaning o‘z muddatida qaytarilishi	Ssudaning o‘z muddatida qaytarilishi
Standart	Muddati o‘tgan qarzdorlik, 30-60 kun	Muddati o‘tgan qarzdorlik, 30 kungacha	–
Substandart	Muddati o‘tgan qarzdorlik, 60 kundan 180 kungacha	60 kungacha	30 kungacha
Shubhali	180 kundan ortiq	M.o‘.k. 60 kundan 180 kungacha	M.o‘.k. 30 kundan 180 kungacha
Umidsiz	–	180 kundan ortiq	60 kundan ortiq

**3.4. Bank aktivi va passivini boshqarish**


[86]. Bankning aktiv va passivlarini boshqarish – bank likvidligini boshqarishning ikki muhim yo‘nalishidir (24-chizma).



**24-chizma.** Bank likvidligini boshqarish

**Likvidlikni boshqarish nazariyasi** tijorat banklarining tashkil topishi va rivojlanishi bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan. Dastlab bank likvidligi masalasiga ikki turdagi yondashuv mavjud bo‘lgan.

**Birinchi yondashuv** bo‘yicha bank aktivlarining miqdori, tuzilishi va muddatlari bank passivlari tuzilishga mos tushishi lozim edi. Bu esa tijorat banklari tomonidan o‘z likvid mablag‘laridan faol foydalanishga imkon bermas edi. Bu nazariya asosida bankning oltin qoidasi ishlab chiqilgan edi. Unga ko‘ra bankning talablari miqdori va muddati uning majburiyatlari miqdori va muddatiga teng bo‘lishi zarur edi, ya’ni:



**Ikkinchi yondashuvda** esa aktiv va passivlarning real hayotga mos kelmasligi asos qilib olingan. Chunki eng katta bank ham moliya-kredit siyosatidagi o‘zgarishlar, iqtisodiy inqirozlar va boshqa o‘zgarishlardan kafolatlanmagan. Bunday o‘zgarishlar ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lidan borayotgan davlatlarga xos bo‘lib, u bank likvidligini ta’minlash zaruriyatini, ya’ni tijorat banklari aktivlari va passivlarini samarali boshqarishni talab qiladi.

**Aktivlarni boshqarish** nazariyasi quyidagi uslubiy qoidaga asoslanadi:

**Birinchidan,** tijorat bank mablag‘larini qisqa muddatli ssudalarga berganda uning likvidligi saqlanadi. Bu qoida ba’zi g‘arb davlatlari qonunlarida o‘z aksini topsa-da, amaliyotda esa u «ikkinchi darajali zaxiralar» nomini olgan.

**Ikkinchidan**, agar kreditni to‘lash grafigi uchun mijozning kelgusi davrda oladigan daromadlarning tushish grafigi asos qilib olinsa, u holda bank likvidligini rejalashtirish mumkin.

Demak, bank likvidligiga kredit va investitsiyalarning to‘lash muddatini o‘zgartirish orqali ta’sir etish mumkin. Amaliyotda bu qoida investitsiya portfelini pog‘onali boshqarishda o‘z aksini topadi.

**Passivlarni boshqarish nazariyasi** quyidagi qoidalarga asoslanadi:

**Birinchidan**, tijorat banklarining likvidligi muammosini hal qilishga kapital bozorida pul mablag‘larini jalb etish orqali erishish mumkin. Bu qoida g‘arb davlatlari amaliyotida o‘z tasdig‘ini va amaliy qo‘llanishini topgan.

**Ikkinchidan**, tijorat banki o‘z likvidligini federal zaxira tizimi, bank-korrespondent, yevrovaluta bozorida ssudalariga murojaat etish yo‘li bilan ta’minlanishi mumkin.

Tijorat banklari aktiv va passivlarni boshqarish nazariyalarini amaliyotga qo‘llayotganda doimo daromadlilik, likvidlik va to‘lovlilik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashlari lozim.

Bank passivlarini boshqarishdan asosiy maqsad – bankka daromad keltirmaydigan mablag‘lar miqdorini qisqartirish va «arzon» mablag‘lar jalb qilish orqali bank daromadlilikini yuqori darajaga ko‘tarishdir. Demak, aktivlar va passivlarni boshqarishning muhim vazifasi eng past xatar darajasi asosida foiz tushumlari bilan foiz to‘lovlari o‘rtasidagi barqaror farqni ta’minlashdir.

Nazariy jihatdan aktivlar va passivlarni boshqarishni alohida-alohida o‘rganish mumkin. Lekin amaliyotda ular bir-biriga uzviy bog‘langan. Chunki balansning passiv qismidan joy olgan mablag‘lar manbayini tahlil qilmasdan turib, aktiv operatsiyalarni amalga oshirish mumkin emas. Masalan, mijozning kredit talabnomasini qondirish uchun bank o‘zining qancha mablag‘i mavjud ekanligini, agar zarur bo‘lsa, qancha miqdorda depozit mablag‘i jalb qilishi kerakligini aniqlashi lozim.

Bank boshqaruvchisi aktivlar va passivlarni boshqarish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- aksionerlar va omonatchilarni himoya qilish;
- naqd pulga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida likvidlikni ta’minlash, shu bilan bir qatorda, harakatsiz aktivlarni investitsiyalarga yo‘naltirish;

- daromadlilikni oshirish maqsadida jalb qilingan va kreditga berilgan mablag‘lar o‘rtasidagi foiz stavkalari orasidagi farqni boshqarish;

- tavakkalchilikning ma'qul darajasi bilan xorijiy valutani ay-irboshlash operatsiyalaridan daromad olish;
- moliyaviy tavakkalchilikni qo'llab-quvvatlash maqsadida kapitalning yetarlilik darajasini ta'minlash.


Buning uchun:

- bankning daromadi va xarajati o'rtasidagi marja spreadni orttirish va saqlanishini ta'minlash;
- bankning yuqori likvidligini ta'minlash;
- kreditlarning xatar darajasi, qaytishining ta'minlanganlik shakllari va daromadlilik darajasi bo'yicha joylashtirish;
- foiz stavkalarining o'zgarishini sezuvchan aktivlar bilan shu xususiyatga ega passivlarni teng nisbatini ta'minlash lozim.

Shunday qilib, aktivlar va passivlarni boshqarish uchun quyidagilar bajariladi:

- axborotlarni to'plash;
- ularni tahlil qilish;
- kredit siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilish asosida bankning kelajakdagi rejalarini belgilash.

[87]. Jahon bank amaliyotida aktivlar va passivlarni boshqarishning quyidagi usullari mavjud (25-chizma).



**25-chizma.** Jahon bank amaliyotida aktivlar va passivlarni boshqarish usullari.

**Fondlar manbalarini birlashtirish usulida** bank rahbari aktivlarning to'g'ri joylashtirilishini aniqlab olishi zarur. Bu usulning afzalligi shundaki, u o'zining oddiyligi bilan boshqaruvchiga qo'l keladi. Shu bilan birga, bu usulning ayrim kamchiliklari mavjud. Jumladan:

- boshqaruvchi aktivlar va passivlar orasidagi bog'liqlikka e'tibor bermaydi. Natijada aktivlar portfelidagi qisqa va uzoq muddatli kreditlar

ulushining ortishi natijasida qo‘shimcha likvid mablag‘lariga talab yuzaga keladi;

□ bank aksionerlarining olishi mumkin bo‘lgan foydasi hisobiga boshqaruvchi bank likvidligini ushbu aktivlar ko‘rinishida ta‘minlashi ham mumkin.

**Fondlar manbalarini bir-biridan ajratish usuli** yordamida boshqaruvchi asosiy mablag‘lar qanday aniq manbalar hisobiga jalb qilina-yotganini o‘rganadi. Bunda u talab qilib olgunga qadar qo‘yilgan qo‘yilmalarning nisbatini aniqlashi lozim. Shu bilan birga, u pul bozoridagi qarzlarning hajmi va bankning majburiyatlari hajmini ham aniqlashi lozim. Agar bankning fondlari asosan qisqa muddatli manbalar hisobiga tashkil qilingan bo‘lsa, u holda mablag‘larning asosiy qismi qisqa muddatli kreditlarga va qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltiriladi.

Aksincha, o‘z fondlarini qisqa muddatli mablag‘lar hisobiga tashkil qilayotgan bank, bu mablag‘larni ozgina tavakkalchilik bilan qisqa muddatli kreditlarga yo‘naltirish mumkin.

Qisqa muddatli manbalar	→	Qisqa muddatli aktivlar
Uzoq muddatli manbalar	→	Uzoq muddatli aktivlar

**Har ikkala fond manbalarini birlashtirish usulidan** foydalanish yordamida bank aktivlari va passivlarni boshqarishda ancha qulayliklarga ega bo‘ladilar. Boshqarishga bunday yondashish quyidagilarga asoslanadi:

□ Boshqaruvchi dastlab maqsadlarni aniqlab olishi, so‘ngra aktivlar va passivlarni boshqarish orqali ushbu maqsadlarga erishish uchun harakat qilish lozim. Bu o‘rinda bank aksionerlari qo‘yilmalaridan foydalanishning eng yuqori darajasiga erishishga harakat qilish kerak.

□ Aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonida bankning daromadini yuqori darajaga ko‘tarishni ta‘minlovchi boshqa qarorlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta‘minlovchi barcha imkoniyatlardan foydalanish.

□ Aktiv va passivlarni boshqarish orqali bank daromadi va xarajati orasidagi farq (spred yoki marja)ni oshirish yoki saqlab turishga erishish.

□ Bank aktivlar majburiyatlar portfelini boshqarishda asosiy e‘tiborni yuqori daromadli kreditlarni berishga qaratmog‘i lozim. Agar kreditlarga yo‘naltirilishi mo‘ljallangan depozitlar hajmi kam bo‘lsa,

kerakli mablag‘lar boshqa arzon manbalar hisobidan jalb qilinishi lozim.

□ Bank kapitalining bahosi faqatgina uning daromadlilikiga emas, balki tavakkalchilikka ham bog‘liq bo‘lganligi tufayli mazkur tavakkalchilikni boshqarish ham bank rahbariyati uchun eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

[88]. Balans buzilishini boshqarish deganda foiz stavkasi xatarini sug‘urtalash (xejirlash) strategiyasi tushuniladi. Bu strategiya foiz daromadini keltiruvchi:

- bank aktivlari;
- pul bozoridagi depozitlar;
- zayomlar bilan bog‘liq bo‘lgan narxlarning amal qilish muddati;
- narxlarning o‘zgarishi ehtimolini tahlil qilishni talab qiladi.

Agar boshqaruvchi aniq har bir davr uchun aktivlar va passivlar o‘rtasidagi tenglikni ta‘minlasa, foiz stavkasining bozordagi o‘zgarishi bank faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Qayta baholanishi lozim bo‘lgan bank aktivlari narxi (foiz stavkasining o‘zgarishini sezuvchi aktivlar)	=	Qayta baholanishi lozim bo‘lgan bank passivlarining narxi (foiz stavkasining o‘zgarishini sezuvchi aktivlar)
--	---	---


Agar qayta baholanishi lozim bo‘lgan aktivlar miqdori shunday passivlar miqdoriga teng bo‘lmasa, foiz stavkasidagi o‘zgarishlarni sezuvchi aktivlar va passivlar o‘rtasida tengsizlik (disbalans) yuzaga keladi.

Tengsizlik (disbalans)	=	Foiz stavkasining o‘zgarishini sezuvchi aktivlar	–	Foiz stavkasining o‘zgarishini sezuvchi passivlar
---------------------------	---	--	---	---

Aniq har bir davr ichida (kun, hafta va h.k) foiz stavkasidagi o‘zgarishni sezuvchi aktivlar hajmi xuddi shunday xususiyatga ega bo‘lgan passivlar hajmidan ortiq bo‘lsa, u holda bank balansida **ijobiy tengsizlik** yuzaga keladi, yoki boshqacha qilib aytganda, balansning aktivlar bo‘yicha sezuvchanlik darajasi yuqori bo‘ladi:

Sezuvchanlik natijasidagi ijobiy tengsizlik	>	Foiz stavkasining o‘zgarishini sezuvchi aktivlar	>	Foiz stavkasining o‘zgarishini sezuvchi passivlar
---	---	--	---	---

Aksincha, agar foiz stavkasidagi o'zgarishni sezuvchi passivlarning hajmi shu xususiyatga ega bo'lgan aktivlar hajmidan yuqori bo'lsa, u holda balansda **salbiy tengsizlik** yuzaga keladi:



Masalan, bank foiz stavkasidagi sezuvchi 500 mln. dollar hajmidagi aktivlar va 400 mln. dollar hajmidagi passivlarga ega bo'lsa, bankning aktiv saldosini (qoldig'i), ya'ni ijobiy tengsizlik 100 mln. dollarga teng bo'ladi. Agar foiz stavkasi ko'tarilsa, sof foiz marjasi ham ortadi. Natijada bank daromadi ortadi. Foiz stavkasi miqdori pasayganda, sof foyda marjasi kamayadi. Ijobiy saldogga ega bo'lgan bank foiz stavkasi kamayganda daromadini yo'qotadi. Foiz stavkasidagi o'zgarishni sezuvchi aktiv va passivlar hajmining teng bo'lishi, bankning foiz stavkasi xataridan himoya qiladi. Bunday holda aktivlar bo'yicha foiz tushumlari va passivlar bo'yicha foiz chiqimlari teng bo'lib, balans buzilishi yuzaga kelmaydi va sof marjasi barqaror, ya'ni mustahkam bo'ladi. Hozirgi paytda balans buzilishini boshqarishni bir necha usullaridan foydalanilmoqda:

- bankning sof foyda marjasi ko'zda tutilgan darajaga etishini ta'minlovchi ma'lum bir davrni belgilab olish zarur (masalan, bir yil yoki olti oy);
- sof foiz marjasining qanday maqsadlarga yo'naltirilishini aniqlab olish lozim, ya'ni sof foiz marjasi o'rnatilgan darajada qoladimi, yoki imkoniyat bo'lsa, uni ko'tarish lozimmi, shu masalani hal qilish kerak;
- agar bank rahbariyati sof foiz marjasining ortishini istasa, foiz stavkasining o'sishini aniq belgilab olishi yoki daromad va xarajat orasidagi farqni oshirish maqsadida o'z aktivlari va passivlarini qayta taqsimlash yo'llarini topishi lozim.

### 3.5. Tijorat bankining daromadi va foydasi

[89]. Tijorat banki daromadining asosiy manbayi quyidagilar hisoblanadi (16-jadval).

## Tijorat bankining daromadlari

№	Daromadlar manbayi	Izoh
1	2	3
1.	Ssuda biznesi	<p>Bu biznes ikki unurni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> mijozlarga ssuda berish;</li> <li><input type="checkbox"/> foyda olish maqsadida o'zining bo'sh turgan resurslarini boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik berib turish.</li> </ul> <p>Ssuda biznesining ikkinchi qismi banklararo kredit yoki boshqa bankka qo'yilgan tezkor depozit shaklida bo'lishi mumkin.</p>
2.	Diskontli biznes	<p>Bu to'lanmagan veksellar, cheklarni muayyan diskont bilan bank tomonidan sotib olishga asoslanadi. <b>Faktoring</b> operatsiyalari diskontli biznesning har xil ko'rinishlaridan biridir. U ikki ko'rinishda bo'ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> regress (aylanmali) huquqi bilan;</li> <li><input type="checkbox"/> regress (aylanmasiz) huquqsiz.</li> </ul> <p>Birinchi holda bank mablag'ni olgan (yetkazib beruvchi) dan to'lanmagan majburiyatlarni undirib olishga haqli bo'ladi. Ikkinchi holda esa bunday huquqqa ega bo'lmaydi. Shu sababli u ko'proq mukofotlanishni talab qilib ko'proq tavakkalga boradi.</p> <p>Faktoring operatsiyasi uchun bankni mukofotlash yetkazib beruvchining sotishdan olgan daromadini kamaytiradi. Chunki aynan shu qiymatdan chegirma qilinadi. Masalan, 20 foiz chegirma bilan mahsulotni sotish yoki mablag'ni qaytarish.</p>
3.	Himoyali biznes	<p>Bu bank operatsiyalariga mos tushuvchi xizmatlar bo'lib, ular trast (ishonchli) va vakilli xizmatlar</p>
4.	Qimmatli qog'ozlar orqali biznes	<p>Bunda bankning daromadi quyidagilar evaziga shakllanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> o'zining va boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotish chog'ida kurs tafovuti evaziga olingan daromad;</li> <li><input type="checkbox"/> xususiylashtirishda bajarilgan xizmatlar evaziga olingan daromad (xususiylashtirish hujjatlarini talab darajasiga keltirish, korxonaning qiymatini aniqlash, aksiyalarni chiqarish va joylashtirish reyestrlarni yurgizish va h.k.)</li> </ul>
5.	Bankning kafillik faoliyati	<p>Bu faoliyat evaziga bank bevosita va bilvosita daromad oladi. Mijozlarga bankdan kredit olish va boshqa operatsiyalarni bajarishlari uchun kafil xatlarini beradi va shu narsa evaziga bank daromad oladi</p>
6.	Mijoz omo-	<p>Bunda bank daromadi uning quyidagi vositachilik</p>



	natlarini jalb qilish va omonatchilar topshirig'i bilan operatsiyalar amalga oshirish faoliyati	operatsiyalarni bajarish evaziga shakllanadi: <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> schyotlarni ochish;</li> <li><input type="checkbox"/> schyotlarni olib borish;</li> <li><input type="checkbox"/> schyotlar bo'yicha operatsiyalardan nusxa oldirish;</li> <li><input type="checkbox"/> schyotlarni yopish;</li> <li><input type="checkbox"/> naqd pulni berish bo'yicha hisob-kitoblarni bajarish va h.k.</li> </ul>
7.	Korrespondent (rasmiy yozishma)lik xizmati	Bunda bank boshqa bank korschyoti qoldig'i (saldosi)dagi kreditdan foiz olish evaziga daromad oladi. U daromadning miqdori: <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> foiz stavkasi darajasiga;</li> <li><input type="checkbox"/> foizni hisoblash tartibiga;</li> <li><input type="checkbox"/> saldodagi kredit miqdori va uning qanchalik davomligiga bog'liq bo'ladi.</li> </ul> Bunda bank daromadi: <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> lizing;</li> <li><input type="checkbox"/> axborot berishga oid (informatsion);</li> <li><input type="checkbox"/> maslahat berish;</li> <li><input type="checkbox"/> valutani almashtirish;</li> <li><input type="checkbox"/> mijozlarni o'qitish kabi xizmatlarni bajarish evaziga shakllanadi.</li> </ul> Lizing operatsiyalarini bajarish evaziga olinadigan daromad: <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> lizing to'lovlari;</li> <li><input type="checkbox"/> foiz to'lovlari;</li> <li><input type="checkbox"/> vositachilik uchun to'langan haqlarni o'z ichiga oladi.</li> </ul>
8.	Bank mulkini sotish bilan bog'liq bo'lgan ko'zda tutilmagan daromadlar	Bu daromad bank balansidagi qiymatdan bozor bahosining oshishi evaziga paydo bo'ladi. Aks holda xarajat bilan bog'liq operatsiyalar bankning to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'rishiga olib keladi.

Shunday qilib, tijorat banking barcha ko'rinishlardagi daromadini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- foizdan olingan daromad;
- vositachilik (komissiya) evaziga olingan daromad;
- boshqa turli daromadlar (bozordagi operatsiyalarda kurs farqi, sotilgan bank mulkining balansdagi narx o'rtasidagi farq, qimmatli qo'zg'ozlar va boshqa nominal bahosini qayta baholash, jarimalar evaziga olingan daromadlar).

Qayd qilingan xizmatlar evaziga olingan daromadlar bank xarajatlari, riskini qoplab foyda olishini ta'minlashi kerak.

**Ssuda foizi** – bu muayyan muddatga berilgan kredit uchun to‘lanadigan foiz. Ssuda foizining turlari quyidagicha tavsiflanadi:

- kredit shakllari bo‘yicha:**
  - tijorat foizi;
  - bank foizi;
  - iste‘mol foizi;
- kredit muassasalarining turlari bo‘yicha:**
  - Markaziy bank foizi;
  - tijorat banklari foizi;
  - lombard (garov) ga oid foiz;
- ssuda muddatlari bo‘yicha:**
  - qisqa muddatli ssuda foizi;
  - pul bozori stavkasi darajasidagi foiz;
  - uzoq muddatli ssuda foizi;
- ssuda turlari bo‘yicha:**
  - ssudalar bo‘yicha foiz;
  - banklararo kredit foizi;
  - depozit foizi;
- hisoblash usuli bo‘yicha:**
  - oddiy foizlar;
  - murakkab foizlar;
  - aniq foizlar;
  - odatdagi foizlar va boshqalar.

Turli ko‘rinishlardan qat’iy nazar bitimlashgan ssuda foizi kredit resurslarining bahosi va mazkur tijorat banki uchun zarur bo‘lgan marja hisobiga shakllanadi.

[90]. Bank xarajatlarini ularning shakllari va hisobga olish usuli bo‘yicha tasniflash mumkin (17-jadval).

**17-jadval.**

**Bank xarajatlari**

<b>№</b>	<b>Tasniflash belgilari</b>	<b>Bank xarajatlari turlari</b>
1	2	3
I	<b>Shakli bo‘yicha</b> 1. Foiz to‘lovlari	<input type="checkbox"/> talab qilinganda olinishi mumkin bo‘lgan omonatlar uchun foiz to‘lovlari <input type="checkbox"/> tezkor depozitlar uchun foiz to‘lovlari <input type="checkbox"/> boshqa bank depozitlari uchun foiz to‘lovlari <input type="checkbox"/> chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar uchun foiz to‘lovlari
	2. Foizsiz to‘lovlar	<input type="checkbox"/> umumbank operatsion xarajatlarini qoplash uchun

		<p>ajratiladigan sarflar</p> <input type="checkbox"/> boshqaruv apparati xarajatlarini qoplash uchun ajratiladigan barcha sarflar
	3. Boshqa xarajatlar	<input type="checkbox"/> bank mahsuloti tannarxiga qo‘shiladigan: <ul style="list-style-type: none"> <li>→ zaxiralar qiymati;</li> <li>→ to‘langan soliqlar;</li> <li>→ qimmatli qog‘ozlar va valuta bozorlarida chayqovchilik operatsiyalari natijasida ko‘rilgan zararlar qiymati;</li> <li>→ bank mulkini sotish natijasida ko‘rilgan zararlar qiymati.</li> </ul>
II	<p><b>Hisobga olish usuli bo‘yicha</b></p> <p>1. Bankning operatsion va turli xarajatlari</p>	<input type="checkbox"/> bankning qisman soliq to‘lovlari <input type="checkbox"/> jalb qilingan resurslar uchun foiz to‘lovlari <input type="checkbox"/> asosiy fondlar amortizatsiyasi <input type="checkbox"/> moddiy va nomoddiy aktivlarning eskirishi va emirilishi <input type="checkbox"/> ijara to‘lovlari <input type="checkbox"/> hisoblash markazlari uchun to‘lovlar <input type="checkbox"/> reklama to‘lovlari <input type="checkbox"/> pochta va telegraf to‘lovlari <input type="checkbox"/> o‘qitish uchun to‘lovlar <input type="checkbox"/> ish qog‘ozlari, magnit lentalar, qadoqlash materiallari uchun to‘lovlar <input type="checkbox"/> nokapital xarakterdagi sarflar uchun to‘lovlar
	2. Boshqaruv apparatini saqlash	<input type="checkbox"/> ish haqi; <input type="checkbox"/> rag‘batlantirish maqsadida berilgan mukofot va yordamlar; <input type="checkbox"/> ijtimoiy fondga o‘tkazmalar; <input type="checkbox"/> bino, uskunalar, engil mashinalarni saqlash xarajatlari; <input type="checkbox"/> muhofaza uchun xarajatlar; <input type="checkbox"/> xizmat safarlari, devonxona va boshqalar uchun xarajatlar. <p>Bu xarajatlar foizsiz xarajatlar toifasiga kiradi.</p>

Bankning qisman soliq to‘lovlariga quyidagilar kiradi:

- mulk solig‘i;
- avtomobil solig‘i;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- muhim tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash fondiga to‘lanadigan soliq.

Barcha qayd qilingan soliqlar bank operatsiyalarni amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlarga, tannarxga qo‘shiladi. Foyda solig‘i

esa bank balansidagi foydadan to‘lanadi.

**[91]. Marja** – bu savdo, birja, sug‘urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valuta va qimmatli qog‘ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko‘rsatkichlar farqini aniqlash uchun ishlatiladigan atama. Bank amaliyotida bu tushuncha quyidagicha ta‘riflanadi. Marja – bu:

- narxlar, kurslar, stavkalar o‘rtasidagi farq;
- depozit, garov ta‘minoti yoki valutalar kursining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan tebranishlari bo‘yicha qo‘shimcha ulush;
- mol asosida bitimlarda, ochiq fyuchers shartnomalari bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan talafotlardan sug‘urtalash maqsadida brokerga yoki hisob-kitob palatasiga topshirilgan pul summasini yoki garovni anglatadi;
- forvard valuta kurslarini baholash usuli;
- birja bozorida xaridor qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish yoki sotishda brokerlik kreditidan foydalanganida to‘laydigan summa;
- qarz oluvchi kredit qiymatiga qo‘shib to‘laydigan ustama.

Soddaroq qilib aytganda, marja tijorat bankining daromad foizi bilan xarajat foizi o‘rtasidagi farq yoki olingan va to‘langan foizlar o‘rtasidagi farq. Aynan marja bank foydasi va xarajatlarni qoplash manbayidir. Uning miqdori absolut va nisbiy miqdorlarda ifodalanishi mumkin.

Absolut miqdorlarda marja quyidagicha aniqlanadi:

$$M = \frac{\text{Muayyan davrda olingan foizlar summasi}}{\text{Muayyan davrda olingan foizlar summasi}} - \frac{\text{Shu davr ichida to‘langan foizlar summasi}}{\text{Muayyan davrda olingan foizlar summasi}}$$

Masalan, marjali ssudalar bo‘yicha marjaning absolut summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{ss} = \frac{\text{Ssudalar to‘lovlari bo‘yicha foizlar summasi}}{\text{Muayyan davrda olingan foizlar summasi}} - \frac{\text{Kredit resurslari bo‘yicha foizlar summasi}}{\text{Muayyan davrda olingan foizlar summasi}}$$

**Marjali ssudalar** qarz oluvchiga kredit qiymatiga ustama qo‘shish evaziga beriladigan ssuda.

Marjaning absolut miqdori va uning dinamikasi bir qator omillar ta‘sirida o‘zgaradi:

- daromad keltiruvchi kredit va boshqa aktiv operatsiyalar miqdori;
- bankning aktiv operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalari;
- bankning passiv operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari;
- aktiv va passiv operatsiyalari foiz stavkalari o‘rtasidagi farq

(spred);

- bank kredit portfelida foizsiz ssudaning ulushi;
- foizli daromad keltiruvchi riskli aktivlar operatsiyalari ulushi;
- jalb qilingan resurslar va bankning o'z kapitali o'rtasidagi nisbat;
- jalb qilingan resurslar tarkibi;
- inflatsiya sur'ati va boshqalar.

Marja quyidagi nisbiy ko'rsatkichlarda tavsiflanadi:

$K_{hfm} =$	$\frac{\text{Olingan foizlar summasi} - \text{To'langan foizlar summasi}}{\text{Daromad keltiruvchi } ^1 \text{ summasining o'rtacha qoldig'i}}$
$K_{hfm} =$	$\frac{\text{Olingan foiz summasi} - \text{To'langan foiz summasi}}{\text{ } ^2 \text{ summasining o'rtacha qoldig'i}}$
$K_{ssm} =$	$\frac{\text{Ssudalar to'lovlari bo'yicha foizlar summasi} - \text{Kredit resurslari to'lovlari bo'yicha foizlar summasi}}{\text{Qarzdorlik ssudasi summasining o'rtacha qoldig'i}}$

Bu ko'rsatkichlardan tashqari marja foizining yetarliligi ham hisoblanadi:

$M_{et} =$	$\frac{\text{Bankning operatsion xarajatlari} - \text{To'langan foizlar} + \text{Boshqarish apparatini saqlash xarajatlari} - \text{Nokredit xarakterdagi bank xizmatlaridan tushgan daromadlar}}{\text{Daromad keltiruvchi aktivlar summasining o'rtacha qoldig'i}}$
------------	---

Bu ko'rsatkich bank uchun marjaning zaruriy minimal darajasini belgilaydi va uni hisoblashdan maqsad – bank o'z xarajatlarini qanchalik qopladi degan savolga javob berishdan iborat.

[92]. Tijorat banklarining foydasi va uning darajasini tahlil qilish usullaridan quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- foyda manbalarini tarkibiy tahlil qilish;
- moliyaviy koeffitsiyentlar tizimini tahlil qilish;
- omilli tahlil.

Tarkibiy tahlil bank foydasi manbalarini aniqlash va bankning

<sup>1)</sup> **Daromad keltiruvchi aktivlar** – yuridik va jismoniy shaxslarga, banklarga berilgan barcha kredit turlari, qimmatli qog'ozlar, faktoring va lizing operatsiyalariga, boshqa korxonalariga safarbar qilingan qo'yilma mablag'lardir.

<sup>2)</sup> **Aktivlar** – bank balansi aktividagi mablag'lar yig'indisi.

bugungi kundagi faoliyatining barqarorligi va kelgusida rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun zarur. Misol tariqasida shunday tahlil qilish modelini keltiramiz (18-jadval).

**18-jadval.**

**Tijorat bank foydasi tahlili (mln. so‘m)**

T/r	Ko‘rsatkichlar	A-bank			B-bank		
		2006	2007	2008	2006	2007	2008
I	Foydaning barqaror manbalari:						
	<input type="checkbox"/> foizli daromadlar	420	510	630	1000	1200	1300
	<input type="checkbox"/> foizli xarajatlar	250	340	500	440	510	650
	Foizli marja	170	170	130	560	690	650
	<input type="checkbox"/> foizsiz daromadlar	40	45	50	120	150	195
	<input type="checkbox"/> foizsiz xarajatlar	50	60	65	140	160	190
	Foizsiz daromadlarning foizsiz xarajatlardan oshgan qismi (+), oshmagan qismi (-)	-10	-15	-15	-20	-10	+5
	Barqaror manbalar – jami	160	155	115	540	670	655
II	Foydaning nobarqaror manbalari						
	<input type="checkbox"/> bozordagi chayqov operatsiyalari tufayli olingan daromad (+), ko‘rilgan zarar (-)	+25	+40	+250	+5	-16	+25
	<input type="checkbox"/> ko‘zda tutilmagan operatsiyalar tufayli olingan daromad (+), ko‘rilgan zarar (-)	-	+40	+20	-	-	-
	Beqaror manbalar – jami	+25	+80	+270	+5	-16	+25
III	Boshqa turli xarajatlar						
	<input type="checkbox"/> ssudalar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash zaxirasiga o‘tkaziladigan mablag‘lar	20	30	30	20	10	10
	<input type="checkbox"/> soliqlar	20	15	10	50	70	100
	Sof foyda	145	190	345	475	574	570

18-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, A va B banklarning foydasi asosan barqaror manbalar evaziga shakllangan. Uch yil davomida A bankning foydasi 145 milliondan 345 millionga, ya’ni 2,4

martaga oshgan, B bankning foydasi atigi 37 foizga ko‘paygan. Ammo bunga asosanib A bank yaxshi natijalarga erishgan deb bo‘lmaydi. Sababi u 2008-yilga foydaning keskin o‘sishi bozordagi chayqov operatsiyalari tufayli olingan daromad (+250 mln.) evaziga ta‘minlangan. A bankda foizsiz daromadlarning foizsiz xarajatlardan oshmagan qismi ko‘p bo‘lib, marjaning 6-11 foizgacha qismini «hamlab» tashlagan. B bankida bu foiz atigi 1-4 foizni tashkil qiladi. 2008-yilda esa B bankda foizsiz daromadlar summasi foizsiz xarajatlarga nisbatan 5 mln. so‘mga ko‘p bo‘lib «bremya» tugatilgan. Demak, B bankda ahvol nisbatan yaxshi.

[93]. Absolut (mutlaq) sonlar tijorat banklari foydasining foydalilik darajasini ta‘riflay olmaydi. Buning uchun bir qator moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash zarur (19-jadval).

### 19-jadval.

#### Foydalilik koeffitsiyentlar tizimi

№	Ko‘rsatkichlar	Hisoblash tartibi	Izoh
1	2	3	4
1.	Aktivlarning bir so‘miga to‘g‘ri kelgan foyda ( $K_{fa}$ )	$K_{fa} = \frac{BF}{A}$	BF–balansdagi foyda A–balans aktivining o‘rtacha qoldig‘i
2.	Aktivlarning bir so‘miga to‘g‘ri kelgan chegirilgan foyda ( $K_{chfa}$ )	$K_{chfa} = \frac{BF - NBMD}{A}$	NBMD - nobarqaror manbalar evaziga olingan daromad Bu koeffitsiyentning $K_{fa}$ dan farqi shundaki, bu yerda bank foydasi nobarqaror manbalar evaziga erishilgan daromadlilik darajasi bank reytingini yuqoriga ko‘tarmaydi.
3.	Aktivlarning bir so‘miga to‘g‘ri kelgan sof foyda ( $K_{sf}$ )	$K_{sf} = \frac{SF}{A}$	SF sof foyda
4.	Aktivlarni bir so‘miga to‘g‘ri kelgan chegirilgan sof foyda ( $K_{chsf}$ )	$K_{chsf} = \frac{SF - NBMD}{A}$	Sof foyda asosida koeffitsiyentlarni hisoblashda Jahon banki mutaxassislari tomonidan tavsiya etilgan normativlardan foydalanish mumkin. Xususan, $K_{sf}$ ning normativ darajasi 1,15 dan 0,35 foizgacha, $K_{chsf}$ ning darajasi esa 1,0 foizdan 0,6 foizgacha tebranishi mumkin.
5.	Aktivlarning bir so‘miga to‘g‘ri kelgan	$K_{stf} = \frac{BF + TS}{A}$	TS- to‘langan va bank operatsiyalari

	(solih to'langungacha) foyda ( $K_{stf}$ )		xarajatlariga qo'shilgan soliq
		Bu ko'rsatkich O'zbekiston bank tizimi amaliyotida hisoblanadi.	
6.	Aktivlarning bir so'miga to'g'ri kelgan (solih to'langungacha) sof foyda ( $K_{stsf}$ )	$K_{stsf} = \frac{SF + TS}{A}$	Bu ko'rsatkich jahon standarti hisob tizimida keng qo'llaniladi.
		$K_{fa}$ va $K_{stf}$ hamda $K_{chfa}$ va $K_{stsf}$ lar o'rtasida tafovut qanchalik katta bo'lsa, shunchalik foydani boshqarish yomonlashadi.	
7.	O'z kapitalning bir so'miga to'g'ri kelgan foyda ( $K_{o'kf}$ )	$K_{o'kf} = \frac{BF}{O'K}$	$O'K$ – bankning o'z kapitalining o'rtacha qiymati
8.	Ustav fondining bir so'miga to'g'ri kelgan balansdagi foyda ( $K_{uff}$ )	$K_{uff} = \frac{BF}{UF}$	$UF$ – ustav fondining o'rtacha qiymati
9.	Ustav fondining bir so'miga to'g'ri kelgan chegirilgan foyda ( $K_{ufchf}$ )	$K_{ufchf} = \frac{BF - NBMD}{UF}$	
10.	Ustav fondining bir so'miga to'g'ri kelgan (solih to'langungacha) foyda ( $K_{stbf}$ )	$K_{stbf} = \frac{BF + TKS}{UF}$	TQS - bank mahsuloti tannarxiga qo'shiladigan soliq
		Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston bank tizimi amaliyotida qo'llaniladi	
11.	O'z kapitalning bir so'miga to'g'ri kelgan sof foyda ( $K_{o'ksf}$ )	$K_{o'ksf} = \frac{SF}{UK}$	
12.	Aksioner kapitalning bir so'miga to'g'ri kelgan chegirilgan foyda ( $K_{akf}$ )	$K_{akf} = \frac{SF}{AK}$	$\overline{AK}$ – aksioner kapitalning o'rtacha miqdori
13.	Aksioner kapitalning bir so'miga to'g'ri kelgan chegirilgan sof foyda ( $K_{akchf}$ )	$K_{akchf} = \frac{SF - NBMD}{AK}$	<input type="checkbox"/> $K_{o'nsf}$ ning normativ darajasi 10 foizdan 20 foizgacha bo'ladi
14.	Aksioner kapitalning bir so'miga to'g'ri kelgan (solih to'langungacha) foyda ( $K_{stsf}$ )	$K_{ctcf} = \frac{SF + TS}{AK}$	<input type="checkbox"/> $K_{stsf}$ ning normativ darajasi esa 15 foiz bo'ladi
		Bu ko'rsatkichlar jahon standarti hisob tizimida qo'llaniladi.	
15.	Bitta xodimga to'g'ri kelgan foyda ( $K_{bxf}$ )	$K_{bxf} = \frac{BF}{BX}$	$\overline{BX}$ – bank xodimlarining



			o'rtacha soni
		Bu ko'rsatkich O'zbekiston bank tizimi amaliyotida qo'llaniladi	
16.	Bitta xodimga to'g'ri kelgan sof foyda ( $K_{bxf}$ )	$K_{bxf} = \frac{SF}{BX}$	<input type="checkbox"/> Bu ko'rsatkich jahon standarti hisob tizimida qo'llaniladi

Bankning daromadlilik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimida aktivlarning bir so'miga to'g'ri kelgan foyda ko'rsatkichi eng asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo bu ko'rsatkich ham bank faoliyatining samaradorligini baholashda yetarli emas. Bu, birinchidan, yuqori foyda olish katta risk bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan bu ko'rsatkichning dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar turli tuman va noaniqdir. Shu sababli bank rentabelligini tahlil qilishda bir vaqtning o'zida uni riskdan himoya qilish darajasi to'g'risida ham o'ylash kerak

[94]. Quyidagilar foydaning mutlaq hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi:

bank daromadi bilan xarajatining o'sishi sur'atlari o'rtasidagi nisbat;

bankning ayrim aktiv operatsiyalaridan olingan o'rtacha daromad;

bank aktivi tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog'i (ishlayotgan aktivlar salmog'i);

bankning aktiv va passiv operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarining harakati;

daromad keltiruvchi aktivlar tarkibi;

kredit portfeli tarkibi;

riskli aktiv operatsiyalarining bank aktividagi salmog'i;

har bir aktiv operatsiyalarning daromadliliigi.

Bu omillarni tahlil qilishda foydalilik koeffitsiyentlari va ularning ko'paytmalaridan foydalanish mumkin. Masalan, buni quyidagi ikkita koeffitsiyent misolida ko'rib chiqamiz.

Foyda	Bankning yalpi daromadi	Foyda
-----	-----	-----
Bank aktivlari	Bank aktivlari	Bankning yalpi daromadi

**20-jadval.**

### **Koeffitsiyentlar dinamikasi**

Kvartallar	$\frac{\text{Foyda}}{\text{aktivlar}}$	$\frac{\text{Daromadlar}}{\text{aktivlar}}$	$\frac{\text{Foyda}}{\text{daromadlar}}$
I	0,43	2,4	18,0
II	1,24	2,0	61,8
III	0,58	1,8	32,3
IV	0,27	1,5	17,8

Uchala koeffitsiyentlar dinamikasidan ko‘rinib turibdiki, bir yil ichida foydalilikning umumiy koeffitsiyenti 2,4 foizdan 1,5 foizgacha tushgan. Bunga asosiy sabab quyidagi samaradorlik koeffitsiyenti ( $K_{sam}$ ) bilan tavsiflanadi:

$$K_{sam} = \frac{A_{dk}}{A}$$

Bu yerda:

$A_{dk}$  – daromad keltiruvchi aktivlarning o‘rtacha qoldig‘i;

$A$  – jami aktivlarning o‘rtacha qoldig‘i.

$\frac{\text{Sof foyda (soliq solingandan so‘ng)}}{\text{O‘z kapital}}$	=	$\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Aktivlar}}$	·	$\frac{\text{Aktivlar}}{\text{o‘z kapital}}$
---	---	--	---	--

O‘z navbatida, sof foydaning aktivlarga bo‘lgan nisbatini ikkita ko‘paytuvchiga ajratish mumkin.

$\frac{\text{Sof foyda}}{\text{O‘z kapital}}$	=	$\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Yalpi daromad}}$	·	$\frac{\text{Yalpi daromad}}{\text{Aktivlar}}$	·	$\frac{\text{Aktivlar}}{\text{O‘z kapital}}$	=
=		Marjadan daromad	·	Aktivlarning daromadliligi	·	Leveraj koeffitsiyenti (kapital multiplikatori)	

Sof foydaning o‘z kapitalga bo‘lgan nisbat asosida uchta ko‘paytuvchi koeffitsiyentga ajratib hisoblanishi jahon amaliyotida **Dyukon formulasi** nomi bilan mashhur. Bu koeffitsiyent tijorat banklari investorlari daromadlarining o‘shish yo‘nalishlarini, shuningdek, bankning barqaror rentabelligini ta‘minlash darajasini ko‘rsatadi.

Marja daromadi foiz stavkalari darajasi va vositachilik xizmatlaridan tushgan daromadlarga, bankning daromadi va xarajati o‘rtasidagi o‘shish nisbatlariga, resurs qiymati va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.

### 3.6. Tijorat bankining to‘lov qobiliyati va likvidligi

[95]. Tijorat bankining faoliyati va uning samaradorligi eng avvalo uning likvidligiga bog‘liq. Likvidligi bo‘lmagan bank to‘lovga layoqatli bo‘la olmaydi. Amalda aynan nolikvidlik banklarning to‘lovga layoqatsizligining asosiy sababi bo‘lib, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.

«Likvidlik» atamasi lotincha «*Liquidus*» so‘zidan olingan bo‘lib, suyuq, oquvchi ma’nosini beradi. U turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olish (qarzni to‘lash) imkoniyatini bildiradi.

Barqaror talabga ega bo‘lgan pul vositalari, bank depozitlari, qimmatli qog‘ozlar, moddiy aylanma vositalar va pulga tez aylantiriladigan aktivlar likvid vosita (mablag‘)lar deb yuritiladi.

«**To‘lovga layoqatlilik**» likvidlik tushunchasiga nisbatan kengroq bo‘lib, bank zarur muddatlarda omonatchilari, kreditorlari va davlat oldidagi majburiyatlarini to‘la summada bajara olish layoqatini bildiradi.

To‘lov qobiliyati bankning qisqa muddat ichida o‘z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

**Bank likvidligi** – o‘z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan holda pul mablag‘lariga tezda aylantirish yo‘li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish qobiliyatidir.

Agar bankning naqd pullari va likvid aktivlarining yig‘indisi uning qarzi va moliya majburiyatlarini qoplash uchun yetarli bo‘lsa, bank faoliyati likvid deb sanalishi mumkin. Tijorat banklarining likvidligini ta’minlash maqsadida likvidlik zaxiralari tashkil qilinadi. Bu zaxira:

- favqulodda kutilmagan ehtiyojlarni qondirish;
- kredit va investitsiya bo‘yicha manfaatli shartnomalarni tuzish;
- kreditga bo‘lgan talabning mavsumga qarab o‘zgarishini qondirish;
- qo‘yilmalarni kutilmagan tarzda olinishini va aholi jamg‘armalarining kutilmaganda olinishini ta’minlash va boshqalar uchun zarur bo‘ladi.

[96]. Tijorat banklarining real likvidlik darajasini hisoblashda amaliyotda turli xil mezonlardan foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni xalqaro andozalarga mos ravishda takomillashtirish, real baho berishni 1997-yil 22 avgustda tasdiqlangan 10-sonli «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidasi»ga asoslanib olib boradi.

Bu qoidaga binoan tijorat banklari faoliyatini baholashning quyidagi iqtisodiy me'yorlari tasdiqlangan va ular barcha banklar tomonidan bajarilishi shart deb belgilab berilgan:

- bank kapitalining yetarliligi;
- bank kapitalining uning majburiyatlariga bo'lgan nisbati;
- bankning likvidlik koeffitsiyenti;
- bitta qarz oluvchiga to'g'ri kelgan maksimal risk darajasi;
- bitta kreditorga (jamg'armachiga) to'g'ri kelgan maksimal risk darajasi;
- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda bankning o'z mablag'laridan foydalanish darajasi;
- insayderlar bilan ish olib borish me'yorlari.

**Bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti** bank kapitalining (BK) o'z aktivlari ( $\bar{A}$ ) bo'yicha riskni hisobga olgan holda o'rtacha tortilgan summasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_{BKK} = \frac{BK}{\bar{A}}$$

Bank kapitali «asosiy» va «qo'shimcha» kapitallardan tashkil topadi. Asosiy kapital bankning umumiy kapitalining 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Bank aktivlari o'zining risk darajasiga qarab 4 ta asosiy guruhga bo'linadi:

- riskdan xoli bo'lgan aktivlar;
- minimal riskli aktivlar;
- yuqori riskli aktivlar;
- maksimal riskga ega bo'lgan aktivlar.

So'nggi koeffitsiyentning minimal darajasi 0,08 ga, ya'ni 8 foizga teng bo'lmog'i lozim.

Bank kapitalining (BK) uning majburiyatlari (BM)ga bo'lgan nisbati bankning boshlang'ich likvidligini (BBL) bildiradi.

$$K_{BBL} = \frac{BK}{BM}$$

Bu ko'rsatkich bank majburiyatlarini o'z kapitali tomonidan ta'minlanganligini ifodalaydi.  $K_{bbl}$  qanchalik yuqori bo'lsa, boshlang'ich likvidlik ham shunchalik yuqori bo'ladi.

[97]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bankning likvidliligi uning o'z

majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish hamda mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida qondira olish qobiliyatini bildiradi. Banklar uchun quyidagi likvidlik ko'rsatkichlari o'rnatilgan (21-jadval).

**21-jadval.**

**Bankning likvidlik koeffitsiyentlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Hisoblash tartibi</b>	<b>Izoh</b>
1	2	3	4
1.	Lahzalik likvidlik koeffitsiyenti ( $K_{ll}$ )	$K_{ll} = \frac{PSHA}{JM}$	PShA – bankning pul shaklidagi aktivlari MJ – bankning talab qilgunga qadar bo'lgan joriy majburiyatlari
2.	Joriy likvidlik koeffitsiyenti ( $K_{jl}$ )	$K_{jl} = \frac{LA}{MM}$	LA – likvid aktivlar va bankning to'lash muddati 30 kungacha bo'lgan qo'yilmalari (muddati uzaytirilgan yoki o'tgan ssuda bo'yicha qarzlarni hisobga kirmaydi) MM – talab qilib olgunga qadar bo'lgan mablag'lar va to'lash muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar
3.	Qisqa muddatli likvidlik koeffitsiyenti ( $K_{qm}$ )	$K_{qm} = \frac{A}{D + BK}$	A – to'lash muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlari D – muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan jalb qilingan depozitlar va resurslar
4.	Bitta qarz oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk darajasi ( $K_{qord}$ )	$K_{kord} = \frac{YK}{BK}$	YK – bitta mijozga berilgan eng yirik kredit miqdori qo'shilgan depozitlar bilan ta'minlanganligini chegirgan holda shu mijozga bank tomonidan berilgan majburiyatlarning 75 foizi
5.	Barcha yirik kreditlar uchun maksimal risk darajasi ( $K_{ykrd}$ )	$K_{ykrd} = \frac{JYK}{BK}$	JYK – jami yirik kreditlar. Jami berilgan yirik kreditlar miqdori bank kapitalining 3 barobaridan ko'p bo'lmasligi kerak.
6.	Bir kreditor (jamg'armachi)ga to'g'ri kelgan maksimal risk ( $K_{kmr}$ )	$K_{kmr} = \frac{\sum M}{BK}$	$\sum M$ – bankning jamg'armalar, olingan kreditlar, depozit varaqlar bo'yicha bir mijozga to'g'ri keluvchi jami majburiyatlar $K_{kmr}$ ning darajasi 1,0 atrofida bo'lishi lozim.

**Lahzalik likvidlik koeffitsiyenti** bankning yuqori likvid (ya'ni,

kassadagi pul va korrespondentlik varaqasidagi) mablag‘larning joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va u bankning joriy to‘lovlari tezkorlik bilan amalga oshira olish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Bankning joriy majburiyatlariga:

□ talab qilib olgunga qadar bo‘lgan depozitlar bo‘yicha majburiyatlar;

□ boshqa banklardan olingan yaqin orada to‘lanishi lozim bo‘lgan kreditlar bo‘yicha majburiyatlar kiradi.

Bu me‘yor bank aktivlarining likvid qismi bankning eng nobarqaror resurslarini qanchalik darajada sug‘urtalay olish imkonini ko‘rsatadi. Shuning uchun banklar lahzalik likvidlikni har kuni tekshirib borishlari va uning minimal darajasi 0,25 dan kam bo‘lmasligini ta‘minlashlari lozim. Banklarning kreditlash jarayoni risk bilan bog‘liq. Shu sababli banklarning likvidligini ta‘minlashda ular beradigan kreditlar bo‘yicha risk darajasini nazorat qilib borish o‘ta zarur. Agar bank biror mijozga yirik summada kredit beradigan bo‘lsa, unga to‘g‘ri kelish mumkin bo‘lgan risk darajasini tekshirib turishi lozim. Shu maqsadda  $K_{qord}$  koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu me‘yor davlat kafolatlangan kreditlariga tegishli emas.

Likvidlik koeffitsiyentlarining me‘yoriy darajalarini quyidagi jadvalda keltiramiz (22-jadval).

## 22-jadval.

### Likvidlik koeffitsiyentlarining me‘yoriy darajalari

Koeffitsiyentlar	Me‘yor darajalari
$K_{ll}$	0,25
$K_{jl}$	0,30
$K_{qm}$	1,00
$K_{qord}$	0,25
$K_{ykrd}$	>3,00
$K_{kmr}$	1,00

[98]. MD davlatlari bank tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan qator normativlar o‘rnatilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarga quyidagi me‘yorlarga rioya qilishlarini shart qilib qo‘ygan (23-jadval).

## 23-jadval.

### Tijorat banklari tomonidan bajarilishi

## lozim bo'lgan normativlar

№	Normativlar	Hisoblash tartibi	Izoh
1	2	3	4
1.	Bank majburiyatlarini cheklovchi koeffitsiyent ( $K_1$ )	$K_1 = \frac{\sum M}{O'K}$	$\sum M$ – bankning jami majburiyati; $O'K$ – bankning o'z kapitali
2.	Aholi omonatlarini cheklovchi koeffitsiyent ( $K_2$ )	$K_2 = \frac{AO}{O'K}$	$AO$ – aholi omonatlari summasi
3.	Bitta zayomchiga to'g'ri kelgan maksimal risk hajmi ( $K_3$ )	$K_3 = \frac{SK}{O'K}$	$SQ$ – bitta zayomchiga to'g'ri kelgan ssuda qarzi
4.	Bank balansi joriy likvidlik koeffitsiyenti ( $K_4$ )	$K_4 = \frac{JA}{M_{30}}$	$LA$ – likvid aktivlar $M_{30}$ – 30 kungacha bo'lgan bank majburiyatlari
5.	Bank balansining o'rta muddatli likvidlik koeffitsiyenti ( $K_5$ )	$K_5 = \frac{A}{M}$	$A$ – bir yildan ortiq muddatdagi aktivlar $M$ – bir yildan ortiq muddatdagi majburiyatlar

**K1** bankning jami majburiyati bilan uning kapitali o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Bunday bog'lanishni kuzatish va unga rioya qilishning zaruriyati shundaki, bank o'z majburiyatlari hajmini o'z kapitaliga nisbatan haddan tashqari oshirmasliklari lozim. Aks holda u o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarni bajarolmaydi.

Bankning jami **majburiyati** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonalar, tashkilot, muassasa, shu jumladan, jamoa tashkilotlari hisob raqamlaridagi mablag'lar qoldig'i;
- yuridik shaxslarning omonatlari va depozitlari;
- aholi omonatlari;
- hisobdagi mablag'lar;
- boshqa banklardagi zayomlar;
- 50 foizli kafolat va kafillik.

Bankning **o'z kapitali (BQK)** quyidagicha hisoblanadi:

$$BQK = \sum \phi + TF + BQ + DQ + d$$

Bu yerda:

- $\sum \phi$  – bankning ustav, zaxira va boshqa fondlar yig'indisi;
- $TF$  – taqsimlanmagan foyda (foydadan chegirib tashlangan mablag'lardan tashqari);

BQ – bino va inshootlarni qayta baholash qiymati;

DQ – debitor qarzdorlar;

d – boshqa korxonalaridagi ulushi.

$K_1$  ning normativ darajasi tijorat banklari uchun 1/20; kooperativ banklar uchun esa 1/12 dan kam bo‘lmasligi kerak.

**K2** – aholi omonatlari bilan uning o‘z kapitali o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalaydi. Bunday bog‘lanishni aniqlash va unga rioya qilishning zaruriyati shundaki, har qanday bank o‘z mablag‘larining summasi doirasidagina aholi omonatlarini jalb qila olishi mumkin, xolos. Shu sababli  $K_2$  ning normativ darajasi 1 ga teng qilib o‘rnatilgan.

**K3** ning normativ darajasi 0,5 dan oshmasligi kerak.

**K4** ning normativ darajasi 0,3 dan past bo‘lmasligi lozim.

Shunga muvofiq har bir bank joriy to‘lovlarni amalga oshirishi uchun qisqa muddatli majburiyatlarning eng kamida 30 foizi miqdoridagi aktivi bo‘lishi lozim.

**K5** ning normativ darajasi 1 dan katta bo‘lmasligi kerak. Barcha normativlarni quyidagi jadvalda keltiramiz (24-jadval).

**24-jadval.**

### **Chegaralangan normativlar**

Normativlar	Me‘yor darajalari
$K_1$	0,5
$K_2$	1,0
$K_3$	0,5
$K_4$	0,3
$K_5$	1,0

Bank tomonidan berilgan barcha «yirik» kreditlar bank kapitali hajmining 8 martasidan oshmasligi kerak. Eng yirik beshta kreditning summasi (balansorti operatsiyalarni hisobga olganda) bankning o‘z mablag‘laridan uch marta ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Rossiya Federatsiyasi tijorat banklari uchun quyidagi me‘yorlarni ham belgilab bergan:

$$N_1 = \frac{K}{M}$$

Bu yerda:

$N_1$  – bankning boshlang‘ich likvidlik darajasi;

K – kapital;



M – majburiyatlar.

Bu me'yor bank majburiyatlarini o'z kapitali tomonidan qanchalik darajada ta'minlanganligini ko'rsatadi.  $N_1$  qanchali yuqori bo'lsa, bankning boshlang'ich likvidligi ham shuncha yuqori bo'ladi.

$$N_2 = \frac{K}{S}$$

Bu yerda:

$N_2$  – kredit bo'yicha qarzlarning hisob-kitob, joriy va depozit qo'yilmalarga nisbati;

K – kreditlar;

S – joriy va depozit qo'yilmalar.

Rossiya banklarida  $N_2$  me'yorning darajasini 0,7-1,5 oralig'ida ushlab turish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kredit bo'yicha ehti-yojlarni qondirishga qancha ko'p mablag'lar sarf etilsa,  $N_2$  ning qiymati shunchalik yuqori bo'ladi.  $N_2$  ning oshishi bank likvidligini tushishidan dalolat beradi. Buni tijorat banklari o'z kredit va investitsiya siyosatini olib borishda hisobga olishlari kerak.

$$N_3 = \frac{La}{S}$$

Bu yerda:

$N_3$  – likvid aktivlarning umumiy qo'yilmalarga nisbati;

La – likvid aktivlar, ya'ni to'lash muddati 30 kungacha bo'lgan bank kreditlari va shu muddatga kelib tushishi kerak bo'lgan boshqa tushumlar.

$N_3$  me'yoring darajasini 0,2-0,5 oralig'ida ushlab turish belgilab berilgan. Garchi  $N_3$  iqtisodiy mazmuni bo'yicha  $N_2$ ga o'xshashroq bo'lsa-da,  $N_3$  bank likvidligi to'g'risida aniqroq ma'lumot beradi. Sababi,  $N_2$  koeffitsiyenti likvidsiz hisoblanmish kreditlar orqali bank likvidligini ifodalaydi.

$$N_4 = \frac{La}{A}$$

Bu yerda:

$N_4$  – likvid aktivlarning bankning umumiy aktivlariga bo'lgan nisbati;

A – aktivlarning umumiy hajmi.

Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, bankning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

$$N_5 = \frac{Ka}{BM}$$

Bu yerda:

$N_5$  – likvid aktivlarning ( $La$ ) talab qilib olgunga qadar bo‘lgan qo‘yilmalar bo‘yicha bank majburiyatiga nisbati;

$BM$  – talab qilib olgunga qadar bo‘lgan qo‘yilmalar bo‘yicha bank majburiyati.

Bu me‘yor aktiv mablag‘larining likvid qismi qay darajada olinishi lozimligini, shuningdek, kutilayotgan majburiyatni qoplay olish darajasini ifodalaydi.

$$N_6 = \frac{A_{tl}}{DV + MK}$$

Bu yerda:

$A_{tl}$  – bankning bir yildan ortiq vaqt ichida to‘lashi lozim bo‘lgan aktivlari;

$DV$  – depozitlar bo‘yicha majburiyatlar;

$MK$  – bir yildan ortiq muddatli kreditlar.

Bu me‘yorning maksimal darajasi 1,0-1,5 atrofida saqlanishi maqsadga muvofiq deb yuritiladi.  $N_6$  bankning bir yildan uzoq majburiyatlarining ta‘minlanganligi bo‘yicha likvidlik darajasini ifodalaydi.

**[99].** Bank likvidligi quyidagi talablarni qondiradigan darajada bo‘lishi lozim:

- olinadigan depozitlarni;
- aktivlar bilan majburiyatlarni to‘lashda mavjud bo‘lgan farqni;
- pul oqimlaridagi tebranishlarni;
- rejalashtirilmagan boshqa xarajatlarni qoplay oladigan darajada bo‘lishi kerak.

Likvidlikni ta‘minlay olmagan banklar to‘lovga layoqatsiz bo‘lib qolishi natijasida bankrotlikka uchrashi muqarrar. Likvidlikni ta‘minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklardagi vakillik hisobvarag‘idagi qoldiqlar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) shaklida saqlash hisoblanadi.

Banklar likvidligining o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvid aktivlarning zarur miqdorini belgilab olishlari lozim. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

- omonatlarning ko‘payishi yoki kamayishiga ko‘ra mablag‘larga ega bo‘lish yoki ularni yo‘qotish;

□ omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralarning me'yoriy miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish;

□ ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishini ko'paytirish yoki kamaytirish. Ushbu omilning ta'siri shundan iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdorining oshishi, likvid aktivlar ulushini kamaytiradi, sababi investitsiyalar aksariyat hollarda uzoq muddatga jalb qilinadi.

Daromadlilik oshayotgan bir paytda, likvidlikning maqbul darajasini ta'minlash uchun bank jalb etilgan omonatlar muddatlari va ularga doir xarajatlarni tahlil qilib, kredit qo'yilmalari va investitsiyalar muddatlari hamda rejalashtiriladigan daromadlar bilan taqqoslashi lozim. Bunday taqqoslash joylashtirilgan va jalb etilgan mablag'larni muddatlari bo'yicha qiyoslash va shu asosda bank likvidligi holatini aniqlash, shuningdek, likvidlikning zarur darajada eng ko'p foydaga erishish uchun qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarning optimal nisbati nuqtayi nazardan kredit siyosatini olib borish imkoniyatini beradi.

[100]. Bank likvidligiga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi ichki va tashqi omillarga bo'lib tahlil qilish mumkin.

### **I. Ichki omillar:**

- bankning mustahkam kapital bazasi;
- bank aktivlarining sifati;
- depozitlar sifati;
- tashqi manbalarga unchalik bog'liq emaslik;
- aktiv va passivlarning muddatlar bo'yicha muvofiqligi;
- bankdagi menejment darajasi;
- bankning birinchi darajali imiji (nufuzi).

### **II. Tashqi omillar:**

- mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat;
- pul va qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi;
- banklararo bozorning barqaror va rivojlanganlik darajasi;
- Markaziy bankning moliyalashtirish imkoniyati;
- Markaziy bankning nazorat funksiyasi va uning samaradorligi.

**Bankning mustahkam kapital bazasi**, eng avvalo, uning o'z kapitalining mustahkamligini ta'riflaydi. O'z kapital qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik bankning likvidligi yuqori bo'ladi. Chunki aynan mustahkam kapital omonatchilar va depozitorlarning ishonchli himoyachisi bo'libgina qolmay, u moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi kuchli vosita ham-

dir.

**Bank aktivlarining sifati** quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- likvidlik;
- risklilik;
- daromadlilik;
- diversifikatsiyalanishi, ya'ni har tomonlama rivojlanish imkoniyati.

Bank aktivlarining yalpi riski qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik bank ko'p daromadga ega bo'ladi.

**Aktivlarning diversifikatsiyalanishi** quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi:

- resurs qo'yilmalarining yo'nalishlari bo'yicha aktivlar tarkibi;
- obyektlar va subyektlar bo'yicha kredit qo'yilmalarining tarkibi;
- valuta operatsiyalarini bajarishda ishlatiladigan valuta tarkibi;
- qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibi va boshqalar.

Aktivlar qancha diversifikatsiyalangan bo'lsa, bank likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

**Depozitlarning sifati** ularning barqarorligi bilan belgilanadi. Depozitlar qanchalik barqaror bo'lsa, bank likvidligi shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki depozitlar, ya'ni jamlangan resurslar bankni tark etmaydi. Depozitlarning barqaror qismining oshib borishi bankning likvid aktivlarga bo'lgan ehtiyojini pasaytiradi.

**Banklararo kreditlar** bank likvidligiga deyarli xuruj qilmaydi, aksincha, ular bankning qisqa muddatli likvidli mablag'larga bo'lgan yetishmovchiligini to'ldiradi.

Summalar va muddatlar bo'yicha **aktiv va passivlarning o'zaro muvofiqligiga** rioya qilmaslik asosan jalb qilingan mablag'lar hisobiga faoliyat ko'rsatuvchi banklarni nihoyatda tang ahvolga tushirishi mumkin. Natijada bank kreditorlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmaslik holatiga tushishi muqarrar. Shuning uchun ham, bank investitsiya qilinayotgan pul mablag'larining muddati va summasini omonatlar bilan kelishgan holda o'rnatishi lozim.

**Bankda menejmentning** holati ham uning likvidligini aniqlab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Boshqaruv samaradorligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- bank siyosatining mavjudligi va pishiqligi;
- bankning yuksak darajadagi joriy va strategik vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan tashkiliy maqbul tarkibi;

□ aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishning ishlab chiqilgan mavjud mexanizmi;

□ mas'ul qarorlarni qabul qilish imkoniyatlari va h.k.

**Imij**, ya'ni nufuzning yuqori bo'lishi mazkur bankka boshqa banklarga nisbatan o'z faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni oson va zudlik bilan bartaraf etishga, bo'sh mablag'larni jalb qilishga, depozitlar barqarorligini ta'minlashga imkon yaratadi.

[101]. Bank likvidligini boshqarish deganda likvidlik darajasini hamda bank faoliyatining barqarorligi va ishonchligini ta'minlash borasidagi siyosat tushuniladi. Bu siyosat likvidlikni boshqarish bo'yicha asosiy holatlarni qamrab oladi hamda bankning turli xil moliyaviy vositalarni qo'llashga nisbatan munosabatini, masalan, turli moliyaviy vositalardan foydalanishni aniq ifoda etadi.

Likvidlikni boshqarish siyosati bank boshqaruvi tomonidan ishlab chiqiladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Bunda likvidlikni boshqarish bo'yicha qarorlar bank Kengashida muntazam ravishda ko'rib boriladi. Har bir bankda resurslarni boshqarish qo'mitasi tuziladi hamda unga likvidlikni samarali boshqarishni ta'minlash maqsadida bank turli bo'linmalari faoliyatlarini muvofiqlashtirish majburiyati yuklatiladi. Qo'mita tarkibiga bankning asosiy tarkibiy bo'linmalari rahbarlari kiradi. Unga bank Boshqaruvi raisi rahbarlik qiladi.

Resurslarni boshqarish qo'mitasi haftasiga kamida bir marta biznes reja va bank faoliyatining iqtisodiy sharoitiga asoslanib resurslarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni ko'rib chiqish uchun yig'iladi. Qo'mita qarorlari bank bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tezkor va strategik tavsiyanomalar ko'rinishida bo'ladi.

Likvidlikni samarali boshqarish quyidagi omillar ta'sirida ta'minlanadi:

- bank va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan likvidlikni boshqarish siyosatining mavjudligi;
- bankning turli bo'linmalarining muvofiqlashtirilganligi;
- bank likvidlik holatining monitoringi vazifalari yuklangan bo'linmaning mavjudligi;
- ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bankning aktiv va passiv holatlarini tahlil qilish uchun axborot tizimining mavjudligi.

Bank likvidligini boshqarishni yo'lga qo'yishda quyidagi omillarni

tahlil qilgan holda qarorlar qabul qilishi kerak:

- joriy likvidlik holati;
- resurslarga boʻlgan talabning davriy oʻzgarib turishi;
- resurslarga boʻlgan talablarning moʻljallanayotgan oʻzgarishlari;
- resurslar manbalari. Rahbariyat banklararo bozorda aktivlarni sotish va xarid qilishni yoki boshqa manbalarni tanlashi lozim.

- resurslarning qiymati;
- **aktivlarning sifati**. Maʼlumki, aktivlarning sifati bank likvidligiga taʼsir qiladi. Muammoli kreditlar, yaʼni muddati oʻtgan, foyda keltirmayotgan kreditlar va pul mablagʻlari harakatining kamligi bank likvidligiga taʼsir koʻrsatadi;

- **resurslarning jamlanganligi**. Masalan, bankning davlat va yirik korxonalarining depozitlaridan haddan ortiq qaramligi bankning likvidlik tavakkalchiligining oshishiga sabab boʻladi. Chunki ushbu depozitlar har xil budjet toʻlovlari yoki ish haqini toʻlash uchun har qanday vaqtda qaytarib olinishi mumkin;

- **bank kapitali va foydaliligini hisobga olgan holda bankning umumiy moliyaviy holati**. Bankning moliyaviy holati yomon boʻlsa, talab qilinayotgan vositalarni yoʻl qoʻyib boʻlmaydigan yuqori narxlarda oshishi yoki banklararo bozorga kira olmasligi mumkin. Vositalardan foydalanish imkoni boʻlsa-da, qarz beruvchi DQO yoki depozit singari yuqori likvidli yoki oson sotiluvchan taʼminot berilishini talab qiladi. Bank esa bunga yoʻl qoʻya olmaydi.

- **balansdan tashqari majburiyatlar va shartnomalar**, jumladan, ishlatilmayotgan kredit liniyalari, akkreditivlar, qimmatli qogʻozlar va valutani sotib olish uchun tuzilgan kelishuvlar.

[102]. Mablagʻlarni joylashtirish haqidagi qarorlarga juda koʻp, baʼzan bir-biriga zid omillar taʼsir etadi. Masalan, agar rahbariyat naqd pul kabi yuqori likvidli yirik aktivlarga ega boʻlishni istasa, u joriy daromaddan voz kechadi. Banklararo bozorda ancha arzon resurslarni olish imkoniyati mavjud boʻla turib, likvidlikka boʻlgan talabni qondirish maqsadida yuqori likvidli DQO larni sotish ham daromadning pasayishiga sabab boʻlishi mumkin.

Banklar koʻp usullar bilan resurslarni koʻpaytirishi mumkin:

- doimiy ravishda depozitlarni jalb qilish;
- banklararo yoki Markaziy bank kreditlarini olish kabi usullar bilan.

Jalb qilingan mablagʻlar narxlarining raqobatlilik va majburiyat-

larni qaytarish muddati aktivlarni qaytarish muddatiga mos kelishi kerak.

Aktivlar va majburiyatlarni qaytarish muddatlarining mos kelmasligi likvidlik xatarining asosiy manbayi hisoblanadi.

**Likvidlikni samarali boshqarish deganda** banklar bu nomutanosibliklarni anglagan holda mavjud xatarni kamaytirish uchun yetarli choralarni ko‘rish yo‘li bilan likvidlik pozitsiyasini mustahkamlash tushuniladi.

Bankning likvidlik pozitsiyasi birinchi navbatda, uning resurslar bazasining barqarorligiga bog‘liq.

Turli vositalar orqali resurslarni jalb qilishning barqarorligini aniqlashda birinchi galda resurslarning manbalarini ko‘rib chiqish kerak. Turli passiv toifalar darajalarining barqarorligiga bog‘liq holda ba’zi umumlashtirishlarga yo‘l qo‘yilishi mumkinligiga qaramasdan (har qanday vaqtda ancha yuqori stavkalarga intilib, bankdan chiqib ketishi mumkin bo‘lgan yirik depozit sertifikatlariga nisbatan jamg‘arma hisobvaraqlari ancha ishonchlidir, joriy depozitlarga nisbatan uzoq muddatli depozitlar ancha barqarordir) resurs manbayi turi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, uzoq muddatli kredit olgan bank aksiyadorlari yoki qarz oluvchilariga tegishli bo‘lgan yirik depozitlar odatda raqiblarning biroz yuqori foiz stavkalari bo‘yicha takliflardan so‘ng bankdan chiqib ketish tendensiyasiga ega bo‘lmaydi.

Aktivlarni sotish bilan bir qatorda naqd pulning tezda ortishiga ehtiyoj sezgan bank kreditlar uchun banklararo bozorga murojaat qilishi mumkin. Bankning ushbu bozordan kredit olish imkoniyatlari bir nechta omillar bilan birgalikda bankning moliyaviy holatiga, kapitalning yetarliligiga, bozorning fikrini bilgan holda yuqori likvidli garovning mavjudligiga, bozorning likvidligiga va umumiy makroiqtisodiy ahvolga bog‘liqdir.

Banklararo kreditlar bozori resurslarning muhim va yirik manbayi hisoblanadi. Ushbu bozorda operatsiyalar quyidagi muammolarni hal etishi uchun xizmat qilishi mumkin:

- tijorat banklari vakillik hisobvaraqlaridagi zaxiralarning taqchil-ligini qoplash va uni talab darajasiga yetkazish;
- mo‘ljallanayotgan uzoq muddatli kreditlash ehtiyoji vujudga kelguncha yoki yirik depozitni qaytarish talabi bildirilguncha resurslarni samarali joylashtirish (shu jumladan kamida bir kunlik muddatga) uchun

sharoit yaratish;

□ Markaziy bankdan olingan uzoq muddatli kreditlarni qaytarish.

Banklararo bozor ishtirokchilari boshqa har qanday ishtirokchiga ortiqcha zaxirani qarzga berishi (olishi) mumkin. Banklararo bozordagi operatsiyalar qarz oluvchi yoki qarz beruvchi istak bildirganda boshqa banklarga resurslar sotish yoki sotib olish taklifi bilan murojaat qilib amalga oshirilishi mumkin.

Operatsiya tashabbuskori birinchi bo'lib bildirilgan taklifni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, u ancha ma'qul narx (foiz stavkasi) da muqobil taklif kiritishi mumkin. Operatsiya shartlari bo'yicha og'zaki yoki yozma ravishda kelishuvga erishilgach, qarz beruvchi bank shu zahoti o'z vakillik hisobvarag'idagi resurslarni qarz oluvchi bankning vakillik hisobvarag'iga o'tkazib berishi kerak.

Banklararo kreditlarning muddati bir kundan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Foiz stavkalari kontragent banklar o'rtasidagi bitim asosida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi yoki DQO lari bo'yicha stavkalarni asos qilib olgan holda belgilanadi. Ta'minotga ega bo'lmagan banklararo kredit bitimlarini tuzganda bir qarz oluvchiga beriladigan qarz me'yorlariga amal qilishadi. Faqatgina **overnayt** operatsiyalari bundan istisno, ular bo'yicha limit chegarasi bank kapitalining 25 foizi atrofida o'rnatiladi.

Banklararo kreditlarning ta'minoti sifatida DQO lari kabi yuqori likvidli va oson sotiluvchi qimmatli qog'ozlar qabul qilinishi mumkin. Ta'minot sifatida topshirilgan qimmatli qog'ozlar uchinchi shaxsning (tijorat banki yoki Markaziy bankda) hisobvarag'ida joylashtiriladi yoki Markaziy bank daftarlarida ularning garovga olinganligi belgilab qo'yiladi.

**Repo** operatsiyalarida qo'llaniluvchi qimmatli qog'ozlar oson sotiluvchi va likvid vositalar, ya'ni DQO lari ko'rinishida bo'lishi kerak. Agar banklar boshqa qimmatli qog'ozlarni afzal deb bilsa, u holda qarz beruvchi tomon ularning yuqori likvidlik talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishi va ularni o'zlarida saqlanishini ta'minlashi kerak. Bundan tashqari, tomonlar qimmatli qog'ozlarni uchinchi tomonda saqlash haqida kelishib olishi mumkin.

Repo operatsiyalari Markaziy bank talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Kelishuvda har bir tomonning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan bo'ladi. Kredit beruvchi tomon qimmatli qog'oz-



larning to'lov muddatiga qarab garov qiymatining kredit qiymatidan kamida 10 foizga yuqori bo'lishini ta'minlashi kerak. To'lov muddati qancha yaqin bo'lsa, marja shunchalik katta bo'lishi zarur. Ta'minot sifatida DQOlaridan foydalanilgan holda garov qiymatini, joriy diskont asosida aniqlash to'g'riroq bo'ladi. Kuponli qimmatli qog'ozlar qiymati ularning bozor narxi hamda hisoblangan foizlar miqdorida aniqlanadi.

Hozirgi vaqtda garov turi bo'yicha ma'lum cheklovlar o'rnatilmagan bo'lsada, banklar bozorda kotirovka qilinmaydigan qimmatli qog'ozlar va asosiy vositalar kabi garovning nolikvid shakllarini qo'llashda o'zlarining zimmalaridagi xatarni anglashlari lozim.

Davlat qimmatli qog'ozlaridan tashqari boshqa qimmatli qog'ozlar garovi asosida berilgan kredit «ta'minlangan» kredit hisoblanmaydi.

[103]. Barcha tijorat banklari joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvid aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar bundan istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Bank likvidligini tahlil qiluvchi davr (oylik, choraklik, yillik) mobaynida o'zgarishlar tendensiyasiga ahamiyat berishi va o'zgarishlar ahamiyatini hamda xarakterini o'tgan davrlarga nisbatan baholashi, resurslar jalb qilishning o'tgan va joriy strategiyalarini baholashi, shuningdek, imkoni bo'lsa, o'xshash banklar bilan taqqoslash lozim.

Likvidlik koeffitsiyentlari o'z-o'zidan likvidlikni yetarliligi bo'yicha aniq ma'lumot bermaydi, ularga umumiy bahoning bir qismi sifatida qarash kerak. Quyida likvidlik koeffitsiyentlari (K) bo'yicha misollar keltiramiz:

$$K = LA \div (JA + DBM)$$

Bu yerda:

LA – likvid aktivlar (zaxiraning ortiqcha qismi, erkin ayir-boshlanadigan valuta, DQO'lari, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari);

JA – jami aktivlar;

DBM – doimiy bo'lmagan majburiyatlar (yirik depozitlar, ma'lum

manbalardan olingan qarzlardir).

Ushbu ko'rsatkichlar quyidagicha xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi:  $K_1$ ,  $K_2$  va  $K_3$  ko'rsatkichlarining pasayishi bankning resurslar barqaror bo'lmagan manbalarga tayanganligi yoki bank portfelidagi yuqori likvid aktivlar ulushining kamayganligini anglatadi.

Kreditlarning depozitlarga nisbati ( $K/D$ ) – depozitlarning, ayniqsa, mayda omonatchilarga tegishli qismi odatda resurslarning barqaror manbayidir. Mazkur ko'rsatkichlarning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) va (yoki) o'sishi dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozordan olingan qisqa muddatli qarzlardir) manbalariga bo'lgan talabning pastligini bildiradi.

Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar (GQQ)ning jami qimmatli qog'ozlar (JQQ)ga bo'lgan nisbati ( $GQQ/JQQ$ ) garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u likvidlikka tezkor talablarni qoplash uchun qo'llanilmaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bank rahbariyati joriy likvidlikdan tashqari o'zining likvidlik ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqishi va undan foydalanishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar to'liq bo'lishi uchun har doim bankning moliyaviy holatini baholovchi boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda baholanishi lozim.

**[104].** Bank quyidagi hollarda likvid mablag'larga ehtiyoj sezadi:

mijozlar o'z hisobvaraqlarida pul mablag'larini olish istagini bildirganda;

mijozlarga kredit berishga qaror qilinganda;

bankning boshqa banklardan yoki markaziy bankdan olgan qarzi, soliq to'lovi va aksiyadorlarga dividend to'lash muddati kelganda;

mijozlar jamg'armalari hisobiga;

bank aktivlarining sotilishi hisobiga;

mijozlar olgan kreditlarini qaytarishi hisobiga;

nodepozit bank xizmatlari va pul bozoridagi pul mablag'larini jalb qilinishi hisobiga.

Likvid mablag'lar bo'yicha talab va taklif manbalarining bunday turlarini nazarda tutib, bankning har qanday sharoitdagi likvid ahvoliga baho berishi mumkin.

Banklar doimo likvidlikning muammolariga duch keladilar va bu muammolar quyidagi hollarda yuzaga keladi:

1. Banklar aholining zaxiralari va qisqa muddatli depozitlarini, boshqa banklar va kredit muassasalarining mablag'larini jalb qilib,

ularni uzoq muddatli kreditlarga yo'naltiradilar. Bu o'rinda bank aktivlarining qoplanish muddati bilan asosiy majburiyatlarining qaytarilish muddati o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, bu nomutanosiblik vaqt bo'yicha tafovutga oid bo'lib shu vaqt mobaynida majburiyatlarni qoplash uchun mablag' zarur bo'lganda, bank aktivlarini naqd pulga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin.

2. Bank likvidligining ikkinchi muhimi – bu banklarning foiz stavkasiga bo'lgan sezuvchanligidir. Foiz stavkasining o'sishi natijasida ko'pgina mijozlar ko'proq daromad olish maqsadida o'z mablag'larini qaytarib oladilar. Qarz past foiz bilan ochilgan kredit tizimidan tezroq foydalanib qarzni tezroq to'lashga shoshiladilar. Mijozlarning kreditlar va depozitlarga bo'lgan talabining oshishi likvidlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkasining oshishi esa bankning qo'shimcha likvid mablag'larni jalb qilish maqsadida sotishga bo'lgan aktivlarning va qarzlarning bozor narxiga bo'lgan ta'sirining kuchayishiga olib keladi.

Ushbu muammolarning mavjudligiga qaramasdan, bank likvid mablag'larga bo'lgan talabini qondirish uchun bor imkoniyatdan foydalanishi hamda yirik omonatchilar va kredit tizimlari egalari bilan mustahkam aloqa o'rnatishlari lozim. Chunki mijozlar talablarini o'z vaqtida qondira olmagan bank o'z obro'sini yo'qotadi.

[105]. Likvidlikni tartibga solishda bank rahbarlariga qo'yiladigan talablar quyidagilar:

- aktivlar hisobiga likvidlikni ta'minlash, ya'ni aktivlarni boshqarish orqali likvidlikni boshqarish;
- pul mablag'lariga bo'lgan talabni qondirishda eng avvalo qarzga olingan likvid mablag'lardan foydalanish, ya'ni passivlarni boshqarish;
- likvidlikni muvozanatli boshqarish, ya'ni aktivlar va passivlarni bir vaqtda boshqarish.

**Aktivlarni boshqarish orqali** bank likvidligini boshqarish, pul mablag'lari va tez sotiladigan qimmatli qog'ozlarni to'plash orqali bajarilishi mumkin. Likvid mablag'larga ehtiyoj yuzaga kelganda, naqd pulga bo'lgan talab qondirilguncha, zaxiradagi aktivlar sotiladi. Buni boshqacha tarzda aktivlar o'zgarishi, ya'ni pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlarni zarur vaqtda naqd pulga aylantirish deyiladi.

Likvid aktivlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- naqd pulga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lishi;

□ aktivlarning barqaror narxi, ya'ni bozorda sotilishi zarur bo'lgan aktivlarning bahosini pasaytirmasdan qabul qilib olish imkoniyatiga ega bo'lishi;

□ sotuvchi aktivlarni birlamchi investitsiya narxining eng past xatar bilan qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

**Passivlarni boshqarish orqali** bank likvidligini boshqarish deganda likvid mablag'larga bo'lgan talablarni to'liq va o'z vaqtida qondirish maqsadida tezda sotiladigan mablag'larni qarzga olish tushuniladi. Yirik hajmdagi aylanma depozit sertifikatlari qarzga olinuvchi likvid mablag'lar manbayi hisoblanadi. Likvid mablag'larni qarzga olish pul bozoridagi foiz stavkalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lganligi tufayli bank uchun xatarli bo'ladi. Qarzga olingan likvid mablag'lar yuqori riskka ega bo'lganligi tufayli banklar bir vaqtning o'zida aktivlar va passivlarni boshqarish orqali bank likvidligini boshqarishga harakat qiladilar. Bu usublarga ko'ra banklar talab qilinishi ko'zda tutilgan likvid mablag'larning bir qismini qimmatli qog'ozlar, depozitlar sifatida boshqa banklarda saqlaydi. Ba'zi bir talablar esa vakil banklarda kredit liniyalarini ochish yo'li bilan ta'minlanadi. Favqulodda talab qilingan (to'satdan vujudga kelgan) likvid mablag'lar esa qisqa muddatli qarzlarning hisobiga qoplanadi.

Bank likvidligini boshqarish jarayonida bank boshqaruvchilari quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

□ mablag'larni jalb qiluvchi va ulardan foydalanuvchi barcha bank bo'limlarini qattiq nazorat qilishlari;

□ bankning eng yirik kreditorlari va omonatchilari qaysi vaqtda va qancha miqdorda kreditlar olishi va omonatlar qo'yishini (iloji bo'lsa) oldindan bilishga harakat qilishlari;

□ bank likvidligini va likvid mablag'larni boshqarish bankning ustuvor vazifasi ekanligini doimo esda saqlashlari;

□ likvid mablag'lar taqchilligi yoki ortiqchaligining oldini olish maqsadida bankning likvid mablag'larga ehtiyojlarini va bu mablag'larning joylashtirilishini doimo tahlil qilib borishlari lozim.

[106]. Jahon amaliyotida likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarga baho berishning quyidagi usullari mavjud:

□ mablag'lar manbayi va undan foydalanish usuli;

□ mablag'lar tuzilmasini tahlil qilish usuli;

□ likvidlik ko'rsatkichini hisoblash usuli.

Mablag'lar manbayi va undan foydalanish usuli ikki holatga asos-

langan:

□ depozitlar hajmi oʻsib, qarzlarni hajmi kamayganda, bankning likvid mablagʻlari oshadi;

□ depozitlar hajmi kamayib, qarzlarni hajmi oshsa, bankning likvid mablagʻlari kamayadi.

Agar likvid mablagʻlar manbai hajmi bilan ulardan foydalanish hajmi tenglashmasa, bank likvidligida buzilish holati yuzaga keladi. Bunda jalb qilingan va ishlatilgan mablagʻlar hajmi orasida farq hosil boʻladi. Bankning likvid mablagʻlari manbai hajmi saqlangan mablagʻlar hajmidan koʻp boʻlsa, bank likvidligida bank foydasiga buzilish sodir boʻlib, bunday holni **ijobiy buzilish** deyiladi va bank bu farqdan daromad keltiruvchi aktiv sifatida foydalanishi lozim. Aksincha, agar likvid mablagʻlar manbai hajmi sarf qilingan mablagʻlar hajmidan kam boʻlsa, bank likvidligida bank uchun **salbiy buzilish** yuzaga keladi va bankning likvid mablagʻlarga ehtiyoji ortadi. Bunday holda bank ancha arzon va muddati yuzasidan qulay manbalardan foydalanishi lozim.

Mablagʻlar manbai va undan foydalanish usulida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

□ rejalashtirilgan davrdagi likvidlikka baho berish uchun mazkur davrdagi kredit va depozitlar hajmini oldindan belgilash;

□ shu davr mobaynida kreditlar va depozitlar hajmining oʻsishi darajasini hisoblash.

Boshqaruvchi shu davr ichida bankning netto-likvid holatini baholashi lozim.

Likvid mablagʻlarga boʻlgan ehtiyojlarga **mablagʻlar tuzilmasi usuli** orqali baho berishning **birinchi bosqichida** bankning depozitlari va boshqa mablagʻlar manbai bir necha turkumlarga boʻlinadi. Bu turkumlarga asoslanib, manbalar bahosining pul bozorida pasayib ketishi va buning natijasida bank yoʻqotishlarga uchrashiga baho berish mumkin boʻladi:

Bu turkumlarga quyidagilar kiradi:

□ **«Qaynoq pullar»** («Goryachiye dengi») boʻyicha majburiyatlar – foiz stavkasining oʻzgarishiga sezuvchanligi yuqori boʻlgan jamgʻarmalar va boshqa pul mablagʻlari;

□ **ishonchsiz mablagʻlar** – joriy davrning istalgan vaqtida bankdan talab qilinishi mumkin boʻlgan mijozlar jamgʻarmalarining asosiy qismi (25-30%);

□ **barqaror mablagʻlar** (asosiy mablagʻlar yoki asosiy majbu-

riyatlar).

Likvidlikni boshqaruvchi rahbar ikkinchi bosqichda yuqorida keltirilgan depozitlardan foydalanish qoidalariga rioya qilgan holda likvid mablagʻlarni joylashtirishi lozim. Masalan, «qaynoq pullar» boʻyicha likvid mablagʻlarning 95 foizi miqdorida zaxira ushlashga qaror qilishi mumkin. Bu zaxira vakil banklardagi tez sotiladigan likvid depozitlardan hamda Markaziy bank investitsiyalaridan tashkil topgan boʻlishi mumkin. Bank amaliyotida ishonchsiz jamgʻarmalardan va nodepozit majburiyatlardan foydalanishning asosiy qoidasi likvid zaxirada bu jamgʻarmalar va majburiyatlar umumiy hajmining 30 foiz miqdorida saqlanishni koʻzda tutadi. Shunday qilib, bankning depozitlari va nodepozit mablagʻlari boʻyicha likvid mablagʻlar zaxirasi quyidagicha boʻlishi mumkin:


$$0,95 \left( \begin{array}{l} \text{Qaynoq pul va nodepozit} \\ \text{likvid mablagʻlar zaxira} \\ \text{majburiyatlari} \end{array} \right) + 0,30 \left( \begin{array}{l} \text{Majburiy} \\ \text{zaxiralar} \end{array} \right) + \\ + 0,15 \left( \begin{array}{l} \text{Barqaror jamgʻarmalar va} \\ \text{nodepozit mablagʻlar} \end{array} \right)$$

Bank doimo bank qonunchiligi asosida bankdan kredit olish qobiliyatiga ega boʻlgan mijozlarga kredit berishga tayyor turishi, buning uchun esa u doimo kerakli miqdordagi likvid zaxiralarga ega boʻlishi lozim. Chunki berilgan kredit mijoz tomonidan odatda bir necha kun yoki bir necha soat ichida sarf qilinib, boshqa banklarga oʻtadi.

Mutaxassislarning fikricha, bank likvid mablagʻlarga ehtiyoj sezgan taqdirda ham mijozlarga barcha yaxshi kreditlar berishga harakat qilishlari lozim. Bunda ular pul mablagʻlariga boʻlgan har qanday talabni qondirish uchun zarur hollarda ularning boshqa banklardan qarzga olish imkoniyatiga tayanishlari mumkin. Shu orqali bank va mijoz oʻrtasida yaxshi munosabatlar oʻrnatilishi va kelajakda samarali hamkorlik qilinishiga erishish mumkin.

Bank mijozga kredit berish orqali unga boshqa bank xizmatlarini koʻrsatishi, turli sohada munosabatlar oʻrnatishi va buning natijasida qoʻshimcha daromadlar olishi mumkin. Kreditlar va depozitlarni taʼminlash maqsadida likvid mablagʻlarga boʻlgan talabni jamlash

natijasida bankning likvid mablag'larga bo'lgan umumiy talabi hajmini quyidagicha aniqlash mumkin:



Jahon amaliyotida ko'pgina banklar likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni o'rtacha miqdorlarga asoslanib hisoblaydilar. Bunday hisoblash ba'zi bir muhim moliyaviy ko'rsatkichlar yoki likvidlik indikatorlaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Jumladan:

$$1) \quad \boxed{\text{Pul holati} = \frac{\text{Jamg'arma muassasalari jamg'armalari va pul mablag'lari}}{\text{Umumiy aktivlar}}}$$

Pul mablag'lari hajmining kattaligi bank holatining ishonchliligini va mablag'larga bo'lgan talabni so'zsiz qondirilishini bildiradi.

$$2) \quad \boxed{\text{Likvid qimmatli qog'ozlar holati} = \frac{\text{Davlat qimmatli qog'ozlari}}{\text{Umumiy aktivlar}}}$$

Bankda tezda sotish imkoniyatiga ega bo'lgan qimmatli qo-

g'ozlarning mavjudligi bank likvidligining ta'minlanganligini bildiradi.

$$3) \quad \begin{array}{l} \text{Garovga qo'yilgan} \\ \text{qimmatli qog'ozlarning} \\ \text{solishtirma og'irligi} \end{array} = \begin{array}{l} \text{Garovga qo'yilgan} \\ \text{qimmatli qog'ozlar} \end{array} : \begin{array}{l} \text{Qimmatli} \\ \text{qog'ozlar} \\ \text{portfeli} \end{array}$$

Bu ko'rsatkich likvidlikning salbiy ko'rsatkichi bo'lib, davlat jamg'armalari bo'yicha qo'yilgan qimmatli qog'ozlar qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik bank likvidligi past bo'ladi.

$$4) \quad \begin{array}{l} \text{«Qaynoq pullarning»} \\ \text{solishtirma og'irligi} \end{array} = \begin{array}{l} \text{Pul aktivlari} \\ \text{Pul majburiyatlari} \end{array}$$

Pul aktivlari o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

- naqd pullar;
- davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari;
- zaxiradagi qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan bitimlar (qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun bank qarz berganda);
- yevrovalutadagi depozitlar;
- davlat qarzlari;
- sotiladigan qimmatli qog'ozlarni jalb qilish (sotiladigan qimmatli qog'ozlarni bank vaqtincha qarzga olganda).

$$5) \quad \begin{array}{l} \text{Qisqa muddatli} \\ \text{investitsiyalarning foiz} \\ \text{stavkalari tebranishi} \\ \text{natijasida o'zgaradigan} \\ \text{majburiyatlarga nisbati} \end{array} = \begin{array}{l} \text{Qisqa muddatli} \\ \text{investitsiyalar} \end{array} : \begin{array}{l} \text{Foiz stavkalarining} \\ \text{tebranishi natijasida} \\ \text{o'zgaradigan} \\ \text{majburiyatlar} \end{array}$$

Qisqa muddatli investitsiyalar boshqa banklarga qo'yiladigan qisqa muddatli qo'yilmalarni, sotiladigan davlat zaxiralarini hamda bankning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarini o'z ichiga oladi.

$$6) \quad \begin{array}{l} \text{Broker depozitlari holati} \\ \text{Broker depozitlari} \end{array} = \begin{array}{l} \text{Broker} \\ \text{depozitlari} \end{array} : \begin{array}{l} \text{Barcha} \\ \text{depozitlar hajmi} \end{array}$$

Broker depozitlari foiz stavkalarining o'zgarishini nisbatan juda sezuvchan va tez aylanuvchan bo'ladi. Bunday depozitlar hajmining va narxining oshishi natijasida bank likvidligi uchun juda noqulay sharoit yuzaga kelishi mumkin.



$$7) \quad \boxed{\begin{array}{l} \text{Jamg'armalarning} \\ \text{tuzilmalari nisbati} \end{array}} = \begin{array}{l} \text{Talab qilib olguncha} \\ \text{depozitlar} \end{array} : \begin{array}{l} \text{Muddatli} \\ \text{depozitlar} \end{array}$$

Jamg'armalarning ushbu nisbati bank ega bo'lgan moliyaviy mablag'larining qanchalik barqaror ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni ular o'rtasidagi nisbatning kamayishi qo'yilmalarning barqarorligini va u orqali bankning likvid mablag'larga bo'lgan talabining pasayganligini bildiradi.

Qayd qilingan barcha ko'rsatkichlar talab va takliflarning mavsumiy tebranishlariga nisbatan juda sezuvchan bo'lib, kreditlarga bo'lgan talablar ortganda ular pasayadi va bu talablar hajmi kamayganda bu ko'rsatkichlar qiymati ortadi.

[107]. Zaxiralar taqchilligini qoplash uchun kerak bo'lgan mablag'larni tanlashda bank o'zlarining likvid mablag'larga bo'lgan talablarini yaxshilab o'rganishlari lozim.

Bu talablar quyidagilardan iborat:

**Bank talablarining muddati.** Agar likvid mablag'lar taqchilligini 24 soatda qoplash lozim bo'lsa, bank rahbari 1 sutka muddatga qarz berishni so'rab Markaziy bankka murojaat qiladi. O'zining zaxiralarga bo'lgan muddatsiz talabini esa bank depozitlar yoki aktivlarini sotish bilan qondiradi.

**Bank talablarining davomiyligi.** Agar likvid mablag'larga bo'lgan talabning bir necha soat saqlanish ehtimoli bo'lsa, MB ning kreditga beriladigan mablag'lari eng qulay hisoblanadi. Likvid mablag'larga bo'lgan talab bir necha kun yoki hafta davomida saqlansa, bu talab aktivlar yoki uzoq muddatli qarzlarni sotish bilan qoplanishi mumkin.

**Bankning likvid mablag'lar bozoriga kira olishi.** Hamma banklar ham likvid mablag'lar bozoriga kirish huquqiga ega bo'lavermaydi. Masalan, Yevropa davlatlarida mayda banklar odatda yevro-valuta bozorigidan qarz olish imkoniyatiga ega bo'la olmaydilar. Bunday hollarda likvidlikni boshqarishda boshqaruvchi tezda foydalanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar bilangina chegaralanib qolishga majbur bo'ladi.

**Mablag'lar manbayining bahosi va riski.** Har bir zaxira manbayining bahosi turlicha bo'lgani kabi, ortiqcha likvid mablag'larining hosil bo'lishi ham noaniqdir. Bunday sharoitda boshqaruvchi albatta eng arzon manbadan foydalanishga harakat qiladi.

**Ko'zda tutilgan foiz stavkalari va foiz daromadining «egri» turi.** Likvidlikni boshqarish maqsadida boshqaruvchi eng past foiz stavkasiga

ega bo‘lgan likvid mablag‘lar manbayidan foydalanishga harakat qiladi. O‘sib boruvchi «egri» foiz daromadida bunday manbalarga arzon, qisqa muddatli qarzlarni kiradi.

**Markaziy bankning pul-kredit siyosati va uning kelajagi.** Moliya bozorida kreditlar va ularning foiz stavkalari qanday o‘zgarishini aniqlash uchun Markaziy bankning pul-kredit siyosatini puxta o‘rganishi lozim. Chunki Markaziy bank kreditiga yuqori foiz stavkasi o‘rnatilsa, bank bunday kreditlarni olish imkoniyatiga ega bo‘la olmaydi.

**Sug‘urtalash imkoniyati.** Likvid mablag‘larni qarzga oluvchi banklar foiz stavkalari hajmini aniqlashlari lozim, chunki bu orqali ular olgan qarzlarni bahosi kelgusida qancha bo‘lishini biladilar. Katta tajribaga ega rahbarlar noaniqlikni kamaytirish uchun xej texnikasidan (ya’ni sug‘urtalashdan) foydalanadilar.

**Likvid mablag‘lar manbayini tartibga solish.** Bank rahbari likvid mablag‘lar manbayidan nima uchun va qanday maqsadlarda foydalanishni oldindan aniqlab oladi va tartibga soladi. Zaxiralar manbayini to‘g‘ri tanlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish uchun bank boshqaruvchisi yuqorida keltirilgan likvid mablag‘larga bo‘lgan talablarni yaxshilab, birma-bir o‘rganishi, ma’qul bo‘lganini tanlashi lozim.

### 3.7. Bank hisoboti

[108]. **Bankning moliyaviy hisoboti** – bu bank taklif etgan xizmatlar va boshqa turdagi faoliyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmuyidir. Bu hisobot qonunni, huquqni himoya va nazorat qiluvchi organlar, aksionerlar, bank boshqaruvchilari, investorlar, mijozlar uchun juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan banklarga moliyaviy hisobotlarni matbuotda chop ettirish uchun quyidagi shakllarni belgilagan:

□ Bankning yig‘ma yillik yakuniy balansi (balans hisoboti) (25-jadval).

□ Joriy yilning yig‘ma yakuniy daromadlar va xarajatlar hisoboti (26-jadval).

Ushbu daromadlar va xarajatlar hisoboti auditor firma tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 41-42-moddalarida banklarda hisob yuritish va

hisobot xususida quyidagilar yozilgan: «Banklarda buxgalteriya hisobi yuritish va hisobot qoidalari Markaziy bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq belgilanadi.

Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot qoidalari buzilganligi uchun bank rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar».

Yuqoridagi har ikkala moliyaviy hisobot Markaziy bank belgilayigan shakl va muddatlarda, unda ko‘rsatilgan ma‘lumotning to‘g‘riligini auditorlar tasdiqlagach, matbuotda e‘lon qiladilar.

Balans hisoboti aktivlar, passivlar (ya‘ni majburiyatlar, aksionerlar sarmoyasi va ko‘zda tutilmagan vaziyatlar moddalarini o‘z ichiga olsa, daromadlar va xarajatlar hisoboti esa, bankning ma‘lum vaqt ichida qilgan daromadi va xarajati haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi).

Bulardan tashqari, bank faoliyatining moliyaviy ahvoli bilan qiziquvchilar uchun yana ikki hisobot juda muhimdir. Bular:

- mablag‘lar manbayi, ulardan foydalanish haqidagi hisobot;
- aksiyadorlar sarmoyasi haqidagi hisobot.

Mablag‘lar manbayi va ulardan foydalanish haqidagi hisobot quyidagi ikkita savolga javob beradi:

□ ma‘lum bir vaqt ichida foydalanilgan mablag‘lar qayerdan olingan?

- mablag‘lardan qanday foydalanildi?

Aksionerlar sarmoyasi haqidagi hisobot ma‘lum vaqt ichida sarmoyaning harakati va uning natijasida sarmoyada yuz bergan o‘zgarishlar haqidagi ma‘lumotni beradi.

Moliyaviy hisobotlar quyidagi ko‘rsatkichlarga nisbatan moliyaviy xatarni e‘tiborga olgan holda tuziladi: 1) kapitalning yetarliligi; 2) aktivlar sifati; 3) likvidlik; 4) foiz stavkasi xatari; 5) xorijiy valuta savdosining sezuvchanligi; 6) balansdan tashqari mablag‘lar; 7) operatsiyalar xatari; 8) ichki nazorat va qonun organlari orqali hal qilinadigan janjalli moliyaviy ishlar.

Shuningdek, moliyaviy hisobotlarda sof foiz daromadlar, kreditlar tufayli ko‘riladigan zararlarni qoplash zaxirasi, foiz daromadlari bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlar, to‘lanadigan foiz bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar, ko‘zda tutilmagan xarajatlar, to‘lanadigan soliqlarni tahlil qilish orqali bank daromadlarining sifati va barqarorligiga baho beriladi.

□ Moliyaviy hisobotlarning har tomonlama to‘liq va foydali bo‘lishiga erishish uchun joriy faoliyat natijalari bilan rejalashtirilgan natija-

larni, joriy natijalar bilan oʻtgan davrdagi natijalarni, bank faoliyati natijalari bilan boshqa banklar faoliyati natijalarini qiyoslash maqsadga muvofiq.

**[109]. Bank balansi** bu – bankning oʻz va jalb qilingan mablagʻlarining holati hamda ularning kredit va boshqa aktiv operatsiyalarda joylashuvini aks ettiruvchi buxgalteriya balansidir. Balans maʼlumotlari yordamida pul mablagʻlarini moliyalashtirish va joylashtirish, kredit, hisob-kitob, kassa, shuningdek, qimmatbaho qogʻozlar bilan bogʻliq operatsiyalarni oʻz ichiga oluvchi boshqa bank operatsiyalarining holati ustidan nazorat qilish amalga oshiriladi.

Balanslar tijorat banklari hisobotining asosiy qismi boʻlib, bank barqarorligini nazorat qilish, bank faoliyati boshqaruvini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Banklarning balanslari yiriklashtirilgan shaklda tuziladi. Operatsiyalarning aniqlik darajasi raqobat sharoitida faoliyat koʻrsatuvchi tijorat banklari amaliyotiga xos boʻlgan tijorat siri bilan chegaralangan.

Odatda, balansda shubhali va zarar keltiruvchi operatsiyalar, shuningdek, ushbu operatsiyalarni qoplash uchun ishlatiladigan sugʻurta rezervlari alohida koʻrsatilmaydi. Bir vaqtning oʻzida banklarning raqobatdoshligi va ishonchliligini saqlash maqsadida balansning ishonchliligi hamda koʻrgazmaliligini taʼminlash zarur.

Bank balanslari tijorat axboroti vositalariga taalluqli boʻlib, uning quyidagi asosiy operativlik, aniqlik, yuksaklik talablariga javob beradi.

Bank balansining har kuni tuzilishi uning operativligini bildiradi. Bank balansi pul mablagʻlarining mavjudligi va mijozlarining toʻlov qobiliyati, kredit resurslari va ularning joylashuvi, bankning ishonchliligi va bardoshliligi toʻgʻrisidagi aniq maʼlumotlar manbayidir. Banklardagi hisob ishonchlilik talablariga javob beradi.

## Balans hisoboti

\_\_\_\_\_yil 1 yanvar holatiga \_\_\_\_\_ bank  
 Bankning ro'yxat raqami \_\_\_\_\_  
 Manzili \_\_\_\_\_

<b>№</b>	<b>Aktivlar</b>	<b>Ming so'mda</b>
1.	Naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari	
2.	O'zR MBdagi pul mablag'lari	
3.	Boshqa banklardagi mablag'lar	
4.	Qimmatbaho qog'ozlar	
5.	Banklarga berilgan kreditlar sof qoldig'i	
6.	Mijozlarga berilgan kreditlar sof qoldig'i	
7.	Investitsiyalar	
8.	Asosiy vositalar	
9.	Boshqa aktivlar	
10.	Jami aktivlar	
	<b>Passivlar</b>	
	Majburiyatlar	
1.	Talab qilib olguncha depozitlar	
2.	Jamg'arma depozitlari	
3.	Muddatli depozitlar	
4.	Banklarning depozitlari	
5.	Boshqa banklardan olingan kreditlar	
6.	Boshqa kreditlar	
7.	Boshqa majburiyatlar	
8.	Jami majburiyatlar	
	<b>Aksionerlik kapitali</b>	
9.	Ustav kapitali	
10.	Qo'shilgan (ortiqcha) kapital	
11.	Rezerv kapital	
12.	Taqsimlanmagan foyda	
13.	Jami aksionerlik kapitali	
14.	Jami passivlar	
	<b>Ko'zda tutilmagan vaziyatlar moddalari</b>	
1.	Kafolatlar (bank tomonidan berilgan)	
2.	Ko'zda tutilmagan boshqa vaziyatlar hisob raqami	
3.	Ko'zda tutilmagan jami vaziyatlar moddalari	

Ushbu balans ma'lumotlari auditorlar tomonidan tasdiqlangan.

Firma nomi

Litsenziya raqami

## Daromadlar va xarajatlar hisoboti

\_\_\_\_\_ yil uchun \_\_\_\_\_ bank  
 Bankning ro'yxat raqami \_\_\_\_\_  
 Manzili \_\_\_\_\_

№	Ko'rsatkichlar	Foyda	Zarar
	<b>Foizlardan olingan daromadlar</b>		
1.	Bank va boshqa kredit tashkilotlari depozitlaridan		
2.	Ssudalardan		
3.	Lizing operatsiyalaridan		
4.	Qarzga berilgan qimmatli qog'ozlardan		
5.	Boshqa manbalardan		
6.	<b>A. Foizlardan olingan daromadlar</b>		
	<b>Foizlarga to'langan xarajatlar</b>		
7.	Bank va boshqa kredit tashkilotlariga foiz to'lovlar		
8.	Mijozlar depozitlariga foiz to'lovlari		
9.	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar uchun foiz to'lovlari		
10.	<b>V. Foizlarga to'langan xarajatlar – jami</b>		
11.	<b>S. Foizlardan olingan daromadlar (S=A+V)</b>		
	<b>Foizsiz joriy daromadlar</b>		
12.	Chet el valutasini operatsiyalaridan sof foyda		
13.	Boshqa savdodan tushgan daromad		
14.	Trast operatsiyasi va agentlikdan tushgan daromad		
15.	Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan qo'yilma evaziga olingan daromad (zarar)		
16.	Boshqa joriy daromadlar		
17.	<b>D. Foizsiz joriy daromad - jami</b>		
18.	<b>E. Joriy daromad (E = S + D)</b>		
	<b>Boshqa foizsiz joriy xarajatlar</b>		
19.	Ish haqi		
20.	Moddiy yordam		
21.	Ekspluatatsion xarajatlar		
22.	Boshqa joriy xarajatlar		
23.	<b>Foizsiz xarajatlar – jami</b>		
24.	Ssudalar va bo'naklar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi		
25.	Ssudalar va bo'naklar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasiga mablag' ajratilgandan keyingi sof daromad		
26.	Soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda		
27.	To'langan soliqlar		

28.	Kutilmagan daromad (zarar)dan sof foyda		
29.	Sof foyda (zarar)		
30.	Bitta aksiyaga to'g'ri kelgan sof foyda		
31.	Bitta aksiyaga e'lon qilingan dividend		

Bank boshqaruvi raisi \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter \_\_\_\_\_

Bank balansining tuzilishida iqtisodiy operatsiyalar: mazmunining bir xilligi, resurslar muvozanati jihatidan kamayib boruvchi moddalar aktiv bo'yicha, talab qilish darajasining kamayishi passiv bo'yicha guruhlashtiriladi. Balansning bunday tuzilishi schyotlarning bir tomonlama guruhlashtirish tamoyilini aniqlab beradi. Uning bir bo'limining o'zida aktiv, passiv va aktiv-passiv schyotlar bo'lishi mumkin. Birgina bo'lim, «bank fondlari» schyotlari balansning faqat passivida, ikkinchi bo'lim «pul mablag'lari» schyotlari aktivda aks ettiriladi, boshqa yigirma ikki bo'limning schyotlari balansning aktivida ham, passivida ham aks ettiriladi.

Shunday qilib, bank balansi tijorat banklari resurslari, ularning shakllanishi, foydalanilishi haqidagi ma'lumotlarning pul ko'rinishida ifoda etilishidir. Bu balans bankning aktivlari, passivlari (majburiyatlari) va muassislar sarmoyasidan tashkil topadi.

1. Bank aktivlari balansning bir qismi bo'lib, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- xazinadagi naqd pul mablag'lari va hujjatlar;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankdagi pul mablag'lari;
- boshqa banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar;
- qimmatli qog'ozlar – davlat qimmatli qog'ozlari va xususiy qimmatli qog'ozlar, ya'ni korxonalarining qimmatli qog'ozlari;
- bank ssudalari, ya'ni banklararo kredit mablag'lari;
- mijozlarga beriladigan kreditlar;
- investitsiyalar;
- asosiy mablag'lar – ko'chmas mulk;
- boshqa aktivlar.

2. Bank passivlari, ya'ni bank majburiyatlarini aks ettiradi hamda ularning qaysi guruhga taalluqli ekanligini ifodalaydi.

Bank passivlariga quyidagilar kiradi:

- talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar;

- jamg'arma depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- banklarning depozitlari;
- banklararo ssudalar;
- boshqa ssudalar;
- boshqa passivlar.

Umuman tijorat banking taxminiy balansi quyidagi ko'rinishga ega (27-jadval).

Tijorat banklarining passivlari asosan joriy omonatlar va jamg'arma hisobvaraqlaridan tashkil topadi. Aktivlar odatda turli xil moliya aktivlari o'rtasida (qimmatli qog'ozlarning turli ko'rinishlari o'rtasida) baravar taqsimlanadi.

**27-jadval.**

### **Tijorat banking taxminiy balansi**

<b>Aktivlar</b>	<b>Passivlar</b>
1. Pul mablag'lari a) kassada b) vakillik hisobvarag'ida c) majburiy zaxira fondi	1. Bank fondlari va foydalanilmagan foyda a) ustav fondi b) zaxira fondi c) boshqa fondlar d) foydalanilmagan foyda
2. Valuta va qimmatli qog'ozlar a) ivaluta b) veksellar c) hukumatning qimmatli qog'ozlari 3. Bank ssudalari a) qisqa muddatli b) uzoq muddatli c) kreditlar bo'yicha muddati o'tib ketgan qarzlar d) kreditlar bo'yicha muddati o'tib ketgan foizlar e) boshqa banklarga beriladigan kreditlar f) filiallarga berilgan kredit resurslari 4. Korxonaning ustav kapitaliga qo'yilmalar 5. Asosiy vositalar 6. Boshqa aktivlar	2. Jalb qilingan mablag'lar a) hisob-kitob varag'i va joriy hisobvaraqlardagi mablag'lar qoldiqlari b) kapital qo'yilmalar hisobvaraqlaridagi mablag'larning qoldiqlari c) budjet mablag'larining qoldiqlari d) omonatlar e) depozitlar f) boshqa passivlar 3. Xarid mablag'lari a) markazlashtirilgan kredit resurslari b) kredit resurslari auksionlari orqali erishilgan mablag'lar c) ikki tomonlama shartnoma asosida erishilgan mablag'lar



Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tijorat banklari omonatchilarning moliya mablag'larini jalb etadi hamda ularni kreditlar berish, va o'z nomlaridan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda foydalanadi. Omonatchilar – alohida shaxslar yoki korxonalar, firmalar yoki tashkilotlar bo'lib, mablag'larning egasi hisoblanadi. Ular o'z mablag'larini banklarga chek va jamg'arma hisobvaraqlari, muddatli omonatlar va boshqa xil moliya vositalari shaklida «topshirish»ni rasmiylashtirgan holda vaqtincha foydalanish uchun taqdim etadilar. Bank nuqtayi nazaridan qaraganda, mana shu hisobvaraqlari va omonatlarning barchasi qarz majburiyatlari hisoblanadi, chunki ular bo'yicha bank o'z omonatchilaridan «qarzdor» sanaladi. Shuning uchun ham, u bank balansining passiv qismiga tegishli, bu yerda faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha bankning hamma qarzlari ro'yxati beriladi.

Shular bilan bir qatorda bank o'ziga qarashli aksiyadorlik mablag'ini ham qo'shib, jalb qilingan mablag'larni turli aktivlar yoki faoliyat yurituvchilar o'rtasida joylashtiradi va ular bank balansining aktiv qismida aks ettirilgan.

Tijorat banking taxminiy balansi bank aktivlari va passivlari tarkibi hamda tuzilishini tasvirlashning umumiy qabul qilingan andozasi hisoblanadi. Balans ularning ma'lum muddat ichidagi holatini qayd etadi, ya'ni balans iqtisodiy subyekt moliyaviy ahvolining bir lahzalik tavsifidir. Masalan, aytaylik, 2004-yil 1-yanvarga tayyorlangan balansdan bankning 2003-yilda omonatchilarning jalb qilingan mablag'larini qanchalik muvaffaqiyat bilan joylashtirilganligini yoki bu mablag'lar qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning eng maqbul tarkibiy tuzilishi ko'p jihatdan uning keyingi yillardagi hayotga qodirligi hamda likvidligini belgilab qo'yganini ko'rish mumkin.


[110]. Bank balansining hisoblari (schyotlari) aktiv, passiv va aktiv-passiv xillarga bo'linadi (26-chizma).

**Aktiv hisoblarda** bank resurslarining qay tariqa joylashtirilgani ko'rsatiladi va aktiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida qilingan sarf-xarajatlar miqdorini ko'rsatib beradi.

**Passiv hisoblarda** bank resurslarining shakllanish manbalari aks ettiriladi. Passiv hisoblar bo'yicha oxirgi saldo kredit bo'yicha ko'rsatiladi.

**Aktiv-passiv hisoblarda** asosan bankning boshqa banklar, jumladan, xorijiy banklar, mijozlar, omonatchilar va boshqa kreditorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblariga aloqador operatsiyalari qayd qilib

boriladi. Bu turdagi hisobning oxirgi saldosi debet va kreditdagi qoldiqlarni alohida-alohida ko'rsatilgan holda mufassal qilib beriladi.



**26-chizma.** Bank balansining schyotlari.

Bank aktivining naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari moddasini, ya'ni xazinadagi naqd pullar va boshqa inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'larini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi majburiy zaxiralar hisob varag'idagi pul mablag'larini ham vakil banklarga joylashtirilgan mablag'larni ham ko'pincha birlamchi zaxiralar deyiladi. Buning ma'nosi shuki, bankda depozitlar hajmi kam bo'lgan vaqtda talabi qondirilishi muhim bo'lgan biror bir bank mijozi kredit olishi to'g'risida bankka murojaat qilganda va bank bu talabni qondirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaganda, aktivning bu moddadagi mablag'lari bank uchun juda katta ahamiyatga ega.

Aktivning «Qimmatli qog'ozlar» va «Investitsiyalar» moddalari ikkilamchi zaxiralar hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Likvid qimmatli qog'ozlar
2. Foyda keltiruvchi qimmatli qog'ozlar.

Bank o'z mablag'larining asosiy qismini qimmatli qog'ozlarning likvid qismiga yo'naltiradi.

Bank aktivlarining asosiy qismi muddatsiz omonatlar bo'lgani,

ya'ni omonatchi istalgan paytda talab qilib olishi mumkin bo'lgani uchun ham, qonunchilikda, bank aktivlarining ma'lum bir qismini ishonchi yuqori likvidlik shaklida saqlab turishi ko'zda tutiladi. Shuning uchun ham, pullar uzoq muddatga berishga, ayniqsa, belgilangan foizli stavka bo'yicha (bu pulning qadrsizlanishi davom etayotgan sharoitda bank uchun og'ir yuk bo'lib tushadi) kreditlashga, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ularga xos xususiyatdir.

Masalan, O'zbekiston tijorat banklari taqdim etgan kreditlarning umumiy hajmida qisqa muddatli kreditlar ulushi 80-85 foizni tashkil etadi, faqat qolgan kichik qismigina uzoq muddatli kreditlar ulushiga to'g'ri keladi.

Bank balansining passiv qismidagi «Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar, jamg'arma depozitlar, muddatli depozitlar, banklarning depozitlari» birinchi darajali, eng muhim moddalar hisoblanib, odatda, ular bank passivining 70-80 foizini tashkil qiladi. Depozitlar juda harakatchan bo'lganligi tufayli, bank o'zining yuqori likvidligini ta'minlashi uchun doimo depozitlarning mijozlar tomonidan ommaviy ravishda olinishiga tayyor turishi lozim. Buning ma'nosi shuki, banklar kreditlar va boshqa aktivlardan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanishlari lozim va bu yo'lda xatoga yo'l qo'yilsa, bankning inqirozga uchrashi ehtimoli kuchayadi. Bank passividagi ikkinchi darajali moddalar «Banklararo qarzlilar va boshqa qarzlilar» bo'lib, bu moddalar joylashgan hisobvaraqlar ham kattagina hajmdagi mablag'larni tashkil qiladi.

Depozitlardan tashqari bank passivining «Boshqa qarzlilar» moddasi ham ikkinchi darajali majburiyatlarni to'plash manbayi hisoblanadi.

Banklararo qarzlarga yana kelgusida qayta sotib olish majburiyati bilan banklarga sotiladigan yoki banklardan sotib olinadigan qimmatli qog'ozlar kiradi. Ular ham ikkinchi darajali majburiyatlar hisoblanadi.

[111]. Tijorat banklarining balansi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi (28-jadval).

[112]. Balansdan tashqari schyotlar quyidagi bo'limlarga guruhlashtirilgan:

1. Markaziy bank pul birliklarining rezerv fondlarini hisobga oluvchi schyotlar kiritilgan. Ushbu bo'lim schyotlarida Markaziy Bank omborlariga davlat tamg'alash tashkilotidan boshqa banklar fondidan, shuningdek, aylanma kassasidan rezerv fondlariga shu singari yaroqsiz pul birliklari kelib tushadigan bank, g'azna chiptalari hamda metall tangalari hisobga olinadi.

## Tijorat banki balansi bo'limlarining guruhlanishi

№	Bo'limlar nomi	I Z O H
I	Bank fondlari	Bu bo'lim tarkibiga ustav, aksionerlik, kapital, rezerv, maxsus va iqtisodiy rag'batlantirish fondlari, shuningdek, asosiy vositalarning emirilishi, amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar kiritiladi. Fondlardagi mablag'lar bank asosiy ishini amalga oshirish, shuningdek, hisoblash texnikasi, transport, inventar uskunalar sotib olish, sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun foydalaniladi.
II	Pul mablag'lari	Bank kassalaridagi va yo'ldagi pullar, shuningdek, bankning xo'jalik hisobidagi va xo'jalik hisobida bo'lmagan korxonalar va tashkilotlarning kapital qo'yilmalari mablag'larini hisobga olish schyotlari kiradi.
		Shuningdek, bu "aksionerlar sotib olgan xususiy aksiyalar" schyoti aks ettiriladi.
III	Xorijiy valuta va xorijiy operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar	Tijorat, kooperativ banklar bu bo'limning faqat ikki schyotidan foydalanishi mumkin: <input type="checkbox"/> passiv – chet el valutasini saqlangan joriy schyotlar <input type="checkbox"/> aktiv – xorijiy banklardagi schyotlar
IV	Davlat budjeti va budjet muassasalari bilan hisob-kitoblar	Tijorat banklari ikkita birinchi tartibli schyotlaridan foydalanishi mumkin, ya'ni: <input type="checkbox"/> mahalliy budjet mablag'lari; <input type="checkbox"/> joriy schyotlar va depozitlar. Bundan tashqari, ayrim ikkinchi tartibli schyotlardan foydalanishlari mumkin.
V	Kredit muassasalari bilan hisob-kitoblar	hisob-kitob-kassa markazlari o'rtasidagi tijorat banklari operatsiyalari, shuningdek, ularning xususiy operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar filiallari orqali amalga oshiriladi.
VI	Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish	Bu passiv kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish mablag'laridir. Ushbu schyotning ikkinchi tartibli schyotlari yuqoridagi maqsadlar uchun mo'ljallangan bankning o'z mablag'larni ham markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan manbalarda qarzga olingan mablag'larni ham hisobga olishda qo'llaniladi.

		Aktiv – “kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish” schyotning ikkinchi tartibli schyotlari aytib o‘tilgan manbalar hisobiga kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun sarf qilingan pul mablag‘larini schyotga olish uchun mo‘ljallangan.
VII	Qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalar	Bu bo‘limning schyotlarida qimmatbaho qog‘ozlar, aksiyalar, veksellar, qarz majburiyatlari bilan qilinadigan operatsiyalar hisobga olinadi.
VIII	Kredit va hisob-kitob operatsiyalari	Ushbu bo‘limga korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, ijarachilarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha hisob-kitob passiv va ssuda hamda aktiv schyotlari kiritilgan.
IX	Jamoat tashkilotlarining mablag‘lari va operatsiyalari	Bu bo‘limda passiv «Kasaba uyushmalari tashkilotlarining joriy schyotlari» birinchi tartibli schyotga ijtimoiy sug‘urta va ta‘minot bo‘yicha mablag‘lar va operatsiyalarni hisobga olish uchun ikkinchi tartibli schyotlar ochilgan.
X	Fuqarolarning schyotlari, qo‘yilmalari, depozitlari bo‘yicha operatsiyalar	Ushbu bo‘limda schyotga fuqarolarning turli qo‘yilmalari uchun ikkinchi tartibli passiv schyotlar fuqarolar iste‘moli maqsadlari uchun berilgan kreditlar bo‘yicha aktiv schyot olingan.
XI	Uzoq muddatli qo‘yilmalar	Bu bo‘limga uzoq muddatli kreditlash uchun mo‘ljallangan mablag‘lar, resurslar, korxonalar va tashkilotlarga beriladigan uzoq muddatli kreditlarni hisobga olish schyotlari kiritilgan.
XII	Banklar va boshqa mablag‘lar bilan hisob-kitoblar	Bu bo‘limga maxsus berilgan mablag‘lar, shu singari maxsus fondlar, shuningdek, ushbu mablag‘lar hisobidan berilgan kreditlarni hisobga oluvchi schyotlar kiritilgan. Bo‘limning kiritilgan yangi schyotlarida O‘zbekiston Respublikasi nafaqa fondi va nafaqa xarajatlari hisobga olinadi.
XIII	O‘zaro filiallararo hisob-kitoblar	Ushbu bo‘lim schyotlari O‘zbekiston Respublikasi barcha bank muassasalari o‘rtasida boshqa shahardagi korxonalar, tashkilotlar orasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan hisob-kitoblarni rasmiy-lashtirish uchun mo‘ljallangan.
XIV	Debitorlar va kreditorlar	Bu yerda quyidagi schyotlar guruhlanadi: <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> bank debitorlari va kreditorlari;</li> <li><input type="checkbox"/> xo‘jalik hisobidagi korxonalar va tashkilotlariga beriladigan aylanma mablag‘lari;</li> <li><input type="checkbox"/> bankning xo‘jalik hisobida bo‘lmagan tashkilotlariga debitor va kreditlari;</li> </ul>

		<input type="checkbox"/> faktoring operatsiyalari bo'yicha bank hisob-kitoblari.
XV	Asosiy vositalar va xo'jalik xarajatlari	Bu bo'lim birinchi tartibli bankning asosiy vositalari, bankning kapital qo'yilmalar bo'yicha hisob-kitoblari, kelgusi davr xarajatlari schyotlarini o'z ichiga oladi.
XVI	Bino va inshootlar, xo'jalik inventari, ijaraga beriladigan asosiy vositalar	Bu bo'limga lizing, bank ijaraga olgan binolar bo'yicha kapital xarajatlar, korxonalar va tashkilotlar bilan asosiy vositalar bo'yicha hisob-kitoblarni alohida hisobga olib borish uchun ikkinchi tartibli schyotlar ochiladi.
XVII	Bankning daromadlari va xarajatlari	Ushbu bo'lim uchta birinchi tartibli schyotlar: <input type="checkbox"/> passiv – bank daromadlari; <input type="checkbox"/> aktiv – bank xarajatlari; <input type="checkbox"/> aktiv-passiv – foyda va zararlar schyotlari kiritilgan.

2. Ta'minot. Ushbu bo'limning balansdan tashqari schyotlarida tijorat banklari xo'jalik tashkilotlari va boshqa qarz oluvchilarning qisqa muddatli ssudalar 1 yilgacha bo'lgan muddati bo'yicha majburiyatlari, bank tomonidan ssuda bo'yicha qabul qilingan zayom obligatsiyalari nominal qiymatida hisobga olinadi.

3. Lizing operatsiyalarini birlashtirish hozirgi vaqtda o'ziga xos qulaylik beruvchi lizing operatsiyalari keng tarqalmoqda. Bular lizing shartnomasining harakat muddati tugagunga qadar lizing tashkiloti tasarrufida bo'ladigan mulkdan uzoq muddat foydalanish huquqini beruvchi operatsiyalardir.

4. Hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha hujjatlar. Bu bo'limda hisob-kitob operatsiyalarining barcha hujjatlarini hisobga olish schyotlari mavjud. Alohida schyotlarda hujjatlar quyidagicha hisobga olinadi:

- akseptlanishini kutayotgan hujjatlar mablag' yo'qligi yoki moliyaviy nazorat sababli muddatida to'lanmayotgan hujjatlar;
- yetkazib beruvchining joylardagi akkreditiv to'lovlari va boshqalar.

5. Xorijiy operatsiyalar bo'yicha hujjatlar va boyliklar bo'limida inkasso jo'natilgan, qabul qilingan hujjatlar, xorij valutasidagi to'lov hujjatlari, xorij valutasidagi tovar hujjatlari, xorij valutasidagi akkreditiv kiritiladi.

6. Uzoq muddatli kreditlar. Barcha hujjatlar schyotlarida uzoq muddatli ssudalar bo'yicha qarz oluvchilarning majburiyatlari hisobga olinadi.

7. Turli boyliklar va hujjatlar. Bu bo‘limda pulli posilkalar, markalar, davlat bojlari, qat’iy hisobot blankalari, jo‘natilgan va javobgar shaxslarga berilgan turli boyliklar haqida hujjatlar, hisobga oluvchi schyotlar mavjud. Shuningdek, blankalarning boshqaruvchi tashkilotga hissali qatnashuv tartibida berilgan mablag‘lari hisobga olinadi.

8. Zararga o‘tkazilgan qarzlilar. Bu bo‘limda qarzlilar barcha zararga o‘tkazilgan mablag‘larni hisobga olib boruvchi schyotlar kiritilgan. Ushbu mablag‘lar bank boshqaruvining qaroriga binoan mazkur bo‘lim schyotlariga qarzdor mulk holati o‘zgarganda undirib olish imkoniyati paydo bo‘lishini kuzatish uchun o‘tkaziladi.

[113]. Banklardagi buxgalteriya hisobi ham xo‘jalik tashkilotlari va korxonalaridagi singari **sintetik** hamda **analitik** hisob turlariga bo‘linadi. Banklarda amalga oshiriladigan hisob-kitob, kassa, kredit, emission va boshqa pul operatsiyalarida aks etiluvchi xususiy hamda jalb qilingan pul mablag‘lari buxgalteriya hisobining asosiy obykti hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobini olib borish jarayonida banklarda bajariladigan pul operatsiyalari, pullarning butligi, ularning xo‘jalik aylanmasida maqsadli va samarali foydalanish ustidan nazorat qilinadi va amalga oshiriladi.

Balansdagi va balansdan tashqari sintetik schyotlarning o‘zlarida umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar orqali operatsiyalarning iqtisodiy mazmuni aks ettiriladi. Biroq bankdan amalga oshiriladigan muayyan bank operatsiyalarini bankning aynan qaysi mijozni korxonani, tashkilot, muassasa bajarganligini bilish lozim. Shu maqsadlarda sintetik hisobning har bir balansdagi va balansdan tashqari schyot bo‘yicha bankning har bir mijozni uchun analitik hisobning shaxsiy schyotlari ochiladi. Shu bilan birga, analitik schyotlarning shifrlariga qo‘shimcha, lekin zarur ma‘lumotlar kiritilishi mumkin, ya‘ni:

- mijozlarga berilgan ssudalar bo‘yicha shaxsiy schyot shifriga kredit yoki ssudaning maqsad tayinlanishi shifri kiritiladi;
- kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish operatsiyalari bo‘yicha shaxsiy analitik schyotlarga hisobot belgisi kiritiladi;
- budjet daromadlari va xarajatlari bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olishda shaxsiy schyotlarga budjet to‘lanishining shifri qo‘shiladi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga ochiladigan barcha shaxsiy analitik schyotlar va subschyotlar, bank tomonidan ikkinchi tartibli schyotlar bo‘yicha olib boriladi, belgilangan shaklda kitobga qayd qilinib, bu kitob bosh buxgalter yoki uning o‘rinbosarida saqlanadi. Kitob qayd qilish

bilan birga har bir mijozga tartib raqami – shifr beriladi. Bu raqam shu mijoz uchun muayyan balansdagi, balansdan tashqari schyotga ochiladigan shaxsiy schyotlarni raqamlash uchun zarur.

Banklarda sintetik hisobning registrlariga va hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- buxgalteriya jurnallari;
- kassa jurnallari;
- yig‘ma varaqalar;
- tekshirish qaydnomalari;
- aylanma qaydnomalari (chorak, yillik);
- kunlik, oylik va yillik balanslari.

**Buxgalteriya jurnali** bankda kun davomida butun operatsiyalarning debeti va krediti bo‘yicha aylanmalarni qayd qilish uchun mo‘ljallangan. Jurnal birinchi tartibli bank schyotlari bo‘yicha yuritiladi, kun oxirida har bir birinchi tartibli balans schyoti bo‘yicha aylanmalar yig‘indisi, shuningdek, jurnal bo‘yicha umumiy jami hisoblanadi. Bunda debet bo‘yicha barcha schyotlarning umumiy jamisi kredit bo‘yicha umumiy jamisiga to‘g‘ri keladi.

**Kassa jurnallari** kassa bo‘yicha kirim-chiqim hujjatlariga asosan yuritilib, mijozlarning shaxsiy schyotlarining tartib raqamlari, kassa rejasi va summa belgilari ko‘rsatiladi. Operatsion ish vaqtining oxirida birinchi tartibli har bir korrespondensiyalanadigan schyot bo‘yicha va kassaning kirim-chiqim bo‘yicha umumiy yig‘indisi hisoblanadi. Hisoblangan jamlamalar bankning aylanma kassasi bilan solishtiriladi, keyin esa kassa jurnallari ma‘lumotlari buxgalter jurnaliga o‘tkaziladi.

Agarda bankda kassa rejasi moddalarining umumiy jami chiqarilgan mustaqil kassa rejasini bajarish qaydnomasi tuzilsa, bunda u kassa jurnali sifatida foydalanilishi mumkin.

**Yig‘ma varaqalar** birinchi tartibli balans schyotlari bo‘yicha yuritiladi. Agarda chorak va yillik aylanma qaydnomalarida ikkinchi tartibli schyotlar bo‘yicha aylanmalar ko‘rsatilishi kerak bo‘lsa, bu holda yig‘ma varaqalar ikkinchi tartibli schyotlar bo‘yicha ham yuritiladi.

Yig‘ma varaqalarda har kuni tegishli balans schyotlarida ochilgan analitik hisobning shaxsiy varaqalari bo‘yicha kunlik debet va kredit aylanmalar va kun oxiridagi qoldiq hisoblanadi. Yig‘ma varaqalardagi debet va kredit bo‘yicha aylanmalar buxgalter jurnali ma‘lumotlari bilan solishtiriladi, qoldiqlar summasi esa debet va kredit aylanmalari sum-



malarining kun boshidagi va oxiridagi summasi bilan solishtirilib tekshiriladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, aktiv-passiv schyotlar bo'yicha aylanmalar yig'ma varaqalarda alohida analitik tarzda ajratib ko'rsatiladi.

**Kunlik balans** yig'ma varaqalarga asosan birinchi tartibli schyotlar bo'yicha quyidagi shaklda tuziladi:

### B A L A N S

№	Schyot shifri	Aktiv	Passiv
1			
2			
	Jami		

Tashkilot rahbari \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter \_\_\_\_\_

Balansning to'g'ri tuzilganligi aktiv va passiv tomon summalarining tengligi bilan tasdiqlanadi. Kunlik balansda balans schyotlari bo'yicha qoldiqlar chiqarilgandan so'ng uning davomida yoki alohida varaqalarda ilova qilinib, balansdan tashqari schyotlar bo'yicha ham qoldiq ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlar ham yig'ma varaqalardan olinadi.

**Tekshirish qaydnomalari** hisob axborotlariga EHM yordamida buxgalteriya ishlovi berilganda har oyning 1-o'n kunli sanasida tekshirish qaydnomalari tuziladi. Qaydnomalarda shaxsiy schyotlar bo'yicha qoldiqlar chiqarilib, ikkinchi tartibli balans schyotlari bo'yicha jami hisoblanib ko'rsatiladi. Ulardan shaxsiy schyotlar qoldiqlari to'g'ri chiqarilganligini tekshirish, nazorat qilish uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, bu qaydnomalar ma'lumotlariga asosan, ikkinchi tartibli balans schyotlari bo'yicha har oyning 1-o'n kunligida balans tuziladi. Birinchi tartibli schyotlar bo'yicha tuzilgan aylanma qaydnomalari bilan birga bankning buxgalteriya hisoboti hisoblanadi.

Banklarda hisobot axborotlariga EHMlarda buxgalteriya ishlovi berilsa, jurnallar va yig'ma varaqalar yuritilmaydi, ya'ni analitik va sintetik hisob ma'lumotlari avtomatik tarzda solishtiriladi. Shunday usul bilan balans schyotlari bo'yicha aylanmalar yig'iladi. Oylik va yillik aylanma qaydnomalari tuziladi.

So'mda tuzilgan tekshirish qaydnomalarida faqat shaxsiy schyotlar bo'yicha qoldiqlar bosib chiqariladi. Bu qaydnomalar hujjatlarga to'lovlar amalga oshirishda va mablag'lar harakatini operativ hisobga

olish uchun foydalaniladi.

Tekshirish qaydnomalari javobgar bajaruvchining va bosh buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi.

Tekshirish qaydnomalari quyidagi hollarda tuziladi:

- faqat bitta shaxsiy schyot ochilgan balans schyotlari bo'yicha;
- analitik hisob ma'lumoti bo'lib kartotekalarda saqlanayotgan hujjatlar (avizo, shoshilinch majburiyatlar, to'lov hujjatlari va boshqalar) hisoblanadi. Bu holda har oyda bu hujjatlar kartotekasi inventarizatsiya qilinadi.

Har oyning birinchi o'n kunligida bosh buxgalter analitik va sintetik schyot ma'lumotlarini haqiqiysi bilan solishtirib tekshiradi va yig'ma kartotekalarga imzo qo'yib tasdiqlaydi.

Har chorakda yig'ma varaqalarga asosan aylanma qaydnomasi tuziladi. Birinchi tartibli balans schyotlari va balansdan tashqari schyotlar bo'yicha yil boshidagi qoldiq, yil boshidan aylanma va hisobot davri oxiridagi qoldiq ko'rsatiladi.

To'rtinchi chorak uchun aylanma qaydnomasi alohida tuzilmaydi, chunki kerakli ma'lumotlarning hammasi yillik hisobotda bo'ladi. Balans va balansdan tashqari schyotlar bo'yicha umumiy aylanma summalari buxgalter jurnallaridagi chorakning oxirgi kunidagi yil boshidan o'sib boruvchi aylanma yig'indisi bilan solishtiriladi.

Ikkinchi tartibli schyotlar bo'yicha birinchi o'n kunlikdagi oborot qaydnomasi va balansiga bosh buxgalter imzo qo'yishdan oldin, u balansni tekshiruv qaydnomalari va boshqa analitik hisob ma'lumotlari hamda omborxonada kitobi bo'yicha chiqarilgan qoldiq bilan solishtiradi.

[114]. G'arb amaliyotiga ko'ra, bank faoliyatini tahlil qilishda asosan kapitalning foydalilik koeffitsiyenti (bank rentabelligi) va aktivlarning foydalilik koeffitsiyenti hisoblanadi. Biroq matbuotda e'lon qilinadigan balanslarda o'ziga (bankka) tegishli mablag'larni **immobilizatsiya** qilish moddalari ajratilib ko'rsatilmaydi. Natijada yuqorida qayd qilingan ko'rsatkichlarni hisobga olishning imkoniyati bo'lmaydi.

Ikkinchi koeffitsiyentni olsak, uni hisoblash uchun surat va maxrajni taqqoslama holga keltirish kerak. Buning uchun yillik foydani aktivlarning o'rtacha yillik summasiga bo'lish kerak. Shu bilan birga, ustav fondining foydalilik darajasini aniqlash lozim.

Jalb qilingan resurslardan foydalanish darajasini xarakterlash uchun jalb etilgan barcha resurslarga (banklararo qarzlarni ham qo'shgan holda) foyda keltiruvchi (ishlaydigan) aktivlar nisbatini hisoblash tav-

siya etiladi. Qisqa muddatli likvidlik odatda likvidli aktivlar va talab qilib olinadigan majburiyatlarni taqqoslash yoʻli bilan aniqlanadi. Shu bilan birga, joriy likvidlik koeffitsiyentidan foydalanish taklif etiladiki, u bankdagi naqd pullarning talab qilib olinadigan majburiyatlarga nisbatidan iborat.

Bu yerda masala shundan iboratki, xalqaro amaliyotga muvofiq holda likvid aktivlar tarkibiga 30 kun davomida uziladigan kreditlar qoʻshiladi. Biroq, bu aktiv turlari bizning mamlakatimizda pul bozoring mavjud emasligi, korxonalarining esa toʻlovga toʻla qodir emasligi sababli uncha likvid boʻlolmaydi. Shuning uchun koʻrsatilgan mablagʻlar bankdagi naqd pullarni hisoblashda inobatga olinmaydi. Aksincha, keyingisi tarkibiga majburiy bank zaxiralarning variantlaridan biri sifatida qarash mumkin, chunki ular bank tomonidan jalb etilgan mablagʻlarni joylashtirishni tavsiflaydi.

Talab qilib olinadigan majburiyatlarga kelganda, ular jumlasiga hisob-kitob va joriy schyotlardagi qoldiqlar va kreditorlik qarzlarini hisobga olish zarur. Depozitlar, banklararo zayomlar va balans orti majburiyatlar zaruriy rasshifrovkalar mavjud emasligi sababli hisobga olinmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda talab qilinish darajasi yuqori boʻlgan passivlarni hisobga olish zarur.

Koʻrib chiqilgan umumlashtiruvchi koʻrsatkichlardan tashqari bank balansini tahlil qilishda quyidagi koeffitsiyentlarni ham hisoblash maqsadga muvofiq:

- ishlaydigan aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi;
- tezkor depozitlarning umumiy passivlar summasidagi ulushi;
- banklararo zayomlar summasining umumiy passivlar summasidagi ulushi.

Balans tahlilini quyidagi maʼlumotlar asosida bajaramiz (29-jadval).

Maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, eng yuqori rentabellikka, yaʼni ustav fondining yuqori darajada qoplay olish qobiliyatiga «G» banki, eng yuqori ulushdagi (91,5%) ishlaydigan aktivlar evaziga erishgan. Shu bilan bir qatorda «G» banki joriy likvidlikni ham yaxshi darajada (45,8%) taʼminlagan.

## Bank balansi va uni tahlil qilish jihatlari

№	Banklar	K o' r s a t k i c h l a r, %					
		Foyda ustav fondi	Ishlaydigan aktivlar <sup>1</sup> Jalb qilingan resurslar	Naqd pul Talab qilib olinadigan majburiyatlar	Ishlaydigan aktivlar	Tezkor depozitlar Passiv	Banklararo zayomlar Passivlar
1	A	34,6	99,9	7,1	90,3	0,5	13,3
2	B	42,5	101,6	44,7	85,6	14,6	44,6
3	C	41,7	93,1	59,0	60,7	9,9	29,3
4	D	43,3	102,3	45,8	91,5	32,3	21,4
5	E	37,9	78,6	62,8	70,2	10,0	31,8
6	F	16,4	107,5	152,5	60,1	16,2	27,8
7	G	22,1	140,1	43,5	83,1	6,3	53,9

«A» bankda ham ishlaydigan aktivlarning salmog'i yuqori (90,3%). Bu degan so'z, mazkur bankning qisqa muddatli resurslari juda yuqori darajali riskli aktivlarga aylanib qolgan.

Diqqatni o'ziga tortadigan boshqacha hol ham mavjud. Qizig'i shundaki, bir koeffitsiyentidan yuqori joriy likvidlikka «E» banki erishgan (152,5%). Bu bankning jalb qilingan resurslarni joylashtirishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yganidan dalolat beradi, buni ishlaydigan aktivlar salmog'ining past ekanligi (60,1%) va uning bank rentabelligiga salbiy ta'siri (16,4% gina) isbotlab turibdi.

Bank faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan yana biri jalb qilingan resurslardan foydalanish ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkich darajasi 100 foizdan oshishi mumkin va u bir tomondan omonatchilar manfaatini himoya qilinishini, ikkinchi tomondan esa bank o'z mablag'lari hisobiga yuqori riskli aktivlarni sug'urtalay olish funksiyasini bajara olishidan dalolat beradi. Masalan, «G» banki bo'yicha bu ko'rsatkich 102,3 foizni tashkil qilgan, ya'ni 2,3 foiz ortiqcha. Agar bunday ortiqchalik haddan tashqari ko'p bo'lsa («J» bankida bu ortiqchalik 40,1 foizni tashkil qiladi), u holda bank nafaqat jalb qilingan resurslar bo'yicha, shu bilan birga o'z resurslari bo'yicha ham katta talafot (yo'qotish) riskiga ega bo'ladi.

Bankning mustahkamligi ko'p jihatdan resurs bazasining barqarorligi

<sup>1</sup> Ishlaydigan aktivlar deganda bankning daromad keltiruvchi aktivlari ko'zda tutilgan.

va boshqariladigan resurslar (ya'ni, depozitlar, depozit sertifikatlar, banklararo zayomlar) salmog'i bilan belgilanadi. Shu ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga «J» banki (60,2%), «B» banki (59,2%), «G» banki (53,7%) erishganlar. Biroq dastavval sanab o'tilgan ikkita bankda boshqariladigan resurslar asosan banklararo zayomlar evaziga shakllangan. Bu bankning xarajatlarini ko'paytiradi, shu bilan birga uning tashqi omillarga bog'liqligini kuchaytiradi.

Shunday qilib, bank balansini tahlil qilish uchun taklif qilingan ko'rsatkichlar ekspress tahlilni amalga oshirish uchun juda qo'l keladi va bankning faoliyatini, uning rentabelligi va likvidligini baholashda juda kuchli qurol hisoblanadi.

**[115].** Balansdan tashqari moddalar balans aktivlari va passivlariga aloqasi bo'lmagan boyliklar, hujjatlar, topshiriqnomalarni hisobga olish maqsadida qo'llaniladi. Balansdan tashqari moddalar quyidagi bo'limlardan iborat:

- zaxira fondlaridagi pul biletleri va tangalar;
- qarzdorlarning muddatli majburiyatlari va ssudalar;
- bank tomonidan inkasso uchun va yo'ldagi hisob-kitob hujjatlari asosida kreditlar bilan ta'minlash uchun qabul qilingan hisob-kitob hujjatlari;
- qat'iy hisobotda turuvchi blankalar;
- pul belgilarini muomalaga chiqarishga ruxsatnomalar;
- to'lov uchun akkreditivlar va boshqalar.

Balansdan tashqari moddalar banklar balansida yakuniy balans hisobvaraqlaridan keyin joylashtiriladi.

Balansdan tashqari moddalar bo'yicha operatsiyalar bankning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi hisobotlarga kiritilmasa ham, bank uchun xatarlidir. Bu xatar ayniqsa mijozning uchinchi shaxsdan olgan kreditini bank tomonidan kafolatlanishida o'z aksini topgan. Agar bank mijozni, uchinchi shaxsdan olgan kreditini qaytarish imkoniga ega bo'lmasa, unga kafillik bergani uchun, bank bu kreditni to'laydi.

**[116].** Bank mablag'lari manbaya va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot quyidagi ikki muhim savolga javob berish uchun tuziladi:

- bank muayyan bir davrda foydalangan mablag'larni qayerdan olgan?
- bank ushbu mablag'larni nimalarga sarf qilgan?

Hisobot quyidagilar asosida tuziladi:

Muayyan davr mobaynida bankka kelib tushgan mablag'lar	=	Bank operatsiyalari natijasida kelgan mablag'lar	+	Bank aktivlarining kamayish hajmi	+	Bank qarz majburiyatlarining ortish hajmi
Muayyan davr mobaynida sarf qilgan mablag'lar	=	Aksiyadorlarga to'langan dividendlar	+	Bank aktivlarining ortish hajmi	+	Bankning qarz majburiyatlari va uning kamayish hajmi

<b>Muayyan davr mobaynida bankka kelib tushgan mablag'lar</b>	=	<b>Muayyan davr mobaynida sarf qilgan mablag'lar</b>
---	---	--

Bu hisobot quyidagi ko'rinishga ega:

<b>№</b>	<b>Mablag'lar manbai</b>	<b>mln. so'm</b>
<b>Olingan mablag'lar</b>		
<b>I</b>	<b>Bank operatsiyalari</b>	
	<input type="checkbox"/> sof daromad <input type="checkbox"/> to'lanadigan moddalar, daromaddan tashqari <input type="checkbox"/> amortizatsiya xarajatlari yoki amortizatsiya ajratmalari <input type="checkbox"/> kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi <input type="checkbox"/> boshqa moddalar <input type="checkbox"/> jami bank operatsiyalaridan olingan mablag'lar	
<b>II</b>	<b>Balans aktivining kamayishi</b>	
	<input type="checkbox"/> naqd pullar va boshqa «Nostro» hisobvaraqlaridagi depozitlar <input type="checkbox"/> investitsiya qimmatli qog'ozlari <input type="checkbox"/> savdo hisobvaraqlaridagi qimmatli qog'ozlar <input type="checkbox"/> qayta sotish maqsadida sotib olinadigan qimmatli qog'ozlar boshqa aktivlar	
<b>III</b>	<b>Balans passivida majburiyatlarning ortishi</b>	
	<input type="checkbox"/> qisqa muddatli qarzlilar <input type="checkbox"/> uzoq muddatli qarzlilar <input type="checkbox"/> moliyalashtirishning boshqa manbalari <input type="checkbox"/> jami olingan mablag'lar	
<b>Sarf qilingan mablag'lar</b>		
<b>I</b>	<b>Aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlar</b>	

	<input type="checkbox"/> investitsiya qimmatli qog‘ozlari <input type="checkbox"/> kreditlar, jami <input type="checkbox"/> boshqa aktivlar	
II	<b>Balans passivida majburiyatlarning kamayishi</b>	
III	<b>Depozitlar</b>	
IV	<b>Uzoq muddatli qarzarlar (ipoteka qarzlari)</b>	
V	<b>Boshqa majburiyatlar</b>	
VI	<b>Mablag‘larning boshqa hujjatlarga yo‘naltirilishi</b>	
	Jami sarf qilingan mablag‘lar	

[117]. Moliyaviy hisobotning yana bir qismi – aksiyadorlar sarmoyasi haqidagi hisobot, ya’ni sarmoya harakati balansidir. Bu hisobotda ro‘y bergan o‘zgarishlar o‘z aksini topadi. Bu hisobot orqali aksiyadorlar muayyan vaqt o‘tishi bilan sarmoya uchun sarf qilingan mablag‘larda qanday o‘zgarishlar yuz berganini aniqlaydilar.

Aksiyadorlar sarmoyasi bankning moliyaviy asosini tashkil qilib, yo‘qotishlarning o‘rnini qoplashga va omonatchilar hamda boshqa kreditorlar huquqini himoya qilishga qaratilganligi tufayli sarmoyadagi o‘zgarishlarni nafaqat aksiyadorlar, balki nazorat organlari va yirik mijozlar ham kuzatib boradilar.

Bank aksiyadorlari sarmoyasi haqidagi hisobot quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Sarmoya harakati balansi (hisobot davri boshida).
2. Hisobot davrida sof foyda (zarar).
3. Aksiyadorlarga to‘lanadigan dividendlar:
  - oddiy aksiyalarga dividendlar;
  - imtiyozli aksiyalarga dividendlar.
4. Yangi aksiyalarning emissiyasi (muomalaga chiqarilishi).
5. Bankning moliya bo‘limida saqlanayotgan o‘z aksiyalarining savdosi.
6. Sarmoya harakati balansi (hisobot davri oxirida).

[118]. Joriy buxgalteriya hisoboti har bir oy va har bir kvartallar yakunlari hisobotlariga bo‘linadi. Hisobotlarni tuzish tartibi, ularning mazmuni va taqdim etish muddatlarini O‘zbekiston Respublikasi MB belgilab beradi. Har bir oy yakuni bo‘yicha tuziladigan joriy hisobotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- balans (1-shakl);
- umumiy balans (bank filiallari balanslarini o‘z ichiga olgan);
- mablag‘lar yo‘nalishi va ularni jalb qilish muddatiga qarab balansning ayrim schyotlari rasshifrovkasi;

- yirik kreditorlar ro‘yxati;
- «Bank ustav fondi» balans schyoti bo‘yicha rasshifrovkasi;
- iqtisodiy normativlar hisobi;
- majburiy zaxiralar fondi hisobi;
- korrespondent schyotlar bo‘yicha balans schyotlari rasshifrovkasi.

Tijorat banklari tomonidan oylik buxgalteriya hisoboti O‘zbekiston Respublikasi MB bosh boshqarmasiga va soliq tashkilotlariga taqdim etiladi.

Tijorat banklarining yillik buxgalterlik hisoboti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- yillik balans (1-shakl);
- foyda va zararlar to‘g‘risida hisobot (2-shakl);
- foydadan foydalanish to‘g‘risida balansga ilova (3-shakl);
- bank fondi tarkibi, maxsus sanalgan fond va turli mablag‘lar to‘g‘risida ma‘lumotnoma (5-shakl);
- yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar haqida hisobot;
- korrespondent va subschyotlardagi mablag‘lar qoldig‘i haqida ma‘lumotnoma;
- mehnat bo‘yicha hisobot;
- yillik buxgalteriya hisoboti bo‘yicha tushuntirish xati.

Yillik hisobot auditorlik tekshiruvdan o‘tkaziladi, so‘ngra ma‘lumotlarning haqqoniyligiga, hisobotning esa amaldagi buxgalteriya hisobi normativlari va qonunchiligiga mos ekanligiga ishonch hosil qilingach, hisobot O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga topshiriladi.

**[119].** Bank rahbarlari moliyaviy hisobotning natijalari bilan tanishayotganda quyidagilarga e‘tibor berishlari lozim.

Ma‘lumki, bank faoliyati asosan qarzga olingan mablag‘lar, ya‘ni jalb qilingan depozitlar va nodepozit mablag‘larga bog‘liq. Agar bank aksiyadorlarga to‘lanadigan to‘lovlar hajmini oshirishni davom ettiraversa, bankning moliyaviy tayanchi, ya‘ni o‘z mablag‘lari bilan jalb qilingan mablag‘lar muvozanatida bank uchun salbiy o‘zgarishlar yuz beradi. Shunday hollarda bank rahbariga quyidagilar tavsiya qilinadi:

- bank doimo jalb qilingan mablag‘larni o‘z vaqtida to‘liq miqdorda qaytarib berishni ta‘minlashi lozim, chunki mablag‘larning o‘z vaqtida qaytarilmasligi bank daromadlari va hatto bankning kelajakdagi faoliyati uchun ham katta xatarni yuzaga keltirishi mumkin;



□ nodepozit mablag‘larning omonatchilar depozitlariga qo‘shimcha ravishda bank tomonidan sarf qilinishi o‘zib borsa, (chunki deyarli barcha banklarning o‘z sarmoyasi depozitlarga qaraganda ancha kam), bozorda tez sotiladigan va yuqori sifatli aktivlarning ulushi kechiktirilmadan to‘lanishi lozim bo‘lgan majburiyatlardan yuqori bo‘lishini ta‘minlash maqsadga muvofiq.

□ daromadlar asosan kreditlarga va qimmatli qog‘ozlarga o‘rnatilgan foiz to‘lovlari asosida aniqlanadi. Eng yuqori xarajat moddasi bu qarzga olingan mablag‘larga to‘lanadigan foizlardir.

Bunday hollarda rahbar investitsiyalarni tanlashda puxta o‘ylab ish ko‘rishi lozim. Natijada katta «daromad keltiruvchi» aktivlar mo‘ljaldagi daromadni keltirish va umuman, ko‘zda tutilgan daromadni olish mumkin. Bank daromadi va xarajatiga foiz stavkasining ta‘siri yuqori bo‘lganligi tufayli rahbariyat foiz o‘zgarishini avvaldan e‘tiborga olishi yoki foiz o‘zgarishi tufayli bankni zarar ko‘rish ehtimolidan sug‘urtalash (xejirlash) orqali himoyalashi lozim.

Bank aktivining asosiy qismi moliyaviy aktivlardir (kreditlar va qimmatli qog‘ozlar). Aktivning ma‘lum darajada oz qismini bino va uskunalar (mutlaq belgilangan aktivlar) tashkil qiladi. Shuning uchun odatdagi banklar juda cheklangan miqdorda operatsion tayanchlardan foydalanadilar.

[120]. Buxgalteriya hisobining xalqaro tamoyillariga o‘tish muammosi va uning echilishi mamlakat bank tizimining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Hozirgi vaqtda tijorat banklarida ushbu masalani yechish uchun imkoniyatlar vujudga kelgan bo‘lsa-da, biroq ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi omillar mavjud:

**Birinchidan**, tijorat banklarining malakali buxgalter kadrlar bilan notekis to‘ldirilganligi. Ayonki, banklarning, shuningdek, turli bank assotsiatsiyalarining faol ishtirokisiz malakali buxgalter kadrlar tayyorlash muammosini echish juda qiyindir.

**Ikkinchidan**, buxgalteriya hisobotining xalqaro standartlariga o‘tishi munosabati bilan bank amaliyotida hozirgi kunda buxgalterlik kasbi to‘g‘risida tasavvurlarning tubdan o‘zgarishi yuz bermoqda. Agarda ilgari buxgalteriya hisobi hisobchilikka tenglashtirilgan bo‘lsa, bugungi kunda buxgalteriya hisobi undan tashqari axborotni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish, ya‘ni bank menejmentini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, buxgalter kadrlarning bank boshqaruviga ishtirok etishi majburiyat sifatida qaralmog‘i lozim.

**Uchinchi**dan, bir qator bank operatsiyalarini buxgalteriyada rasmiylashtirish uchun me'yoriy bazaning yetishmasligi, tijorat banklarining eskirgan planschyotlari bank faoliyatini tahlil etishni qiyinlashtiradi, xorijiy banklar amaliyotida qo'llaniladigan, banklar ishonchliligi va barqarorligini baholash ko'rsatkichlari va koeffitsiyentlaridan foydalanish imkonini bermaydi.

**To'rtinchi**dan, ma'lumotlarni uzatish, telekommunikatsiyalar va qalbaki hujjatlarning bank faoliyatiga kirib kelishidan bank axborotlarini himoya qilish vositalari texnik jihozlanishining yetarlicha bo'lmagan darajasi, shuningdek, kompyuter xavfsizligini ta'minlashning yetarli darajada emasligi. Bu yerda ba'zi banklarning bank sirini ta'minlashga noqobilligi, shu bilan birga, bank biznesini rivojlantirish bank sirini ta'minlashni davlat siyosati darajasiga ko'tarishni talab qiladi (G'arb statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, bank sohasidagi jinoyatlarning 60 foizi bank xodimlari tomonidan amalga oshiriladi).

**Beshinchi**dan, ba'zi auditorlik firmalarining buxgalteriya hisobi sohasida yetarlicha kasbiy mahoratga ega emasligi, tekshirish sifatlari va mas'uliyatining yo'qligi ham buxgalteriya ishining umumiy darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qayd qilingan omillarni hisobga olgan holda bank hisobi sifatini, uning ishonchliligi va realligini oshirish zarur. Quyida buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillarini ochib beruvchi xalqaro standartlarning ayrimlarini keltiramiz.

**Faoliyatning uzluksizligi.** Ushbu standartga muvofiq, agarda kelgusida bank o'z faoliyatini davom ettirishni rejalashtirayotgan bo'lsa va uni tugatish ko'zda tutilmayotgan bo'lsa, buxgalteriya hisobini yuritish qoidasi o'zgarmaydi. Firmalarni tugatish yoki aktivlar obyektini sotish hollarida hisobotda yashirin zararni aks ettirish lozim, bunday hol agarda mavjud aktivlarning sotish qiymati qoldiq qiymatdan kam bo'lgan holda yuz beradi.

**Moliyaviy yil bo'yicha taqsimlash.** Ushbu tamoyilni amalga oshirish banklardan daromadlar va xarajatlarni hisobga olishni kredit taqdim etilganidan boshlab, mablag'lar haqiqatda kelib tushgan vaqtdan e'tiboran, ularni amalga oshirilishiga ko'ra talab etadi. Shu bilan bir vaqtda o'sib borayotgan xarajatlar foizlari, depozitlar bo'yicha foizlar to'lanish muddatidan qat'iy nazar, joriy yil hisobotida aks etishi lozim.

**Ehtiyotkorlik.** Bu tamoyil bank aktivlari va passivlarini muayyan ehtiyotkorlik darajasida baholashni talab etadi. Bu o'ta dolzarb, chunki

ularni kredit xarajatlarini bashorat qilishga mo'ljal oladi va zaxira fondlari miqdorlari va muddatlariga mos holda tavakkalchilikda hosil qilishni rag'batlantiradi.

Yangi planschyotlari 1998 – yildan kiritilgan bo'lib, moliyaviy statistika sohasidagi xalqaro tashkilotlar talabini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. U jahon amaliyotida tan olingan quyidagi tamoyil-lardan foydalanishni ko'zda tutadi:

- kredit tashkilotlari faoliyatining uzluksizligi;
- hisobga olish usullarining va buxgalteriya hisobi qoidalarining o'zgarmasligi;
- mazmunning shakldan ustun bo'lishi;
- bank operatsiyalarini amalga oshirishda ehtiyotkorlik;
- aktiv va passivlarni turlicha aks ettirish;
- kiruvchi balansning mustahkamligi;
- muhimlik;
- hisobga olishning oshkoraligi;
- qisqa muddatli qarzlarning uzoq muddatli qarzlarga aylantirish, ya'ni konsolidatsiya qilish tamoyillari kiradi.

Banklar balansini yangi schyotlar asosida tuzish moliyaviy hisobot sifatini yaxshilashga, kredit tashkilotlari faoliyatini boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning ishonchlilik va amaliylik ahamiyatini yanada oshirishga imkon beradi.

### 3.8. Tayanch iboralar

<input type="checkbox"/> <i>tijorat banklari</i>	<input type="checkbox"/> <i>gudvil</i>
<input type="checkbox"/> <i>zamonaviy bank</i>	<input type="checkbox"/> <i>leveraj</i>
<input type="checkbox"/> <i>bank resurslari</i>	<input type="checkbox"/> « <i>Kuk koeffitsiyenti</i> »
<input type="checkbox"/> « <i>umumiy zaxiralar</i> »	<input type="checkbox"/> <i>likvidli aktivlar</i>
<input type="checkbox"/> « <i>maxsus zaxiralar</i> »	<input type="checkbox"/> <i>aktivlar me'yor</i>
<input type="checkbox"/> <i>taqsamlanmagan foyda</i>	<input type="checkbox"/> « <i>yaxshi</i> » <i>aktivlar</i>
<input type="checkbox"/> <i>I darajali kapital</i>	<input type="checkbox"/> « <i>standart</i> » <i>aktivlar</i>
<input type="checkbox"/> <i>II darajali kapital</i>	<input type="checkbox"/> « <i>substandart</i> » <i>aktivlar</i>
<input type="checkbox"/> « <i>kapitalning yetarliligi</i> »	<input type="checkbox"/> « <i>shubhali</i> » <i>aktivlar</i>
<input type="checkbox"/> <i>likvidlikni boshqarish</i>	<input type="checkbox"/> « <i>umidsiz</i> » <i>aktivlar</i>
<input type="checkbox"/> <i>bankning oltin qoidasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>bank daromadi</i>
<input type="checkbox"/> <i>aktivlarni boshqarish</i>	<input type="checkbox"/> <i>bank xarajatlari</i>
<input type="checkbox"/> <i>passivlarni boshqarish</i>	<input type="checkbox"/> <i>foydalilik koeffitsiyentlari</i>
<input type="checkbox"/> <i>ssuda foizi</i>	<input type="checkbox"/> <i>bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti</i>
<input type="checkbox"/> <i>marjali ssudalar</i>	<input type="checkbox"/> <i>bankning o'z kapitali</i>
<input type="checkbox"/> « <i>to'lovga layoqatlilik</i> »	<input type="checkbox"/> <i>bank aktivining sifati</i>
<input type="checkbox"/> <i>bank likvidligi</i>	

<input type="checkbox"/> bankning likvidlik koeffitsiyentlari	<input type="checkbox"/> depozitlar sifati
<input type="checkbox"/> lahzalik likvidlik koeffitsiyenti	<input type="checkbox"/> likvidlikni boshqarish
<input type="checkbox"/> aktivlarning diversifikatsiyalanishi	<input type="checkbox"/> likvidlikni baholash
<input type="checkbox"/> «qaynoq pullar»	<input type="checkbox"/> likvid ko'rsatkichlar
<input type="checkbox"/> ishonchsiz mablag'lar	<input type="checkbox"/> bank hisoboti
<input type="checkbox"/> barqaror mablag'lar	<input type="checkbox"/> bank balansi
<input type="checkbox"/> aktiv hisoblar	<input type="checkbox"/> sintetik hisob
<input type="checkbox"/> passiv hisoblar	<input type="checkbox"/> analitik hisob
<input type="checkbox"/> aktiv-passiv hisoblar	<input type="checkbox"/> mablag'lar manbasi
<input type="checkbox"/> nomoddiy aktivlar	<input type="checkbox"/> mablag'larni immoblizatsiya qilish

### 3.9. Test topshiriqlari va masalalar

#### 1. Tijorat banki:

- davlat bankining tarkibiy qismi hisoblanadi;
- nodavlat bank hisoblanadi;
- noto'g'ri javob yo'q;
- to'g'ri javob yo'q.

#### 2. Mulkchilik shakliga qarab tijorat banklari quyidagi turlarga bo'linadi:

- davlat banklari;
- aksioner banklar;
- kooperativ banklar;
- noto'g'ri javob yo'q.

#### 3. Tijorat banklari mulkchilik shakliga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- xususiy banklar;
- qo'shma banklar;
- xorijiy banklar;
- noto'g'ri javob yo'q.

#### 4. Bajariladigan operatsiyalariga qarab banklar:

- universal banklarga;
- maxsus banklarga;
- viloyat banklariga bo'linadi;
- a + b.

#### 5. Quyida qayd qilingan funksiyalarning qaysi biri bank kapitalining funksiyasi hisoblanadi?

- a) kreditorlarning manfaatini himoya qilish;
- b) bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash;
- c) bank faoliyatini muvofiqlashtirish;
- d)  $a + b + c$ .

#### **6. Leveraj – bu:**

- a) bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir;
- b) firmaning moddiy o'lchov ta'siriga tushmaydigan sarmoyasi, masalan, obro'-e'tibor, kasbiy omilkorlik, aloqalar, marketing va boshqalardir;
- c) moddiy va jismoniy shaklga ega bo'lmagan nomonetar, identifikatsiyalanadigan aktivlardir;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

#### **7. «Kuk koeffitsiyenti»:**

- a) bank barqarorligiga berilgan umumiy bahoni va bankning riskka bardoshlik darajasini ifodalaydi;
- b) bank kapitalining balansdagi va balans orti aktivlari o'rtasidagi minimal nisbatni belgilaydi;
- c) bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

#### **8. Tavakkalchilik koeffitsiyenti 20 foiz bo'lgan aktivlar:**

- a) o'rtacha tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar toifasiga kiradi;
- b) yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar toifasiga kiradi;
- c) minimal tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar toifasiga kiradi;
- d) tavakkalchilikdan xoli bo'lgan aktivlar toifasiga kiradi.

#### **9. Quyida qayd qilingan aktivlarning qaysi bir turi yuqori darajadagi likvid aktivlar tarkibiga kiradi?**

- a) bir yilgacha qaytarish sharti bilan so'mda va chet el valutasida bank tomonidan berilgan kreditlar;
- b) garovdagi qimmatli qog'ozlar;
- c) yaqin 30 kun ichida qaytarish sharti bilan so'mda va chet el valutasida berilgan kreditlar;
- d) naqd pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar.

#### **10. Quyida qayd qilingan aktivlarning qaysi bir turi likvid aktivlar tarkibiga kiradi?**

- a) *Markaziy bank schyotidagi mablag'lar;*
- b) *yaqin 30 kun ichida mazkur bank schyotiga o'tkazilishi kutilgan to'lovlar;*
- c) *davlatning qarz majburiyatlari;*
- d) *50 foiz kafolat sharti bilan bir yildan ko'proq muddatda qaytarish sharti bilan berilgan kreditlar.*

**11. Quyida qayd qilingan aktivlarning qaysi bir turi uzoq muddatli likvid aktivlar tarkibiga kiradi?**

**12.**

- a) *bir yilgacha qaytarish sharti bilan so'mda va chet el valutasida berilgan kreditlar;*
- b) *davlatning ichki zayomlari uchun ajratilgan mablag'lar;*
- c) *norezident banklar korschyotlardagi mablag'lar;*
- d) *Markaziy bank schyotidagi mablag'lar.*

**13. Kamida 180 kunga kechiktirilgan aktiv:**

- a) *«shubhali» aktivlar deb tasniflanadi;*
- b) *«substandart» aktivlar deb tasniflanadi;*
- c) *«umidsiz» aktivlar deb tasniflanadi;*
- d) *«yaxshi» aktivlar deb tasniflanadi.*

**14. Quyida qayd qilingan qaysi bir kreditlarda qaytarilmaslik alomatlari bo'lmaydi?**

- a) *«standart» aktivlarda;*
- b) *«substandart» aktivlarda;*
- c) *«umidsiz» aktivlarda;*
- d) *«yaxshi» aktivlarda.*

**15. «Standart» sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining:**

- a) *20 foiziga teng bo'lgan zaxiralar tuzishi shart;*
- b) *10 foiz miqdorida zaxiralar tuzishi shart;*
- c) *50 foiz miqdorida zaxirani tashkil etishi shart;*
- d) *100 foiz miqdorida zaxiralar yaratish kerak.*

**16. «Standart» aktivlar bo'yicha:**

- a) *qarzdorning kreditni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha uyg'onishi mumkin;*
- b) *qarzdorning kreditni o'z muddatida to'lashiga shubha*

tug'ilmaydi;

- c) qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg'otadi;
- d) qarzdor tomonidan kredit o'z vaqtida to'liq qaytarilishini shubha ostiga qo'yadi va kam ishonchli qilib qo'yadi.

**17. Quyidagilarning qaysi biri aktivlarning likvidligi ta'minoti vazifasini bajaradi?**

- a) ko'chmas mulk;
- b) xususiy korxonalarining qimmatli qog'ozlari;
- c) O'zbekiston Respublikasining so'zsiz kafolati;
- d) yuridik va jismoniy shaxslarning kafolatlari.

**18. Quyidagilarning qaysi biri aktivlarning nolikvid ta'minoti vazifasini bajaradi?**

- a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so'zsiz kafolati;
- b) banklarning hisobvaraqlardagi erkin ayirboshlanadigan valuta shaklidagi garov;
- c) oltin va kumush qo'yilmalar shaklidagi garov;
- d) ko'chmas mulk (o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan yerga bo'lgan huquqni hisobga olgan holda).

**19. Quyidagi yo'nalishlarning qaysi biri bank likvidligini boshqarishning muhim yo'nalishi hisoblanadi:**

- a) aktivlarni boshqarish;
- b) passivlarni boshqarish;
- c) majburiyatlarni boshqarish;
- d) a + b.

**20. Bankning oltin qoidasi (BOQ) quyidagi talabga javob berishi kerak:**

- a) BOQ = Bankning talablari miqdori va muddati < Bankning majburiyatlari miqdori va muddati
- b) BOQ = Bankning talablari miqdori va muddati = Bankning majburiyatlari miqdori va muddati
- c) BOQ = Bankning talablari miqdori va muddati < Bankning majburiyatlari miqdori va muddati
- d) a + v

**21. Jahon bank amaliyotida aktivlar va passivlarni boshqarishning qaysi usullari mavjud?**

- a) fondlar manbalarini birlashtirish usuli;

- b) fondlar manbalarini bir-biridan ajratish usuli;
- c) qo'shma usul;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**22. Agar qayta baholanishi lozim bo'lgan aktivlar miqdori shunday passivlar miqdoriga teng bo'lmasa, u holda foiz stavkasidagi o'zgarishlarni sezuvchi aktivlar va passivlar o'rtasida:**

- a) disbalans (tengsizlik) yuzaga keladi;
- b) disbalans (tengsizlik) yuzaga kelmaydi;
- c) tenglik yuzaga keladi;
- d)  $b + v$

**23. Quyidagi daromad manbalarining qaysi biri tijorat banklarining daromad manbalari hisoblanadi:**

- a) qimmatli qog'ozlar orqali biznes;
- b) diskontli biznes;
- c) ssuda biznesi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**24. Bank daromadi uning qaysi bir vositachilik operatsiyalarini bajarish evaziga shakllanadi:**

- a) schyotlarni ochish;
- b) schyotlarni yopish;
- c) naqd pulni berish bo'yicha;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**25. Quyida qayd qilingan to'lovlarning qaysi biri bankning foizsiz to'lovlariga kiradi?**

- a) umumbank operatsion xarajatlarni qoplash uchun ajratiladigan sarflar;
- b) talab qilinganda olinishi mumkin bo'lgan omonatlar uchun foiz to'lovlari;
- c) tezkor depozitlar uchun foiz to'lovlari;
- d) chiqarilgan qimmatli qog'ozlar uchun foiz to'lovlari.

**26. Marja – bu:**

- a) narxlar, kurslar, stavkalar o'rtasidagi farq;
- b) tijorat bankining daromad foizi bilan xarajat foizi o'rtasidagi farq;
- c) olingan va to'langan foizlar o'rtasidagi farq;



d) noto 'g 'ri javob yo 'q.

**27. Absolut miqdorda marja quyidagi qayd qilingan qaysi bir formula yordamida hisoblanadi?**

$$a) K_m = \frac{\text{Ssuda to'lovlari bo'yicha foizlar summasi} - \text{Kredit resurslari to'lovlari bo'yicha foizlar summasi}}{\text{Qarzdorlik ssudasi summasining o'rtacha qoldig'i}}$$

$$b) M = \frac{\text{Ssuda to'lovlari bo'yicha foizlar summasi} - \text{Kredit resurslari bo'yicha foizlar summasi}}{\text{foizlar summasi}}$$

$$c) K_m = \frac{\text{Olingan foizlar summasi} - \text{To'langan foizlar summasi}}{\text{Aktivlar summasining o'rtacha qoldig'i}}$$

$$d) K_m = \frac{\text{Olingan foizlar summasi} - \text{To'langan foizlar summasi}}{\text{Daromad keltiruvchi aktivlar summasining o'rtacha qiymati}}$$

**28. Quyida qayd qilingan koeffitsiyentlarning qaysi biri tijorat banklari foydasining foydalilik darajasini ta'riflaydi:**

a) aktivlarning bir so 'miga to 'g 'ri kelgan foyda ( $K_f = \frac{BF}{A}$ );

b) o 'z kapitalining bir so 'miga to 'g 'ri kelgan foyda ( $K_{o'kf} = \frac{BF}{O'K}$ );

c) ustav fondining bir so 'miga to 'g 'ri kelgan balansdagi foyda ( $K_{uff} = \frac{BF}{UF}$ );

d) noto 'g 'ri javob yo 'q.

Bu yerda:

$BF$  – balansdagi foyda;

$O'K$  – bankning o 'z kapitalining o 'rtacha qiymati;

$UF$  – ustav fondining o 'rtacha qiymati;

$A$  – balans aktivining o 'rtacha qiymati.

**29. Sof foydaning o 'z kapitaliga bo 'lgan nisbat asosida uchta ko 'paytuvchi koeffitsiyentga, ya 'ni:**

marjadan daromad (sof foyda : aktivlar)

aktivlarning daromadliligi (aktivlar : o 'z kapital)

Leveraj koeffitsiyenti (aktivlar: o 'z kapital)ga ajratib hisoblanishi

jahon amaliyotida:

a) Dyukon formulasi nomi bilan mashhur;

b) Tomas Grexem formulasi nomi bilan mashhur;

c) I.Fisher (1867 - 1947) formulasi nomi bilan mashhur;

d) I.Pigu (1877 - 1959) formulasi nomi mashhur.

**30. Bank likvidligi deganda:**

- a) bank kapitalining yetarliligi tushuniladi;
- b) bank kapitalining uning majburiyatlariga bo'lgan nisbati tushuniladi;
- c) bankning mavjud moliyaviy majburiyatlarini qoplay olish qobiliyati tushuniladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**31. Asosiy kapital bank umumiy kapitalining:**

- a) 25 foizidan kam bo'lmasligi kerak;
- b) 50 foizidan kam bo'lmasligi kerak;
- c) 33 foizidan kam bo'lmasligi kerak;
- d) 40 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

**32. Lahzalik likvidlik koeffitsiyenti:**

- a) bankning yuqori likvid mablag'larining joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi;
- b) bankning joriy to'lovlarni tezkorlik bilan amalga oshira olish qobiliyatini ko'rsatadi;
- c) g'aznadagi pul va korrespondentlik varaqasidagi mablag'larning joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**33. Quyida qayd qilingan formulalarning qaysi biri joriy likvidlik koeffitsiyenti deyiladi?**

- a)  $K = \frac{LA}{MM}$ ;
- b)  $K = \frac{PSHA}{JM}$ ;
- c)  $K = \frac{A}{D+BK}$ ;
- d)  $K = \frac{YK}{BK}$ .

**34. Bank aktivlarining sifati quyidagi qaysi mezonlar asosida aniqlanadi?**

- a) likvidlik;
- b) risklilik;
- c) daromadlilik;
- d)  $a + b + c$ .

**35. Tijorat banki balansining aktiv qismiga quyidagi fondlardan qaysilari kiradi?**

- a) ustav fondi;

- b) zaxira fondi;*
- c) kassadagi pul mablag‘lari;*
- d) foydalanilmagan foyda.*

**36. Tijorat banki balansining passiv qismiga quyidagi fondlardan qaysilari kiradi?**

- a) kassadagi pul mablag‘lari;*
- b) ustav fondi;*
- c) vakillik hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari;*
- d) majburiy zaxira fondi.*

**37. Bank balansining aktiv hisob qismida quyidagilardan qaysilari yoritiladi:**

- a) bank foydasi;*
- b) davlat budjeti daromadlari;*
- c) qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishidagi investitsiyalar;*
- d) depozitlarda qolgan mablag‘lar.*

**38. Bank balansining passiv hisob qismida quyidagilar yoritiladi:**

- a) bank jamg‘armalardagi naqd pullar;*
- b) bank kassalaridagi naqd pullar;*
- c) sotib olingan chet el valutalari;*
- d) davlat budjetiga qilingan sarf-xarajatlar.*

**39. Passiv hisoblarda:**

- a) bank resurslarining tarkibi va ularning qay tariqa joylashtirilgani ko‘rsatiladi;*
- b) bank rerurslarining shakllanish manbalari aks ettiriladi;*
- c) bankning boshqa banklar bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarga aloqador operatsiyalar qayd qilib boriladi;*
- d) xorijiy banklar bilan aloqalar aks ettiriladi.*

### **3.9. Nazorat uchun savollar**

1. Tijorat banki deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat bankining ustavi qanday bandlarni o‘z ichiga oladi?
3. Tijorat banki qanday vazifalarni bajaradi?
4. Banklar faoliyatida qanday tijorat qoidalariga rioya qilishi kerak?
5. Kaysi hollarda Markaziy bank tijorat banklarini ro‘yxatga olish va litsenziyalashni rad etadi?
6. Tijorat banklari uchun Markaziy bank tomonidan qanday

me'yorlar o'rnatilgan?

7. Tijorat banki tomonidan bank qonunchiligining buzilishiga yo'l qo'yilganda Markaziy bank qanday choralar ko'radi?

8. Qaysi hollarda tijorat bankining faoliyati to'xtatiladi?

9. Bank resurslari deganda nimani tushunasiz? Ular qanday tarkibga ega?

10. Bank kapitali deganda nima tushuniladi? Ular qanday turlarga bo'linadi?

11. Bank kapitalining eng kam darajasiga qanday talablar qo'yiladi?

12. Bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti qanday hisoblanadi? «Kuk koeffitsiyenti»chi?

13. Bank aktivi deganda nimani tushunasiz va u qanday tarkibga ega?

14. Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar qanday toifalarga bo'linadi?

15. Bank aktivining sifati qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?

16. Bank aktivlari qanday toifalar bo'yicha tasniflanadi?

17. Aktivlarning likvid va nolikvid ta'minotiga nimalar kiradi?

18. Qarzdorni baholashda qanday mezonlardan foydalaniladi?

19. Aktivlarni va passivlarni boshqarish deganda nimani tushunasiz?

20. Jahon bank amaliyotida aktiv va passivlarni boshqarishning qanday usullari mavjud? Ularning afzalliklari va kamchiliklari nimada?

21. Balansning buzilishi (disbalans) nima va u qanday boshqariladi?

22. Bank daromadi qanday manbalar evaziga shakllanadi?

23. Bank harajatlari qanday tavsiflanadi?

24. Marja foizi va u qanday tartibda hisoblanadi?

25. Bankning foydasi qanday tahlil qilinadi?

26. Qanday ko'rsatkichlar bank foydasining foydalilik darajasini tavsiflaydi?

27. Foydaning mutlaq hajmiga qanday omillar ta'sir o'tkazadi va ular qay tartibda tahlil qilinadi?

28. Bankning to'lov qobiliyati va likvidligi deganda nimani tushunasiz?

29. Tijorat banklarning real likvidlik darajasini baholashda qanday mezonlar asos qilib olinadi?

30. Bank likvidligini aniqlashda qanday ko'rsatkichlar hisoblaniladi?

31. Qanday normativlar bank tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan normativlar hisoblanadi?

32. Bankning likvidligi qanday talablarni qondiradigan darajada bo'lishi kerak?

33. Bank likvidligi qanday omillarga bog'liq?

34. Bank likvidligini boshqarish deganda nimani tushunasiz?

35. Likvidlikni boshqarish vositalari to'g'risida nimalar deya olasiz?

36. Likvidlik qanday baholanadi?

37. Qaysi hollarda bank likvid mablag'larga ehtiyoj sezadi?

38. Bank likvidligini tartibga solishda bank rahbariga qanday talablar qo'yiladi?

39. Jahon amaliyotida banklarning likvid mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini baholashning qanday usullari mavjud?

40. Zaxiralar manbayini tanlashda qanday omillarga e'tibor qaratmoq lozim?

41. Bankning moliyaviy hisoboti va ularning turlari to'g'risida nimalar deya olasiz?

42. Bank balansi qanday ko'rinishga ega? U qanday moddalardan iborat?

43. Bank balansining hisoblari (schyotlari) qanday turlarga bo'linadi? Balansning aktiv va passiv qismlarida qaysi moddalar muhim va qaysilari uncha muhim bo'lmagan moddalar hisoblanadi?

44. Bank balansi qanday bo'limlardan iborat?

45. Balansdan tashqari schyotlar qanday bo'limlarni o'z ichiga oladi?

46. Banklarda sintetik va analitik hisoblar qanday tashkil etiladi?

47. Bank balansi qanday tahlil qilinadi?

48. Qaysi operatsiyalar bank balansida qayd qilinmaydi? Nima uchun ular balansdan tashqari moddalar deyiladi?

49. Mablag'lar manbayi va ulardan foydalanish to'g'risida hisobot qanday ko'rinishga ega? U nima maqsadda tuziladi?

50. Aksionerlik kapitali to'g'risidagi hisobot qanday ko'rinishga ega?

51. Bankning joriy va yillik buxgalteriya hisobotlari tarkibiga nimalar kiradi?

52. Moliyaviy hisobot tahlilida rahbarlar nimalarga e'tibor qaratishlari lozim?


53. Bank hisobida xalqaro hisob andozalarini joriy qilishning qanday muammolari mavjud?

## 4-bob. TIJORAT BANKLARI OPERATSIYALARI

### 4.1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari

[121]. Bank resurslarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar banklarning **passiv operatsiyalari** deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv-passiv hisob raqamidagi pul mablag‘larining salmog‘i oshib boradi. Tijorat banklari passiv operatsiyalar yordamida kreditlash uchun zarur bo‘lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Passiv operatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin (27-chizma).



27-chizma. Passiv operatsiyalar.

Birinchi, ikkinchi operatsiyalar tufayli bankning **o‘z mablag‘lari** yuzaga kelsa, so‘nggi ikki operatsiya tufayli bankning **jalb qilingan resurslari** yuzaga keladi.

Banklarning o‘z mablag‘lari tarkibiga:

- bankning ustav kapitali;
- bankning zaxira kapitali;
- maxsus fondlar;
- moddiy rag‘batlantirish fondi;
- bankning taqsimlanmagan foydasi;
- boshqa har xil tashkil qilingan fondlar kiradi.

Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o‘z

mablag‘lariga to‘g‘ri keladi.

**Jalb qilingan mablag‘lar** tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi. Bular:

- depozitlar;
- kontokorrent;
- korrespondent schyotlaridagi mablag‘lardir.

**[122].** Depozit so‘zi lotincha **“depositum”** so‘zidan olingan bo‘lib, omonat, asrab qo‘yilgan degan ma‘nolarni beradi. Depozitlar – bu:

- bank va omonat kassalarga qo‘yilgan omonatlar;
- mijozlarning bankka muayyan talablarini tasdiqlovchi, bank daf-taridagi yozuvlar;
- kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qo-g‘ozlar (aksiyalar va obligatsiyalar);
- bojxona muassasalariga boj va bojxona yig‘imlari tarzidagi to‘lovlar uchun oldindan berilgan badallar;
- sud va ma‘muriy muassasalarga da‘voni va sudga kelishini ta‘-minlash maqsadida o‘tkaziladigan pul badallari.

Demak, depozit banklarda saqlash uchun topshirilgan pul mab-lag‘lari yoki qimmatli qog‘ozlardir.

**Depozitlar** – xo‘jalik subyektlari va xususiy shaxslarning pul mab-lag‘lari yoki qimmatli qog‘ozlarini talab qilinishi bilanoq shartnoma asosida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to‘langan yohud bunday to‘lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan saqlash uchun bankka qo‘yiladigan omonatlardir. Depozitlar banklarning kredit berish, faktoring operatsiyalari o‘tkazish, investitsiyalarni amalga oshirishda foy-dalaniladigan ssuda fondini tashkil qilish manbayi hisoblanadi.

**[123].** Depozitlarning quyidagi turlari mavjud:

- talab qilib olinguncha depozitlar;
- jamg‘arma depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- jamg‘arma (depozit) sertifikat;
- boshqa depozitlar.

**Talab qilib olinguncha depozitlar** yuridik va jismoniy shaxs-larning kundalik maqsadlari uchun xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin bo‘lgan (talab qilib olinguncha hisobvaraqlardagi) mablag‘-lardir. Bank o‘z omonatchilarining birinchi talabiga ko‘ra



ularning to'lovlar bo'yicha topshirig'ini bajarishi lozim.

Talab qilib olinguncha depozitlar mijozning topshirig'iga ko'ra, shartnomaning oldindan kelishilgan shartlari asosida ushbu mijozning boshqa turdagi depozitlariga o'tkazilishi mumkin. Bu depozitlar bankning jalb qilingan mablag'larining salmoqli ulushini egallaydi. Ular bankning eng arzon resurslari hisoblanadi. Mijozning har qanday vaqtda ogohlantirmasdan bu mablag'larni olishi ehtimoli bankdan yuqori likvidlikni saqlash uchun doimo yetarli mablag'larni kam likvidli, lekin yuqori daromad keltiruvchi mablag'lar hisobiga zaxirada saqlab turishni talab qiladi. Shu sababli, bank o'z omonatchilariga anchagina past foiz to'laydi. Depozitlarning harakatchanligi yuqori bo'lishiga qaramasdan, bank ulardan kredit berishda foydalanadi.

**Jamg'arma depozitlarning** boshqa depozitlardan ajralib turadigan xususiyati shundaki, bank omonatchiga omonat daftarchasi beradi. Jamg'arma depozitlar davriy badallar asosida shakllanib, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun depozit hisobvaraqda, ma'lum miqdorda pul summasini jamlash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar nomiga ochiladi. Agar shaxs nomiga berilgan omonat daftarchasi yo'qolsa, yoki taqdim etish uchun yaroqsiz holga kelib qolsa, bank omonatchining arizasiga ko'ra unga yangi omonat daftarchasini beradi.

**Muddatli depozitlar** – yuridik va jismoniy shaxslarning shartnomada qat'iy kelishilgan muddat va unda ko'rsatilgan foizlarni to'lashga doir mablag'laridir.

Muddatli depozitlar quyidagi muddatlar bo'yicha tasniflanadi:

- muddati 30 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 90 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 180 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 365 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 365 kundan ortiq bo'lgan depozitlar;

Agar muddatli depozit muddati o'tgandan keyin mijoz tomonidan talab qilib olinmasa, shartnomada boshqa hollar ko'zda tutilmagan taqdirda, asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Muddatli depozitlar ikki xil bo'ladi:

- xususiy muddatli depozitlar;
- avvaldan ogohlantirish sharti bilan qo'yiladigan muddatli depozitlar.

**Xususiy muddatli depozit** omonatchi tomonidan bank ixtiyoriga

shartnoma asosida ma'lum muddatga butunlay beriladi. Muddat tugandan so'ng, qo'yilma omonatchi tomonidan xohlagan vaqtda olinishi mumkin. Bunday depozit uchun to'lanadigan foiz depozitning muddati, hajmi va omonatchi tomonidan shartnomaning bajarilishiga bog'liq.

**Avvaldan ogohlantirish sharti bilan qo'yilgan muddatli depozitni** olish uchun shartnomaga ko'ra, omonatchi qachon va qancha miqdorda mablag'ini olishi haqida bankka xabar berishi lozim. Xabar berish muddatiga ko'ra, omonatga foiz o'rnatiladi. Muddatli depozitlarning hajmi shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida o'zgartirilmaydi. Bu depozitlardan joriy hisob-kitoblar, to'lovlar uchun foydalanilmaydi.

**Jamg'arma (depozit) sertifikat** – bu bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining sertifikatni bergan bankdan yoki uning har qanday bo'limidan belgilangan muddat tugandan keyin, omonat miqdorini va sertifikatda shartlashilgan foizlarini olish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Jamg'arma (depozit) sertifikatni taqdim etiladigan yoki egasi ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Jamg'arma (depozit) sertifikatni muddatdan oldin taqdim etilgan hollarda, agar depozit shartlariga ko'ra, foizlarning boshqa miqdori belgilanmagan bo'lsa, ushbu bank sertifikatini bo'yicha talab qilib olinguncha depozitlar uchun to'lanadigan omonat miqdorini va foizini to'laydi.

Ko'pgina banklarda keyingi vaqtlarda mijozlar orasida muddatli depozitlarga bo'lgan qiziqish juda ortdi va depozitlar umumiy qo'yilmalar hajmining 80 foizini tashkil qilmoqda. Muddatli depozitlarning turlari orasida yuqori daromadli jamg'arma qo'yilmalari, ayniqsa, bozor sharoitidagi o'zgarishlar tufayli omonatchilar daromadlarining ortib borishiga qattiq ta'sir ko'rsatuvchi pul bozoridagi depozitlar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Oddiy, talab qilib olinguncha depozitlar hajmi esa keskin qisqardi.

Pulning qadrsizlanishi, pul muomalasining buzilishi, raqobatning kuchayishi hamda mijozlar bilimi va saviyasining ortishi banklar xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan depozitlar tarkibining anchagina o'zgarib ketishiga olib keladi. Hozirgi davrda jahon amaliyotida keng tarqalgan asosiy depozitlarning ikkinchi turi **xorijiy davlatlar, u yerdagi biznesmenlar va fuqarolar** depozitlaridir. Depozitlarning bunday turlari mamlakatimiz bank tizimi amaliyotida hali uncha keng qo'llanilmaydi. Lekin bunday depozitlar haqida bilimga ega bo'lish foydadan xoli emas.

Bunday depozitlar hajmining tez o'sib borishi, jahon savdosining rivojlanishi va xorijiy investitsiyalarning oshishi bilan bog'liq. Lekin

keyingi paytlarda bunday depozitlarning hajmi qisqarib bormoqda. Bunga sabab mamlakat ichidagi depozitlarga qo'yiladigan foiz stavkalarining omonatchilar uchun ancha qulay bo'lib borayotganidir.

Asosiy depozitlarning yana bir turi **boshqa bank qo'yilmalaridir**. Bularga vakillik xizmatlari haqlarini to'lash maqsadida bir-birlarining banklaridagi hisobvaraqlarda saqlaydigan mablag'lar kiradi.

Boshqa banklar mablag'larini o'zida saqlaydigan bank bu mablag'larni o'z balansida «**loro**» hisob raqami bo'yicha qarz deb hisoblaydi (mazkur bankning vakillik hisob raqamidagi qoldiq). Boshqa bankda o'z mablag'ini saqlab turgan bank esa o'z balansida ularni «**nostro**» hisoblash raqami bo'yicha aktiv deb belgilaydi (vakil banklarda).

**[124]. Depozit sertifikat** kredit muassasasining omonatchiga depozitni olish huquqini tasdiqlovchi, pul mablag'lari deponent qilinganligi haqidagi yozma guvohnomasidir. Boshqacha qilib aytganda, depozit sertifikat – kredit muassasasining pul mablag'ini saqlashga topshirilganligi haqida omonatchining depozitni olish huquqini tasdiqlovchi yozma guvohnomasi.

**Depozit banki** – pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa boyliklarni saqlash bilan shug'ullanuvchi bank.

**Depozit indossamenti** – depozitlarni boshqasiga o'tkazish haqidagi o'tkazma xat.

**Depozit muassasasi** – pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa boyliklarni saqlash bilan shug'ullanuvchi muassasa. Depozit muassasalarining umumiy xususiyati shundan iboratki, ular chek yoki jamg'arma hisobvaraqlarini ochish yo'li bilan mablag'larni jalb qiladi hamda ulardan turli xil kreditlar berish, hukumat va korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlarini olishda foydalanadi.

Depozit moliya muassasalari ikkita katta toifaga bo'linadi:

- tijorat banklari;
- bank bo'lmagan depozit muassasalar.

Bank bo'lmagan depozit muassasalari o'z tarkibiga jamg'arma-kredit uyushmalarni, kredit uyushmalarini va o'zaro pul fondlarini oladi.

**Jamg'arma-kredit uyushmalar** jamg'arma hisobvaraqlarini ochish yo'li bilan mablag'larni jalb qiladi hamda ulardan aniq maqsadga mo'ljallangan garovli kreditlar berishda foydalanadi. G'arbda jamg'arma-kredit uyushmalarga o'xshash **o'zaro jamg'arma banklari** keng tarqalgan, biroq ularning farqi shundaki, bunday banklarning xizmatidan

mayda omonatchilar foydalanadi. Odatda ular omonatlarning eng yuqori chegarasini belgilab qo'yib, omonatlarning barqaror ravishda oqib kelishiga umid bog'laydi.

**Kredit uyushmalar** nisbatan mayda jamg'arma-kredit muassasalar bo'lib, iste'mol kreditlarini berishga yo'naltirilgan. Ular diniy tashkilotlar, kasaba uyushmalari va shunga o'xshash tuzilmalar tomonidan tashkil etiladi. Kredit uyushmalar o'z a'zolarining jamg'arma hisobvaraqlarini ochadi hamda qarzni ham faqat o'z a'zolariga beradi, ya'ni kredit uyushmalar omonatchilar tomonidan «**jamoatchilik asosida**» idora qilinadi.

**O'zaro pul fondlari** foizlar bilan to'lanadigan omonatlarni qabul qiladi, buning uchun mijozlarga chek yozib berishi mumkin. Chek bo'yicha qo'yilgan omonat summasi kabi hajmi ham ma'lum darajada chegaralangan bo'ladi.

Moliya muassasasining bunday turi ko'p minglab omonatchilarning mablag'larini jalb etadi hamda hosil bo'lgan fond daromad keltiradigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun ishlatiladi. Sanab o'tilgan moliya muassasalaridan farqli o'laroq, o'zaro pul fondlaridagi omonatlar sug'urta qilinmaydi, biroq ularning aktivlari (omonatchilarning mablag'iga sotib olingan qimmatli qog'ozlar) yuqori likvidli bo'lgani sababli katta foizlar olib keladigan yetarli darajada ishonchli jamg'arma vositasi hisoblanadi.

**Depozit multiplikatori** – bankka qo'yilgan mablag'larning har bir pul birligidan ko'riladigan umumiy daromad hajmining o'zgarishini tavsiflovchi ko'rsatkich. Bank tizimining bir qadar qiziqarli xususiyati shundan iboratki, aytaylik, agar alohida tijorat banki o'zidagi mavjud zaxira hajmidagina ssuda bersa, butun bank tizimi uning zaxirasidan bir necha barobar ortiq miqdorda ssuda taqdim etishi mumkin.

Bunday hodisa depozitlarning multiplikatsiya tarzida kengayishi (ko'p karrali omonatlar orqali kengayish) degan nom olgan.

[125]. **Depozitariy** depozitlarni saqlash uchun ishonib topshirilgan huquqiy shaxs. **Depozitariy bank** deganda depozitlar (qimmatli qog'ozlar)ni saqlash uchun ishonib topshirilgan bank tushuniladi.

Fond boyliklarini saqlash vazifasini amalga oshirishga zamonaviy yondashuv uning ixtisoslashgan tashkilotlar – depozitariylarda markazlashuvini taqozo etadi. Bunday markazlashuv qimmatli qog'ozlar aylanishida xizmat ko'rsatishga ketadigan xarajatlarni kamaytiradi, hisobga olishni soddalashtiradi va tezlashtiradi. Markazlashgan depozitariy mavjud bo'lgan taqdirda qog'ozlarning oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar sertifikatlarini

tashib o‘rin almashtirish va kuzatib borishga hojat qolmaydi.

Depozitariyning asosiy vazifasi qimmatli qog‘ozlar sertifikatlarini saqlash va (yoki) qimmatli qog‘ozlarga egalik huquqini hisobga olish bo‘yicha xizmat ko‘rsatishdan iborat.


Qimmatli qog‘ozlarni saqlash va ularga egalik huquqini hisobga olishda depozitariy xizmatlaridan foydalanuvchi shaxs **deponent** deb yuritiladi.

Depozitariy va deponent o‘rtasida tuzilgan ularning depozitariy faoliyatiga oid munosabatlarni tartibga solib turadigan shartnoma depozitar shartnoma (depo hisobvarag‘i haqida shartnoma) deyiladi. Depozitor shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Depozitariy faoliyatini faqat:

- yuridik shaxslar;
- fond birjalari (birjalarning fond bo‘limlari);
- investitsiya muassasalari (investitsiya bo‘yicha maslahatchilar, investitsiya fondlaridan tashqari);
- mutlaq depozitariy faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ixtisoslashgan depozitariylar amalga oshiradi.

Depozitariyning yaxlit faoliyatini shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin (28-chizma).



**28-chizma.** Depozitariyning bajaradigan ishlari.

Depozitariyning asosiy faoliyati «**depo**» hisobvaraqlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish hamda chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni depozitariy ro‘yxatidan o‘tkazishga qaratilgan.

«Depo» hisobvaraqlari bilan bo‘ladigan operatsiyalar uchun depozitariyda qabul qilingan baholarda mijozdan haq undiriladi, u depozitariy kassasi orqali hisob-kitob varag‘iga kelib tushadi.

1994-yil aprel oyida O‘zbekistonda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati sifatida «Vaqt» milliy depozitariysi tashkil etildi. Uning ta’rischilari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi, «O‘z-moliyainvest» aksiyadorlik jamiyati, SAMTU «Granit», «Toshkent» respublika fond birjasi hisoblanadi. «Vaqt» AJ aksiyadorlari orasida «Turon» aksiyadorlik tijorat banki, Rossiyaning «Rinako» depozitariysi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bor.

Milliy depozitariyning asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘yicha muomaladagi qimmatli qog‘ozlarni hisobga olinishi, saqlanishi hamda harakat qilishini ta’minlashdan iborat.

Milliy depozitariy quyidagi ishlar bilan shug‘ullanadi:

bozorda muomalada bo‘ladigan jami chiqariladigan qimmatli qog‘ozlarni hisobga olish;

aksiyadorlar reyestrlarini yagona texnologik tartibda yuritish;

qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini naqdsiz shaklda rasmiylashtirish;

qimmatli qog‘ozlar emissiyasi naqdsiz joylashtirilayotganda ularni soxtalashtirish va yo‘qotishdan yuz foiz muhofazalash kafolati;

qimmatli qog‘ozlarga egalikdan kelib chiqadigan huquqlarni (sotish, sovg‘a qilish, garovga qo‘yish, meros qilib qoldirish) amalga oshirish yuzasidan topshiriqlarni bajarish;

O‘zbekiston Respublikasidagi emitentlar tomonidan chiqarilgan yoki chiqarilishi ko‘zda tutilayotgan qimmatli qog‘ozlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritish kvotalaridan foydalanishni hisobga olish.

Hozirgi paytda milliy depozitariy quyidagilarni shakllantirish ustida ish olib bormoqda:

elektron pochta tizimi;

yirik kompyuter tarmoqlarida elektron imzo va kript himoya tizimi;

elektron shakllar yordamida ma’lumotlarni elektron ayirboshlash tizimi;

abonent o‘rinlaridan foydalanish;

elektron pochta tizimlar.

Milliy depozitariy boshqa depozitariylar bilan vakillik munosabatlari o‘rnatgan.

Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlarning muomalada bo‘lishini tezlashtirish hamda aholi mablag‘larini xususiylashtirish jarayonlariga

jalb qilish maqsadida milliy depozitariy tomonidan tanlov asosida davlat mulkining opsion savdosi dasturi ishlab chiqilgan.

Emissiyani joylashtirish va hisobvaraqlar bo'yicha o'tkazishda aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida Milliy depozitariy respublikaning barcha viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'zining filiallari va ro'yxatga olish punktlarini ochgan.

[126]. Jahon banklari amaliyotida banklar, odatda, arzon depozitlarni jalb qilish va ularni sotish orqali daromad olishga harakat qiladilar. Aholining chek ko'rinishidagi depozitlari, shu jumladan, oddiy foizsiz depozitlari eng arzon depozitlar hisoblanadi.

Bunday chek depozitlari bilan ishlash va ularni hisobga olish katta xarajatlarni talab qilgani bilan, mijozlar juda kam foiz daromadlari (ba'zida esa umuman foyda olmaydilar) oladilar. Bu esa bankka jalb qilinadigan boshqa mablag'lar manbalariga qaraganda uning xarajatlari kamaytiradi.

Fuqarolarga beriladigan chek depozitlarga nisbatan tijorat firmalariga beriladigan chek depozitlari banklar uchun ancha arzonga tushadi. Chunki tijorat firmalariga beriladigan chek depozitlar xarajati xususiy shaxslarga beriladigan chek depozitlar xarajatining yarmini tashkil qiladi. Bundan tashqari, xususiy shaxsning chek depoziti hajmi tijorat firmasining chek depoziti hajmining 1/3 qismidan oshmaydi. Lekin banklar va moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi firmalar o'rtasidagi chek depozitlari bo'yicha raqobatning kuchliligi tufayli banklar bunday depozitlardan keladigan sof daromadni uncha katta deb hisoblamaydilar.

Muddatli depozitlar, nafaqa hisobvaraqlari, depozit sertifikatlari va pul bozoridagi hisob raqamlar, ularga mablag'lar qo'yish yoki ulardan olish yuzasidan kam muddatli depozitlar va pul bozoridagi hisobvaraqlariga o'rnatiladigan foiz stavkasining ancha yuqori bo'lishi tufayli ular jamg'arma qo'yilmalar bilan tenglashib qoladi. Yirik bo'lmagan banklar yirik banklarga qaraganda jamg'arma depozitlar va pul bozoridagi hisobvaraqlar bo'yicha katta xarajatlarni qilsa ham, muddatli depozit va nafaqa hisobvaraqlari bo'yicha qilinadigan xarajatlari, yirik banklarga qaraganda ancha kam bo'ladi.

Banklarning maqsadi ancha arzon depozitlarni jalb qilishdan iborat bo'lgani bilan, qanday depozitlarni taklif qilish mijozlarga bog'liq. Mijozlar talablari bilan kelisha olmaydigan banklar ularning talablarini bajarishga rozi bo'lgan banklar foydasiga mijozlarini yo'qotadilar.

[127]. Depozitlar bo'yicha xizmatlarning qiymatini belgilash bank boshqaruvchisi uchun murakkab muammo hisoblanadi. Chunki ko'proq mablag' talab qilish maqsadida mijozlar depozitlarni sotish orqali ulardan yaxshi daromad olishni ham ko'zlaydilar. Albatta, bu faoliyatni amalga oshirishdagi kuchli raqobat bank daromadiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kuchli raqobat tufayli depozitlarga bahoni alohida bir bank emas, balki bozor o'rnatadi. Bunday sharoitda boshqaruvchi bozor o'rnatgan foiz stavkasidan foydalanib, ko'proq depozitlarni jalb qilish yoki qat'iy o'rnatilgan foiz stavkasi negizida ko'proq depozitlarni jalb qilish yohud o'rnatilgan foiz stavkalaridan kam miqdordagi foiz stavkalarini taklif qilish bilan depozitlar hajmini kamaytirish ma'qulligi to'g'risida bir qarorga kelishi lozim. Chunki bunda boshqaruvchi daromadlilik yoki o'sishni tanlaydi. Qimmat depozitlarning ko'p hajmda jalb qilinishi bankning o'sishini ta'minlaydi, lekin bank daromadi hajmi pasayadi.

Hozirgi paytda depozitlarni baholashning bir qancha usullari mavjud:

- 1) «xarajat + daromad»;
- 2) depozitlarga eng yuqori hajmdagi xarajatlarga asoslangan holda foiz stavkasini o'rnatish;
- 3) alohida qo'yilmalarga o'rnatilgan foiz stavkalarini guruhlariga bo'lish;
- 4) depozitlar bozoriga kirib borish maqsadida foiz stavkasi o'rnatish;
- 5) yuqori daromadli mijozlarni jalb qilish maqsadida depozitlarga qiymat o'rnatish;
- 6) mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlar soni va turiga qarab depozitlarga foiz stavkasi o'rnatish (qiymatni o'rnatishning ko'p omilli usuli);
- 7) bankning o'z maqsadlariga erishishini ko'zlab, depozitlarga baho o'rnatish usuli.

Hozirgi davrda mijozlarning alohida depozitlar bo'yicha xizmatlardan foydalanish darajasiga qarab xizmat haqlari o'rnatish usuli keng qo'llaniladi.

[128]. Yirik hajmdagi DS – rasmiy depozit, lekin amaliyotda qarz bo'yicha berilgan «tilxat»ning bir turidir. Bu tilxat foydalanilmayotgan ortiqcha mablag'ga ega yirik kompaniyalardan, yuqori daromadli shaxslardan va nihoyat, Markaziy bankdan ma'lum bir muddatga ma'lum miqdorda qarz olish uchun beriladi. **DS** – foizli tilxat bo'lib, olinayotgan qarzning muddati va hajmiga qarab, kelishilgan holda foiz



stavkasi oʻrnatiladi. Yirik hajmdagi DSLaridan qisqa muddatlarda, asosan bir haftadan to bir yilgacha muddatlarda foydalaniladi. Uning afzalligi shundaki, bunday DSni roʻyxatdan chiqarish muddati kelguncha ikkilamchi bozorda bir necha marta sotilishi mumkin. Shuning uchun ham, uni «oʻtkazma» DSsti deyiladi. Foiz stavkasi oʻrnatilgan DSLari barcha yirik hajmdagi DSLarning 4/5 qismini tashkil qilib, ularni chiqarishdan asosiy maqsad, foiz daromadi olishdir.

Masalan, agar bank 100 000 dollarlik qiymatga ega olti oylik DS ni sotib oluvchi xaridorga yillik 8% miqdorida foiz stavkasi vaʼda qilsa, depozitor 6 oydan soʻng quyidagi mablagʻga ega boʻladi.

$$\text{Xaridorga toʻlanadigan summa} = \text{Asosiy summa} + \left( \text{Asosiy summa} \cdot \frac{\text{Hisobdan chiqquncha kunlar soni} \cdot \text{Yillik foiz stavkasi}}{\text{Bir yildagi kunlar soni}} \right)$$

Misolimizda:

$$\text{Xaridorga toʻlanadigan summa} = 100000 + 100000 \cdot \frac{180 \text{ kun} \cdot 0,08}{360} = 104000 \$$$

Demak, xaridor 6 oyda 4000 dollar foyda topadi. Hisobdan chiqarish muddati bir yildan ortiq boʻlgan DSLaridan depozitor har 6 oyda foiz daromadi oladi.

Depozit bozorining 20 foizini tashkil qiluvchi oʻzgarib turuvchi foiz stavkasi bilan chiqarilgan DSLari maʼlum bir muddat ichida qayta koʻrib chiqiladi.

Yangi foiz stavkasi depozitlarning ikkilamchi bozorida qoʻllanilayotgan foiz stavkasi asosida yoki banklararo oʻrnatiladigan «libor» foiz stavkasi asosida oʻrnatiladi.

DSLarini sotuvchi bank foyda keltiruvchi qarz mablagʻlariga ega boʻladi, chunki depozitlar uchun rasmiy zaxira talablari oʻrnatilmagan. Yirik banklarning chek hisob raqamlari uchun esa 10 foizlik zaxira talablari oʻrnatilgan.

Bundan tashqari, DSLarining hisobdan chiqarish muddatlari turlicha boʻlgani va bu muddatdan oldin hisobdan chiqarish qonun bilan taqiqlanganligi tufayli, bank depozitlarining mustahkamligi va barqarorligi taʼminlangan. Lekin yirik hajmdagi DSLarning foiz stavkasi oʻzgarishiga boʻlgan sezuvchanligi yuqori boʻlganligi tufayli bunday DS

laridan muntazam foydalanuvchi banklar daromadining doimo mustahkam bo'lishini ta'minlash maqsadida ish olib borishlari (hatto foizlarni sug'urtalash usullaridan foydalanishlari mumkin) lozim.

**[129].** Depozitlar bank mablag'larini tashkil qilishning asosiy manbayidir. Ammo bankning kreditlari va investitsiyalarini qoplash uchun depozitlar hajmi yetarli bo'lmasa, bank boshqaruvchisi qanday tadbirlarni amalga oshirishi lozim, degan savol yuzaga keladi. Bunda bank o'z mablag'larini nodepozit qo'yilmalar hisobiga to'ldiradi.

Hozirgi vaqtda jahon amaliyotida nodepozitlarning quyidagi turlari bank mablag'lari manbayining asosiylari hisoblanadi:

- kapital bozoridagi yirik hajmdagi qisqa muddatli depozit sertifikatlari;
- banklararo depozitlar;
- qayta sotib olish sharti bilan banklarning qimmatli qog'ozlari hisobidan ularga Markaziy bank tomonidan beriladigan qarzlari;
- kliring chek hisobvaraqlari.

Bank boshqaruvchisi bank mablag'larini tashkil qilish bilan passivlarni boshqaradi. Shu maqsadda boshqaruvchi mijozlar talabini qondirish uchun qancha miqdorda va muddatga depozit mablag'lar kerakligini, uning qaytarilishini ta'minlashni hisoblab chiqishi lozim.

Bu o'rinda Markaziy bankning qisqa muddatli qarzlari ancha qo'l keladi. Chunki bu qarzlari Markaziy bankning boshqa banklar mablag'lari jamlanib, saqlanadigan majburiy zaxiralar fondidan olinadi.

## **4.2. Tijorat banklarining investitsion funksiyalari**

**[130].** Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni olib borishdan asosiy maqsad bank daromadlilikini va likvidligini ta'minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsiya siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidligini ta'minlash uchun qaratilgan.

Banklarning investitsion faoliyati turli xil qimmatli qog'ozlarga, ya'ni:

- oddiy va imtiyozli aksiyalarga;
- obligatsiyalarga;
- davlat qarzdorlik majburiyatlariga;
- depozit sertifikatlariga;
- veksel va boshqalarga mablag'larini qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy negizini tashkil etar ekan, o'z navbatida bu takror ishlab chiqarishga investor (subyektlar) investitsiya resurslarini iqtisodiyot sohalariga (obyektlarga) o'z ko'zlagan maqsadni asosan daromad (foyda) olish yoki iqtisodiy samaraga erishish uchun joylashtiradi va investor amalga oshirgan bunday faoliyatni investitsion faoliyat deb yuritiladi. Bu faoliyat jarayonini quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (29-chizma).

Bugungi sharoitda investitsion faoliyatda banklar ishtirokini yanada oshirishni talab qiladi. Shuning uchun ham, Prezidentimiz I.A. Karimov «Banklar investitsiya jarayonining asosiy bo'g'iniga, korxonalarining chinakam hamkoriga aylanmog'i, binobarin, ularning rivojlanishidan manfaatdor bo'lmog'i lozim»<sup>1</sup> – deb ta'kidlab o'tgan edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar investitsion faoliyatning eng faol ishtirokchilaridan biri sifatida quyidagi faoliyatlarning u yoki bu turlari bo'yicha ishtirok etmoqdalar:

- investorlarga tegishli hamda investitsion maqsadlarga yo'naltiriladigan mablag'lar harakati bo'yicha moliyalashtirish hisobvaraqlari ochish va ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- foyda olish va bank likvidligini oshirish maqsadida o'z va jalb qilingan mablag'larni davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarga qo'yish;

- o'z va jalb qilingan mablag'larni investitsion loyihalarga bevosita qo'yish, ya'ni xo'jalik subyektlarining investitsion faoliyatini kreditlash;

- qimmatli qog'ozlar sotib olish orqali korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish.

Investitsion faoliyatni bank kreditlari orqali faolligini oshirish uchun quyidagi tadbirlardan to'la foydalanish lozim.

- banklarda kredit turlari (lizing, sinditsit va boshqalar)ni ko'paytirish;

- banklarning to'lovga qobiliyatligi va ishonchliligini oshirish;


- bank depozitlari uchun majburiy zaxiralar me'yorini pasaytirish;

- hukumat qarorlari asosida amalga oshiriladigan dasturlar natijasida bank tomonidan ko'rilgan zararlarni budjet hisobidan qoplash;

- omonatlar va investitsiya kreditlaridagi foiz stavkalari o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va h.k.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. – 57-bet.



**29-chizma.** Investitsion faoliyat.

[131]. Investor investitsion faoliyatni amalga oshirishda sarflanayotgan mablag'larni qaytishi va unga nisbatan olinadigan daromad muhim hisoblanadi. Bu esa investor uchun yaratilgan

sharoitlarga bogʻliq. Ushbu sharoitlarning umumlashgan majmuyini investitsion iqlim deb yuritiladi.

**Investitsion iqlim** juda keng tushuncha boʻlib, u xususiy investorlarga nisbatan, mahalliy xoʻjalik subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan investorlarga nisbatan (mikro darajada) yoki chet el investorlariga (makro darajada) nisbatan farqlab qoʻllaniladi. Investitsion iqlim investorning samarali faoliyat yuritishi uchun maʼlum omillarning umumlashgan yigʻindisidan tashkil topadi. Investitsion iqlimga taʼsir etuvchi omillarni ijobiy va salbiy taʼsiriga koʻra guruhlash mumkin (30 - chizma).

Chet el investitsiyasini jalb qilishda investitsion iqlimning ijobiy boʻlishi juda ham muhim. Shu bois:

□ mamlakatning hududiy va tarmoq tizimini takomillashtirish nuqtayi nazardan investitsiyalashga taʼsir etuvchi omillarni muvofiq- lashtirgan holda qulay investitsion muhitni yaratish;

□ chet el investitsiyasini jalb etuvchi xoʻjalik subyektlarida mulk qiymatidan toʻlanadigan imtiyozli soliq stavkasini oʻrnatish orqali ularning mol-mulkini qisqa muddatda qayta baholashga qiziqtirish;

□ chet el investitsiyasini jalb etuvchi hamda shu asosda tovar eksporti qilishni koʻpaytiruvchi korxonalar uchun imtiyozlarni kengaytirish;


□ investitsion loyihalarni iqtisodiyotni makro va mikro darajasidagi ehtiyoj va imkoniyatlarni hisobga olib ishlab chiqish asosida xalqaro moliya muassasalarini Respublikamizda ochgan kredit liniyalarini toʻla- toʻkis foydalanishni taʼminlash;

□ mahalliy «masʼul» muassasalarning chet el investitsiyalarini hududlarga jalb qilishdagi faolligini oshirish;

□ chet el investitsiyalarini tez qaror qabul qilishlari uchun hisob va hisobot tizimi samaradorligini oshirish kabi qoʻshimcha tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun sarflanayotgan mablagʻlarni moliyalashtirish manbalari muhim hisoblangani uchun ushbu manbalar hisobidan erishiladigan moliyaviy natijalarga nisbatan samaradorlikni baholash maqsadga muvofiq. Yaʼni korxonalar xususiy sarmoyasi va tashqi sarmoya hisobidan erishiladigan samaradorlikni hisoblash zarur. Ushbu samaradorlikning oʻzgarishiga (oʻsishi yoki kamayishiga) uchta omil: moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari (xarajatlar) taʼsiri muhim

hisoblanadi.



**30-chizma.** Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar.

[132]. Bankning asosiy vazifalaridan biri kredit berishdir. Banklar kredit berish orqali kichik va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtiradilar. Ular esa, o'z navbatida, bu mablag'larni investitsiyalarga jalb qiladilar. Mablag'larning investitsiyaga jalb qilinishi natijasida mazkur hududda ish joylari tashkil qilinib, yuzlab kishilar ish bilan ta'minlanadilar. Ish bilan ta'minlanganlarning ko'pchiligi ushbu bankning mijozlari bo'lmasa ham, bankning kredit faoliyatidan o'zlarining investorlari orqali foydalanadilar. Biroq bankning hamma mablag'lari ham kreditlar

uchun yo'naltirilishi mumkin emas. Bank aktivlarining katta qismi nolikviddir, ya'ni bank naqd pulga muhtoj bo'lganda bank aktivlarini tezda sotish imkoniyati doimo bo'lavermaydi. Bundan tashqari, kreditlar o'z vaqtida va to'liq qaytmaslik ehtimoli mavjud bo'lganligi tufayli ular yuqori xatarli aktivlar qatoriga kiradi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, banklar o'zlarining aktivlar portfelining ko'p qismini daromadli aktivlar turi bo'lgan qimmatli qog'ozlarga yo'naltiradi. Qimmatli qog'ozlarga veksellar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari va aksiyalar kiradi. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar:

- bank daromadining barqarorligini ta'minlaydi, ya'ni bankning kreditlar bo'yicha daromadi pasayganda qimmatli qog'ozlardan olgan daromadi oshishi mumkin;

- bankning kredit portfeli bo'yicha yo'qotish xavfini yumshatadi, ya'ni yuqori sifatli qimmatli qog'ozlar bankning kredit bo'yicha xatar darajasini pasaytirish maqsadida sotib olinib, saqlanishi mumkin;

- moliyaviy xatarni kamaytirish maqsadida turli hududlar va tarmoqlarga tegishli qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni yo'naltirishga imkon tug'diradi, ya'ni bank qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lganda qimmatli qog'ozlarni sotib, kerakli pul mablag'lari bilan ta'minlanishi yoki qarzga pul olayotganida garov sifatida foydalanishi mumkin;

- likvidlikni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi;

- bankka solinadigan soliq miqdorini kamaytirish imkonini beradi, ya'ni bu bilan bank soliq to'lovlarini qimmatli qog'ozlar hisobiga kamaytirishi mumkin;

- bankda saqlanayotgan davlat va hukumat depozitlarini ta'minlovchi garov sifatida foydalanish imkonini beradi;

- bozordagi foiz stavkalarining o'zgarishi tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlardan bankni sug'urtalash imkoni tug'iladi;

- bankning aktivlar portfeli va uning egiluvchanligini ta'minlash imkoniyati bo'ladi, chunki bunda bank o'z aktivlari tuzilmasini joriy bozor talablariga muvofiq o'zgartirish uchun investitsiyaga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarni boshqa kreditlarga qaraganda tezda sotishi yoki sotib olishi mumkin;

- bankda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlarning yuqori sifatli tufayli bank balansi moliyaviy ko'rsatkichlarining yaxshilanishini ta'minlaydi.

**[133].** Investitsion funksiyalarni bajarishda quyidagilar asosiy vosita hisoblanadi:

- xazina veksellari;
- qisqa muddatli xazina majburiyatlari va obligatsiyalari;
- depozit sertifikatli;
- davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari;
- yevrodollarli depozit sertifikatlar;
- bank akseptlari;
- korporativ veksellar va obligatsiyalar;
- garov bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar;
- hosilaviy qimmatli qog'ozlar – fyuchers, opsiya, varrant va boshqa qimmatli qog'ozlar.

**[134]. Xazina veksellari** – davlatning xazina majburiyatlari bo'lib, 3, 6 va 12 oylik to'lov muddatlari bilan chiqariladi. Ularni tezda sotish mumkin. Xazina veksellaridan qayta sotib olish sharti bilan kredit olish uchun garov sifatida ham foydalanish mumkin. Ular nominal qiymatiga nisbatan diskont bilan kafolatlangan foiz stavkasiz muomalada bo'ladi va investor vekselni hisobdan chiqarish vaqti kelganda uning narxi oshishi hisobiga daromad oladi.

**Xazina majburiyatlari va obligatsiyalari** esa xazina veksellaridan farq qilib, uzoq muddat davomida, ya'ni bir yildan o'n yilgacha muddatda muomalada bo'ladilar. Bu qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish muddatiga bir yil qolganda ulardan moliya bozorining vositasi sifatida foydalanish ham mumkin. Ularning foiz riskiga bo'lgan sezuvchanligi yuqori bo'lib, o'zlari sust likvid bo'lishiga qaramasdan xazina veksellariga qaraganda yuqori daromadli bo'ladi. Bu qimmatli qog'ozlar kuponli vositalar hisoblanadi, qimmatli qog'ozlar bozor narxining o'zgarib turishiga qaramasdan investor mo'ljallagan daromadni oladi. Bu kuponlar bo'yicha har yarim yilda foiz to'lovlari to'lanadi.

**[135]. Sertifikat** – omonatchiga belgilangan muddat o'tgandan so'ng depozit va uning foiz to'lovini olish huquqini beruvchi yozma hujjatdir. Bank uchun esa qo'shimcha mablag' manbai hisoblanadi. Banklar ko'pincha boshqa banklar va bank bo'lmagan muassasalar chiqargan sertifikatlarni kam xarajat va xatar bilan investitsiyaga yo'naltirish maqsadida sotib oladilar. Sertifikatlarning hisobdan chiqarish muddati qat'iy belgilangan bo'lib, ularni muddatidan oldin ro'yxatdan chiqarish qonun bilan taqiqlangan. Shuning uchun ham,



ularning ishonchliligi ta'minlangan bo'lib, investitsiya funksiyasini bajara oladi. Bank va boshqa moliya institutlari past nominal qiymatga ega sertifikatlar chiqarish bilan birga, xususiy biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yirik nominal qiymatga ega sertifikatlar ham chiqaradilar. Yirik nominal qiymatga ega sertifikatlar davlat tomonidan sug'urtalanadi.

**[136]. Aksept** so'zi lotincha «acceptus» iborasidan olingan bo'lib, rozilik berilgan, ya'ni pul, hisob-kitob, tovar hujjatlarini yoki tovar haqini to'lashga rozilik yoki to'lashga kafillik ma'nosini beradi. To'lashga rozilik berish **akseptlash** deyiladi.

Akseptda mol yetkazib beruvchi tashkilot mahsulot jo'natilgandan keyin to'lash uchun talabnoma varaqasi yozadi va o'ziga xizmat qiluvchi bank inkassosiga topshiradi. Belgilangan qoidaga muvofiq, varaqani aksept qilish yoki rad etish oluvchining ixtiyorida bo'ladi. Bir shahar doirasida budjet tashkilotlari o'rtasida tovar va xizmatlar uchun qilinadigan hisob-kitoblarda hamda moliya idoralariga budjet daromadlarini aloqa korxonalarini orqali jo'natishda **akseptlangan chek** qo'llaniladi.

**Bank aksepti** moliya bozorining xavfsiz instrumentlaridan biri bo'lib, bankning aksept egasiga kelishilgan muddatda akseptda belgilangan pul miqdorini to'lash majburiyatidir. Bank o'zining eksport-import operatsiyalari yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi mijozning barcha to'lovlarini kafolatlashi natijasida bank aksepti yuzaga keladi va bu kafolat uchun bank haq oladi.

Akseptni ro'yxatdan chiqarish muddati kelguncha doimo o'zining nominal qiymatidan past qiymatga sotiladi va ko'zda tutilgan daromad faqat ro'yxatdan chiqarish muddati yaqinlashganda aksept narxining oshishi hisobiga olinishi mumkin.

**[137].** Kapital bozorida qo'llaniladigan majburiyat va obligatsiyalar quyidagi afzalliklarga ega:

- risk;
- ikkilamchi bozori rivojlangan;
- qarz olish uchun juda yaxshi garov;
- hukumat depozitlarini kafolatlashi mumkin;
- soliqqa tortilmaydigan foiz daromadiga ega;
- yuqori kredit sifatiga ega;
- ba'zi qimmatli qog'ozlar yuqori likvid va tez sotilishi mumkin;
- bir yildan o'n yilgacha va undan ortiq muddatda muomalada

bo'ladi.

Pul bozoridagi majburiyat va obligatsiyalar esa tez sotilish qobiliyatiga ega ekanligi, hukumat depozitlari uchun yaxshi garov vazifasini bajarishi, ko'zda tutilgan daromadliligi yuqori bo'lgan afzalliklari bilan kapital bozoridagi majburiyat va obligatsiyalardan farq qiladi.

Har ikkala bozordagi majburiyat va obligatsiyalar o'ziga xos kamchiliklarga ega. Ularning kamchiliklari ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, kapital bozoridagi majburiyat va obligatsiyalarning daromadliligi xususiy sektorning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar daromadidan past bo'lib, bozor beqaror va ikkilamchi bozordagi ba'zi qimmatli qog'ozlarning muomalasi chegaralangan bo'lsa, pul bozoridagi majburiyat va obligatsiyalarning kamchiligi shundaki, ularning daromadliligi boshqa moliyaviy instrumentlardan past, baho xatari esa yuqori bo'ladi.

**[138].** Banklar odatda investitsiya majmualariga ko'ra yirik va mayda banklarga bo'linadi. Mayda banklar ko'pincha o'z mablag'larini davlatning qimmatli qog'ozlariga joylashtiradilar, chunki bu qimmatli qog'ozlar davlat tomonidan sug'urtalangan va ishonchlilik darajalari yuqori bo'ladi. Ular xususiy sektorning qimmatli qog'ozlaridan foydalanmaslikka harakat qiladilar. Mayda moliya institutlarining iqtisodiy ixtiloflar natijasida katta yo'qotishlarga uchrash xatari yuqori bo'lganligi tufayli ular bu yo'qotishlarni qoplash maqsadida ishonchli va barqaror qimmatli qog'ozlarga o'z mablag'larini yo'naltiradilar.

Yirik banklar esa, aksincha, mayda va xususiy sektorlar xorijiy qimmatli qog'ozlariga hamda mahalliy hokimiyat qog'ozlariga joylashtiradilar. Albatta, bu qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar uchun yuqori xatar mavjud. Investitsiya qimmatli qog'ozlari bank aktivining 1/5 qismidan to 1/3 qismigacha hajmda bo'lib, bank daromadining 1/5 qismida daromad keltiradi. Kredit portfeli esa bank aktivining yarmidan ko'prog'ini tashkil qilib, bank daromadining 3/5 qismi hajmda daromad keltirishi mumkin. Lekin bank mablag'larini qimmatli qog'ozlar investitsiyasiga ko'proq yo'naltirilishining afzalligi shundaki, daromad solig'ining hajmi ancha qisqaradi va bank uchun bo'lgan umumiy xatar darajasi sezilarli darajada pasayadi.

**[139].** Bankning investitsiya vositalarini tanlash jarayoniga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- ko'zda tutilgan daromad me'yori;
- soliq xususiyatlari;
- foiz risk;

- kredit riski;
- ishbilarmonlik (xizmat yuzasidan) riski;
- balanslanmagan (muvozanatlashmagan) likvidlik riski;
- muddatidan oldin qaytarib olish riski;
- inflatsiya (pulning qadrsizlanishi) riski;
- garov talabnomalari.

**[140]. Diversifikatsiya** soʻzi lotincha «diversificatio» iborasidan olingan boʻlib oʻzgarish, xilma-xil, taraqqiyot maʼnosini, yaʼni korxonalar (birlashmalar)ning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishini bildiradi.

Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish – bu investitsiya bilan bogʻliq risklarni kamaytirish usullaridan biridir. Diversifikatsiya qilish natijasida investitsiya portfelida turli xil, koʻpdan-koʻp qimmatli qogʻozlar jamlanadi. Diversifikatsiya usulida investitsiya siyosatini amalga oshirishda qimmatli qogʻozlarning turli xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bular:

- ularning toʻlash muddati va sifati (taʼminlangani), emitentning salohiyati, qimmatli qogʻozlarning sifati boʻyicha diversifikatsiya qilinishi;
- qimmatli qogʻozlarning geografik tarqalishi boʻyicha diversifikatsiya qilinishi;
- qimmatli qogʻozlarning toʻlanish muddati boʻyicha majburiyatlarning turi va boshqalar.

Yuqoridagi belgilar boʻyicha taʼminlanganligiga koʻra diversifikatsiya qila turib investitsiya siyosatining maqsadlari aniqlanadi.

Tijorat banklarining qimmatli qogʻozlar portfelini diversifikatsiya qilishning quyidagi turlari mavjud. Bular qimmatli qogʻozlarning turlari, muddati boʻyicha diversifikatsiya qilish, qimmatli qogʻozlarning emitentlari boʻyicha diversifikatsiya qilish va boshqalar.

Qimmatli qogʻoz sifatiga doir diversifikatsiyaning asosiy maqsadi – bu riskni minimallashtirishdir (u emitentning oʻz majburiyatlarini bajara olmay qolish ehtimoli bilan belgilanadi). Shu munosabat bilan aksiya sifatining taʼminlanganlik darajasi boʻyicha diversifikatsiya usuli ham mavjud boʻlib, nazariyotchilar fikricha, u bir qator omillarni oʻrganib chiqishni talab qiladi. Bular emitent qanday faoliyat bilan shugʻullanishini, aksiya daromadi, dividend miqdori, kompaniya aksiyasining joriy narxi, zaxirasi, kompaniyani kim boshqarayotganligi va boshqalar boʻlib, koʻrsatilgan savollarga javobni emissiya prospekti va birja axborotnomalaridan olish mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning geografik tarqalishiga nisbatan diversifikatsiya maqsadi – tegishli tumanlardagi iqtisodiy qiyinchiliklar ro'y berganda yuzaga keladigan risklarni kamaytirishdan iborat.

Qimmatli qog'ozlarning to'lash muddati bo'yicha diversifikatsiyasidan maqsadi – foiz stavkalarining tebranishi bilan bog'liq risklarning oldini olishdan iborat. Bu investitsiya siyosatini amalga oshirishda tijorat banklari, odatda, qimmatli qog'ozlarning tugatilish muddati bo'yicha pog'onali strukturadan foydalanadi.

Qimmatli qog'ozlarning foiz darajalari prognozi amaliyotda nazariyadan farq qiladi. Shuning uchun tijorat banklari prognoz natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish maqsadida foiz stavkalari tarkibini tahlil qiladilar.

Odatda jahon amaliyotida tijorat banklari o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun boshqarish strukturasi maxsus investitsiya bo'limlarini tashkil qilishadi. Bo'limdagi xodimlar soni bir qator omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu omillar: qimmatli qog'ozlar portfeli kattaligi, bo'lim tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish bo'yicha bajariladigan funksiyalarga, bankning mijozlariga ko'rsatadigan xizmatlarga, qimmatli qog'ozlar turi va sifatiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Bo'lim ishchilarining malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular bajarayotgan vazifa, ishning sifati ham shunchalik yuqori bo'ladi. Mutaxassislar investitsiya dasturida ko'zlangan maqsad va vazifalarni yaxshi tushunishlari, investitsiya xizmatlari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishlari, moliyaviy-iqtisodiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishlari, qimmatli qog'ozlar bozorini mustaqil tahlil qila olishlari, qaysi qimmatli qog'oz turlari bankka to'g'ri kelishi yoki kelmasligini aniqlashlari, daromadlilik egri chiziqlarining ko'ra olishlari, bu bilan investitsiya faoliyatini boshqarishni ta'minlashlari lozim.


### **4.3. Bankning komission (vositachilik) va trast operatsiyalari**

[141]. Banklar komission operatsiyalarni ham olib boradilar, ya'ni bunda banklar mijozlarning hisobidan ularning turli topshiriqlarini bajaradilar. Bunday topshiriqlar mamlakat ichida yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul o'tkazish bilan bog'liq. Bunda mijoz o'z bankiga uning hisobidagi ma'lum bir summani ko'rsatilgan manzil bo'yicha o'tkazishni yuklatadi.

Operatsiya nihoyasiga etganidan so'ng bank mijoziga pul

o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatni yuboradi yoki beradi. O'tkazilgan operatsiya uchun bank vositachilik haqini oladi.

Komission operatsiyalar turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin (31-chizma).



**31-chizma.** Komission operatsiyalarning turlari.

**Akkreditiv operatsiyasida** bank o'z mijozidan uchinchi bir shaxs, ya'ni akkreditiv ochilgan shaxsga (benefitsiarlarga) to'lov summasini o'tkazish haqida topshiriq oladi.

Bu hisob-kitobni amalga oshirish uchun tovar sotib olgan tadbirkor sotuvchiga berishi kerak bo'lgan summani avvaldan bankka qo'yishi mumkin. Tegishli tovarni yoki unga tegishli bo'lgan hujjatlarni olish sharti bilan tadbirkor o'z bankiga sotuvchiga pul to'lashni yuklatishi mumkin.

**Inkasso operatsiyalari** – bank tomonidan mijozlarga ularning o'z topshiriqlari va o'z hisoblaridan turli hujjatlar bo'yicha pul olish jarayonini ta'minlaydi. Inkasso operatsiyalari cheklar, veksellar, tovar hujjatlari va qimmatli qog'ozlar bo'yicha amalga oshiriladi. Umuman, inkasso xaridor hisobvarag'idan pul summasini olish bo'yicha bank harakatini bildiradi. Qimmatli qog'ozlarni inkassolashtirishda mijoz ularni bankka shu qog'ozlarni chiqargan mamlakat bozorida sotish uchun beradi.

**Faktoring** – mijozga aylanma kapital uchun kredit berish bilan birgalikda o'tkaziladigan savdo-vositachilik operatsiyalariga tegishlidir. Bunda bank mijozning qarzga oid talablarini, ularni yetkazib berish qiymatining 80 foizini shu zahoti to'lash va qolgan qismini kredit uchun foizlar va vositachilik haqini chiqarib tashlab to'lash sharti bilan sotib oladi.

Vositachilik operatsiyalarining o'ziga xos yana bir turi **ishonch** operatsiyalaridir. Bunda bank mijoz topshirig'i bo'yicha ma'lum mulkni, pul yoki qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash, o'tkazish va

boshqarishni o‘z zimmasiga oladi.

Bularga, shuningdek, savdo-vositachilik operatsiyalari – mijoz topshirig‘i bo‘yicha qimmatli metall va qimmatli toshlarning oldi-sotdisi, qimmatli qog‘ozlar va hokazolarning oldi-sotdisi ham kiradi.

Bankning trust operatsiyalari ham vositachilik operatsiyalarining turi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mulkka egalik qilishning keng tarqalgan shakli - bu aksiya, obligatsiya va pul mablag‘larini bir egalikdan (shaxsdan) ikkinchi egalikka (shaxs nomiga) o‘tkazishni ham banklar orqali amalga oshirilishidir. Moliyaviy vositalar va moliyaviy aktivlar summasining ko‘payishi natijasida tijorat banklari trust (ishonchli) operatsiyalarning ko‘lami ham kengayib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda banklarning eng rivojlangan bo‘linmalaridan biridir.

Xorijiy mamlakatlarda tijorat banklarining trust departamentlari mijoz topshirig‘iga binoan ishonch bildirgan shaxs huquqlari bo‘yicha ish ko‘radilar. Shuningdek, mijozlarning pul mablag‘larini boshqaradilar va boshqa moliyaviy vositalar bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshiradilar. Banklar trust operatsiyalarini nafaqat jismoniy shaxslar bo‘yicha, balki yuridik shaxslar uchun ham amalga oshiradilar.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi trust xizmatlari turlari mavjud:

- merosni boshqarish;
- ishonch va vasiylik bilan bog‘liq operatsiyalarni bajarish va boshqalar.

[142]. O‘z mijozlarining kapitalini boshqarish bugungi kunda juda keng tarqalgan trust operatsiyalarining bir turidir. Bunda banklar mijozlarining ma‘lum pul mablag‘larini boshqarishga oladilar va ularni mijoz bilan kelishgan holda joylashtiradilar. Mijoz bunda o‘z mablag‘larini ishlatish tartibini belgilaydi. Nufuzli banklarda kapitalni bunday tartibda boshqarishning besh turi mavjud (30-jadval).

[143]. **Trust bitimi** – muayyan qimmatli qog‘ozlar to‘plamini ishonch asosida boshqarishga tayanadigan fond bo‘yicha shartnomaviy kelishuv.

**Trust kompaniya** – xususiy shaxslar va tashkilotlar uchun sir saqlanadigan (ishonchli) xizmatlarni bajaradigan kompaniya.

**Trust-vakil** – ishonch bildirilgan vakil.

Trust bitimning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunda bank mijozga mablag‘larni qo‘yish va ularning oqibatlari to‘g‘risida xatlar yuborib, uni doimiy ravishda xabardor qilib turadi. Agar salbiy moliyaviy holatlar

yuz bersa, bank mijoz oldida javobgar bo‘lmaydi. Bu holat asosan aksiyalarga sarflangan mablag‘larga tegishli bo‘lib, ularning bahosi ba’zida oshishi yoki pasayishi mumkin.

### 30-jadval.

#### Kapitalni boshqarishning turlari

№	Kapitalni boshqarishning turlari	I Z O H
1.	Qattiq konservativ	<input type="checkbox"/> mijozning mablag‘lari faqatgina eng ishonchli bo‘lgan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning davlat qimmatli qog‘ozlariga sarflanadi. Bunda zarar ko‘rish xavfi umuman bo‘lmaydi.
2.	Konservativ	<input type="checkbox"/> mablag‘larni rivojlangan mamlakatlarning davlat qimmatli qog‘ozlariga va yirik xalqaro banklar depozitlariga qo‘yish nazarda tutiladi. Lekin bunda banklarning sinish holati mavjud bo‘lganligi sababli bu tartibda mablag‘larni joylashtirish mijozlarga so‘zsiz foyda olishlarini har doim ham kafolatlamaydi.
3.	O‘rtacha konservativ	<input type="checkbox"/> mablag‘larni jahonning asosiy fond birjalarida baholangan aksiyalarga qo‘yish tushuniladi. Investitsiyalashning bu yo‘nalishi foyda bilan bir qatorda zarar ko‘rish xavfini ham tug‘diradi.
4.	O‘rtacha agressiv	<input type="checkbox"/> bu mablag‘larni fan-texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi kompaniyalarning aksiyalariga sarflanishini bildiradi. Bunda ularning kursi tebranib turadi. Shu tufayli kapitalni boshqarishning bu turi ayrim risklar bilan bog‘liq bo‘ladi.
5.	Agressiv	<input type="checkbox"/> bu mablag‘larni «Osiyoning to‘rt ajdarhosi» (Gonkong, Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya) kompaniyalarining aksiyalariga sarflashni ta‘minlaydi. Bunda katta foyda bilan birga katta zarar ko‘rish ham mumkin.

Masalan, 1987-yilda Nyu-York fond birjasidagi aksiyalarning kursi taxminan 2 marta pasaygan. Bunday hollarda mijoz qolgan mablag‘larini olib, ularni boshqarishni boshqa bank departamentiga o‘tkazishi mumkin. O‘zbekistonda tijorat banklari amaliyotida trust operatsiyalarini qo‘llash imkoniyati asta-sekin rivojlanib bormoqda.

Komission (vositachilik) operatsiyalarini amalga oshirishda banklar

o‘z mablag‘larini biror sohaga yoki faoliyat turiga qo‘ymaydilar va mijozlarga ssuda bermaydilar. Ular faqatgina o‘z mijozlarining to‘lov topshiriqnomasini bajaradilar, shuning uchun komission operatsiyalar bo‘yicha bank daromadi foiz shaklida emas, balki vositachilik uchun mukofot shaklida bo‘ladi.

Tijorat banklari o‘z mijozlarining turli xil to‘lov topshiriqnomalarini bajarishi va o‘zaro operatsiyalarini amalga oshirish uchun bir-biri bilan korrespondentlik aloqalarini o‘rnatadilar.

Masalan, o‘z filiallari yoki bo‘linmalariga ega bo‘lmagan joylarda bank mijozlarning to‘lov topshiriqnomalarini boshqa bank orqali, cheklar, akkreditivlar va boshqa shakllar bo‘yicha maxsus korrespondentlik kelishuvini tuzib, amalga oshiradilar. Bunda u korrespondent banklar cheklar, akkreditivlar to‘lashni o‘z zimmasiga oladi. Banklar o‘rtasidagi talab va majburiyatlar maxsus korrespondent schyotlarida aks etadi.

Korrespondentlik munosabatlarini amalga oshirishda banklar tomonidan shifrlar tizimi qo‘llanadi. Teleks xabarlar banklararo munosabatlarda hujjat bo‘lib xizmat qiladi. Bank tizimida qo‘llaniladigan telekslar ichki va xalqaro bo‘lishi mumkin.

Bank foydasining manbalari, berilgan kreditlar bo‘yicha bank oladigan foizlarning oshirilishi, qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan investitsiyalar (qo‘yilmalar) bo‘yicha foiz va dividendlar, hisob-kitob, faktoring, trast va boshqa vositachilik operatsiyalaridan olinadigan vositachilik mukofotlari, birja bitimlari bo‘yicha valuta operatsiyalaridan keladigan tushumlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bu tushumlar bankning likvidligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

#### **4.4. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari**

[144]. So‘nggi yillarda tijorat banklari faoliyatida ijara yoki lizing (Leasing – ing. «ijara») operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog‘liq faoliyat turlari keng rivoj topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida»gi qonunining 2-moddasida (14.04.1999) lizingga quyidagicha ta’rif berilgan:


Lizing ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda berib qo‘yish maqsadida mol-mulkni (lizing obyektini) oladi.

Lizing **uch** tarafdin shartnoma bo‘yicha amalga oshiriladi:



- sotuvchi
- lizing beruvchi (bank)
- lizing oluvchi
- yoki **ikki** taraflama:
- lizing beruvchi (bank)
- lizing oluvchi

Lizing sotuvchi, lizing beruvchi va oluvchi lizing subyektlari hisoblanadi (32-chizma).



### 32-chizma. Lizing subyektlari.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo‘lsa, shu shaxs **sotuvchi** deb e’tirof etiladi. Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini (mulk) ni mulk qilib beruvchi shaxs, masalan, bank **lizing beruvchi** hisoblanadi. Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo‘yicha lizing obyektini olayotgan shaxs **lizing oluvchi** hisoblanadi.

Lizing beruvchi (bank), lizing oluvchi va lizing sotuvchilar sifatida maydonga chiqadigan subyektlar va ular o‘rtasida vositachi sifatida chiquvchi shaxslarni quyidagicha tasniflash mumkin (31-jadval).

Lizing beruvchilar, xususan tijorat banklari xaridor sifatida maydonga chiqmoqchi bo‘lishsa, u holda ular o‘zlarining faoliyatlarini lizing operatsiyalarini amalga oshirishga yo‘naltirgan bo‘lishlari lozim. Bunday hollarda bank mulkni sotib olish uchun korxonaga (firma) larga ssuda (kredit) berish o‘rniga ularni o‘zi sotib oladi va ularni ijara oluvchilarga ijara bergan holda, egalik huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunda bank ssuda foizini emas, balki shartnomaga binoan ijara haqini (lizing to‘lovini) oladi.

[145]. Lizing beruvchi mol-mulkni yetkazib bermaganlik, to‘liq yetkazib bermaganlik, yetkazib berish muddatini o‘tkazib yuborganlik va tegishli darajada sifatli bo‘lmagan mol-mulkni yetkazib berganlik uchun, agar bu uning aybli harakatlari (harakatsizligi) tufayli bo‘lsa, lizing oluvchining oldida javobgar bo‘ladi.

## Lizing munosabatlarida qatnashuvchi subyektlar

№	Lizing subyektlari	Izoh
1	2	3
1.	Lizing beruvchilar (mulk egalari)	<input type="checkbox"/> tijorat banklari <input type="checkbox"/> qo‘shma lizing kompaniyalari <input type="checkbox"/> xorijiy lizing kompaniyalari <input type="checkbox"/> xalqaro lizing kompaniyalari <input type="checkbox"/> ixtisoslashgan milliy lizing kompaniyalari <input type="checkbox"/> uskunalarni tayyorlovchi korxonalar filiallari va bo‘limlari <input type="checkbox"/> davlat va mahalliy organlar: → mulk qo‘mitalari → moddiy ta‘minot bo‘limlari → qurilish bosh boshqarmalari → boshqa organlar <input type="checkbox"/> sug‘urta kompaniyalari <input type="checkbox"/> nafaqa fondlari <input type="checkbox"/> lizing operatsiyalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan ochiq va yopiq aksionerlik jamiyatlari
2.	Lizing oluvchilar (mulkdan foydalanuvchilar)	<input type="checkbox"/> tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar <input type="checkbox"/> yuridik shaxs bo‘lmagan tadbirkorlar
3.	Lizing obyektlarini sotuvchilar	<input type="checkbox"/> mulk egalari <input type="checkbox"/> uskunalarni ishlab chiqaruvchilar <input type="checkbox"/> moddiy ta‘minot tashkilotlari <input type="checkbox"/> savdo firmalari <input type="checkbox"/> aksionerlik jamiyatlari <input type="checkbox"/> qo‘shma korxonalar
4.	Lizing munosabatlarida qatnashuvchilar o‘rtasida vositachilik qiluvchilar	<input type="checkbox"/> distribyutor (ulgurji xodim) <input type="checkbox"/> dilerlar <input type="checkbox"/> brokerlar <input type="checkbox"/> komissionerlar <input type="checkbox"/> maklerlar <input type="checkbox"/> konsignatorlar <input type="checkbox"/> ishonchli shaxs (vakil) lar <input type="checkbox"/> ishlab chiqaruvchilar agentlari (iste‘molchilar) <input type="checkbox"/> kommivoyajerlar <input type="checkbox"/> maslahatchilar <input type="checkbox"/> xabarlovchi savdogarlar

Lizing beruvchi lizing oluvchi oldida lizing obykti yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, lizing obykti sotuvchi va obyektining o‘zi lizing beruvchi tomonidan tanlangan va lizing oluvchi shu tufayli zarar ko‘rganligi isbotlangan hollar bundan mustasno.

Lizing beruvchi va lizing oluvchi sotuvchiga nisbatan lizing obykti-

ning oldi-sotdi shartnomasiga binoan solidar kreditorlar sifatida ish ko‘radilar. Sotuvchi ular oldida lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarish (lizing obyektining sifati, butligi, lozim darajada yetkazib berilishi va boshqalar) yuzasidan javobgar bo‘ladi. Bunda sotuvchi lizing obyektini bilan bog‘liq aynan bitta zarar uchun bir paytning o‘zida lizing oluvchi va lizing beruvchi oldida javobgar bo‘lishi mumkin emas.

Operativ lizingni amalga oshirishda lizingga berilgan lizing obyektidan foydalanishga to‘liq yoki qisman to‘sqinlik qiluvchi kamchiliklar uchun lizing beruvchi javobgar bo‘ladi. Bunday kamchiliklar aniqlangan taqdirda, lizing oluvchi lizing beruvchidan ularning bepul barta-raf etilishini va lizing to‘lovlari mutanosib ravishda kamaytirilishini yoki mazkur lizing obyektining kamchiliklarini bartaraf etish bilan bog‘liq o‘z xarajatlarining qoplanishini talab qilishga haqli.

Lizing beruvchi lizing obyektining lizing shartnomasini tuzishda qayd etib o‘tilgan kamchiliklari uchun javob bermaydi.

Lizing oluvchining aybi bilan lizing obyektining yo‘qolishi yoki lizing obyektining o‘z vazifasiga doir ahamiyatini yo‘qotishi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, lizing oluvchini lizing beruvchi oldidagi javobgarlikdan ozod etmaydi.

**[146].** Lizing munosabatlariga kiruvchi har bir vositachi o‘zining funksiyasiga ega (32-jadval).

### 32-jadval.

#### Lizing munosabatiga kiruvchi vositachilar tasnifi

<b>№</b>	<b>Vositachilar</b>	<b>Izoh</b>
1	2	3
1	Distribyuter (ulgurji vositachi)	<p>□ bu o‘z jamg‘armasiga ega bo‘lgan, o‘zi sotib olish bilan shug‘ullanuvchi mustaqil firma; yirik firmaning xorijiy davlatdagi yagona vakili.</p> <p>U lizing munosabatlarida to‘liq harakat qiladi. Ammo mulk egasi bo‘la olmaydi. Narxni belgilaydi, bozorni o‘rganadi, servis xizmatlarni bajaradi.</p>
2	Diler	<p>□ bu ishbilarmon savdogar (firma, bank) o‘z hisobiga va o‘z nomidan qimmatli qog‘ozlar, tovarlar, valutani avval xarid qilib, so‘ngra xizmatiga sotish maqsadida tijorat ishlari bilan shug‘ullanadi.</p> <p>Bu mustaqil tadbirkor. O‘z hisobidan uskunalarni sotib oladi va iste’molchilarga sotadi.</p> <p>Diler daromadi sotib olinadigan va sotiladigan</p>

		tovarlar o'rtasidagi farqdan keladigan tushumdan iborat bo'ladi.
3	Broker	<p>□ bu fond, tovar, valuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachi (dallol) lik qiladigan ayrim shaxs yoki firma. Brokerlar odatda mijoz topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o'z nomidan savdo bitimlari tuzishi mumkin. Yirik brokerlik idoralari xaridorga qarz berishda banklar bilan hamkorlik qiladi, ayrim hollarda o'zlari kreditor bo'ladilar, bitimlarni bajarilishiga kafillikni ham o'z zimmasiga oladilar.</p> <p>Ular o'z mijozlarining nomidan, ularning topshiriqlariga binoan harakat qiladilar. Tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirishga harakat qiladilar. Ammo riskni o'z zimmasiga olmaydi.</p>
4	Komissionerlar	<p>□ bu pulli xizmat ko'rsatish, biror ish bajarish bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan bir tomon bo'lib, u:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>→ dallol sifatida muayyan tovarlarni komissiyaga qabul qiladi. Bu tovarlar sotilgandan keyingina uning haqini egasiga to'laydilar;</li> <li>→ o'z nomidan oldi-sotdi qiladi, ammo mijoz hisobidan;</li> <li>→ agar o'z vakolatini suiiste'mol qilib zarar ko'rsa, unga javob berishni o'z zimmasiga oladi.</li> </ul>
5	Makler	<p>□ vositachi, ammo bitim tuzmaydi, balki bitim tuzish uchun xaridorni jalb etadi. Buning uchun vositachilik haqi oladi.</p> <p>U manfaatdor tomonlarni uchrashtiradi. Ammo o'zi bitim tuzishda qatnashmaydi.</p>
6	Konsignator	<p>□ sotiladigan tovarlar qo'lida bo'lgan, lekin uning egasi bo'lmagan vositachi. U ishlab chiqaruvchilardan uskunalarni komission narxda sotib oladi va sotuvchi narxidan past bo'lmagan narxda sotishni ta'minlaydi. Mulkka bo'lgan egalik huquqi mulkni yetkazib beruvchi tomonida saqlanib qoladi.</p>
7	Ishonchli vakil	<p>□ oldi-berdi munosabatlarini o'z nomidan, shuningdek, firma topshirig'i bilan amalga oshiradi. Topshiriq-shartnomada o'rnatilgan vakolat doirasida faoliyat olib boradi.</p>
8	Ishlab chiqaruvchi (yoki iste'molchi) agenti	<p>□ yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, firmaning hisobidan yoki uning nomidan, uning xizmatchisi bo'lmay turib, boshqa shaxsning topshirig'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs. U muayyan bir obyekt emas, balki bir necha obyekt oldi-sotdisini</p>

		amalga oshirish vakolatiga ega.
9	Kommivoyajer	<input type="checkbox"/> bular yirik savdo firmalarining xaridorlarga namunalar, kataloglar, ko'rgazma varaqalar asosida tovarlar taklif etadigan sayyor vakillar, savdo bo'yicha vositachilardir. <input type="checkbox"/> Ular nafaqat mulkni sotadilar, shu bilan bir qatorda lizing obyektini iste'molchiga yetkazib beradilar.
10	Maslahatchilar	<input type="checkbox"/> oldi-sotdi shartnomasida kelishilgan summaga qarab foiz olish evaziga ishbilarmonlar doirasida lizing xizmatlari bozorini tadqiq qiladi. Ammo ular daromadlar taqsimotida qatnashishmaydi va buyurtmachilarga kafillik bermaydi.

[147]. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida lizing obyektiga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin».

Lizing obyektlarini quyidagi belgilar bo'yicha tasniflash mumkin (33-jadval).

### 33-jadval.

#### Lizing obyektlarining umumiy tasnifi

№	Lizing obyektlarini tasniflash belgilari	Izoh
1	2	3
1.	Nima maqsadda foydalanishga ko'ra	<input type="checkbox"/> tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida olinadigan obyektlar
2.	Iste'mol qilish shakliga ko'ra	<input type="checkbox"/> ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinmaydigan obyektlar
3.	Murakkablik darajasiga ko'ra	<input type="checkbox"/> ayrim buyumlar <input type="checkbox"/> buyumlar majmuasi
4.	Qo'zg'aluvchanlik darajasiga ko'ra	<input type="checkbox"/> ko'chmas mulk shaklidagi obyektlar <input type="checkbox"/> ko'char mulk shaklidagi obyektlar
5.	Mulk shakliga ko'ra	<input type="checkbox"/> davlat mulki shaklidagi obyektlar <input type="checkbox"/> xususiy mulk shaklidagi obyektlar
6.	Tarmoqqa ko'ra	<input type="checkbox"/> sanoat tarmog'iga qarashli obyektlar <input type="checkbox"/> qurilish tarmog'iga qarashli obyektlar <input type="checkbox"/> qishloq xo'jaligi va h.k.

Jadvalning to'rtinchi tartib raqamida keltirilganidek, lizing ko'char va ko'chmas mulkni ijaraga berishda ham qo'llaniladi. Masalan, ko'char

mulk ko‘rinishidagi lizing transport vositalari, qurilish texnikasi, signallarni uzatish vositalari, asbob-uskunalar, dastgohlar, litsenziyalar, «nou-xau», loyihalar, kompyuter dasturlari va shunga o‘xshashlarni o‘z ichiga oladi.

Er uchastkalari va tabiat boshqa obyektlari, shuningdek, erkin muomalada bo‘lishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan yoki muomalada bo‘lishining alohida tartibi belgilangan mol-mulk **lizing obyektlari bo‘lishi mumkin emas.**

Shuni ta’kidlash lozimki, lizing obyektini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Masalan, moliyaviy lizing obyektini **lizing oluvchi** balansida hisobga olinadi. Operativ lizing obyektini esa **lizing beruvchi** balansida hisobga olinadi.

**[148].** Lizing obyektiga bo‘lgan mulk huquqi uni boshqa birovga o‘tkazilishi yoki sotilishi bilan aniqlanadi. Binobarin, lizing obyektiga bo‘lgan mulk huquqi lizing oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizing beruvchiga tegishli bo‘ladi. Masalan, moliyaviy lizingda lizing shartnomasining amal qilish muddati tugagunga qadar barcha lizing to‘lovlari to‘langan taqdirda (agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa) lizing obyektiga bo‘lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o‘tishi mumkin.

Operativ lizingni amalga oshirishda lizing beruvchi va lizing oluvchi o‘rtasidagi lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi asosida lizing obyektiga bo‘lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o‘tishi mumkin.

Lizing oluvchi bankrot bo‘lgan, uning mol-mulki xatga olingan yoki musodara qilingan taqdirda, lizing obyektini lizing oluvchining umumiy mol-mulkidan ajratiladi va lizing beruvchiga qaytariladi. U mol-mulkni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etishi mumkin.

Agar lizing beruvchi va lizing oluvchilar o‘z huquqlarini uchinchi shaxsga bermoqchi bo‘lsa, u holda lizing beruvchi lizing oluvchini xabardor qilgan holda lizing shartnomasi bo‘yicha o‘z huquqlaridan to‘liq yoki qisman uchinchi shaxs foydasiga voz kechishi mumkin. Xuddi shu tariqa lizing oluvchi lizing beruvchining ruxsati bilan **moliyaviy lizing** shartnomasi bo‘yicha o‘z huquqlaridan to‘liq yoki qisman uchinchi shaxs foydasiga voz kechishi mumkin.

**Operativ lizingni** amalga oshirishda lizing oluvchining huquqlaridan voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Lizing obyektiga bo‘lgan mulk huquqi lizing beruvchidan uchinchi shaxsga o‘tganda, lizing oluvchi bilan tuzilgan lizing shartnomasi yangi mulkdor uchun o‘z kuchini saqlab qoladi.

Xo‘sh, lizing obyektidan garov sifatida foydalanish mumkinmi? Yo‘q. Agar lizing shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, lizing beruvchi lizing oluvchini oldindan xabardor qilmay turib lizing obyektidan garov sifatida foydalanishga haqli emas. Lizing oluvchi ham lizing obyektini garov sifatida ishlatishga haqli emas.

**[149].** Lizing obyektini bilan bog‘liq barcha xavflar, shu jumladan, uning:

- tasodifan yo‘qolishi (nobud bo‘lishi);
- o‘g‘irlanishi;
- barvaqt eskirishi;
- shikastlanishi kabi xavflar lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizing oluvchiga o‘tadi.

Risklar lizing oluvchiga o‘tgan daqiqadan e‘tiboran lizing oluvchi lizing obyektini har qanday tarzda yo‘qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo‘ladi.

Agar risklar lizing beruvchidan lizing oluvchiga o‘tadigan vaqt lizing shartnomasida belgilangan bo‘lmasa, xavflar lizing oluvchiga u lizing obyektini olgan daqiqadan e‘tiboran o‘tadi. Agar taklif etilgan lizing shartnomasiga mos kelmasa va bu lizing oluvchiga lizing obyektidan voz kechish huquqini bersa, ana shunday nomuvofiqlik bartaraf etilgunga qadar yoki lizing oluvchi lizing obyektini olgunga qadar barcha risklar lizing beruvchi zimmasida bo‘ladi.

Sotuvchining nochorligi yoki lizing obyektining undan foydalanish maqsadlariga nomuvofiqligi xavflari lizing oluvchining zimmasida bo‘ladi, lizing beruvchining sotuvchini yoki lizing obyektini tanlash yoxud lizing beruvchi lizing oluvchini muayyan sotuvchini yoki lizing obyektini tanlashga g‘ayriqonuniy tarzda majburlash hollari bundan mustasno.

Nobud bo‘lish, yo‘qolish, o‘g‘irlanish, shikastlanish, buzilish va barvaqt eskirish riski bilan bog‘liq bo‘lgan tarzdagi har qanday yetkazilishi mumkin zarardan lizing obyektini sug‘urtalash taraflarning

kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Bunday kelishuv bo‘lmagan taqdirda, lizing oluvchi lizing obyektini sug‘urtasi uchun javobgar bo‘ladi.

**[150]. Lizing beruvchi quyidagi huquqlarga egadir:**

□ lizing oluvchining lizing obyektidan qanday sharoitlarda foydalanayotganligi va uni belgilangan maqsadiga muvofiq ishlatayotganligini lizing shartnomasi shartlariga hamda qonun hujjatlari talablariga muvofiq nazorat qilish;

□ lizing oluvchining roziligi bilan lizing obyektini va uning sotuvchisini tanlash;

□ qonun hujjatlarida hamda lizing shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda lizing oluvchidan lizing obyektini olib qo‘yish;

□ lizing oluvchi lizing shartnomasini jiddiy tarzda buzgan taqdirda barcha lizing to‘lovlarini muddatidan ilgari to‘lashni yoxud yetkazilgan zararni undirib va (yoki) lizing obyektini qaytib olgan tarzda shartnomani bekor qilishni talab etish.

Agar lizing obyektini lizing beruvchining aybi bilan yetkazib berilmagan bo‘lsa yoki lizing shartnomasi shartlariga nomuvofiq bo‘lsa, lizing beruvchi lizing oluvchining roziligi bilan o‘zi lozim darajada bajarmagan lizing shartnomasi shartlarini tuzatib bajarishga yoki lizing oluvchiga boshqa lizing obyektini taklif etishga haqli.

**Lizing beruvchi:**

□ lizing shartnomasi bo‘yicha mol-mulkni olishi va uni lizing oluvchiga egalik qilish hamda foydalanish uchun berishi;

□ sotuvchiga mol-mulk muayyan shaxsga lizingga berishga mo‘ljallanganligini ma’lum qilishi;

□ lizing obyektini, agar shartnomada shunday shartlar nazarda tutilgan bo‘lsa, saqlab turish, ta’mir va unga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha lizing oluvchi oldida o‘z zimmasiga olingan majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarishi shart.

**[151]. Lizing oluvchi quyidagi huquqlarga ega:**

□ lizing obyektini mustaqil aniqlash va sotuvchini tanlash;

□ lizing beruvchidan lizing shartnomasini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish;

□ sotuvchiga lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi talablarni, jumladan, uning sifati va butligi, topshirish muddati, kafolatli ta’mir va hokozolar xususida talablar qo‘yish;

□ lizing obyektini yetkazib berilmagan, to‘liq yetkazib berilmagan,



yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo'lmagan lizing obyektini yetkazib berilgan taqdirda, yetkazib beriladigan lizing obyektidan voz kechish va lizing shartnomasining bekor qilinishini talab etish;

□ lizing shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, o'zi vaqti-vaqti bilan avans sifatida to'lagan to'lovlari va boshqa summalarni lizing obyektidan foydalanish davrida olgan foydaning qiymatini chegirib tashlab, o'ziga qaytarib berishni talab qilish.

Uchinchi shaxs undiruvni lizing obyektiga qaratganda lizing oluvchi lizing shartnomasini bekor qilish va lizing obyektini mulk qilib olish bilan bir paytda lizing shartnomasi bo'yicha tegishli lizing to'lovlari qoldig'ini bir yo'la to'lashga haqli.

**Lizing oluvchi:**

□ lizing obyektini qabul qilib olishi va undan lozim darajada foydalanishi, uni shartnoma shartlariga muvofiq saqlab turishi;

□ lizing to'lovlari o'z vaqtida to'lab turishi, agar lizing shartnomasiga boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, lizing obyektini o'z hisobidan joriy ta'mirlashi, uni saqlab turishga doir boshqa xarajatlar qilishi shart.

Lizing shartnomasi bekor qilinganda lizing oluvchi lizing obyektini lizing beruvchidan qanday holatda olgan bo'lsa, shunday holatda, normal eskirish va taraflarning kelishuvida shartlashilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda qaytarishi shart.

Lizing oluvchini lizing obyektini ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatishga doir huquqi va majburiyati sotuvchi bilan alohida tuzilgan shartnomada belgilanishi mumkin.

Lizing oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin.

**Sotuvchi** qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni bajaradi. Agar lizing shartnomasida yoki oldi-sotdi (mahsulot yetkazib berish) shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchining lizing oluvchiga nisbatan huquq va majburiyatlari lizing beruvchiga nisbatan huquq va majburiyatlaridek bo'ladi. Bunda lizing oluvchi lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasini bekor qilishga yoki uni haqiqiy emas deb topishga haqli bo'lmaydi.

[152]. Lizingning asosiy turlarini quyidagi belgilar bo'yicha batafsil tasniflash mumkin ( 34-jadval).

## Lizing turlari

№	Lizingni turkumlash belgilari	Lizing turlari	I Z O H
1	2	3	4
	Foydalanish muddatiga qarab	<input type="checkbox"/> Moliyaviy lizing	<input type="checkbox"/> Bu ijaraga olingan mulkning to'la qiymatini va ijarachi foydasini qoplashni nazarda tutadi. Bunda amortizatsiya to'liq bo'lishi yoki ijara obyekti qoldiq bahoda qaytarib berilishi mumkin. Bu lizing turi ijara obyektni uzoq muddatli kreditlash hisoblanadi.
		<input type="checkbox"/> Tezkor lizing	<input type="checkbox"/> Bu ko'proq ishlab chiqarish davri bilan bog'liq bo'lgan lizing bo'lib, obyekti qisqa davrga, ya'ni uning yaroqli davrdan kam davrga, qisqaroq vaqtga ijaraga beriladi. Bu holda lizing obyektining amortizatsiyasi to'liq amalga oshmaydi, ya'ni obyektini yana bir necha marta ijaraga berish imkoniyati saqlanib qoladi.
	Bozor sektoriga bog'liqligiga qarab	<input type="checkbox"/> Ichki lizing	<input type="checkbox"/> Bu lizing faqat mamlakat doirasidagi lizingdir.
		<input type="checkbox"/> Xalqaro lizing	<input type="checkbox"/> Bu mamlakatlararo lizing munosabatlarini tavsiflaydi
	Xizmat qilish shakli va ko'lamiga qarab	<input type="checkbox"/> Sof lizing	<input type="checkbox"/> Bunda ijaraga olinayotgan mulk bilan bog'liq bo'lgan barcha texnik va boshqa xizmatlar lizing oluvchining zimmasiga yuklatiladi. Bu bilan bog'liq xarajatlar lizing to'lovlariga qo'shiladi. Bunday munosabatlar ko'proq moliyaviy lizingga xos.
		<input type="checkbox"/> «Ho'l» lizing	<input type="checkbox"/> Bunda ijaraga olinayotgan mulk bilan bog'liq bo'lgan zaruriy texnik xizmatlar, uni ta'mirlash, sug'urtalash va boshqa operatsiyalar lizing beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Lizing munosabatlarining xarakteriga qarab	<input type="checkbox"/> Aralash lizing	<input type="checkbox"/> bu lizing turi ham moliyaviy, ham tezkor lizinglar unsurlarini mujassamlashtirgan. Shartnoma muddati tugashi bilan mulk lizing oluvchi ixtiyoriga o'tadi.
	<input type="checkbox"/> Qaytariluvchi lizing	Bu lizing turidan odatda o'zining uskunalari etmayotgan firmalar foydalanishadi. Bunda korxonalar lizing kompaniyasini topadi va unga o'zining mulkini sotadi, kompaniya esa, o'z navbatida mulkni shu korxonaga qaytadan lizing shaklida topshiradi. Natijada korxonalar o'ziga zarur bo'lgan aylanma mablag'larni sotib olish imkoniga ega bo'ladi. Shartnoma shu shart bilan tuziladiki, lizing muddati tugashi bilan korxonalar qaytadan o'z mulkini sotib oladi va unga o'z egalik huquqini tiklaydi.
Moliyalashtiruvchilar tarkibiga qarab	<input type="checkbox"/> Individual lizing	<input type="checkbox"/> Bunda lizing beruvchi uskunani sotib olishda o'z mablag'laridan qisman to'lab, asosiy qismini boshqa kreditorlardan ssuda olish bilan qoplaydi. Bu bir qadar murakkab lizing turi bo'lib, odatda u kapital mablag'ni ko'p talab qiladigan loyihalarga qo'llaniladi.
	<input type="checkbox"/> Guruhiy lizing	<input type="checkbox"/> Bunda lizing beruvchi bitta shaxs yoki firma emas, balki bir guruh qatnashuvchilar (aksionerlar) bo'ladi va ular maxsus korporatsiya (masalan, trust kompaniyasi va boshq.) tuzilib, unga ishonchli vakil tayinlashadi. Barcha lizing munosabatlarini bajarishda u boshchilik qiladi.
Yangilanish muddatiga qarab	<input type="checkbox"/> Revolver lizing	<input type="checkbox"/> Bu lizing turi lizing oluvchiga uskunalarini dam-badam almashib turish zaruriyati tug'ilgan hollarda qo'llaniladi. Bu hol texnologik jarayonning o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'ladi.
	<input type="checkbox"/> Yangilanib turiluvchi lizing	<input type="checkbox"/> Ijarachi buyurtmasiga binoan vaqti-vaqti bilan yangi uskunalar bilan almashtirib turish zaruriyati tug'ilgan hollarda qo'llaniladi.
	<input type="checkbox"/> Sublizing	<input type="checkbox"/> Bu tadbirkorlik faoliyatidan maj-

Uchinchi shaxs tomonidan foydalanish huquqiga qarab	(qo‘shimcha lizing)	<p>buriyatlarning bir turi bo‘lib, lizing obyektini boshqa uchinchi lizing oluvchiga topshirishni bildiradi. «Lizing to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasida shunday yozilgan:</p> <p>«Lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi yuzasidan javobgar bo‘lib qolgan holda, lizing shartnomasi bo‘yicha olgan lizing obyektini lizing beruvchining yozma roziligi bilan vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga qo‘shimcha lizingga topshirishga haqli».</p> <p>Sublizing shartnomasining amal qilish muddati lizing shartnomasining amal qilish muddatidan ortiq bo‘lishi mumkin emas.</p>
	<input type="checkbox"/> Asosiy lizing	<p><input type="checkbox"/> Bu lizing uchinchi shaxs tomonidan lizingdan foydalanish huquqi ko‘zlan-magan lizing turidir.</p>

**Moliyaviy lizing** operatsiyasi bank kreditiga birmuncha yaqin operatsiya bo‘lib, lizing obyektini kelgusida sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berilishini ifodalaydi. Ijaraga beruvchi uchun moliyaviy lizing muhim iqtisodiy mexanizm bo‘lib, uning yordamida korxonalar moliyaviy aktivlarining likvidlik muammosi hal etiladi. Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmayotgan, korxonalar balansida mavjud moddiy boyliklar surunkali likvidsiz mablag‘lar bo‘lib, ularni ijaraga berish hisobiga korxonalar o‘z moliyaviy holatini bir muncha yaxshilab oladi va shu bilan moliyaviy boshqarish vazifalarini tezroq ijobiy hal etishi mumkin. Natijada, likvidsiz moliyaviy aktivlar korxonalar daromadini shakllantiruvchi moliyaviy manbaga aylanadi.

Xalqaro lizingning afzalliklaridan biri shuki, bunda boshqa mamlakatlarning takomillashgan texnika va jihozlardan foydalanish xalqaro shartnomalarga ko‘ra moliyaviy va soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Xalqaro valuta fondi (XVF)ning qaroriga binoan chet el mashina va mexanizmlarini ijaraga olish, ijaraga oluvchi mamlakatning chet el qarzlari miqdorini oshirmaydi. Respublikamizda xalqaro lizingdan foydalanish masalasini qo‘shma lizing kompaniyalari yoki firmalarini tuzish yo‘li bilan ham hal qilish mumkin.

**[153].** Lizing shartnomasi yozma shaklda, qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda tuziladi.

Agar lizing oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim.

Quyidagilar lizing shartnomasining muhim shartlari hisoblanadi:

□ lizing obyektining tasniflanishi (lizing obyektining miqdori, sifati, ro'yxati, kontrakt qiymati va boshqa ko'rsatkichlari) va shartnoma umumiy pul summasining ko'rsatilishi;

□ taraflarning lizing obyektini olish va berish bilan bog'liq majburiyatlari;

□ lizing obyektini berish tartibi, shu jumladan, lizing obyektini yetkazib berish, montaj qilish va foydalanishga topshirish tartibi;

□ lizing to'lovlarini to'lash shartlari, miqdorlari, muddatlari va tartibi;

□ lizing obyektidan foydalanish, unga qarash, uni saqlab turish va ta'mirlash yuzasidan taraflarning majburiyatlari;

□ shartnomaning amal qilish muddati.

Taraflarning kelishuviga binoan lizing shartnomasiga quyidagi shartlar kiritilishi mumkin:

□ lizing obyektini (moliyaviy lizingdan) sotib olish tartibi va muddatlari;

□ lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish;

□ lizing obyektini sug'urta qilish;

□ fors-major holatlar;

□ lizing beruvchi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishi, agar bunday lizing obyektidan xizmatlarsiz foydalanib bo'lmasa;

□ lizing subyektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi.

Lizing shartnomasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida tuzilib, unga ko'ra lizing beruvchi lizing oluvchining topshirig'iga binoan lizing obyektini keyinchalik lizing oluvchiga berish uchun o'z mulki qilib oladi.

Taraflarning xohishiga ko'ra, lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing shartnomasi kuchga kirishidan oldin yoki keyin tuzilishi mumkin.

Lizing objekti oldi-sotdi shartnomasini tuzish paytida lizing

beruvchi lizing obykti qaysi maqsadda olinayotganligidan sotuvchini oldindan xabardor qilishi, buni oldi-sotdi shartnomasida qayd etishi shart.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchi to'laydigan **lizing to'lovlari** lizing obykti amortizatsiyasining tegishli qismi qiymatini va lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi tomonidan qilingan xarajatlarni, shuningdek, uning daromadi (marja)ni o'z ichiga oladi.

Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

Lizing shartnomasi quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi:

- shartnoma tomonlari;
- shartnoma predmeti;
- lizing shartnomasining amal qilish muddati;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- lizing to'lovlari shartlari;
- bitim obyektini sug'urta qilish;
- lizing shartnomasini bekor qilish tartibi.

Lizing shartnomasining muddatini aniqlashda lizing beruvchi va lizing oluvchi quyidagi jihatlarni hisobga olishlari lozim:

- uskunalarning xizmat ko'rsatish muddati;
- uskunalarning amortizatsiya davri;
- bitim davrida bir muncha samaraliroq yoki arzonroq analogning paydo bo'lish davri;
- inflatsiya jarayonlari dinamikasi;
- ssuda kapitallari bozori konyunkturasi va uning rivojlanish tendensiyasi.

Lizing shartnomasi tuzilish muddatiga ko'ra ijara operatsiyalarining 3 ta turi farqlanadi:

- qisqa muddatli ijara (**renting**) bir kundan bir yil muddatgacha
- o'rta muddatli ijara (**xayring**) bir yildan uch yil muddatgacha
- uzoq muddatli ijara (**lizing**) uch yildan yigirma yil va undan ko'proq muddatgacha.

Moliyaviy lizingda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obykti lizing oluvchining mulkiga o'tadi;

□ lizing shartnomasi muddati lizing obyektini xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo‘ladi yoki lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyektining qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining 20 foizidan kamni tashkil etadi;

□ lizing oluvchi lizing obyektini qat‘iy belgilangan narxda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganda aniqlanadigan narxda sotib olish huquqiga ega; lizing shartnomasi davridagi to‘lovlarning umumiy summasi lizing obyektini qiymatining 90 foizidan ortiq.

Agar lizing shartnomasida «Lizing to‘g‘risida»gi Qonun 5-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan talablardan birortasi nazarda tutilmagan bo‘lsa, lizingning bunday turi operativ lizing hisoblanadi. Operativ lizingni (ijarani) amalga oshirish tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

**[154].** Garchi lizing mohiyatan kreditlashga yaqin tushuncha bo‘lib, har ikkalasi ham investitsiyalashga xizmat qilsa-da, ular bir-biridan tubdan farq qiladi (35-jadval).

### 35-jadval.

#### Lizing va kredit, ular o‘rtasidagi farqlar

№	Farqli jihatlari	Munosabat turlari	
		Kredit	Lizing
1.	Obyektga nisbatan mulkchilik huquqi	<p>□ Mulkdan foydalanish va uni boshqarish huquqi to‘la qarz oluvchiga o‘tadi</p>	<p>□ Mulka egalik qilish va undan foydalanish mulkiy huquqdan to‘la ajraladi. Mulka ijaraga oluvchi xo‘jayinlik qiladi.</p>
2.	Sotuvchiga nisbatan xaridorning kim bo‘lishi	<p>□ Kredit oluvchi yoki uning vakili</p>	<p>Agar lizing oluvchi lizing sotuvchini o‘zi tanlasa, u holda har ikkala subyekt bir xil mavqega ega bo‘ladi. Agar lizing oluvchi lizing sotuvchini o‘zi tanlamasa, u holda lizing beruvchining o‘zi xaridor sifatida maydonga chiqadi.</p>
3.	Kredit ta‘minoti nuqtayi nazardan	<p>□ Mulknii garovga qo‘yish</p> <p>□ Bank kafolati</p>	<p>□ Asosan lizing obyektini</p>

		<input type="checkbox"/> Ipoteka <input type="checkbox"/> Sug'urta	
4.	Lizing obyektiga qilinadigan xarajat tasnifi nuqtayi nazardan	<input type="checkbox"/> Kredit hisobiga investitsiyalash	<input type="checkbox"/> Lizing to'lovlari, ya'ni: → kredit uchun to'lov; → amortizatsiya ajratmalari; → komission to'lovlar; → qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlar; → qo'shilgan qiymat solig'i; → sug'urta to'lovlari
5.	Kredit berish va uni qoplash shakli	<input type="checkbox"/> Valuta-pul shaklida	<input type="checkbox"/> Tovar shaklida; <input type="checkbox"/> Valuta-pul shaklida; <input type="checkbox"/> Aralash shaklda
6.	Kredit va savdo oldi-sotdisidagi bog'lanish nuqtayi nazardan	<input type="checkbox"/> Kredit munosabati oldi-sotdi aktini bajarish bilan bog'liq	<input type="checkbox"/> Har doim ham sotib olishdan boshlanmaydi yoki sotish bilan yakunlanmaydi
7.	Kreditni qoplash manbayi	<input type="checkbox"/> Kredit oluvchining daromadi va foydasidan	<input type="checkbox"/> Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan amortizatsiya ajratmalari va boshqalar hisobidan
8.	Qo'shilgan qiymatga soliq solish nuqtayi nazardan	<input type="checkbox"/> Soliq solinmaydi	<input type="checkbox"/> Soliq solinadi
9.	Qarziy munosabatda qatnashuvchilar nuqtayi nazardan	<input type="checkbox"/> Kreditor va kredit oluvchi	<input type="checkbox"/> Lizing beruvchi, lizing sotuvchi va lizing oluvchi

Jadvaldan ko'rib turibmizki:

agar bank uzoq muddatli kreditida undan foydalanganligi uchun soliq to'lovlaridan so'ng foyda hisobidan foiz to'lansa, lizingda esa bu to'lovlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Bu foydaga soliq solish bazasini bir muncha kamaytiradi;

agar bank krediti eng avvalo moliyalashtirishda qo'shimcha manba yaratsa, lizing odatda 100 foiz moliyalashtirishni ta'minlaydi;

lizingga olingan mulk lizing beruvchi balansida aks ettiriladi. Bu lizing oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini, xususan, rentabellik darajasini, o'z mablag'i va qarzlari koeffitsiyentlarini bir muncha yaxshilaydi, qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilishga imkon yaratadi;



ko'pgina mamlakatlarda lizing munosabatlari bank krediti orqali uskunalar sotib olishdan ko'ra tadbirkorlarning xarajatlarini 20-30 foizga kamaytirilishiga olib keladi;

lizing jadallashtirilgan amortizatsiyadan foydalanishga imkon beradi. Bu esa tadbirkorga mulk solig'i summasini kamaytirishga imkon yaratadi;

lizingda mahsulot sifati, uning butligi, yetkazib berish muddati va boshqa xizmatlar uchun lizing beruvchi emas, balki mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi javob beradi.

Lizing mulkni yollash yoki "prokat"ga olish tushunchasidan ham farq qiladi (36-jadval).

### 36-jadval.

#### Lizing va prokat o'rtasidagi farqlar

№	Baholash ko'rsatkichlari	Munosabat turlari	
		Prokat (yollash)	Lizing
1	2	3	4
1	Ishlab chiqarish vositasiga bo'lgan munosabat nuqtayi nazaridan	<input type="checkbox"/> Foydalanish	<input type="checkbox"/> Foydalanish <input type="checkbox"/> Egalik qilish <input type="checkbox"/> Qisman tasarruf qilish
2	Prokat obyekti nuqtayi nazardan	<input type="checkbox"/> Xodim	<input type="checkbox"/> Mulk
3	Resurslarga javobgar nuqtayi nazaridan	<input type="checkbox"/> Ma'naviy va qisman moddiy	<input type="checkbox"/> To'la mulkiy javobgar
4	Motiv va rag'bat nuqtayi nazaridan	<input type="checkbox"/> Birinchi navbatda fiziologik ehtiyojni qondirish	<input type="checkbox"/> Shaxsiy salohiyatini ishga solish, ijtimoiy va intellektual ehtiyojini qondirish
5	Ishlab chiqarilgan mahsulot va daromadga bo'lgan huquq nuqtayi nazaridan	Mahsulot daromadga korxonaning xo'jayinlik qiladi va o'zi	<input type="checkbox"/> Lizing oluvchi, ya'ni foydalanuvchi ixtiyorida bo'ladi
6	Tovar ishlab chiqaruvchining holati nuqtayi nazaridan	<input type="checkbox"/> Yollangan xodim	<input type="checkbox"/> Tadbirkor – mulk egasi
7	Bajaradigan funksiyasi nuqtayi	<input type="checkbox"/> Ijrochilik	<input type="checkbox"/> Ijrochilik <input type="checkbox"/> Boshqaruvchilik,

	nazaridan		ya'ni tashabbuskorlik
8	Boshqarish usuli nuqtayi nazaridan	<input type="checkbox"/> Asosan ma'muriy boshqarish usuli	<input type="checkbox"/> O'z-o'zini boshqarish <input type="checkbox"/> Boshqarishning iqtisodiy usuli
9	Muvofiqlashtirish usuli nuqtayi nazaridan	<input type="checkbox"/> Mehnat shartnomasiga	<input type="checkbox"/> Mulkiy huquq <input type="checkbox"/> Qarziy huquq <input type="checkbox"/> Tijoriy huquq munosabatlari
10	Ish haqi darajasi	<input type="checkbox"/> Mehnat shartnomasiga binoan	<input type="checkbox"/> Lizing oluvchining qoldiq daromadiga binoan
11	Menejerlar bilan munosabat nuqtayi nazaridan	<input type="checkbox"/> Iyerarxik, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga	<input type="checkbox"/> Shartnomaviy, hamkorlik
12	Tashkiliy nuqtayi nazardan	<input type="checkbox"/> Yollangan mehnat	<input type="checkbox"/> Mustaqil tadbirkorlik faoliyati

Shunday qilib, prokat ijara munosabatlarining eng oddiy turi bo'lib, bu ijaraga asosan maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tovarlar (nikoh liboslari, muzlatkichlar, televizorlar, tikuv va yozuv mashinalari, mavsumiy sport anjomlari va h.k.) beriladi. Bu ijara turining xususiyati shundaki, aksariyat hollarda muddati belgilanmaydi yoki ijara o'ta qisqa muddatli bo'ladi yoki iste'molchi undan xohlagancha foydalanishi mumkin.

Lizing esa ko'p (30-40 yil) muddatgacha bo'lishi mumkin. Bu turdagi ijaraning xususiyati shundaki, aksariyat hollarda (80-90%) lizing muddati tugagandan so'ng mulk egalari o'zgaradi, juda kam hollarda mulk egasi o'zgarmay qolishi mumkin. Lizing operatsiyasini amalga oshirish chog'ida uchta subyektning ishtirok etishi shartdir:

- ishlab chiqaruvchi – lizing beruvchi;
- iste'molchi – lizing oluvchi;
- vositachi – lizing sotuvchi.

Vositachining asosiy vazifasi shundan iboratki, u ishlab chiqaruvchidan asbob-uskunalarni sotib olib, buyurtmaga asosan iste'molchiga ma'lum bir muddatga ijaraga beradi. Shu bilan bir qatorda vositachi moliyalashtirish ishlarining barchasini o'z zimmasiga oladi. Lizing davrida vositachi (masalan, bank) iste'molchidan kelishilgan miqdordagi yillik (oylik, kvartallik, yarim yillik) badallarini olib turadi.

**[155].** Lizing bir vaqtning o'zida ham moliyalash, ham yangi texnologiyalarni xarid qilish masalalarni hal etishda o'xshashi yo'q moliyaviy vositadir. Shuni ta'kidlash joizki, lizing faoliyati bir qator rivojlangan davlatlarda iqtisodiy taraqqiyotning, kichik va o'rta biznesni

qo‘llab-quvvatlashning juda muhim va samarali shakli hisoblanadi. Lizing tufayli ham lizing sotuvchi, ham lizing beruvchi, ham lizing oluvchi, ya‘ni lizing operatsiyasida qatnashuvchi har bir subyekt manfaat topadi.

Masalan, ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) lizing operatsiyasi tufayli eng avvalo uskuna va mashinalarning oldi-sotdisini amalga oshirib, sotuv ko‘lamini kengaytirishi mumkin (37-jadval).

### 37-jadval.

#### Sotuvchi uchun lizingning afzallik tomonlari

№	Sifat jihatdan afzallik tomonlari	Afzallikni ta‘minlovchi omillar
1	2	3
1	Faol marketingni olib borish imkoni tug‘iladi	Iste‘molchilar doirasi quyidagi subyektlar hisobiga kengayadi: <input type="checkbox"/> texnikaga doimo egalik qilishga ehtiyoj sezmaydiganlar <input type="checkbox"/> uskunani sotib olishga qurbi yetmaydiganlar <input type="checkbox"/> dastlab texnikani amalda sinab ko‘rishni istovchilar <input type="checkbox"/> ijara shartida foydalanishni xohlovchilar <input type="checkbox"/> mulkka egalik qilish huquqsiz uni mulk qilish istagida bo‘luvchilar
2	Qaytma (qarshi) aloqani o‘rnatish imkoniyati bo‘ladi	<input type="checkbox"/> uskunaning nosozligini tezroq aniqlash imkoniyati
3	Ishlab chiqarishni kengaytirish va mahsulotni yangilash sur‘atini tezlashtirish imkoni bo‘ladi	<input type="checkbox"/> mahsulot modelini tezkor o‘zgartirib turishi va shu asnoda yangi bozorni egallab olish imkoniyati
4	To‘lovsizlik riskini bartaraf qilishga erishiladi	<input type="checkbox"/> lizing operatsiyasi uchun to‘lovni va kafolatni lizing kompaniyasining o‘z zimmasiga olishi
5	Samarali reklamaga erishiladi	<input type="checkbox"/> mulk lizingi sifati bo‘yicha monitoringning uni ishlatish doirasini kengaytirish, xaridorlarning potensial motivatsiyasining kuchayishi
6	Lizing uskunasi uchun zarur bo‘lgan ehtiyot va	<input type="checkbox"/> mulk lizingidan foydalanishning turli tumanligi ehtiyot qismlarga bo‘lgan talabning

	butlovchi qismlarga talabni oshiradi	kengaytirishiga olib kelishi
7	Investitsiya qilish kengayadi	<input type="checkbox"/> uskunalarning oldi-sotdisining tezlashishi ishlab chiqaruvchi ixtiyorida bo'lgan investitsiyani qisman xoli qilishi
8	Ishlab chiqaruvchi ixtiyoridagi vaqtincha realizatsiya qilinmagan mulkdan foydalanish samaradorligi oshadi	<input type="checkbox"/> qaytarib berish sharti bilan zarur muddatga mulkni lizingga berish imkoniyati

[156]. Mulkni lizingga berish lizing beruvchiga ham bir qator afzalliklarni beradi, xususan, u o'z kapitalidan investitsiya tufayli samarali foydalanishga erishadi. Bu afzalliklarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin ( 38-jadval).

### 38-jadval.

#### Lizing beruvchi (bank) uchun lizing operatsiyasining afzallik tomonlari

№	Strategik afzalliklar	Afzallikni ta'minlovchi omillar
1	2	3
1	Kreditorni himoya qilish darajasi oshadi	<input type="checkbox"/> Oldi-sotdi lizing subyekti bilan ta'minlanadi (kafolatlanadi). Bankrot bo'lish xavfi tug'ilganda lizing obyekti mulk egasiga qaytarib beriladi.
2	Lizing davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, soliq imtiyozlari beriladi	<input type="checkbox"/> Lizing beruvchi hisobidan soliq imtiyozini olish imkoni bo'ladi. Turli soliq shartlari holatida lizing beruvchiga lizing kelishuvlari evaziga qo'shimcha imtiyoz olish imkonini beradi.
3	Ishlab chiqarish vositalarini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish imkoni tug'iladi	<input type="checkbox"/> Tovar ishlab chiqaruvchilar uchun lizing munosabatlariga, yangi subyektlarni jalb qilish va shu asnoda ularning bozorini kengaytirish imkoni tug'iladi. Texnikaga bo'lgan talabni to'lash qobiliyati qo'llab-quvvatlanadi. Mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish ko'lami kengayadi, sifati oshadi.

4	Davlat manfaatlarini realizatsiya qilish qo'llab-quvvatlanadi	<input type="checkbox"/> Ishlab chiqarishni texnika va texnologiya jihatdan qayta qurollanish tezlashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyani jalb qilish imkoniyati tug'iladi. Raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish evaziga davlat budjetiga soliq tushumlari ko'payadi. Xalqaro valuta fondi lizing operatsiyalari summasini milliy qarzdorlik qismiga hisobga olmaydi. Yangi ish joylari yaratiladi, aholi turmush darajasi yaxshilanadi. Ichki iste'mol bozori yangi tovarlar va mahsulotlar bilan to'yintiriladi.
5	Lizing beruvchining moliyaviy holatini mustahkamlaydi	<input type="checkbox"/> Lizingdan olingan daromadlar va xarajatlar bir vaqtning o'zida realizatsiya qilinadi.
6	Moliyaviy leveraj samarali bo'ladi	<input type="checkbox"/> Lizing beruvchining lizing obyektidan oladigan yillik samarasi, odatda, kredit uchun foiz to'lovlaridan yuqori bo'ladi.

[157]. Mulknı lizingga olish lizingni sotib oluvchi uchun ham bir qator afzalliklarnı beradi, xususan, lizing lizing oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini investitsiyalashning muqobil usuli rolinı o'ynaydi. Shu bilan birga, u lizing oluvchining tashabbusini safarbar qilishga va ishlab chiqarish texnik salohiyatini o'stirishga xizmat qiladi. Bularni quyidagi jihatlarda ko'rishimiz mumkin (39-jadval).

**39-jadval.**

**Sotib oluvchi uchun lizing operatsiyasining afzallik tomonlari**

<b>№</b>	<b>Afzallik tomonlari</b>	<b>Afzallikni ta'minlovchi omillar</b>
1	Dastlabki o'z kapitalini ko'paytirishga bo'lgan ehtiyoj kamayadi.	Boshlang'ich oldi-sotdi lizing beruvchi tomonidan to'la moliyalashtiriladi. Zarur uskunalar uchun to'lovlarnı bir yo'la amalga oshirish talab qilinmaydi. Bu esa o'z navbatida foydalanuvchining likvid mablag'larini oshiradi va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun potensial aylanma kapitalning ko'payishiga olib keladi.
2	To'lovlar qayishqoqligi ta'minlanadi.	<input type="checkbox"/> Birinchi to'lovni kechiktirish mumkin, so'nggilarini bosqichma-bosqich ko'paytirish yoki kamaytirish, avans bilan va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. Lizingga olingan uskuna evaziga olinayotgan foydadan tovar va xizmatlar shaklida to'lash mumkin.

3	Transaksiyalardan tejash imkoniyati bo'ladi.	<input type="checkbox"/> Mulkni sotib olish, saqlash, tugatish va sotish bo'yicha ko'p mehnat talab qiluvchi operatsiyalarni chetlab o'tish evaziga lizing beruvchining ma'muriy xarajatlari kamayadi.
4	Soliq imtiyozlari va lizingni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.	<input type="checkbox"/> Ko'pgina davlatlarda lizing oluvchilarga lizing to'lovlarini bajarish davrida qo'shimcha soliq imtiyozlari beriladi.
5	Uskunalarining ma'naviy eskirishi munosabati bilan tovar ishlab chiqaruvchilardagi risk kamayadi.	<input type="checkbox"/> Uskunaning ma'naviy va jismoniy eskirishi riski lizing beruvchi zimmasida qoladi. Foydalanuvchi yangi uskunani ijaraga olishi mumkin (revolver lizing).
6	Lizing oluvchining ilmiy ishlab chiqarish potentsiali oshadi.	<input type="checkbox"/> Kreditga sotib olib so'ngra unga foiz to'lab borishdan ko'ra bir maromdagi start kapitali yordamida lizing evaziga ishlab chiqarish quvvatini ko'proq ishga solishga erishadi.
7	Tadbirkorning iqtisodiy erkinligi kengayadi.	<input type="checkbox"/> Tadbirkor lizing obyektini sotib olishi kerakmi, shartnomani uzaytirish lozimmi yoki yangi uskunani sotib olish darkormi – bularning hammasini tadbirkorning o'zi erkin hal qiladi.
8	Buxgalteriya hisobini optimallashtirish sohasida tovar ishlab chiqaruvchi yutadi.	<input type="checkbox"/> Lizing objekti lizing beruvchining mulki hisoblanadi, uning balansida hisobga olinadi va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.
9	Lizing oluvchining moliyaviy holati mustahkamlanadi.	<input type="checkbox"/> Moliyalashtirishning odatiy manbalariga (bank, yetkazib beruvchi va boshqalar) bo'lgan bog'liqlik kamayadi. Lizingdan foydalanayotgan subyekt lizing mulkiga soliq solinmaydi, ssuda olishdan ko'ra shartnoma asosida lizingni olish ham oson, ham foydali. To'lovlarni bir maromda to'lab borish inflatsiya ta'sirini, shuningdek, bankning uzoq muddatli foizlari o'sishini susaytiradi. Leverajning yuqori bo'lishini ta'minlaydi.
10	Yangi turdagi lizing obyektini o'zlashtirish riskini pasaytiradi	<input type="checkbox"/> Yetarli talab bo'lmay qolgan hol bo'lib qolsa, ijaraga olingan mulkni lizing berganga qaytarib berish imkoniyati bo'ladi.
11	Raqobatdosh afzallikka ega bo'ladi	<input type="checkbox"/> Ishlab chiqarishni hozirgi zamon uskunalari bilan jihozlash raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

12	Lizing obyektiga nisbatan jadallashtirgan amortizatsiyani qo'llash imkoni bo'ladi	□ Eskirgan uskunalarni tezkor yangilash, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollash imkoniyati tug'iladi. Foydaga solinadigan soliq miqdorini kamaytiradi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtiradi.
----	---	---

Shunday qilib, ijaraga oluvchi uchun lizing operatsiyasining afzalliklarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

□ Lizing, ishlab chiqarish va bozor konyunkturalarining o'zgarishiga tez rioya qilishga yordam beradi. Yirik kapital qo'yilmalar sarflanmasdan turib asosiy kapitalni tezkor yangilash imkoniyatini yaratadi.

□ Agarda lizing xalqaro ahamiyatga ega bo'lsa, ijaraga oluvchi, ijaraga beruvchi firma (bank) joylashgan mamlakatdagi mavjud soliq imtiyozlaridan foydalanish mumkin. Bu asosan ijara stavkasini kamaytirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

□ Mayda ishlab chiqaruvchilarda doimo kerakli mablag' bo'lmasligi mumkin. Bunday sharoitda lizing vositalarni xarid qilib olmasdan foydalanish imkoniyatini beradi, natijada esa ishlab chiqaruvchilarni kredit olishdan xalos etadi.

□ Agarda ishlab chiqarishda tezkor lizing qo'llansa, ishlab chiqaruvchi yana bir qator imtiyozlardan foydalanishi mumkin, ya'ni ishlab chiqarish vositalarining ehtiyot qismlar bilan ta'minlash va ularning ta'mirlanishi, texnikani ishlatish uchun maslahatlar va hokazolar. Bundan tashqari, tezkor lizing qo'llanilganda, mulk egasi ijaraga beruvchi bo'lganligi uchun, mulklarni saqlash bilan bog'liq xarajatlar mulk egasi tomonidan sarflanadi yoki qoplanadi.

**[158].** Chet el tajribalari iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida lizingning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Shu jihatdan rivojlangan mamlakatlarda 70-yillarda paydo bo'lgan lizing operatsiyalarini qo'llash tartiblari bilan tanishish o'rinli bo'ladi.

Masalan, Fransiyada lizing – murakkab moliyaviy operatsiya jarayoni sifatida ko'rib, unda maxsus lizing firmasi (ijara beruvchi) buyurtmachining (ijarachining) talabi va ehtiyoji uchun ishlab chiqaruvchidan zarur bo'lgan uskunalarni sotib olib, uni ijarachiga ma'lum vaqtga va ma'lum ijara haqiga beradi.

AQShda lizingga tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralib, unda buyurtmachi ehtiyoji uchun mulkdan vaqtincha foydalanish huquqi mulkdordan ijarachiga beriladi va uning natijasida lizing firmasi ma'lum

darajada daromad oladi. Lizing natijasida hech qanday narsa ishlab chiqarilmaydi va hech narsa sotilmaydi. Faqat ishlab chiqarish vositasidan foydalanish huquqi vaqtincha bir yuridik shaxsdan ikkinchi yuridik shaxsga o'tkaziladi.

1990-yil oxirlarida jahon bo'yicha lizing operatsiyalari hajmi 1 trln. AQSh dollariga teng bo'lgan. Lizing firmalari 70-yillarda paydo bo'lib, hozirgi paytda bunday faoliyat bilan Angliyada 1,5 ming, Germaniyada 2,5 ming firma shug'ullanmoqda. 30 yillik kuzatish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida lizing firmalarining sinishi kamdan-kam uchraydigan hol.

AQShda barcha yirik firmalar qoshida lizing ishlari olib boriladi. Kompaniyalar umumiy daromadining 25-30 foizini uskunalarni lizing operatsiyalari orqali ijaraga berish sababli olmoqdalar. 1990-yilda barcha lizing operatsiyalari bu mamlakatda 500 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa, shundan 120 milliard dollari uskunar hissasiga to'g'ri keladi. Zero, g'arb kompaniyalarining shiori: «vaqtdan, xomashyo va materiallardan tashqari hamma narsani ijaraga berish mumkin». Aviakompaniyalar foydalanayotgan samolyotlarning ham 43 foizi ijaradagi samolyotlardir.

Lizing o'rta va kichik firmalar uchun ham juda qulay. Ularning 60 foizi lizingdan foydalanishadi. AQShdagi 3,5 ming kichik firmalar lizingga olingan uskunalarda ishlashadi. Ba'zi korxonalarining o'z ishchilari ham bo'lmaydi. 1990-yilda kompaniyalarda 1,5 million kishilar ijarada ishlagan bo'lsa, 1995-yilga kelib ularning sonini 15 million kishiga yetkazish mo'ljallangan. Bular odatda xizmatchilar, haydovchilar, yuristlar, kadr xodimlar, buxgalterlar, o'qituvchilar, referentlar, tarjimonlar, tarbiyachilar va boshqalar.

Lizing kompaniyalari ijaraga aniq kishini emas, balki mutaxassisni, masalan, buxgalterni beradi.

Yevropa mamlakatlarida bugungi kunda lizing operatsiyalari 250 milliard dollarni tashkil qiladi. Ularning barchasida lizing to'g'risida maxsus qonunlar qabul qilingan.

Ijaraga berish muddatiga ko'ra lizing:

renting (1 soatdan 1 oygacha, masalan, avtomobillar, samolyotlar va hokazo);

xayring (1 oydan 1 yilgacha, masalan kompyuterlar);

odatdagi lizing (1 yildan oshiq, lekin uskuna yoki ijaradagi buyum amortizatsiya muddatining 80 foizi qismigacha) turlarga



bo‘linadi.

Odamlar orasida “Amerikaliklarning barchasi shaxsiy kompyuterlarga ega” degan fikr keng tarqalgan. Aslida esa 90 foiz kompyuterlar ijaradadir. Mamlakatda lizing operatsiyasi natijasida xizmat tugaganidan so‘ng uskuna ijarachiga sotilmaydi, agar xizmat muddati ichida 80 foiz amortizatsiyasi hisoblangan bo‘lsa, u holda lizing uchun belgilangan imtiyozlardan mahrum qilinadi.

Ilgari paytlarda korxonalar yangi sexlarni davlat ajratgan kapital mablag‘lar hisobiga qurar edilar. Hozir esa bunday imkoniyat juda kam. Albatta, kredit olish mumkin, lekin qisqa muddatli kreditlarni olish qiyin, foiz stavkalari ancha yuqori. Bunday paytda lizingdan foydalanish ijobiy natijalarga olib kelishi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ko‘p sinalgan.

Qoldiq qiymat bo‘yicha ishlayotgan uskuna lizing kompaniyasiga sotiladi, natijada yirik investitsiyaga ega bo‘ladi. Lizing kompaniyasining sharti – olingan pul mablag‘lari aniq ishlarga sarflanishi lozim. Bu pullar hech kimga qaytarilmaydi, foizlar to‘lanmaydi, mulkka bo‘lgan soliqdan ozod etiladi. Chunki uskunalar lizing kompaniyasining mulkiga aylanadi. Biroq ishlab chiqarish jarayoni davom etaveradi, asosiy fondlar esa korxonada qoladi, bir vaqtning o‘zida yangi sex qurilishi ham olib borilaveradi. Korxonada esa o‘sib borish tartibi (shkalasi) bo‘yicha ijara haqi to‘lab boradi: birinchi yili eng oz, oxirgi yili esa eng katta miqdorda.

Ammo lizing kompaniyalari hamma uskunalarini sotib olavermaydi. Ularni loyihaning maqsadga muvofiqligi, foydali ekanligini ishontirish lozim. Odatda, lizing kompaniyalari loyihani o‘rganish uchun mutaxassislarini taklif qilishadi.

Lizing kompaniyalarining 70-75 foizi banklar tomonidan tuzilib, muttasil nazorat qilib turiladi. Banklarning o‘zi lizing ishlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamdankam hollarda qatnashadilar. 20 foiz lizing kompaniyalarini yirik ishlab chiqaruvchilar tuzadi va qolgan 5 foizi mustaqil lizing kompaniyalaridir.
---

Lizing munosabatlarida ijarachining kafolati muhim hujjat hisoblanadi. Kafolatsiz bozor iqtisodiyotida hech qanday oldi-sotdi va boshqa ishlar amalga oshirilmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda lizing operatsiyalari bo‘yicha xarajatlar umumiy kapital qo‘yilmalarning AQShda – 30%, Angliya, Fransiya,

Shveytsiyada va Ispaniyada – 13-17% ni, Italiya va Gollandiyada – 12-14% ni, Avstriya, Daniya va Norvegiyada – 8-10% ni tashkil etadi. Yaponiyada lizing operatsiyalari bo'yicha xarajatlarning yillik o'sishi 25-30% ni tashkil etadi. AQSh da ishlab chiqarish vositalarining kengaytirilishi va modernizatsiya uchun sarflanayotgan kapital qo'yilma xarajatlarining 1/4 qismi; vositalarning to'la xarid qilish uchun emas, balki ulardan vaqtinchalik foydalanishga sarflanadi.

**[159].** Respublikamizda lizing munosabatlarini tashkil qilish va rivojlantirish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish bilan boshlandi:

- «Lizing to'g'risida»gi qonun 1999-yil 14 apreldan e'tiboran amalga kiritildi. Bu qonun mamlakatimizda rivojlanib borayotgan lizing faoliyati uchun ishonchli huquqiy negiz yaratdi. Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or texnologiyalari va uskunalari jalb etish hamda ulardan foydalanishga katta e'tibor qaratilib, mamlakatimizning jahon bozorida mustahkam o'rin olishi uchun imkoniyatlar yaratdi.

- Birin-ketin lizing kompaniyalari tashkil etila boshlandi. Bugungi kunda O'zbekiston bozorida 12 ta lizing kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda ulardan quyidagilarni qayd qilamiz:

- «O'zbeklizing interneyshnl» O'zbekiston-Malayziya qo'shma korxonasi (1995-yil yanvar);

- «Baraka» universal lizing kompaniyasi (1995-yil noyabr);

- «AYETK» Osiyo-Yevropa trust kompaniyasi Kanadaning «Raana-ni xolding interneyshnl» kompaniyasi bilan hamkorlikda (1995-yil iyul);

- «O'zkeysagrolizing» O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi (1997-yil fevral);

- «O'zaviolizing» aviatsiya lizing kompaniyasi (1997-yil noyabr);

- «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» hissadorlik kompaniyasi (2000-yil noyabr);

Lizing kompaniyalari dastlab yirik banklar va yirik ishlab chiqaruvchilar qoshida, bevosita davlatning yordamida tuzila boshlandi. Ular asosiy vositalarning egasi sifatida ularni ishlab chiqaruvchidan olib, uchinchi (yuridik, jismoniy) shaxsga ijara shartlari asosida qisqa yoki uzoq muddatga berishi mumkin. Lizing bo'yicha daromadlar-muayyan (oylik, uch oylik, yarim yillik) davrda tushadigan ijara to'lovlaridan iborat bo'ladi. Bu to'lovlar bank foizini va amortizatsiyani o'z ichiga oladi. Lizing shartnomasida, shuningdek, fondlar vositalardan foydalanuvchilar tomonidan to'la sotib olinishi ko'zda tutilishi mumkin.

Lizing kompaniyalari ishlab chiqaruvchilar, bank tizimi, ijarachilar bilan o‘zaro manfaatda bo‘ladilar. Xususan, ishlab chiqaruvchilar uchun lizing kompaniyalari ularning mahsulotlariga doimiy xaridordir. Bundan tashqari, hamma ishlab chiqaruvchilar ham o‘z mahsulotlarini xalqaro miqyosda reklama qilish imkoniyatiga ega emaslar. Kichik firmalar o‘z mahsulotlarini lizing kompaniyalariga sotishsa, lizing kompaniyalari ularni mahsulot sotish bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha xarajat va ishlardan ozod qiladi.

Bank tizimi manfaatlarida esa banklarda pulga talab kamaygan vaqtlarda ortiqcha resurslar paydo bo‘ladi. Ilgari banklar bu mablag‘larni (rivojlangan mamlakatlarda) ko‘chmas mulk sotib olishga sarflashgan. Pulga talab oshganda esa, teskari operatsiyalarni amalga oshirganlar. Ba’zi g‘arb mamlakatlarida, xususan AQShda 1985-yilda yangi Qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra har qanday mol-mulkka, u foyda keltirmasa ham, soliq belgilanadi. Endi banklar uchun o‘z mablag‘larini ko‘chmas mulkka sarflash samarali bo‘lmay qoldi.

Banklar asosan uzoq muddatli kreditlar hisobiga faoliyat yuritishadi va daromad olishadi. Bunday kredit ma’lum tahlikaga – xavfga ham ega bo‘lishi tabiiy. Kredit berilayotganda, odatda, mulk garovga qo‘yiladi. Shu nuqtayi nazardan banklar uchun ham lizing manfaatlidir. Bank lizing kompaniyasiga uzoq muddatli kredit beradi. Kredit hisobiga lizing kompaniyasi uskunalarni sotib oladi va ular firmaning mulkiga aylanadi. Agar ijarachi shartnoma talablarini bajarmasa, lizing kompaniyasi ijarachining mulkiga ega bo‘lib oladi. Agar uzoq muddatli kreditlar yiliga 10 foiz daromad bersa, lizing kompaniyalarida 12 foiz daromad olinadi.

### **Lizing kompaniyalari nimaning hisobidan daromad oladi?**

Birinchidan, ijara haqi. Ikkinchidan, ijara muddati tugagandan so‘ng uskunalarni qoldiq qiymati bo‘yicha sotadi. Ijara haqi uskuna haqi bilan xizmatlar qiymatini (bank foiz stavkalariga tenglashtiriladi) qoplashi kerak. Uchinchidan, uskunalarni sotib olish qiymati bilan ijara haqi o‘rtasidagi farq. Lizing kompaniyasi uskunalarni doimiy xaridor sifatida katta turkumlarda (partiyalarda) sotib olayotgani uchun ishlab chiqaruvchilar ularga qandaydir imtiyozlar beradilar. Bundan tashqari, mol-mulkka soliq qoldiq qiymatiga ko‘ra to‘lanadi, ijara haqi esa xizmat muddatiga qarab oshib boradi.

### **Ijarachining manfaatlari-chi?**

Ko‘p mamlakatlarda mol-mulkka soliq lizing shartnomalariga

belgilangan to'lovlardan ancha yuqori bo'ladi. Ba'zi paytlarda esa ijara usuli hozirgi zamon uskunalaridan foydalanishning yagona imkoniyati bo'lib qoladi, ayniqsa, yangi tashkil qilingan firmalar uchun. Ijarachi uchun uskunalar mulk xisoblanmaganligi sababli, firma balansiga kiritilmaydi, mol-mulkka soliq to'lanmaydi va bu sohada buxgalteriya hisobi yuritilmaydi. Ijara haqi esa to'liqligicha ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ataylab lizing bo'yicha soliq yig'ishmaydi. Ammo hukumat bugungi kun bilan emas, balki kelgusini o'ylab iqtisodiy siyosat olib boradi. Lizing fan-texnika taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ertangi kunda ishlab chiqarish bugungi olinmagan soliqlarni to'la qoplaydi, demak u iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratib beradi.

MDH respublikalarida «ijara korxonalarini» degan ibora paydo bo'lgan. Chet ellik mutaxassislar uchun bunday tushuncha mutlaqo tushunarsiz. Xalqaro amaliyotda ijara korxonalarini degan tushunchaning o'zi yo'q. Korxonalar ijaraga berilmaydi, uskunalar va binolar berilishi mumkin.

Lizing munosabatlarini O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, qishloq xo'jaligida qo'llash katta samara beradi. Masalan, AQSh da fermerlar foydalanayotgan texnikaning 80 foizi ijaraga olinadi. Axir bir yilda 10-15 kun ishlatiladigan kombaynni sotib olishdan qanday mantiq topish mumkin?

Yuqorida ta'kidlanganidek, respublika hukumati qaroriga ko'ra, 1999-yilning oktabr oyida «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» hissadorlik kompaniyasi tuzildi. Bu kompaniyaning asosiy vazifasi mamlakatimiz mashina-traktor parklari va qishloq xo'jaligi korxonalariga **moliyaviy lizing** asosida traktor va yig'im-terim texnikasini yetkazib berishdan iborat. Bundan tushgan mablag' traktor va qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar hisobiga o'z vaqtida tushiriladi. Bu hol ularga aylanma mablag'larni birinchi navbatdagi ehtiyojlariga ishlatib, uni to'ldirib turish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari esa texnika qiymatini asta-sekin, bir necha yil mobaynida to'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Texnika o'zini o'zi bemalol oqlaydi. Agar inflatsiya chiqimlari lizing oluvchiga tegishli bo'lmasdan, kompaniya riski bo'lishini ham hisobga olsak, lizing shartlari juda manfaatlidir.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligini zamonaviy, yuksak unumli texnika

bilan ta'minlashni yanada rag'batlantirish, tarmoq mashinasozligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shu jumladan, chet el ilg'or kompaniyalari ishtirokida qishloqqa yetkazib beriladigan traktor va yig'im-terim texnikasi uchun hisob-kitob mexanizmini takomillash-tirish maqsadida 2000-yilning 2 - noyabrida Vazirlar Mahkamasining «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra, 2001-2007-yillarda «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasi korxonalarini tomonidan, shu jumladan, chet el ilg'or kompaniyalari ishtirokida ishlab chiqarilgan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasi (traktor va yig'im-terim texnikasi) mashina-traktor parklarining hududiy birlashmalariga, shirkatlar va fermer xo'jaliklariga ularni 7 yillik mud-datga lizingga taqdim etish yo'li bilan quyidagi shartlarda yetkazib berilishi belgilangan:

- 15 foizlik avans mashina-traktor parklarining hududiy birlashma-lari, muqobil mashina-traktor parklari, qishloq xo'jaligi shirkatlari va fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari hisobidan;

- traktor va yig'im-terim texnikasi qiymatining 85 foizi «O'zqish-loqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan, unga zayom asosida Moliya vazirligi tomonidan beriladigan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

Mazkur qarorda, shuningdek, lizing oluvchilarga olinadigan texni-kaning butun lizing muddati davomida mulkiy risklar sug'urta polisi mavjud bo'lsagina taqdim etilishi nazarda tutilgan. Lizing kompaniyasi daromadining (marja) imtiyozli stavkasi esa Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining yarmi miqdorida belgilanadi. Masalan, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi bir yilga 24 foizni, lizing kompaniyasining marjasi 12 foizni tashkil etsa, shartli ravishda bir texnikaning narxini 5000000 so'm deb olaylik. Qishloq xo'jaligi korxonasi ana shu mablag'ning 15 foizini yoki 750000 so'mni o'z mablag'lari hisobidan to'laydi, qolgan 85 foizini, ya'ni 4250000 so'mni bank tomonidan yillik 24 foiz miqdorida jalb qilingan uzoq muddatli (7 yillik) kredit hisobidan oladi. Shunda qishloq xo'jaligi korxonasining 7 yil mobaynida bankka qaytaradigan mablag'i 7947500 (kreditning asosiy summasi 4250000 so'm, hisoblangan foizlar 3697500 so'm) so'mni tashkil etadi. Natijada texnikaning umumiy narxi 8697500 (avans 750000 so'm, bankka qaytariladigan mablag' 7947500 so'm) so'mni tashkil qiladi.

Agar u texnikani lizing kompaniyasidan lizing shartlarida 7 yil

muddatga yillik 12 foiz miqdorida oladigan bo'lsa, ana shu davrda lizing kompaniyasiga qaytariladigan mablag' 6098750 (lizing summasi 4250000 so'm hisoblangan foizlar 1848750 so'm) so'mga teng bo'ladi. Texnikaning umumiy narxi esa 6848750 (avans 750000 so'm, lizing kompaniyasiga qaytariladigan mablag' 6098750 so'm) so'mni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, bank kreditiga nisbatan moliyaviy lizing tufayli 1848750 so'm iqtisod qilinadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi korxonasi uzoq muddatli kredit olish maqsadida banklarga murojaat qilmaydi. Bu lizing oluvchilar uchun moliyaviy lizingning kreditga nisbatan afzalligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mijozlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, ular bilan bevosita aloqa o'rnatish maqsadida har bir viloyatda kompaniyaning bo'limlari tuzilmoqda. Shirkat va fermer xo'jaliklari texnikani olish ishlari bilan joylarda tanishish va lizing operatsiyalarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Muqobil mashina-traktor parklari uchun joylarda texnikani olish imkoniyatining yaratilishi esa raqobatning rivojlanishiga olib keladi. Buning uchun ularda texnika narxining 15 foiz avansini o'tkazish uchun boshlang'ich mablag', aniqrog'i, lizing oluvchining moliyaviy ahvoli lizing kompaniyasining talabi darajasida bo'lsa, bas. Agar lizing oluvchining moliyaviy ahvoli talab darajasida bo'lmasa, u holda bank yoki boshqa uchinchi yuridik shaxsning kafolati talab qilinadi.

Lizingning yana bir ijobiy tomoni shuki, u fermer xo'jaliklariga ham zamonaviy texnologiyalarni qo'lga kiritish imkonini yaratadi. Bu esa uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hukumat tomonidan lizing kompaniyalari oldiga qo'yilgan vazifalar o'z vaqtida, izchil hayotga tatbiq etilsa, iqtisodiyotimizning eng muhim sohalaridan biri bo'lmish qishloq xo'jaligining dolzarb muammosi – qishloqni texnika bilan ta'minlash masalasi to'liq hal etiladi. Oqibatda tarmoq rivoji yangi bosqichga ko'tariladi.

#### **4.5. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari**

[160]. Banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida», «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarni xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlari,

Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga muvofiq, shuningdek, «Tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalar bajarishga doir tavsiyalar» (1996-yil 26 apreldagi 211-sonli yo'riqnomaga) asosida amalga oshiradi.

Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni bajarishadi. Litsenziyada banklar bajaradigan operatsiyalar ro'yxatida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan quyidagi faoliyat turlari qayd etiladi (33-chizma):

**Banklarning qimmatli qog'ozlar  
bozoridagi operatsiyalari**



- qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va sotish hisobini yuritish, ularni saqlash;
- qimmatli qog'ozlarni xarid qilish;
- mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash;
- dilerlik, depozitor va aksionerlar reyestrini yuritish va saqlash;
- tijorat, brokerlik, trast operatsiyalarni bajarish va maslahatlar berish;
- mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish va h.k.

**33-chizma.** Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan faoliyat turlari.

Mablag'larni **qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash** turli xil qimmatli qog'ozlar:

- oddiy va imtiyozli aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- davlat qarzdorlik majburiyatlari;
- depozit sertifikatlari;
- veksel va boshqalarga mablag'larni qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Alohida olingan davlatlarda bank tizimining rivojlanishi va banklar o'tkazadigan operatsiyalarning turlari va ko'lamiga qarab ularning investitsion faoliyati turli yo'nalishlarga qaratilgan bo'lishi va shu operatsiyalar turlari bo'yicha olinadigan daromad salmog'i ham turli bo'lishi mumkin.

Masalan, Amerika banklari amaliyotida davlatning qisqa muddatli qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish odatda kam daromad keltiradi, ammo ular yuqori likvidlikka ega va ular bo'yicha to'lanmaslik riski nolga teng bo'lib, bozor stavkasining

o'zgarish riski ham kichik bo'lgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar yuqori daromad keltiradi, shuning uchun banklar ularni muddati tugaguncha saqlashadi. Banklar o'z mablag'larini munitsipalitetlarning qimmatli qog'ozlariga ham qo'yishadi, chunki ular bo'yicha to'lanadigan foiz soliqqa tortilmaydi.

O'z likvidligini ta'minlash maqsadida banklar uncha katta bo'lmagan summani boshqa qimmatli qog'ozlar:

- bank akseptlari;
- qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat qog'ozlari;
- brokerlik ssudalar;
- tovar-kredit korporatsiyalari sertifikatlariga qo'yishadi.

Daromadlilikni ta'minlash maqsadida, lekin likvidligini xavf ostiga qo'ygan holda banklar o'z mablag'larini ba'zi bir hukumat muassasalari obligatsiyalari va korporatsiyalarning birinchi darajali obligatsiyalariga investitsiya qiladilar. Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarning investitsion faoliyati daromad keltirishi nuqtayi nazaridan bank daromadi tarkibida keyingi ikkinchi manba hisoblanadi.

**[161].** O'zbekiston Respublikasi hududida qimmatli qog'ozlar chiqarilishiga va muomalada bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Davlat ro'y-xatidan o'tkazilmagan qimmatli qog'ozlarni chiqarish amaldagi qonunlarga ko'ra noqonuniy hisoblanadi. Tijorat banklari quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlarni chiqarishlari mumkin:

- ustav kapitalini shakllantirish maqsadida chiqariladigan aksiyalar;
- o'z qarz majburiyatlari: obligatsiyalar, depozit va omonat sertifikatlari;
- qo'shimcha zayom mablag'larini jalb qilish maqsadida chiqariladigan veksellar.

Barcha chiqariladigan qimmatli qog'ozlar ularning miqdori investorlar sonidan qat'iy nazar Markaziy bank qaydnomasidan o'tkazilishi shart. Tijorat banki chiqargan aksiyalar 35 yoki undan ortiq foizning yoxud 50 foizdan ortiq aksiyadorlar ovozini ta'minlovchi aksiyalarning bir shaxs tomonidan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi shaxslar guruhi tomonidan sotib olinishi O'zbekiston Respublikasining monopoliyaga qarshi siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organi subyektlarning bir-birlari mol-mulkini nazorat qiluvchilar deb e'tirof etilishi tartibi va qoidalarni belgilab qo'yadi.

Aksiyalarni chiqarish tartibi qimmatli qog'ozlarni emissiya qilinishi qayd qilish tartibiga bog'liq bo'ladi. Agar qimmatli qog'ozlarni



chiqarish bo'yicha emissiya prospekti qayd (registratsiya) qilinmaydigan bo'lsa, u holda aksiyani chiqarish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- emitent tomonidan aksiyani chiqarish to'g'risida qarorni qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarni chiqarilishini qayd qilish;

- qimmatli qog'ozlarni qayd qilish;

- chiqarilgan qimmatli qog'ozlar yakunini qayd qilish.

Agar qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha emissiya prospekti qayd qilinadigan bo'lsa, u holda aksiyani chiqarish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- emitent tomonidan aksiyani chiqarish to'g'risida qarorni qabul qilish;

- emissiya prospektini tayyorlash;

- emissiya prospekti va chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni qayd (registratsiya) qilish;

- emissiya prospektini chop etish va qimmatli qog'ozlarni chiqarish haqida ommaviy-axborot vositalari bilan e'lon qilish;

- qimmatli qog'ozlarni sotish;

- chiqarilgan qimmatli qog'ozlar yakunini qayd qilish;

- chiqarilgan qimmatli qog'ozlar yakunini chop etish.

Qimmatli qog'ozlar chiqarish bo'yicha qarorni amaldagi qonunchilik bilan kafolatlangan bank boshqaruv organlari qabul qiladi. Emissiya prospektini bank boshqaruvchi tayyorlaydi. Boshqaruv raisi va bosh buxgalter imzo qo'yadi. Tikilib, sahifalar raqamlanadi va bank muhri bilan muhrlanadi. Bu prospekt xolis auditorlik firmasi tomonidan ma'qullanishi shart. Emissiya prospekti quyidagilarni yoritishi kerak:

- a) emissiya to'g'risida asosiy ma'lumotlarni;

- b) emitentning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumotlarni;

- v) kelajakda chiqarilishi ko'zda tutilgan qimmatli qog'ozlar haqidagi ma'lumotlarni.

Aksiya chiqaruvchi bank so'nggi uch yil davomida yoxud tashkil topganiga uch yil to'lmagan vaqt davomida zararsiz ishlayotgan bo'lishi kerak. Yangi tashkil topgan bank bo'lsa, u holda eng kamida mazkur moliyaviy yilda rentabelli bo'lishi shart.

**[162].** Banklar quyidagi shartlar bajarilgan hollarda qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarni amalga oshirishlari mumkin:

- a) bankning bir korxonaga ustav kapitaliga, shuningdek, ushbu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlariga qo'yilmasining miqdori bi-

rinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak. Ushbu me'yor bir emitentning ham «investitsiyalar» hisobvaraqlari, ham «qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi» hisobvaraqlari bo'yicha nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank qo'yilmalarini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi;

b) bankning barcha emitentlar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;

v) oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank qo'yilmasi miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, bank istalgan korxonalar (moliyaviy institutlardan tashqari) ustav kapitalining 20 foizidan ortig'iga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita (sho'ba korxonalarini orqali) egalik qilishi mumkin emas.

Agar emitent faoliyati yoki amaldagi yoxud rejalashtirilayotgan bank investitsiyalari miqdori omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkinligi yoki investitsiyalarni boshqarishda bank tajribasi yetarli emasligi aniqlansa, Markaziy bank istalgan emitent qimmatli qog'ozlariga bank tomonidan kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga qo'shimcha cheklovlar belgilash huquqiga ega.

Garov huquqlarini amalga oshirish natijasida qimmatli qog'ozlar olingan hollarda bank bir oy muddat ichida olingan qimmatli qog'ozlarni sotishi shart. Agar qimmatli qog'ozlar ko'rsatilgan muddatda sotilmasa, ular «qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi» yoki «investitsiyalar» hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

**[163].** Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar zarur monitoring va operatsiyalarni amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi adekvat axborotni bank rahbariyatiga taqdim etish uchun keng qamrovli boshqaruv axborot tizimiga ega bo'lishini taqozo etadi.

Shu o'rinda shuni aytish lozimki, qimmatli qog'ozlar portfeli bo'yicha ichki hisobotlar:

- qimmatli qog'ozlar turlari va ko'rinishlari bo'yicha bo'linishini;
- sifat reytingi, nominal va bozor qiymatini;
- xarid (sotish) sanasini;
- foiz stavkalarini;
- imtiyozlarini;

- olingan dividend foizlarini;
- oldi-sotdi bitimlari bo'yicha foydani o'z ichiga oladi.

Bankning turli bo'limlari o'rtasida majburiyatlarning keraklicha taqsimlanishi, qarorlar qabul qilish hamda bitimlar turi va hajmiga doir cheklovlar belgilash bo'yicha vakolatlarning taqsimlanishi, shuningdek, suiiste'molchiliklarning oldini olish uchun banklar tegishli ichki nazoratni amalga oshiradi. Bunday ichki nazorat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oldi-sotdi arizalarini qabul qiluvchi yoki qayta ishlovchi shaxslar buxgalteriya operatsiyalarini amalga oshirmasligi, pul mablag'lari, tasdiqnomalarni olmasligi yoki buxgalterlik o'tkazmalarini taqqoslamasligi lozim;

- buxgalterlik operatsiyalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar oldi-sotdi arizalarini qabul qilmasliklari yoki tasdiqlash maqsadida bitim natijalarini taqqoslamasliklari zarur;

- barcha operatsiyalar hujjatlar bilan tasdiqlangan hamda birlamchi hujjatlar va buxgalterlik yozuvlari bilan taqqoslangan bo'lishi lozim;

- hisobvaraqlardagi qoldiqlar, kliring to'lovlar, bitimlar yoki buxgalterlik o'tkazmalariga jalb etilmagan xodimlar tomonidan muntazam ravishda taqqoslanishi va auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazilishi kerak.

Agar bank brokerlik operatsiyalarini bajarsa, u har bir mijoz uchun hisob varaqlar ochishi va mijozning qimmatli qog'ozlari bilan bajariladigan barcha operatsiyalari bo'yicha qimmatli qog'ozlarning turlari, operatsiyalar sanasi, sotilgan (sotib olingan) qimmatli qog'ozlar narxi va soni ko'rsatilgan holda yozuvlarni olib borishi kerak.

Qimmatli qog'ozlar bilan ishlashni tashkil etishda qimmatli qog'ozlar emitent anketasining namunaviy shakli va moliyaviy ahvoli quyidagicha bo'ladi:

### **Qimmatli qog'ozlar emitenti anketasi**

1. Emitentning nomi.
2. Qimmatli qog'ozlarning turlari va toifasi.
3. Qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati.
4. Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati.
5. Qimmatli qog'ozlar soni.
6. Bitim summasi.
7. Qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasi.
8. Avvalgi dividend to'lovlari to'g'risida ma'lumotlar.

9. Foizli to'lovlar stavkasi, summasi va muddati.
10. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish sanasi.
11. Qimmatli qog'ozlarni to'lash sanasi.

**40-jadval.**

**Emitentning moliyaviy ahvoli (ming so'mda)**

№	Ko'rsatkichlarning nomi	Yil boshida	hisobot sanasida
1.	Qoplash/kapital yetarliligi koeffitsiyenti		
2.	Likvidlik koeffitsiyenti		
3.	Muxtorlik koeffitsiyenti/moliyaviy leveraj		
4.	Kreditga layoqatlilik toifasi/ reyting bahosi		
5.	O'z aylanma mablag'larining mavjudligi / jami kapital		
6.	Foyda (zarar)		
7.	Bank ssudalariga doir qarzarlar / kreditorlar oldidagi qarzarlar		
8.	Debitorlik qarzlari, jami		
9.	Kreditorlik qarzlari, jami		
10.	Pul mablag'lari		
11.	Jami oson sotiladigan talablar		
12.	Jami oson sotiladigan zaxiralar		
13.	O'z manbalari, jami/ bank kapitali tarkibi – jami, jumladan:		
	– ustav fondi		
	– zaxira fondi/ umumiy maqsadlarga mo'ljallangan zaxira fondi		
	– maqsadli moliyalash va tushumlar/ kapital zaxiralar		
	– taqsimlanmagan foyda		
14.	Balans		

Boshqa ma'lumotlar

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_

Vakolatli shaxs imzosi \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_

#### **4.6. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari**

[164]. Tijorat banklari nafaqat mamlakat ichkarisida, shu bilan birga, tashqi davlatlar bilan ham turli xil operatsiyalarni amalga oshiradilar. Bunday operatsiyalar davlatlararo yoki xalqaro operatsiyalar

deb yuritiladi. Bu operatsiyalar:

- xalqaro savdoda ishtirok qiluvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni;
- ssuda kapitali bozorida investitsiya bilan bog‘liq operatsiyalarni;
- turizm sohasidagi operatsiyalarni;
- xorijiy qimmatli qog‘ozlar sotib olish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni;

□ valutani ayirboshlash, chek, veksel, inkassatsiya uchun bank akseptlarini qabul qilish bilan bog‘liq operatsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro operatsiyalardan bankka tushadigan daromadning eng asosiy qismini kredit berishdan tushadigan daromadlar tashkil qiladi. Xalqaro savdoni tijorat banklari tomonidan kreditlash tovar va tovar hujjatlarini garovga olish asosida kredit berish, aksept kreditlarini, bank ssudalarini berish shaklida amalga oshiriladi. Tashqi savdoni kreditlashning yangi shakllari ham mavjud.

Ular turkumiga:

- lizing;
- faktoring;
- forfeiting kabilarni kiritish mumkin.

O‘rta va uzoq muddatli xalqaro bank kreditlari **yevro-kredit** shaklida ham beriladi.

**[165].** Tijorat banklari bajaradigan operatsiyalarning yana bir turi – bu valuta operatsiyalaridir. Bankning bir turdagi valutani boshqa bir turdagi valutaga almashtirish bilan bog‘liq xalqaro operatsiyalari **valuta operatsiyalari** deb ataladi. Xalqaro savdo, xalqaro kredit va xizmatlar bo‘yicha hisoblashishlarda yagona to‘lov vositasiga ega bo‘lish zarurligi valuta operatsiyalarni amalga oshirishni zarur qilib qo‘yadi.

Turli xil valuta operatsiyalari yig‘indisi jahon ssuda kapitali bozorining asosiy qismlaridan biri bo‘lgan valuta<sup>1)</sup> hosil qiladi. Valuta bozorida xorijiy valutaga talab va taklif vujudga keladi. Taklif sotilgan tovar va xizmatlar uchun daromad olgan eksportyordan, talab esa sotib olingan tovar va xizmatlarni to‘lash uchun xorijiy valutaga muhtoj importyorlardan kelib chiqadi. Valuta operatsiyalari asosini tovarlar va xizmatlar, kapital va kreditlarning xalqaro harakati tashkil etadi.

Valuta bozorida operatsiyalarni alohida olingan tijorat banklari, kompaniyalar va jismoniy shaxslar amalga oshiradi. Valuta operatsiyalarining ko‘pchiligi birjadan tashqaridagi bozorlarda tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Banklar bir-biri bilan (bevosita yoki brokerlar

---

<sup>1)</sup> Valuta bozori – chet el valutasiga talabning uning taklifi bilan o‘zaro ta’sirlashish tizimi.

orqali) mijozlar bilan valuta operatsiyalarini xalqaro banklararo valuta bozorida va birjalarda olib boradi. Valuta shartnomalarining asosiy qismi xalqaro banklararo valuta bozorida tijorat banklari o'rtasida imzolanadi.

Xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi natijasida yirik xalqaro valuta bozorlari London, Parij, Nyu-York, Frankfurt-Mayn, shuningdek, Tokio, Singapur, Gonkong, Bahraynda muvaffaqiyat bilan faoliyat olib bormoqda.

Bankning valuta bozorida faolligi bankning yirikligiga, uning obro'siga, xorijiy bo'limlari va filiallari tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga, zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlanganligiga, telefon va telegraf aloqalarining rivojlanganligiga bog'liq. Valuta operatsiyalarining asosiy qismi yirik tijorat banklariga to'g'ri keladi. Ular nafaqat valuta sotadi va sotib oladi, xalqaro hisob-kitoblarni bajaradi, balki xorijiy valuta zaxiralarini saqlaydi va valuta kurslarini aniqlaydi. Boshqa banklar ularga kotirovka yuzasidan murojaat qiladi va o'z mijozlari uchun valutani sotib oladi.

Valuta operatsiyalari xorijiy valutada ifodalangan naqd pulsiz to'lov vositalari: bank depozitlari, cheklar, veksellar, o'tkazmalar hisobiga amalga oshiriladi. Naqd xorijiy valutasini hisobiga amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi ancha kichik bo'ladi.

**[166].** Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida turli xil hisob shakllari qo'llanilishi mumkin. Bular qatorida bank buyrug'iga binoan:

- pul o'tkazish (o'tkazma turi, to'lov topshiriqnomasi);
- bank cheki;
- bank vekseli;
- akkreditiv;
- inkasso shakllari qo'llanilishi mumkin.

**To'lov topshiriqnomasi** – tijorat bankining o'z mijozlari talabiga binoan uning mablag'i hisobidan to'lanishi zarur bo'lgan summani olishi shart bo'lgan xorijiy korxonaga (benefitsiarga) mablag'ni pochta yoki telegraf yo'li bilan o'tkazib qo'yish to'g'risidagi boshqa mamlakatdagi bank korrespondentga bergan buyrug'i hisoblanadi.

Valuta olishning eng tez va ishonchli vositasi – **telegraf o'tkazmasidir**. Bank korrespondentlar tomonidan maxsus kodning qo'llanilishi valuta mablag'lari bo'yicha zarar keltirish va o'z mijozlariga mablag'larni o'tkazishda bank tomonidan xatolarga yo'l qo'yishdan

saqlaydi. O'tkazmada bank ikki operatsiyani bir vaqtning o'zida bajaradi:

- milliy valuta hisobiga mijozga xorijiy valuta sotadi;
- xorijiy valutani chet elga o'tkazib beradi.

Bank o'tkazmalari orqali hisob-kitoblarda eksportchilar importchilarga yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, da'volar va o'zaro boshqa hisob-kitoblar uchun hisobvarag'i va boshqa hujjatlar yuboradilar. Bu hujjatlar asosida tovarlar va xizmatlar haqini to'laydiganlar o'z banklariga eksportchi yoki kreditorlar hisobiga pul o'tkazish to'g'risida to'lov topshiriqnomalarini yuboradilar.

Shunday qilib, xalqaro hisob-kitoblar deganda biz talablar va majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni mamlakatlararo muvofiqlashtirish tizimini tushunamiz. Xalqaro hisob-kitoblar tijorat bank – korrespondentlari orqali o'tkazma, cheklar, veksellar, o'zaro talab va majburiyatlarni tenglashtirib voz kechish yo'li bilan naqd valutasiz amalga oshiriladi.

Garchi xalqaro hisob-kitoblar shakllarining ba'zilarining o'tkazilish yo'llari ichki hisob-kitoblarga o'xshash bo'lsa-da, ammo ulardagi o'tkazish yo'llarida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin.

**Birinchi**dan, odatda ular hujjat tarzida, ya'ni moliya (chek, veksell) va tijorat (konosament, nakladnoy) hujjatlar yordamida amalga oshiriladi.

**Ikkinchi**dan, xalqaro hisob-kitoblar unifikatsiyalashgan (bir shaklga keltirilgan). Bunday shaklda hisob-kitoblarni amalga oshirishda ko'pchilik mamlakatlar banklari, shu jumladan MDH, veksell va chek konvensiyalariga amal qilishadi (Jenevada 1930 va 1931-yillarda qabul qilingan va Parij xalqaro savdo palatasi e'lon qilgan «hujjatli akkreditivlar bo'yicha unifikatsiyalashgan qoidalar»ga muvofiq xalqaro miqyosda hisob-kitob operatsiyalari olib boriladi). Bu hujjatlarga tashqi savdo aloqalarida bankka akkreditiv to'g'risida buyruq berilganda va inkasso topshiriqnomalari berilganda murojaat etish lozim bo'ladi.

[167]. Xalqaro hisob-kitoblarning yana bir vositasi **bank cheki** hisoblanadi. U bankning joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o'tkazish haqida bankka berilgan yozma farmoyishni ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, bank cheki uni yozib (to'ldirib) beruvchi bankning o'z vakillik bankiga uning joriy hisobvarag'idan chek egasiga muayyan summani o'tkazish haqidagi yozma buyrug'idir.

**Veksel** – bu muayyan miqdordagi qarzni belgilangan muddatda qat’iy to‘lash majburiyati yuklangan, qonun bilan tasdiqlangan holatda to‘ldirib rasmiylashtirilgan qarzdorlik tilxati. **Bank vekseli** esa bu o‘tkazma veksel (tratta) bo‘lib, bank tomonidan xorijiy bank korrespondent schyotiga to‘lash uchun beriladi. Bunda xalqaro banklar o‘tkazma veksellarni chiqaradi va to‘lovga qabul qiladi. Trattalar oq (ismi, familiyasi yozilmagan) o‘tkazma yoki oq muddatli, tijorat va bank trattalari turlariga bo‘linishi mumkin.

Eksport qiluvchilar xorijiy importchilarga beradigan tijorat veksellari asosida banklar, tovarlar va xizmatlarga haq to‘lashi mumkin. Agar oq tijorat vekselidan foydalanilsa, naqd pulli hisob-kitob shakliga rioya qilinadi. Agar muddatli trattadan foydalanilsa, hisob-kitob kreditga bajariladi. Bank veksellari tijorat veksellariga nibatan kengroq tarqalgan. Import qiluvchilar bank veksellarini milliy va xalqaro banklardan sotib olib, o‘z qarz majburiyatlarini uzish uchun eksport qiluvchilarga jo‘natadi.

O‘tkazma veksel egasi **trassant**, veksel bo‘yicha qarzdor **trassat** deb yuritiladi. Vekselning amal qilish muddatini cho‘zish **veksel prolongatsiyasi** deb ataladi. U qonunga muvofiq yoki qarzdor va qarz beruvchining o‘zaro kelishuviga ko‘ra rasmiylashtiriladi.

**[168]. Akkreditiv hisob-kitoblar** – bu tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz akkreditivlar bilan hisob-kitob qilish shakli. Odatda, turli shaharlarda joylashgan banklar o‘rtasida amalga oshiriladi. Tovar yetkazib beruvchi bankdan boshqa shahardagi xaridorning o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan bankka saqlashga qo‘ygan akkreditivlar hisobidan pul mablag‘larini oladi.

**Akkreditiv** – bank (bank – emitent) majburiyati bo‘lib, mol sotib oluvchi (importyor) ko‘rsatmasiga binoan mol sotuvchi (eksportyor) varag‘iga mablag‘ni o‘tkazish yoki tegishli summada (xizmat yoki tovar) akseptlashni sotuvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatga muvofiq amalga oshirishni ifodalovchi hujjat. Akkreditiv shaklidagi hisob-kitoblarda bir qancha banklar ishtirok etishi mumkin:

- akkreditivni oluvchi bank-emitent;
- sotuvchiga akkreditiv ochilgani to‘g‘risida xabar beruvchi bank;
- akkreditivni to‘lovchi yoki trattani akseptlovchi bank.

Akkreditiv operatsiyalar to‘rt asosiy bosqichni bosib o‘tadi.

---

<sup>1</sup> **Tratta** – o‘tkazma veksel. Kreditorning qarzdorga (odatda bankka) yozma buyrug‘i. Unda bankning uchinchi shaxs (remitent – taqdimchi)ga yoki trattani taqdim qilganga muayyan summadagi pulni to‘lashi ko‘rsatiladi.



**Birinchi bosqich.** Importyor tovarning jo‘natishga tayyorligi to‘g‘risida xabar olgandan keyin o‘z bankiga (bank-emitent) eksport bankida ma‘lum summa va muddatga akkreditiv topshirig‘ini beradi. Akkreditiv ochish topshirig‘i bilan birga akkreditiv berilishi uchun talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatiladi.

**Ikkinchi bosqich.** Bank-emitentga tegishli bankda akkreditiv ochiladi va eksportyorga bu haqda habar qilinadi, zarur bo‘lsa akkreditiv ochilganligi tasdiqlanadi.

**Uchinchi bosqich.** Tovarni jo‘natgan eksportyor bankka talab etilgan hujjatlarni taqdim etadi va tovar uchun tegishli to‘lovni oladi (odatda u eksportyorning hisobvarag‘iga o‘tkaziladi).

**To‘rtinchi bosqich.** Eksportyor banki tovar hujjatlarini bank emitentga yuboradi, o‘z navbatida, bu hujjatlarni importyorga taqdim etadi va akkreditiv summasini qoplaydi (importyor bu summani to‘lab beradi).

Majburiyat turiga ko‘ra, bank akkreditivi «chaqirib olinadigan» va «chaqirib olinmaydigan» tasdiqlangan bo‘ladi. «Chaqirib olinadigan» akkreditiv muddatdan ilgari importyor yoki bank-emitent ko‘rsatmasiga binoan bekor qilishi mumkin. Bunday akkreditiv eksportyor manfaatlariga javob bermaydi va amaliyotda kam uchraydi. «Chaqirilmaydigan» akkreditiv eksportyor ruxsatisiz bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin emas. U bank-emitentga eksportyorga to‘lovni amalga oshirish yoki trattani akseptlashning qat‘iy majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Eksportyor uchun «chaqirilmaydigan» akkreditiv qo‘llanilishi jihatdan afzal hisoblanadi. Agar bank-emitent akkreditivni ochuvchi bankka valuta qoplamasini jo‘natsa, akkreditiv ta‘minlangan, aks holda ta‘minlanmagan deyiladi.

**Inkasso** – xaridor hisobvarag‘idan pul summasini olish bo‘yicha bank harakati bo‘lib, mijozga xizmat ko‘rsatish hisob-kitob hujjatlari asosida va xaridorning o‘z topshirig‘iga ko‘ra amalga oshiriladi.

**Hujjatli inkasso** operatsiyasida eksportyor o‘z bankiga inkasso topshiriqnomasini beradi va tashqi savdo shartnomasida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etish bilan importyordan ma‘lum valuta miqdorini olish lozimligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, eksportyor o‘z banki orqali importyor bankiga inkassatsiya uchun hujjatlarni jo‘natadi. Inkassatsiya operatsiyasi to‘rt asosiy bosqichda o‘tadi.

**Birinchi bosqich.** Eksportyor o‘z bankiga inkasso topshiriqnomasi va unga ilova qilinadigan hujjatlarni beradi.

**Ikkinchi bosqich.** Eksportyor banki importyor mamlakatdagi bank-korrespondentga inkasso topshiriqnomasi va hujjatlarni yuboradi.

**Uchinchi bosqich.** Bank-korrespondent importyorga hujjatlarni taqdim etadi va inkasso topshiriqnomasida ko'rsatilgan summani oladi yoki trattani akseptlaydi.

**To'rtinchi bosqich.** Olingan to'lov miqdori importyor bankidan eksportyor bankiga, undan esa eksportyor hisobvarag'iga o'tkaziladi.

[169]. Valutalar o'rtasidagi nisbatni aniqlamasdan turib valuta operatsiyalarini o'tkazish mumkin emas. Bu nisbatlar valuta «kotirovka»lari yordamida o'rnatiladi.

**Valuta kotirovkasi** deganda almashtirish uchun taqdim etilgan valutalar kursini va ular o'rtasidagi nisbatni o'rnatish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, chet el valuta kursining valuta birjasida maxsus idora tomonidan belgilanishi va maxsus bulletinlarda nashr qilinishi valuta kotirovkasi deyiladi. Kotirovka, odatda, birjada amaldagi vaziyat va qonunchilik normalariga muvofiq chet el valutilari, qimmatli qog'ozlar kursini yoki mollar narxini belgilash va ularni qayd etish bilan bog'liq.

Valuta kotirovkasi rasmiy va bozor kotirovkasiga bo'linadi. **Rasmiy valuta kotirovkasi** davlat (asosan Markaziy bank) tomonidan amalga oshiriladi. Rasmiy valuta kursidan davlat valuta operatsiyalarida, bojxona ishlarida, to'lov balansini tuzishda foydalaniladi.

Shuni qayd qilish lozimki, Markaziy emissiya banki belgilaydigan rasmiy valuta kursini hukumat belgilaydigan maxsus yoki valuta bozorida vujudga keladigan erkin valuta kursidan farq qilish kerak. Bozor kotirovkasi talab va taklifning joriy nisbati asosida doimo o'zgarib turadi. U nobirjaviy valuta bozorida amalga oshiriladi. Keskin valuta cheklovlari mavjud mamlakatlarda bozor kotirovkasi deyarli qo'llanilmaydi. Hamma operatsiyalar rasmiy kurs bo'yicha amalga oshadi.

**Valuta kursi** – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valuta operatsiyalarini, shuningdek, bojxona to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha hisob-kitoblarni bajarish uchun quyidagi chet el valuta kursining so'mga nisbatan bo'lgan narxini rasmiy ravishda e'lon qildi:

Chet el valutalari	2002 yil 30 iyul (so‘m)	2004 yil. 11 may (so‘m) <sup>1</sup>	2008 yil. 20 may (so‘m)
1 Angliya funt sterlingi	1196,36	1797,22	2546,25
1 AQSh dollari	761,25	1009,11	1306,84
1 Xitoy yuani	91,97	121,92	186,93
1000 Turkiya lirasi	0,45	0,67	0,10
1 YEVRO	750,36	1194,69	2022,07
10 Yaponiya iyeni	63,86	89,70	125,36
1 Rossiya rubli	24,16	34,85	54,85
1 Ukraina grivnasi	142,86	189,38	258,78

Demak, 2008-yil 20-maydan bir hafta mobaynida O‘zbekiston Respublikasi valuta birjasida AQSh ning 1 dollari – 1306,84 so‘m, 1 YEVRO – 2022,07 so‘m, 1 Rossiya rubli – 54,85 so‘mga sotiladi. Shu narx dollarning, YEVRO va Rossiya rublining so‘mdagi valuta kursi bo‘ladi, ya’ni pulning pulga sotilish narxi valuta kursi deyiladi.

Shu narxga ko‘ra valutarlar birligi o‘rtasidagi nisbat **valuta pariteti** deyiladi. Masalan, 1 dollarning 1306,84 so‘mga sotilishi dollarning valuta kursi, ular o‘rtasidagi nisbatning 1306,84 bo‘lishi valuta paritetidir. Uni valuta birligining qurbi, ya’ni uning xarid qobiliyati belgilaydi. Masalan, bir dollar, bir marka, bir so‘m, bir tanga, bir yuan, bir frankka nima olish mumkin, shunga qarab valuta shakllanadi. Valutaning qurbi narxga bog‘liq. Valuta kursini hisoblashda eng muhim tovarlar narxiga qarab har bir valutaning qurbi aniqlanadi.

Valuta kursining oshishi chetdan tovar keltirishni arzon qiladi, uning pasayishi esa chetga chiqariladigan tovar narxini oshiradi. Bunday hollarda tovarni tashqariga chiqarib, mamlakatdagi narxga nisbatan bir necha barobar arzon sotish ham ma’qul bo‘ladi. Masalan, kostyum ichki bozorda 50 ming so‘m turadi, tashqi bozorda xuddi shunday kostyum narxi 100 dollar. Valuta kursiga ko‘ra 1 dollar 1306,84 so‘m. Dollar hisobida kostyumning ichki bozordagi narxi:

$$50\ 000 : 1306,84\ \text{so‘m} = 38,3\ \text{dollar}.$$

So‘m kursining oshishi tashqi bozorda 100 dollarga sotiladigan kostyumning 38,3 dollarga sotilishiga olib keladi. Natijada eksport qiluvchi har bir kostyumdan 61,7 dollar yutishga muvaffaq bo‘lishi mumkin.

Valuta kursini aniqlash usullari valuta tizimlarining xususiyatlariga qarab turli mamlakatlarda turlichadir. Keskin valuta cheklovlari mavjud

<sup>1</sup> Qarang: «O‘zbekiston ovozi» gazetasi, 2008 – yil 20 may.

davlatlarda valuta kursi ikki usulda oʻrnatilishi mumkin.

- sof boshqaruv usuli;
- valuta koridori chegarasini belgilash usuli.

**Birinchi usulda** hukumat yoki Markaziy bank talab va taklif darajasidan qatʼiy nazar milliy valutaning kursini belgilaydi. Bunday valuta kursi boshqa valuta yoki bir qancha valutarlar (valuta savati)ga nisbatan belgilanadi.

**Ikkinchi usul** Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Ruminiya kabi davlatlarda koʻproq qoʻllaniladi. Bu usulda Markaziy bank rasmiy valuta kursini birja kursi darajasida belgilaydi va birja kursining rasmiy valuta kursiga nisbatan oʻzgarish chegarasini belgilab beradi. Valuta kursining shu oʻzgarish chegarasini belgilab berish bank ishida **valuta koridori** deb yuritiladi.

Amaliyotda valutaning birjadagi kursining rasmiy kursga nisbatan oʻzgarish xavfi kuzatilsa, Markaziy bank **valuta intervensiyasini** amalga oshiradi, yaʼni xorijiy valutani sotadi va sotib oladi.

Valutaviy cheklashlar yoʻq yoki sezilmas darajada boʻlgan davlatlarda Markaziy bank talab va taklif (milliy valutaning erkin suzib yurishida) hamda valuta intervensiyasi (boshqariluvchi suzishda)dan kelib chiqqan holda valuta kursini belgilaydi. Valuta birjalari faoliyat koʻrsatuvchi davlatlarda valuta kursi qariyb har kuni birja makleri va Markaziy bank tomonidan valutani sotish va sotib olishga berilgan arizalar, Markaziy bank intervensiyasi siyosati boʻyicha faoliyatini inobatga olgan holda oʻrnatiladi.

Valuta cheklashlari deyarli yoʻq (sezilarsiz) yoki yoʻq mamlakatlarda bozor kursini bir-biri bilan doimiy aloqada boʻlgan yirik tijorat banklari oʻrnatadi. Bu banklarni **market-meykerlar** deb ataydilar. Boshqa banklar kotirovka yuzasidan ularga murojaat qilishadi. Banklararo valuta kotirovkalari market-meykerlar tomonidan har bir valuta boʻyicha mavjud boʻlgan yoki kutilayotgan talab va taklifni taqqoslash (bu operatsiya amaliyotda **fiksing** deb ataladi) asosida belgilanadi.

Valuta birjasi yoʻq davlatlarda valuta bozori qatnashchilari banklararo kurslardan foydalanishadi. Banklararo bozordagi oʻrtacha kurs bank mijozlari uchun valuta kursini oʻrnatishning asosi boʻlib xizmat qiladi. Valuta birjalari mavjud davlatlarda banklararo kotirovkalar banklarning toʻlov aylanishi, toʻlovga layoqatliligini hisobga olgan holda, rasmiy birja kotirovkalari atrofida oʻzgarib turishi mumkin. Bunday

banklarda rasmiy birja kotirovkasi ularning mijozlari uchun valuta kurslarining asosi bo'lib xizmat qiladi. Erkin valuta bozorida uning har bir elementlari (birjadagi va birjadan tashqaridagi) bir-biriga ta'sir etadi va ulardagi valuta kotirovkalari o'zaro bog'liq bo'ladi.

Valuta bozorida valutani kotirovka qilishning ikki usuli mavjud: to'g'ri va egri. Ko'pchilik davlatlarda to'g'ri kurs qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati shundaki, xorijiy valuta birligining kursi to'g'ridan-to'g'ri milliy valutada ifodalanadi. Egri kotirovkada milliy valuta birligi ma'lum miqdordagi xorijiy valutada ifodalanadi. Bu usul (egri kotirovka) Buyuk Britaniyada, 1987-yildan esa qisman AQShda qo'llaniladi. Banklararo valuta bozorlarida valuta kursining kotirovkasi ko'proq AQSh dollariga nisbatan belgilanadi. Bu hol dollarning xalqaro to'lovlarda ko'p qo'llanishi va rezerv vositasi sifatida saqlanishi bilan bog'liq.

[170]. Savdo-sanoat sohasida faoliyat olib boruvchi mijozlar uchun valuta kotirovkalari amalga oshirish kross-kursga asoslanadi.

**Kross-kurs** – bu ikki valuta o'rtasida uchinchi valutaga nisbatan aniqlanadigan kurslar nisbatidir. Masalan, O'zbekiston Markaziy banki yapon iyeniga nisbatan kursini aniqlamoqchi deylik. Bu holda iyenning so'mga nisbatan kursi dollarga asoslangan holda aniqlanadi. Yuqoridagi jadvaldagi valuta kurslariga binoan 761,25 so'm 1 dollarga teng. 1 yapon iyani esa 6,4 so'mga teng. Xo'sh, yapon iyani dollarda qanday aniqlanadi?

$$\text{Kross-kurs} = \frac{1\$ = 761,25 \text{ so'm}}{1 \text{ yapon iyani} = 6,39 \text{ so'm}} = 119,1 \text{ yapon iyeniga teng.}$$

Demak, 1 AQSh dollari 119,1 yapon iyeniga teng ekan. Aynan shu ko'rsatkich kross-kurs ko'rsatkichini o'zida ifoda etadi.

[171]. Valuta kursini barqarorlashtirishda davlat asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu ishni u ikki yo'l bilan amalga oshiradi.

**Birinchidan**, davlat o'z pulini kredit bozoriga tashlab yoki kredit bozoridan chiqarib foiz stavkasiga ta'sir etadi. Agar foiz oshsa, kredit ham olinadi, kredit puliga kamroq valuta xarid etiladi. Natijada xorij valutasining narxi pasayib, milliy valuta kursi oshadi. Agar foiz stavkasi kamaysa, buning aksi yuz beradi.

**Ikkinchidan**, davlat valuta intervensiyasiga qo'l uradi, ya'ni o'z valutasini kursini barqaror saqlash yoki oshirishni ko'zlasa, o'z ixtiyoridagi chet el valutasini bozorga tashlaydi, natijada xorij valutasini

kursi pasayadi, milliy valuta kursi oshadi. Valuta ko'paysa, uning narxi arzonlashadi.

Milliy valuta kursining davlat tomonidan rasman pasaytirilishi **devalvatsiya** deyiladi. Masalan, 1 dollar 761 so'm bo'lsa, so'm devalvatsiya etilgach, uning kursi pasaytirilib, 1 dollar 771 so'm bo'lib qoladi. Valuta kursining rasmiy oshirilishi **revalvatsiya** deyiladi. Agar 1 dollar 761 so'm bo'lsa, so'm revalvatsiyasidan so'ng 1 dollar 700 so'm bo'ladi.

Valuta kursi ikki turga bo'linishi mumkin:

- qat'iy o'zgarmaydigan kurs – valutar narxi barqaror turadi;
- suzib yuruvchi kurs – valutar kursi o'zgarib turadi, ammo ma'lum chegarada yuz beradi, ya'ni kurs cheksiz oshib yoki kamayib ketmaydi. Bunda valuta kursining yuqori va quyi chegarasi belgilanib, kurs shu oraliqda va me'yorda o'zgaradi.

[172]. Agar milliy valuta boshqa valutilarga almashtirilmasa, xalqaro hisob-kitob operatsiyalari amalga oshmaydi. Shu sababli albatta valuta konvertatsiyasi (almashtirilishi) talab qilinadi.

Milliy valutaning **konvertatsiyasi** uni boshqa valutilarga almasha olish xususiyatidir.

Valuta kursi pul qadrini ifodalaydi. Xalqaro miqyosdagi o'z qadri va obro'-e'tiboriga qarab, valutar ikki guruhga bo'linadi:

- **konvertirlangan valuta** – boshqa valutilarga erkin almasha oladigan pul;
- **konvertirlanmagan valuta** – boshqa valutilarga almashtirish uchun qabul etilmaydigan kurs.

Valutaning qaysi guruhga kirishi uning barqarorligiga bog'liq.

Konvertirlanadigan valutar boshqa pulga almasha oladi, lekin bu cheksiz yoki me'yorli bo'lishi mumkin. Shu jihatdan ularning o'zi ikki turga bo'linadi:

- **To'la-to'kis (erkin) konvertirlanuvchi valutar.** Ular mamlakat ichida ham, xorijda ham boshqa valutaga erkin almashadi. Yer yuzida 100 ga yaqin shunday milliy valutar bor. Ammo ular orasida erkin konvertirlanadigan valutar borki, ular o'ta obro'li va hamma yerda jon deb qabul qilinadi, ular amalda jahon puli vazifasini o'taydilar. Bular jumlasiga AQSh dollari, yevro, Shveysariya franki, Yaponiya iyenasi, Ingliz funt sterlingi, Kanada dollari kiradi.

- **Qisman konvertirlanadigan valutar.** Ular ma'lum pul

operatsiyalarini o'tkazish uchun yoki cheklangan holda boshqa valutaga almashadigan pul. Bu pul o'z-o'zidan jahon puli emas, uning amal qilish doirasi cheklangan. Masalan, Shveysariya franki erkin konvertirlangan bo'lsa, Fransuz franki bunday emas, u cheklangan holda konvertirlanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, jumladan, mamlakatimizda konvertirlangan valutaning bo'lmasligi, uning jahon bozoriga, xususan, kapital bozoriga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Konvertirlangan valuta yo'q joyga xorij kapitali oshiqmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning sharti, eng avval pulni **ichki konvertabelligini** ta'minlash – mamlakat ichki bozorida milliy pulning xorijiy valutaga erkin ayirboshlanishini ta'minlashdir.

So'ngra esa pulni tashqi valuta bozorida konvertirlash zarur bo'ladi. Shunday valutaning yuzaga kelishi jahon iqtisodiyotiga qo'shilishning muhim sharti hisoblanadi.

Konvertirlanmaydigan valutalar boshqa valutaga almashtirilmaydi. Ularning sohibi bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiyoti qoloq, eksport potentsiali zaif, shu sababli bu yerda xorijiy valuta zaxiralari oz bo'ladi. Konvertatsiya milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligiga qo'shilishiga olib keladi, shu bois u ertami-kechmi hamma yerda yuz beradi.

[173]. Banklar valutalar kotirovkasini o'tkazganda valuta bo'yicha:

- sotuvchi kursini;
- sotib oluvchi kursini belgilaydilar.

Valutani kotirovka qiluvchi bank valuta bitimini doimo o'zi uchun qulay bo'lgan kurs bo'yicha tuzadi. Banklar doimo xorijiy valutani sotib olganidan ko'ra qimmatroqqa sotadilar. Masalan, Nyu-York va London valuta birjalarida dollarning funt sterlingga to'g'ri kotirovkasi amalga oshiriladigan bo'lsa:

- 1 f.st. = 1,4620 dollar – bu sotib olish kursi;
- 1 f.st. = 1,5060 dollar – sotish kursi.

Ko'rinib turibdiki, Nyu-York banki Angliya valutasini arzonga sotib olgan va qimmatiga, ya'ni 1 f.st.ga ko'proq dollar (1,5060) ga sotgan. To'g'ri kotirovkada sotuvchi kursi doimo sotib oluvchilar kursidan yuqori bo'ladi. o'rtadagi farq **marja** deyiladi va **bankning foydasini** tashkil qiladi.

Marja hajmi turli omillarga bog'liq. Odatda beqaror konyunktura davrida, valuta kurslaridagi farqdan zarar ko'rishi ehtimoli yuqori davrlarda marja oshadi. Marja miqdoriga shartnoma hajmi ham ta'sir etadi: u kichik bo'lsa, marja yuqori bo'ladi. Rasmiy axborotnomalarda

valuta sotish va sotib olish bo'yicha yoki ikkala kurs, ulardan bir yoki o'rtacha kurs ko'rsatilishi mumkin. O'rtacha kurs – sotuvchi va sotib oluvchi kurslarning o'rta arifmetigi. **Sotuvchi o'rtacha kursi** – sotuvchi va o'rtacha kursning o'rta arifmetik qiymati. **Xaridor o'rtacha kursi** – xaridor va o'rtacha kursning o'rta arifmetik qiymati.

Xalqaro to'lov aylanmasida xorijiy valuta naqd emas, balki naqdsiz holatda amal qiladi. Tabiiyki, turli xil to'lov vositalari kurslari turlicha, chunki ularning ishonchlilik va valuta riski darajalari turlichadir. Telegraf o'tkazmasi bo'yicha valuta kursi eng yuqoridir, chunki unda xorijiy valuta shu zahoti yoki kelasi kuni to'lanadi. Bu operatsiya valuta riskini deyarli chetlab o'tishga imkon beradi. Odatda, ularning kurslari rasmiy byulleten va kotirovka jadvallarida e'lon qilinadi. Boshqa to'lov vositalari kursi u asosida aniqlanadi.

[174]. Valuta bozorida turli turdagi shartnomalar amal qiladi. Ularning ko'pchiligi **spot** shartlari asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, bitimni imzolash va bajarish vaqtlari qariyb mos keladi. Bitimning bunday turida valuta sotuvchidan sotib oluvchiga shartnoma imzolanishi bilanoq (ko'pi bilan ikki ish kunida) yetkaziladi. Spot shartnomalariga jami valuta shartnomalarining 90 foizi to'g'ri keladi.

Ikkinchi valuta shartnomasi turi – **muddatli** shartnoma. Bunday shartnomalarning ikki xususiyati bor.

**Birinchidan**, shartnoma imzolanishi va bajarilishi orasida ma'lum vaqt intervali bor. Bir haftadan olti-o'n ikki oygacha.

**Ikkinchidan**, valuta kursi shartnoma imzolangan davrda belgilangani bo'yicha qabul qilinadi. Valuta kurslari o'zgarishlari unga ta'sir etmaydi. Muddatli shartnomalar valuta risklaridan sug'urtalanish yoki valuta spekulatsiyasi maqsadida amalga oshiriladi. Eksportyor o'zini xorijiy valuta kursining tushishidan sug'urtalash maqsadida kelgusi valuta daromadini muddatli kurs bo'yicha sotishi mumkin. Importyor xorijiy valuta kursi oshishidan o'zini sug'urtalash maqsadida kelgusi valuta tushumini ma'lum muddatga, muddatli kurs bo'yicha sotishi mumkin.

Rivojlangan davlatlar valuta bozorlarida valuta kursining o'zgarishiga qarab ishlovchi valutachilar faoliyati to'g'risida qisqacha to'xtalish mumkin. Bu valutachilarning asosiy maqsadi valuta bozorida valuta kurslarining o'zgarishi asosida katta foyda olishdan iborat. Valuta kursining oshishi yoki pasayishiga qarab faoliyat ko'rsatuvchilar xalqaro



amaliyotda «**ayiqqlar**» va «**buqalar**» deb ataladi. Ular faoliyatining mohiyati quyidagilardan iborat. Agar valuta kursi tushishi kutilsa, valuta kursi pasayishiga o‘ynovchilar (ularni xalqaro amaliyotda «ayiqqlar» deb atashadi) valutani shartnoma tuzilgan davr (muddatli kurs) kursi bilan sotish to‘g‘risida muddatli shartnoma tuzadilar. Agar bu muddatda valuta kursi tushsa, ayiqlar valutani bozordan pasaygan kursda sotib olib, uni muddatli kurs, ya’ni oldingi shartnomada ko‘rsatilgan yuqori kurs bo‘yicha sotadilar va kurslar o‘rtasidagi farq miqdorida foyda oladilar.

Valuta kursining ko‘tarilishiga o‘ynovchilar («buqalar») esa valuta kursi oshishi kutilganda, valutani keyinchalik shartnoma tuzilgan vaqtdagi kurs bo‘yicha sotib olishga kelishilgan muddatli shartnoma tuzadilar. Kurs oshganda esa valutani muddatli shartnomada belgilangan (oldingi) narx bo‘yicha sotib oladilar va oshgan yuqori narxda sotib foyda ko‘radilar.

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan muddatli operatsiyalar **forvard** operatsiyalari deb yuritiladi.

Forvard operatsiyalaridagi valuta kursi spot shartnomasi bo‘yicha kursdan farqlanadi. U mukofot va chegirma usuli bilan o‘rnatiladi. Mukofot forvard kursi spot kursidan mukofot miqdoriga ko‘pligini bildiradi. Forvard marjasi, ya’ni spot va forvard orasida farq jahon kapitali bozoridagi depozitlarning foiz stavkalariga bog‘liq bo‘ladi. Depozit foizi kichik davlatlarda valuta kursi mukofot bilan, katta davlatlarda valuta kursi chegirma bilan belgilanadi.

Kassa va forvard operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi valuta shartnomalaridan biri **svop** shartnomasidir. Bu shartnoma ikki valuta savdo-sotig‘ini darhol amalga oshirish sharti (spot) va shu bilan birga unga qarshi muddatli shartnoma tuzishni anglatadi. Masalan, dollarni markaga spot shartida sotish va shu zahoti uni sotib olish bo‘yicha muddatli shartnoma tuzish yoki unga teskari operatsiya dollarni markaga sotib olish spot shartnomasi va uni sotish bo‘yicha muddatli shartnomani tuzish kiradi.

Forvard shartnomasi turlaridan biri **opsion** shartnomasidir. Opsion shartnomasini o‘ziga xos xususiyati sotib oluvchining valutani emas, balki uni sotib olish huquqini sotib olishidir. Bunda sotuvchi ma’lum valutani ma’lum miqdorda sotish yoki sotib olish majburiyatini oladi. Sotib oluvchi esa shu miqdordagi valutani sotish yoki sotib olish huquqidan foydalanmaslik huquqiga ham ega. U bu uchun sotuvchiga

opsion mukofotini to'laydi. Agar sotib oluvchi o'z huquqidan foydalanmasa, u mukofot summasida zarar ko'radi.

«Spot», forvard va opsion shartnomalari banklararo bozorlarda va birjalarda amalga oshiriladi. Birjada amalga oshiriladigan ixtisoslashgan shartnomalarga **fyuchers** shartnomalari kiradi. Fyuchers operatsiyalari fyuchers shartnomalarini sotish va sotib olish bo'yicha tuziladi. Fyuchers operatsiyasi valutani sotib olish yoki unga qarama-qarshi operatsiya bilan tugaydi. Fyuchers operatsiyasining natijasi bu yutqazgan tomonning yutgan tomonga shartnoma tuzilgan va amalga oshirilgan vaqt orasidagi kursi farqini to'lashdir. Bu farqni birjaning hisob-kitob (kliring) palatasi to'lab beradi. Fyuchers shartnomalari imzolanishi bilan birjaning hisoblash markazida ro'yxatdan o'tadi.

Fyuchers va boshqa muddatli shartnomalarning maqsadi valuta operatsiyalarini **xejirlash** yoki chayqovchilik asosida foyda olishdir. Banklar o'z mijozlarining valuta risklarini o'z zimmasiga olsalar (forvard operatsiya o'tkazganda), unga teskari fyuchers bitimi yordamida bu risklarni kamaytiradi (yo'qotadi)lar. Fyuchers bitimi tugaganda esa ular real tovarlar bitimidan ko'rgan zararni, valuta kursi orasidagi farqdan olgan daromadi hisobidan qoplash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

[175]. Valuta kursi orasidagi farq tufayli foyda olish maqsadida banklar **valuta arbitrajini** o'tkazishadi. Bu valutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim qilib, valuta kurslari farqi yordamida foyda olish maqsadida o'tkazishni ifodalaydi. Arbitraj ikki xil - joylashuvga ko'ra va vaqtli bo'ladi. Joylashuvga ko'ra arbitraj banklarning turli valuta bozorlaridagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valuta riski bilan bog'liq emas, chunki valuta savdosi bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Masalan, bank vakili Gonkongda valutani sotib oladi (sotadi) va shu vaqtning o'zida u o'zining Nyu-Yorkdagi korrespondenti orqali shu valutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtli arbitraj vaqt o'tishi bilan valuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valuta arbitraji spot va forvard sharoitida amalga oshirishi mumkin va bu turdagi operatsiyalarda valuta risklari mavjud bo'ladi.

[176]. Bank valuta operatsiyalarini bajarganda unga o'z valuta resurslarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valutalar bo'yicha majburiyat va talablari orasidagi nisbat o'zgaradi. Bankning xorijiy valutalarni sotish va sotib olish jarayonida valutalar bo'yicha

talab va majburiyatlar nisbati holati banklarning valutaviy holati deyiladi. Valuta bo'yicha majburiyatlar va talablar teng bo'lgan holda yopiq, teng bo'lmagani ochiq valuta holati deyiladi.

**Ochiq valutaviy holatida** – bank valuta bo'yicha qarshi bitimni amalga oshirganda valuta kursining o'zgarishi natijasida oldingi sotgan valutasiga nisbatan kam valuta olishi, ya'ni zarar ko'rishi mumkin. Shuning uchun bu holatda valuta kursining o'zgarishi valuta riskining vujudga kelishiga olib keladi.

Ochiq valutaviy holati uzoq yoki qisqa bo'lishi mumkin.

**Qisqa valutaviy holatida** sotilgan valuta bo'yicha majburiyatlar, sotib olingan valuta bo'yicha talablardan oshadi, ya'ni xorijiy valutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'ladi.

**Uzoq valutaviy holatda** esa, aksincha, xorijiy valutani sotib olish uni sotishdan yuqori bo'ladi, ya'ni sotib olingan valuta bo'yicha talablar uni sotish majburiyatlaridan ko'p bo'ladi. Bu holatlarni quyidagi misollar bilan yaqqolroq tushuntirish mumkin.

Masalan, ertalab bankda Yapon iyeni va funt sterling bo'yicha yopiq valuta holati bo'lsin. Bank ochilishi bilan mijoz bankka iyenga funt sterling sotish to'g'risidagi murojaat qilsin. Agar shu paytda 1 funt sterling kursi = 172 iyen bo'lsa, bank mijozga 172 valuta kursi bo'yicha 1 million funt sterlingni sotsin. Bunda bank ochiq valutaviy holatiga ega bo'ladi.

Angliya funt sterlingi bo'yicha qisqa valutaviy holati = 1 000 000 funt sterling.

Yaponiya iyeni bo'yicha uzoq valutaviy holati = 172 000 000 Yaponiya iyeni.

Banklar har bir valutaviy holat bo'yicha risklar darajasini belgilaydilar.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida valutaviy holatni doimiy ravishda nazorat qilish uchun ular bilan bog'liq jarayonlar EHMLariga kiritiladi va undagi ma'lumotlar bo'yicha valuta risklarining oldini olish choralari ko'rib boriladi.

#### 4.7. Tayanch iboralar

- |  |   |
|--|---|
| <input type="checkbox"/> <i>passiv operatsiyalar</i> | <input type="checkbox"/> <i>investitsion siyosat</i>  |
| <input type="checkbox"/> <i>depozit</i>              | <input type="checkbox"/> <i>investitsion faoliyat</i> |
| <input type="checkbox"/> <i>depozit sertifikat</i>   | <input type="checkbox"/> <i>investitsion iqlim</i>    |
| <input type="checkbox"/> <i>depozit banki</i>        | <input type="checkbox"/> <i>xazina veksellari</i>     |
| <input type="checkbox"/> <i>depozit indossamenti</i> | <input type="checkbox"/> <i>xazina majburiyatlari</i> |

- |  |   |
|--|---|
| <input type="checkbox"/> <i>depozit muassasasi</i>                           | <input type="checkbox"/> <i>xazina obligatsiyalari</i>  |
| <input type="checkbox"/> <i>kredit uyushmalar</i>                            | <input type="checkbox"/> <i>sertifikat</i>              |
| <input type="checkbox"/> <i>depozit multiplikatori</i>                       | <input type="checkbox"/> <i>aksept</i>                  |
| <input type="checkbox"/> <i>depozitariy</i>                                  | <input type="checkbox"/> <i>akseptant</i>               |
| <input type="checkbox"/> <i>depozit sertifikati</i>                          | <input type="checkbox"/> <i>akseptlash</i>              |
| <input type="checkbox"/> <i>nodepozitlar</i>                                 | <input type="checkbox"/> <i>akseptlangan chek</i>       |
| <input type="checkbox"/> <i>investitsiya portfeli</i>                        | <input type="checkbox"/> <i>bank aksepti</i>            |
| <input type="checkbox"/> <i>investitsiya portfelini diversifikatsiyalash</i> | <input type="checkbox"/> <i>komission operatsiyalar</i> |
| <input type="checkbox"/> <i>trast bitimlar</i>                               | <input type="checkbox"/> <i>trast operatsiyalar</i>     |
| <input type="checkbox"/> <i>trast kompaniya</i>                              | <input type="checkbox"/> <i>akkreditiv operatsiya</i>   |
| <input type="checkbox"/> <i>trast-vakil</i>                                  | <input type="checkbox"/> <i>inkassa operatsiyalari</i>  |
| <input type="checkbox"/> <i>lizing</i>                                       | <input type="checkbox"/> <i>faktoring</i>               |
| <input type="checkbox"/> <i>lizing subyektlari</i>                           | <input type="checkbox"/> <i>ishonch operatsiyalar</i>   |
| <input type="checkbox"/> <i>lizing obyektlari</i>                            | <input type="checkbox"/> <i>qimmatli qog'ozlar</i>      |
| <input type="checkbox"/> <i>lizing turlari</i>                               | <input type="checkbox"/> <i>emitent</i>                 |
| <input type="checkbox"/> <i>moliyaviy lizing</i>                             | <input type="checkbox"/> <i>xalqaro operatsiyalar</i>   |
| <input type="checkbox"/> <i>xalqaro lizing</i>                               | <input type="checkbox"/> <i>valuta operatsiyalari</i>   |
| <input type="checkbox"/> <i>renting</i>                                      | <input type="checkbox"/> <i>veksel</i>                  |
| <input type="checkbox"/> <i>xayring</i>                                      | <input type="checkbox"/> <i>trassant</i>                |
| <input type="checkbox"/> <i>inkasso</i>                                      | <input type="checkbox"/> <i>trassat</i>                 |
| <input type="checkbox"/> <i>valuta kursi</i>                                 | <input type="checkbox"/> <i>veksel prolongatsiyasi</i>  |
| <input type="checkbox"/> <i>valuta kotirovkasi</i>                           | <input type="checkbox"/> <i>tratta</i>                  |
| <input type="checkbox"/> <i>valuta pariteti</i>                              | <input type="checkbox"/> <i>market-maykerlar</i>        |
| <input type="checkbox"/> <i>valuta koridori</i>                              | <input type="checkbox"/> <i>fiksing</i>                 |
| <input type="checkbox"/> <i>valuta intervensiyasi</i>                        | <input type="checkbox"/> <i>kross-kurs</i>              |
| <input type="checkbox"/> <i>valuta konvertatsiyasi</i>                       | <input type="checkbox"/> <i>devalvatsiya</i>            |
| <input type="checkbox"/> <i>valuta arbitraji</i>                             | <input type="checkbox"/> <i>forvard</i>                 |
| <input type="checkbox"/> <i>xejirlash</i>                                    | <input type="checkbox"/> <i>opsion</i>                  |
|  | <input type="checkbox"/> <i>fyuchers</i>                |

#### 4.8. Test topshiriqlari va masalalar

**1. Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning:**

- a) *aktiv operatsiyalari deyiladi;*
- b) *vositachilik operatsiyalari deyiladi;*
- c) *lizing operatsiyalari deyiladi;*
- d) *passiv operatsiyalari deyiladi.*

**2. Quyidagi mablag'larning qaysi biri passiv operatsiyalar tarkibiga kiradi?**

- a) *bankning o'z mablag'lari;*
- b) *jalb qilingan mablag'lar;*

- c) korrespondent schyotlardagi mablag‘lar;
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

**3. Quyidagi operatsiyalarning qaysi bir turi yordamida bankning o‘z mablag‘lari yuzaga keladi?**

a) qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish yo‘li bilan bilan resurslarni yig‘ish;

- b) depozit operatsiyalarini amalga oshirish;
- c) boshqa kreditorlarning mablag‘larini jalb qilish;
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

**4. Banklarning o‘z mablag‘lari tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- a) depozitlar;
- b) bankning ustav kapitali;
- c) kontokorrent;
- d) korrespondent schyotlardagi mablag‘lar.

**5. Bankning jalb qilingan mablag‘lar tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- a) bankning ustav kapitali;
- b) bankning taqsimlanmagan foydasi;
- c) depozitlar;
- d) bankning zaxira kapitali.

**6. Bankning o‘z mablag‘lariga bank passivlarining:**

- a) 15 foizi to‘g‘ri keladi;
- b) 20 foizi to‘g‘ri keladi;
- c) 25 foizi to‘g‘ri keladi;
- d) 33 foizi to‘g‘ri keladi.

**7. Depozit – bu banklarda saqlash uchun topshirilgan:**

- a) pul mablag‘laridir;
- b) qimmatli qog‘ozlardir;
- c) pul badallaridir;
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

**8. Depozitlar – bu:**

a) bank va omonat kassalarga qo‘yilgan omonatlar;

b) bojxona muassasalariga boj va bojxona yig‘imlari tarzidagi to‘lovlar uchun oldindan berilgan badallar;

c) sud va ma‘muriy muassasalarga da‘voni va sudga kelishini ta‘minlash maqsadida o‘tkaziladigan pul badallari;

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**9. Yuridik va jismoniy shaxslarning shartnomada qat'iy kelishilgan muddat va unda ko'rsatilgan foizlarni to'lashga doir mablag'lar:**

*a) talab qilib olinguncha depozitlardir;*

*b) jamg'arma depozitlardir;*

*c) muddatli depozitlardir;*

*d) jamg'arma (depozit) sertifikatdir.*

**10. Quyida qayd qilingan depozit turlarining qaysi biri bankning eng arzon resurslaridan hisoblanadi:**

*a) talab qilib olinguncha depozitlar;*

*b) jamg'arma depozitlar;*

*c) muddatli depozitlar;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**11. Depozit multiplakatori – bu:**

*a) depozitlarni boshqaga o'tkazish haqidagi o'tkazma xat;*

*b) bankka qo'yilgan mablag'larning har bir pul birligidan ko'riladigan umumiy daromad hajmining o'zgarishini tavsiflovchi ko'rsatkich;*

*c) kredit muassasasining omonatchisiga depozitni olish huquqini tasdiqlovchi, pul mablag'lari deponent qilinganligi haqidagi yozma guvohnoma;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**12. Agar bank o'z mijozidan uchinchi bir shaxs, ya'ni akkreditiv ochilgan shaxs (benefitsiarlar)ga to'lov summasini o'tkazish haqida topshiriq olsa, u holda bank:**

*a) inkassa operatsiyasini bajaradi;*

*b) faktoring operatsiyasini bajaradi;*

*c) akkreditiv operatsiyasini bajaradi;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**13. Quyida qayd qilingan kapitalni boshqarishning qaysi bir turiga zarar ko'rish xavfi umuman bo'lmaydi:**

*a) qattiq konservativ boshqarishda;*

*b) agressiv boshqarishda;*

*c) o'rtacha konservativ boshqarishda;*

*d) konservativ boshqarishda.*

**14. Quyida qayd qilingan kapitalni boshqarishning qaysi bir turida katta foyda bilan bir qatorda katta zarar ham ko'rish mumkin?**

- a) konservativ boshqarishda;*
- b) agressiv boshqarishda;*
- c) o'rtacha agressiv boshqarishda;*
- d) keskin konservativ boshqarishda.*

**15. Quyida qayd qilingan subyektlarning qaysi biri lizing subyektlari hisoblanadi?**

- a) lizing sotuvchi;*
- b) lizing oluvchi;*
- c) lizing beruvchi;*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**16. Kimlar lizing beruvchilar hisoblanadi?**

- a) tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar;*
- b) yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlar;*
- c) tijorat banklari;*
- d) konsignatorlar.*

**17. Kimlar lizing oluvchilar hisoblanadi?**

- a) tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar;*
- b) mulk egalari;*
- c) maklerlar;*
- d) kommissionerlar.*

**18. Kimlar lizing obyektlarini sotuvchilar hisoblanadi?**

- a) uskunalarni ishlab chiqaruvchilar;*
- b) savdo firmalari;*
- c) moddiy ta'minot tashkilotlari;*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**19. Egallik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektini olayotgan shaxs:**

- a) lizing beruvchi hisoblanadi;*
- b) lizing oluvchi hisoblanadi;*
- c) lizing obyektini sotuvchi hisoblanadi;*
- d) a + c.*

**20. Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs:**

- a) lizing oluvchi deb e'tirof etiladi;
- b) lizing beruvchi deb e'tirof etiladi;
- c) lizing sotuvchi deb e'tirof etiladi;
- d) b + c.

**21. Quyida qayd etilgan subyektlarning qaysi biri lizing beruvchilar hisoblanadi?**

- a) xorijiy lizing kompaniyalari;
- b) davlat va mahalliy organlar;
- c) sug'urta kompaniyalari;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**22. Quyida qayd etilgan obyektlarning qaysi biri lizing obyekti bo'lishi mumkin?**

- a) korxonalar;
- b) bino va inshootlar;
- c) ko'char va ko'chmas mulk;
- d) a + b + c.

**23. Yer uchastkalari, tabiat obyektlari yoki muomalada bo'lishining alohida tartibi belgilangan mol-mulk:**

- a) lizing obyekti bo'lishi mumkin emas;
- b) lizing obyekti bo'lishi mumkin;
- c) istisno tariqasida lizing obyekti bo'lishi mumkin;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**24. Lizing obyektidan garov sifatida foydalanish mumkinmi?**

- a) mumkin;
- b) mumkin emas;
- c) istisno tariqasida mumkin;
- d) a + c.

**25. Moliyaviy lizing – bu:**

a) lizing oluvchiga uskunalarni dam-badam almashib turish zaruriyati tug'ilgan hollarda qo'llaniladi;

b) ko'proq ishlab chiqarish davri bilan bog'liq bo'lgan lizing bo'lib, obyekti qisqa davrga, ya'ni uning yaroqli davrdan kam davrga, qisqaroq vaqtga ijaraga beriladi;

c) ijaraga olingan mulkning to'la qiymatini va ijarachi foydasini qoplashni nazarda tutadi;

- d) noto'g'ri javob yo'q.



**26. Revolver lizing – bu:**

- a) faqat mamlakat doirasidagi lizingdir;
- b) faqat mamlakatlararo lizing munosabatlarini tavsiflaydi;
- c) lizing oluvchiga uskunalarni dam-badam almashib turish zaruriyati tug'ilgan hollarda qo'llaniladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**27. Sof lizingda ijaraga olinayotgan mulk bilan bog'liq bo'lgan barcha xizmatlar, uni ta'mirlash, sug'urtalash kabi operatsiyalar:**

- a) lizing oluvchining zimmasiga yuklatiladi;
- b) lizing beruvchining zimmasiga yuklatiladi;
- c) lizing sotuvchining zimmasiga yuklatiladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**28. «Ho'l» lizingda ijaraga olinayotgan mulk bilan bog'liq bo'lgan barcha xizmatlar, uni ta'mirlash, sug'urtalash kabi operatsiyalar:**

- a) lizing sotuvchining zimmasiga yuklatiladi;
- b) lizing beruvchining zimmasiga yuklatiladi;
- c) lizing oluvchining zimmasiga yuklatiladi;
- d) a + b.

**29. O'zining uskunalari etmayotgan firmalar, odatda:**

- a) tezkor lizingdan foydalanishadi;
- b) individual lizingdan foydalanishadi;
- c) aralash lizingdan foydalanishadi;
- d) qaytariluvchi lizingdan foydalanishadi.

**30. Sublizing – bu:**

- a) lizing obyektining boshqa uchinchi lizing oluvchiga topshirishni bildiradi;
- b) uchinchi shaxs tomonidan lizingda foydalanish huquqini ko'zda tutmaydigan lizing turidir;
- c) asosiy lizing turidir;
- d) b + c.

**31. Lizing shartnomasi tuzilish muddatiga ko'ra ijara operatsiyasining:**

- a) renting turida bo'lishi mumkin;
- b) xayring turida bo'lishi mumkin;
- c) lizing turida bo'lishi mumkin;

*d) barcha qayd qilingan turlarida bo'lishi mumkin.*

**32. Qisqa muddatli ijara (renting):**

*a) bir yildan uch yil muddatgacha bo'ladi;*

*b) bir kundan bir yil muddatgacha bo'ladi;*

*c) uch yildan yigirma yil va undan ko'proq muddatgacha bo'lishi mumkin;*

*d) bir kundan olti oy muddatgacha bo'ladi.*

**33. Valuta kotirovkasi deganda:**

*a) almashtirish uchun taqdim etilgan valutar kursini va ular o'rtasidagi nisbatni o'rnatish tushuniladi;*

*b) bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligiga ifodalangan narx tushuniladi;*

*c) pulning pulga sotilish narxi tushuniladi;*

*d) valutar birligi o'rtasidagi valutar pariteti tushuniladi.*

**34. Pulning pulga sotilish narxi:**

*a) valuta pariteti deyiladi;*

*b) valuta kotirovkasi deyiladi;*

*c) valuta kursi deyiladi;*

*d) a + b.*

**35. Kross-kurs deganda:**

*a) milliy valuta kursining davlat tomonidan rasman pasaytirilishi tushuniladi;*

*b) milliy valuta kursining davlat tomonidan rasman tushirilishi tushuniladi;*

*c) ikki valuta o'rtasida uchinchi valutaga nisbatan aniqlanadigan kurslar nisbati tushuniladi;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**36. Milliy valuta kursining davlat tomonidan rasman pasaytirilishi:**

*a) revalvatsiya deyiladi;*

*b) devalvatsiya deyiladi;*

*c) konvertatsiya deyiladi;*

*d) valuta koridori chegarasini belgilash deyiladi.*

**37. Birjada amalga oshiriladigan ixtisoslashgan shartnomalarga:**

*a) fyuchers shartnomalari kiradi;*

- b) opsiya shartnomalari kiradi;*
- c) svop shartnomalari kiradi;*
- d) forvard shartnomalari kiradi.*

#### **4.9. Nazorat uchun savollar**

1. Passiv operatsiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Depozit nima?
3. Depozitlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Depozit sertifikat, depozit banki, depozit indossamenti, depozit muassasasi va depozit multiplikatori to'g'risida nimalar deya olasiz?
5. Depozitariy nima?
6. Eng arzon va eng qimmat depozitlarni qanday farqlash mumkin?
7. Depozitlarni baholashning qanday usullarini bilasiz?
8. Yirik hajmdagi depozit sertifikat (DS) to'g'risida nimalar deya olasiz? Uning afzalligi va kamchiligi nimada?
9. Nodepozitlar nima va ularning bank resurslarini tashkil qilishdagi roli qanday?
10. Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni olib borishdan maqsad nima?
11. Investitsion iqlim deganda nimani tushunasiz?
12. Bankning investitsion funksiyalari nimalardan iborat?
13. Bank investitsion funksiyalarini bajarishda qanday vositalardan foydalanadi?
14. G'azna veksellari, majburiyatlar va obligatsiyalar investitsiya funksiyasini bajarishda qanday o'rin tutadi?
15. Sertifikatlar investitsiya funksiyasini bajara oladimi?
16. Bank aksepti nima? Investitsiya funksiyasini bajarishda akseptning afzallik va kamchiliklari nimada?
17. Kapital bozorida qo'llaniladigan majburiyat va obligatsiyalar pul bozorida qo'llaniladigan majburiyat va obligatsiyalardan qaysi afzalliklari va kamchiliklari bilan farq qiladi?
18. Qaysi turdagi qimmatli qog'ozlar vositasida bank investitsiya funksiyasini bajarishni xush ko'radi?
19. Investitsiya vositalarini tanlash jarayoniga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
20. Investitsiya portfelini diversifikatsiyalashdan maqsad nima?
21. Komission operatsiyalar deganda nimani tushunasiz va ularning qanday turlarini bilasiz?

22. O‘z mijozlarining kapitalini boshqarishning qanday turlari mavjud?

23. Trast bitimlari nima va ular qanday xususiyatlarga ega?

24. Lizing nima? Uning subyektlari kimlar hisoblanadi?

25. Lizing subyektlari nimalarga javobgardirlar?

26. Lizing xizmatida kimlar vositachi rolini bajarishlari mumkin?

27. Nimalar lizing obyekt bo‘la oladi?

28. Lizing obyektiga bo‘lgan mulk huquqi kim tomonida bo‘ladi?

29. Lizing obyekt bilan bog‘liq qanday xavflarni bilasiz? Ular sug‘urtalanadimi?

30. Lizing beruvchi qanday huquq va majburiyatlarga ega?

31. Lizing oluvchi va sotuvchi qanday huquq va majburiyatlarga ega?

32. Lizingning qanday turlarini bilasiz?

33. Lizing shartnomasi nima? Nimalar uning muhim shartlari hisoblanadi?

34. Lizingning kreditdan yoki prokatdan farqi nimada?

35. Mulkni lizingga berish lizing sotuvchi uchun qanday afzalliklarni beradi?

36. Mulkni lizingga berish lizing beruvchiga qanday strategik masalalarni hal qilishga imkon beradi?

37. Lizing operatsiyalari lizing oluvchiga qanday afzalliklar beradi?

38. Xorijiy davlatlarda lizing munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

39. Mamlakatimizda qanday lizing kompaniyalari mavjud?

40. Banklar qimmatli qog‘ozlar bozorida qanday operatsiyalar bajaradi?

41. Tijorat banklari o‘zlarining qimmatli qog‘ozlarini qay tartibda chiqaradi?

42. Banklar tomonidan qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalarni amalga oshirishlariga doir qanday cheklovlarni bilasiz?

43. Banklar tomonidan qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirilishiga doir qanday talablar qo‘yiladi?

44. Xalqaro operatsiyalar deganda nimani tushunasiz?

45. Valuta operatsiyalarini bajarish zarurati nimada?

46. Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida qanday turdagi hisob shakllari qo‘llaniladi?

47. Bank cheki va bank vekseli to‘g‘risida nimalar deya olasiz?

48. Hujjatli akkreditiv bilan hujjatli inkasso hisob-kitoblar qaysi jihatlar bilan bir-biridan farq qiladi?
49. Valuta kotirovkasi va valuta kursi deganda nimani tushunasiz?
50. Kross-kurs nima? U qanday aniqlanadi?
51. Valuta kursini barqarorlashtirishda davlat ham qatnashadimi?
52. Valuta konvertatsiyasi nima uchun zarur?
53. Valuta bo'yicha sotuvchi va sotib oluvchi kurslar haqida nimalar deya olasiz?
54. Valuta operatsiyalari jarayonida qanday turdagi shartnomalar tuziladi?
55. Valuta arbitraji nima maqsadda o'tkaziladi?
56. Banklarning valutaviy holati deganda nimani tushunasiz?

## **5-bob. TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI**

### **5.1. Kredit siyosatining mohiyati**

[177]. Ma'lumki, kredit deganda vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar tushuniladi. Bu munosabat ikki subyekt o'rtasida yuzaga keladi: biri pul egasi, ya'ni qarz beruvchi; ikkinchisi pulga muhtoj, ya'ni qarz oluvchi. Ayni bir subyekt bir vaqtning o'zida ham qarz beruvchi, ham boshqalardan qarz oluvchi bo'lishi mumkin. Masalan, bank aslida pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida vositachi, ayni vaqtda uning o'zi bo'sh pulni qarzga oladi, so'ngra uni boshqalarga qarzga beradi.

**Bankning kredit siyosati** – bu kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Boshqacha qilib aytganda, kredit siyosati – bank kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi qoida va cheklanishlar majmuyi hisoblanadi.

Bank kredit portfelining tarkibi bankning kredit siyosatini yaqqol namoyon qiladi. Agar bankning kredit portfelida noaniqliklar mavjud bo'lsa, bank rahbari bu kredit portfelini qayta ko'rib chiqishi yoki umuman man etishi mumkin. Tijorat banklarining kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqiladi va bank kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Har bir bank o'z kredit siyosatini ishlab chiqadi va amalda joriy etadi. Bu siyosatni ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank kengashi va boshqaruvi a'zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

Kredit siyosatining xarakteri bank kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Bankning kredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank kengashi tomonidan yiliga kamida bir marta tegishli yilning 1 – fevraligacha bo'lgan muddatda qayta ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Shunday qilib, bankning kredit siyosatini ishlab chiqish bank faoliyatini tartibga solib turuvchi organlar tomonidan belgilangan

andozalar (standart)ga amal qilish va foyda keltiruvchi kreditlar berishni ta'minlovchi mexanizmlardan biridir. Bu siyosat quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- kredit portfelini tuzishdan maqsad, kredit turlari va sifati, ularni qaytarib olish (to'lash);

- kredit berishga, uning eng yuqori bahosi va turini aniqlab, tasdiqlovchi vakolatli bank xodimi haqida axborot;

- kredit boshqarmasi doirasida qaror qabul qilish va ma'lumotlar berish majburiyati;

- mijozlar tomonidan kredit olish uchun berilgan arizalarni qabul qilish tajribasi;

- har bir kredit arizasiga ilova qilinishi, shuningdek, kredit ishida saqlanishi lozim bo'lgan zarur hujjatlar (moliyaviy hisobot, garov va kafillik shartnomalari va boshq.)

- kredit bo'yicha hujjatlar to'plamining saqlanishi va tekshirilishi uchun mas'ul shaxslarning huquqlari;

- kredit ta'minotini (garovni) qabul qilish, baholash va sotishning asosiy qoidalari;

- kredit siyosati kreditlarga o'rnatadigan foiz stavkalari va haqlari, ularni to'lash shartlarining (bayoni);

- barcha kreditlarga qo'llaniladigan sifat andozalarining ta'rifi;

- kredit qo'yilmalarining eng yuqori miqdori;

- bank kredit qo'yilmalarining asosiy qismi yo'naltirilgan hudud yoki tarmoq ta'rifi;

- muammoli kreditlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni yo'qotish tajribalari ta'rifi.

Bank kredit siyosatining talqini ushbu bank uchun juda muhimdir. Chunki unda bank xodimi bajarishi lozim bo'lgan vazifalar o'z aksini to'liq topadi. Bu siyosat yordamida kredit mutaxassisi ko'zlagan bir qator maqsadlariga, ya'ni daromadlilikni ta'minlash, xatar darajasini nazorat qilib pasaytirish choralarini ko'rish, bank faoliyatini nazorat qilib tartibga solib turuvchi organlar talablarini qondirishga erishadi.

**[178].** Kredit siyosati kreditlashning turli ko'rsatkichlari (kredit turlari, iqtisodiyot tarmoqlari, jug'rofiy hududlar va boshq.) bo'yicha kreditlarning to'planishi darajasini aniqlash va uni monitoring qilish to'g'risidagi talablarni o'z ichiga oladi. Kredit siyosati muntazam ravishda rahbariyatga topshiriladigan tegishli hisobotlarni tayyorlashga doir talablarni belgilab beradi.

Kreditni to‘lash muddati uni to‘lashning birlamchi va ikkilamchi manbalarini sinchiklab baholash asosida belgilanadi. Bu siyosat rahbariyat nuqtayi nazaridan har xil toifa va turdagi kreditlarni to‘lashning maqbul dasturlaridan iborat bo‘ladi. Kredit siyosati kreditlar berishning maksimal muddatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, ushbu siyosat:

- kreditning asosiy summasini kredit to‘lash muddatining so‘ngida va kredit to‘lashning boshlang‘ich muddati uzaytirilayotganda qaytariladigan kredit turlarini berish tartibini;

- to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lanishni ta‘minlash, mablag‘larning qaytarilishi va berilgan kreditlar bo‘yicha qarzni undirib olish bo‘yicha chora-tadbirlarni;

- kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi.

Shuni ham qayd etish lozimki, moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o‘tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma‘lumotlar bo‘yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo‘yiladigan talablar bank kredit siyosatida aniq ifodalanishi, banklar talab qiladigan ma‘lumotlar esa milliy buxgalterlik hisobi standartlariga (MBHS) muvofiq taqdim etilishi kerak.

Kredit siyosatida potensial qarzdorlarning kredit qobiliyatini (likvidlik, qoplanish, muxtorlik koeffitsiyentlari, kapitallashtirish darajasi, garov ta‘minoti ekspertizasi va b.) aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritiladi. Shu nuqtayi nazardan tijorat banki qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash uslubini aniq belgilab olishi zarur.

**[179].** Kredit siyosatida garov ta‘minotiga nisbatan quyidagi talablar qo‘yiladi:

- eng avvalo, muayyan turdagi qimmatliklar (ko‘chmas mulk, avtomobillar va b.) garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini o‘z ichiga olishi hamda ta‘minlangan ssudalarning har bir turi uchun kredit hujjatlari to‘plamini rasmiylashtirish tadbirlarini belgilashi;

- bu siyosatda garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to‘lash manbasi (naqd pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta‘minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bo‘lmasligi belgilab qo‘yilishi;

- garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuiga nisbatan



qo‘yiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o‘z ichiga olishi;

- garov mavzui sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo‘lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar o‘rmini qoplashi lozimligining aniq yoritilishi;

- turli garov toifalarini baholash uslublari batafsil aks ettirilishi lozim.

Bulardan tashqari, kredit siyosati ko‘chmas mulk, ishlab chiqarish jihozlari va iste‘mol kreditlarini moliyalash uchun beriladigan kreditlarni to‘lash hisobiga qarzdor tomonidan bo‘nak to‘lovlarini kiritishga doir muayyan talablarni o‘z ichiga olishi zarur.

Kredit siyosatida kredit monitoringiga nisbatan quyidagi talablar qo‘yiladi:

- kreditlarni tasniflash tizimining aniq ifodalanishi;

- kredit xodimlarining kredit portfelidagi barcha ma‘lum bo‘lgan salbiy o‘zgarishlar to‘g‘risida rahbariyatga xabar berishlari;

- kreditlarning barcha toifalari bo‘yicha «to‘lovsizlik» tushunchasi-ning aniq ifodalanishi;

- foizlarni o‘stirmaslik mezonlari; shuningdek, bank boshqaruvi va kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o‘z ichiga olishi lozim.

Bulardan tashqari, hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, yashirin zararlar sabablari va sog‘lomlashtirish rejalari batafsil bayon etilishi kerak. Bu siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko‘rilishini talab qilish kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

**[180].** Kredit siyosatida bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo‘lgan mansabdor kreditlar ro‘yxatini belgilash hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar yuzaga keluvchi minimal yo‘qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo‘lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo‘yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan:

- tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta‘minlash va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi;

- moliyaviy tahlil;

- garovni rasmiylashtirish va baholash;
- kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash;
- qonunchilik me'yorlariga rioya qilish kabi baholashlarni ham o'z ichiga oladi.

Bulardan tashqari, kredit siyosati bank xizmatlari va bo'linmalari tomonidan bank boshqaruvi va kengashiga kreditlashning turli jihatlari bo'yicha topshiriladigan kredit portfelni sifati va kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar turi va davriyligini belgilaydi.


## 5.2. Kredit, uning funksiyalari va turlari

[181]. Pul bor joyda qarz olish va qarz berish yuzaga keladi, bu ishni banklar bajaradi.

**Kredit deganda** o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar tushuniladi.

Bank o'zgarar pulni jamlab uni o'z nomidan kreditga beradi. Buyerda kredit munosabati ikki subyekt o'rtasida yuzaga keladi: biri pul egasi, ya'ni qarz beruvchi (kreditor) va ikkinchisi, pulga muhtoj, ya'ni qarz oluvchi (qarzdor).

Kredit munosabati amalga oshishi uchun uning zarur unsurlari, ya'ni kreditning obyektini va subyektini bo'lishi lozim (34-chizma).



34-chizma. Kredit munosabatlari.

**Kredit subyektlari** har xil, bularga korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

**Kreditning obyektini** har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo'lgan puldir.

Bo'sh pul uch xil bo'ladi:

- tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo‘lidagi pul, ya’ni pul kapitali;
- aholi qo‘lidagi pul – ertami kech ehtiyojni qondirish uchun to‘plangan pul, egasi qo‘lida kapital emas, balki iste’molini qondirish vositasi;

- davlat ixtiyoridagi pul. Bu ham pul kapitali (davlat korxonasi uchun), ham umumiy iste’mol pulidir.

Aytilgan turdagi bo‘sh pullar ssuda (qarz) fondini tashkil etadi va uning yuzaga kelishi obyektiv tarzda muqarrardir. Qarzga berilgan pul, ya’ni kredit harakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_b \square K_o \square K_i \square K_{fq}$$

Buyerda:

$K_b$  – kredit berildi;

$K_o$  – kredit olindi;

$K_i$  – kredit ishlatildi;

$K_{fq}$  – kredit foiz (%) bilan qaytarildi.

Shu tarzda bo‘sh pullar kreditning asosiy sharti-qarz uchun haq to‘lashni ta’minlaydi. Bu haq qarz qilingan summaga nisbatan foiz hisobida olinganidan u qarz protsenti deb yuritiladi. Qarz protsenti pul bozorida amal qiladi.

**[182].** Kredit to‘rt xil funksiyani bajaradi.

**Birinchidan,** pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalarini (masalan, veksel, chek, sertifikat va b.) yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik aylanmasiga jalb qiladi. (veksel – qarz majburiyatnomasi, chek – bankdagi pulni talab qiluvchi hujjat, sertifikat – pul to‘langanligi, qarz berilganligini tasdiqlovchi hujjat).

Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni naqd pulsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmni osonlashtiradi va tezlashtiradi.

**Ikkinchidan,** qarz berish orqali pul mablag‘larini turli tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko‘chib turishini ta’minlaydi. Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, shaxsiy va davlat sektorining bo‘sh pul mablag‘lari, daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga muayyan to‘lov asosida beriladi.

Bu funksiya yordamida ishlab chiqarishdagi mutanosibliklar (pro-

porsiyalar) va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

**Uchinchidan**, qarz berish tufayli muomala xarajatlarini tejash imkoniyati tugʻiladi. Maʼlumki, kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullar (oltin, kumush) oʻrmini kredit pullari – veksellar, banknotalar, cheklar bajarib kelgan. Ayniqsa, oltin (kumush)ning monetar roli va uning yoʻqolib borganligi tufayli kreditning bu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, uning tezkorligi va kam xarajatliligini taʼminlab kelmoqda.

Bu funksiya ssuda kapitaliga aylangan qarzning muomalada boʻlish vaqtining tejalishi uning ishlab chiqarishda boʻlish vaqtini oshiradi va ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi. Xoʻjalik subyektlari pul mablagʻlarining kelib tushishi va ishlatilishi oʻrtasidagi vaqt boʻyicha farq faqatgina ortiqcha mablagʻlar hajmini emas, balki moliyaviy mablagʻlarning yetishmovchiligini ham aniqlab beradi. Shu sababli korxonalar va tashkilotlarning oʻz aylanma mablagʻlarining vaqtinchalik yetishmovchiligini toʻldirish uchun ssudalarni olish keng tarqalib boryapti.

**Toʻrtinchidan**, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishga erishiladi. Masalan, bank krediti hisobidan qurilayotgan qoʻshma yoki xorijiy korxonalar respublikaning va jahon bozorining ehtiyojini qondirsa, bu hol kreditning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi funksiyasining ijobiy amal qilganligidan dalolat beradi. Va aksincha, kredit xalq xoʻjaligiga turli yoʻllar bilan asossiz ravishda koʻp berilsa va oqibatda pul massasi koʻpayib, milliy pul qadrsizlansa yoki olingan xalqaro kreditlardan samarali foydalanilmasa va mamlakat oʻzining boshqa daromad manbalari, masalan, oltinini sotish hisobidan kreditni qaytarsa, bu hol kredit funksiyasining salbiy amal qilganligidan dalolat beradi.

[183]. Kreditga boʻlgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomonidan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha turlarga boʻlinadi (40-jadval).

Uzoq muddatli kreditlashda kreditlar 3-5 yil muddatda beriladi. 1 yildan 3-5 yilgacha boʻlgan kreditlar oʻrta muddatli kreditlar deyiladi. Qisqa muddatli kredit berishda kreditlar bir necha oydan bir yilgacha boʻlgan muddatda beriladi. Bu turdagi kreditlar:

- aylanma kapitalni toʻldiruvchi;
- qurilish maqsadida olinadigan «oralik»;
- qimmatli qogʻozlar dilerlariga beriladigan;

## Kredit turlari

№	Turkumlash belgilari	Kredit turlari
1	2	3
1	Kredit berish muddatiga qarab	1. Qisqa muddatli kredit (1 yilgacha) 2. O'rtacha muddatli kredit (1 – 3 yilgacha) 3. Uzoq muddatli kredit (3 va undan yuqori)
2	Kreditlash obyektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab	1. Tovar moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar 2. Ishlab chiqarish xarajatlari (mahsulotning yangi turini o'zlashtirish, mavsumiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar) uchun beriladigan kreditlar 3. Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun beriladigan kreditlar (akkreditiv ochilganda, tayyor mahsulotni jo'natganda va b.)
3	To'lash muddatiga qarab	1. Muddatli kreditlar 2. Muddati kechiktirilgan (prolongatsiya qilingan) kreditlar 3. Muddati o'tib ketgan kreditlar
4	Kreditni to'lash manbalariga qarab	1. Qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan kreditlar 2. Grant mablag'lar hisobidan 3. Yangi kreditlarni jalb qilish hisobidan
5	Ta'minlanganlik darajasiga qarab	1. Bevosita to'g'ri ta'minlangan kreditlar 2. Bilvosita (biror korxonaga va tashkilot hisobidan) ta'minlangan kreditlar 3. Ta'minlangan kreditlar
6	To'langan foiz darajasiga qarab	1. O'rtacha (me'yorli) foizli stavka 2. Yuqori foizli stavkadagi kreditlar 3. Past foizli stavkadagi kreditlar 4. Foizsiz kreditlar

chakana savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslarga beriladigan;  
 o'z aktivlari hisobidan ta'minlovchi (debitorlik qarzlari, faktoring va tovar-moddiy zaxiralari bilan ta'minlangan) kreditlar deb yuritiladi.

**Uzoq muddatli kreditlar** asosan asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va ular bilan bog'liq sohalarni ta'minlashga ishlatiladi. Xususan, bu kreditlar:

qayta tiklash maqsadida kapital xarajatlarni amalga oshirish

uchun;

□ harakatdagi asosiy fondlarni kengaytirish va takomillashtirish bilan bogʻliq xarajatlar uchun;

□ yangi qurilish va qoʻshimcha yuqori samarali tadbirlar boʻyicha xarajatlarni amalga oshirish uchun;

□ yangi fan, ilmiy texnika sohasida tadqiqotlar olib borish va yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy qilish va boshqalar uchun ajratiladi.

**Muddati oʻtgan kreditlar (aktivlar)** – qarzdor tomonidan kredit shartnomasida koʻzda tutilgan toʻlash shartlari va jadvali buzilgan hamda asosiy qarz va unga doir foizlarning navbatdagi toʻlovi toʻlov muddati yetib kelganidan soʻng toʻlanmagan kreditlar.

**Restrukturizatsiya qilingan kreditlar (aktivlar)** – qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli toʻlovning dastlabki shartlari oʻzgargan kreditlar. Agarda bank tomonidan quyidagi amallarning hech boʻlmaganda bittasi bajarilsa, kreditlar (aktivlar) restrukturizatsiyalangan hisoblanadi:

– foiz stavkasining kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarning undirib olinmasligi;

– jami asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan voz kechilishi;

– kreditni toʻlash muddatining kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;

– foizlarga doir toʻlovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechish;

– oddiy sharoitlarda qarzdorga berilmay, balki kreditni restrukturizatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin boʻlgan boshqa yon berishlar.

**Oʻstirilmaydigan kreditlar (aktivlar)** – belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi toʻxtatiladigan kreditlar (aktivlar).

**Yaxshi taʼminlangan kreditlar** – qimmatli qogʻozlar bozorida baholanadigan mulk yoki kreditning asosiy summasi va unga doir foizlarni toʻliq qoplash imkonini beradigan miqdorda bank depozitlari koʻrinishidagi garov bilan taʼminlangan kreditlar.

**Qisman taʼminlangan kreditlar (aktivlar)** – «yaxshi taʼminlangan kreditlar (aktivlar)» mezoniga muvofiq kelmaydigan taʼminotga ega kreditlar. Xususan, ularga doir taqdim etilgan garov qiymati kredit summasi va unga doir foizlarning 100 foizidan, shuningdek, garovni sotishda koʻzda tutilayotgan xarajatlardan kam (eʼlon qilingan garov qiymatidan qatʼiy nazar) yoki eʼlon qilingan qiymat boʻyicha garovning sotilishi shubha tugʻdiradigan kreditlar.

**Ta'minlanmagan kreditlar (aktivlar)** – biror-bir ta'minotsiz berilgan kreditlar. Odatda, bunday kreditlar qarzdorning kuchli tushumlari potentsiali yoki uning yaxshi kredit tarixi asosida beriladi. «Ta'minlanmagan kreditlar»ga garov belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan kreditlar ham kiradi.

[184]. Jahon amaliyotida bank o'zini-o'zi qoplovchi kreditlar asosan tovar-moddiy zaxiralar, xomashyo va materiallar hamda sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlarni moliya bilan ta'minlash maqsadida olinadi. Bunday kreditning afzalligi shundaki, tadbirkor o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan naqd pulning yetarli miqdori bilan ta'minlanadi. Bunda:

- naqd pullar xomashyo va materiallar, chala va tayyor mahsulotlarni sotib olish uchun ishlatiladi;
- mahsulotlar asosan sotish uchun tayyorlanadi;
- savdo asosan kredit hisobidan amalga oshiriladi;
- savdo orqali olingan mablag' bankdan olingan kreditni qoplashga ishlatiladi.

Aylanma kapitalni to'ldirish uchun olinadigan kreditlar ham vazifasiga ko'ra, o'z-o'zini qoplovchi kreditga o'xshab, tovar, xomashyo, materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlar zaxirasini to'ldirish uchun uzog'i bilan bir yil muddatga olinadi.

Bu kreditning farqi shundaki, u asosan mavsumiy talabni qondirish uchun olinadi.

Masalan, yoz mavsumida kiyiladigan zamonaviy ko'ylaklar tikish uchun kredit talab qilinganda, bank ushbu mijozga 6 oydan 9 oygacha muddatga kredit tizimini ochadi va mijoz zarur bo'lganda ushbu tizimdan shu muddat ichida foydalana oladi. Agar mijoz shu davr mobaynida kreditning to'la hajmini yoki kattagina qismini to'lashga erishsa, bank mijozning talabiga ko'ra, kredit muddatini yana cho'zishi mumkin. Aylanma mablag'ni qoplash uchun olinadigan kredit firmaning debitorlik qarzi yoki tovar-mahsulotlar hisobidan ta'minlanadi va tizim doirasida suzib yuruvchi foiz stavkasida foiz o'rnatiladi. Mijoz bu kreditni qoplash uchun o'zining depozit hisobvarag'ida olingan kreditning kamida 15-20 foizi miqdorida mablag'larni saqlashi lozim. Majburiyat uchun komissiya haqi, asosan, kredit tizimining foydalanilmagan qismidan olinadi.

[185]. Ko'pgina banklar tomonidan beriladigan qurilish uchun mo'ljallangan kredit keng tarqalgan kreditlardan biri bo'lib, bu kredit

asosan uy, bino, inshoot va ofislar qurish uchun olinadi. Bunday kredit ko'chmas mulk uchun ishlatilishiga qaramasdan, u qisqa muddatga beriladi. Kreditni oluvchilar uni ishchilarni yollashga, vaqtinchalik kerak bo'ladigan asbob-uskunalarni ijaraga olish, qurilish materiallari hamda bino va inshootlarni qurish uchunyerlarni sotib olishga ishlatadilar. Rivojlangan davlatlarda mijoz bankdan olgan kreditni boshqa kreditor-dan yoki moliya tashkilotidan mijozning garov mulki hisobiga qoplashi majburiyatini bankka taqdim qilmaguncha, bank bunday mijozlarga, ya'ni quruvchi va loyihachilarga kredit bermaydi.

Davlatga tegishli va xususiy qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi dilerlarga ularni sotish yoki muddati tugaganda hisobdan chiqargunga qadar yangilarini sotib olish va mavjud qimmatli qog'ozlar portfelini qo'llab-quvvatlash uchun qisqa muddatli kreditlar kerak bo'ladi. Bunday kreditlarni banklar ko'pincha hech qanday to'sqinliksiz beradilar, chunki bunday kreditlar yuqori sifatli hisoblanib, ular asosan davlatning qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlangan bo'ladi. Bundan tashqari, bunday kreditlar juda qisqa muddatga beriladi (bir kundan bir necha kungacha). Agar sharoit yomonlashsa, bank kreditni qaytarib oladi yoki foiz stavkasini ko'taradi.

Bunday kreditlar yangi korporativ obligatsiyalar, aksiyalar va davlatning qimmatli qog'ozlarini joylashtiruvchi investitsiya firmalariga beriladi. Investitsiya firmalari yangi qimmatli qog'ozlarni kapital bozorida sotishi natijasida kreditlar va ularga o'rnatilgan foizlar to'lanadi.

Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslarga kreditlar asosan avtomobillar, elektr-xo'jalik mollari, mebel va boshqa uzoq muddat ichida foydalaniladigan tovarlarni sotib olish uchun, savdo bo'yicha shartnoma imzolanganidan so'ng yuzaga kelgan dilerning debitorlik qarzini mablag' bilan ta'minlash maqsadida beriladi. Bank dilerlarning shartnomalarini tahlil qiladi. Agar shartnoma o'rnatilgan talablarga javob bersa, bank bu shartnomalarni sotib oladi, risk darajasi va ta'minot sifati hamda kredit muddatini e'tiborga olib, foiz stavkasini o'rnatadi. Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslar kredit olish bilan birga sotuvdan tushgan tushumlari hisobidan ssuda hisobvarag'idagi mablag'larni qoplaydilar.

**[186].** Revolver kredit shartnomasi bo'yicha kredit oluvchi firma kredit tizimi muddati ichida belgilangan miqdorda kredit olishi, olingan qarzning bir qismini yoki to'liq hajmini to'lashi va zarur hollarda yana



qarz olishi mumkin. Bu kreditning afzalligi shundaki, uni olayotganda firma maxsus garov bilan kreditni ta'minlashi shart emas va bu kredit qisqa muddatga yoki 3-5 yil muddatga beriladi. Mijoz naqd pullari tushumi hajmini va kelajakda olinadigan kredit hajmini aniq bilmasa, revolver kreditdan foydalanadi. Revolver kredit mijozning ishlab chiqarishda bo'ladigan tebranishlarini tartibga solishda muhim omil bo'ladi. Mijoz faoliyati davomida daromadi oshgan vaqtda kredit hajmini to'lab boradi, sotuv hajmi kamayib, naqd pul oqimi qisqarsa, kredit tizimi muddatiga ko'ra, bankdan qo'shimcha mablag' olish imkoniga ega bo'ladi. Kelishilgan kredit hajmida mijozning kredit uchun berilgan har bir talabnomasining to'liq va o'z vaqtida qondirilishi hisobiga bank mijozdan xizmat haqi oladi.

Majburiyatlar uchun olinadigan haq ikki xil bo'ladi:

- shartnoma majburiyati;
- tasdiqlangan kredit tizimi.

Shartnoma majburiyati bo'yicha bank mijozga eng yuqori hajmda kelishilgan foiz stavkasi bilan kredit beradi. Bunday hollarda mijozning moliyaviy ahvolidagi «sezilarli salbiy o'zgarishlar» yuz berganda yoki mijoz shartnoma bandlarini bajarmaganda, bank to'lovlarni to'xtatishi mumkin.

Tasdiqlangan kredit tizimi bo'yicha bank, kredit oluvchi firmaning arizasiga ko'ra, favqulodda hollarda kredit beradi. Bunday paytlarda asosan kredit reytingi (kreditni to'lash bo'yicha bahosi) yuqori bo'lgan mijozlarga beriladi va ularga o'rnatiladigan foiz stavkasi anchagina past bo'ladi.

**[187].** Uzoq muddatli loyihalarni moliyalashga beriladigan kreditlar kelajakda naqd pul tushumi bilan ta'minlovchi asosiy kapitalni to'ldirish maqsadida moliyalash uchun olinadigan kredit bo'lib, bank uchun ancha xatarlidir. Misol tariqasida neftni qayta ishlash zavodlari, shaxtalar, elektr stansiyalarini kredit bilan ta'minlashni olish mumkin.

Bunday loyihalarga beriladigan kreditlar xatari turlichadir:

- ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun juda katta hajmdagi mablag'lar ajratish lozim;
- moliya bilan ta'minlanayotgan loyihaning amalga oshishi muddati ob-havo sharoiti yoki qurilish materiallarining yetishmasligi sababli kechikishi mumkin;
- amaldagi qonun va qoidalarning o'zgarishi loyihaning amalga oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, qurilishning tugashiga to'sqinlik qilishi

va buning natijasida qurilish tannarxi ortishi mumkin.

□ foiz stavkasining ko‘tarilishi kreditor yoki loyihani moliya bilan ta’minlovchi homiy muassasa yoki tashkilot faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Loyihalarni moliyalash krediti asosan uni birgalikda amalga oshirayotgan bir nechta yirik kompaniyalarga beriladi. Shuningdek, yirik hajmdagi bunday kreditlarni bir necha kreditorlar birgalikda berishlari ham mumkin.

Ushbu loyihalar o‘z vaqtida bajarilmasa, kreditlar qarz oluvchining homiylari tomonidan qaytariladi. Kredit oluvchiga hech kim homiylik qilmagan taqdirda, kreditor, ya’ni bank juda katta tavakkalchilikka yo‘l qo‘ygan bo‘ladi.

### 5.3. Kredit shakllari

[188]. Kredit aloqalari pul egasi bilan qarz oluvchi o‘rtasida bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin. Birinchi holda ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri muomalaga kirishadi. Ikkinchi holda ular aloqasi vositachilar orqali yuz beradi. Kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlar, kredit obyekti va maqsadini inobatga olgan holda kreditning quyidagi shakllari mavjud ( 41-jadval).

#### 41-jadval.

#### Kreditning asosiy shakllari

№	Kredit shakllari	Izoh
1	Bank krediti	□ Iqtisodiyotda juda keng tarqalgan kredit shakli bo‘lib, uning obyekti pul mablag‘larini bevosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Bunda qarz oluvchi sifatida huquqiy shaxslar, aholi, davlat, xorijiy davlat fuqarolari ishtirok etishlari mumkin. Qarz beruvchi sifatida esa faqatgina banklar qatnashadi.
2	Davlat krediti	□ Kreditlash aholiga sotiladigan davlat zayomlari, obligatsiyalari bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, davlat jismoniy yoki yuridik shaxslardan qarz oladi. Demak, davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok etadi.
3	Tijorat krediti	□ Bu sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir. Bu kredit moliya va tovar krediti shaklida bo‘lishi mumkin. Moliya krediti eksportyorlarga ayrim kredit bitimlari bo‘yicha, importyorlarga sotib oladigan tovarlariga to‘lashi uchun pul qarzi ko‘rinishida beriladi.

		<p>Tovar kreditida tovarlar nasiyaga beriladi, xaridor sotuvchiga o'z qarzini tasdiqlovchi guvohnoma-veksel beradi. Nasiyaga berilgan tovar necha so'm tursa, shu qarz miqdori hisoblanadi.</p> <p>Tovar krediti lizing shaklida ham bo'lishi mumkin. Lizing shartnomalari bo'yicha qimmat turadigan mashina va uskunalar qarzga (ijaraga) olib ishlatiladi.</p>
4	Iste'molchi krediti	<p>□ Tijorat banklari tadbirkorlik uchun firmalarga qarz bersa, iste'molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradi. Buning natijasida iste'molchi krediti paydo bo'ladi. Bu kredit aholiga iste'mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy xarajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o'zaro yordam qarzlari va boshqa ko'rinishlarda qarz beriladi. Bu faqat iste'molni qondirishga xizmat qiladi.</p>
5	Xalqaro kredit	<p>□ Bu muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz, shuningdek, chet el obligatsiyalari, chet el korxonalarining aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga foyda olish maqsadlarida qo'yiladigan kapital.</p>
6	Sudxo'rlik krediti	<p>□ Bu kreditning o'ziga xos shakli. Xorijda kreditning bu ko'rinishi tarixan keng tarqalgan. Amalda bu kredit shakli Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mablag'larni vaqtincha foydalanish uchun berish yo'li bilan amalga oshiriladi.</p> <p>Sudxo'rlik krediti ssuda foizining yuqori stavkasi bilan tavsiflanadi (120-180%).</p>

**[189].** Iste'mol krediti turi banklar beradigan kreditlar ichida eng daromadli va eng xatarlisi hisoblanadi. Iste'mol kreditining eng xatarli deyilishiga sabab shundaki, bu kreditni olgan shaxs yoki oilalarning moliyaviy ahvoli kasallik yoki ishsizlik tufayli yomonlashishi mumkin, bu o'z navbatida, kreditning qaytarilishini kechiktirishi yoki umuman qaytmaslik xatarini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun iste'mol kreditini boshqarishda banklar juda ehtiyotkorlik bilan ish tutishlari lozim.

Hozirgi paytda iste'mol kreditining bir nechta turlari mavjud. Ularni berish maqsadlari va turlariga qarab 2 guruhga ajratish mumkin.

Masalan, ayrim shaxs va oilalarga beriladigan kreditlar yangi uylar

sotib olish uchun, ya'ni uylar bilan ta'minlangan kreditlar yoki boshqa maqsadlar uchun, ya'ni avtomobil, yirik elektr xo'jalik mollari sotib olish uchun olinadigan kreditlar hamda uy-joydan tashqari boshqa maqsadlar uchun beriladigan kreditlar.

Boshqa maqsadlar uchun beriladigan kreditlar qaytarilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ma'lum bir muddat ichida qaytariladigan va bir yo'la qaytariladigan kreditlar.

[190]. Jahon bank amaliyotida «Uy-joylarni garovga qo'yish hisobiga» beriladigan kreditlar uylar sotib olish yoki yashash sharoitini yaxshilash uchun beriladi. Yakka yoki ko'p oilalarga mo'ljallangan uylarni sotib olish uchun 10-15 yillik uzoq muddatli kreditlar beriladi va bu kreditlar ushbu uy bilan ta'minlangan bo'ladi. Bunday kreditlarga mutlaq foiz stavkalari yoki «suzib yuruvchi», boshqacha aytganda, o'zgaruvchan foiz stavkasi o'rnatiladi. Mutlaq foiz stavkasi o'zgarishi orqali suzib yuruvchi foiz stavkasi ham o'zgaradi. Majburiyatni qoplash uchun olinadigan kredit hajmining 1-2% ini tashkil qiluvchi xizmat haqi (komissiyasi) oldindan olinadi va shu yo'l bilan qarzdorga kerakli vaqtda, kerakli hajmda kredit berilishi kafolatlanadi. Bunday kreditlarni nafaqat banklardan, balki bank xolding kompaniyasiga tegishli sho'ba korxonalaridan ham olish mumkin.

2008 – yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrning eng dolzarb muammosi bo'ldi va uning ta'siri butun jahon iqtisodiyotini larzaga soldi.

Ushbu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqishining asosiy sababi sifatida AQShda yuzaga kelgan ipoteka bozoridagi tanglik e'tirof etilmoqda. Ipoteka bozoridagi tanglikning sababi esa ipoteka kreditlarining o'z vaqtida qaytmaganligi, ya'ni ipoteka kreditlarining muammoli kreditlar toifasiga aylanishidir.

Ipoteka kreditlari bilan bog'liq muammolarning kelib chiqishiga esa AQSh FZT tomonidan qo'llangan ekspansion pul-kredit siyosati va ipoteka kreditlarining haddan tashqari erkinlashtiriganligi sabab bo'ldi.

AQSh FZT qayta moliyalash stavkasi 2006-yildagi 5-6 foizdan 2008-yilda 1 foizgacha tushirildi. Pul bozorida pulning bahosi arzonlashdi. Bundan tashqari, ipoteka kreditlarining banklar tomonidan berilishi osonlashdi. AQSh fuqarosi hech qanday muammosiz uyning garoviga ipoteka kreditlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ipoteka inqirozi bank aktivlarining qadrsizlanishi, o'z navbatida, banklarning to'lov qobiliyati va likvidlik darajasining pasayishiga sabab

bo'ldi.

Uy-joydan boshqa maqsadlar uchun olinadigan kreditlar ma'lum bir muddat ichida to'lanishi yoki bir yo'la to'lanishi mumkin.

Ma'lum bir muddat ichida to'lanadigan kreditlar qisqa va o'rta muddatli kreditlar bo'lib, bunda kredit miqdori ikki yoki uch qismga bo'linib to'lanadi (odatda har oyda yoki har chorakda bir marta) bunday kreditlar asosan harakat vositalari, mebel, yirik elektr-xo'jalik mollari sotib olish uchun beriladi. Bunday kreditlarga asosan mutlaq foiz stavkasi o'rnatilsa ham, keyingi paytlarda «suzib yuruvchi» foiz stavkasini o'rnatish amaliyotda ko'p qo'llanilmoqda.

Bir yo'la qaytariladigan kreditlar qisqa muddatli kreditlar bo'lib, jismoniy shaxslarning naqd pul mablag'iga bo'lgan joriy ehtiyojini qondirish uchun beriladi va kredit muddati tugashi bilanoq uning to'la hajmi qaytariladi. Bunday kreditlarning hajmi kichkina bo'lib, muddati 30 kun yoki undan ham kam bo'lishi mumkin. Qisqa muddatga bir yo'la qaytarish sharti bilan beriladigan kreditlar bank uchun serdaromad bo'lib, ba'zida, mijozning xususiyatiga qarab yirik miqdorda ham bo'lishi mumkin. Masalan, mehnat ta'tili va davolanish, yirik elektr xo'jalik mollari sotib olish yoki ta'mirlash, soliq to'lashga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun olinadi.

**[191].** Kredit kartochkasiga asoslanib beriladigan kreditlar ham ma'lum muddat ichida yoki bir yo'la to'lanishi mumkin. Kredit kartochkasi egalari uning yordamida sotib olgan tovarlariga foizsiz haq to'lashlari va qarzlarni belgilangan muddat ichida qoplashlari yoki tovar haqini bo'lib-bo'lib, oyiga 12-18% yillik foiz miqdorida to'lab borishlari mumkin. Kredit kartochkasi asosida ma'lum muddat ichida kredit haqining to'lanishi bir yo'la to'lanadigan kreditlarga qaraganda banklar uchun foydalidir, chunki banklar bunday kreditlardan foiz daromadlari oladilar.

Kredit kartochkasi juda qulay bo'lib, mijoz undan ko'pincha revolver kredit tizimida keng foydalanadi. Kredit kartochkalaridan foydalanish texnologiyalarning takomillashi natijasida mijozlar kredit kartochkalari orqali bank xizmatlarining barcha turlaridan, shu jumladan, jamg'arma va hisob-kitob xizmatlaridan ham bimalol foydalanishlari mumkin.

Bu kartochkalar bilan xizmat ko'rsatishning rivojlanishi tufayli mijozlar bank xizmatiga haq to'lashdan ko'pincha ozod bo'ladilar.

**[192].** Bank turli xil mijozlarga turli xil maqsadlar uchun kreditlar

berishi mumkin. Beriladigan kreditlarni ulardan foydalanish maqsadiga ko‘ra, yettita turkumga ajratish mumkin:

□ ipoteka ssudalari, ya’ni ko‘chmas mulk asosida beriladigan kreditlar;

□ moliya institutlariga, ya’ni banklararo moliya va sug‘urta kompaniyalariga, shuningdek, boshqa moliya muassasalariga beriladigan kreditlar;

□ dehqon va fermer xo‘jaliklarigayerlarni o‘zlashtirish va ishlov berish, hosilni yig‘ishtirib olish, chorva mollarni em bilan ta‘minlash ishlarini yaxshilash maqsadida beriladigan qishloq xo‘jalik ssudalari;

□ savdo va sanoat korxonalariga tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish va ish haqi berish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash uchun tadbirkor firmalarga beriladigan kreditlar;

□ xususiy shaxslarga beriladigan iste‘mol kreditlari. Bularga bahosini bir necha muddat ichida to‘lash imkoniyati bilan avtomobil sotib, ko‘chma (sayyor) uylar, elektr xo‘jalik va boshqa iste‘mol mollari, uylarni ta‘mirlash va zamonaviy tus berish, tibbiy xizmat xarajatlarini qoplash va boshqa shaxsiy transport uchun beriladi;

□ boshqa ssudalar yuqorida qayd etilmagan ssudalar bo‘lib, ularga qimmatbaho qog‘ozlar bilan ta‘minlangan ssudalar ham kiradi;

□ moliyaviy lizingda bank mashina va uskunalarni sotib oladi va ularni mijozlarga ijaraga beradi.

Yuqorida keltirilgan kredit turlarini jahon bank amaliyotidagi eng yirigi ipoteka ssudalaridir va bu ssudalar beriladigan jami ssudalarning 1/3 qismini tashkil qiladi. Savdo va sanoat korxonalariga beriladigan ssudalar ham jami kredit qo‘yilmalarning 1/3 qismini tashkil qiladi. O‘z ahamiyatiga ko‘ra, uchinchi o‘rinda turadigan ssudalar – bular xususiy shaxslarga beriladigan ssudalar bo‘lib, ular jami kredit qo‘yilmalarining 1/5 qismini tashkil qiladi.

**[193].** Bank kreditlari portfeli tarkibini aniqlovchi eng muhim omillardan biri, bu eng avvalo ushbu bank xizmat ko‘rsatayotgan bozorning xususiyatidir. Har bir bank mijozlarining kredit mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganib, ularni e‘tiborga olmog‘i lozim. Masalan, aholisi ko‘p bo‘lmagan shahar va tumanlardagi banklar asosan ipoteka kreditlari (uy-joylarni garovga olish asosida) avtomobil sotib olish uchun yoki xo‘jalikni boshqarish va rivojlantirish uchun sarf qilinadigan xarajatlarni qoplash maqsadida kredit beradilar. Yirik ishlab chiqarish korxonalarini, firmalar, univermaglar, ofislari ko‘p bo‘lgan yirik

shaharlarda esa banklar kredit mablag'larini tovar-xomashyo zaxiralari, asbob-uskunalar sotib olish va ishchilarga ish haqi to'lash uchun beradilar.

Albatta, hamma banklar ham o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan hudud sharoitlariga butunlay bog'liq bo'lmaydilar. Ularning ko'pchiligi boshqa banklardan mablag'larning katta qismini yoki qisman qarzga olishlari mumkin. Bunday faoliyat ko'rsatayotgan banklar uchun ular joylashgan hudud iqtisodiyotidagi salbiy o'zgarishlar katta xavf tug'dirmaydi.

Bank kreditlari portfeliga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil bu – bankning hajmidir. Bunda bank sarmoyasining hajmi eng muhim rol o'ynaydi, chunki u beriladigan kreditni bitta mijozga to'g'ri keladigan qiymatini aniqlaydi. Yirik banklar asosan yirik korxonalar, korporatsiyalar va firmalarga xizmat ko'rsatadi. Maydaroq banklar esa, asosan naqd pul ko'rinishida yoki bir necha muhlatga mayda firmalar, xususiylar shaxslarga chakana kreditlar beradi.

Bank boshqaruvchilarining kredit siyosati sohasidagi tajribasi va malakasi kredit portfelining tarkibi va o'sishiga ta'sir qiluvchi muhim omildir.

Bank kreditining ba'zi bir turlarini berishni taqiqlovchi kredit siyosati bankning kredit portfeli sifatining o'sishiga to'sqinlik qiluvchi xatardan saqlaydi.

Kredit portfelining tarkibi kredit faoliyati orqali olinadigan daromadga ham bog'liq. Bankning kredit bilan shug'ullanuvchi xodimlari kredit berish orqali olinadigan daromad bilan bankning boshqa aktivlari orqali olinadigan daromadni solishtirib, tahlil qiladilar. Natijada, bank daromadlarining asosiy qismi kreditlarga to'g'ri kelayotgani haqida bir xulosaga kelganlaridan so'ng ko'proq kreditlar berishni afzal ko'radilar.

**[194]. Xalqaro kredit** – bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi. Bu kredit shakli kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda (davlatlar o'rtasida) amalga oshirilishi jarayonida yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, suveren davlat sifatida o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini yo'lga qo'ya boshladi. 1991-yilgacha O'zbekiston tashqi dunyo bilan mustaqil shartnoma tuzish va amalga oshirish imkoniyatiga ega emas edi. 1991-yil 14 – iyunda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati

to'g'risida»gi Qonun O'zbekistonning chet el davlatlari, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorligining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.

Xalqaro kredit quyidagi **xususiyatlari** bilan xarakterlanadi:

□ qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat muassasalari va tashkilotlari, huquqiy shaxslar (banklar, kompaniyalar) xalqaro valuta-kredit tashkilotlari qatnashadilar;

□ qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

□ qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro kredit chet el obligatsiyalari, chet el korxonalari aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga foyda olish maqsadlarida kapital qo'yish shaklida ham bo'ladi.

Xalqaro kredit mahalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida qatnashadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida xalqaro kredit quyidagi **funksiyalarni** bajaradi:

□ mamlakatlar o'rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi;

□ kapitalning konsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;

□ har xil valutalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

**[195].** Xalqaro kreditga bo'lgan talab qaysi usulda va muddatda kim tomonidan qondirilishiga, shuningdek, qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab xalqaro kredit bir necha turlarga bo'linadi (42-jadval).

Xalqaro davlat krediti ikki tomonlama kelishuv asosida rivojlangan davlatlar tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga tovar yoki valuta shaklida, foiz to'lash yoki foiz to'lamaslik sharti bilan, uzoq yoki qisqa muddatga beriladi.

Xalqaro bank kreditlarining:

□ bank eksport kreditlari (xorijiy importyorlarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit);

□ yevrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan yevrovaluta bozori



resurslari hisobidan yevro-valutada, ikki yildan o‘n yilgacha bo‘lgan muddatda, o‘zgaruvchi foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud.

Qisqa muddatli xalqaro kreditlarni – xalqaro valuta fondi, o‘rta muddatli kreditlarni – Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, uzoq muddatli (yigirma yilgacha) kreditlarni – Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki berishi mumkin.

#### 42-jadval.

### Xalqaro kredit turlari

№	Turkumlash belgilari	Xalqaro kredit turlari
1	2	3
1.	Kreditlash xarakteri bo‘yicha	<input type="checkbox"/> davlatlararo kreditlar <input type="checkbox"/> xususiy kreditlar <input type="checkbox"/> firma kreditlari
2.	Kreditlash shakli bo‘yicha	<input type="checkbox"/> davlat krediti <input type="checkbox"/> bank krediti <input type="checkbox"/> tijorat krediti
3.	Tashqi savdo tizimida tutgan o‘rni bo‘yicha	<input type="checkbox"/> eksportni kreditlash <input type="checkbox"/> importni kreditlash
4.	Kreditlash muddati bo‘yicha	<input type="checkbox"/> qisqa muddatli (1 yilgacha) <input type="checkbox"/> o‘rta muddatli (1-5 yilgacha) <input type="checkbox"/> uzoq muddatli (5 yildan ortiq)
5.	Kreditlash obyekti bo‘yicha	<input type="checkbox"/> tovar krediti <input type="checkbox"/> valuta krediti
6.	Ta‘minlanganlik darajasi bo‘yicha	<input type="checkbox"/> tovar-moddiy boyliklar bilan ta‘minlangan kreditlar <input type="checkbox"/> hujjatlar bilan ta‘minlangan kreditlar

Xalqaro valuta-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklardan olingan kreditlardan (bu kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi yiliga 7 – 9 % ni tashkil qiladi) arzon tushadi.

**[196].** Eksport va importni kreditlash deganda tashqi savdoni kreditlash tushuniladi. **Eksportni kreditlash** quyidagi shakllarda olib boriladi:

Xaridorlar bo‘naklari evaziga yuzaga keluvchi kredit shakli. Bunda xaridorlar bo‘naklari biror bir mamlakatga yoki eksportyorga beriladi va ular xorijiy buyurtmachining buyurtmasini ta‘minlash manbasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda bo‘nak summasi eksportyor kapitalining salmog‘ini oshiradi.

Bank krediti evaziga yuzaga keluvchi kredit shakli. Bunda

eksportyor mamlakat garovi ostida kredit beriladi, shuningdek, importyor mamlakatda tovar hujjatlari yoki tovarlarini garovga olgan holda ham kredit beriladi.

Bank bilan anchadan beri birga ishlab kelayotgan ishonchli yirik eksportyor firmalar bankdan tovarlarni garovga qo‘ymasdan bank kreditini olishlari mumkin.

**Importni kreditlash** ham tijorat va bank krediti shaklida bo‘ladi. Bu kreditlar ikkiga bo‘linadi:

□ Ochiq hisob bo‘yicha kredit (eksportyor yuklangan tovarlarni importyor qarzi sifatida uning hisobiga yozib qo‘yadi, importyor esa kreditni ma’lum bir muddatda to‘lash javobgarligini oladi). Bunda qarzdorlik vaqti-vaqti bilan tugatilib boriladi. Tovar ham, o‘z navbatida, muntazam jo‘natiladi. Bu holatda banklar savdo kontragentlari hisob-kitoblarida vositachi funksiyasini bajaradi.

□ Veksel – kredit, bunda eksportyor tovarni kreditga sotish bitimini imzolab tratta (o‘tkazma veksel) ni importyorga taqdim etadi. Oxirida tovar hujjatlarini olgan shaxs trattani akseptlaydi, ya’ni veksel summasini ko‘rsatilgan muddatda to‘lash javobgarligini oladi.

Import bo‘yicha bank kreditlari quyidagi shakllarda ham bo‘lishi mumkin:

□ **Akseptli kredit** – aksept yoki importyor bankning eksportyor trattasini to‘lash roziligi bilan beriladi. Bunda importyor to‘lov vaqti kelganda bankka qarz summasini ma’lum qiladi, bank uning eksportyor oldidagi javobgarligini yopadi.

□ **Akseptli rambusli kredit** – importyorga xizmat qiluvchi xorijiy bank tomonidan kafolatlash sharti bilan bank tomonidan vekselni akseptlash orqali amalga oshiriladi. Bu holda importyor tratta tugashi vaqtida o‘z vositasini trattani akseptlaydigan xorijiy bankka o‘tkazish rambuslash uchun o‘z bankiga olib kelishi kerak. Shundan so‘ng oxirgi shaxs eksportyorga trattani o‘rnatilgan muddatda to‘laydi.

#### **5.4. Kreditlash tamoyillari va kredit berish tartiblari**

[197]. Kredit va kreditlashning o‘ziga xos qoidalari borki, ular maxsus tamoyillarda ifoda etiladi. Bular:

- kreditning qaytuvchanligi;
- kreditning muddatliligi;
- kreditning ta’minlanganligi;
- kreditning maqsadliligi;

- kreditning to'lovliligi;
- differensial yondashuv.

**Kreditning qaytuvchanligi** tamoyili. Ya'ni kreditni qaytarib berish shart. Qaytarib berish ikkiyoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muhimdir. Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko'chirishida namoyon bo'ladi. Aynan shu yo'l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta'minlaydilar.

**Kreditning muddatliligi.** Kredit ma'lum muddat uchun beriladi. Bankdan qarz olinganda, albatta, uning qanday muddatda berilishi kredit bitimida kelishib olinadi.

Kredit bitimi bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi bitim bo'lib, unda kreditning qanday muddatga berilganligi, kredit uchun qanday haq to'lanishi va kreditni qaytarish kafolatlari qayd etiladi.

Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, bunda qarz oluvchining kreditor oldidagi ishonchliligi tasdiqlanadi va yana takror qarz olish imkoniyati ta'minlanadi.

Kreditning muddatliligi bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi qarz beruvchining qarz oluvchiga nisbatan iqtisodiy jazo choralari (jarima shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar) ni qo'llashi mumkin. Kreditning muddatliligi:

- kredit ishlatilib, uning pulga aylanish davriga;
- kelib tushuvchi mablag'larning tejamli va qayta ishlatish muddatiga;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish muddatiga;
- tovarlarni sotish muddatiga;
- aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog'liq.

**Kreditning ta'minlanganligi.** Bu tamoyil vositasida pul massasi (qiymat) va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) o'rtasidagi zaruriy mutanosiblik (proporsiyalar) ning bir me'yorda bo'lishi ta'minlanadi. Ya'ni bunda xo'jalik aylanma mablag'larida ishtirok etuvchi bank mablag'larning har bir so'miga tovar-moddiy boyliklarning bir so'mi qarama-qarshi turishi talab etiladi.

Boshqacha qilib aytganda, banklar tomonidan beriladigan kreditlar tovar-moddiy boyliklar va ma'lum xarajatlar bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, bankning likvidligiga va pul muomalasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar-moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor beriladi.

Ta'minot kredit qaytmay qolgan paytlarda, uning qaytarilishini qoplash asosi hisoblanadi.

**Kreditning maqsadliligi.** Ya'ni olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunda kredit muayyan aniq obyektga:

- ishlab chiqarish xarajatlariga;
- ishlab chiqarish zaxiralariga;
- tayyor mahsulotga;
- jo'natilgan tovarlar va hokazolarga beriladi.

Maqsadsiz berilgan kreditlar qaytmasligi mumkin.

**Kreditning to'lovliligi.** Ya'ni, kredit uchun haq to'lash zarurligi, bank qarzni tekinga bermaydi, buning uchun qarz oluvchidan foiz undiradi. Foiz – bu qarz haqidir. Uning miqdori berilgan qarzga nisbatan foiz hisobida belgilanadi. Foiz kreditning bahosi bo'lish birga kreditdan foydalangani uchun to'lanadigan haqdir.

Demak, kreditning to'lovliligi uning to'liq summada o'z egasiga qaytarilishigina emas, shu bilan bir qatorda kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

**Kreditning samaradorligi.** Bu tamoyil nafaqat kredit summasi va foizning bankka qaytarib to'lashini, shuningdek undan kreditlangan yoki moliyalashtirilgan soha, tarmoq, korxonaga qancha samaradorlikka erishganini ifodalaydi. Shu sababli kredit ajratishdan yoki berishdan oldin shu kreditning samara berish ehtimolini hisob-kitob qilish zarur. Masalan, loyihaga qo'yiladigan mablag' samara bersa, shundagina bu loyihaga mablag' ajratish kerak.

Kreditning samaradorligi ( $K_s$ ) ishlab chiqarish va uning realizatsiya hajmiga ( $R_h$ ) bevosita bog'liq bo'lib, quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$K_s = \frac{R_h}{K_h}$$

Buyerda:

$K_h$  – berilgan kreditning o‘rtacha hajmi.

Agar korxonada kreditlar resursini kam jalb qilib, uning bir so‘miga ko‘p mahsulot realizatsiya qilgan bo‘lsa, demak, kreditning samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Kreditning samaradorligini ta‘minlash maqsadida g‘arb mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi qoidasi, ya‘ni «5-C» qoidasi qo‘llaniladi. Bunga asosan har bir «C» bo‘yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqiladi va korxonada faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. Qoidaga binoan «C» harflari quyidagi jihatlarni ifodalaydi:

- C1 (character) – qarz oluvchining bozordagi obro‘si, uning holatini aniqlash.
- C2 (capacity) – qarz oluvchining boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olish, tegishli daromad olish hamda bank kreditlarini qaytarib berish qobiliyati.
- C3 (capital) – qarz oluvchi sarmoyasining yetarliligi.
- C4 (conditions) – mazkur biznesning rivojlanishi yuzasidan shartlar.
- C5 (collateral) – garov (kafolat, kafillik, sug‘urta polisi, tovar-moddiy boyliklar va boshqalar).

Kreditning differensial yondashuv tamoyili ham uning mohiyatini aks ettiruvchi jihatlardan hisoblanadi. Kredit munosabatlarida bank barcha mijozlarga bir xilda yondashmaydi. Masalan ishonchli mijozlarga kredit uchun ta‘minot talab qilmasdan kredit ajratishi mumkin yoki ishonchsizroq mijozlardan kredit qiymatidan ancha yuqori qiymatga ega bo‘lgan ta‘minot talab qilishi mumkin. Kredit to‘lovi sifatida foiz o‘rnatish jarayonida ham bank mijozlarga turlicha yondashishi mumkin.

Har qanday bankning ko‘rsatadigan xizmatlari nuqtayi nazaridan uning kredit portfelini tartibga solib turish o‘ta muhimdir. Zero, kreditning ba‘zi bir turlarini berish qonun bilan chegaralangan, ba‘zi bir kredit turlari esa umuman taqiqlangan.

Masalan:

- bankning o‘z aksiyasi bilan ta‘minlangan kreditlarni berishi umuman taqiqlangan, shuningdek, bankning o‘z xodimlariga iste‘mol krediti berishi ham chegaralangan;

- ipoteka kreditining hajmi bank kapitali va daromadi qiymati yoki muddatli va jamg‘arma depozitlaridagi mablag‘lar hajmining 70 foizidan oshmasligi lozim;

□ bir qarz oluvchiga berilayotgan kredit miqdori bank kapitali va daromadining 15 foizidan oshmasligi lozim. Yoki qarzdor kredit uchun tezda pulga aylantirish imkoniyatiga ega garov berganda, berilayotgan kreditning hajmi bank kapitali va foydaning 25 foizini tashkil qilishi mumkin;

□ bank kredit berish jarayonida mijoz bilan kredit shartnomasi tuzgunga qadar unga kreditning yillik foiz stavkasi, ya'ni kreditning narxi, kredit uchun to'lanadigan to'lovlar va soliqlar haqida axborot berishi lozim.

**[198].** O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining 28 va 34-moddalariga muvofiq korxonalarni, tashkilotlarni, muassasalarni, xususan, kichik, o'rta biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni kreditlash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kredit berish (olish) «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu nizom banklar tomonidan beriladigan barcha kreditlarga, shuningdek, unga ochilayotgan kredit liniyalariga nisbatan qo'llaniladi. Bank kreditlarni o'zining ichki kredit siyosatiga va kredit operatsiyalarini yuritishning umumiy shartlariga muvofiq ravishda beradi.

Kreditlar yuridik shaxs huquqlariga, o'z sarmoyasi va mustaqil balansiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni tatbiq etiladigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadigan korxonalariga taqdim etiladi. Zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirish uchun da'voga beriladi.

Kredit olish uchun korxonalar yoki tashkilot o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- kredit olish uchun ariza;
- korxonaning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi;
- biznes-reja;
- foyda va zararlar to'g'risida hisobot;
- aylanma mablag'larining aylanuvchanligi hisob-kitobi;
- boshqa kreditorlardan qarzga mablag'lar olingani va boshqa banklarda erkin mablag'lari borligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Bu hujjatlar sinchiklab o'rganilgach, bank xodimi xulosani rasmiy-

lashtiradi, soʻngra u ilova qilingan hujjatlar bilan birga koʻrib chiqish uchun kredit qoʻmitasiga yuboriladi. Kredit qoʻmitasi oʻz vakolatlaridan kelib chiqib, uch kun mobaynida tegishli qaror qabul qiladi.

Kredit qoʻmitasining ijobiy qaroridan keyin kredit shartnomasi tuziladi. Unda quyidagilar koʻzda tutiladi:

- kredit maqsadi va summasi;
- kreditni berish tartibi va shakli, kredit liniyasi miqdori va haqiqatdagi qarzidan kelib chiqib belgilangan uzish muddatlari;
- foiz stavkalari miqdori, ularni hisoblab yozish va toʻlash tartibi;
- kreditni berish uchun zarur maʼlumotlar, hisob-kitoblar va boshqa hujjatlarning roʻyxati va ularning davriyligi;
- buxgalteriya va ombor hisobi, kreditdan maqsadli foydalanish, qaytarish taʼminlanishi holatini joyning oʻzida har chorakda tekshirish va boshqa masalalar.

**[199].** Tashkilotga kredit berish alohida hisobvaragʻidan «kredit liniyasini ochib» yoki «kredit liniyasini ochmasdan» amalga oshirilishi mumkin.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan ssuda berish bankning kafolat majburiyati bilan rasmiylashtiriladi. Bu bilan bank oʻz zimmasiga, oʻzining bogʻlanish hisobvaragʻi holatidan qatʼiy nazar, kredit shartnomasi bilan belgilangan kredit miqdori, kredit berish muddati va limiti doirasida korxonaga yoki tashkilotga kreditni toʻsiqsiz berish kafolatlangan majburiyat oladi.

Bankning kafolat majburiyati ikki nusxada tuziladi, ularning bittasi kredit xodimi farmoyishiga binoan balansdan tashqari 9925 – hisobvaraqa hisobga olish uchun buxgalteriyaga beriladi, ikkinchisi mijozning yigʻmajildida saqlanadi.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan kreditga ega boʻlgan ehtiyoj:

- kreditdan foydalanish va uni uzish davriyligi;
- moddiy boyliklarni yetkazib berish toʻgʻrisida mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar tahlili asosida belgilanadi.

**«Ochiq kredit liniyasi»** bilan kreditlash limiti har chorakda, tovar zaxiralarining haqiqatdagi oʻrtacha qoldiqlari, yuklab joʻnatilgan tovarlar (amalga oshirishning bir oylik muddati doirasida) avvalgi chorak uchun tovar operatsiyalari boʻyicha kreditorlik qarzidan kelib chiqib belgilanadi. Berilgan kreditlar muddati majburiyatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ular balansdan tashqari 9921 - hisobvaraqa boʻyicha

kirim qilinadi.

**[200].** Kreditga doir yig'majildda kreditni berish uchun talab qilinadigan umumiy hujjatlar quyidagilarga muvofiq kelishi lozim.

□ qarzdor tomonidan imzolangan va kredit berilishidan oldingi sana qo'yilgan, kreditdan foydalanish maqsadlari bayon etilgan va kredit ta'minlangan holda garov mavzui ko'rsatilgan ariza;

□ qarz oluvchining ta'sis hujjatlari; bunda hujjatning nusxalari mas'ul kredit xodimi tomonidan qarz oluvchining yuridik ishidan olingan bo'lishi shart;

□ biznes-reja (iste'mol krediti va biznes-rejani taqdim etish shart bo'lmagan kreditning boshqa turlari bundan mustasno);

□ agar shaxs qarzdorning vakili bo'lsa, qarzdor nomidan kredit shartnomasini imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjat, imzolar nusxasi;

□ tuzilgan kredit shartnomasining asl nusxasi;

□ qabul qilingan buxgalterlik andozalariga muvofiq tayyorlangan, oxirgi hisobot sanasida qarzdor tomonidan imzolangan moliyaviy hisobotlar, jumladan, balans hisoboti hamda daromadlar va pul oqimiga doir hisobotlar; zarurat tug'ilganda qarz oluvchining hisobotlari bank va bankning konsultatsion bo'limining mas'ul kredit xodimi hamkorligida talab qilinayotgan formatga muvofiq keltirilishi shart;

□ mas'ul bank xodimi tomonidan tayyorlangan, kreditni to'lash uchun qarzdorning naqd pul massasi oqimining yetarliligini tasdiqlovchi pul oqimi to'g'risidagi hisobot tahlili;

□ bank kredit qo'mitasining kredit tasdiqlangan muddat va shartlarini o'z ichiga oluvchi kredit shartnomasini tasdiqlashga doir qarori.

Agar kredit ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlangan bo'lsa, kredit yig'majildiga quyidagi qo'shimcha hujjatlar kiritiladi:

□ ipoteka to'g'risida tuzilgan shartnomaning asl nusxasi;

□ hisobot bahosiga muvofiq garov mavzui bozor qiymatini taqqoslash va uni saqlab turish uchun yetarli bo'lgan axborot va tahlilni o'z ichiga oluvchi baholash to'g'risidagi hisobot;

□ agar kredit garovni sotib olish moliyalashtirilishi uchun berilgan bo'lsa, sotish narxini tasdiqlovchi hujjatlar.

Agar kredit boshqa shaxs tomonidan kafolatlansa, kredit yig'ma-jildiga quyidagi qo'shimcha hujjatlar kiritiladi:

□ kafillik to'g'risidagi shartnoma yoki yozma kafolat;

□ auditorlik tashkiloti yoki auditorning kafolatchining (kafil) qoniqarli moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi xulosasi.



Shaxsning kafil nomidan (kafolatchi) kafolat to'g'risidagi shartnomani (majburiyatni) imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Agar kredit ko'chmas mulkni qurish, ta'mirlash va tiklashni moliyalash maqsadida berilgan bo'lsa, bank kredit yig'ma jildiga smeta hujjatlarini, shuningdek, bank tomonidan tayyorlangan tekshirish to'g'risidagi hisobotni yoki kredit berilgan ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani kiritish lozim.

**[201].** Kreditlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mijoz kredit olish uchun bankka ariza beradi.
2. Bankning kredit bo'limi mutaxassisi mijoz bilan suhbat o'tkazib, kreditni olishdan maqsad va muddatini aniqlaydi.
3. Mijozning moliyaviy ahvoli tahlil qilinadi.
4. Kredit mutaxassisi o'z xulosasi va tavsiyasini bankning kredit qo'mitasiga taqdim qiladi.
5. Kredit qo'mitasi kredit berish yoki bermaslik to'g'risida xulosa chiqaradi.
6. Mijozning garov sifatida taklif qilayotgan mulki har tomonlama o'rganilib, tahlil qilinadi.
7. Kredit shartnomasi tuziladi va kredit beriladi.
8. Kreditning qaytarilishi muntazam ravishda tekshiriladi.
9. Kredit to'liq qaytarilgandan so'ng, mazkur «Kredit ishi» yopiladi.

Kredit olish uchun bankka ariza bergan mijozning moliyaviy ahvolini tahlil qilish, xulosa chiqarish va kredit berish bilan shug'ullanuvchi bo'lim kredit boshqarmasi yoki bo'limi deyiladi. Bu boshqarma mijoz arizasini baholashda uchta eng muhim savolga javob olishi lozim:

1. Mijoz kredit olish qobiliyatiga egami (layoqatlimi)? Nima uchun siz shunday xulosaga keldingiz?
2. Bank va omonatchilar xuquqini himoya qiluvchi va qarz oluvchiga yuqori sifatli kredit xizmati ko'rsatishni ta'minlovchi kredit shartnomasi to'g'ri tuzilgan va kerakli hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?
3. Kreditni to'liq qaytara olmaslik ehtimoli paydo bo'lganda, bank mijozning garov mulkini tez, xarajatsiz va xatarsiz sota oladimi?

**[202].** Kredit mutaxassisi kredit talabnomasini baholashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

**1. Mijoz xususiyati va kredit olishdan maqsadi.** Bunda mijoz kreditni vaqtida va to'liq hajmda qaytarib berish uchun majburiyat va mas'uliyatni to'la his qilayotganiga ishonch hosil qilishi lozim.

Mijozning kredit olishdan maqsadi aniq bo'lishi va dalillar asosida isbotlab berilishi hamda kredit mutaxassisi bu isbotlarning haqqoniyligi, bankning kredit siyosatiga mos kelishi va mijozning kreditni qaytarib berish niyati qat'iy ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu maqsadda tajribali kredit mutaxassislari talabnomani o'zlari to'ldirishga harakat qiladilar va bu orqali mijoz og'zaki muloqotda bo'lib, savollar orqali uning xususiyati, haqiqiy niyati va samimiyligini aniqlab oladilar. Agar mijoz avval iste'mol kreditidan foydalanmagan bo'lsa, ikkinchi bir shaxs kafil sifatida jalb qilinadi va bu bilan bank berayotgan kreditning qaytarilishi kafolatlanadi. Chunki mijoz o'zi uchun kafillik bergan shaxsni noqulay ahvolga qo'ymaslik uchun qo'lidan kelgan hamma imkoniyatlardan foydalanib, kreditni to'liq va o'z vaqtida qaytarishga harakat qiladi.

**2. Mijozning daromadi darajasi va barqarorligini** aniqlash kredit mutaxassisi uchun muhimdir. Bunda u mijozdan barcha to'lovlardan keyin qoladigan sof oylik ish haqi to'g'risida ma'lumot talab qiladi, mijozni ish bilan ta'minlovchilarga murojaat qilib, firmaning ishlash muddati, manzilgohi va sug'urta kafolati haqida so'rab-surishtiradi.

**3. Mijozning depozit hisobvarag'idagi o'rtacha kunlik qoldiq miqdori** ham uning talabnomasini baholash uchun muhimdir. Ba'zi banklar kreditning qaytmaslik ehtimolini sezishlari bilan, mijozni o'n kun oldin ogohlantirgan holda, uning depozit hisobvarag'i bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankka murojaat qilib, depozit hisobvarag'idagi mablag'ni ssuda hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risida talab qiladilar.

**4. Mijozning bandlik darajasi va yashash sharoiti** iste'mol krediti talabnomasini qondirishning yana bir muhim omilidir. Mijoz mazkur ish bilan faqatgina bir necha oy band bo'lsa va yashash joyda qisqa vaqt ichida turgan bo'lsa, kredit mutaxassisi bunday mijozga kredit berishni rad qilishi mumkin.

**5. Qarzni to'lash bosqichlari** tahlil qilinganda, **mijozning yillik va oylik daromadi** aniqlanadi. Buning ma'nosi shuki, kredit mutaxassisi qarzning har bir qismini o'z vaqtida to'liq qaytarilishini ta'minlash uchun mijozning xatti-harakatini nazorat qiladi va bu bilan mijozning o'z mablag'larini boshqarish qobiliyatini o'rganadi.

**6. Bank kreditini qaytarish omillaridan biri, kreditning ta'minlanganligidir**, ya'ni mijozga tegishli uy, bino, inshootning mavjudligidir. Bundan tashqari, telefonning mavjudligi ham biron bir muammo paydo bo'lganda, bankka mijoz bilan xarajatsiz bog'lanish imkoniyatini

beradi.

Barcha omillar ichida eng asosiysi, **mijoz ma'lumotlarining to'laqlonliligi, mijozning samimiyligi va rostgo'yligidir.** Chunki mijoz o'zining sog'lig'i, kelajakdagi bandligi to'g'risidagi noto'g'ri ma'lumot bersa, bank bundan katta zarar ko'rishi mumkin. Shuning uchun iste'mol kreditlaridan kutiladigan yo'qotishlarni kamaytirishning asosiy vositasi likvid garov va kafolatlarning mavjudligidir.

**[203].** Kredit talabnomasining quyidagi ko'rsatkichlari sifat indikatori bo'lib xizmat qiladi. Bular mijozning:

- faoliyat sohasi, mashg'ulot turi;
- yoshi, oilaviy ahvoli;
- uy-joy bilan ta'minlanganligi;
- kredit bo'yicha reyting bahosi;
- faoliyati va uning davomiyligi;
- so'nggi manzilda yashash muddati;
- telefoni;
- qaramog'idagi shaxslar soni;
- bankdagi hisobvaraqlari raqami;
- daromad darajasi.

**[204].** Jahon bank amaliyotida kredit mutaxassisi kredit talabnomasini tahlil qilishda kredit skoringi tizimidan foydalanadi. Mazkur tizim kredit talabnomasining har bir bandiga alohida baho berishga asoslangan. hozirgi vaqtda jahon bank amaliyotida kredit talabnomasini baholashda ball tizimining quyidagi shkalalari qo'llanilmoqda.

<b>Ball</b>	<b>Kredit berish yoki bermaslik to'g'risida qaror</b>
28 gacha	- Kredit berish rad etilsin
29 - 30	- 500 \$gacha kredit berish mumkin
31 - 33	- 1000 \$gacha kredit berish mumkin
34 - 36	- 2500 \$gacha kredit berish mumkin
37 - 38	- 3500 \$gacha kredit berish mumkin
39 - 40	- 5000 \$gacha kredit berish mumkin
41 - 43	- 8000 \$gacha kredit berish mumkin

Biroq ball tizimining bunday shakli qo'llanganda, bank o'z mijozlarini yo'qotishi mumkin. Chunki mijozlar o'zlarining kredit talabnomalarini bank noto'g'ri baholagan, degan xulosaga kelib, mazkur bank xizmatidan foydalanishidan bosh tortishi mumkin. Bundan tashqari, talabnomaning qonunga xilof ravishda baholanishi natijasida, mijoz bank ustidan sudga ariza berishi mumkin. Bunday sharoitda bank o'zi

qo‘ygan har bir ball bahoni dalillar bilan isbotlab berishiga to‘g‘ri keladi. Ballik baho qo‘yishda bank yumshoq baho siyosatidan foydalanmasa, o‘zi juda mushkul ahvolda qolishi mumkin.

**[205].** Kredit inspektori ipoteka krediti uchun berilgan talabnomalarni baholashda quyidagilarga e‘tibor berishi lozim:

1. Qarzdor to‘lashi kerak bo‘lgan kredit miqdori bilan garov mulki xarid bahosi miqdorining nisbati kreditor uchun ipoteka kreditining eng muhim ishonchlilik omilidir. Olinayotgan kredit miqdori garov mulki bahosidan ancha yuqori bo‘lib, qarzdor shartnomaning barcha talablarini bajarishda mas‘uliyatsiz bo‘lsa, uning shaxsiy mulki bahosi kredit bahosini qoplamaydi va bank katta zarar ko‘radi. Agar garov xarid bahosi kredit miqdorining 90 foizini tashkil qilsa, garov sug‘urtasi muhim o‘rin tutadi va kreditor qarzdor xususiyati va mas‘uliyati hissini baholashda ancha talabchan bo‘lishi lozim.

2. Ipoteka krediti berilishi natijasida qarzdor bankda yana boshqa operatsiyalarni ham amalga oshirishi mumkin. Masalan, depozit mablag‘lari hisobiga uy-joyni ta‘mirlash uchun kredit olishi mumkin. Shu tufayli ipoteka krediti berilganda, kreditor qarzdor bilan bo‘ladigan barcha munosabatlarni ham e‘tiborga olishi lozim.

3. Mijoz depozit hisobvarag‘idagi mablag‘lar qoldig‘ining barqarorligi beriladigan ipoteka kreditlari miqdori va turlarining asosiy omilidir. Barqaror depozit bazasiga ega banklar ipoteka kreditlash siyosatini izchil olib borish va uzoq muddatga katta miqdordagi ipoteka kreditlari berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

4. Ko‘chmas mulk asosida kreditlash kredit inspektoridan kredit talabnomasini tahlil qilishda quyidagilarga alohida e‘tibor berishni talab qiladi:

□ Mijoz daromadining hajmi va barqarorligi, ayniqsa ipoteka krediti miqdori va kreditni qoplash uchun yo‘naltirilgan mablag‘ miqdori.

□ Mijoz jamg‘armasi miqdori va birlamchi to‘lov manbayi. Agar ushbu to‘lov miqdori jamg‘arma miqdorining kamayishiga olib kelsa, buning natijasida favqulodda sharoitlarda, masalan, kasallik yoki oila a‘zosining ishsiz qolishi tufayli mijozning zarur bo‘lib qolish ehtimoli bo‘lgan likvid aktivlari qisqarib ketadi.

□ Garov mulkka qarzdorning munosabati. Agar mijoz garov mulkini o‘rnatilgan talablar darajasida saqlamasa, u kreditni to‘liq qaytara olmay, garov mulkini qaytarib olish huquqini yo‘qotganda, bank unga garov mulk bahosining ortiqcha miqdorini kerakli qiymatda qaytara

olmaydi.

□ Ipoteka kreditiga oʻrnatilgan foiz stavkasining turi. Agar ipoteka kreditiga suzib yuruvchi foiz stavkasi oʻrnatilgan boʻlsa, foiz stavkasining oʻzgarishi natijasida suzib yuruvchi foiz stavkasi oʻrnatilgan garovdan koʻra tayanch foiz stavkasi oʻrnatilgan garovni sotish ancha qulaydir.

□ Mahalliy koʻchmas mulk bozoridagi sotuv hajmi (agar mulk bank ixtiyoriga oʻtsa). Iqtisodiy tanazzul vaqtida koʻchmas mulkka boʻlgan talabdan taklif oshib ketadi va bank oʻzining mablagʻini qaytarib olish uchun vaqt kerak boʻladi.

## 5.5. Mikroreditlash

[206]. Bugungi kunda Respublikamiz bank tizimi tadbirkorlik tuzilmalarining moliyaviy resurslaridan unumli foydalanishiga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratmoqda. Byudjetdan tashqari fondlarning mablagʻlari hisobidan kreditlar berish tartibi anchagina soddalashtirildi va bunday mablagʻlar bugungi kunda yakka tadbirkorlarga ham ajratilmoqda. Bu tartib tadbirkorlikni endigina boshlayotganlarga mikroreditlar berish toʻgʻrisidagi yangi qoidalar bilan toʻldirildi.

Mikroredit deganda kredit beriladigan kundagi birjadan tashqari valuta bozori kursi hisobida 5000 (besh ming) AQSh dollariga ekvivalent miqdoridan oshmaydigan hajmda milliy yoki chet el valutasida beriladigan kreditlar tushuniladi.

Mikroreditlash bilan, odatda, jahon tajribasida kredit uyushmalari yoki jamiyatlari, bank hisoblanmagan tashkilotlar shugʻullanadi. Markaziy bank boshqa mamlakatlardagi tajribalarni oʻrganib chiqib, manfaatdor idoralar bilan birgalikda «Kredit kooperativlari toʻgʻrisida»gi Qonun loyihasini (2000-yil yanvar) ishlab chiqdi. Bu loyiha hozirgi paytda xalqaro ekspertlar tomonidan koʻrib chiqilmoqda.

Markaziy bank yangi qonun qabul qilingunga qadar va vaqtdan yutish maqsadida «Tijorat banklari tomonidan kichik va oʻrta biznes subyektlari, dehqon va fermer xoʻjaliklari, yakka tartibdagi tadbirkorlarni barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan milliy va chet el valutasida mikroreditlash tartibi» ni ishlab chiqdi. Ushbu tartibning 1,4 bandida: «Mikroreditlar faqat Oʻzbekiston Respublikasi rezidentlariga-gina beriladi», – deyilgan.

Tijorat banklari mikroreditlarni qarz oluvchilarga shartnoma

asosida 3 yilgacha boʻlgan muddatga beradilar. Kreditlar mijozning talab qilib olinadigan depozit hisob raqami joylashgan manzil boʻyicha beriladi.

Mikrokreditlarning 50 foizigacha miqdori, 1,5 yil (18 oy) gacha boʻlgan muddatda qaytarish sharti bilan naqd pulda berilishi mumkin.

Banklarga oʻz daromadlari hisobidan maxsus mikrokreditlash jamgʻarmasini tashkil qilish tavsiya etiladi.

Mikrokreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- Kichik (mini) uskunalarni xarid qilish;
- xususiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, urugʻlik, chorva mollari, yosh chorva mollari, parranda, yem-xashak va omixta yem, veterinariya dori-darmonlari, oʻsimliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari va mineral oʻgʻitlarni sotib olish;
- xomashyo va materiallarga birlamchi ishlov berish;
- mehnat qurollari, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va yordamchi ashyolarni xarid qilish;
- xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy sanʼati buyumlarini ishlab chiqarish;
- hunarmandchilikni rivojlantirish, uy mehnati (kasanachilik) ni tashkil qilish;
- servis xizmati va maishiy xizmat koʻrsatishni rivojlantirish;
- sogʻliqni saqlashni rivojlantirish;
- sayyohlik (turizm) sohasini rivojlantirish;
- kichik koʻlamdagi ishlab chiqarishlarni tashkil qilish;
- Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan xalq isteʼmoli mollarini ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasi bilan bogʻliq tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari.

Mikrokreditlar quyidagi maqsadlarga berilishi mumkin emas:

- ilgari olingan kreditlarni yoki boshqa har qanday qarzlarni qoplash;
- tamakichilik va spirtli ichimliklarni ishlab chiqarish;
- savdo-vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- foydalanilmaydigan shaxsiy mulkni ishlab chiqarish maqsadlarida xarid qilish.

Mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank oʻrtasidagi oʻzaro kelishuvga koʻra kredit shartnomasi asosida, ammo Markaziy bank tomonidan rasman oʻrnatilgan

qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

Respublikamizda iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida mikro kreditlarga keng e‘tibor qaratilmoqda.

2006-yilda maxsus “Mikrokreditbank” tashkil etildi. 2007-2008-yillarda ushbu bank aktivlari miqdori 3.5 barobar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash hajmi 4 barobarga oshdi va bu maqsadlarga 150 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

Prezident Farmoni asosida “Mikrokreditbank” ustav jamg‘armasi 72 mlrd so‘mga oshirish va uning hajmini 150 milliard so‘mga yetkazish haqida qaror qabul qilindi.

Prezidentning 2008-yil 10 noyabrdagi PF-4051 sonli Farmoniga asosan “Mikrokreditbank” foiz stavkalari boshlang‘ich sarmoyani tashkil etishga 5 foizdan 3 foizga, aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun 14 foizdan 7 foizga va mikro lizing xizmatlari uchun 7 foizdan 5 foizgacha tushirildi

Maxsus mikro kreditlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan beriladigan mikro kreditlar bo‘yicha imtiyozli foiz stavkalarini belgilash tavsiya etiladi.

[207]. Mikro kredit olish uchun yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo‘jaliklari tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- so‘ralayotgan mikro kredit miqdori ko‘rsatilgan kredit arizasi;
- kreditni qaysi maqsadga ishlatilishi ko‘rsatilgan biznes-reja.

Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkor yoki dehqon xo‘jaligi boshlig‘i o‘z pasportini shaxsan ko‘rsatadi va pasport nusxasi kredit yig‘majildiga tikib qo‘yiladi.

Kreditning qaytarilmay qolish xavfining oldini olish maqsadida qarz oluvchi bankka quyidagi ta‘minot turlaridan birini taqdim etish huquqiga ega:

- mulk yoki qimmatli qog‘ozlar garovi;
- bank yoki sug‘urta tashkiloti kafolati;
- uchinchi shaxsning kafilligi;
- sug‘urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytara olmaslik xatarini sug‘urta qilingani to‘g‘risidagi sug‘urta polisi;
- fuqarolar yig‘inlarining mahalla, qishloq, ovul kengashlari kafilligi.

Banklar, o‘zlari bilan doimiy aloqaga ega, bank hisob raqamida muntazam pul oqimi mavjud bo‘lgan, yaxshi obro‘ va kredit tarixiga ega

qarz oluvchilarga blankli (ishonchli) mikrokredit berish huquqiga egadirlar.

Mikrokreditlarning qaytarilish ta'minoti shakllaridan biri sifatida mol-mulk garovi xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, muomaladan chiqarilgan buyumlardan tashqari, har qanday mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar), qimmatbaho buyumlar, zargarlik buyumlari, erkin ayirboshlanadigan valuta va boshqalar garov predmeti bo'lishi mumkin.

Kredit hisobiga sotib olingan mulk, uning qiymatining 80 foizi miqdorida mazkur kredit bo'yicha garov predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kafillik **bank-benefitsiar** foydasiga qarz oluvchi va kafil o'rtasida tuziladigan yozma shakldagi kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Fuqarolar yig'inining mahalla, qishloq, ovul Kengashi, kafillik shartnomasiga muvofiq, qarz oluvchining majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bilan javob beradi.

Kredit so'rab berilgan arizaning bankka kelib tushgan kundan boshlab, ushbu ariza bo'yicha bank tomonidan xulosa berish muddati 5 ish kunidan oshmaydi.

Kredit shartnomasi tuzilganidan so'ng kredit bo'limi xodimi, muddati va foiz stavkasini ko'rsatgan holda, ssuda hisob raqamini ochish to'g'risida buxgalteriyaga ko'rsatma beradi.

Mikrokredit berish to'g'risida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab qarz oluvchiga kredit varaqachasi ochiladi va uning yordamida kredit ustidan nazorat amalga oshiriladi.

[208]. Kredit mijozning talab qilib olinguncha depozit hisob raqami joylashgan manzili bo'yicha beriladi. Kreditlar alohida ssuda hisob raqamini ochish va ushbu hisob raqamidan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari asosida moddiy-tovar boyliklar uchun naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan yoki mikrokreditning 50 foizgacha miqdorida naqd pul shaklida, pul cheklarini to'lash yo'li bilan beriladi.

Naqd pul shaklida berilgan mikrokreditlarni qaytarish va ularning foizlarini to'lash majburiy tarzda bank kassasiga naqd pul topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklariga berilgan mikrokreditlar kredit ajratish muddatiga qarab mos ravishda 12601 - «Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli ssudalar» va 13801 - «Yakka



tartibdagi tadbirkorlarga berilgan o'rtta muddatli ssudalar» balans hisob raqamlarida hisobga olinadi.

Alohida ssuda hisob raqamlari bo'yicha berilgan mikrokreditlar bo'yicha kredit bo'limi xodimining farmoyishiga ko'ra muddatli majburiyatnomalar rasmiylashtiriladi va ular kreditlash muddatlariga qarab, to'la qaytarilguniga qadar 91901 – «Qarz oluvchilarning qisqa muddatli ssudalar bo'yicha majburiyatlari» va 91903 – «Qarz oluvchilarning o'rtta muddatli ssudalar bo'yicha majburiyatlari» nomli, ko'zda tutilmagan sharoitlar hisob raqamlarida hisobga olinadi. Qaytarish muddatlari pul oqimining kelib tushish istiqboliga qarab, bir necha bosqichda qoplashni ko'zda tutuvchi jadval shaklida taqdim etilishi mumkin.

Qaytarish muddati yetib kelganda va qarz oluvchining pul mablag'lari mavjud bo'lmagan taqdirda, kredit muddati o'tgan ssudalar hisob raqami orqali undirib olishga taqdim etiladi, u bo'yicha muddatli majburiyatnomalar esa 2-kartotekaga joylashtiriladi.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring amalga oshiriladi va u qarz oluvchi tomonidan uning loyihasi va kredit shartnomasi shartlarining amalga oshirilishiga har tomonlama ko'maklashishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Monitoring jarayonida bankka berilgan garov holati va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanish bo'yicha joylarga borib tekshiruvlar o'tkazib turiladi. Berilgan kreditdan boshqa maqsadda foydalanganlik holati aniqlanganda, bank kredit shartnomasida berilgan tartibda, kreditning maqsadga nomuvofiq ishlatilgan qismini qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan muddatdan oldin undirib olish huquqiga ega.

Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzni va unga hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, bank Fuqarolik kodeksining 280-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq mustaqil ravishda, sudga murojaat qilmasdan, garov predmetini tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi.

**[209].** Tijorat banklari o'z Nizomlariga va valuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun ularga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyada ko'rsatilgan huquqlarga muvofiq ravishda faqat o'z ishlab chiqarish faoliyati uchun respublikada ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, xomashyo va butlovchi qismlarni import yo'li bilan xarid qilish uchun chet el valutasida mikrokreditlar

berishlari mumkin.

Tijorat banklari tomonidan chet el valutasidagi mikrokreditlar o'z kredit resurslari va chetdan jalb qilingan kredit mablag'lari, shu jumladan, xorijiy banklarning kredit liniyalari hisobidan amalga oshiriladi.

Chet el valutasidagi mikrokreditlar banklar bilan qarz oluvchilar o'rtasida tuziladigan kredit shartnomalaridan belgilanadigan tijorat shartlari asosida naqdsiz shaklda beriladi.

Chet el valutasida berilgan kreditlar bo'yicha foizlarning to'lovi, to'lov sanasidagi birjadan tashqari valuta bozori kursi bo'yicha milliy valutada amalga oshiriladi. Asosiy qarzni to'lash chet el valutasida amalga oshiriladi, qarzdorning chet el valutasidagi hisob raqamida mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda to'lov sanasidagi birjadan tashqari valuta bozori kursi bo'yicha milliy valutada to'lanishi mumkin.

Chetdan jalb qilingan kredit mablag'lari hisobida chet el valutasida mikrokreditlar berish tijorat banklariga xorijiy kredit liniyalarini ajratish shartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Qarz oluvchilarga chet el valutasida kredit berish jarayonida, qarz oluvchilar tijorat banklaridan oldin olingan kreditlarga doir majburiyatlarini o'z vaqtida bajargan bo'lishlari lozim.

Qarz oluvchilarga chet el valutasida mikrokredit olish uchun xorijdan sotib olinadigan mahsulot tavsifi, u xarid qilinadigan mamlakat, uning qiymati, to'lov valutasini, uskunalarni sotib olinadigan holda - zarur xomashyo bilan ta'minlanganligiga oid ma'lumotlarni bankka taqdim etadi. Chet el valutasida mikrokredit olish uchun berilgan ariza yuqoridagi tartibning 2.6-bandida belgilangan muddatda ko'rib chiqiladi. Mikrokredit bo'yicha qarzdorlikni to'lash chog'ida birinchi navbatda kreditdan foydalanganlik uchun foizlar undiriladi.

Mikrokredit belgilangan muddatlarda qaytarilmagan taqdirda, shuningdek, qarzdorning milliy valutadagi talab qilib olinguncha depozit hisob raqamida mablag'lar yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan hollarda, tijorat banklari mikrokreditning qaytarilmagan summasini qonunchilikda belgilangan tartibda qarzdorning chet el valutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan undirib olish huquqiga egadirlar.

Qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisob raqamida mablag'lar yetarli bo'lmagan yoki yo'q bo'lgan taqdirda mikrokreditning summasi qonunchilikda belgilangan tartibda kafolat beruvchining

yoki kafilning zimmasida bo‘ladi.

## 5.6. Imtiyozli kredit berish

[210]. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish maqsadida mikro kredit berishning tartiblariga jiddiy o‘zgartirishlar kiritilib borilmoqda. Endilikda fermer yoki tadbirkor bo‘lishni xohlagan ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan jismoniy shaxsga 10 ming dollargacha, yuridik shaxsga 10 ming dollargacha imtiyozli ustamalar bilan mikro kredit ajratiladi. Bu kreditni qaytarish muddati esa 3 yil qilib belgilandi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga, dehqon va fermer xo‘jaliklariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2000-yil 21-martdagi PF-2564 sonli farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan «Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit berish maxsus jamg‘armasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq **imtiyozli kreditlar** beriladi.

Tijorat banklari imtiyozli kredit berish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kreditlar berishni shartnoma asosida amalga oshiradilar. Imtiyozli kredit berish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kreditlar berish muddatlari kredit berilayotgan tadbirlarning o‘zini qoplashiga bog‘liq bo‘ladi, chunonchi:

- xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqa ishlab chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo‘lgan aylanma mablag‘larni to‘ldirishga kreditlar kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga, qoidaga ko‘ra, 1 yil muddatgacha beriladi;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag‘larni to‘ldirishga kreditlar fermer xo‘jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jaliklarga, qoidaga ko‘ra, kamida 2 yil muddatga beriladi;

- investitsiya loyihalarini mablag‘ bilan ta‘minlash uchun kreditlar kichik va o‘rta tadbirkorlikning barcha subyektlariga, shu jumladan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan fermer va dehqon xo‘jaliklariga to‘lov muddatini kechiktirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlarni qaytarishning eng uzoq muddati, qaytarish muddatini uzaytirishni hisobga olgan holda 12 oydan oshishi

mumkin emas, fors-major holatlari bundan mustasno.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga mo‘ljallangan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun dehqon va fermer xo‘jaliklariga berilgan kreditlarni qaytarishning eng uzoq muddati, qaytarish muddati uzaytirilishi hisobga olingan holda, 30 oydan oshishi mumkin emas, fors-major holatlari bundan mustasno. Fermer va dehqon xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan aylanma mablag‘lari uchun berilgan boshqa kreditlar bo‘yicha ulardan foydalanish muddatlari, qaytarish muddati uzaytirilishi hisobga olingan holda, 12 oy etib belgilanadi. Banklar investitsiya maqsadlari uchun berilgan kreditlar bo‘yicha imtiyozli davr belgilashi mumkin. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan kreditlar qarz oluvchilarga mahsulot etishtirish (tamakichilik va alkogolli mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari) bilan bog‘liq bo‘lgan, amaldagi qonunchilik bilan taqiqlanmagan va quyidagilarni nazarda tutuvchi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish uchun beriladi:

- ishlab chiqarish binolarini qurish, texnika bilan jihozlash va rekonstruksiya qilish;

- mashinalar, asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, urug‘lik, mol va parrandalar sotib olish;

- xomashyo va materiallar, shu jumladan mollar uchun yem, omixta ozuqa, veterinariya preparatlari, o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o‘g‘itlar, yonilg‘i-moylash materiallari va ekin maydonlariga ishlov berish bo‘yicha mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlar sotib olish;

- jamg‘arma mablag‘lari hisobidan olingan kreditlarni yoki boshqa har qanday qarzlarni uzishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalanilmaydigan shaxsiy mol-mulk olishga berilishi mumkin emas. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo‘yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda belgilanadi;

- kreditlar mijozning talab qilib olinadigan depozit hisob raqami joylashgan joy bo‘yicha beriladi;

- zarar ko‘rib ishlayotgan, likvidsiz balansga ega bo‘lgan qarz oluvchilarga jamg‘arma mablag‘lari hisobidan kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirib olinadi. Ushbu qoida kredit shartnomasida albatta nazarda tutilishi

kerak.

[211]. Qarz oluvchilar kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni (kredit paketini) taqdim etadi:

- kredit buyurtmanomasi;
- qarz oluvchining bankdagi hisob raqamiga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi albatta ko'rsatilgan holdagi biznes-reja;
- davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tasdiqlagan, so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-shakl) hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2a-shakl), shuningdek, 90 kundan ortiq vaqtdagi qarzlarni bo'yicha solishtirish dalolatnomasi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl), dehqon xo'jaliklari bundan mustasno;
- imtiyozli kredit berish to'g'risidagi nizomning 17-bandida ko'rsatilgan kreditni qaytarishni ta'minlash shakllaridan bittasi.

To'lamaslik xavfini bartaraf etish uchun oluvchi ta'minotiga ega bo'lishi kerak, ta'minotga bo'lgan asosiy talab uning likvidligi hisoblanadi. Qarz oluvchi bankka ta'minlashning quyidagi turlaridan bittasini taqdim etishga haqlidir:

- mol-mulkni yoki qimmatli qog'ozni garov sifatida qo'yish;
- bank yoki sug'urta tashkiloti kafolatnomasi;
- uchinchi shaxslarning kafilligi;
- sug'urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytarmasligi xavfini sug'urta qilish to'g'risidagi sug'urta polisi.

Banklar o'zlari bilan doimiy aloqaga, bank hisob raqamida doimiy pul oqimiga, yaxshi nufuzga va yaxshi kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga, Nizomning 17-bandida ko'rsatib o'tilgan qaytarish ta'minotini taqdim etmasdan, blankli (ishonchli) kreditlar berishga haqlidir.

Mol-mulkni garovga qo'yish kreditning qaytarilishini ta'minlash shakllaridan biridir. «Garov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq har qanday mol-mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar), qimmatbaho boyliklar, zargarlik buyumlari, erkin almashtiriladigan valuta va shu kabilar garov predmeti bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan, garov predmeti bo'la olmaydigan buyumlar bundan mustasno.

Kredit hisobiga sotib olinadigan qiymatning 80 foizi miqdorida mol-mulk ham ushbu kredit bo'yicha garov predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kafolatnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 29-moddasiga muvofiq kafilning yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi.

Kafillik O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 29-moddasiga muvofiq qarzdor va kafil o‘rtasida bank-benefitsiar foydasiga yozma shakldagi kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Kredit paketini tahlil qilish chog‘ida bank kredit bitimining har xil jihatlarini, qarz oluvchining kredit tarixini, uning rahbarlik nufuzini (oldingi ish joylari, layoqatliligi, ilgari olingan kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlay olishi va shu kabilarni) baholaydi.

Aylanma mablag‘larni to‘ldirishga kredit olish uchun «Nizom»ning 16-bandida ko‘rsatib o‘tilgan zarur hujjatlar ilova qilingan holda buyurtmanoma bankka kelib tushgan kundan boshlab, ushbu kredit bo‘yicha bank xulosasini berishgacha bo‘lgan muddat tijorat banklari bo‘limlari tarkibida bo‘limlari bo‘lmagan tijorat banklari, shuningdek, xususiy banklar uchun – 10 ish kunidan, banklarning viloyat bo‘limlari uchun – 15 ish kunidan, bosh (respublika) banklari uchun – 20 ish kunidan oshmasligi kerak.

Investitsiya loyihasini mablag‘ bilan ta’minlash uchun kredit olishga kredit buyurtmanomalarini banklar tomonidan ko‘rib chiqish muddati tegishli ravishda, biroq ko‘pi bilan ikki baravar uzaytirilishi mumkin.

Kredit shartnomasi tuzilganidan keyin bank bo‘limi rahbari yoki u vaqtincha bo‘lmagan taqdirda uning o‘rinbosari o‘z vakolati doirasida muddati va foiz stavkasi ko‘rsatilgan holdagi ssuda hisob raqami ochish to‘g‘risida buxgalteriyaga buyruq beradi. Kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi bilan qarz oluvchiga kredit kartochkasi ochiladi, kredit shu kartochka bo‘yicha nazorat qilib boriladi.

Qurilish, texnika bilan jihozlash va rekonstruksiya qilishga berilgan kreditlar hisobiga moliyalash faqat barcha zarur loyiha-smeta hujjatlari va boshqa hujjatlar amaldagi qonunchilikka muvofiq bankka taqdim etilgandan keyingina ochiladi.

**[212].** Kreditlar alohida ssuda raqami ochish va qarz oluvchining tovar-moddiy boyliklar uchun to‘lov topshiriqnomasi ushbu hisob raqamidan naqd pulsiz to‘lash yo‘li bilan beriladi. Kredit xodimining farmoyishiga binoan alohida ssuda hisob raqamlari bo‘yicha berilgan kreditlar muddatli majburiyatlar bilan rasmiylashtiriladi, ular, kredit berish muddatlariga ko‘ra, kredit to‘liq qaytarilguncha ko‘zda

tutilmagan holatlar hisob raqamlarida hisobga olib boriladi. Kreditni qaytarish muddatlari jadval holida taqdim etilishi mumkin, u kreditning pul oqimlari tushishi istiqbollariga ko'ra bir necha bosqichda qaytarilishini nazarda tutadi.

Qaytarish muddati yetib kelganda va qarz oluvchida pul bo'lmaganda kredit muddati o'tgan ssudalar hisob raqami orqali undiriladi, uning bo'yicha muddatli majburiyatlari esa 2-kartotekaga joylashtiriladi va kalendar bo'yicha navbatli tartibda to'lanadi. Bunda foizlar kredit qarzidan oldin to'lanadi.

Mikrofimalarga, kichik va o'rta korxonalariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga berilgan kreditlar, kredit berish muddatiga ko'ra, tijorat bankining tegishli balans hisob raqamlarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan tijorat banklari hisob raqamlari rejasiga muvofiq hisobga olinadi. Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring olib boradi. Monitoring qarz oluvchining buyurtmanomasini va kredit shartnomasi shartlarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashishga yo'naltirilishi kerak.

Monitoring jarayonida mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga (buyurtmanomalarga) muvofiq mahsulot yetkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, foyda hajmlari, o'z aylanma mablag'lari mavjud bo'lishi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralarining ahvoli, aylanma mablag'larning muomalada bo'lishi tahlil qilinadi. Bank qarz oluvchining kredit ishidagi ko'rsatkichlarni turkumlagan holda, kreditga qodirlik bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshiradi.

Bankka berilgan garovning holati, kreditdan kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda samarali va maqsadli foydalanilishi o'rganiladi. Bank qurilishni mablag' bilan ta'minlashga berilgan kreditlar bo'yicha monitoring jarayonida kreditlangan obyektida kredit shartnomasida qayd etilgan muddat va shartlarda bajarilgan ishlar hajmini nazorat tartibida o'lchab chiqadi.

Berilgan kreditlardan maqsadli foydalanmaganlik holati aniqlangan taqdirda bank kreditning belgilangan maqsadda foydalanilmagan qismini kredit shartnomasida belgilangan tartibda qarz oluvchining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamidan muddatidan oldin undirish huquqiga ega. Qarz oluvchi asosiy qarzni va qarz bo'yicha foizlarni kredit

shartnomasida qayd etilgan muddatda to‘lamagan taqdirda bank, sudga murojaat qilmasdan, o‘z talablarini qo‘yilgan mol-mulk hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 280-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq qondirishga haqlidir.

Tavakkalchiliklarning yo‘l qo‘yiladigan darajalarini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari sarmoyasi adekvatligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi. Imtiyozli kredit berish maxsus jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan beriladigan kreditlar bo‘yicha mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarga zaxiralarni shakllantirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Aktivlar sifatini tasniflash, ular bo‘yicha mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash uchun tijorat banklari tomonidan yaratiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

### 5.7. Tayanch iboralar

<input type="checkbox"/> kredit siyosati	<input type="checkbox"/> kreditlash tamoyillari
<input type="checkbox"/> kredit portfeli	<input type="checkbox"/> kreditning samaradorligi
<input type="checkbox"/> kredit subyektlari	<input type="checkbox"/> «5-S» ( $S_1, S_2, S_3, S_4, S_5$ )
<input type="checkbox"/> kredit obyekt	<input type="checkbox"/> kredit liniyasi
<input type="checkbox"/> kredit funksiyalari	<input type="checkbox"/> kredit talabnomasi
<input type="checkbox"/> kredit turlari	<input type="checkbox"/> iste‘mol krediti
<input type="checkbox"/> revolver kredit	<input type="checkbox"/> «kredit skoringi»
<input type="checkbox"/> kredit shakllari	<input type="checkbox"/> mikrokredit
<input type="checkbox"/> kredit kartochkasi	<input type="checkbox"/> imtiyozli kredit
<input type="checkbox"/> xalqaro kredit	<input type="checkbox"/> akseptli kredit
<input type="checkbox"/> eksportni kreditlash	<input type="checkbox"/> akseptli rambusli kredit
<input type="checkbox"/> importni kreditlash	

### 5.8. Test topshiriqlari va masalalar

#### 1. Kredit subyekti:

- kreditor hisoblanadi;*
- qarzga berilgan pul hisoblanadi;*
- qarz oluvchi hisoblanadi;*
- a + c.*

#### 2. Quyidagi qayd qilingan pullarning qaysi bir turi bo‘sh pul hisoblanadi?

- tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo‘lidagi pul, ya’ni pul kapitali;*
- aholi qo‘lidagi pul;*
- davlat ixtiyoridagi pul;*



d) noto 'g'ri javob yo 'q.

**3. Qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli to'lovning dastlabki shartlari o'zgargan kreditlar:**

- a) o'stirilmaydigan kreditlar deyiladi;
- b) ta'minlanmagan kreditlar deyiladi;
- c) restrukturizatsiya qilingan kreditlar deyiladi;
- d) qisman ta'minlangan kreditlar deyiladi.

**4. Belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar:**

- a) ta'minlanmagan kreditlar deyiladi;
- b) o'stirilmaydigan kreditlar deyiladi;
- c) yaxshi ta'minlangan kreditlar deyiladi;
- d) restrukturizatsiya qilingan kreditlar deyiladi.

**5. Biron-bir ta'minotsiz berilgan kreditlar:**

- a) ta'minlanmagan kreditlar deyiladi;
- b) muddati o'tgan kreditlar deyiladi;
- c) uzoq muddatli kreditlar deyiladi;
- d) qisman ta'minlangan kreditlar deyiladi.

**6. Mijoz naqd pullari tushumi hajmini va kelajakda olinadigan kredit hajmini aniq bilmasa:**

- a) tijorat kreditidan foydalanadi;
- b) davlat kreditidan foydalanadi;
- c) iste'molchi kreditidan foydalanadi;
- d) revolver kreditidan foydalanadi.

**7. Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarga mablag'larni vaqtincha foydalanish uchun berish:**

- a) iste'molchi kreditini berish yo'li bilan amalga oshiriladi;
- b) tijorat kreditini berish yuli bilan amalga oshiriladi;
- c) sudxo'rlik kreditini berish yo'li bilan amalga oshiriladi;
- d) davlat kreditini berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**8. Kreditlar ichida eng daromadli va eng xatarlisi – bu:**

- a) xalqaro krediti;
- b) iste'mol krediti;
- c) sudxo'rlik krediti;
- d) tijorat kreditidir.

**9. Qisqa muddatli xalqaro kreditlarni:**

- a) *Xalqaro valuta fondi beradi;*
- b) *Jahon tiklanish va taraqqiyot banki beradi;*
- c) *Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki beradi;*
- d) *noto 'g 'ri javob yo 'q.*

**10. O'rta muddatli kreditlarni:**

- a) *Xalqaro valuta fondi beradi;*
- b) *Jahon rivojlanish va taraqqiyot banki beradi;*
- c) *Yevropa rivojlanish va taraqqiyot banki beradi;*
- d) *noto 'g 'ri javob yo 'q.*

**11. Uzoq muddatli (yigirma yilgacha) kreditlarni:**

- a) *Xalqaro valuta fondi beradi;*
- b) *Jahon tiklanish va taraqqiyot banki beradi;*
- c) *Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki beradi;*
- d) *noto 'g 'ri javob yo 'q.*

**12. Xalqaro valuta-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklaridan olinadigan kreditlardan:**

- a) *arzonga tushadi;*
- b) *juda ham arzonga tushadi;*
- c) *qimmatga tushadi;*
- d) *juda ham qimmatga tushadi.*

**13. Quyida qayd qilingan tamoyillarning qaysi biri kreditlash tamoyillari hisoblanadi?**

- a) *kreditning qaytarishliligi;*
- b) *kreditning muddatliligi;*
- c) *kreditning ta'minlanganligi;*
- d) *noto 'g 'ri javob yo 'q.*

**14. Quyida qayd qilingan tamoyillarning qaysi biri kreditlash tamoyili hisoblanadi?**

- a) *kreditning maqsadliligi;*
- b) *kreditning to'lovliligi;*
- c) *kreditning samaradorligi;*
- d) *noto 'g 'ri javob yo 'q.*

**15. Pul massasi (qiymat) va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) o'rtasida bo'lishi zarur bo'lgan mutanosiblik (proporsiyalar)ning bir me'yorda bo'lishi:**

- a) kreditning qaytarishlilik tamoyili vositasida ta'minlanadi;
- b) kreditning ta'minlanganligi tamoyili vositasida ta'minlanadi;
- c) kreditning muddatliligi tamoyili vositasida ta'minlanadi;
- d) kreditning to'lovliligi tamoyili vositasida ta'minlanadi.

**16. Kreditning samaradorligi quyidagicha aniqlanadi:**

- a)  $KS = ICh_h : K_h$ ; Bu yerda:
- b)  $KS = K_h : ICh_h$ ;  $K_h$  – berilgan kreditning o'rtacha hajmi;
- c)  $KS = R_h : K_h$ ;  $ICh_H$  – ishlab chiqarish hajmi;
- d)  $KS = K_h : R_h$ .  $R_h$  – realizatsiya hajmi.

**17. G'arb mamlakatlari amaliyotida kreditlashning yangi qoidasi, ya'ni «5-C» qoidasida C1:**

- a) qarz oluvchining bozordagi obro'si, uning holatini aniqlashni ifodalaydi;
- b) garov (kafolat polisi, tovar, moddiy boyliklar)ni ifodalaydi;
- c) mazkur biznesning rivojlanish yuzasidan shartlarini ifodalaydi;
- d) qarz oluvchi sarmoyasining yetarliligini ifodalaydi.

**18. Tashkilotga kredit berish alohida hisob varaqda:**

- a) «kredit liniyasini ochib» amalga oshirilishi mumkin;
- b) «kredit liniyasini ochmasdan» amalga oshirilishi mumkin;
- c)  $a+b$ ;
- d) to'g'ri javob yo'q.

**19. Kredit talabnomasining quyidagi qaysi bir ko'rsatkichlari sifat indikatorini bo'lib xizmat qiladi?**

- a) mijozning faoliyat sohasi, mashg'ulot turi;
- b) yoshi, oilaviy ahvoli;
- c) kredit bo'yicha reyting bahosi;
- d)  $a + b + c$ .

**20. Mikrokredit deganda kredit berilayotgan kundagi birjadan tashqari valuta bozori kursi hisobiga:**

- a) 4000 (to'rt ming) AQSh dollariga;
- b) 5000 (besh ming) AQSh dollariga;
- c) 7000 (yetti ming) AQSh dollariga;
- d) 3000 (uch ming) AQSh dollariga ekvivalent miqdoridan oshmaydigan hajmda milliy yoki chet el valutasida beriladigan kreditlar tushuniladi.

**21. Tijorat banklari mikro kreditlarni qarz oluvchilarga shartnoma asosida:**

- a) 3 yilgacha bo'lgan muddatga beradilar;*
- b) 2 yilgacha bo'lgan muddatga beradilar;*
- c) 1 yilgacha bo'lgan muddatga beradilar;*
- d) yarim yilgacha bo'lgan muddatga beradilar.*

**22. Xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqa ishlab chiqarish zaxiralarini xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga kreditlar kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga, qoidaga ko'ra:**

- a) 5 yil muddatgacha beriladi;*
- b) 2 yil muddatgacha beriladi;*
- c) 1 yil muddatgacha beriladi;*
- d) 3 yil muddatgacha beriladi.*

**23. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga imtiyozli kreditlar fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jaliklarga, qoidaga ko'ra:**

- a) kamida 1 yil muddatga beriladi;*
- b) kamida 2 yil muddatga beriladi;*
- c) kamida 3 yil muddatga beriladi;*
- d) kamida 5 yil muddatga beriladi.*

**24. Investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash uchun imtiyozli kreditlar kichik va o'rta tadbirkorlikning barcha subyektlariga, shu jumladan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklariga to'lov muddatini kechiktirish huquqisiz:**

- a) 1 yilgacha muddatga berilishi mumkin;*
- b) 2 yilgacha muddatga berilishi mumkin;*
- c) 3 yilgacha muddatga berilishi mumkin;*
- d) 5 yilgacha muddatga berilishi mumkin.*

**25. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozli kreditlarning qaytarishning eng uzoq muddati, qaytarish muddatini uzaytirishni hisobga olgan holda:**

- a) 12 oydan oshishi mumkin emas;*

- b) 9 oydan oshishi mumkin emas;*
- c) 6 oydan oshishi mumkin emas;*
- d) 3 oydan oshishi mumkin emas.*

**26. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun dehqon va fermer xo‘jaliklariga berilgan imtiyozli kreditlarni qaytarishning eng uzoq muddati:**

- a) 12 oydan oshishi mumkin emas;*
- b) 24 oydan oshishi mumkin emas;*
- c) 30 oydan oshishi mumkin emas;*
- d) 36 oydan oshishi mumkin emas.*

**27. Fermer va dehqon xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan aylanma mablag‘lari uchun berilgan boshqa imtiyozli kreditlar bo‘yicha ulardan foydalanish muddatlari:**

- a) 6 oy etib belgilanadi;*
- b) 12 oy etib belgilanadi;*
- c) 24 oy etib belgilanadi;*
- d) 30 oy etib belgilanadi.*

### **5.9. Nazorat uchun savollar**

1. Kredit siyosatining mohiyati nimada? Uning maqsadi va strategiyasi xususida nimalar deya olasiz?

2. Kreditlarning to‘planishi va ularni to‘lash muddati borasida bank qanday siyosat yuritadi?

3. Kredit siyosatida garov ta‘minotiga va kredit monitoringiga nisbatan qanday talablar qo‘yiladi?

4. Kredit portfeli nima va uni audit qilishda qanday siyosat yurgiziladi?

5. Kredit nima? Uning obykti va subyekti deganda nimani tushunasiz?

6. Kredit qanday funksiyalarni bajaradi?

7. Kredit qanday turlarga bo‘linadi?

8. Tovar moddiy zaxiralarini va aylanma kapitalini to‘ldirish maqsadida olinadigan kreditlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?

9. Qurilish maqsadida olinadigan «oraliq kredit» hamda qimmatli qog‘ozlar dilerlariga va chakana savdo bilan shug‘ullanuvchilarga beriladigan kreditlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

10. Revolver kredit deganda nimani tushunasiz?
11. Uzoq muddatli loyiha uchun beriladigan kreditning o'ziga xos xususiyati nimada?
12. Kreditning qanday shakllarini bilasiz?
13. Ayrim shaxslar va oilalarga qanday turdagi iste'mol kreditlari berilishi mumkin?
14. Uy-joy va boshqa maqsadlar uchun beriladigan kreditlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?
15. Kredit kartochkasiga asoslanib beriladigan kreditlarning o'ziga xos xususiyati nimada?
16. Bank kreditini uning maqsadiga ko'ra necha turkumga bo'lish mumkin?
17. Bank kreditining tarkibi va uning o'sishi qanday omillarga bog'liq?
18. Xalqaro kredit qanday kredit? U qanday funksiyalarni bajaradi?
19. Xalqaro kredit qanday tavsiflanadi?
20. Eksport va importni kreditlash deganda nimani tushunasiz?
21. Kreditning qanday tamoyillarini bilasiz?
22. Kreditlashda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
23. Kredit qanday tartibda rasmiylashtiriladi?
24. Kredit qanday tartibda beriladi?
25. Kredit berishga doir yig'majildda qanday hujjatlarning bo'lishi talab qilinadi?
26. Kreditlash jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
27. Kredit mutaxassisi kredit talabnomasini baholashda nimalarga e'tibor berishi lozim?
28. Iste'mol kreditini berishda qanday ko'rsatkichlar sifat indikatori bo'lib xizmat qiladi?
29. Kredit skoringi tizimi deganda nimani tushunasiz?
30. Ipotek kredit uchun berilgan talabnomalarni baholashda kredit mutaxassisi nimalarga e'tibor berishi kerak?
31. Mikrokreditlash deganda nimani tushunasiz va u qanday maqsadlarda beriladi?
32. Mikrokreditlash qay tartibda rasmiylashtiriladi?
33. Olingan kredit qay tartibda qaytariladi?
34. Chet el valutasida mikrokreditlar qay tartibda beriladi?
35. Imtiyozli kredit berish jamg'armasi to'g'risida nimalar deya olasiz?
36. Imtiyozli kreditlarni berish qay tartibda rasmiylashtiriladi?

37. Kreditlarni berish va qaytarishni hisobga olish tartibi to‘g‘risida nimalar deya olasiz?

## **6-bob. BANK MIJOZLARINING KREDIT OLIISH LAYOQATLILIGINI BELGILOVCHI OMILLAR**

### **6.1. Mijozning kredit olishga layoqatliligini belgilovchi mezonlar**

[214]. Mijozning **kreditga layoqatliligi** deganda qarz oluvchining olgan qarzini (asosiy qarzi va uning foizini) to'la va o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini tushunamiz. Jahon va mamlakatimiz bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi quyidagi mezonlar o'rnatilgan:

- mijoz xarakteri (fe'l-atvori);
- mablag'ni qarz olish qobiliyati;
- joriy faoliyat davomida qarzni uzish uchun mablag' ishlab topish qobiliyati;
- mijoz kapitali;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kredit operatsiyasini bajarish chog'idagi sharoitlar;
- qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

**Mijozning fe'l-atvori** deganda uning yuridik shaxs, yoxud menejer sifatida o'zini ko'rsata olish, qarzni o'z vaqtida qoplashdagi mas'uliyati, kreditni olishdan maqsad va uning bank kredit siyosatiga mosligini aniq bilishi kabilar tushuniladi. Yuridik shaxs sifatida o'zini ko'rsata olishi esa mijozning yuritayotgan faoliyatini mukammal bilishi, o'z korxonasidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning mazkur tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichlariga mos kelishi, ishbilarmonlar (ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar, kreditorlar) doirasidagi bilimdonligi kabilar bilan belgilanadi.

Menejer sifatida o'zini ko'rsata olishi mijozning quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- o'z kasbini mukammal bilishi (ma'lumoti, ish tajribasi);
- axloqi;
- shaxsiy va oilaviy moliyaviy holati;
- bank bilan rahbarlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi o'rni.

**Mijozning qarz olish qobiliyati** uning kredit olish bo'yicha buyurtmaga va kredit shartnomasiga imzo qo'yish huquqiga yoki vakolatiga ega ekanligi, o'zaro kelishuv va bitimlarni tuzish yoshiga yetganligida namoyon bo'ladi.



**Mijoz kapitalini** baholashda quyidagi ikkita mezonga e'tibor beriladi:

□ ustav fondining minimal darajasiga (aksionerlik kapitaliga) nisbatan qo'yiladigan talabga mijoz kapitalining javob bera olishi, uning yetarliligi va moliyaviy leveraj koeffitsiyentlari darajalari;

□ kreditlanayotgan operatsiyaga o'z kapitalini qo'yish darajasi. Bu ko'rsatkich bank bilan qarz oluvchi o'rtasida riskning taqsimoti to'g'risida dalolat beradi.

O'z kapital qanchalik ko'p qo'yilsa, shunchalik qarz oluvchini kredit riski omillarini sinchkovlik bilan kuzatishga majbur etadi.

**Kreditning ta'minlanganligi** deganda qarz oluvchi aktivining qiymati va qarzni uzish bo'yicha aniq ikkilamchi manbalar (garov, kafolat, sug'urta kabilar)ning kredit shartnomasida o'z aksini topganini tushunamiz. Agar aktiv qiymati va qarz majburiyatlarining nisbati qarz oluvchi bankrot bo'lganligi to'g'risida xabar qilgan holda bank ssudasini uzish uchun ahamiyatli bo'lsa, aniq ikkilamchi manbalarning sifati esa moliyaviy tanglik holatida mijozning o'z majburiyatlarini bajarish kafolatini ta'minlaydi. Garov sifati, kafolatning puxtaligi, sug'urta ham bank mijozlari va pul oqimi kamayib ketganda, bank balansida likvidlik muammosi tug'ilganda yoki kapitalning taqchilligi sezilgan hollarda o'ta muhimdir.

**Kredit operatsiyasini bajarish chog'idagi sharoitlarga** mamlakatdagi va uning mintaqalaridagi, shuningdek, tarmoqdagi iqtisodiy holat va siyosiy omillar kiradi. Bu sharoitlar bankning tashqi riski darajasini belgilaydi. Aynan shularga asoslanib pul oqimi, balansning likvidligi, kapitalning yetarlilik darajasi, qarz oluvchining menejerlik mahorati kabilarga baho beriladi.

Nihoyat, mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi so'nggi mezon, ya'ni **qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi** bankirni quyidagi savollarga javob olishga undaydi:

□ qarz oluvchining kredit olishi va kredit tadbirlarini amalga oshirishi uchun huquqiy va me'yoriy asoslari mavjudmi?

□ qonunchilikda kutiladigan ehtimoliy o'zgarishlar (masalan, soliqda) qarz oluvchining faoliyati natijalariga qanchalik ta'sir o'tkazadi?

□ qarz oluvchining ssuda, kredit olishi bo'yicha tuzgan biznes-rejasida, shartnomada ko'rsatgan talabnomasi qanchalik darajada kredit siyosatiga mos keladi?

Qayd etilgan mezonlar mijozning kreditga layoqatliligi va uning mohiyatini baholash usullarini aniqlashga yordam beradi. Bunday usullar qatoriga quyidagilar kiradi:

- riskni baholash;
- menejmentni baholash;
- moliyaviy koeffitsiyentlar asosida mijozning moliyaviy barqarorlik darajasini baholash;
- pul oqimini tahlil qilish;
- mijoz to'g'risida ma'lumotlar yig'ish;
- mijozning ish faoliyatini kuzatish va h.k.

Garchi baholash usullari va mezonlar yagona tarzda qo'llanilsa-da, yuridik va jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda ularning kichik, o'rta va yirik ekanliklariga alohida e'tibor beriladi. Shunga binoan u yoki bu usullarni kompleks holda qo'llash zaruriyati tug'iladi.

[215]. Jahon va mamlakatimiz bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini baholashda bir qator moliyaviy koeffitsiyentlar qo'llaniladi. U yoki bu koeffitsiyentni qo'llash mazkur bank mijozlarining fe'l-atvori, moliyaviy tanglikka duch kelishidagi ehtimollik darajasi, bankning kredit siyosati kabilarga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan barcha moliyaviy koeffitsiyentlarni quyidagi besh guruhga bo'lish mumkin:

- I. Likvidlik koeffitsiyentlari;
- II. Samaradorlik yoki aylanuvchanlik koeffitsiyentlari;
- III. Moliyaviy leveraj koeffitsiyentlari;
- IV. Rentabellik(foydalilik) koeffitsiyentlari;
- V. Qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsiyentlari.

Bu koeffitsiyentlar o'z navbatida bir qator xususiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi (43-jadval).

43-jadval

**Mijozning kreditga layoqatliligini tavsiflovchi  
moliyaviy ko'rsatkichlar**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Hisoblash tartibi</b>	<b>Izoh</b>
1	2	3	4
<b>I</b>	<b>Likvidlik koeffitsiyentlari (2,0-1,25)*</b>		

1	2	3	4
	<input type="checkbox"/> Joriy likvidlik koeffitsiyenti ( $K_{JL}$ )  Tezkor likvidlik koeffitsiyenti ( $K_{TL}$ )	$K_{JL} = \frac{JA}{PA}$  $K_{TL} = \frac{LA}{PA}$	<p><math>JA</math> – joriy aktivlar;  <math>PA</math> – passiv aktivlar, ya’ni qisqa muddatli qarz majburiyatlari.</p> <p>Bu ko‘rsatkich qarz oluvchining o‘z qarzini uzish qobiliyatiga egami yoki yo‘qligini ifodalaydi. Agar bankning qarz majburiyatlari mijoz mablag‘idan ortiq bo‘lsa, u holda bank kredit berishga layoqatli bo‘lolmaydi. Me’yoriy koeffitsiyent darajasi 1 dan kichik bo‘lmasligi kerak.</p> <p><math>LA</math> – likvid aktivlar.</p> <p>Likvid aktivlarga pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va tez sotish mumkin bo‘lgan buyumlarning bir qismi kiradi.</p>
* Ko‘rsatkichlarning me’yoriy darajasi.			
<b>II</b>	<p style="text-align: center;"><b>Samaradorlik (aylanuvchanlik) koeffitsiyentlari (0,25-0,6)*</b></p> <input type="checkbox"/> Moddiy buyumlarning aylanuvchanligi ( $K_{FA}$ )  a) $K_{FA_1}$  b) $K_{FA_2}$  <input type="checkbox"/> Debitorlik qarzdorligining aylanuvchanligi - $K_{DA}$ (kunda)	$K_{FA_1} = \frac{\bar{F}}{T}$  $K_{FA_2} = \frac{T}{\bar{F}}$  $K_{DA} = \frac{\bar{K}}{T}$	<p><math>\bar{F}</math> – moddiy buyumlarning o‘rtacha qoldig‘i (mazkur davrda);  <math>T</math> – bir kunlik sotuvdan tushgan tushum.</p> <p>Bu ko‘rsatkich buyumlar aylanuvchanligining davomlilikini kunda ifodalaydi</p> <p>Bu ko‘rsatkich mazkur davr ichida aylanma mablag‘lari necha marta aylanmada (aylanishda) bo‘lganligini ifodalaydi</p> <p><math>\bar{K}</math> – mazkur davr ichida qarzdorlikning o‘rtacha qoldig‘i.</p>

1	2	3	4
<b>III</b>	<input type="checkbox"/> Asosiy kapitalning aylanuvchanligi - $K_{AKA}$ <input type="checkbox"/> Aktivlarning aylanuvchanligi ( $K_{AA}$ )	$K_{AKA} = \frac{T}{A\Phi}$ $K_{AA} = \frac{T}{A}$	$T$ – sof sotuv va sotuvdan tushgan tushum; $\overline{A\Phi}$ – mazkur davrda asosiy fondlarning o‘rtacha qoldiq qiymati. $\overline{A}$ – mazkur davrda aktivlarning o‘rtacha qiymati.
	<p style="text-align: center;"><b>Moliyaviy leveraj ko‘effitsiyenti (<math>K_{ML}</math>)</b></p> <input type="checkbox"/> Barcha qarz majbu-riyatlar va aktivlar nisbati ( $K_{ML_1}$ ) <input type="checkbox"/> Barcha qarz majbu-riyatlari va o‘z kapitali nisbati $K_{ML_2}$ (0,25-0,6)* <input type="checkbox"/> Barcha qarz majbu-riyatlari va aksioner-lik kapitali nisbati (0,66-2,0)* ( $K_{ML_3}$ ) <input type="checkbox"/> Uzoq muddatli qarz-lar va asosiy aktivlar nisbati ( $K_{ML_5}$ ) (0,5-1,5) <input type="checkbox"/> O‘z kapitali va aktivlar nisbati ( $K_{ML_6}$ )	<p>Bu ko‘effitsiyent qarz oluvchining o‘z kapitali bilan qay darajada ta‘minlanganligini xarakterlaydi. Likvidlik ko‘effitsiyentidan farqli o‘laroq leveraj ko‘effitsiyentini hisoblashda muddatlaridan qat‘iy nazar bank mijozlarining barcha qarz majburiyatlari inobatga olinadi. Chetdan jalb qilingan (qisqa va uzoq muddatli) mablag‘larning salmog‘i qanchalik yuqori bo‘lib, o‘z kapitalining salmog‘i past bo‘lsa, shunchalik mijozning kreditga layoqatliligi past darajada bo‘ladi.</p> $K_{ML_1} = \frac{QM}{A}$ $K_{ML_2} = \frac{QM}{O'K}$ $K_{ML_3} = \frac{QM}{AK}$ $K_{ML_5} = \frac{UMQ}{AA}$ $K_{ML_6} = \frac{O'K}{A}$	<p><math>QM</math> – barcha qarz (qisqa va uzoq muddatli) majburiyatlar;  <math>A</math> – aktivlar</p> <p><math>O'K</math> – o‘z kapitali.</p> <p><math>AK</math> – aksionerlik kapitali.</p> <p><math>UMQ</math> – uzoq muddatli qarzlar;  <math>AA</math> – asosiy aktivlar.</p> <p><math>O'K</math> – o‘z kapitali;  <math>A</math> – aktivlar.</p>
<b>IV</b>	<p style="text-align: center;"><b>Foydalilik (rentabellik) ko‘effitsiyentlari</b></p> <input type="checkbox"/> Foyda normasini tavsiflovchi	<p>Bu ko‘rsatkich barcha kapital va uning jalb qilingan qismining foydalanish samaradorligini ifodalaydi va u bir necha subko‘rsatkichlar ko‘rinishda bo‘ladi.</p>	

1	2	3	4
	koefitsiyentlar: a) $K_{FN_1}$ b) $K_{FN_2}$ c) $K_{FN_3}$  <input type="checkbox"/> Rentabellik koefitsiyentlari: a) $K_{P_1}$ b) $K_{P_2}$ c) $K_{P_3}$	$K_{FN_1} = \frac{YaF}{T}$ $K_{FN_2} = \frac{SOF}{T}$ $K_{FN_3} = \frac{SF}{T}$ $K_{P_1} = \frac{F}{A}$ $K_{P_2} = \frac{F^l}{A}$ $K_{P_3} = \frac{SF}{A}$	<p><math>YaF</math> – soliq va foizlar to‘lovlarigacha bo‘lgan yalpi foyda.</p> <p><math>SOF</math> – sof operatsion foyda (foiz to‘lovidan keyingi foyda, ammo soliq to‘lovigacha).</p> <p><math>SF</math> – barcha soliq va foizlar to‘lovidan keyingi sof foyda.</p> <p><math>F</math> – soliq va to‘lovlar to‘lovigacha bo‘lgan foyda;  <math>A</math> – aktiv.</p> <p><math>F^l</math> – foizlar to‘lovidan keyingi foyda, ammo soliq to‘lovigacha</p>
	<p>Uch turdagi rentabellik koefitsiyentlarini birgalikda qo‘llash natijasida rentabellik darajasiga ta’sir qiluvchi foiz va soliq stavkalarining ta’sir doirasi aniqlanadi.</p>		
	<input type="checkbox"/> Aksiyaga bo‘lgan foyda me’yori koefitsiyenti ( $K_{AFM}$ ) a) $K_{AD}$ b) $K_{DD}$	$K_{AD} = \frac{D}{\bar{A}}$ $K_{DD} = \frac{YD \cdot 100}{AB}$	<p><math>K_{AD}</math> – aksiyadan daromad koefitsiyenti;  <math>D</math> – oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend;  <math>\bar{A}</math> – oddiy aksiyalarning o‘rtacha soni.  <math>K_{DD}</math> – dividenddan daromad;  <math>YD</math> – bitta aksiyaga to‘g‘ri kelgan yillik dividend;  <math>AB</math> – bitta aksiyaning o‘rtacha</p>

1	2	3	4
V			bozor bahosi.
	Agar sotuvdan tushgan tushumda foyda salmog'i yoki kapital foydaligi ortib borsa, u holda moliyaviy leveraj koeffitsiyenti pasaygan taqdirda ham mijoz reytingini tushirmaslik ilojini qilish mumkin.		
	<b>Qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsiyentlar</b>	Bu ko'rsatkichlar bozor koeffitsiyentlari deb atalib, foydaning qanday qismi foizlar va to'lovlar hisobiga qoplanganlik darajasini ifodalaydi.	
	<input type="checkbox"/> Foizning qoplan-ganlik koeffitsiyenti ( $K_{FQ}$ )	$K_{FQ} = \frac{F}{FT}$	F – mazkur davrdagi foyda; FT – mazkur davr uchun foiz to'lovlari.
<input type="checkbox"/> Foiz to'lovlarining qoplanganlik koeffitsiyenti ( $K_{FTQ}$ )	$K_{FTQ} = \frac{F}{S}$	S = foizlar + lizing to'lovlari + imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar + boshqa to'lovlar.	

Qayd qilingan barcha moliyaviy koeffitsiyentlar mazkur yoki istiqbol rejalari ma'lumotlariga asoslanib hisoblanishi mumkin. Barqaror iqtisodiyot yoki mijozning holatidagi barqarorlikning davomiyliligiga qarab qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash oldingi yilgi ma'lumotlar asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Xorijiy davlatlar amaliyotida odatda so'nggi uch yil ma'lumotlari asosida kreditga layoqatlilik darajasi aniqlanadi. Bunda koeffitsiyentlar o'rtacha bir yil uchun hisoblanadi. Ularni hisoblashda aylanma mablag'lari qoldig'i, debitorlik va kreditorlik qarzlari, kassadagi va hisob raqamlaridagi mablag'lar, aksionerlik kapitali miqdori (ustav fondi), o'z kapitali va h.k. lar asos qilib olinadi.

[216]. Kreditga layoqatlilikni baholash korxonaning mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar va banklar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishlari uchun juda katta ahamiyatga ega. Zero, ijobiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar hech qanday to'siqlarsiz kredit olishlari va uning hisobidan tovar-moddiy boyliklarni sotib olishi, salmoqli mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga, oldindan olingan kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lashga yo'naltirishlari mumkin.

Salbiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar bankdan kredit olmasa-da, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarish, sotuv hajmini, o'z mablag'lari miqdorini, rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha choralar ishlab chiqish lozimligi to'g'risida axborotga ega bo'ladi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda ma'lumotlarning har xil

manbalaridan foydalaniladi:

- bevosita mijozlardan olingan materiallar;
- mijoz haqida bank arxivida mavjud bo'lgan materiallar;
- mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar (uning mol yetkazib beruvchilari, kreditorlari, uning mijozlari, banklar va boshqalar) tomonidan berilgan ma'lumotlar;
- shaxsiy va davlat agentliklari va tashkilotlarining hisobotlari va materiallari (kreditga layoqatlilik haqidagi hisobotlari, investitsiya bo'yicha ma'lumotlar va boshqalar). Ammo bunday tashkilotlar hozirgacha bizning amaliyotimizda yo'q (Markaziy bank qoshidagi KAMP dan tashqari).

Bank tomonidan o'rganib chiqilgan materiallarni olgan kredit bo'limining ekspertlari o'z bank arxiviga murojaat qiladi. Agar mijoz oldin ham kredit olgan bo'lsa, arxivda uning kechiktirib to'langanligi va boshqa kamchiliklari haqidagi ma'lumotlar bo'ladi. Undan tashqari, bank boshqa kredit tashkilotlari bilan aloqa o'rnatib, ushbu qarzdor to'g'risida ma'lumot olishi mumkin.

Kreditga layoqatlilikni baholashda quyidagi sifat jihatlarga ham e'tibor beriladi:

- qarz oluvchining reputatsiyasini o'rganib chiqish;
- kredit maqsadini aniqlash;
- asosiy qarz va foizlarning qaysi manbalar hisobidan qoplanishini aniqlash;
- bank qisman o'z bo'yniga oladigan qarz oluvchining risklarini baholash.

Qarz oluvchining reputatsiyasi (obro', shuhrat, dong'i) sinchkovlik bilan tekshiriladi, bunda mijozning kredit tarixini o'rganib chiqish juda muhimdir. Korxonalar rahbarining shaxsiy va ish bilan bog'liq bo'lgan xislatlariga katta e'tibor beriladi.

[217]. AQShda potensial qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun, o'z navbatida, kredit riskini minimallashtirish uchun, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, (277-betga qarang) 5 «C» nomli usul foydalaniladi. Bu usul quyidagi jihatlarga asoslanadi:

- mijozning reputatsiyasi (obro'si, shuhrati va dong'i) – **customer character**;
- to'lov qobiliyati – **capacity to pay**;
- kapital – **capital**;
- ssudaning ta'minlanganligi – **collateral**;

□ iqtisodiy konyunktura va uning istiqbollari – current **business conditions and goodwill**.

Bu usulga binoan mijozning obro'si, mas'uliyat darajasi, qarzni to'lashga bo'lgan istagi va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval bank mijozning: o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi, qarzlarni to'lashda kamchiliklar bo'lganligi, kreditlanuvchi subyektning iqtisodda, bozorda qanday mavqega ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, arxivdan mijoz to'g'risida materiallarni olib tahlil qiladi, boshqa firma va banklar bilan maslahatlashadi va h.k.

Bank mijozning kreditga layoqatliligini baholashda ular mablag'larining uch manbasini chuqur o'rganib chiqadi. Bular:

- joriy kassa tushumlari;
- aktivlarni sotish;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari (aytaylik, pul bozorida qarzlar).

Bulardan tashqari, bank asosiy e'tiborini boshqa omillarga ham, xususan, firmalarning aksionerlik kapitaliga, uning tuzilishiga, aktiv va passivlarning boshqa moddalariga bo'lgan nisbatiga hamda qarzning ta'minlanishiga, uning yetarlilik darajasiga, sifatiga va qarzni to'lamaslik holda garovni sotish darajasiga qaratadi.

Buyuk Britaniyada ham «Pats» nomli qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish usuli keng tarqalgan bo'lib, unda:

- kreditning maqsadi – **purpose**;
- ssudaning hajmi – **amount**;
- qarzni to'lash – **repayment**;
- muddati – **term**;
- ssudaning ta'minlanganligi – **security** kabilar tahlil qilinadi.

Baholash so'ngida umumiy shart-sharoitlarga, xususan, davlatdagi ishbiarmonlik sohasidagi iqlim, bank bilan qarzdorlar holatiga ta'sir etuvchi omillar, mamlakatdagi iqtisodiy holat, monand tovarlar bo'yicha ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatning mavjudligi, soliqlar, xomash-yoga bo'lgan narx-navolar va boshqa jihatlariga ham e'tibor beriladi.

[218]. Qarz oluvchining likvidligi deganda uning pul majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyati tushuniladi. Likvid mablag'lar o'zining pulga tez aylanishi darajasiga qarab uch guruhga bo'linadi (44-jadval).

Balans qatorlariga asoslanib, quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash



mumkin:

$$\text{Pul mablag'lari} = 170+180+190$$

$$\text{Tez sotiladigan talablar} = 200+220+230+240+250+260+270+280+290$$

$$\text{Qisqa muddatli majburiyatlar} = 420+430+440+450+460+470+480+490+500+510+530+(400+410 \text{ o'zgartirishlar bilan})$$

Agar mijozning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlaridan 2 baravar va undan ortiq bo'lsa, mijoz moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi (44-jadvalga qarang).

#### 44-jadval.

### Likvid mablag'larning turlari

№	Likvid mablag'larning turlari	Balans qatori
I	Birinchi guruh likvid mablag'lari: <input type="checkbox"/> <b>Pul mablag'lari</b> shu jumladan a) hisob-kitob va valuta schyotidagi pul mablag'lari b) boshqa schyotlardagi va kassadagi pul mablag'lari	170 180 190
II	Ikkinchi guruh likvid mablag'lari, ya'ni pulga tez aylanadigan talablar: a) muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar b) budjet bilan hisob-kitoblar v) ishonchli debitorlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar g) korxonalar bilan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan boshqa operatsiyalar bo'yicha xizmatchilar bilan hisoblashishlar d) ta'sischi hamda boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar	230 240 200-220 250-270 280-290
III	Uchinchi guruh likvid mablag'lari, ya'ni tez sotiladigan tovar-moddiy qimmatliklarining zaxiralari bo'yicha talablar: a) ishlab chiqarish zaxiralari va kelgusi davr xarajatlari b) tayyor mahsulot v) tovarlar g) boshqa zaxiralar Qisqa muddatli majburiyatlarni aniqlashda: a) o'zgartirishlar kiritmasdan olinadigan ko'rsatkichlar: <input type="checkbox"/> qisqa muddatli qarzlar <input type="checkbox"/> qisqa muddatli kreditlar <input type="checkbox"/> buyurtmachilardan tushgan avanslar Kreditorlar: <input type="checkbox"/> mol yetkazib beruvchilar oldidagi qarzlar <input type="checkbox"/> budjetga qarzlar	120 140 150 420 430 440 450 460

<input type="checkbox"/> ish haqi bo'yicha qarzar	470
<input type="checkbox"/> ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzar	480
<input type="checkbox"/> mulkiy va shaxsiy sug'urtalash bo'yicha qarzar	490
<input type="checkbox"/> budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzar	500
<input type="checkbox"/> sho'ba korxonalar bo'yicha qarzarlar	510
<input type="checkbox"/> uyushma korxonalar bo'yicha qarzarlar	520
<input type="checkbox"/> boshqa kreditorlar	530
b) o'zgartirishlar kiritib olinadigan (yaqin uch oy muddatga) ko'rsatkichlar:	
<input type="checkbox"/> uzoq muddatli qarzarlar	400
<input type="checkbox"/> uzoq muddatli kreditlar	410

Mijoz balans va boshqa moliyaviy hujjatlarga asosan kreditga layoqatlilikning quyidagi ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin:

$$K_{ql} = \frac{1 \text{ va } 2 \text{ guruh likvid mablag'lar}}{\text{Qisqa muddatli qarzar majburiyatlari}}$$

Likvidlik koeffitsiyenti qarzar oluvchi o'z mablag'lari hisobidan qarzning qancha qismini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi, ya'ni bu koeffitsiyentdan mijozning yaqin kelajakda tezkor ravishda bank qarzini to'lab borish qobiliyatini prognoz qilish uchun foydalaniladi. Likvidlik koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, kreditga layoqatlilik shuncha yuqori bo'ladi.

Qoplash koeffitsiyenti ( $K_{qp}$ ) barcha likvid mablag'larining yig'indisini qisqa muddatli qarzar majburiyatlariga bo'lish yordamida hisoblanadi:

$$K_{qp} = \frac{1, 2 \text{ va } 3 \text{ guruh likvid mablag'lar}}{\text{Qisqa muddatli qarzar majburiyatlari}}$$

Qoplash koeffitsiyenti mijozning qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash uchun barcha turdagi aylanma mablag'larning yetarli darajasini aniqlashga imkon beradi.

**[219].** Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti ( $K_{AMA}$ ) joriy aktivlarning aylanish tezligini aniqlash maqsadida hisoblanadi. U muayyan davr ichida aylanma mablag'larning necha marta aylanganligini ifodalaydi:

$$K_{AMA} = \frac{PKM}{AMK}$$

Bu yerda:

$RQM$  – realizatsiya qilingan mahsulot qiymati;  
 $\overline{AMK}$  – aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i.

Bu koeffitsiyentni hisoblash aylanma mablag‘larning aylanishini prognoz qilish va kreditlash muddatini aniqlash imkonini beradi. Bu ko‘rsatkichning teskari qiymati korxonada aylanma mablag‘larining bir marta aylanishiga necha kun ketganligini ifodalaydi ( $K_{mk}$ ):

$$K_{MK} = \frac{AMK \cdot 360}{PKM}$$

Aylanma mablag‘larning aylanishiga kunlar soni qanchalik kam bo‘lsa, shunchalik korxonaning foyda olishi, binobarin, kreditni bankka to‘lashi tez amalga oshadi.

**[220].** Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti ( $K_{mb}$ ) mijozning o‘z mablag‘lari bilan moliyalashtirish manbalari tarkibida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu ko‘rsatkich korxonada faoliyatining qaysi bir qismi o‘z kapital hisobidan moliyalashtirilgan degan savolga javob beradi va quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{mb} = \frac{QK}{BS} \cdot 100$$

Bu yerda:

QK – korxonaning o‘z kapitali;

BS – balans summasi.

O‘z mablag‘lari manbalari va uning miqdori qanchalik katta bo‘lsa, mijozning qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘lash qobiliyati shuncha yuqori bo‘ladi. Korxonani kreditlash uchun uning o‘z mablag‘lari manbalari bilan ta‘minlanganligi 30 foizdan kam bo‘lmasligi kerak.

Agar korxonaning asosiy vositalari va aylanmadan tashqari aktivlari o‘z mablag‘lari manbalaridan yuqori bo‘lsa, u holda korxonada balansni nollikvid ekanligini ko‘rsatadi. Nollikvid balansga ega bo‘lgan korxonalar bank kreditlaridan foydalanish huquqiga ega emasdir.

**[221].** Korxonalarining kreditga layoqatliligini baholashda yuqorida qayd qilingan kreditga layoqatlilikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni quyidagi davrlar bo‘yicha hisoblanishi, ya‘ni hisob-kitob qilinishi lozim (45-jadval).

Hisoblangan ko‘rsatkichlar me‘yoriy talablar bilan taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy holatiga baho berilib kredit berish mezonlari belgilanadi. Kredit berish bo‘yicha mijozlar sinflarga ajratiladi (46-jadval).

Jadvalda keltirilgan mezonlar bo'yicha birinchi sinfga kiruvchi mijozlar umumiy talablar asosida kreditlanishi mumkin. Lozim bo'lganda ularga ishonch kreditlari (ta'minlanganlik talab qilmasdan) beriladi yoki boshqa yengilliklar berilishi mumkin.

**45-jadval.**

**Korxonalarining kreditga layoqatliligini  
baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar**

№	Ko'rsatkichlar	D a v r l a r			
		1 kv.	0,5 yil	9 oy	1 yil
1	Likvidlik koeffitsiyenti				
2	Qoplash koeffitsiyenti				
3	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti				
4	O'z aylanma mablag'larining dinamikasi				
5	Samaradorlik (foydalilik) darajasi				
6	To'lanmagan qarzarlar:				
	<input type="checkbox"/> bank ssudalari bo'yicha <input type="checkbox"/> hisob-kitoblar bo'yicha				
7	Aylanma mablag'larining aylanishi:				
	<input type="checkbox"/> aylanish koeffitsiyenti <input type="checkbox"/> kunlarda aylanishi				

**46-jadval.**

**Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlarni sinflarga  
ajratish bo'yicha talablar**

№	Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1.	Likvidlik koeffitsiyenti ( $K_L$ )	$K_L \geq 1,5$ $K_L \geq 2,0$	$1,5 > K_L \geq 1,0$ $2,0 > K_L \geq 1,25$	$1,0 > K_L$ $1,25 > K_L$
2.	Qoplash koeffitsiyenti $K_q$	$K_q \geq 2,0$ $K_q \geq 7,0$	$2,0 > K_q \geq 1,0$ $7,0 > K_q \geq 2,0$	$1,0 > K_q$ $2,0 > K_q$
3.	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti $K_{mb}$	$K_{mb} \geq 60\%$ $K_{mb} \geq 60\%$	$60\% > K_{mb} \geq 30\%$ $60\% > K_{mb} \geq 5\%$	$K_{mb} < 30\%$ $K_{mb} < 25\%$

Agar mijoz 2-sinfga taalluqli bo'lsa va uning boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari ijobiy bo'lsa, unga umumiy asosda kredit berilishi, ba'zi yengilliklar qo'llanilishi mumkin. Agar qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kamchiliklar bo'lsa, uning moliyaviy ahvoli nobarqaror deb topilishi va uni yaxshilash uchun choralarni ko'rishni talab qilish, kredit

<sup>1</sup> Qarang: Банковское дело. Учебник. 2-е изд. Под ред. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 2001, с. 225.

bo'yicha garovni mustahkamlash, foiz stavkalarini oshirish, ssudaning summasini va muddatini cheklash choralarini ko'rish mumkin.

III sinfga kiruvchi mijozlar aniq garov va yuqori foiz stavka asosida kredit oladi.

[222]. «A» korxonaning balansi bazis va joriy davrlarda quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi (47-jadval).

Hisob-kitoblar asosida quyidagi xulosalarni yasash mumkin:

□ **Korxonalar balansi likvidligi** ijobiy, chunki bazis davrda balans likvidligi 46 foiz bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy davrda 55 foizni tashkil qilgan, ya'ni shu davr ichida balans likvidligi 9 punktga oshdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvid mablag'lari qisqa muddatli majburiyatlaridan kamida ikki barobar ortiq bo'lgan taqdirdagina uning moliyaviy ahvoli yaxshi deb hisoblanadi. Bu yuqori mezon chegarasidir. Bizning misolimizda bu nisbat bazis davrda 2,1 baravarni (1:2a, ya'ni, 109627:51107) joriy davrda esa 2,3 baravarni tashkil qilgan.

Xo'jalik subyektlarining likvid mablag'lari uning qisqa muddatli majburiyatlari hajmiga teng bo'lgan hollarda ( $1 = 2a$ ) gi ko'rsatkich quyi chegara sifatida olinadi.

Likvidlik koeffitsiyenti joriy majburiyatlarning nafaqat naqd pulning o'zi bilan, balki jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan tushishi kutilayotgan mablag'lar hisobidan ham qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi.

□ **Qoplash koeffitsiyenti** bazis davrda 2,15 ni, joriy davrda esa 2,27 ni tashkil qilib mijozning birinchi sinfga taalluqliligini ifodalayapti (47-jadvalga qarang). **Likvidlik koeffitsiyenti** tegishli davrlarda 0,55 va 1,2 ni tashkil qilib bazis davrda mijozning uchinchi sinfga mansub ekanligini ifodalasa, joriy davrda u ikkinchi sinfga ko'tariladi. Bunday hollarda mijozning sinfi bo'yicha aniq bir xulosaga kelish uchun faqat bir yillik davr emas ko'proq davrni, shu bilan bir qatorda boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlarni ham tahlilga jalb qilish zarur.

□ Korxonaning qarz olish manbalariga muhtoj emasligi uning o'z mablag'lari bilan qanday ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'lib uning darajasi moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti darajasi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, korxonaning o'z mablag'lari manbalari tarkibiga:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan foyda;
- maqsadli tushumlar va foizlar;
- kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar;

→ kelgusi davr daromadlari kiradi.

47-jadval.

**Balans ma'lumotlariga asosanib mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash tartibi**

№	Ko'rsatkichlar	Ming so'm		%
		Bazis davr	Joriy davr	
1	2	3	4	5
1.	Likvid mablag'lar	109 627	138 991	126,8
	a) pul mablag'lari	2474	11313	457,3
	b) tez sotiladigan talablar	25606	62286	243,2
	c) tez sotiladigan zaxiralar	81 547	65392	80,2
2.	Majburiyatlar - jami sh.j.:	236136	250464	106,1
	a) Qisqa muddatli majburiyatlar	51107	61179	119,17
3.	o'z mablag'lar manbalari	185029	189285	102,3
	a) ustav kapitali	169181	169181	100,0
	b) rezerv kapitali	503	503	100,0
	c) taqsimlanmagan foyda	15345	19601	127,7
4.	Uzoq muddatli aktivlar	126509	111473	88,1
5.	Aylanma mablag'lar:			
	a) jami, sh.j.	109627	138991	126,8
	b) o'z aylanma mablag'lar (3-4)	58520	77812	132,9
	c) aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i	54813	69496	126,8
6.	Sotilgan mahsulot hajmi	234949	291256	124,0
7.	Tahlil qilinayotgan davrdagi kunlar	360	360	-
<b>Koeffitsiyentlar</b>				
	<input type="checkbox"/> Balans likvidligi (1:2)	0,46	0,55	119,6
	<input type="checkbox"/> Qoplash koeffitsiyenti (1:2a)	2,15	2,27	105,6
	<input type="checkbox"/> Likvidlik koeffitsiyenti <input type="checkbox"/> (1 qatorning a+b)/2	0,55	1,20	2,18
	<input type="checkbox"/> Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti (3:2)·100	78,3	75,5	96,4
	<input type="checkbox"/> O'z aylanma mablag'larining salmog'i (5b:5a)	53,4	56,0	104,9
	<input type="checkbox"/> Aylanish koeffitsiyenti			
	a) so'mda (6:5v)	4,3	4,2	97,7
	b) kunda (5v · 7:6)	84	86	102,4

Korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Agar aylanma mablag'larning aylanish tezligi ko'proq bo'lsa, unday hollarda bu ko'rsatkichning quyi darajasi (xo'jalik faoliyatining turiga qarab) biroz pastroq bo'lishi mumkin. Agar bu koeffitsiyent 60 foiz bo'lsa, kredit riski minimal darajaga tushirilgan hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, korxonaga shunchalik moliyaviy barqaror hisoblanadi va bank kreditini

o‘z vaqtida qaytarish layoqatliligi yuqori bo‘ladi.

Yuqoridagi misolimizda moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti bazis davrda 78,3 foizni, joriy davrda esa 75,5 foizni tashkil qilib shu davr ichida bu ko‘rsatkich 2,8 punktga kamaygan. Ammo bu kamayish mijozning sinfiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmagan. Natijada mijoz birinchi sinfdaligicha qolgan.

[223]. Mijozni likvid yoki nolikvid balansliligini aniqlash uchun kreditga layoqatlilikning quyidagi ko‘rsatkichlarini hisoblash zarur:

- o‘z aylanma mablag‘larining hajmi va dinamikasi;
- samaradorlik (foydalilik) koeffitsiyenti;
- noto‘lovlar va aylanma mablag‘larining aylanish sur‘atlari.

O‘z aylanma mablag‘larining hajmi quyidagicha aniqlanadi:

O‘z aylanma mablag‘lari hajmi	=	O‘z mablag‘lari manbalari	-	Uzoq muddatli aktivlar
		47-jadvalda: 5b = 3 - 4		

Bazis davrda o‘z aylanma mablag‘larining hajmi 58520 ming so‘mni, joriy yilda esa 77812 ming so‘mni tashkil qildi. Bu holat mijozning likvid balansga ega ekanligidan dalolat beradi, chunki o‘z aylanma mablag‘lari hajmi shu davr ichida 19292 ming so‘mga ortgan. Uzoq muddatli aktivlar esa shu davr ichida 15036 ming so‘mga kamaygan.

Agar asosiy vositalar o‘z mablag‘lari manbayidan ortiq bo‘lsa, bunday holda mijoz nolikvid balansga ega bo‘ladi.

Nolikvid balansli korxonalariga esa kredit berilishi mumkin emas.

Kreditga layoqatlilikni aniqlashda o‘z aylanma mablag‘larning salmog‘ini, ularning aylanish sur‘atlarini inobatga olish o‘ta zarurdir. Chunki bu salmoq ortib borsagina yoki oldingi davrga nisbatan o‘zgarishsiz qolsagina mijozning kreditga layoqatliligi ijobiy hisoblanadi. Mablag‘larning aylanish sur‘atlari:

- aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti (marta);
- aylanma mablag‘larning aylanishi (kunda) ko‘rsatkichlari bilan ifodalanadi.

47-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, kuzatilayotgan korxonada aylanma mablag‘larining aylanish koeffitsiyenti bazis davrda 4,3 marta aylangan bo‘lsa, joriy davrda bu ko‘rsatkich 4,2 martani tashkil qilgan. Demak, aylanish sur‘ati birmuncha kamaygan. Aylanma mablag‘larning kunlarda aylanishi bazis davrda 84 kunni tashkil etgan bo‘lsa, joriy davrda 86 kunga teng bo‘lgan. Demak, aylanma mablag‘larning aylanishi tezlashgan. Bu, albatta, ijobiy holat. Chunki aylanma



mablagʻlarning aylanishi qanchalik tezlashsa, shunchalik aylanma mablagʻlari iqtisod qilinadi.

[224]. Kredit mutaxassisi kredit oluvchining kredit olish uchun ariza berishga va kredit shartnomasiga imzo qoʻyishga qonuniy jihatdan huquqi borligiga ishonch hosil qilishi lozim. Shu huquqning borligi mijozning kredit olishga layoqatliligini bildiradi. Agar mijoz yuridik shaxs boʻlib, yirik korxonaga yoki uyushma boʻlsa, uning vakili albatta shu korxonaga yoki uyushmaning Kengashi tomonidan tayinlangan, tasdiqlangan boʻlishi, uning nomidan muzokaralar olib borib, kredit shartnomasini imzolash huquqini olgan boʻlishi lozim. Buning uchun mijoz kredit mutaxassisiga Kengash qarorining tasdiqlangan nusxasini topshirishi kerak boʻladi.

Mijozning kredit olishga layoqatliligini bildiruvchi maʼlumotlar:

- mijoz va kafillarining haqiqiyliigi;
- mijoz yuridik maqomiga ega ekanligini tasdiqlovchi Nizom, qaror, bitimlar va boshqa hujjatlarning notarial tasdiqlangan nusxalari;
- mijozning faoliyati, ishlab chiqaradigan mahsuloti, uning mijozlari va xomashyo bilan taʼminlovchilari haqidagi notarial tasdiqlangan hujjatlar toʻplami.

[225]. Kredit olish uchun berilgan har qanday arizani tahlil qilish jarayonida kredit mutaxassisi mijoz kreditdan foydalanishi natijasida olgan daromadi orqali kreditni qaytarish uchun yetarli mablagʻga ega boʻladimi, yoʻqmi, degan savolga ijobiy javob olishi lozim.

Mijoz olgan kreditni qoplashi uchun asosan uchta manbaga ega boʻladi:

- a) naqd pul oqimi;
- b) aktivlarni sotish va naqd pulga aylantirish;
- c) qimmatli qogʻozlar yoki majburiyatlar chiqarish orqali mablagʻlarni jalb qilish.

Qayd qilingan mablagʻlardan har qaysisi kreditni qoplay oladi. Lekin banklar asosan naqd pul oqimini afzal koʻradilar. Chunki mijoz aktivlarining sotilishi uning balansi ahvolini yomonlashishiga, chetdan qoʻshimcha mablagʻ jalb qilishi esa bankning kreditor sifatida mavqeyining pasayishiga olib keladi.

Mijozning pul mablagʻlari haqida maʼlumotlarga quyidagilar kiradi:

- a) mijozning oʻtgan davrdagi dividendlari va sotilgan mahsulotlari hajmi;
- b) koʻzda tutilgan naqd pul tushumining yetarliligi;
- c) likvid zaxiralarning mavjudligi;
- d) debitor-kreditor qarzlarni toʻlash muddati, tovar-moddiy

zaxiralarning aylanishi;

- e) sarmoyaning tuzilishi va leveraj darajasi, ya'ni o'z sarmoyasi va jalb qilingan mablag'lardan foydalanilgan samaradorlik ko'rsatkichlari;
- f) xarajatlar ustidan nazorat;
- g) qoplanganlik ko'rsatkichlari;
- h) aksiyalari baholarining o'sishi;
- i) boshqaruv sifati;
- j) auditor xulosasi;
- k) buxgalteriya hisobidagi so'nggi o'zgarishlar.

[226]. Mijozning ta'minlanganlik darajasi masalasida kredit mijoz, mijoz kreditni ta'minlashi uchun yetarli sarmoyaga yoki sifatli aktivlarga egami, degan savolga javob bera olishi lozim. Kredit mutaxassisi mijoz aktivlarining xizmat muddati, tuzilishi va ahvolini yaxshilab o'rganishi kerak. Bunda asosiy omil mijozning texnologiyasi bo'lib, uning aktivlari texnologiya nuqtayi nazaridan eskirgan bo'lsa, ularning ta'minlanganlik qobiliyati yuqori bo'lmaydi, chunki mijoz daromadlari kreditni qoplash uchun yetmay qolganda, bu aktivlarni naqd pulga aylantirish qiyin bo'ladi.

Mijozning ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagicha:

- a) aktivlarga egalik huquqi;
- b) aktivlardan foydalanish muddati;
- c) ma'naviy eskirish ehtimoli;
- d) qoldiq bahosi;
- e) aktivlarni muayyan maqsadlarga mos kelish darajasi;
- f) majburiyatlar va cheklanishlar;
- g) lizing bo'yicha majburiyatlar va garov hujjatlari;
- h) sug'urta kafolati;
- i) bankning kreditor sifatidagi o'rni;
- j) soliq solish bo'yicha da'volar;
- k) kelajakda yuzaga keladigan moliya bilan ta'minlanish ehtiyojlari.

[227]. Kredit mutaxassisi mijoz va u bilan bog'liq bo'lgan sohadagi va umuman iqtisodiyotdagi so'nggi o'zgarishlardan doimo xabardor bo'lishi lozim. Hujjatlarga ko'ra, kredit juda ishonchli va daromadli bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin mamlakat iqtisodiyotidagi tanglik tufayli mahsulotlar savdosi hajmining va daromadning kamayishi yoki pulning qadrsizlanishi tufayli foiz stavkalarining ko'tarilishi natijasida kredit sifati yomonlashishi (pasayishi) mumkin. Kredit oluvchi faoliyat ko'rsatayotgan mazkur soha va iqtisodiyotni baholash maqsadida kreditor ularga taalluqli ma'lumotlar va axborotlar majmuyini to'playdi. Bu quyidagilardan iborat:

- a) mijozning tarmoqdagi holati va bozordagi ulushi;
- b) mijoz faoliyatining natijalari bilan mazkur tarmoqdagi boshqa

firmalar faoliyatlari natijalarining taqqoslanishi;

- c) mahsulotning raqobatdoshligi;
- d) mijoz va tarmoq faoliyatining texnologiyadagi o'zgarishlarni sezuvchanligi;
- e) ish kuchi bozoridagi sharoit;
- f) pul qadrsizlanishining mijoz balansi va naqd pullari oqimiga ta'siri;
- g) tarmoqning uzoq kelajakdagi faoliyati rejalari;
- h) qonunlar, siyosat va atrof-muhitni saqlash bilan bog'liq omillar.

[228]. Mijozning kredit olishga layoqatliligini baholashning eng so'nggi omili – nazoratdir. Mavjud qonunlar va tartiblarning o'zgarishi mijozning faoliyatiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi, mijoz arizasi bank andozalariga va kreditni tartibga solib turuvchi organlar talablariga mos kelishi nazorat orqali aniqlanadi. Nazorat quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

- a) bank faoliyatiga hamda kreditlarning xususiyati va sifatiga taalluqli qonunlar va qoidalar;
- b) nazoratchilarga taalluqli hujjatlar;
- c) qarzlarning mavjudligi va kredit olish to'g'risida mohirona tuzilib, tasdiqlangan hujjat;
- d) kredit olish uchun yozilgan arizaning bank kredit siyosatiga muvofiq kelishi;
- f) tarafdor kishilar (iqtisodchilar, siyosiy ekspertlar) tomonidan kreditni qoplashga ta'sir etuvchi tashqi omillar haqida axborotlari.

[229]. Banklar va tadqiqotchilar mijozlarning moliyaviy ahvoli va kreditning qoplanishini baholash uchun asosan tashqi ma'lumotlarga tayanadilar. Bunda eng avval mijozning moliyaviy hisobotlari, taqdim etgan kredit olish to'g'risidagi arizada berilgan ma'lumotlar, ya'ni olinishi mo'ljallanayotgan kredit hajmi, kredit olishdan maqsad, kredit oluvchining boshqa mavjud majburiyatlari, ta'minlanganlik sifatida mijozning taklif qilinadigan aktivlari tahlil qilinadi.

Bank mijozga avval kredit bergan kreditorlar bilan ham uchrashishi va quyidagi savollarga javob olishi mumkin:

- a) mijoz to'lov muddatlariga rioya qilganmi?
- b) mijozning hisobvarag'ida yetarli mablag' qoldig'i bo'lganmi?
- c) to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik hollari uchraganmi?
- d) mijoz avval inqirozga uchraganmi?

Bank yoki tadqiqotchilar mijozning arizasini tahlil qilganlarida nafaqat uning moliyaviy ahvolini, balki mijoz faoliyat ko'rsatayotgan ushbu hudud va tarmoqning iqtisodiy ahvoli, agar yirik hajmdagi kredit so'ralayotgan bo'lsa, hatto jahon iqtisodiyotining ahvolini ham o'rganadilar. Ko'pgina mijozlarning iqtisodiy ahvoli mamlakat

iqtisodiyotidagi va hatto, jahon iqtisodiyotidagi beqarorlikni ham juda sezuvchan bo‘ladi. Sezuvchanligi yuqori bo‘lgan mijozlarga kredit berish kerak emas, degan bank xatoga yo‘l qo‘yadi. Balki bank mijozlarning ana shu xususiyatlarini e‘tiborga olib, kredit portfelini shunday beqarorlikdan asrash yo‘lida o‘zlarining kredit qo‘yilmalari tizimini tashkil qilishlari lozim.

## 6.2. Pul oqimi va uning kreditga layoqatlilikni baholashdagi roli

[230]. **Pul oqimi** – mijozning o‘z xarajatlarini qoplash va qarzlarni o‘z resurslari hisobidan to‘lash qobiliyatini ifodalovchi o‘lchamdir. Boshqacha qilib aytganda, pul oqimi mijozning kreditga layoqatliligini baholashda qo‘llaniladigan usullardan biridir. Uni qo‘llash mijozning joriy davrdagi aylanma mablag‘larini tavsiflovchi haqiqiy ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Aynan shu jihati bilan pul oqimi tahlili hisobotdagi qoldiq ko‘rsatkichlarga asoslanib aniqlangan moliyaviy ko‘rsatkichlar tizimi tahlilidan tubdan farq qiladi.

Umuman pul oqimi tahlili (mijoz so‘ragan muddat davrida) pul oqimidagi chiqim va kirimni taqqoslashga asoslanadi. Masalan, agar qarz bir yilga beriladigan bo‘lsa, u holda pul oqimi tahlili ham shu bir yil doirasida bo‘ladi, kvartal doirasida bo‘lsa 90 kun va h.k.

Pul oqimidagi **kirim qismiga** quyidagilar kiradi:

- mazkur davr ichida olingan foyda;
- mazkur davr uchun ajratilgan amortizatsiya ajratmalari;
- bo‘shagan mablag‘ – jami,

sh.j:

- a) jamg‘armalardan;
- b) debitorlik qarzlardan;
- d) asosiy fondlardan;
- d) turli aktivlardan;
- kreditorlik qarzlarning ko‘payishi;
- turli passivlarning o‘sishi;
- aksionerlik kapitalining ko‘payishi;
- yangi ssudalar olish.

Pul oqimidagi **chiqim qismiga** quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- Barcha to‘lovlar, jami:

sh.j:

- a) soliqlar;
- b) foizlar;
- c) dividendlar;
- d) jarima va penyalar.

□ Qo‘shimcha qo‘yilgan mablag‘lar, jami,  
sh.j:

a) jamg‘armalar;

b) debitorlik qarzlari;

c) turli aktivlar;

d) asosiy fondlar;

□ kreditorlik qarzlarning kamayishi;

□ turli passivlarning kamayishi;

□ aksionerlik kapitalining chiqimi;

□ ssudalarni uzish (to‘lash).

Kirim va chiqim o‘rtasidagi tafovut umumiy pul oqimi summasini ko‘rsatadi, ya‘ni:

$$\begin{array}{r} \text{Umumiy pul} \\ \text{oqimi summasi} \end{array} = \text{Mablag‘lar kirimi} - \text{Mablag‘lar} \\ \text{chiqimi}$$

jamg‘armalar, debitorlar va turli aktivlar qoldiqlarining o‘shishi mablag‘larning chiqimini ifodalaydi. Natijada «-» ishorasida kelib chiqadi. Ularning kamayishi esa mablag‘larning kirimini ifodalab «+» ishorasida bo‘ladi. Kreditorlar va turli passivlarning o‘shishi mablag‘larning kirimini («+»), kamayishi esa - chiqim («-») ni ifodalaydi.

Asosiy fondlarning o‘zgarishiga qarab kirim va chiqimni aniqlash tartibi o‘ziga xos bo‘lishi mumkin. Xususan, hisoblashda nafaqat ularning mazkur davr ichida o‘zgarishi, shuningdek, shu davr ichida ularning sotilgan qismi ham inobatga olinadi. Ya‘ni:

$$\begin{array}{r} \text{Asosiy fond-} \\ \text{larning o‘zgarishiga} \\ \text{qarab} \\ \text{mablag‘larning} \\ \text{kirimi (chiqimi)} \end{array} = \left( \begin{array}{r} \text{Asosiy fond-} \\ \text{larning davr} \\ \text{oxiridagi qi-} \\ \text{ymati} \end{array} - \begin{array}{r} \text{Asosiy} \\ \text{fondlarning} \\ \text{davr boshidagi} \\ \text{qiymati} \end{array} \right) + \begin{array}{r} \text{Dav} \\ \text{davomida} \\ \text{+ asosiy fondlar} \\ \text{realizatsiyasi} \\ \text{natijasi} \end{array}$$

**[231].** Pul oqimini tahlil qilish modeli korxonani boshqarish sohalari bo‘yicha pul mablag‘larining kirim-chiqim elementlarini guruhlashga asoslanadi. Bu sohalar quyidagi bloklardan iborat:

□ korxonada foydasi sohasidagi boshqarish;

□ korxonada jamg‘armasi va hisob-kitoblar sohasidagi boshqarish;

□ moliyaviy majburiyatlar sohasidagi boshqarish;

□ soliq va investitsiya sohasidagi boshqarish;

□ xususiy kapital va kreditlar sohasidagi boshqarish.

Bu model pul oqimini tahlil qilishning bilvosita usulidir. Uning

mohiyati quyidagicha:

$$PO = PM_{Ich} + PM_{INB} + PM_{MF}$$

Bu yerda:

- PO – umumiy pul oqimi (sof pul mablag‘lari);
- PM<sub>Ich</sub> – ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati natijasida pul mablag‘larining o‘shishi (kamayishi);
- PM<sub>INV</sub> – investitsion faoliyat natijasida pul mablag‘larining o‘shishi (kamayishi);
- PM<sub>MF</sub> – moliyaviy faoliyat natijasida pul mablag‘larining o‘shishi (kamayishi).

$$PM_{Ich} = PM_{ST} - T_{EBX} + (F_{TSh} - F_{TL}) - S_T$$

Bu yerda:

- PM<sub>ST</sub> – sotuvdan tushgan pul mablag‘lari;
- T<sub>EBX</sub> – yetkazib beruvchilar va xodimlarga to‘lovlar;
- F<sub>TSh</sub> – foizlardan tushumlar;
- F<sub>TL</sub> – to‘langan foizlar;
- S<sub>T</sub> – to‘langan soliqlar.

$$PM_{INV} = PM_{AAS} - K_Q$$

Bu yerda:

- PM<sub>AAS</sub> – asosiy aktivlarni sotishdan tushgan mablag‘lar;
- K<sub>q</sub> – kapital qo‘yilmalar.

$$PM_{MF} = K_R - QM_T + O_E + O_A - D_T$$

Bu yerda:

- K<sub>R</sub> – olingan kreditlar;
- QM<sub>T</sub> – to‘langan qarz majburiyatlari;
- O<sub>E</sub> – obligatsiyalar emissiyasi;
- O<sub>A</sub> – aksiyalar emissiyasi;
- D<sub>T</sub> – to‘plangan dividendlar.

Pul oqimini tahlil qilishda kamida o‘tgan uch yil bo‘yicha ma’lumotlar olinishi lozim. Agar mijoz faoliyatida pul oqimining kirim qismi chiqim qismidan ustuvor o‘shishda bo‘lsa bu holat mijozning kreditga layoqatliligini, moliyaviy barqarorligini bildiradi. Aks holat esa mijozning reytingi pastligi va moliyaviy barqarorligining zaifligidan dalolat beradi. Pul oqimining tahlilini quyidagi jadval ma’lumotlarida ko‘rib chiqamiz (48-jadval).

Pul oqimini tahlil qilish yordamida korxonada boshqaruvidagi zaif tomonlar to‘g‘risida xulosa yasash mumkin. Masalan, mablag‘larning oqib ketishi:

- jamg‘armalarni boshqarish;

- debitor va kreditorlar bilan hisoblashish;
- moliyaviy to'lovlar (soliqlar, foizlar, dividendlar)ni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

**48-jadval.**

**Pul oqimini tahlil qilish tartibi**

№	Ko'rsatkichlar	Ming so'm		
		1-davr	2-davr	3-davr
1	2	3	4	5
<b>I. Foyda keltiruvchi operatsiyalardan tushgan pul mablag'lari</b>				
1.	Ishlab chiqarishdan olingan foyda (operatsion foyda)	11435	38871	111627
2.	Amortizatsiya	120	130	150
3.	Kutilayotgan xarajatlar va to'lovlarni to'lash uchun zaxira (bo'lajak xarajatlar uchun zaxira)	38051	12075	
4.	Yalpi operatsion pul oqimi (1 qator+2 qator+3 qator)	49606	51076	111777
<b>II. Joriy operatsiyalar bo'yicha tushumlar (xarajatlar)</b>				
5.	Oldingi davrga nisbatan debitorlik qarzlarning ko'payishi (kamayishi)	- 128502	- 76255	- 32886
6.	Oldingi davrga nisbatan g'amlama va xarajatlarning ko'payishi (kamayishi)	- 43603	- 72949	- 154071
7.	Oldingi davrga nisbatan kreditorlik qarzlarning ko'payishi (kamayishi)	+ 55772	+ 78685	+185086
8.	Sof operatsion oqim (4 qator + 5 qator+ 6 qator+ 7 qator)	- 66727	- 19443	+109906
<b>Sh. Moliyaviy majburiyatlar</b>				
9.	Mazkur davr foydasiga maxsus fond hisobidan qilingan xarajatlar	- 6144	- 6144	- 6144
10.	Foizlar to'lovi uchun sarflar (-)	- 2347	- 5331	- 12387
11.	Dividendlar	-	-	-
12.	Dividend va qarz to'lovlaridan keyingi pul mablag'lari (8 qator-9 qator- 10 qator-11 qator)	- 75218	- 30918	+ 91375
<b>IV. Boshqa qo'yilgan mablag'lar</b>				
13.	Soliqlar	- 19993	- 23736	- 183272
14.	Asosiy fondlarga qo'yilmalar	- 992	- 10879	+ 1441
15.	Turli qisqa va uzoq muddatli aktivlar bo'yicha ko'payishi (-) yoki kamayishi (+)	- 1214	- 40444	+ 11876
16.	Turli qisqa va uzoq muddatli passivlar bo'yicha ko'payishi (-) yoki kamayishi (+)	-	+ 30389	- 28902

17.	Nomoddiy aktivlarning ko‘payishi (-) yoki kamayishi (+)	-	-	-
18.	Turli daromadlar (+) yoki xarajatlar (-)	+ 28721	- 11835	+ 85843
19.	Moliyalashtirishga bo‘lgan umumiy talablar (12 qator – 13 qator ± 14 qator ± 15 qator ± 16 qator ± 17 qator ± 18 qator)	- 66782	- 87423	- 18637
<b>V. Moliyalashtirish bo‘yicha talablar</b>				
20.	Oldingi davrga nisbatan qisqa muddatli kreditlarning kamayishi (-) yoki qo‘shimcha o‘sishi (+)	+ 49813	+ 50187	- 20000
21.	o‘rta va uzoq muddatli kreditlarning kamayishi (-) yoki qo‘shimcha o‘sishi (+)	-	-	-
22.	Ustav fondining ko‘payishi (+) yoki kamayishi (-)	+ 507	+ 5315	-
23.	Umumiy pul oqimi	- 16462	- 31921	- 38637

Umumiy pul oqimi va qarz majburiyatlarining nisbatiga asoslanib mijozning kreditga layoqatlilik darajasi aniqlanadi, chunonchi:

I klass - 0,75

II klass - 0,30

III klass - 0,25

IV klass - 0,20

V klass - 0,20

VI klass - 0,15

Boshqaruvdagi zaif tomonlarni aniqlash kredit shartnomasidagi shartlarni ishlab chiqishda juda qo‘l keladi. Masalan, agar pulning oqib ketishiga asosiy sabab hisob-kitob uchun haddan tashqari sarflangan ortiqcha mablag‘ bo‘lsa, mijozni «ijobiy» kreditlash uchun esa ishonchli asos va shart debitorlik qarzlarning aylanishini ssudadan foydalana-digan barcha davr uchun barqaror saqlay olish qobiliyati hisoblanadi.

**[232]. Amaliy risk** – bu mijoz mablag‘larining belgilangan muddatda aylanib ulgurmaslik va ko‘zlangan samarani ololmaslik xavfidir. Amaliy riskka ta’sir qiluvchi omillarni aylanish bosqichlariga qarab quyidagicha guruhlash mumkin;

**I bosqich – jamg‘armalarni tashkil qilish bosqichi**

- yetkazib beruvchilar soni va ularning puxtaligi;
- omborxonalarining quvvati va sifati;
- tashish usulining yuk xarakteriga mos kelishi;
- xomashyo bahosining ommabopligi va uning mijoz yukini tashishdagi osonligi;
- xomashyo va boshqa moddiy qimmatliklarni ishlab chiqaruv-chilar bilan ularning iste’molchilari o‘rtasidagi vositachilar soni;



- yetkazib beruvchilarning uzoq-yaqinligi;
- iqtisodiy omillar;
- xomashyo va boshqa moddiy qimmatliklarni sotib olishdagi moda;
- valuta riski bilan bog‘liq omillar;
- import qilinuvchi xomashyoning olib kelinishi va olib chiqilishiga kiritiladigan cheklovlar xavfi;

## **II bosqich – ishlab chiqarish bosqichi**

- mavjud ishchi kuchi va uning malakasi;
- uskunalarning quvvati va yoshi;
- uskunalarning yuklanganlik darajasi;
- ishlab chiqarish binolarining holati;

## **III bosqich – sotish bosqichi**

- xaridorlar soni va ularning sotib olish qobiliyati;
- debitorlarning xilma-xilligi, o‘zgarishi;
- xaridorlarning to‘lay olmasligini himoya qilish darajasi;
- tayyor mahsulotni kreditlash xarakteri bo‘yicha mijozning qaysi tarmoqqa tegishliligi;
  - tarmoqdagi raqobat darajasi;
  - ijtimoiy an‘analar va ustuvorliklar, siyosiy vaziyatlarning kreditlanuvchi tayyor mahsulot narxiga ta‘siri;
  - mazkur mahsulot bozorida ortiqcha ishlab chiqarish muammosining mavjudligi;
    - demografik omillar;
    - valuta riski bilan bog‘liq omillar;
    - mamlakatda olib chiqish va boshqa mamlakatdan olib kelishga kiritiladigan cheklovlar ehtimoli.

Sotish bosqichida risk omillari birinchi va ikkinchi bosqich omillari bilan chatishib qolishi ham mumkin. Shu sababli amaliy risk xavfi sotish bosqichida g‘amlama yoki ishlab chiqarish bosqichiga nisbatan yuqori darajada bo‘lishi mumkin. Barqarorlik sharoitida mijozga kredit berish va uning kreditga layoqatliligini baholashda amaliy risk tahlili bilan cheklanish yetarli bo‘lmaydi. Bunday holda bu tahlilni moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash bilan to‘ldirish zarur.

Qayd qilingan omillar bank tomonidan kredit talabnomalarining standart shakllarini ishlab chiqishda, ssudalarni berishning texnik-iqtisodiy asoslanganligini isbotlashda albatta inobatga olinadi.

[233]. Amaliy risk darajasini aniqlash uchun tijorat banklari yuqoridagi har bir omilni **skoring tizimi** bo‘yicha tegishli ballar bilan

baholaydi (49-jadval).

49-jadval.

### Amaliy tavakkalchilik (risk) mezonlari

№	Amaliy tavakkalchilik mezonlari	Ballar
1	2	3
I.	Molni yetkazib beruvchilar soni	
	<input type="checkbox"/> Uch kishidan ko'p	10
	<input type="checkbox"/> Ikki kishi	5
	<input type="checkbox"/> Bir kishi	1
II.	Molni yetkazib beruvchilarning ishonchliligi	
	<input type="checkbox"/> Barcha yetkazib beruvchilar a'lo obro'ga ega	5
	<input type="checkbox"/> Ko'pchilik yetkazib beruvchilar amaliy hamkor sifatida ishonchli	3
	<input type="checkbox"/> Yetkazib beruvchilarning asosiy qismi ishonchli	0
III.	Yukni tashish	
	<input type="checkbox"/> Shahar doirasidagina sug'urta polisi mavjud, tashish turi tovarga mos	10
	<input type="checkbox"/> Yetkazib beruvchi iste'molchidan uzoq, sug'urta polisi bor, tashish turi tovarga mos	8
	<input type="checkbox"/> Yetkazib beruvchi iste'molchidan uzoq, tashish natijasida tovarning biror qismi yo'qotilishi va sifati pasayishi mumkin, sug'urta polisi bor	6
	<input type="checkbox"/> Yetkazib beruvchi shahar doirasida, tashish turi yukka mos emas, sug'urta polisi yo'q va h.k.	4
IV.	Tovarni omborga joylash	
	<input type="checkbox"/> Qarz oluvchi o'zining xususiy omboriga ega	5
	<input type="checkbox"/> Qarz oluvchi omborni ijaraga olgan	3
	<input type="checkbox"/> Qarz oluvchi omborga muhtoj, ammo amaliy riskni baholash chog'ida u ombor yo'q.	0

Har bir mezon bo'yicha ballar qo'yiladi va jamlanadi. Jamlangan ball qancha yuqori bo'lsa, tavakkalchilik xavfi shuncha kam bo'ladi va ko'zlangan samaraga erishish uchun kelishuvni amalga oshirish ehtimoli oshadi. Bu esa qarz oluvchining o'z qarz majburiyatlarini o'z vaqtida uzish imkonini beradi.

[234]. Kichik korxonalarining kreditga layoqatlilik darajasi ham xuddi o'rta va yirik korxonalarining kreditga layoqatliligini baholashdek baholanadi.

Bu yerda ham:

- kreditga layoqatlilikning moliyaviy koeffitsiyentlarini hisoblash;
- pul oqimining tahlili;

□ amaliy tavakkalchilikni baholash amalga oshiriladi.

Ammo kichik korxonalarda hisob-kitob holatining sustligi bank tomonidan moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash va pul oqimini tahlil qilish usulini qiyinlashtiradi. Kichik korxonalarda aksariyat hollarda litsenziyaga ega bo'lgan buxgalterlar kam uchraydi. Bundan tashqari, bankning bu mijozlarni audit qilish uchun sarflashi zarur bo'lgan xarajatlarga mablag' ajratish imkoniyati yo'q. Shu sababli bu toifadagi qarz oluvchilarni hisoboti auditorlik tasdig'ini olmaydi.

Bunday xususiyatlar kichik korxonalarining kreditga layoqatliligini baholashda yuqoridagi an'anaviy baholash usullari (moliyaviy hisobot) ga asoslanish emas, balki mazkur bank xodimlari tomonidan o'z mijozlari biznesini chuqur o'rganishga asoslanadi. Bu esa bankning o'z mijozlari bilan doimiy uchrashib turishlarini, ularning korxonalari bilan mustahkam aloqani o'rnatishini taqozo etadi.

Kichik korxonalar rahbari bilan yakkama-yakka suhbat asosida uning kreditga bo'lgan ehtiyoji, maqsadi, manbayi va uning qaytarish muddati aniqlab olinadi. Shu jarayonda mijoz kreditlanayotgan g'amlamasining muayyan muddatga borib kamayishini, kreditlanayotgan xarajatlar esa sotiladigan mahsulot tannarxiga to'la o'tkazilishini isbotlay olishi lozim.

Kichik korxonalarining o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, u yerda rahbar va ularning a'zolari bitta oiladan yoki qarindosh-urug'lardan iborat bo'ladi. Shu sababli bank kapitali bank egasining shaxsiy kapitali bilan korxonalar kapitalidan shakllanadi. Bu xususiyat tufayli chet davlatlarda (xususan, AQShda): qarzni uzish korxonalar egasi tomonidan, aynan uning mablag'i bilan kafolatlanadi. Bunda ham mijozning kreditga layoqatliligini baholashda korxonaning moliyaviy holati inobatga olinadi. Moliyaviy holat shaxsiy moliyaviy hisobot asosida aniqlanadi.

Shaxsiy moliyaviy hisobot shakli jismoniy shaxsning aktiv va passividan tashkil topadi. Bunda joylashtirilgan aktivlar va ta'minlangan passivlar alohida ajratiladi.

#### **Aktivlarga:**

- naqd pul mablag'lari;
- aksiya va obligatsiyalar;
- qarindoshlar, o'rtoqlar va boshqa yaqinlarning kreditorlik qarzlari;
- ko'chmas mulk;
- sug'urtalangan hayot pulini qaytarib olinadigan qismi va h.k.

kiradi.

**Passivlarga:**

- bankka to‘lanadigan qarzlilar;
- qarindosh, yaqin kishilar va boshqalarga to‘lanadigan qarzlilar;
- soliq va schyotlar bo‘yicha qarzlilar;
- qo‘yilgan mablag‘lar qiymati;
- shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar;
- sug‘urta to‘lovlari maqsadida foydalanilgan kreditlar va boshqalar kiradi.

Shunday qilib, mayda qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholash uchun bank quyidagi baholash tizimidan foydalanadi:

1. Amaliy riskni baholash;
2. Mijoz faoliyatini kuzatish;
3. Bankirning korxonaga egasi bilan shaxsiy suhbatini;
4. Korxonaga egasining shaxsiy moliyaviy holatini baholash.

[235]. Jismoniy shaxsning kreditga layoqatlilik darajasini baholash quyidagilarni baholashlarga asoslanadi:

- so‘rab olinayotgan qarz bilan shaxsiy daromad o‘rtasidagi nisbat;
- umumiy mablag‘ va moliyaviy holatni baholash;
- oila tarkibi va shaxsiy tomonlar;
- mijozning kreditdan foydalanish tarixi.

Masalan, Fransiyada jismoniy shaxsning kreditga layoqatlilik darajasi **skoring** tizimi bo‘yicha baholanadi. Iste‘mol kreditini berish sharti va uning maqsadga muvofiqlik dasturi uchta bo‘limdan iborat:

- kredit to‘g‘risida ma‘lumot;
- mijoz to‘g‘risida ma‘lumot;
- mijozning moliyaviy holati.

**Birinchi bo‘limda:**

- kredit beruvchi bank xodimi;
- kredit turi va summasi;
- mijozga doir hujjat raqami;
- agentlik nomi;
- kreditni uzishning davriyligi;
- sug‘urta to‘lovlarisiz foiz stavkasi;
- qarz beriladigan va uziladigan oy, kun;
- sug‘urtalash zaruriyati to‘g‘risida savolga javob;
- sug‘urta to‘lovi va to‘lovisiz har oy to‘lanadigan qarzning mutlaq summasi.

bankka to‘lanadigan jami foiz va sug‘urta to‘lovlari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

**Ikkinchi bo‘limda:**

- mijozning kasbi;
- uning qaysi ijtimoiy guruhga taalluqliligi;
- yillik sof ish haqi;
- yillik sarf-xarajatlari;
- ish staji kabi ma’lumotlar keltiriladi.

**Uchinchi bo‘limda:**

mijozning moliyaviy holati;

mijozning joriy va omonat schyotlaridagi qoldiq;

daromad va xarajatlarning nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Qayd qilingan ma’lumotlar asosida bank mijozga kredit berish yoki bermaslik haqida xulosa chiqaradi. Salbiy javob holatida bank agentligi mijozni o‘zining direksiyasiga ushbu masalani qo‘shimcha ko‘rib chiqish uchun yo‘llashi mumkin.

AQShda jismoniy shaxsning kreditga layoqatliligiga baho berish uchun mijozning do‘konlardan kreditga tovar sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan tarixi o‘rganiladi. Bunda bank kredit olish uchun berilgan arizadagi:

- ismi, familiyasi;
- yashash joyi;
- ijtimoiy ta‘minoti raqami kabilardan foydalanadi.

Aynan shu uchta parametr asosida banklardan kredit kartochkalarini chiqaruvchi tashkilotlar, to‘lovsizlik holatlari to‘g‘risida ma’lumotlarni yig‘ish mumkin.

### 6.3. Tayanch iboralar

- |   |  |
|---|--|
| <input type="checkbox"/> kreditga layoqatlilik            | <input type="checkbox"/> pul oqimi                               |
| <input type="checkbox"/> likvidlik koeffitsiyenti         | <input type="checkbox"/> amaliy risk                             |
| <input type="checkbox"/> aylanuvchanlik koeffitsiyenti    | <input type="checkbox"/> risk mezonlari                          |
| <input type="checkbox"/> moliyaviy leveraj koeffitsiyenti | <input type="checkbox"/> skoring tizimi                          |
| <input type="checkbox"/> rentabellik koeffitsiyenti       | <input type="checkbox"/> likvid mablag‘lari                      |
| <input type="checkbox"/> qarzni qoplash koeffitsiyenti    | <input type="checkbox"/> moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari |
| <input type="checkbox"/> «Pars» usuli                     |  |

### 6.4. Test topshiriqlari va masalalar

#### 1. Mijozning kreditga layoqatliligi deganda:

a) qarz oluvchining olgan qarzini to‘la va o‘z vaqtida qaytara olish

*qobiliyati tushuniladi;*

*b) uning yuridik shaxs yoxud menejer sifatida o'zini ko'rsata olish, qarzni o'z vaqtida qoplashdagi mas'uliyati, kreditni olishdan maqsad va uning bank-kredit siyosatiga mosligini aniq bilish kabilar tushuniladi;*

*c) qarz oluvchi aktivining qiymati va qarz uzish bo'yicha aniq ikkilamchi manbalar (garov, kafolat, sug'urta kabilar) ning kredit shartnomasida o'z aksini topgani tushuniladi;*

*d) a + b.*

**2. Quyidagi qayd qilingan ko'rsatkichlarning qaysi biri mijozning kreditga layoqatliligini baholashda qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblanadi?**

*a) likvidlik koeffitsiyentlari;*

*b) samaradorlik yoki aylanuvchanlik koeffitsiyentlari;*

*c) moliyaviy leveraj koeffitsiyentlari;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**3. Quyidagi qayd qilingan ko'rsatkichlarning qaysi biri mijozning kreditga layoqatliligini baholashda qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblanadi?**

*a) moliyaviy leveraj koeffitsiyentlari;*

*b) rentabellik (foydalilik) koeffitsiyentlari;*

*c) qarz qoplanishini tavsiflovchi koeffitsiyentlar;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**4. Likvidlik koeffitsiyenti:**

*a) qarz oluvchining o'z qarzini uzish qobiliyatiga egami yoki yo'qligini ifodalaydi;*

*b) qarz oluvchining o'z kapitali bilan qay darajada ta'minlanganligini tavsiflaydi;*

*c) barcha kapital va uning jalb qilingan qismining foydalanish samaradorligini ko'rsatadi;*

*d) mazkur davr ichida g'amlamalar necha marta aylanishda bo'lganligini ifodalaydi.*

**5. Samaradorlik (aylanuvchanlik) koeffitsiyenti:**

*a) qarz oluvchining o'z kapitali bilan qay darajada ta'minlanganligini tavsiflaydi;*

*b) qarz oluvchining o'z qarzini uzish qobiliyatiga egami yoki yo'qligini ifodalaydi;*

*c) g'amlamalar aylanuvchanligining davomlilikini kunda ifoda-*

laydi;

d) foydaning qanday qismi foizlar va to'lovlar hisobiga qoplanganlik darajasini ifodalaydi.

#### **6. Moliyaviy leveraj koeffitsiyenti:**

a) mazkur davr ichida g'amlamalar necha marta aylanishda bo'lganligini ifodalaydi;

b) qarz oluvchining o'z kapitali bilan qay darajada ta'minlanganligini tavsiflaydi;

c) g'amlamalar aylanuvchanligining davomlilikini kunda ifodalaydi;

d) foydaning qanday qismi foizlar va to'lovlar hisobiga qoplanganlik darajasini ifodalaydi.

#### **7. Moliyaviy leveraj koeffitsiyenti barcha qarz majburiyatlarining:**

a) aktivlarga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi;

b) o'z kapitaliga bo'lgan nisbat bilan aniqlanadi;

c) moddiy aksionerlik kapitaliga bo'lgan nisbat bilan aniqlanadi;

d) noto'g'ri javob yo'q.

#### **8. Moliyaviy leveraj koeffitsiyenti:**

a) uzoq muddatli qarzlarning asosiy kapitalga bo'lgan nisbatini ifodalaydi;

b) o'z kapitalining aktivlarga bo'lgan nisbatini ifodalaydi;

c) aylanma o'z kapitalining joriy aktivlarga bo'lgan nisbatini ifodalaydi;

d) noto'g'ri javob yo'q.

#### **9. Rentabellik (foydalilik) koeffitsiyenti:**

a) soliq va foizlar to'lovlarigacha bo'lgan yalpi foydaning sotuvdan tushgan tushumga bo'lgan nisbatni ifodalaydi;

b) sof operatsion foydaning (foiz to'lovidan keyingi foyda, ammo soliq to'lovigacha) sotuvdan tushgan tushumga bo'lgan nisbatni ifodalaydi;

c) barcha soliq va foizlar to'lovidan keyingi sof foydaning sotuvdan tushgan tushumga bo'lgan nisbatni ifodalaydi;

d) noto'g'ri javob yo'q.

#### **10. Qarz qoplanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar:**

a) foydaning qanday qismi foizlar va to'lovlar hisobiga

*qoplanganlik darajasini ifodalaydi*

- b) foydaning foiz to'lovlariga bo'lgan nisbatni ifodalaydi;*
- c) foydaning foizlar, lizing to'lovlari, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar va boshqa to'lovlar yig'indisiga bo'lgan nisbatni ifodalaydi;*
- d)  $a + b + v$ .*

**11. AQSHda potensial qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun va o'z navbatida kredit riskini minimallashtirish uchun 5 “C” nomli usul qo'llaniladi. Unga binoan “C1” :**

- a) mijoz reputatsiyasini anglatadi;*
- b) mijozning to'lov qobiliyatini anglatadi;*
- c) mijozning kapital hajmini anglatadi;*
- d) ssudaning ta'minlanganlik darajasini anglatadi.*

**12. Bank mijozning kreditga layoqatliligini baholashda quyidagi mablag'larning qaysi biri chuqur o'rganilib chiqiladi?**

- a) joriy kassa tushumlari;*
- b) aktivlarni sotish;*
- c) moliyalashtirishning boshqa manbalari (aytaylik, pul bozoridagi qarzlari);*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**13. Birinchi guruh likvid mablag'lariga:**

- a) muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar kiradi;*
- b) hisob-kitob va schyotidagi pul mablag'lari kiradi;*
- c) budjet bilan hisob-kitoblar kiradi;*
- d) ishlab chiqarish zaxiralari va kelgusi davr xarajatlari kiradi.*

**14. Ikkinchi guruh likvid mablag'lar, ya'ni tez pulga aylanadigan talablarga:**

- a) hisob-kitob va valuta schyotidagi pul mablag'lari kiradi;*
- b) boshqa schyotlardagi va kassadagi pul mablag'lari kiradi;*
- d) muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar kiradi;*
- d) tayyor mahsulotlar kiradi.*

**15. Uchinchi guruh likvid mablag'lar, ya'ni tez sotiladigan tovar moddiy qimmatliklarining zaxiralari bo'yicha talablarga:**

- a) tovarlar kiradi;*
- b) ishonchli debitorlik va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar kiradi;*
- c) korxonalar bilan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan boshqa*



*operatsiyalar bo'yicha xizmatchilar bilan hisob-kitoblar kiradi;*  
*d) ta'rischilar hamda boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.*

**16. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti:**

*a) mijozning o'z mablag'lari bilan moliyalashtirish manbalari tarkibida necha foizni tashkil qilishni ifodalaydi;*

*b) korxonada faoliyatining qaysi bir qismi o'z kapital hisobidan moliyalashtirilganini ifodalaydi;*

*c) muayyan davr ichida aylanma mablag'larning necha marta aylanganligini ifodalaydi;*

*d) a + b.*

**17. Korxonani kreditlash uchun o'z mablag'lari manbalari bilan ta'minlanganligi:**

*a) 25 foizdan kam bo'lmasligi kerak;*

*b) 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak;*

*c) 40 foizdan kam bo'lmasligi kerak;*

*d) 50 foizdan kam bo'lmasligi kerak.*

**18. Agar korxonaning asosiy vositalari va aylanmadan tashqari aktivlari o'z mablag'laridan yuqori bo'lsa, u holda korxonada balans:**

*a) likvid ekanligini ko'rsatadi;*

*b) nolikvid ekanligini ko'rsatadi;*

*c) qisman likvid ekanligini ko'rsatadi;*

*d) qisman nolikvid ekanligini ko'rsatadi.*

**19. Mijozning kreditni o'z vaqtida qaytara olish layoqatliligini bilish uchun bank nimalarga e'tibor berishi kerak?**

*a) mijozning samimiyligi, rostgo'yligi va jiddiyligi;*

*b) mijozning kredit olish qobiliyati;*

*c) mijozning kreditdan foydalanish sharoitlari;*

*d) a + b + c.*

**20. Kredit oluvchining kredit olishga layoqatliligini qanday hujjatlar tasdiqlashi mumkin?**

*a) mijoz va kafillarning haqiqiyligi;*

*b) mijozning yuridik maqomga ega ekanligini tasdiqlovchi Nizom;*

*c) mijozning faoliyati, ishlab chiqaradigan mahsuloti, uni xomashyo bilan ta'minlovchilari haqidagi notarial tasdiqlangan hujjatlar to'plami;*

*d) noto'g'ri javob yo'q.*

**21. Quyida qayd qilingan manbalarning qaysi biri mijoz olgan kreditni qoplash uchun asosiy manba bo‘lishi mumkin?**

- a) naqd pul oqimi;
- b) aktivlarni sotish va naqd pulga aylantirish;
- c) qimmatli qog‘ozlar yoki majburiyatlar chiqarish orqali mablag‘larni jalb qilish;
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

**22. Pul oqimi – bu:**

- a) mijozning o‘z xarajatlarini qoplash va qarzlarini o‘z resurslari hisobidan to‘lash qobiliyatini baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichdir;
- b) kreditorlik qarzlarining ko‘payishini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir;
- c) turli passivlarning kamayishini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir;
- d) barcha to‘lovlarni tavsiflovchi ko‘rsatkichdir.

**23. Pul oqimidagi kirim qismiga nimalar kiradi?**

- a) barcha to‘lovlar;
- b) mazkur davr ichida olingan foyda;
- c) aksioner kapitalining chiqimi;
- d) kreditorlik qarzlarining kamayishi.

**24. Pul oqimidagi chiqim qismiga nimalar kiradi?**

- a) soliqlar;
- b) foizlar;
- c) dividendlar;
- d) mazkur davr uchun ajratilgan amortizatsiya ajratmalari.

**25. Umumiy pul oqimi va qarz majburiyatlarining nisbatiga asoslanib mijozning kreditga layoqatlilik darajasini tavsiflovchi koeffitsiyentlarning qaysi biri 1-klassga taalluqli?**

- a) 0,75;
- b) 0,30;
- c) 0,25;
- d) 0,20.

## 6.5. Nazorat uchun savollar

1. Mijozning kreditga layoqatliligi deganda nimani tushunasiz?
2. Mijozning kreditga layoqatliligini baholashda qanday moliyaviy ko'rsatkichlar qo'llaniladi?
3. Kreditga layoqatlilikni baholashda qanday ma'lumot manbalaridan foydalaniladi?
4. AQSh va Buyuk Britaniyada qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlashda nimalarga e'tibor beriladi?
5. Qarz oluvchining likvidligi deganda nimani tushunasiz?
6. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti nima uchun hisoblaniladi?
7. Moliyaviy barqarorlik yoki mustaqillik koeffitsiyenti nimani ifodalaydi?
8. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlar qanday sinflarga ajratiladi?
9. Balans ma'lumotlariga asoslanib mijozning kreditga layoqatliligi qanday aniqlanadi?
10. Qaysi holda mijozni nolikvid balansga ega deb aytish mumkin?
11. Mijozning kreditni o'z vaqtida qaytara olish layoqatliligini bilish uchun bank nimalarga e'tibor berishi lozim?
12. Kredit oluvchining xarakterini bilish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
13. Kredit oluvchining kredit olishga layoqatliligini qanday hujjatlar tasdiqlashi mumkin?
14. Qanday pul mablag'lari mijozning layoqatliligiga ishonch hosil qildirishi mumkin?
15. Qanday ko'rsatkich mijozning ta'minlanganlik darajasini ifodalaydi?
16. Qanday ko'rsatkichlar mijozning holati va sharoitini ifodalaydi?
17. Mijozning kredit olishga layoqatliligi qaysi ko'rsatkichlar yordamida nazorat qilinadi?
18. Mijozning talabnomasini baholashda kredit mutaxassislari va bank tadqiqotchilari qaysi ma'lumot va manbalarga tayanadilar?
19. Pul oqimi nima?
20. Pul oqimi tahlili qanday amalga oshiriladi?
21. Amaliy riskni tahlil qilish yordamida mijozning kreditga layoqatliligini baholash mumkinmi?

22. Amaliy risk mezonlari qanday ballar bilan baholanadi?
23. Kichik korxonalarining kreditga layoqatlilik darajasi qanday baholanadi?
24. Jismoniy shaxsning kreditga layoqatliligi qanday baholanadi?

## 7-bob. KREDIT SHARTNOMALARI

### 7.1. Shartnoma to‘g‘risida tushuncha va uning turlari

[236]. Qadimda odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni berilgan so‘zga ishonch, lafz, halollik singari insoniy fazilatlar tartibga solib turgan. Zamonlar o‘zgarishi, taraqqiyot tezlashuvi bilan mazkur munosabatlar ham takomillashib bordi. Fan va texnika asriga kelib, axborot almashuvining mislsiz sur‘atda oshishi o‘zaro aloqalarning yangi bosqichiga yo‘l ochdi.

Ahdlashuvlarni o‘zaro tenglik va adolat me‘yorlariga asoslangan yangi turi – shartnomalar vujudga keldi va mantiqiy ravishda jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Bugungi kunda shartnoma mahsulot oluvchi bilan uni yetkazib beruvchi o‘rtasidagi ahdlashuv bo‘lib, unda bir tomon mahsulotni o‘z vaqtida yetkazib berish, ikkinchi tomon esa o‘z vaqtida pulini to‘lash majburiyatini oladi. Mazkur hujjatda tomonlarning huquq va majburiyatlari yozma ravishda rasmiylashtiriladi. Eng muhimi, unda talab va taklif mutanosibligi, ya’ni o‘zaro manfaatlar o‘z aksini topadi. Yanada soddaroq qilib aytganda:

**Shartnoma** – bu tomonlar o‘rtasida o‘rnatilgan yoki to‘xtatilgan (bekor qilingan) huquq va majburiyatlar to‘g‘risidagi kelishuv, yo bitim. Tomonlar barcha muhim bandler bo‘yicha kelishgan holdagina (qonun talab etgan tarzda) shartnoma qabul qilingan hisoblanadi. Xalqimizda: «Sochganda so‘zlashmasang, xirmonda bo‘zlashasan» degan maqol bor.

Dehqonlar hayotidan olingan ushbu hikmatning to‘g‘ri ma‘nosi shuki, biror kishi bilan sheriklashib dehqonchilik qiladigan bo‘lsang, u bilan ekin ekilayotganidayoq kelishib ol, agar boshida shartlashmasang, hosil pishib, xirmon ko‘tarilgach, uni bo‘lib olishda sheriging bilan gaping bir joydan chiqmay qolishi mumkin.

Maqolning majoziy ma‘nosiga kelsak, har bir ishni, birov bilan biror narsa xususida kelishuv, bitishuv asosida puxta qilmoq kerak ekanligi anglashiladi.

Bu esa har qanday shartnomaviy hujjatning birlamchi shartidir. Shartnomaviylik esa jahon iqtisodiy taraqqiyotida sinovdan o‘tgan, erkin bozor munosabatlari yo‘lini tanlagan mamlakatlarda rivojlanishning muhim omili, sharti va garovidir. Qolaversa, u iste‘mol bozorini to‘ldirish, aholi farovonligi va dasturxon to‘kinligi kafolati. Shartnomaviylik o‘zining erkinligi va mustaqil belgilanishi bilan demokratik

tamoyillarga mosdir.

Shunday qilib, shartnoma xo‘jalik yurituvchi subyekt deb ataluvchi ikki yoki bir nechta jismoniy va yuridik shaxsning, barcha mulk shaklidagi korxonalar, tadbirkorlar, tayyorlovchi va xizmat ko‘rsatuvchi, fermer va dehqon xo‘jaliklari, pudratchi va xususiy tadbirkor, xullas barchaning o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini o‘rnatuvchi hujjat hisoblanadi. U taraflar o‘rtasida majburiyatlar kelib chiqishiga asos bo‘ladi, unga kirishuvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini rejalashtirishga xizmat qilib, inqirozga yuz tutishdan asraydi, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati va iste‘molchiga yetkazilishi ta‘minlanishini kafolatlaydi. Tabiiyki, bu ish umumiy iqtisodiyotimizga muhim, samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

[237]. Bugungi kunda Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, xo‘jalik ishlarini yuritish qonunlari majmuasi, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar to‘g‘risidagi qonunlar, boshqa me‘yoriy hujjatlar shartnoma munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquqiy manbalar hisoblanadi. Bular qatoriga O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29 – avgustdagi «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi Qonun ham kiradi. Ushbu qonunning 10-moddasida shartnomada quyidagi bandlarning bo‘lishi shartligi ta‘kidlanadi:

- shartnoma predmeti;
- yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosi;
- shartnomaning bajarilish muddatlari;
- hisob-kitob qilish tartibi;
- taraflarning majburiyatlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligi;
- nizolarni hal etish tartibi;
- shartnoma tuzilgan sana va joy.

Bulardan tashqari, bunday turdagi shartnomalar uchun qonun hujjatlarida belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko‘ra o‘zaro kelishuviga erishish zarur bo‘lgan boshqa muhim shartlar belgilanishi lozim.

Ushbu shartlarning xo‘jalik shartnomalariga to‘liq kiritilmasligi shartnomalarni ijro etish jarayonida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

[238]. Xo‘jalik yuritish sohasidagi shartnoma munosabatlarining

asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik shartnomalari tuzishning erkinligi;
- taraflarning o‘zaro manfaatdorligi;
- shartnoma intizomiga rioya qilish;
- taraflarning o‘zaro mulkiy javobgarligi.

Shartnoma taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo‘llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilish) orqali tuziladi. Ya’ni, shartnoma tomonlarning o‘zaro kelishuvlari asosida tuziladi. Taraflar o‘zaro tenglik tamoyiliga bo‘ysunadilar. Shuning uchun shartnomani tuzishda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat erkin harakat qilib fuqarolik huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari bo‘ladilar.

Shartnomani bajarishda har ikkala taraf o‘zaro javobgar hisoblanadilar. Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf:

- boshqa tarafga yetkazilgan zararni to‘laydi;
- yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmat bahosining 50 foizidan oshib ketmaydi.

Penyani to‘lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to‘liq yetkazib bermaslik yoki xizmatlarni ko‘rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

To‘lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek, hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to‘lov shartnomasini taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o‘zi to‘lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o‘z vaqtida to‘lanmaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to‘laydi (qarang: «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnoma-huquqiy bazasi to‘g‘risida» gi Qonunning 27-34 moddalari).

Prezidentimiz I.Karimov: «Hech bir shartnomadan xo‘jalik zarar ko‘rmasligi, balki o‘zi uchun manfaat topishi, bundan buyog‘iga ishlab chiqaruvchilar bilan munosabatni qizitish, rag‘batlantirish, ularga

erkinlik berish asosida qurish lozim», – deb juda o‘rinli ta’kidlaydi.

[241]. Bugun biz markaziy rejalashtirish tizimidan voz kechib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ish yuritmoqdamiz. Bu tizimda shartnomalar – turli mulk shaklidagi korxonalar, shuningdek, tadbirkorlar hamda boshqaruv organlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Hozir kontraktatsiya, fyuchers, xizmat ko‘rsatish, oldi-sotdi kabi shartnoma turlari yetakchi o‘rin egallamoqda (50-jadval).

### 50-jadval.

#### Shartnoma turlari

№	Shartnoma turlari	Tushunchalar
1	2	3
1.	<p>Oldi-sotdi shartnomasi</p> <p><input type="checkbox"/> Chakana oldi-sotdi shartnomasi</p> <p><input type="checkbox"/> Mahsulot yetkazib berish shartnomasi</p>	<p><input type="checkbox"/> Bu shartnoma bo‘yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to‘lash majburiyatini oladi (FK, 386-modda).</p> <p><input type="checkbox"/> Bu shartnomaga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan sotuvchi sotib oluvchiga shaxsiy maqsadlarda, ro‘zg‘orda yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalaniladigan tovarni topshirish majburiyatini oladi.</p> <p>Chakana oldi-sotdi shartnomasi ommaviy hisoblanadi (FK, 425-modda).</p> <p>Bu degan so‘z, sotuvchi sotish uchun taklif etgan tovarni buning uchun tegishli haqni to‘lashga rozi bo‘lgan har qanday shaxs sotib olishga haqli (agarda qonunga zid bo‘lmasa, masalan, spirtli ichimliklar yosh bolalarga sotilishi mumkin emas).</p> <p><input type="checkbox"/> Bunga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan mahsulot yetkazib beruvchi – sotuvchi shartlashilgan muddatda yoki muddatlarda o‘zi ishlab chiqaradigan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchiga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun yoki shaxsiy, oilaviy maqsadlarda, ro‘zg‘orda va shunga o‘xshash boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ularning haqini to‘lash majburiyatlarini oladi (FK, 437-modda).</p>



	<input type="checkbox"/> Kontraktatsiya shartnomasi	<input type="checkbox"/> Unga muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga – tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to‘lash (to‘lab turish) majburiyatini oladi. (FK, 465-modda).
	<input type="checkbox"/> Energiya ta‘minoti shartnomasi  <input type="checkbox"/> Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasi  <input type="checkbox"/> Korxonani sotish shartnomasi	<input type="checkbox"/> Unga muvofiq, energiya bilan ta‘minlovchi tashkilot tutashtirilgan tarmoq orqali abonentga (iste‘molchiga) energiya berib turish majburiyatini oladi, abonent esa qabul qilingan energiya haqini to‘lash, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan energiya iste‘mol qilish tartibiga rioya etish, tasarrufidagi energetika shoxobchalaridan foydalanish xavfsizligini hamda o‘zi foydalanadigan energiya iste‘mol qiluvchi asbob va uskunalarning sozligini ta‘minlash majburiyatini oladi (FK, 465-modda). <input type="checkbox"/> Bunga binoan sotuvchi yer uchastkasi, bino, inshoot, kvartira yoki boshqa ko‘chmas mulkni sotib oluvchiga mulk qilib topshirishni o‘z zimmasiga oladi. Sotib oluvchi esa buning uchun tegishli haqni to‘lashi lozim. FKning 83-moddasiga binoan ko‘chmas mulk yerosti boyliklari, ko‘p yillik dov-daraxtlar, shuningdek, binolar va inshootlardan iborat. <input type="checkbox"/> Unga muvofiq sotuvchi sotib oluvchiga butun korxonani mulkiy majmua sifatida topshirish majburiyatini oladi sotib oluvchi esa buning uchun tegishli haqni to‘lashi lozim. Korxonani sotib oluvchi shaxs tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lishi shart emas.
2.	Ayirboshlash shartnomasi	<input type="checkbox"/> Unga ko‘ra shartnomada qatnashuvchi har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo‘li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi (FK, 497-modda). Uning mohiyati shundaki, shartnoma predmeti bo‘lgan biron bir tovar ikkinchi tarafga, odatdagidek, mazkur tovar qiymatini umumiy ekvivalent bo‘lgan yoki unga deyarli teng keladigan boshqa bir tovarga ayirboshlanadi. Shu sabab ayirboshlash <b>barter</b> deb ham yuritiladi.
3.	Hadya, xayr-ehson shartnomasi	<input type="checkbox"/> Unga ko‘ra bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o‘ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni

		<p>beradi yo berish majburiyatini oladi yoxud uni o‘zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoinki ozod qilish majburiyatini oladi (FK, 502-modda).</p> <p>Uning mohiyati shundaki, bunda mulk tekin topshiriladi, ya’ni hadya qiluvchining tasarrufida bo‘lgan ashyo hadya oluvchiga mol-mulk qilib o‘tkaziladi.</p>
4.	Renta shartnomasi	<p><input type="checkbox"/> Unga muvofiq, bir taraf (renta oluvchi) ko‘chmas yoki ko‘char mol-mulkni boshqa tarafga (renta to‘lovchiga) beradi, renta to‘lovchi esa olingan mol-mulk o‘rniga renta oluvchiga vaqt-vaqti bilan belgilangan pul summasiga yoki uni ta’minlash uchun boshqa shaklda mablag‘ berish tarzida renta to‘lash majburiyatini oladi.</p> <p>Renta shartnomasi real xarakterga ega, chunki unga muvofiq renta to‘lovchiga mulk o‘tkaziladi. Mulq o‘tkazilgandan so‘ng renta oluvchiga shartnoma bo‘yicha hech qanday majburiyat yuklanmaydi, oddiy qarz shartnomasi kabi faqat haq-huquq qoladi. Demak, renta bir tomonlama shartnomadir.</p>
5.	Mulk ijarasi shartnomasi	<p><input type="checkbox"/> Bunga binoan bir taraf ijaraga beruvchi, ma’lum bir mulkni ikkinchi tarafga - ijaraga oluvchi haq baravariga vaqtincha foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Ijarachi shartnoma muddati tugashi bilan ijara mulkini qaytarishga majbur bo‘ladi.</p> <p>Mulk ijarasi shartnomasi arenda yoki prokat deb ham ataladi.</p>
6.	Lizing shartnomasi	<p><input type="checkbox"/> Unga binoan lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf, lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig‘iga binoan, ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) uchinchi taraf bilan undan o‘z mablag‘i hisobiga lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi. Lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oladi (FK 587-modda).</p> <p>Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir.</p>
7.	Uy-joy ijarasi shartnomasi	<p><input type="checkbox"/> Unga asosan bir taraf - ijaraga beruvchi ikkinchi tarafga - ijaraga oluvchiga turar joyni yashash uchun haq baravariga topshirish majburiyatini oladi.</p>
8.	Pudrat shartnomasi	<p><input type="checkbox"/> Unga binoan bir taraf (pudrat) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig‘iga binoan ma’lum bir ishni bajarish va uning natijasida buyurtmachiga</p>

		belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasida qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi (FK, 631-modda).
9.	Topshiriq shartnomasi	<input type="checkbox"/> Bunga asosan bir taraf vakil, ikkinchi taraf topshiriq beruvchining nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo‘yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi. Agar topshiriqni bajarganlik uchun, qonun hujjatlarida yoki topshiriq shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, topshiriq beruvchi ishonchli vakilga haq to‘lashi shart (FK, 818-modda).
10.	Vositachilik shartnomasi	<input type="checkbox"/> Bunga asosan bir taraf (vositachi) ikkinchi tarafning (komitent) topshirig‘i bo‘yicha o‘z nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi. U yozma ravishda tuziladi. Misol uchun, fuqarolar o‘zlariga tegishli bo‘lgan hamda fuqarolik muomalasida bo‘lgan iste‘mol qilinadigan va iste‘mol qilinmaydigan buyumlar bilan vositachilik shartnomasi tuzish orqali operatsiyalarni amalga oshiradi.
11.	Xo‘jalik shartnomasi	<input type="checkbox"/> Agar shartnoma tuzayotgan tomonlardan biri ishlab chiqaruvchi bo‘lsa, bunday hujjat <b>xo‘jalik shartnomasi</b> hisoblanadi. Ushbu shartnomalarning asosiy maqsadi foyda olish bo‘lib, qonunchilikda shartnoma majburiyatlarini bajarmagani yoki lozim darajada ijro etmagani uchun qat‘iy javobgarlik belgilangan. Xo‘jalik shartnomalari yuzasidan paydo bo‘lgan nizolar xo‘jalik sudlarida hal etiladi.

## 7.2. Kredit va qarz shartnomalari

[242]. O‘zbekiston Fuqarolar kodeksining 744-moddasida kredit shartnomasining mohiyati quyidagicha bayon etilgan:

«Kredit shartnomasi bo‘yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kredit beruvchi, kreditor) ikkinchi tarafga (kredit oluvchi) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag‘lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to‘lash majburiyatini oladi».

Yuridik hujjat sifatida kredit shartnomasi har ikkala tomon o‘rtasidagi munosabatni muvofiqlashtiradi. Unda quyidagilar o‘z aksini

topadi:

- tomonlar nomi;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- kredit kelishuvining predmeti va shartlari;
- tomonlarning huquqlari va majburiyatlari;
- majburiyatlarni bajarishning huquqiy kafolatlari.

Bunday huquqiy kafolatlarga quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- qarz oluvchining yuridik maqomi (shakli);
- kreditni qaytarishni ta'minlovchi usullar (garov, kafolat, homiylik, vasiylik va hokazo);
- u yoki bu tomonning o'z majburiyatlarini bajarishdagi buzg'unchiligi uchun belgilanadigan sanksiya;
- kredit shartnomasini buzilish hollari.

**Qarz oluvchining yuridik maqomi: birinchidan**, qarz oluvchining to'lovga qobiliyatligini, **ikkinchidan**, faoliyat natijalariga javob beruvchi mas'ul kishilar doirasini aniqlash uchun muhimdir: bu jihat bank mijozini bankrot deb e'lon qilingan holatda yanada dolzarb tus oladi.

**Qarz oluvchining majburiyati:** mijozning kreditdan maqsadli foydalanish mas'uliyatiga, qarzni to'la va o'z vaqtida to'lash majburiyatiga, bank nazoratini amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarni taqdim etish shartlariga rioya qilish uchun zarurdir.

Kredit shartnomasi yozma shaklda tuziladi va tomonlar tomonidan imzolanadi. Unga korxonalar rahbari yoki shartnoma tuzishga vakolati bor shaxs imzo chekadi. Vakolat muddati uch yildan oshmagan bo'lishi kerak. Basharti, vakolat berilganligi to'g'risidagi ishonchnoma qog'ozida bu muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda bu vakolat ishonchnoma berilgan kundan bir yilgacha bo'lgan vaqt ichida kuchga ega bo'ladi. Shartnomaning huquqiy tomondan puxta bo'lishi uchun uni tuzishda bank yuristlarini kengroq jalb qilish lozim.

**[243]. Yuridik maqomiga binoan kredit shartnomasi** – har ikkala tomon kelishuvi va uning bajarilishini ifodalovchi hujjatdir. Bunda bir tomondan bank kredit berishni o'z zimmasiga olsa, ikkinchi tomondan mijoz uni o'z vaqtida qaytarish majburiyatini oladi. Kredit shartnomasining o'ziga xos xususiyati shundaki, bu yerda bank kredit operatsiyalarini bajarishda mijozning ishonchliligiga, unga bo'lgan ishonchga tayanadi. Kredit berish esa qarz oluvchining kreditga layoqatliligini va uni o'z vaqtida qaytara olishini o'rganishga

asoslanadi. Shu sababli kredit shartnomasi bo'yicha uchinchi shaxsga birinchi shaxs nomidan kredit olish huquqi berilmaydi. Bu tartib qonunchilikda o'z aksini topmaganligi sababli uni shartnomadan albatta shartlarning biri qatorida muhrlab qo'yish kerak.

Shu bilan bir qatorda shartnomaga binoan birinchi shaxs zimmasidagi qarzni uchinchi kishi zimmasiga o'tkazilishi mumkin (agar u birinchi mijoz zimmasidagi barcha qarz majburiyatlarini to'lashni o'z zimmasiga olsa).

Kredit shartnomasining yana bir xususiyati shundaki, garchi shartnomada yuridik jihatdan tomonlarning rasmiy teng huquqligi qayd qilingan bo'lsa-da, ammo bu yerda bank mavqeyining ustunligi saqlanib qoladi. Bu hol bankning o'z manfaati nuqtayi nazardan mijozga o'z tazyiqini namoyon qilishda, unga iqtisodiy samarasiz operatsiyalarni majburlab o'tkazishida namoyon bo'ladi. Masalan, kredit shartnomasida kredit berish sanasi pul mablag'larini mijoz hisobvarag'iga qayd qilingan kun sanasi emas, balki mijoz hisobvarag'iga ssuda provodka qilingan sana yoki bankning korrespondent hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqargan sana hisoblanadi.

[244]. Odatda kredit shartnomasining quyidagi bo'limlari mavjud:

- mijozning qarz majburiyati;
- kredit berish to'g'risidagi bitim;
- ta'minlanganlik;
- cheklovchi shartlar;
- mijoz tomonidan beriladigan kafolatlar;
- kredit shartnomasini bajarmaslik hollari.

Bank mijozga kredit berishga rozi bo'lsa, ular o'rtasida shartnoma tuziladi va imzolanadi. Birinchi bo'lib, olinayotgan kredit hajmiga **qarz majburiyati** imzolanadi. Qarz majburiyatida kreditga o'rnatilgan foiz miqdori va kreditni qoplash muddati ko'rsatiladi. Qarz majburiyati bilan birga yirik firma va kompaniyalar ko'chmas mulkni garovga qo'yish sharti bilan kredit shartnomasini imzolaydilar va bank bu shartnomaga asosan kelishilgan kredit hajmi miqdorida o'rnatilgan muddat ichida mijozga kredit berish majburiyatini oladi.

Beriladigan kreditlar ta'minlangan yoki ta'minlanmagan (ishonchga asosan) bo'ladi.

Ta'minlangan kreditlar mijoz mulkini garovga olish orqali beriladi. Garov tariqasida ko'chmas mulk, avtomobil, qimmatli qog'ozlar va boshqa likvid boyliklar berilishi mumkin.

□ Ishonchga tayanib beriladigan kreditlarga garov olinmaydi. Bunda asosan mijozning obro‘-e‘tibori, daromadlari darajasining yuqoriligi asosiy omil hisoblanadi.

Ko‘pgina kredit shartnomalarida banklar mijozlariga cheklanishlar belgilaydilar. Bu cheklanishlar ikki xil bo‘ladi:

**Tasdiqlangan cheklanishlar** mijozlardan, kelishilganiga ko‘ra, vaqti-vaqti bilan moliyaviy hisobotlarni bankka taqdim qilish, har qanday ta‘minotni sug‘urtalash, likvidlilik va kapitalning yetarlilik darajalarini saqlab turishni talab qiladi.

**Taqiqlangan cheklanishlarga** asosan mijozlar bankning ruxsatisiz boshqa moliyaviy faoliyatlarni amalga oshirmasliklari, qarz hajmini orttirmasliklari, aktivlarini sotmasliklari, o‘zlarining aksiyadorlariga yuqori darajada dividendlar to‘lamasliklari lozim va boshqalar.

Mijoz kredit arizasidagi ma‘lumotlarning barchasini kafolatlashi lozim. Kredit shartnomasiga asosan mijozga kafillik bera oladigan tashkilot, firma yoki jismoniy shaxsning nomi, mijoz tang ahvolda qolganda uning qarzini to‘lashga kafolat berishi to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot bo‘lishi kerak.

Kredit shartnomasida «Kredit shartnomasini bajarmaslik hollari» bo‘limi bo‘lib, mijoz shartnomani buzgan hollarda bank kreditni qaytarib olish uchun qanday huquq va vakolatlariga ega ekanligi yoritib beriladi. Bu bo‘limda shartnoma bajarilmagan hollarida kreditni qaytarib olish maqsadida ijro organlariga murojaat qilingan vaqtdagi sud va advokatlarga to‘laydigan barcha sarf-xarajatlar va chiqimlarni kim to‘lashi ko‘rsatiladi.

[245]. Qarz shartnomasi deb shunday shartnomaga aytiladiki, bunga asosan bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki unga xos alomatlar bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi. Qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, o‘shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga barobar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi (FK, 732-modda).

Qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Agar qarz summasi eng kam ish haqining o‘n barobaridan ortiq bo‘lsa, u holda fuqarolar o‘rtasidagi qarz shartnomasi oddiy yozma shaklda tuziladi. Shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lganida esa summasidan qat’iy nazar yozma shaklda tuzilishi shart.

Qarz shartnomasining oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi, biroq nizo chiqqan taqdirda taraflarni bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko'rsatmalari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qiladi.

Agar qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjat mavjud bo'lsa, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

**[246].** Qarz shartnomasining huquqiy belgilari quyidagilardan iborat:

□ Bu shartnoma real shartnoma sanaladi, chunki taraflar o'rtasida huquq va burchlar shartnoma predmeti bo'lgan pul yoki ashyoning topshirilishi paytidan e'tiboran vujudga keladi va shartnoma ham shu paytdan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi.

□ Qarz bir tomonlama shartnomalar guruhiga kiradi, chunki bu shartnoma yuzasidan bir taraf qarz beruvchi huquqlar olsa, ikkinchi tarafda - qarzdorda burchlar bo'ladi, jumladan, qarz beruvchi qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, qarzdor olingan qarzini qaytarishga majbur bo'ladi (FK, 735-modda).

□ Qarz shartnomasi fuqarolar o'rtasida agar bu qarzning summasi eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganida esa, qarz summasidan qat'iy nazar, yozma shaklda tuzilishi shart (FK, 733-modda).

□ Qarz mulkka nisbatan bo'lgan egalik huquqini yoki mulkni operativ boshqaruv huquqini o'tkazishga qaratilgan. Binobarin, qarzdor qarzga olingan narsaning aynan o'zini qaytarmasdan, balki olgan pulni yoki o'sha qarzga olingan narsaning xili, sifati va miqdori baravarida boshqa narsani qaytarishga majbur bo'ladi.

□ Qarz shartnomasi agar qonunda yoki qarz shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz beruvchi (yuridik shaxs yoki fuqaro) qarz oluvchidan qarz summasiga shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda foizlar olish huquqiga ega bo'ladi.

Qarz shartnomasini bajarish muddatlariga to'xtaladigan bo'lsak, agar qarz summasini qaytarish muddati shartnomada belgilangan bo'lmasa, qarz oluvchi uni qarz beruvchi qarzni qaytarish haqida talab qo'ygan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida qaytarishi kerak.

**[247].** Qarz va kredit shartnomalari o'rtasidagi umumiylik bilan

birga jiddiy farqlar ham mavjud.

**Birinchi**dan, kredit shartnomasi bo'yicha kreditor sifatida faqat maxsus subyektlar – bank yoki boshqa kredit tashkiloti qatnashadi.

**Ikkinchi**dan, kredit shartnomasi bo'yicha qarz oluvchi kreditorga foiz to'lashi shart.

**Uchinchi**dan, kredit shartnomasi faqat yozma shaklda tuziladi.

**To'rtinchi**dan, kredit shartnomasi real emas, balki **konsensual** shartnomalar guruhiga mansub. Shu sababli shartnoma tuzilgandan keyin u taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Ular o'rtasidagi umumiylik shundaki, qarz va kredit shartnomasi bo'yicha qarz bergan shaxs qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi, qarzdor esa o'z zimmasiga olgan qarzini qaytarishga burchli bo'ladi. Qarz va kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan sanksiya – ixtiyoriy bajarilmagan burchni majburiy ijro ettirishga qaratilgan.

Olingan qarz ixtiyoriy ravishda to'lanmaganligi uchun uni majburan undirish mumkin. Majburiyat yuzasidan qarzdor shaxs majburiyatlarini bajarmasligi bilan kreditorning obyektiv huquqini buzgan hisoblanadi.

Qarz va kredit shartnomasi majburiyatning bajarilishi bilan bekor bo'ladi. Qarz shartnomasi qarz beruvchi shartnomadan voz kechishi bilan ham bekor bo'lishi mumkin. Shuningdek, taraflarning kelishuvi bo'yicha ham bekor bo'lishi mumkin.

### **7.3. Bank omonatlari va hisobvarag'i shartnomalari**

[248]. Bank omonati shartnomasi shartnomaning alohida turlaridan biri bo'lib, unga ko'ra birinchi tarafdin (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib olgan ikkinchi taraf (bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to'lash majburiyatini oladi (FK, 759-modda).

Yuridik adabiyotlarda bank omonati shartnomasiga ayrim mualliflar qarz shartnomasining bir turi, **irregulyar saqlash** (pul, narsalarni tur belgilari bo'yicha saqlash) sifatida qaralar, qolganlar uni **qarz shartnomalari qismlarining majmuyi** deb hisoblaydilar.

Bank omonati shartnomasi real bo'lib, omonatchi (boshqa shaxs) bankka omonat puli summasini berayotgan vaqtda tuziladi. Omonatchi bankdan faqat omonat puli summasini va u bo'yicha foizlarini



qaytarishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi, o'z sherigi oldida hech qanday majburiyat olmaydi. Bank omonat puli summasini va u bo'yicha foizlarni to'lashi shart.

Shunday qilib, bank omonati shartnomasi bir tomonlama va haq evaziga tuziladigan mustaqil shartnoma bo'lib, uning ildizlari qarz shartnomasiga borib taqaladi. U bank (qarzdor) bilan omonatchi (kreditor) o'rtasidagi kredit munosabatlarini rasmiylashtiradi. Fuqaro bilan tuziladigan bank omonati shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi.

Demak, yuzaga kelgan munosabatlarga FKning 358-moddasida bunday shartnomalar to'g'risida ko'zda tutilgan umumiy qoidalar, xususan, xizmat ko'rsatuvchining shartnoma tuzishdan bosh tortishi taqiqlanishi, bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishini istisno etilishi, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tomonlar uchun majburiy bo'lgan qoidalarning chiqarilishi mumkinligi kabilar tatbiq etiladi.

[249]. Naqd pulsiz olib boriladigan hisob-kitob va kredit operatsiyalarini tashkil etish va amalga oshirishning zaruriy vositasi bank hisobvarag'ining alohida shartnomasini tuzish vaqtida vujudga keladi. Bank hisobvarag'ini buxgalteriya hujjati deb ham qarash mumkin, chunki unda muayyan shaxsga tegishli pul mablag'lari va moddiy boyliklar harakati aks ettiriladi.

Biroq o'z shakliga ko'ra, bu, avvalambor, shartnoma hisoblanadi. Bunday hisobvaraqlar depozit, hisob-kitob, joriy valuta, kapital qo'yilmalarni moliyalash hisobvaraqlari bo'lishi mumkin, ular hisob-kitob operatsiyalari uchun mo'ljallangan. Ularni ochish uchun hamma vaqt bank hisobvarag'i shartnomasi tuziladi. Ayni ular FKning 44-bobi qoidalari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik kodeksida bank hisobvarag'i shartnomasiga mustaqil shartnoma sifatida qaraladi. Uning 771-moddasida bu shartnomaga shunday ta'rif berilgan:

«Bank hisobvarag'i shartnomasi bo'yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit muassasasi (bank) ikkinchi tarafning-mijozning (hisobvaraq egasining) hisobvarag'iga tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvaraqdan tegishli summalarini o'tkazish va to'lash hamda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini bajarish majburiyatlarini oladi».

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bank hisobvarag'i shartnomasi **konsensual** shartnoma ekan, chunki u hisobvaraqa ochilayotgan vaqtda uning egasi hisobvaraqaqqa mablag' qo'yish-qo'yimasligiga bog'liq emas. Agar tomonlar shartnomaning barcha mavjud shartlari bo'yicha kelishib olishga erishsalar, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Bank hisobvarag'i shartnomasi uning qatnashchilari, huquq hamda majburiyatlarga ham ega bo'lganligi tufayli ikki taraflama shartnoma hisoblanadi. Bu agar tomonlar kelishuvida boshqacha tartib o'rnatilgan bo'lmasa, to'lovli shartnomadir (FK, 781-modda).

Bankda mijozning hisobvaraqdagi mablag'laridan o'z maqsadlarida foydalanish huquqi bo'ladi, bunda u mijozga ushbu mablag'lardan hech qanday to'siqsiz tasarruf etish huquqini kafolatlaydi. Bank mijozning pul majburiyatlaridan foydalangani uchun unga shartnomada belgilangan miqdorda foizlar (mukofot puli) to'laydi.

Bank omonati shartnomasida to'lanadigan foizlar miqdori haqida shart bo'lmagan taqdirda, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan miqdorda foizlar to'lashi shart (FK, 763-734 moddalar). Mukofot summasidan (odatdagi hisobvaraqa) foizlar mijozning hisobvarag'iga har chorakda kiritiladi. Mijoz bankning hisobvaraqa turgan pul mablag'lari bilan operatsiya qilish bo'yicha xizmatlariga bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilgan shartlar asosida haq to'lashi shart. Bu haq bank tomonidan har oyning oxirida mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan undirib olinadi (FK, 780-modda). Bunda bankning mijozga va mijozning bankka o'zaro muqobil talablari yuzaga kelishi mumkin, ular bir-birlarining talablarini hisobga olish yo'li bilan bank tomonidan bekor qilinadi (FK, 782-modda).


Bank hisobvarag'i shartnomasining o'ziga xosligi shundaki, na bank, na yuridik shaxs - mijoz uni tuzishdan bosh tortishga haqli emas. Mazkur holda mijozning majburiyati yuridik shaxslarning hisob-kitoblarni naqd pulsiz tartibda amalga oshirish to'g'risidagi qoidalardan kelib chiqadi. Bankning shartnoma tuzish majburiyati uning qonunda ko'zda tutilgan subyektiv xususiyatlaridan kelib chiqadi (FK, 775-modda).

**[250]. Shartnoma tomonlari** – bank (shu jumladan, litsenziyaga ega bo'lgan kredit muassasasi) va mijoz (hisobvaraqa egasi)dir. Bu shartnomada xizmat ko'rsatuvchi hamma vaqt bank yoki bunday turdagi harakatlar (bitimlar)ni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan

kredit muassasasi bo'radi. Mijoz sifatida har qanday yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.

**Shartnoma predmeti** – shartnoma bilan kelishilgan operatsiyalarni amalga oshirish uchun mijozning bankdagi hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'laridir. Bank o'z mijozlarining ko'pincha naqd pulsiz shaklda, hisobvaraqdagi yozuv shaklida mavjud bo'lgan pul mablag'larini tom ma'noda aytganda, saqlamaydi. Shuningdek, bank omonati shartnomasi kabi bank bilan mijoz o'rtasida oddiy huquqiy munosabatlar emas, balki majburiyatli huquqiy munosabatlar tarkib topadi.

Mijozning huquqiy maqomi va uning hisobvarag'i kiritilgan pul mablag'lari bilan amalga oshirilgan operatsiyalar doirasiga qarab bank hisobvaraqlari quyidagi turlarga bo'linadi (35-chizma).



**35-chizma.** Bank hisobvarag'i turlari.

**Asosiy hisobvaraqlar** hisob-kitob hisobvarag'i bo'lib, u tijorat tashkilotlariga to'lovlarni to'lash, kreditlar olish, tushumlarni kiritish va bank hisobvarag'i shartnomada ko'zda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish uchun ochiladi. Hisob-kitob varaqlari ko'pgina tijorat tashkilotlariga (fondlar, ko'ngilli birlashmalar, matlubot kooperatsiyalari nafaqat mulk egasi, balki boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan muayyan turdagi muassasalarga) ochiladi. Hisob-kitob varaqlari yuridik shaxs ariza iltimosnomasi bilan uning filiali va vakolatxonasiga ham ochilishi mumkin.

**Joriy hisobvaraqlar** ayrim muassasa, filial, vakolatxona, bo'linmalarga hamda tijorat tashkiloti bo'lmagan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalariga ochiladi. Bunday varaqlar faqat cheklangan hisob-kitob operatsiyalarini, asosan, mehnatga haq to'lash va ma'muriy xo'jalik xarajatlari bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi.

**Byudjet hisobvaraqlari** budjet mablag‘larini tasarruf etish huquq berilgan subyektlarga (kreditlarni tasarruf etuvchilar – hukumat idoralari, ma’muriyatga) ochiladi.

**Vakillik (korrespondentlik) hisobvarag‘i** – bank hisobvarag‘i shartnomasi turlaridan biri bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati subyekt tarkibiga bog‘liqligidadir. Ya’ni, bu shartnomada nafaqat bank muassasalari tomonlar bo‘la oladi (FK, 789-modda). Vakillik hisobvaraqlari **kontokorrent** hisobvaraqlarning bir turidir.

**Kontokorrent hisobvaraqlarni** rasmiylashtirish vaqtida bank hisobvaraq egasini, unda mablag‘lar mavjud bo‘lmagan yoki yetarlicha bo‘lmagan holda, kreditlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

[251]. Bank hisobvarag‘i shartnomasi oddiy yozma shaklda bo‘ladi. U hisobvaraq ochish va shartnoma tuzish jarayoni bilan bog‘liq.

Hisob-varaq ochish uchun mijoz bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- hisobvaraq ochish to‘g‘risida ariza;
- yuridik shaxs tuzish to‘g‘risidagi qaror loyihasi (ta’sis shartnomasi);
- mijoz rahbari va bosh buxgalterining imzo namunalari qo‘yilib, muhr izi tushirilgan varaqa.

Bank amaliyotida bunday shaxslarni **identifikatsiyalashning** yangi vositalari yaratilgan bo‘lib, shartnomada elektron to‘lov vositalari, kadrlar, parollar va hisob varaqda turgan pul mablag‘larini tasarruf etish huquqini tasdiqlaydigan boshqa axborot tashuvchi vositalardan foydalanish ko‘zda tutilishi mumkin.

Qonunchilikda yuridik shaxsga hisobvaraq ochish uchun majburiy bo‘lgan boshqa hujjatlar belgilangan. Mijoz tomonidan hisobvaraq ochish to‘g‘risida ariza berish **oferta** (shartnoma tuzish uchun taklif) bo‘lib, bank rahbarining bunga ruxsat berish to‘g‘risidagi yozuvi **aksept** (shartnoma tuzishga rozilik)dir.

Bank hisobvaraqlarni ochishni rad etishga haqli emas, ana shunday rad etishga bank xizmati ko‘rsatishga qabul qilish imkoniyati yo‘qligi sabab bo‘lgan hollar bundan mustasno (FK, 775-modda).

Bankka hisobvaraq ochish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar to‘plami (paketi)ni taqdim etgan va asossiz rad javobi olgan har qanday shaxs FKning 377-moddasi 6 qismida belgilangan tartibda uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi taraf uni shartnoma tuzishga majbur qilish talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli. Bundan tashqari, mijoz bankidan

shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortib, unga yetkazilgan zarar oʻrnini qoplashni talab qilishga haqli.

Bank hisobvaragʻi shartnomasini tuzish amaliyotida ikki usul:

□ bankning standart blankasida yagona hujjat tuzish va uni imzolash;

□ bank rahbarining ruxsat imzosini qoʻyish yoʻli bilan amalga oshiriladi. Shartnoma tuzish tegishli hisobvaraqlarni ochishni taqozo etadi.

Bank hisobvaragʻi shartnomasini bekor qilish nafaqat umumiy qoidalarga asosan, balki bir tomonlama ham amalga oshiriladi. Bank hisobvaragʻi shartnomasi mijozning arizasiga muvofiq istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin. Bankning talabiga koʻra, bank hisob varagʻi shartnomasi qonunda belgilangan quyidagi ikki muayyan holda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

□ mijozning hisobvaragʻida saqlanayotgan pul mablagʻlari summasi bank qoidalariga mos kelmasa yoki shartnomada koʻzda tutilgan eng kam miqdoridan oz boʻlsa, agar bunday summa bank bu haqda ogohlantirgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa;

□ agar shartnomada boshqa muddat nazarda tutilgan boʻlmasa, ushbu hisobvaraqlar boʻyicha bir yil davomida operatsiyalar qilinmagan boʻlsa, hisobvaraqlardagi pul mablagʻlarining qoldigʻi mijozning tegishli yozma arizasi olinganidan keyin kechi bilan etti kun ichida mijozga beriladi yoki uning koʻrsatmasiga muvofiq boshqa hisobvaraqlarga oʻtkaziladi.

Bank hisobvaragʻi shartnomasi yuridik shaxs qayta tashkil etilganida oʻzgartiriladi, bunda hisobvaraqlar qayta rasmiylashtiriladi. Bank hisobvaragʻi shartnomasi yuridik shaxs tugatilgan yoki mijoz fuqaro vafot etgan taqdirda tugatiladi. Shartnomani buzish yoki toʻxtatish mijoz hisobvaragʻini yopish bilan tugallanadi.

**[252].** Bank hisobvaragʻi shartnomasi mazmunini bank bilan mijozning hisobvaraqlari huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Bankning asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

□ Mijoz uchun bank qonunda, qonunga muvofiq belgilab qoʻyilgan bank qoidalarida va bank amaliyotida qoʻllanadigan ish muomalasi odatlarida ushbu turdagi hisobvaraqlar uchun belgilab qoʻyilgan operatsiyalarni amalga oshirishi shart (FK, 777-modda).

□ Bank sirini saqlashi shart. Bank mijozning topshirigʻi boʻyicha mijozga tushgan pul mablagʻlarini qabul qiladi va hisobvaraqlarga kiritadi, mijozning mablagʻlarini hisobvaraqlardan oʻtkazish, naqd pullarni hisob

varaqdan berish to'g'risidagi farmoyishlarni bajaradi.

Bank mijoz pul mablag'laridan foydalanish yo'llarini nazorat etish va mijozning o'z ixtiyoriga ko'ra pul mablag'larini tasarruf etish huquqini qonunda yoki shartnomada ko'zda tutilgan ravishda cheklashga haqli emas. Mijoz bankka hisob-kitoblarni amalga oshirish, pul mablag'larini depozitga o'tkazish, hisobvaraqdan chiqarish to'g'risida ko'rsatma beradi. Mijoz hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi (FK, 778-modda).

Bank tegishli to'lov hujjati bankka tushgan kunning ertasidan kechiktirilmasdan tushgan pul mablag'larini hisobvaraqa kiritib qo'yishi shart. Tegishli hisob-kitob hujjati kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirilmasdan bank mablag'larini hisobdan chiqarish yoki hisob-kitob hujjatlarini boshqa bankka jo'natish yo'li bilan mijozning topshiriqnomasini bajara boshlashi kerak. Mijozning hisobvaraqdan mablag'larni berish to'g'risidagi farmoyishlari ham xuddi shunday muddatlarda bajarilishi kerak.

Agar mijoz hisobvarag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lmasa, bank uning topshirig'ini bajarmasligi lozim. Ammo bank hisobvarag'i shartnomasida hisobvarag'ida pul mablag'lari yo'q bo'lgan taqdirda ham to'lovlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin. Bu holda bank mijozga kredit beryapti, deb hisoblanadi. Mijozning bank oldidagi qarzi vujudga keladi va bu holda bank bilan mijoz o'rtasidagi munosabatlarga qarz va kredit to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi (FK, 779-modda).

Bank hisobvarag'i va bank omonati, hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalar hamda mijoz haqidagi ma'lumotlar sir saqlanishini kafolatlaydi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat mijozlarning o'zlariga yoki ularning vakillariga berilishi mumkin (FK, 786-modda).

Ma'lumotlar faqat sud va sud xo'jaliklariga (sudyalarga), davlat soliq xizmat idoralariga, bojxona idoralariga va surishtiruv, tergov organlariga prokurorning roziligi bilan berilishi mumkin. Mijoz fuqaro hisobvarag'idan ma'lumotlar u vafot etgan taqdirda merosxo'rlariga, shuningdek, notarius va konsulxona muassasalariga beriladi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bank tomonidan oshkor qilingan taqdirda huquqlari buzilgan, mijoz keltirilgan zararning o'rnini qoplashni bankdan talab qilishga haqli (FK, 786-modda). Xuddi shunday javobgarlik bank sirini oshkor qilgan bank xodimlari zimmasiga ham yuklatiladi (FK, 798-modda).

Mijoz hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida bank qoidalariga rioya qilish va (agar bank hisob varag'i shartnomasida ko'zda tutilgan bo'lsa) hisob varaqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha bank xarajatlarini to'lashi lozim.

Faqat mijozning farmoyishiga asosan bank pul mablag'larini hisobvaraqdan o'chiradi (qonunda, shartnomada ko'zda tutilgan va sud qarori bilan amalga oshirilgan hollar bundan mustasno). Agar mijozning hisobvarag'idan mablag'larni o'chirish qonunga asosan amalga oshirilayotgan bo'lsa, uni so'zsiz (nizosiz) hisobvaraqdan **akseptsiz** o'chirish deb qabul qilingan.

[253]. Hisobvaraqdagi pul mablag'lari unga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, ya'ni quyidagi hollarda majburiy navbatda o'chiriladi:

- birinchi navbatda budjet va budjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni nazarda tutuvchi to'lov hujjatlari bo'yicha;
- mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarni;
- alimentlar undirish to'g'risidagi;
- mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lash;
- hayotga va salomatlikka yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul o'tkazishni yoki pul berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo'yicha pul ko'chiriladi.

Keyin boshqa pul talablarini qondirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlar bo'yicha pul ko'chiriladi va nihoyat, boshqa to'lov hujjatlari bo'yicha kalendar navbat tartibida pul ko'chiriladi (FK, 784-modda). Sanab o'tilgan har bir navbatda kalendar tartib amal qiladi.

Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi va pul mablag'lari asossiz o'chirilganligi uchun javobgarlik o'zaro javobgarlik xususiyatiga ega.

Bank mijozga kelgan pul mablag'larining hisobvaraqqa o'z vaqtida kiritib qo'yilmagani yoki hisobvaraqdan mablag'lar asossiz ravishda ko'chirilgani, shuningdek, hisobvaraqdan mablag'larni o'tkazish haqidagi farmoyishlarini o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun javobgar bo'ladi (FK, 785-modda).

Noqonuniy ravishda foydalanilgan summa uchun javobgarlik FKning 327-moddasida belgilangan bank hisob stavkasiga asosan belgilangan tartib va miqdorda foizlar to'lashdan iborat. Shu moddaning

uchinchi qismida bank o‘z vaqtida kiritilmagan yoki asossiz o‘chirilgan summaga foizlar to‘lash va zararining o‘rnini qoplashi ham shart.

Bank hisobvarag‘i shartnomasida tomonlar boshqa majburiyat-larning buzilganligi (mijoz hisobvarag‘i bo‘yicha kredit berilmagani, bank xizmat ko‘rsatishdan bosh tortgani) uchun ham jazo choralarini qo‘llash huquqiga egadirlar.

#### 7.4. Tayanch iboralar

<input type="checkbox"/> <i>shartnoma</i>	<input type="checkbox"/> <i>lizing shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>to‘lov talabnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>uy-joy ijarasi shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>oldi-sotdi shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>puvrat shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>chakana oldi-sotdi shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>vositachilik shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>kontraktatsiya shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>xo‘jalik shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>mahsulot yetkazib berish shart-nomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>topshiriq shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>energiya ta‘minoti shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>kredit shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>korxonani sotish shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>qarz shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>ko‘chmas mulkni sotish shart-nomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>bank hisobvarag‘i shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>ayirboshlash shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>bank omonati shartnomasi</i>
<input type="checkbox"/> <i>hadya, xayr-ehson shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>konsensual shartnoma</i>
<input type="checkbox"/> <i>renta shartnomasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>oferta</i>
<input type="checkbox"/> <i>mulk ijarasi</i>	<input type="checkbox"/> <i>aksept</i>

#### 7.5. Test topshiriqlari va masalalar

##### 1. Shartnoma – bu:

a) mahsulot oluvchi bilan uni yetkazib beruvchi o‘rtasidagi ahd-lashuvdir;

b) tomonlar o‘rtasida o‘rnatilgan yoki to‘xtatilgan (bekor qilingan) huquq va majburiyatlar to‘g‘risidagi kelishuvdir;

c) xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatuvchi hujjatdir;

d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

##### 2. Shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillariga nimalar kiradi?

a) tomonlarning o‘zaro manfaatdorligi;

b) shartnoma intizomiga rioya qilish;

c) tomonlarning o‘zaro mulkiy javobgarligi;

d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

##### 3. Qaysi bir shartnoma turiga muvofiq bir taraf (sotuvchi)



**tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasini to'lash majburiyatini oladi?**

- a) kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq;*
- b) renta shartnomasiga muvofiq;*
- c) oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq;*
- d) chakana oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq.*

**4. Qaysi bir shartnoma turiga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga – tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to'lash (to'lab turish) majburiyatini oladi?**

- a) ko'chmas mulkni sotish shartnomasiga muvofiq;*
- b) kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq;*
- c) lizing shartnomasiga muvofiq;*
- d) vositachilik shartnomasiga muvofiq.*

**5. Agar shartnoma tuzayotgan tomonlardan biri ishlab chiqaruvchi bo'lsa, bunday hujjat:**

- a) xo'jalik shartnomasi hisoblanadi;*
- b) xo'jalik shartnomasi hisoblanmaydi;*
- c) pudrat shartnomasi hisoblanadi;*
- d) topshiriq shartnomasi hisoblanadi.*

**6. Qaysi bir shartnoma turiga muvofiq bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kredit beruvchi, kreditor) ikkinchi tarafga (kredit oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi?**

- a) lizing shartnomasiga muvofiq;*
- b) renta shartnomasiga muvofiq;*
- c) kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq;*
- d) kredit shartnomasiga muvofiq.*

**7. Qarz oluvchining yuridik maqomi quyidagilarni aniqlash uchun muhimdir:**

- a) qarz oluvchining to'lovga qobiliyatligini;*

- b) faoliyat natijalariga javob beruvchi kishilar doirasini;*
- c) mijozning kreditdan maqsadli foydalanish mas'uliyatini;*
- d) a + b.*

**8. Garov talab qilinmaydigan va ishonchga tayanib beriladigan kreditlarni:**

- a) ehtimolli kreditlar deyiladi;*
- b) yuqori darajadagi riskli kreditlar deyiladi;*
- c) e'timodli kreditlar deyiladi;*
- d) risksiz kreditlar deyiladi.*

**9. Qaysi turdagi shartnoma real hisoblanadi?**

- a) omonat shartnomasi;*
- b) kredit shartnomasi;*
- c) qarz shartnomasi;*
- d) bank hisobvarag'i shartnomasi;*

**10. Quyida qayd qilingan hisobvarag'larning qaysi birlari bank hisobvarag'i shartnomalarining turiga taalluqli?**

- a) budjet hisobvaraqlari;*
- b) joriy hisobvaraqlari;*
- c) kontokorrent hisobvaraqlari;*
- d) a + b + c.*

#### **7.6. Nazorat uchun savollar**

1. Shartnoma deganda nimani tushunasiz?
2. Shartnomaviy munosabatlarni tuzishda qanday huquqiy manbalar asos hisoblanadi?
3. Shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
4. Shartnomaning qanday turlarini bilasiz?
5. Kredit shartnomasi deganda nimani tushunasiz?
6. Yuridik jihatdan kredit shartnomasi qanday xususiyatlarga ega?
7. Kredit shartnomasining nechta bo'limi bor? Ular qanday maqsadlarni ko'zlaydi?
8. Qarz shartnomasi deb qanday shartnomaga aytiladi?
9. Qarz shartnomasining huquqiy belgilari nimalardan iborat?
10. Qarz shartnomasi kredit shartnomasidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
11. Bank omonati shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari

nimadan iborat?

12. Bank hisobvarag‘i shartnomasi deganda nimani tushunasiz?
13. Bank hisobvarag‘i shartnomasining qanday turlarini bilasiz?
14. Bank hisobvarag‘i shartnomasi qanday rasmiylashtiriladi?
15. Bank hisobvarag‘i shartnomasidagi huquq va majburiyatlar to‘g‘risida nimalar deya olasiz?
16. Qaysi hollarda hisobvaraqdagi pul mablag‘lari majburiy navbatda o‘chiriladi?

## 8-bob. BANK RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI

### 8.1. Bank risklari va ularning turlari

[254]. Inson o‘z hayot faoliyatining turli nuqtalarida beixtiyor tavakkal qilish hollariga duch keladi. Tavakkalchilik tushunchasi fanning turli sohalarida ma‘lum bir ma‘noni aks ettiradi. Rus tili lug‘atida tavakkalchilik so‘zi «risk» deb atalib, qadimiy grek so‘zidan olingan. U kemalarni halokatga olib boruvchi va odamlarning o‘limiga, mol-mulklarning cho‘kib ketishiga sababchi qoyani bildirib, «qoyalar orasidan shamol va boshqa to‘siqlarga chap berib suzib o‘tmoq» ma‘nosini anglatadi.

Bugungi kunda bu so‘z «xavf ostida qolmoq» degan yangi ma‘noda qo‘llanilyapti. Mazkur tushuncha Rossiyada XIX asrning boshlarida tarqalgan. O‘zbekistonda ham sobiq Ittifoq davrida qo‘llanilib kelingan va «tavakkalchilik» so‘zi ma‘nosi bilan bir qatorda «xavf ostida qolmoq» ma‘nosini ham bildiradi.

Shu o‘rinda turli lingvist (tilshunos) olimlar bu so‘zning ma‘nosini izohlashda deyarli bir xil fikr bildirsalar-da, biroq ularning qarashlarida ayrim tafovutlar borligini aytib o‘tish joiz. Xususan, **V.Dal** «риск» so‘zini tavakkal qilmoq, xavfli ish qilmoq, «рисковать» tushunchasini esa tavakkal qilish, biror ishni to‘g‘ri mo‘ljallab ko‘rmay qilish, dadillik, qat‘iyat bilan ish tutmoq, ma‘lum xatarga o‘zini urmoq deb izohlaydi.

**S.Ojegov** «риск» so‘zini sodir etilishi mumkin bo‘lgan tahlika yoki muvaffaqiyatli natija umidida tavakkalchilik qilish, tavakkal qilmoq, xavfli ishga qo‘l urmoq, «рисковать» so‘zini esa xavf-xatardan qo‘rqmay ish qilmoq kabi tasavvur qiladi.

**S.Ushakov** «риск» so‘zini biror zarar yetkazish xavfi bo‘lgan tahlika yoki har qanday zarar yetkazish ehtimolini tushunadi. «Bank risklari va ularni kreditlash»<sup>1</sup> mavzusida doktorlik ishini himoya qilgan va monografiya chop etgan prof. **Sh.Abdullayeva** ham «риск» so‘zini tahlika, tahdid, tavakkal qilmoq, xavfli ish qilmoq deb, «рисковать» atamasini esa xavf ostida qoldirishga jur‘at etmoq deb talqin qiladi.

Bu ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, risk doimo noaniqlik bilan bog‘liq. Noaniqlik esa, o‘z navbatida, oldindan ko‘ra bilish qiyin yoki mumkin bo‘lmagan voqealar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu voqealar ham ijobiy, ham salbiy natijalarga olib kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

<sup>1</sup>) Qarang: Abdullayeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2002.

Risk insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan tarixiy va iqtisodiy kategoriyadir. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va subyektlar faoliyatida mustahkam o‘rnashib olishga zamin yaratadi. Shu sababli risk hayotimizning har bir qadamida uchraydi desak xato bo‘lmaydi. U xohlagan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasi bilan yonma-yon turadi.

Masalan, bank faoliyatida risk bank foydasining ko‘payishi yoki kamayishiga, bank resurs bazasining ko‘payishi yoki kamayishiga, berilgan kreditlar bo‘yicha to‘lanmagan qarzlarning ko‘payishi yoki kamayishiga, foizlarning to‘lanmasligi va boshqalarda o‘z aksini topishi mumkin.

Demak, riskka borish uch xil natijaga olib kelishi mumkin: ijobiy (foyda ko‘rish), salbiy (zarar ko‘rish) yoki o‘zgarishsiz natija.

[255]. Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek tijorat banklari faoliyatida ham ko‘zlangan maqsad – birinchi navbatda foyda olishdir. Bu yerda ham foyda olish risk bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli tijorat banklari oldida turgan vazifa – bu risk va foydalilik o‘rtasidagi optimal darajaga erishishdir. Ya’ni riskka hech bo‘lmasa six ham, kabob ham kuymaslikka ishonch hosil qilgandagina borish kerak. Bunga erishish uchun riskning turlari, ularning kelib chiqish sabablarini bilmoq juda katta ahamiyatga ega (51-jadval).

### 51-jadval.

#### Bank risklari va ularning turlari

№	Turlanish belgilari	Risk turlari
1	2	3
1.	Vujudga kelish sohasi bo‘yicha	<p>1. <b>Ichki risklar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> tijorat banklari turi bo‘yicha</li> <li><input type="checkbox"/> mijozlar tarkibi bo‘yicha</li> <li><input type="checkbox"/> bank operatsiyalari turi bo‘yicha</li> <li><input type="checkbox"/> balansdan tashqari operatsiyalar bo‘yicha</li> <li><input type="checkbox"/> moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha</li> </ul> <p>2. <b>Tashqi risklar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><input type="checkbox"/> siyosiy</li> <li><input type="checkbox"/> ijtimoiy</li> <li><input type="checkbox"/> tabiiy</li> </ul>

2.	Qamrab olish darajasi bo'yicha	<input type="checkbox"/> makro darajadagi risklar <input type="checkbox"/> mego darajadagi risklar <input type="checkbox"/> mezo darajadagi risklar <input type="checkbox"/> mikro darajadagi risklar
3.	Ta'sir qilish vaqti bo'yicha	<input type="checkbox"/> retrospektiv risklar <input type="checkbox"/> joriy risklar <input type="checkbox"/> istiqbolli risklar
4.	Passiv operatsiyalar bo'yicha	<input type="checkbox"/> diversifikatsiya riski <input type="checkbox"/> inflatsiya riski <input type="checkbox"/> jamg'armalar riski <input type="checkbox"/> depozitlar riski <input type="checkbox"/> foiz stavkalarining o'zgarishi riski
5.	Aktiv operatsiyalar bo'yicha	<input type="checkbox"/> kredit riski <input type="checkbox"/> hisob-kitob risklari <input type="checkbox"/> kassa riski <input type="checkbox"/> bozor riski <input type="checkbox"/> valuta riski <input type="checkbox"/> lizing operatsiyalari riski <input type="checkbox"/> faktoring riski <input type="checkbox"/> investitsiya riski <input type="checkbox"/> bank portfeli riski <input type="checkbox"/> kliring riski <input type="checkbox"/> barter riski
6.	Balansdan tashqari operatsiyalar bo'yicha	<input type="checkbox"/> bankrotlik riski <input type="checkbox"/> balanslashmagan likvidlik riski <input type="checkbox"/> foiz riski <input type="checkbox"/> foyda ololmaslik riski <input type="checkbox"/> suiiste'mol riski yoki iqtisodiy bilim va tashkilotchilik darajasi riski
7.	Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bo'yicha	<input type="checkbox"/> operatsion va texnologik risklar <input type="checkbox"/> innovatsiya riski <input type="checkbox"/> bank xavfsizligi riski va boshqalar

«Банковский менеджмент» darsligi muallifi P.S. risklarga kengroq tushuncha berib, u bank risklarini quyidagi oltita asosiy turga ajratadi:

- kredit riski;
- foyda olmaslik riski;
- likvidlik riski;
- foiz riski;
- to'lay olmaslik riski;
- bozor (raqobat, talab va taklif, inflatsiya va h.k.) riski.

Bank uchun ikkinchi darajada bo'lgan risklar tarkibiga P.Rouz siyosiy, suiiste'mol va valuta risklarini kiritadi.

Shunday qilib, bank faoliyati turli tuman risklarga bog'liq bo'lib,

<sup>2</sup> Rouz P. S. Bankovskiy menedjment. – M.: Delo LTD. 1995, str.142

ular «Bank tomonidan berilgan kredit o‘z vaqtida qaytib keladimi?, «Keyingi oyda depozitlar salmog‘i oshadimi?, «Bank aksiyasining bahosi va bank foydasi oshadimi?, «Keyingi oyda (kvartalda) foiz stavkalari qanday bo‘ladi, ular bank foydasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?» kabi ehtimollik, tavakkalchilik bilan bog‘liq holda faoliyat olib boradilar. Shu holatlarning tahliliga asoslangan holda bank mablag‘larni investitsiya qiladi, ijobiy natijaga erishishni maqsad qilib qo‘yadi.

**[256].** Kelib chiqish sabablariga ko‘ra risklar ikkiga bo‘linadi:

- sof (obyektiv) risklar;
- sun‘iy (subyektiv) risklar.

**Sof risklar** ko‘pincha obyektiv xarakterga ega bo‘ladi va salbiy («-» yoki «0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarga tabiiy, ekologik, transport va tijorat riskining bir qismi kiradi.

**Sun‘iy risklar** subyektiv xarakterga ega bo‘lib, nafaqat salbiy, shu bilan birgalikda ijobiy natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

- bozor konyunkturasini yaxshi o‘rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasidagi ma’lumotlarning yetarli emasligi;
- kreditlanadigan loyiha, obyekt va mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq emasligi;
- tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;
- bankirlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha bilim va maqsadlarning xilma-xilligi va boshqalar.

Bu sabablar risklarni iqtisodiy kategoriya sifatida subyektiv tomonlarni o‘zida ifoda etadi.

**[257].** Bank faoliyati ikki asosiy risk turi – tizimli va tizimsiz risklarga duch kelishi mumkin. Har ikkala usul ham o‘zining tahlil qilinish va risk oldini olish usullariga ega.

**Tizimli risklar** umumiy iqtisodiy sharoitlar va makroiqtisodiy siyosat xossalaridan kelib chiqadi. Bank tizimining turg‘un rivojlanishi umuman iqtisodiyotning qanday holatda ekanligiga bog‘liq. Shuning uchun makroiqtisodiy, avvalambor, monetar siyosat va bank risklarini samarali boshqarish tizimli risklarni kamaytirish va oldini olish imkonini beradi.

**Tizimsiz yoki nomuntazam risklar** bank tizimida umumiy ahvol barqaror saqlangan holda ayrim olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashish ehtimoligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu risklar, o‘z navbatida,

bank operatsiyalari va tadbirkorlik risklarini o'z ichiga oladi.

Bank operatsiyalari bilan bog'liq risklar ikki guruh – to'lovga noqobillik va likvidlik risklariga bo'linadi. Birinchi guruhga: kredit riski, foiz riski, bozor riski, valuta riski, investitsiya risklari kiradi.

Boshqarish usuli va imkoniyatiga qarab risklar ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. **Ochiq risklarni** tartibga solib bo'lmaydi. **Yopiq risklarni** esa boshqarish mumkin. Ular diversifikatsiya siyosatini o'tkazish yo'li bilan tartibga solinadi.

Ya'ni bunda:

bank operatsiyalari umumiy hajmini saqlash maqsadida bir necha mijozlarga berilgan kreditlarni kichik summalarda keng miqyosda taqsimlash;

yirik kreditlarni konsorsional asosda berish;

depozit sertifikatlarini joriy qilish;

qayta hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish;

kredit va depozitlarni sug'urtalash kabi amallar amalga oshiriladi.

Banklarda ko'pincha mijoz tanlashda yanglishish natijasida **balanslashmagan likvidlik riski** yuzaga keladi. Bunday risklar odatda iqtisodi beqaror bo'lgan korxonalarni kreditlashga ustunlik berilgan hollarda yuzaga keladi.

**Balanslashmagan likvidlik riski** bank boshqaruvi va xodimlar malakasining sayozligi, bank faoliyati nazoratining sust tashkil qilinishi, risklarni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarning takomillashmaganligi, ayrim olingan bank operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo'yicha risklar koeffitsiyenti shkalalarini o'rnatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida yuzaga keladi.

[258]. Bank faoliyati va uning natijalariga ta'sir etish omillariga qarab bank risklarini bir necha toifalarga bo'lish mumkin. Umumlash-tirgan holda ularni:

past darajadagi risklar;

o'rtacha darajadagi risklar;

yuqori darajadagi risklarga bo'lish mumkin.

Risk darajalari bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va yo'qotishlarga sabab bo'luvchi jarayonlarning ehtimolligiga bog'liq bo'ladi. Ular koeffitsiyentlar yoki foizlarda ifodalanishi mumkin.

Chet el tijorat banklari risklarni besh toifaga ajratadi. Bular:

A toifa – past darajadagi risk;

B toifa – o'rtacha darajadagi (oddiy) risk;



- V toifa – o‘rtachadan yuqori (oshgan) risk;
- G toifa – yuqori darajadagi risk;
- D toifa – nomaqbul risk.

Mamlakatimiz bank tizimida risk toifalarining darajalanishi bank aktivlari bo‘yicha risk darajalarini hisobga olgan holda guruhlanadi. hisoblash usuliga ko‘ra risklar umumiy yoki yakka ko‘rinishda hisoblanishi mumkin. **Umumiy risk** bank riskining umumiy hajmi, uning umumiy daromadi va likvidligi me‘yorlariga asoslanib baholanadi yoki taxmin qilinadi.

**Yakka ko‘rinishdagi risk** bankning ayrim operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo‘yicha risk koeffitsiyentlari shkalasi asosida baholanadi.

Ta’sir vaqtiga ko‘ra risklarni retrospektiv, joriy yoki istiqboldagi risklarga ajratish mumkin. **Retrospektiv risklar** bank faoliyatining o‘tgan davrdagi turli risklarga bog‘liqligini ifodalaydi va **joriy** hamda **istiqboldagi risklarni** baholashga yordam beradi.

[259]. **Ichki risklar** bevosita bank faoliyati natijasida vujudga keladi. Bu risklar bank faoliyatiga sezilarli ta’sir qiluvchi risklar bo‘lib, ular bankning o‘z faoliyati, uning mijoz (qarzdor)lari yoki uning muayyan kontragentlari bilan bo‘lgan faoliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bank rahbarlari, ularning tadbirkorligi, marketing strategiyasining optimalligi, taktikaning to‘g‘ri ta’minlanganligi kabi omillar ichki risk darajasiga ta’sir qiluvchi omillardir.

Ichki risklar:

- bank operatsiyalarining xususiyati;
- bank mijozlarining tarkibi;
- tijorat banklarining turlari bo‘yicha guruhlarga bo‘linadi.

**Tashqi risklar** makromuhit darajasida yuzaga keladi. Ular bank faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmaydi. Tashqi risklarga juda ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ular tarkibida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy risklarni alohida ajratish lozim. Siyosiy risklar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi.

Tashqi risklar urushlar, milliylashtirish, chetga to‘lovlarni taqiqlash, qarzlarni konsolidatsiyalash, embargo joriy qilish, importga litsenziyani bekor qilish, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni o‘ziga jamlaydi. Bu risklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bank daromadiga, operatsiyalar samaradorligiga va umuman, bank

kelajagiga katta zarar yetkazadi.

[260]. Bank operatsiyalari xususiyatiga ko'ra risklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- balans operatsiyalari riski;
- balansdan tashqari operatsiyalar riski;
- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklar.

**Balans operatsiyalari** riski o'z navbatida:

- bankning aktiv operatsiyalari riski;
- bankning passiv operatsiyalari riski;
- aktiv va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga bo'linadi.

**Balansdan tashqari operatsiyalar** risklari, avvalo, mijozlarning majburiyatlari yuzasidan berilgan kafolatlar bo'yicha to'lov majburiyati yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog'liq.

[261]. Bankning aktiv operatsiyalari risklari quyidagi turlarga bo'linadi (52-jadval).

## 52-jadval.

### Bankning aktiv operatsiyalari risklari

№	Aktiv operatsiyalar risklari	Izoh
1.	Kredit riski	<input type="checkbox"/> bu risk mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi. Ya'ni bu risk qarz oluvchi o'z qarzini qaytarmasligi oqibatida zarar ko'rilishi bilan bog'liq bo'lgan riskdir. Buning manbayi faqat kreditlar emas, balki qimmatli qog'ozlar, jumladan veksellar, akseptlar hamda kafolat va kafilliklar singari balansdan tashqari vositalar ham bo'lishi mumkin. Bank mablag'i yetarliligi uning aktivlariga tegishli sarmoya ulushi bilan ta'minlanganligini anglatadi.
2.	Hisob-kitob risklari	<input type="checkbox"/> bu risklar bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi.
3.	Kassa risklari	<input type="checkbox"/> bu risklar bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarni saqlanishi bilan bog'liq xavfli holatlar natijasida yuzaga chiqadi.
4.	Bozor riski	<input type="checkbox"/> bu risklar nisbiy bozor narxlari darajasining keskin o'zgarishi natijasida bank aktivlari haqiqiy

		<p>qiymatining pasayishini anglatadi. Bu bozor narxlari nomaqbul o'zgarishi oqibatida ehtimoliy zarar ko'rilishi tufayli ro'y beradi. Pulning qadrsizlanishi yuzaga keladi. Natijada, sotiladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar haqi oshib ketadi. Bankning esa daromadliligi pasayib, bank aksionerlariga to'lanadigan to'lovlar qiymati o'z kuchini yo'qotadi. Bank zarar ko'radi, bunday zararlarni hisobga olish maqsadida aktivlarga qo'yilmalarni buxgalteriya hisobiga olish qoidalariga o'zgarishlar kiritilgan. Ularga muvofiq banklar ikki qiymat-xarid qilish va bozor narxlarining eng past hisobini yuritishadi. Bozor narxi xarid qiymatidan past bo'lsa, banklar aktivlarining pasayish summasiga kamaymasligi uchun zaxiralar yaratishga majbur. Zaxiralar ehtimoliy zararlar sifatida ko'riladigan bank xarajatlari hisobiga yaratiladi.</p>
5.	Valuta riski	<p>□ bu risk valuta almashtirish kursining o'zgarishi natijasida chet el valutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi. Bu risk - valuta kursining ba'zi qarz oluvchilar moliya holatini yomonlashtiradigan tomonga o'zgarishi natijasida ko'riladigan zararlardir. Bu yomon kreditlar miqdorini ko'paytiradi. Banklarga bunday ta'sirni kamaytirish boshqarish usullari samaradorligiga bog'liq. Ular valuta riskining bevosita va bilvosita ta'sirini cheklashi kerak. Ayirboshlash kursining nobarqarorligi va uning yuqori darajada aniq emasligi bank operatsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, 1995 yilda Meksikadagi moliya tangligi bilan bog'liq gumonsirash ko'plab Lotin Amerikasi mamlakatlarida moliya muammolariga sabab bo'ldi va Meksikadan ancha uzoqdagi bozorlarda ham keskinlik tug'dirdi. Devalvatsiya ehtimoli moliyalarning xorijiy valuta bozoriga oqib ketishiga olib keladi, banklar moliya vositachiligi darajasini pasaytiradi, pul-kredit siyosatini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Masalan, Boliviya dollarlashtirish 90 foizgacha yetganida monetar siyosat vositalarini qo'llash samaradorligini keskin cheklab qo'yadi. Moliya vositachiligida dollarlashtirishni kengaytirish valuta riskini kamaytiradi, albatta. Chunki milliy valutaning qadrsizlanishi qarz oluvchilarga xorijiy valutadagi</p>

		majburiyatlarini qaytarish qobiliyatini cheklaydi. Ko'plab ayirboshlash kurslari siyosati xorijiy investorlarda norozilik tug'diradi. Bu sarmoya oqib kelishini kamaytirib, uning mamlakatdan tashqariga chiqib ketishiga turtki bo'lishi mumkin.
6.	Investitsiya riski	<input type="checkbox"/> bu risk qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy holati yomonlashishi oqibatida investitsiyalar portfelining kamayishi yoki qo'yilgan mablag'larni yo'qotish riskini ifodalaydi. Bu risklar bank sotib olgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha oladigan daromadlarining tushib ketishi yoki uni oshirish bilan bog'liq risklar hisoblanadi. Respublikada faol amalga oshirilayotgan davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida investitsiya operatsiyalari ayniqsa keng tarqaldi. Ular banklar aktivlarini diversifikatsiyalash va ularga qo'shimcha foyda olish imkonini beradi, butun iqtisodiyotni «oziqlantiradi».
7.	Lizing operatsiyalari bo'yicha risk	<input type="checkbox"/> bu risk ijarachining bankdan olgan mulkidan samarali foydalana olmasligi, shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi.
8.	Faktoring operatsiyalari bo'yicha risk	<input type="checkbox"/> bu risk bankning uchinchi shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik natijasida yuzaga keladi.
9.	Bank portfeli riski	<input type="checkbox"/> bu risklar qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimolligi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

**[262].** Ma'lumki, banklar passiv operatsiyalar yordamida o'zining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur resurslarni jalb qiladi. Bunda ustav kapitalini oshirish (tashkil etish) maqsadida banklar foydadan chegirmalar, boshqa yuridik shaxslardan kreditlar jalb qilish, depozit kabi passiv operatsiyalarni bajaradilar. Shu jarayonda, ya'ni aktiv operatsiyalarni resurslar bilan ta'minlashdek murakkab jarayonda passiv operatsiyalar risklari yuzaga keladi.

**[263].** Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga quyidagi risklar kiradi (53-jadval).

**Aktivlar va passivlarni boshqarish  
sifati bilan bog‘liq risklar**

№	Risk Turlari	Izoh
1	2	3
1.	Bankrotlik riski	<input type="checkbox"/> bu risk o‘z kapitali va resurslarini yo‘qotish oqibatida o‘z majburiyatlari bo‘yicha to‘lovga layoqatsiz bo‘lish va faoliyatni to‘xtatish natijasida vujudga keladigan riskdir.
2.	Balanslashmagan likvidlik riski	<input type="checkbox"/> bu risk bankning resurs sifatida jalb qilgan mablag‘lari bilan kreditga bergan mablag‘lari summasi, muddati, foiz stavkasining darajasi bo‘yicha mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi.
3.	Foiz riski	<input type="checkbox"/> bu risk bankning kreditga bergan mablag‘lari bo‘yicha oladigan foiz stavkasiga nisbatan jalb qilgan resurslari bo‘yicha yuqori stavkalar bilan to‘lashga majbur bo‘lgan holda yuzaga keladi.
4.	Foyda ololmaslik riski	<input type="checkbox"/> bu risk bankning o‘z resurslarini yo‘qotishi, ulardan samarali foydalana olmasligi natijasida yuzaga keladi.
5.	Suiiste‘mol riski	<input type="checkbox"/> bu risk bank boshqaruvchilari, xodimlari yoki mijozlari o‘z vazifalarini suiiste‘mol qilib, shaxsiy manfaatlari yo‘lida amaldagi qonunchilikka, bank faoliyatini tartibga solib turuvchi me‘yoriy hujjatlar talablariga zid ravishda faoliyat ko‘rsatishlari natijasida bank katta yo‘qotishlarga uchrashi hatto, inqirozga uchrashi mumkin. Bankning inqirozga uchrashi tufayli esa uning omonatchilari, mijozlari, aksionerlarning moliyaviy ahvoli yomonlashishi, buning natijasida mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar etishi mumkin.
6.	Likvidlik riski	<input type="checkbox"/> bu risk bankning o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘z vaqtida pul to‘lashga qobil emasligi bilan bog‘liq bo‘lib, buning oqibatida majburiyatlar oshganda ham qisqa muddatlarda maqbul narxlarda aktivlarni sotishda ham, mablag‘ olish imkoni bo‘lmaganligi sababli zarar ko‘riladi.

[264]. 54-jadvalda keltirilganidek, moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq risklarga quyidagi risk turlari kiradi (54-jadval).

**Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish  
bilan bog‘liq risklar.**

<b>№</b>	<b>Risk turlari</b>	<b>Izoh</b>
1	2	3
1.	Operatsion va texnologik risklar	<input type="checkbox"/> bu risklar bank texnika-texnologiyasida uchrab turadigan axborot tizimidagi uzilishlar, kompyuter tizimidagi yo‘qotishlar, hujjatlarning yo‘qotilishi, bank xodimlari faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli vujudga keladi.
2.	Innovatsiya riski	<input type="checkbox"/> bu risk ma‘lum bir sabablar tufayli bankning innovatsiyaga yo‘llagan mablag‘lari mo‘ljallangan samara bermasa yoki yo‘qotilgan hollarda yuzaga keladi.
3.	Bank xavfsizligi riski	<input type="checkbox"/> bu risk bank binosi, undagi mavjud axborot g‘amlamasi, kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi bilan bog‘liq omillar ta‘sirida yuzaga keladi.

### 8.2 Risklarni aniqlash tartibi

[265]. Bank amaliyotida muhim muammolardan biri – bu bank risklarini baholashdir. Uni to‘g‘ri baholash, uning ro‘y berishini o‘z vaqtida oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Risklarni aniqlash ularning darajasini hisoblashdan boshlanadi.

**Risk darajasi** muayyan faoliyatda maqsad nimaga yo‘naltirilganiga qarab zararlar bo‘lishini yoki xo‘jalik subyektining faoliyat natijasi ma‘lum bir yo‘qotishlar bilan tugashi yoki yuqori daromad olishi mumkinligini ifodalaydi. Ana shu risk darajasi va u bilan bog‘liq yo‘qotishlar ehtimolini aniqlashning bir necha usullari mavjud:

- ekspert (subyektiv) baholash usuli;
- statistik usul;
- tahliliy (kompleks) usul.

**Ekspert baholash usuli** riskni tahlil qiluvchi iqtisodchi (ekspert)ning malaka darajasiga asoslanadi. Bunda bankning faoliyatida o‘tkazilgan barcha operatsiyalar bo‘yicha mavjud ma‘lumotlar tahlil qilinib, imkoni boricha ko‘proq yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan operatsiyalar tahlilga jalb qilinadi. Shu jarayonda bankning o‘zidagi, shuningdek, bo‘lish ehtimoli bo‘lgan yo‘qotishlar va ularning davr oralig‘i aniqlanadi:

$$Y = \frac{YH}{N}$$

Bu yerda:

Y – yo‘qotishlar darajasi (koeffitsiyentda);

YH – yo‘qotishlarga olib keluvchi holatlar soni;

N – tahlilga jalb qilingan holatlarning umumiy soni.

Formuladagi N bankning faqat yo‘qotish, zararlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan operatsiyalarning sonini emas, balki barcha operatsiyalarni, jumladan, foyda keltiruvchi operatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Yo‘qotish darajasi  $0 < Y < 1$  oralig‘ida bo‘ladi. «Y» qancha «0» ga yaqin bo‘lsa, risk darajasi shuncha kichik bo‘ladi. Agar «Y» qanchalik «1» soniga yaqin bo‘lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

**Statistik usul** ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar ehtimolini variatsiya koeffitsiyenti (V) ni hisoblash yordamida aniqlanadi:

$$V = \frac{\sigma \cdot 100}{x}$$

Bu yerda:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x - \bar{x})^2 n}{\sum n}}$$

ya’ni o‘rtacha kvadratlik farqlanish;

x – kuzatishga jalb qilingan operatsiyalar va ulardan kutilayotgan natija;

$\bar{x}$  – barcha operatsiyalarda kutilayotgan o‘rtacha natija;

n – operatsiyalar soni.

Bu koeffitsiyent ham 0 dan 1 gacha o‘zgarishda bo‘ladi va u qanchalik yuqori bo‘lsa, farqlanish yoki risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Prof. Sh. Abdullayeva ushbu koeffitsiyent darajasini baholashda quyidagi intervallardan foydalanishni tavsiya etadi.<sup>1)</sup>

0,10 gacha – kam (sezilarli bo‘lmagan farqlanish);

0,10-0,25 – me’yorida yoki sezilarli farqlanish;

0,25 va undan yuqori – katta farqlanish.

Variatsiya koeffitsiyentining darajasi bank tomonidan amalga

<sup>1)</sup> Abdullayeva Sh. Bank risklari va kreditlash.– T.: Moliya, 2002, 117-bet.

o'shiradigan operatsiyalar bo'yicha risk darajasining past yoki yuqori bo'lishiga bog'liq. Ya'ni bankning operatsiyalari bo'yicha risk darajasi variatsiya koeffitsiyentiga to'g'ri proporsionaldir. Shu sababli bank o'z faoliyatida riskni kamaytirish va bank likvidligini oshirish uchun o'z mablag'larini farqlanishi eng kam bo'lgan operatsiyalar (variant)ga qo'yishga harakat qilishi kerak.

**Tahliliy-kompleks usuli** o'yinlar nazariyasini qo'llashga asoslanadi. U bankning nafaqat o'z harakatlarini, shuningdek, atrofidagi kontragentlarning ham amalga oshirishi mumkin bo'lgan barcha muqobil harakatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'yinlar nazariyasi unsurlaridan foydalangan holda vazifalarni hal qilish jarayoni juda ulkan va murakkab bo'lib, juda ko'p vaqt sarflashni talab etadi.

[266]. Bank bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi yoki ko'rsatkichi ( $K_r$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$K_r = \frac{\text{Ko'rilgan maksimal zararlar}}{\text{o'z mablag'lar}}$$

yoki,

$$K_r = \frac{\sum Z}{QM} \cdot E$$

Bu yerda:

$K_r$  – bank bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi;

$\square Z$  – shu bankning barcha operatsiyalar bo'yicha ko'rishi mumkin bo'lgan zararlar yig'indisi;

$QM$  – bankning o'z mablag'lari;

$E$  – bank tashqi risklarining me'yoriy koeffitsiyenti.

Xalqaro amaliyotda tashqi risklarni tahlil qilishning ikki bosqichli tizimi mavjud. Birinchi bosqichda mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat tahlil qilinadi, ikkinchi bosqichda mamlakatdagi riskning umumiy darajasi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida hisoblab chiqiladi:

- yalpi milliy mahsulotning o'sish sur'atlari;
- jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM va uning o'sish sur'atlari;
- inflatsiya darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- davlat budjetining taqchilligi;
- investitsiyalarning samaradorligi;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;



- savdo va to'lov balanslari;
- siyosiy xatar darajasi va boshqalar.

Mamlakatdagi risklarni tahlil qilganda jahondagi ko'pgina etakchi mamlakatlarning statistika xizmatlari tomonidan maxsus e'lon qilgan ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha ekspert baholari va reytinglaridan ham foydalaniladi.

[267]. Bankning kredit faoliyati uni boshqa bank bo'lmagan tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Jahon amaliyotidan ma'lumki, bank foydasining asosiy qismi kredit bilan bog'liq. Shu sababli yirik kreditlarning qaytarilmasligi bankning sinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ehtimol qilinadigan risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning darajalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kredit riski deganda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasining (qisman yoki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. Kredit riskini aniqlashda quyidagi formulalardan juda keng foydalaniladi:

$$K_{r_1} = \frac{H_{bla}}{Ya_{kh} + L_{bm}}$$

$$K_{r_2} = \frac{H_{chk}}{S_{kh} + L_{bm}}$$

Bu yerda:

$Kr_1$  va  $Kr_2$  – kredit riski darajalari;

$H_{bla}$  – harakatda bo'lmagan aktivlar;

$Ya_{kh}$  – yalpi kredit hajmi;

$S_{kh}$  – sof kredit hajmi;

$L_{bm}$  – lizing bo'yicha majburiyatlar;

$H_{chk}$  – hisobdan chiqarilgan kreditlar.

**Harakatda bo'lmagan aktivlar** – 90 kundan kam bo'lmagan va undan ortiq muddat ichida daromad keltiruvchi aktivlar, shu jumladan, kredit qo'yilmalari.

**Hisobdan chiqarilgan kreditlar** – bankka qaytarilishidan butunlay umid uzilgan va zararlar sifatida hisobdan chiqarilgan kreditlar.

Real kredit riskini aniqlash uchun, eng avvalo, kredit sarf qilinishi mo'ljallanayotgan loyihani yashashga qobiliyatligi kafolatlanishi

lozim. Agar tahlil natijasida loyihaning kelajagi yaxshi deb topilsa, unda kredit uchun taklif qilinayotgan garovning sifati va bahosi tahlil qilinadi. Garovni tahlil qilish jarayonida risk darajasi aniqlanadi. Chunki garovning qiymati va hujjatlari muhim rol o'ynaydi.

Kredit riskining haqiqiy darajasi ( $K_{rh}$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_r = \frac{TMK}{BK}$$

Bu yerda:

$K_r$  – kredit riskining haqiqiy darajasi;

TMK – to'lanmagan kreditlar;

BK – berilgan kreditlar.

Kredit riskining haqiqiy darajasini aniqlashda risk koeffitsiyentidan foydalanish mumkin (55-jadval).

**55-jadval.**

### Risk koeffitsiyentini aniqlash tartibi

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Variantlar	
			I	II
1.	Bankning o'z mablag'lari	mln. so'm	10000	60000
2.	Ehtimol qilinayotgan yo'qotishlarning maksimal summasi	mln.so'm	6000	24000
3.	Risk koeffitsiyenti (2q:1q)	koef.	0,6	0,4

Ko'rib turibmizki, II variant bo'yicha kapital qo'yish (yoki kredit berish) riski I variantga nisbatan 1,5 marta kam ( $0,6:0,4=1,5$ ). Risk koeffitsiyentini to'g'ri taxminlash beriladigan kredit summasini optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqishga, kredit risklarini minimallashtirishga yordam beradi.

**[268].** Mijozning kreditga layoqatligini aniqlash bosqichida beriladigan kredit bo'yicha risk darajasini quyidagi kreditlash jarayonini tavsiflovchi chizmaga asoslanib xomcho't qilish mumkin (36-chizma).

Risksiz zonada yo'qotishlar yo'q, ya'ni uning darajasi «0»ga teng. Bu holda foyda darajasi yuqori bo'ladi. Bo'lishi ehtimol qilinadigan risk oldindan aniq bo'lgan, yuqori darajada xavf tug'dirmaydigan risk bo'lib, uning darajasi sezilarsiz, doimo olinadigan foydadan past bo'ladi.

Kritik risk zonasi yo'qotishlar bo'lish xavfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining biron jarayon uchun yo'naltirilganligini va shu mablag'larning qaytib kelishida xavf borligini

ifodalaydi.

Risk tufayli yo‘qotishlar miqdori (summasi) ga qarab risk zonasini aniqlash mumkin (56-jadval).

**56-jadval.**

**Risk zonalari**

<b>Yutuqlar</b>	<b>Yo‘qotishlar</b>			
Yo‘qotishlar umuman yo‘q	Bo‘lishi ehtimol risklar zonasi	Kritik risk zonasi	Halokatli risk zonasi	Maksimum risk zonasi (yo‘qotishlar)
Risksiz zona	Tushum bo‘ladi	Yo‘qotish xavfi bor	Yo‘qotishlar bo‘lishi aniq	Mulkni ham yo‘qotish holati.
Foyda				


Halokatli risk aniq yo‘qotishlar muqarrarligini va bankning foydasi mulkiy zarar bilan yakunlanishini ifodalaydi.

Kreditlarni shu tariqa, ya’ni risk zonalari bo‘yicha turkumlash kreditning xavfli zonaga tushishining oldini olish, kredit risklarining darajasini kamaytirishga imkon yaratadi.

[269]. Banklar mablag‘lar yo‘qligi tufayli yuzaga keladigan to‘lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lmaslik kabi risklardan ehtiyot bo‘lishlari lozim. Agar bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmas-dan, juda katta miqdorda kreditlar bergan bo‘lsa, ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo‘lsa, bunday «**yomon**» kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin.

Bundan tashqari, bank portfelining bozor narxi pasayib ketsa, uni sotishda bank katta yo‘qotishlarga uchraydi. Bankning moliyaviy ahvoli yomonlashib borayotganini bilgan investorlar va omonatchilar o‘z mablag‘larini qaytarib olishni boshlaydilar. Bankning bunday ahvolga tushishi natijasida, bank faoliyatini tartibga soluvchi organlar uni to‘lovga qobiliyatsiz deb e’lon qilishga majbur bo‘ladilar.

Bankning inqirozga uchrashi nafaqat bank uchun, balki uning aksionerlari va omonatchilari uchun xam juda katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bunday banklarning aksiyalari bozorda juda past baholarda sotiladi va bank o‘zining depozit sertifikatlariga yuqori foiz stavkalari o‘rnatishga majbur bo‘ladi.



**36-chizma.** Kreditlash jarayoni va riskli holatlarni aniqlash chizmasi.

Bankning to'lovga qobiliyatsizligi riskini quyidagi usullarda aniqlash mumkin:

$$R_{tqs_1} = B_{qq} - D_{qq}$$

Bu yerda:

$R_{tqs}$  – to'lovga qobiliyatsizlik riski;

$B_{qq}$  – bank tomonidan chiqarilgan, hisobdan chiqarish muddati bir xil bo'lgan qog'oz majburiyatlari (qimmatli qog'ozlar va depozit sertifikatlari);

$D_{qq}$  – davlat qimmatli qog'ozlari.

Ushbu farqning ortishi natijasida bozordagi investorlar bankning qarz majburiyatlari bilan bo'ladigan operatsiyalarning katta riskka ega bo'lishini tushunadilar.

$$R_{tks_2} = B_a : \overline{D}_a$$

Bu yerda:

$B_a$  – bank aksiyasi qiymati;

$D_a$  – bankning bitta aksiyasiga to‘g‘ri keladigan bir yillik daromadi.

Bu ko‘rsatkich bank aksiyasi qiymati bilan uning bitta aksiyasiga to‘g‘ri keladigan bir yillik daromadining nisbatini ifodalaydi. Investorlar bank kapitalining hajmi ular duch kelishi mumkin bo‘lgan risk darajasini qoplamasligini payqaganlaridan so‘ng bu nisbat kamayib ketadi.

$$R_{tk3} = A_c : B_{ya}$$

Bu yerda:

$A_s$  – aksiyadorlar sarmoyasining sof qiymati;

$B_{ya}$  – bankning yalpi aktivlari.

Bu ko‘rsatkich aksiyadorlar sarmoyasining sof qiymatining bank yalpi aktivlariga bo‘lgan nisbati orasidagi farq darajasini ifodalaydi. Agar bu ko‘rsatkich, ya’ni farq kamayib ketsa, u holda bank aksiyadorlari va qarz majburiyatlari egalari uchun katta risk yuzaga keladi.

$$R_{tk4} = M_{jq} : Ya_p$$

Bu yerda:

$M_{jq}$  – jalb qilingan mablag‘lar, ya’ni bir yil mobaynida qaytarilishi mumkin bo‘lgan sug‘urtalanmagan depozitlar, pul bozorida boshqa banklar, uyushmalar va hukumat organlaridan olingan qarzlarni, shu jumladan, aksiyadorlar sarmoyasi, kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarni qoplash zaxiralari;

$Ya_p$  – yalpi passivlar.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan tashqari, to‘lovga qobiliyatsizlikning keng qo‘llaniladigan quyidagi ko‘rsatkichlari ham mavjud:

- aksiyadorlar sarmoyasi va riskli aktivlar nisbati;
- birlamchi kapitalning yalpi aktivlarga nisbati.

**Riskli aktivlar** – kreditlar va qimmatli qog‘ozlar (naqd pullar, bino va inshootlar, hamda boshqa turli aktivlar bundan mustasno)dir.

**Birlamchi aktivlar** – bankning kreditlar bo‘yicha barcha yo‘qotishlarini qoplaydigan mablag‘lardir.

[270]. Banklar mablag‘lar yo‘qligi tufayli to‘lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lmaslik riskidan ehtiyot bo‘lishlari lozim. Agar bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmasdan, juda katta miqdorda kreditlar

bergan bo'lsa, ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo'lsa, bunday «**yomon**» kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin.

Bank jalb qilgan depozitlarni qaytarish yoki kredit berishi uchun mablag'larning yetishmaslik riskidan doimo xavotirda bo'ladi. Bunday risk **muvozanatlanmagan likvidlik riski** deb atalib, bunda bank o'zining naqd pulga bo'lgan talabini qondirish uchun juda yuqori foiz stavkasi bilan qo'shimcha depozit mablag'larini jalb qilishga majbur bo'ladi.

Bu esa, o'z navbatida, bank daromadi va kapitalining kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Amaliyotda bunday risklar kamroq uchraydi. Chunki bank bunday risk kutilayotganini sezishi bilanoq, banklararo bozorga murojaat qiladi va o'z mavqeyini yaxshilab olishga harakat qiladi.

Bu risklar, avvalo, bank daromadiga ta'sir qilsa, ikkinchidan, bank resurslaridagi o'zgarishlarga hamda bank mijozlarining unga bo'lgan ishonchidagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Eng muhimi, bu riskning ortishi bankka nisbatan bank faoliyatini tartibga solib turuvchi organlarning qattiq choralar ko'rib turishiga sabab bo'ladi.

Muvozanatlanmagan likvidlik riski  $R_{ml}$  quyidagi usullarda aniqlanadi:

$$R_{ml_1} = \frac{\text{Qarz olingan mablag'lar}}{\text{Yalpi aktivlar}}$$

$$R_{ml_2} = \frac{\text{Netto kreditlar}}{\text{Yalpi aktivlar}}$$

$$R_{ml_3} = \frac{\text{Naqd pullar} + \text{Muddati o'tgan banklararo kreditlar}}{\text{Yalpi kreditlar}}$$

$$R_{ml_4} = \frac{\text{Bank xazinasidagi naqd pullar} + \text{hukumat qimmatli qog'ozlari}}{\text{Yalpi aktivlar}}$$

[271]. Bozordagi foiz stavkalarining o'zgarishi daromadlar va operatsion xarajatlar o'rtasidagi farq hajmiga ta'sir qiladi.

**Foiz stavkalari o'zgarishi riski** – bu foiz stavkalari umumiy

darajasida nazarda tutilmagan o'zgarishlarning bank foydasiga salbiy ta'sir etish riskidir. Bu risk bozor iqtisodiyotiga xos obyektiv hodisadir. Bankning zarar ko'rishiga sabab, bank aktivlarini qaytarish muddatlari bilan bankning o'z majburiyatlarini bajarish muddatlari o'rtasidagi tafovut kattalashib ketadi.

Foiz stavkalarini o'zgarishi riski ( $R_{fo'}$ ) quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi:

$$R_{fo'} = \frac{A_{yus}}{P_{yus}}$$

$$R_{fo'} = \frac{D_s}{D_{ya}}$$

Bu yerda:

$A_{yus}$  – foiz stavkalarini o'zgaruvchanligini yuqori darajada sezuvchi aktivlar;

$P_{yus}$  – foiz stavkalarini o'zgaruvchanligini yuqori darajada sezuvchi passivlar;

$D_s$  – sug'urtalanmagan depozitlar;

$D_{ya}$  – yalpi depozitlar.

**Sug'urtalanmagan depozitlar** – asosan hukumat va uyushmalar-ning depozitlaridan ortiq hajmdagi depozitlari, shuningdek, foiz stavkasi o'zgaruvchanligini yuqori sezuvchi boshqa depozitlardir.

Foiz riski quyidagi sabablarga ko'ra likvidlikni yo'qotish riski bilan ham uzviy bog'langan:

□ Muddatlar bo'yicha aktivlar bilan passivlarning salbiy tafovuti bankning bozordan qimmat resurslarni sotib olishga majbur bo'lishiga olib kelibgina qolmasdan, balki uning umuman shu resurslarni jalb etolmay qolishiga ham olib keladi.

□ Juda qimmat resurslarni sotib olish yoki aktiv operatsiyalar bo'yicha daromadlarni bank undira olmasligi mumkin. Kapital miqdori bankning ishlamaydigan ko'chmas aktivlaridan kamayib qolsa, bankda «darcha» paydo bo'ladi va u daromad keltirmaydigan aktivlarni pulli resurslar bilan ta'minlashga majbur bo'ladi.

Barcha xarajatlar va soliq to'lovlaridan so'ng qolgan sof foydaga tegishli risk esa **ko'zlangan foydaning yetarli bo'lmasligi riskidir**. Bank faoliyatida yoki bankdan tashqaridagi sharoitning yoki hukumat qonunchiligining o'zgarishi natijasida bank foydasi hajmi keskin

qisqarib ketishi mumkin. Banklararo raqobatning kuchayishi bank aktivi bo'yicha daromad bilan bankning vaqtincha mablag' jalb qilishidagi xarajati orasidagi farqning qisqarishiga olib keladi.

Natijada bank aksionerlarining bitta aksiyaga to'g'ri keladigan daromadi miqdori kamayib ketadi va bank aksiyasining bahosi pasayib, uning obro'siga putur etadi.

Ko'zlangan foydaning yetarli bo'lmasligi riski quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi:

- soliq to'langandan keyingi daromadning o'zgarishi;
- bank kapitali va aktivlari daromadliligining tebranishi.

Bank kapitali va aktivlari daromadliligining tebranishi qancha kuchli bo'lsa, bankning daromadi risk (xatar) ostida qoladi. Bankning qimmatli qog'ozlariga o'z mablag'larini jalb qilgan investorlar foyda olmasliklari riski vujudga kelganini tushunsalar, ular bankning boshqa vositalar yordamida daromad olishga yoki mablag'larini boshqa daromadliroq faoliyatlarga yo'naltirish harakatiga tushib qoladilar.

### **8.3. Risklarni boshqarish usullari**

[272]. Eng avvalo shuni ta'kidlash lozimki, bank faoliyatida gap riskdan umuman qochish to'g'risida emas, balki uni oldindan chamlash, ko'ra bilish va uni minimal darajaga tushirish haqida boradi. Riskni boshqarish o'z oldiga aksariyat hollarda bankning o'z mablag'larining bir qismini yo'qotish «xavfi», daromad ololmay qolish yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha xarajatlarga yo'l qo'yib bo'lsa-da, faoliyatni ijobiy natija bilan yakunlashni maqsad qilib qo'yadi.

Umuman bank riskini boshqarish riskni yuzaga kelish ehtimolini xomcho't qilish, risk tufayli yuzaga keladigan noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Riskni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (37-chizma).

Bank riskini boshqarish banklar faoliyatini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish, bankning kredit, investitsiya, valuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini mukammal bilishni talab etadi.

Bank riskini boshqarishda bank boshqaruvchisining asosiy vazifasi



bank faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan daromad bilan unda yuzaga keluvchi risklar o'rtasidagi optimal variantini topishdan iborat.


[273]. Bank risklarini boshqarishda muayyan tamoyillar va talablarga tayaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

### **Tamoyillar, talablar:**

- o'z kapitalidan ortiq summaga risk qilmaslik;
- kam daromad olish imkoniyatida risk qilishga intilmaslik;
- bir mijozga yoki bir-biri bilan bog'liq qarzdorlar guruhiga berilgan yirik kreditlar ko'pincha banklarning inqirozga sabab bo'lishini unutmazlik;
- bir qarz oluvchiga beriladigan kredit miqdori bankning ustav kapitali miqdorining 10 foizidan yuqori bo'lmasligini asos qilib olish;
- bank tomonidan beriladigan yirik kredit bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 10 foizidan oshmasligiga rioya qilish;
- bir qarz oluvchiga yoki o'zaro bog'liq qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi maksimal miqdor bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 15 foizidan oshmasligini asos qilib olish;
- ishonchli (blankali) kreditlar bo'yicha maksimal risk miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 5 foizidan oshmasligiga rioya qilish;
- bank tomonidan berilgan yirik kreditlarning umumiy summasi bank regulyativ kapitalining birinchi darajasidan 8 martadan oshmasligini asos qilib olish;

### **Xalqaro bank amaliyotida:**

- biron bir qarz oluvchi bank asosiy kapitalining 10 foiz ekvivalentidan ortiqcha mablag' ololmaydi;
- bir tarmoqqa beriladigan kredit miqdori bankning umumiy portfelining 25 foizidan oshmasligi lozim;
- bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi taxminiy risk (garovga qo'yilgan mulk baholangandan keyin) bank asosiy kapitalining 1 foizidan oshmasligi kerak;
- taxminiy (kutilayotgan) risk ko'lami mijozdan olinishi ehtimol qilinayotgan yillik foyda miqdorining 3 baravaridan oshib ketmasligi kerak.



**37-chizma.** Riskni boshqarish jarayoni.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda aksariyat banklar sohalar bo'yicha (Savdogarbank, G'allabank, Paxtabank, Mikrokreditbank va h.k.) ixtisoslashgan banklar bo'lib, ularning kredit qo'yimlarining asosiy qismi o'zi ixtisoslashgan sohalarga yo'naltiradi.

Bu yerda ham muayyan talab o'rnatilishi lozim. Prof. Sh.Abdullayevaning fikriga ko'ra, bank bir sohaga kredit berganda, shu soha uchun berilgan kreditlar ko'lami bank kredit portfelining 35 foizidan oshmasligi lozim. Bu ham kredit riskining oldini olishning

omillaridan biri bo‘lishi mumkin.<sup>1</sup>

[274]. Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning quyidagi asosiy turlariga e’tiborni qaratmoq lozim:

- depozitlarni shakllantirish riski;
- yangi faoliyat turi riski (masalan, faktoring operatsiyalar bo‘yicha);
- lizing kelishuvi riski;
- qarzdorning o‘z moliyaviy majburiyatlari yuzasidan bajarmagan faoliyati bilan bog‘liq kredit riski;
- bozor foiz stavkalarining farqlanish ehtimoli bilan bog‘liq foiz risklari;
- qimmatli qog‘ozlarning qadrsizlanish ehtimoli bilan bog‘liq bozor riski.
- valuta kurslarining farqlanishi bilan bog‘liq valuta risklari. Bank bunday riskka chet el valutasida turli xildagi operatsiyalar o‘tkazish, valutalar oldi-sotdisi, valutaviy kreditlar berish natijasida duch keladi.

Bank o‘z faoliyatida mavjud riskni aniqlash, uni qabul qilish, uni kuzatib borish va uni boshqarish qobiliyatiga tayyor ekanligini o‘z zimmasiga olishi lozim.

[275]. Risklar asosan quyidagi usullarni qo‘llash yordamida boshqariladi (57-jadval).

Agar risklarning oldini olishning to‘liq imkoniyati mavjud bo‘lmasa, u holda oxirgi manba riskni qoplash hisoblanadi. **Riskni qoplash** quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- banklar tomonidan umumiy va maxsus zaxira fondlarini tashkil qilish;
- ma’lum yig‘indilarni zararlarga o‘tkazish;
- kredit bo‘yicha foizlar belgilashni to‘xtatish va boshqalar.

Risklarni boshqarish daromad bilan risk o‘rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o‘z ichiga oladi.

[276]. Bank amaliyotida kredit berish barcha operatsiyalar tarkibida eng salmoqli o‘rinni egallaydi. Shu bois kredit riskini minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish o‘ta dolzarb masala bo‘lib qolaveradi. Bu tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi (58-jadval).

---

<sup>1</sup> Abdullayeva Sh. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. – 145-bet.

**Risklarni boshqarish usullari**

<b>№</b>	<b>Risklarni boshqarish usullari</b>
1.	Diversifikatsiya siyosatini o'tkazish;
2.	Depozit sertifikatlarini joriy qilish;
3.	O'zgaruvchan, suzib yuruvchi foiz stavkalari asosida kredit berish;
4.	Kreditlarni va depozitlarni sug'urtalash;
5.	Garov asosida kreditlarni kengaytirish;
6.	Banklarning hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish;
7.	Yirik kreditlarni faqat konsorsional asosda berish (banklararo bitimlarga asosan risklarni taqsimlash);
8.	Real shaxsiy kafolatlar asosida kreditlashni qo'llash;
9.	Tashqi risklar (tarmoq, tarmoqlararo, mintaqaviy va boshq.)ni hisobga olish;
10.	Bank mijozining moliyaviy ahvolini muntazam nazorat qilib borish, to'lovga layoqatliligi, reytingini baholab borish;
11.	Risklarni boshqarishda e'tiborga olish zarur bo'lgan tamoyillar va talablarga rioya qilish;
12.	Risklarni aniqlash usullari va ularning natijalarini risklarni boshqarishda keng qo'llash va h.k.

**Kredit riskini kamaytirish usullari**

<b>№</b>	<b>Riskni kamaytirish choralari</b>	<b>Izoh</b>
1.	Mijozning kreditga layoqatliligini baholash	<input type="checkbox"/> Bu usul mijozning reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeyidan kelib chiqishi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim.
2.	Bitta qarz oluvchiga beriladigan kreditning summasini kamaytirish	<input type="checkbox"/> Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.
3.	Kreditlarni sug'urtalash	<input type="checkbox"/> Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini nazarda tutadi.
4.	Etarli ta'minotni talab qilish	<input type="checkbox"/> Bu usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi.

5.	Diskontli ssudalar berish	<input type="checkbox"/> Bu ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usullarda kredit berish kreditga minimum to'lov olishni ta'minlaydi.
----	---------------------------	--

[277]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, foiz riski foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi natijasida yuzaga kelib, bozor iqtisodiyotiga xos obyektiv hodisadir. Bank tuzilayotgan shartnomalar bo'yicha (kredit shartnomalari bo'yicha ham, depozit shartnomalari bo'yicha ham) foiz stavkalarini qayd etar ekan, ko'pincha shunday vaziyatga tushib qoladiki, bunda u yo qimmatlashgan resurslarni stavkalar moliya bozorlarining daromadlilik darajasi pastroq bo'lgan vaqtda belgilangan aktiv operatsiyalarni fondlash uchun sotib olish, yoxud ilgari sotib olinadigan qimmat resurslarini pasaygan stavkalar bo'yicha joylashtirish mumkin. Chunki uni joylashtirish muddati resurslar jalb etilgan muddatga qaraganda kamroqdir.

Foiz xatarini boshqarishdan maqsad bozor foiz stavkalarini tebranishlarining bank rentabelligiga salbiy ta'sirni minimallashtirishdan iborat. Foiz stavkalarining o'zgarish xatari farqlantiruvchi xususiyati shundan iboratki, uning ta'siri bank uchun ham salbiy, ham ijobiy bo'lishi mumkin.

Foiz xatarini boshqarish bankni foiz shaklida sof foyda olish vazifalarini qo'yishga va bankning foiz xatariga qanchalik duch kelganligini chamalab ko'rishga majbur etadi. Buning uchun yo tafovutni tahlil qilish usuli (ing. GAP -uzilish, interval), yohud davomiylikni tahlil qilish usulidan foydalaniladi.

Bank portfelining shakllanish doirasida foiz stavkalari o'zgarish riskini boshqarishda ikki xil strategiya bo'lishi mumkin:

- foiz stavkalarining dinamikasini prognoz qilish;
- foiz stavkalari prognozlanayotgan o'zgarishining salbiy ta'sirini minimallashtirish maqsadida bank portfeli tuzilmasini o'zgartirish tadbirlarini o'tkazish.

Agar foiz stavkalarining o'zgarish tendensiyalarini oldindan aytib bo'lmasa yoki foiz stavkalari tartibsiz tebranib tursa, u holda tafovutni boshqarishning **mudofaa strategiyasini** qo'llash o'rinli bo'ladi. U bank portfelini boshqarishga passiv yondashishni bildirmaydi va bank operatsiyalarini boshqarishda g'oyaning yuksak faol bo'lishini talab qiladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Qarang: Jurnal. Bozor, pul va kredit. 1999 yil mart.

Foiz riskini quyidagi usullar vositasida minimallashtirish mumkin:

1. Foiz riskini quyi bo'g'indagi tegishli sug'urta tashkilotiga o'tkazish yo'li bilan sug'urtalash.

2. Kreditlarni suzuvchi foiz stavkasida berish. Bu usul bankka berilgan kreditlarning foiz stavkasiga bozordagi foiz stavkalarining tebranishini hisobga olib tegishli o'zgartirishlar kiritishga imkoniyat beradi va bank ssuda foizining bozor normasining oshishi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlardan qochish uchun sharoit yaratib beradi.

3. Muddatli kelishuvlar. Bank va mijoz o'rtasida belgilangan summa va o'rnatilgan foizda, ma'lum bir kelishilgan kunda ssuda bilan ta'minlash to'g'risida maxsus **forvard** bitimi imzolanadi. Bunday bitimni tuzish yordamida bank ssudalarni berish vaqtida bozor foiz stavkalarining tushib ketishi xavfidan o'zini himoyalaydi. Bunda ancha past to'lov evaziga kredit olgan mijoz yutadi.

4. Foizli fyuchers shartnomalari. Bu usul bozor foiz stavkalarining tebranishidagi spekulatsiya (chayqovchi)lar hamda foiz riskini qoplash uchun qo'llaniladi.

5. Foiz opsionlari. Bu opsion egasiga qat'iy o'rnatilgan bahoda kelgusida belgilangan kunda yoki ungacha qisqa muddatli depozit yoki ssudani sotish yoki sotib olish huquqini (majburiyat emas) beruvchi kelishuvidir.

6. Foiz svoplari. Bu usul bitta summaga, lekin turli shartlarda tuzilgan kredit majburiyatlari bo'yicha banklar o'rtasida bo'ladigan foiz to'lovlari almashinuvi bo'lib, foiz riskini minimallashtirishga bir qadar yordam berishi mumkin.

[278]. Valuta riskini quyidagi usullar yordamida minimallashtirish mumkin (59-jadval).

Bozor riskini quyidagi vositalar yordamida minimallashtirish mumkin:

1. **Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga tuzilgan fyuchers shartnomalari.** Ular shartnoma egalariga oldindan o'rnatilgan kurs bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi.

2. **Fond opsionlari.** Bu aksiyalarni (yoki boshqa qimmatli qog'ozlarni, agar ular fond birjasida aylanayotgan bo'lsa) kelishilgan muddat davomida sotish yoki xarid qilish huquqini beradi.

3. **Investitsiya portfelining diversifikatsiyasi.** Bu usul qimmatli qog'ozlarni qadrsizlanishdan himoya qilishning eng maqbul usulidir.

## Valuta riskini minimallashtirish usullari

№	Usullar	Izoh
1.	Forvard kursini hisobga olish	<input type="checkbox"/> Kredit shartnomasida oʻrnatilgan forvard kursini hisobga olib boshqa valutada qaytarish sharti bilan biror bir valutada ssuda berish. Bunday tadbirlar bankni kredit valutasini kursining pasayishi ehtimoligidan himoya qiladi.
2.	Forvard valuta shartnomalari	<input type="checkbox"/> Bunday operatsiyalar bitim summasini va forvard almashuv kursini shartnomada qatʼiy oʻrnatib xorijiy valutani oldi-sotdisi boʻyicha bank va mijoz oʻrtasida muddatli kelishuv imzolanishni nazarda tutadi.
3.	Valutaviy fyuchers shartnomalari	<input type="checkbox"/> Fyucherslar maʼlum bir miqdordagi xorijiy valutani kelgusida aniq bir kunda sotish yoki sotib olish kelishuvini oʻzida aks ettiradi.
4.	Valuta svoplari	<input type="checkbox"/> Bu usul ikki tomon oʻrtasida turli valutalar-dagi toʻlovlarning kelajakda almashinishi haqidagi kelishuv asosida amalga oshiriladi.
5.	Valuta riskini sugʻurtalash	<input type="checkbox"/> Bunday tadbir barcha riskni sugʻurta tashkilotiga oʻtkazishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, banklarning oʻz faoliyatlari jarayonida duch keladigan turli xildagi risklarni pasaytirish usullari boʻyicha tadbirlarning ishlab chiqilishi risk sohasida bank strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday turdagi operatsiyalarni bank oʻz mablagʻlari hisobidan ham yoki mijoz topshirigʻiga asosan ham amalga oshiradi.

## 8.4. Tayanch iboralar

<input type="checkbox"/> <i>risk</i>	<input type="checkbox"/> <i>sof risklar</i>
<input type="checkbox"/> <i>ichki risklar</i>	<input type="checkbox"/> <i>sunʼiy risklar</i>
<input type="checkbox"/> <i>tashqi risklar</i>	<input type="checkbox"/> <i>tizimli risklar</i>
<input type="checkbox"/> <i>kredit riski</i>	<input type="checkbox"/> <i>tizimsiz, nomuntazam risklar</i>
<input type="checkbox"/> <i>foyda olmaslik riski</i>	<input type="checkbox"/> <i>ochiq risklar</i>
<input type="checkbox"/> <i>foiz stavkalari oʻzgarishi riski</i>	<input type="checkbox"/> <i>yopiq risklar</i>
<input type="checkbox"/> <i>toʻlay olmaslik riski</i>	<input type="checkbox"/> <i>balanslashmagan likvidlik riski</i>
<input type="checkbox"/> <i>kassa risklari</i>	<input type="checkbox"/> <i>bankrotlik riski</i>
<input type="checkbox"/> <i>bozor stavkalari oʻzgarishi riski</i>	<input type="checkbox"/> <i>suiisteʼmol riski</i>
<input type="checkbox"/> <i>valuta riski</i>	<input type="checkbox"/> <i>likvidlik riski</i>
<input type="checkbox"/> <i>hisob-kitob risklari</i>	<input type="checkbox"/> <i>operatsion va texnologik risklar</i>
<input type="checkbox"/> <i>investitsiya riski</i>	<input type="checkbox"/> <i>innovatsiya riski</i>

- |  |   |
|--|---|
| <input type="checkbox"/> <i>lizing operatsiyalari riski</i>    | <input type="checkbox"/> <i>bank xavfsizligi riski</i>            |
| <input type="checkbox"/> <i>faktoring operatsiyalari riski</i> | <input type="checkbox"/> <i>risk darajasi</i>                     |
| <input type="checkbox"/> <i>bank portfeli riski</i>            | <input type="checkbox"/> <i>risk koeffitsiyenti</i>               |
| <input type="checkbox"/> <i>risk zonalari</i>                  | <input type="checkbox"/> <i>risklarni boshqarish</i>              |
|  | <input type="checkbox"/> <i>riskni qoplash</i>                    |
|  | <input type="checkbox"/> <i>muvozanatlanmagan likvidlik riski</i> |

## 8.5. Test topshiriqlari va masalalar

### 1. Risk deganda:

- «tavakkal qilmoq» tushuniladi;*
- «xavfli ishga qo‘l urmoq» tushuniladi;*
- «xavf ostida qolmoq» tushuniladi;*
- a + b + c.*

### 2. Qamrab olish darajasiga qarab risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- retrospektiv risklar;*
- makrodarajadagi risklar;*
- joriy risklar;*
- istiqbolli risklar.*

### 3. Ta‘sir qilish vaqtiga qarab risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- mikrodarajadagi risklar;*
- mezodarajadagi risklar;*
- retrospektiv risklar;*
- megodarajadagi risklar.*

### 4. Passiv operatsiyalar bo‘yicha risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- diversifikatsiya riski;*
- kredit riski;*
- bankrotlik riski;*
- innovatsiya riski.*

### 5. Aktiv operatsiyalar bo‘yicha risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- inflatsiya riski;*
- kassa riski;*
- kliring riski;*
- foiz riski.*

### 6. Passiv operatsiyalar bo‘yicha risklar quyidagi turlarga



**bo‘linadi:**

- a) *bozor riski;*
- b) *foyda olmaslik riski;*
- c) *bank xavfsizligi riski;*
- d) *depozitlar riski.*

**7. Aktiv operatsiyalar bo‘yicha risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:**

- a) *valuta riski;*
- b) *faktoring riski;*
- c) *investitsiya riski;*
- d) *a + b + c.*

**8. Vujudga kelish sohasi bo‘yicha risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:**

- a) *ichki va tashqi risklar;*
- b) *jamg‘armalar riski;*
- c) *barter riski;*
- d) *foyda ololmaslik riski.*

**9. Balansdan tashqari operatsiyalar bo‘yicha risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:**

- a) *operatsion va texnologik risklar;*
- b) *suiiste‘mol riski yoki iqtisodiy bilim va tashkilotchilik darajasi riski;*
- c) *lizing operatsiyalari riski;*
- d) *foiz stavkalarining o‘zgarishi riski.*

**10. Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bo‘yicha risklar quyidagi turlarga bo‘linadi:**

- a) *bank portfeli riski;*
- b) *bankrotlik riski;*
- c) *innovatsiya riski;*
- d) *inflatsiya riski.*

**11. Sof risklar:**

- a) *ko‘pincha obyektiv xarakterga ega bo‘ladi va salbiy («–» yoki «0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi;*
- b) *ko‘pincha subyektiv xarakterga ega bo‘lib, nafaqat salbiy, shu bilan bir qatorda ijobiy natijaga erishish ehtimolini bildiradi;*
- c) *ko‘pincha sun‘iy bo‘ladi;*

*d) bozor konyunkturasini yaxshi o'rganmaslik oqibatida vujudga keladi.*

**12. Quyida qayd qilingan risklarning qaysi bir turi to'lovga noqobillik riski turiga taalluqli?**

- a) kredit riski;*
- b) valuta riski;*
- c) foiz riski;*
- d)  $a + b + c$ .*

**13. Balanslashmagan likvidlik riski ko'pincha:**

- a) mijoz tanlashda yanglishish natijasida vujudga keladi;*
- b) bank boshqaruvi va xodimlar malakasining sayozligi natijasida vujudga keladi;*
- c) risklarni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarning takomillashmaganligi natijasida vujudga keladi;*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**14. Chet el tijorat banklari risklarni besh toifaga, ya'ni A, B, V, G va D toifalarga ajratadi. Unda «A» toifa:**

- a) yuqori darajadagi risk hisoblanadi;*
- b) past darajadagi risk hisoblanadi;*
- c) o'rtacha darajadagi risk hisoblanadi;*
- d) nomaqbul risk hisoblanadi.*

**15. Ichki risklar:**

- a) makro muhit darajasida yuzaga keladi;*
- b) bank faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi;*
- c) bevosita bank faoliyati natijasida vujudga keladi;*
- d)  $a + b$ .*

**16. Kredit riski:**

- a) mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi;*
- b) bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi;*
- c) bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarni saqlanish bilan bog'liq xavfli holatlar natijasida yuzaga keladi;*
- d) bozor narxlari nomaqbul o'zgarishi oqibatida ehtimolli zarar ko'rilishi tufayli ro'y beradi.*

### **17. Valuta riski:**

a) qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy holati yomonlashishi oqibatida investitsiyalar portfelining kamayishi yoki qo'yilgan mablag'larni yo'qotish riskini ifodalaydi;

b) qarz oluvchi o'z qarzini qaytarmasligi oqibatida zarar ko'rilishi bilan bog'liq bo'lgan riskni ifodalaydi;

c) nisbiy bozor narxlari darajasining keskin o'zgarishi natijasida bank aktivlari haqiqiy qiymatining pasayishini anglatadi;

d) valuta almashtirish kursining o'zgarishi natijasida chet el valutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi.

### **18. Bozor riski:**

a) ijarachining bankdan olgan mulkidan samarali foydalana olmasligi, shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi;

b) bozor narxlari nomaqbul o'zgarishi oqibatida ehtimolli zarar ko'rilishi tufayli yuzaga keladi;

c) bankning uchinchi shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik natijasida yuzaga keladi;

d) qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

### **19. Investitsiya riski:**

a) bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarni saqlanishi bilan bog'liq xavfli holatlar natijasida vujudga keladi;

b) bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi;

c) qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy holati yomonlashishi oqibatida investitsiyalar portfelining kamayishi yoki qo'yilgan mablag'larni yo'qotish riskini ifodalaydi;

d) qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

**20. Bank portfeli riski:**

a) qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq holda yuzaga keladi;

b) mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi;

c) bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi;

d)  $b + c$ .

**21. 210-test topshirig'ida qaysi bir javob «hisob-kitob risklari»ni anglatadi?**

a)  $b$

b)  $c$

c)  $d$

d)  $a$

**22. 210-test topshirig'ida qaysi bir javob «kassa risklari»ni anglatadi?**

a)  $d$

b)  $c$

c)  $a$

d)  $b$

**23. 212-test topshirig'ida qaysi bir javob «Lizing operatsiyalari bo'yicha risk»ni anglatadi?**

a)  $d$

b)  $c$

c)  $b$

d)  $a$

**24. 212-test topshirig'ida qaysi bir javob «Faktoring operatsiyalari bo'yicha risk»ni anglatadi?**

a)  $d$

b)  $a$

c)  $c$

d)  $b$

**25. Bankrotlik riski:**

a) bankning o'z resurslarini yo'qotish, ulardan samarali foydalana

*olmasligi natijasida yuzaga keladi;*

*b) bankning resurs sifatida jalb qilgan mablag'lari bilan kreditga bergan mablag'lari summasi, muddati, foiz stavkasining darajasi bo'yicha mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi;*

*c) o'z kapitali va resurslarini yo'qotish oqibatida o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovga layoqatsiz bo'lish va faoliyatni to'xtatish natijasida vujudga keladigan riskdir;*

*d) bank boshqaruvchilari, xodimlari yoki mijozlari o'z vazifalarini suiiste'mol qilib, shaxsiy manfaatlari yo'lida amaldagi qonunchilikka bank faoliyatini tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlar talablariga zid ravishda faoliyat ko'rsatishlari natijasida yuzaga keladi.*

**26. 25-test topshirig'ida qaysi bir javob «Balanslashmagan likvidlik riski» ning yuzaga kelishini bildiradi?**

*a) c*

*b) b*

*c) d*

*d) a*

**27. 25-test topshirig'ida qaysi bir javob «Suiiste'mol riski» ning yuzaga kelishini bildiradi?**

*a) b*

*b) c*

*c) a*

*d) d*

**28. 25-test topshirig'ida qaysi bir javob «Foyda olmaslik riski» ning yuzaga kelishini bildiradi?**

*a) a*

*b) c*

*c) d*

*d) b*

**29. Foiz riski:**

*a) bankning o'z majburiyatlari bo'yicha o'z vaqtida pul to'lashga qobil emasligi bilan bog'liq bo'lib, buning oqibatida majburiyatlar oshganda ham qisqa muddatlarda maqbul narxlarda aktivlarni sotishda ham mablag' olish imkoni bo'lmaganligi sababli yuzaga keladi va zarar ko'riladi;*

*b) bankning kreditga bergan mablag'lari bo'yicha oladigan foiz stavkasiga nisbatan jalb qilgan resurslari bo'yicha yuqori stavkalar*

*bilan to'lashga majbur bo'lgan holda yuzaga keladi;*

*c) ma'lum bir sabablar tufayli bankning innovatsiyaga yo'llagan mablag'lari mo'ljallangan samara bermasa yoki yo'qotilgan hollarda yuzaga keladi;*

*d) bank binosi, undagi mavjud axborot g'amlamasi, kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi bilan bog'liq omillar ta'sirida yuzaga keladi.*

**30. 29-test topshirig'ida qaysi bir javob «Likvidlik riski» ning yuzaga kelishini bildiradi?**

*a) b*

*b) d*

*c) a*

*d) c*

**31. 29-test topshirig'ida qaysi bir javob «Innovatsiya riski» ning yuzaga kelishini bildiradi?**

*a) b*

*b) d*

*c) a*

*d) c*

**32. 29-test topshirig'ida qaysi bir javob «Bank xavfsizligi riski» ning yuzaga kelishini bildiradi?**

*a) d*

*b) c*

*c) a*

*d) b*

**33. Risk koeffitsiyenti:**

*a) yo'qotishlarga olib keluvchi holatlar sonini tahlilga jalb qilingan holatlarning umumiy soniga bo'lish yordamida aniqlanadi;*

*b) bankning barcha operatsiyalar bo'yicha ko'rishi mumkin bo'lgan zararlar yig'indisini bankning o'z mablag'lariga bo'lingani va olingan natijani bank tashqi risklarining me'yoriy koeffitsiyentiga ko'paytirilganiga teng*

*c) harakatda bo'lmagan aktivlar summasini yalpi kredit hajmi bilan lizing bo'yicha majburiyatlar yig'indisiga bo'lish yordamida aniqlanadi;*

*d) hisobdan chiqarilgan kreditlar summasini sof kredit hajmi bilan lizing bo'yicha majburiyatlar yig'indisiga bo'lish yordamida aniqlanadi.*

**34. 33-test topshirig'ida qaysi bir javob «Yo'qotishlar darajasi (koeffitsiyenti)» ni ifodalaydi?**

- a)  $b$
- b)  $d$
- c)  $a$
- d)  $c$

**35. 33-test topshirig'ida qaysi bir javob «Kredit riski» darajasini ifodalaydi?**

- a)  $b$
- b)  $a + b$
- c)  $a$
- d)  $c + d$

**36. Kredit riskining haqiqiy darajasi qanday aniqlanadi?**

- a)  $K_r = \frac{TMK}{BK}$  ;
- b)  $K_r = \frac{H_{bla}}{Y_{kh} + L_{bm}}$  ;
- c)  $K_r = \frac{H_{chk}}{S_{kh} + L_{bm}}$  ;
- d)  $K_r = \frac{KMZ}{O'M}$  .

Bu yerda:

TMK – to'lanmagan kreditlar;

BK – berilgan kreditlar;

$H_{bla}$  – harakatda bo'lmagan kreditlar;

$Y_{kh}$  – yalpi kredit hajmi;

$L_{bm}$  – lizing bo'yicha majburiyatlar;

$H_{chk}$  – hisobdan chiqarilgan kreditlar;

$S_{kh}$  – sof kredit hajmi;

KMZ – ko'rilgan maksimal zararlar;

O'M – o'z mablag'lar.

**37. 36-test topshirig'ida qaysi bir formula risk darajasi (ko'rsatkichi) ni ifodalaydi:**

- a)  $c$
- b)  $d$
- c)  $a$
- d)  $b$

**38. Harakatda bo'lmagan aktivlar – bu:**

- a) *bankka qaytarilishidan butunlay umid uzilgan va zararlar*

sifatida hisobdan chiqarilgan kreditlardir;

b) 30 kundan kam bo'lmagan va undan ortiq muddat ichida daromad keltiruvchi aktivlardir;

c) 90 kundan kam bo'lmagan va undan ortiq muddat ichida daromad keltiruvchi aktivlar, shu jumladan, kredit qo'yilmalaridir;

d) 120 kundan kam bo'lmagan va undan ortiq muddat ichida daromad keltiruvchi aktivlar.

**39. Bo'lishi ehtimoli bo'lgan risklar zonasida:**

a) yo'qotish xavfi bo'ladi;

b) yo'qotishlar bo'lishi aniq;

c) mulkni ham yo'qotish holati bo'ladi;

d) tushum bo'ladi.

**40. Yo'qotish xavfi bor bo'lgan risk zonasini:**

a) kritik risk zonasi deyiladi;

b) halokatli risk zonasi deyiladi;

c) maksimum risk zonasi (yo'qotishlar) deyiladi;

d) bo'lishi ehtimoli bo'lgan risklar zonasi deyiladi.

**41. To'lov qobiliyatsizligi riski:**

a) bank aksiyasi qiymati bilan uning bitta aksiyasiga to'g'ri keladigan bir yillik daromadining nisbati bilan ifodalanadi;

b) aksiyadorlar sarmoyasi sof qiymatining bank yalpi aktivlariga bo'lgan nisbati orasidagi farq darajasini ifodalaydi;

c) bank tomonidan chiqarilgan, hisobdan chiqarish muddati bir xil bo'lgan qog'oz majburiyatlari (qimmatli qog'ozlar va depozit sertifikatlari) bilan davlat qimmatli qog'ozlari o'rtasidagi farq darajasini ifodalaydi;

d) noto'g'ri javob yo'q.

**42. Muvozanatlanmagan likvidlilik riski quyidagi usullarning qaysi biri yordamida aniqlanadi?**

a) 
$$R_{ml} = \frac{\text{Qarzga olingan mablag'lar}}{\text{Yalpi aktivlar}}$$

b) 
$$R_{ml} = \frac{\text{Netto kreditlar}}{\text{Yalpi aktivlar}}$$

c) 
$$R_{ml} = \frac{\text{Naqd pullar} - \text{Muddati o'tgan banklararo kreditlar}}{\text{Yalpi aktivlar}}$$

d) 
$$a + b + v$$



**43. Riskli aktivlar – bu:**

- a) barcha kreditlardir;
- b) kreditlar va qimmatli qog'ozlardir;
- c) barcha qimmatli qog'ozlardir;
- d) naqd pullar, bino va inshootlar hamda boshqa turli aktivlardir.

**44. Bir qarz oluvchiga beriladigan kredit miqdori bank ustav kapitali miqdorining:**

- a) 3 foizidan yuqori bo'lmashligi kerak;
- b) 5 foizidan yuqori bo'lmashligi kerak;
- c) 10 foizidan yuqori bo'lmashligi kerak;
- d) 15 foizidan yuqori bo'lmashligi kerak.

**45. Ishonchli (blankli) kreditlar bo'yicha maksimal risk miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining:**

- a) 5 foizidan oshmasligiga rioya qilish kerak;
- b) 8 foizidan oshmasligiga rioya qilish kerak;
- c) 10 foizidan oshmasligiga rioya qilish kerak;
- d) 15 foizidan oshmasligiga rioya qilish kerak.

**46. Bank tomonidan berilgan yirik kreditlarning umumiy summasi bank regulyativ kapitalining birinchi darajasidan:**

- a) 2 martadan oshmasligini asos qilib olish kerak;
- b) 3 martadan oshmasligini asos qilib olish kerak;
- c) 5 martadan oshmasligini asos qilib olish kerak;
- d) 8 martadan oshmasligini asos qilib olish kerak.

**47. Xalqaro bank amaliyotida bir tarmoqqa beriladigan kredit miqdori bank umumiy portfelining:**

- a) 15 foizidan oshmasligi lozim;
- b) 20 foizidan oshmasligi lozim;
- c) 25 foizidan oshmasligi lozim;
- d) 30 foizidan oshmasligi lozim.

**48. Xalqaro bank amaliyotida bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi taxminiy risk (garovga qo'yilgan mulk baholangandan keyin) bank asosiy kapitalining:**

- a) 1 foizidan oshmasligi kerak;
- b) 2 foizidan oshmasligi kerak;
- c) 3 foizidan oshmasligi kerak;
- d) 5 foizidan oshmasligi kerak.

**49. Xalqaro bank amaliyotida taxminiy (kutilayotgan) risk ko‘lami mijozdan olinishi ehtimol qilinayotgan yillik foyda miqdorining:**

- a) 2 baravaridan oshib ketmasligi kerak;*
- b) 3 baravaridan oshib ketmasligi kerak;*
- c) 4 baravaridan oshib ketmasligi kerak;*
- d) 5 baravaridan oshib ketmasligi kerak.*

**50. Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning qaysi turlariga ko‘proq e‘tiborni jalb qilish lozim?**

- a) depozitlarni shakllantirish riski;*
- b) lizing kelishuvi riski;*
- c) bozor foiz stavkalarining farqlanish ehtimoli bilan bog‘liq foiz risklari;*
- d)  $a + b + c$ .*

**51. Quyida qayd qilingan riskni kamaytirish usullaridan qaysi biri kredit riskini kamaytirish usuli hisoblanadi?**

- a) mijozni kreditga layoqatlilikini baholash usuli;*
- b) bitta qarz oluvchiga beriladigan kredit summasini kamaytirish usuli;*
- c) yetarli ta‘minlashni talab qilish usuli;*
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.*

**52. Quyida qayd qilingan qaysi bir usul vositasida foiz riskini minimallashtirish mumkin?**

- a) kreditlarni suzuvchi foiz stavkasida berish;*
- b) forvard kursini hisobga olish;*
- c) valuta riskini sug‘urtalash;*
- d) valuta svoplari kelishuvini tuzish.*

**53. Quyida qayd qilingan qaysi bir usul vositasida valuta riskini minimallashtirish mumkin?**

- a) foiz riskini quyi bo‘g‘indagi tegishli sug‘urta tashkilotiga o‘tkazish yo‘li bilan sug‘urtalash;*
- b) foizli fyuchers shartnomalarini tuzish;*
- c) forvard kursini hisobga olish;*
- d) bank va mijoz o‘rtasida belgilangan summa va o‘rnatilgan foizda, ma‘lum bir kelishilgan kunda ssuda bilan ta‘minlash to‘g‘risida maxsus forvard bitimini imzolash.*

**54. Quyida qayd qilingan qaysi bir usul vositasida bozor riskini**

### **minimallashtirish mumkin?**

- a) qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga tuzilgan fyuchers kontraktlarini tuzish;
- b) fond opsiyonlarini qo'llash;
- c) investitsiya portfelining diversifikatsiyasini amalga oshirish;
- d)  $a + b + c$ .

### **55. Foizli fyuchers kontraktlari – bu usul:**

- a) bitta summaga, lekin turli shartlarda tuzilgan kredit majburiyatlari bo'yicha banklar o'rtasida bo'ladigan foiz to'lovlari almashinuvi bo'lib, foiz riskini minimallashtirishga bir qadar yordam beradi;
- b) bozor foiz stavkalarining tebranishidagi spekulatsiya (chayqovchi)lar hamda foiz riskini qoplash uchun qo'llaniladi;
- c) bankka berilgan kreditlarning foiz stavkasiga bozordagi foiz stavkalarining tebranishini hisobga olib tegishli o'zgartishlar kiritishga imkoniyat beradi va bank ssuda foizining bozor normasining oshishi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlardan qochish uchun sharoit yaratib beradi;
- d) ikki tomon o'rtasida turli valutilardagi to'lovlarning kelajakda almashinishi haqidagi kelishuv asosida amalga oshiriladi.

### **8.6. Nazorat uchun savollar**

1. Risk deganda nimani tushunasiz?
2. Bank sohasida riskning qanday turlarini bilasiz?
3. Vujudga kelish sabablariga ko'ra risklar qanday turlarga bo'linadi?
4. Tizimli va tizimsiz, ochiq va yopiq risklar deganda nimani tushunasiz?
5. Bank risklarini qanday toifalarga bo'lish mumkin?
6. Ichki va tashqi risklar to'g'risida nimalar deya olasiz?
7. Bank operatsiyalari xususiyatiga ko'ra risklar qanday turlarga bo'linadi?
8. Bankning aktiv operatsiyalari risklari to'g'risida nimalar deya olasiz?
9. Bankning passiv operatsiyalari risklari to'g'risida nimalar deya olasiz?
10. Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklar haqida nimalar deya olasiz?

11. Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq risklar to‘g‘risida nimalar deya olasiz?
12. Riskni aniqlashning qaysi usullarini bilasiz?
13. Risk koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
14. Kredit riski qanday hisoblanadi?
15. Risk zonolari deganda nimani tushunasiz? Ularni bilish zaruriyati nimada?
16. To‘lov qobiliyatsizligi riski qanday aniqlanadi?
17. Muvozanatlanmagan likvidlik riski qanday hisoblanadi?
18. Foiz stavkasi va ko‘zlangan foydaning yetarli darajada bo‘lmaslik riski qanday hisoblanadi?
19. Riskni boshqarish qanday jarayonlarni o‘z ichiga oladi?
20. Bank risklarini boshqarishda qanday tamoyillar va talablarga tayanish zarur?
21. Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning qaysi turlariga ko‘proq e‘tiborni jalb qilish lozim?
22. Qanday usullar yordamida risklar boshqariladi va qoplanadi?
23. Kredit riskini kamaytirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?
24. Foiz riskini qaysi usullarda minimallashtirish mumkin?
25. Valuta va bozor riskini qanday usullar yordamida minimallashtirish mumkin?

## 9-bob. BANK FOIZI VA FOIZ STAVKALARI

### 9.1. Bank foizi va undan foydalanish mexanizmi

[279]. **Ssuda foizi** vaqtincha muddatga berilgan qiymatdan foydalanganligi uchun to‘lanadigan o‘ziga xos to‘lovdir. Uning to‘lovchisi ham, ta‘minot manbayi ham mijoz va uning foydasi hisoblanadi.

Ssuda foizi turli ko‘rinishlarda bo‘lib, ularni bir qator belgilar bo‘yicha tasniflash mumkin (60-jadval).

**60-jadval.**

#### Ssuda foizining turkumlanishi

№	Tasniflash belgilari	Ssuda foizi turlari
1. 2	Kredit shakllari bo‘yicha	<input type="checkbox"/> Tijorat krediti bo‘yicha foiz <input type="checkbox"/> Bank foizi <input type="checkbox"/> Iste‘mol krediti bo‘yicha foiz <input type="checkbox"/> Lizing shartnomalari bo‘yicha foiz <input type="checkbox"/> Davlat krediti bo‘yicha foiz
2.	Kredit tashkilotlari bo‘yicha	<input type="checkbox"/> Markaziy bank hisobiga foiz <input type="checkbox"/> Lombard krediti bo‘yicha foiz <input type="checkbox"/> Bank foizi
3.	Investitsiyalar turi bo‘yicha	<input type="checkbox"/> Aylanma mablag‘lar uchun berilgan kredit bo‘yicha foiz <input type="checkbox"/> Asosiy fondlar uchun berilgan kredit bo‘yicha foiz <input type="checkbox"/> Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalash uchun berilgan kredit bo‘yicha foiz
4.	Kreditlash muddatlari bo‘yicha	<input type="checkbox"/> Qisqa muddatli ssuda foizi <input type="checkbox"/> Uzoq muddatli ssuda foizi <input type="checkbox"/> o‘rta muddatli ssuda foizi
5.	Kredit tashkilotlarining operatsiyalari turlari bo‘yicha	<input type="checkbox"/> Depozit foizi <input type="checkbox"/> Ssuda foizi <input type="checkbox"/> Banklararo kredit foizi va boshq.

Bank foizi kredit munosabatlariga kirishgan ikkita subyektning bittasi bank bo‘lsagina vujudga kelishi mumkin.

Shuni ta‘kidlash lozimki, kredit tashkiloti ssudani asosan o‘zining emas, balki jalb etilgan mablag‘lar hisobidan beradi. Vaqtincha bo‘sh bo‘lgan pul mablag‘larini qayta taqsimlashdagi vositachilik faoliyati uchun bankning olgan daromadi kompensatsiya rolini bajaradi. Bank

aktivlari zimmasidagi majburiyatlarning bajarmaslik riski omonatchilar passivlari oldidagi majburiyatlarning bajarmaslik riskining oshishiga olib keladi. Shunday qilib bank ssudalar bo'yicha to'lay olmaslik riskini o'z zimmasiga oladi.

Foiz siyosati nafaqat pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda, shuningdek, kredit munosabatlarini boshqarishda ustuvor iqtisodiy vosita vazifasini bajaradi.

**[280].** Bank foizidan foydalanish mexanizmi deganda ssuda foizi siyosatini olib borishda va uni amaliyotga joriy qilishda qo'llaniladigan vositalar, choralar to'plami tushuniladi. Ularning ayrimlari quyidagilar hisoblanadi:

- foiz darajasini shakllantirish usullari;
- foiz stavkalarini tabaqalashtirish mezonlari;
- Markaziy bank tomonidan foiz me'yorlarini muvofiqlashtirish usullari;
- foizlar bo'yicha o'zaro to'lovlar va undirishlar tartibi;
- foizni to'lash manbalari;
- qarz oluvchilar manfaatlarini himoya qilish tizimi bilan foiz o'rtasidagi bog'lanish;
- kredit tashkilotining daromadi va xarajatini shakllantirishda foizning o'rni.

Bu mexanizm, bir tomondan, foizni tovar ishlab chiqarish iqtisodiy kategoriyasi sifatida ifodalasa, ikkinchi tomondan, uning foiz siyosatini olib borish maqsadiga bog'liq ekanligini ifodalaydi. Amaliyotda aksariyat hollarda uning iqtisodiy tabiatiga qarama-qarshi subyektiv ustuvorlik namoyon bo'ladi. Bozor munosabatlarigacha, ya'ni xo'jalik mexanizmi amal qilgan davrda bank foizidan foydalanish asosan davlatning xo'jalik yuritish siyosatiga bo'ysungan holda amalga oshgan. Bu siyosat o'zgarishi bilan bank foizidan foydalanish mexanizmi ham o'zgargan.

Bugungi kunda bank foizining quyidagi mexanizmlaridan foydalanilmoqda:

- foiz darajasi kredit resurslariga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda subyektlar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida o'rnatiladi;
- ssudalar bo'yicha foiz stavkalarini o'rnatishi kredit kelishuvlari amalga oshirilayotgan aniq sharoitlarga qarab, ya'ni:
  - ssuda summasi va uni uzish muddati;

- ssuda ta'minotining mavjudligi;
- mablag'larni jalb qilish sarflari;
- kreditni rasmiylashtirish va nazorat qilish xarajatlari;
- bankni rentabelli bo'lishini ta'minlash zaruriyati;
- mijozning kreditga layoqatliligi kabilarni inobatga olgan holda bank va mijoz kelishuvlari asosida amalga oshiriladi.

- bankning passiv operatsiyalariga nisbatan foizning ahamiyati oshib borishi kuchayadi, bo'sh pul mablag'larini omonatga qo'yish rag'batlantirilib boriladi;

- foizlarni o'rnatish va undirish o'zaro kelishuv bitimi asosida amalga oshirilib, odatda har oy foiz o'tkazib (to'lab) turiladi;

- kredit jamg'armalarining yo'nalishiga qarab foizlarni to'lash (o'tkazish) turlicha bo'lishi mumkin:

- aylanma mablag'lari uchun berilgan kreditlar bo'yicha to'lovlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi;

- asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa aylanma mablag'lari bo'lmagan aktivlarni sotib olish uchun berilgan kreditlar bo'yicha xarajatlar korxonaga foydasiga qo'shiladi.

Bank kreditlaridan foydalanganligi uchun to'langan foiz xarajatlari MB tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalari doirasida soliqqa tortiladigan bazani kamaytiradi. Ammo muddatdan o'tgan kreditlar foizi soliq bazasini kamaytirmaydi.

Foiz mexanizmidan foydalanish foizlar bo'yicha daromad va xarajatlarning bankning pirovard moddiy manfaatdorligi bilan bevosita bog'liqligida namoyon bo'ladi.

**[281].** Ssuda foizida foydalanish mexanizmidagi asosiy unsurlaridan biri - bu ssuda foizi darajasini shakllanish usuli hisoblanadi. Bozor munosabatlarining rivojlanish sharoitida, kredit to'lovlarining erkinligida, makroiqtisodiyot darajasida foiz uchun o'rtacha foyda me'yoriga erishish ustuvor vazifa hisoblanadi. Foizning o'rtacha foyda me'yoridan u yoki bu tomonga og'ishiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Ularni ikki guruhga, ya'ni umumiy va xususiy omillarga bo'lish mumkin.

**Umumiy omillarga** quyidagilar kiradi:

- zayomlarga bo'lgan talab va taklif nisbati;
- Markaziy bankning muvofiqlashtiruvchi siyosati;
- qadrsizlanayotgan pulning ta'minot darajasi.

**Xususiy omillar** tabiati tijorat banklarining faoliyat ko'rsatish

sharoitlari, shuningdek, mijozlar bilan tuziladigan bitimlarning xususiyati bilan belgilanadi. Bulardan tashqari, bu omillar ssuda foizining ayrim turlari bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, **depozit foizi** darajasi yuqoridagi omillardan tashqari quyidagi omillar ta'sirida bo'ladi:

- bankning aktiv operatsiyalari bo'yicha foiz darajasi;
- jalb qilinadigan depozitning muddati va summasi;
- bankning ishonchliligi.

Banklararo pul bozorida foiz darajasi, boshqa sharoitlarni hisobga olmaganida, odatda, depozit foizi me'yoridan oshadi. Chunki ssuda berilayotganda kredit muassasasining xarajatlari va manfaati hisobga olinadi.

**Bank aktivlari bo'yicha** foiz darajasiga quyidagi xususiy omillar ta'sir qiladi:

- ssuda summasi va uni to'lash (qaytarish) muddati;
- ssuda summasining ta'minlanganlik darajasi;
- bank ssuda kapitalining tannarxi;
- mijozning kreditga layoqatliligi va uning bank bilan bo'lgan o'zaro munosabatining mustahkamligi.

Bank ssuda kapitalining tannarxi jami qilingan xarajatlar summasini maqsadli joylashtirilgan mablag'lar (ishlayotgan aktivlar) summasiga bo'lish yordamida aniqlanadi:

$$BSK_m = \frac{BX}{IA}$$

Bu yerda:

$BSK_m$  – bank ssuda kapitalining tannarxi;

$BX$  – bank xarajatlari. Bu xarajatlar barcha ssuda kapitaliga ta'luqli bo'lmay faqat maqsadli joylashtirilgan qismiga qilingan xarajatlardir. Maqsadli joylashtirilmagan ssuda kapitali qismi xarajat sifatida qayd qilinadi.

$IA$  – ishlayotgan aktivlar.

Bank xarajatlari quyidagi ikki turdagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bank resurslarini shakllantirish bo'yicha xarajatlar;
- bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlar.

**Birinchi guruhga:** bankka jalb qilingan bank va boshqa mijozlar mablag'lari bo'yicha foiz to'lovlari, zayomlar va depozitlar, shuningdek, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar majburiyatlari bo'yicha foizlar kiradi.

Mavjud tasniflash tartibiga binoan **ikkinchi guruh** xarajatlariga



quyidagilar kiradi:

□ ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy-maishiy xizmatlar uchun qilingan sarflar

□ chet el valuta operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar;

□ qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar;

□ kassa, hisob raqamlari operatsiyalari, olingan grantlar bilan bog'liq xarajatlar;

□ boshqa operatsion xarajatlar, shu jumladan, texnikaga ko'rsatilgan qarov, axborotlashtirish xizmatlari, blankalarni tayyorlash, ularni pochta-telegraf orqali jo'natish, amortizatsiya, bino-inshootlar, transport vositalarni saqlash bo'yicha xarajatlar;

□ ijara to'lovlari, nodir metallar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xarajatlar, valuta, faktoring, lizing operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar va boshqalar;

□ jarima, penya va to'langan qarzlilar.

Ssuda kapitalining tannarxi amaliyotda aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz darajasini aniqlash uchun asos hisoblanadi. Ssuda foizining yuqori chegarasi bozor sharoitlari ta'siri ostida shakllanadi. Ssuda foizining quyi chegarasi bankka jalb qilingan mablag'lar bo'yicha xarajatlar va mazkur kredit muassasasi faoliyatini tashkil qilish bo'yicha sarflar ta'siri ostida shakllanadi. Bular esa, o'z navbatida, kredit resurslarining tarkibiy tuzilishi sifatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, mablag' uchun to'lov salmog'ining oshishi foiz darajasining quyi darajasini ko'taradi va aksincha.

**[282].** Foiz me'yorini hisoblashda tijorat banklari tomonidan quyidagilarni inobatga olish nazarda tutiladi:

□ Tayanch foiz stavkasining darajasi. Bu ko'rsatkich, odatda, ta'minlangan ssudalar bo'yicha kreditga layoqatli mijozlar uchun o'rnatiladi.

□ Har bir bitim (kelishuv) shartlarini hisobga olgan holda risk uchun ajratilgan qo'shimcha mablag'.

Tayanch foiz stavkasi taxmin qilinayotgan ssuda kapitali tannarxi va bo'lajak davrda mo'ljal qilingan rentabellik darajasiga asoslanib aniqlanadi:

$$T_{fs} = \bar{S}_1 + \bar{S}_2 + F$$

Bu yerda:

$T_{fs}$  – tayanch foiz stavkasi;

$\bar{S}_1$  – rejalashtirilayotgan davrda kredit resurslarining o‘rtacha real bahosi;

$\bar{S}_2$  – bank faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha rejalashtirilgan xarajatlarning ( $R_x$ ) maqsadli joylashtirilishi kutilayotgan mablag‘lar hajmi ( $K_{mh}$ ) ga bo‘lgan nisbati;

$F$  – bank ssuda operatsiyalarining rejalashtirilayotgan foydalilik (rentabellik) darajasi.

Kredit resurslarining o‘rtacha real bahosi ( $\bar{S}_1$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$\bar{S}_1 = \frac{P_i \cdot d}{\sum d}$$

Bu yerda:

$\bar{P}_i$  – bankka jalb qilinadigan har bir resursning real bahosi;

$d$  – har bir resursning salmog‘i;

$\sum d$  – bankka jalb qilingan jami (to‘lovli va to‘lovsiz) resurslar.

O‘z navbatida, har bir resursning o‘rtacha real bahosi ( $\bar{P}_i$ ) mazkur resurslarning bozordagi nominal bahosi va Markaziy bankka majburiy zaxira qilinadigan deponent me‘yoriga o‘zgartirish kiritish asosida aniqlanadi:

$$\bar{P}_i = \frac{D_f}{1 - Z_m} \cdot 100$$

Bu yerda:

$D_f$  – bank tomonidan zudlik bilan jalb etiladigan depozitlarning o‘rtacha real bahosi;

$Z_m$  – depozit foizining o‘rtacha bozor darajasi.

Xuddi shu tartibda boshqa turdagi jalb qilinadigan resurslarning real bahosi aniqlanadi.

Risk uchun qo‘shimcha quyidagi mezonlarga bog‘liq holda tabaqalashadi:

- mijozning kreditga layoqatliligi;
- ssuda bo‘yicha ta‘minotning mavjudligi va xarakteri;
- berilayotgan kredit muddati;
- bank bilan mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning mustahkamligi;

- foiz to'lovlari usullari;
- kreditlash muddatlariga rioya qilish.

## 9.2. Foiz riski, ularni baholash va boshqarish usullari

**[283]. Foiz riski** – foiz stavkalarining o'zgarishi ta'sirida bankning moliyaviy zarar ko'rish ehtimolidir. Bu risk tijorat banklarida uning sof daromadining kamayishidan tortib to bank kapitali qiymatining yo'qotilishigacha namoyon bo'lishi mumkin. Natijada jalb qilingan mablag'larning o'rtacha qiymati joylashtirilgan mablag'larning o'rtacha qiymatidan oshib ketadi.

Bazel Qo'mitasi foiz riskining yuzaga kelishida quyidagi sabablarini qayd qiladi:

- **Bahoning o'zgarish riski.** Bu omil tijorat – foiz riskiga bog'liqligi, shuningdek, bank aktiv va passivida to'lovlarning o'z muddatida bajarilmaslik hamda foiz stavkasini zudlik bilan qayta ko'rib chiqish holatlarida kelib chiqadi.

- **Daromad chizig'ining o'zgarish riski.** Vaqt bo'yicha aktiv va passivlardagi foiz stavkalari o'zgarishining mos kelmasligi grafikdagi daromad chizig'ining salbiy tomonga og'ishiga olib keladi.

- **Opsionlar bilan bog'liq risklar.** Opsion bitimlar o'z egasiga obligatsiya, veksel va boshqa turdagi foizli qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish yoki kelishuv shartlarini o'zgartirish huquqini beradi. Bunday bitim asosida mijoz kreditlarini muddatdan oldin qaytarishi, shuningdek, depozitlarini muddatdan oldin qaytarib olishi mumkin. Bu qadar erkinlik bank aktiv va passivdagi muddat doirasidagi nomutanosiblikka olib keladi. Natijada bank bundan yaxshigina foiz riskiga duch keladi.

**[284]. Marja** – bank aktivi keltirgan daromad foizi bilan bank majburiyatlari bo'yicha xarajat foizi o'rtasidagi tafovutdir. Bank marjasini ikki qismga ajratish mumkin:

- **Foizli marja** ( $F_{lm}$ ) – bu daromad keltiruvchi aktivlar (qimmatbaho qog'ozlar, kreditlar, boshqa investitsiya loyihalari) dan keladigan foiz daromadlari ( $F_d$ ) bilan bank tomonidan jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz majburiyatlari ( $F_m$ ), ya'ni xarajatlari o'rtasidagi farq:

$$F_{lm} = F_d - F_m$$

Foizli marja tijorat banklari tomonidan foyda darajasini rejalashtirish jarayonida asosiy strategik ko'rsatkich hisoblanadi. Bu

yerda daromad keltiruvchi aktivlardan olinadigan foiz daromadlari majburiyatlar bo'yicha foiz xarajatlaridan katta bo'lishi, ya'ni:

$$F_d > F_m$$

foyda miqdorini orttiradi. Foizli marjaning nisbiy ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_f = \frac{SD}{A_d} \cdot 100$$

Bu yerda:

$M_f$  – foizli marja;

$SD$  – foiz evaziga erishilgan sof daromad;

$A_d$  – daromad keltiruvchi bank aktivi summasi.

Amaliyotda foizli marjani hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$M_f = \frac{SD - X}{A_d} \cdot 100$$

Bu yerda:

$X$  – foizlarni to'lash uchun sarflangan xarajatlar.

Foizli marjani tahlil qilish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

□ foizli marjaning haqiqiy darajasi bilan oldingi davrdagi darajasini qiyoslash. Bunday tahlil foizli marjaning dinamikasini kuzatish imkoniyatini beradi;

□ foizli marja darajasini standart daraja yoki o'xshash banklardagi marja darajasi bilan qiyoslash;

□ foizli marjaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar (komponentlar) salmog'ini tahlil qilish;

□ foizli marjaning o'zgarishini boshqarishni talab qiluvchi qarorlar qabul qilish uchun marja foizining o'zgarish chegaralarini aniqlash.

Foizli marjaning o'zgarishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir qiladi:

□ kredit qo'yilmalarining hajmi, tarkibi va manbalari;

□ to'lov muddatlari;

□ foiz stavkalarini qo'llash xarakteri va ularning dinamikasi.

□ **Foizsiz sof marja** ( $F_{sm}$ ) – bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha olinadigan haq ( $B_{xh}$ ) bilan bank tomonidan to'langan komission to'lovlar ( $B_{kt}$ ) o'rtasidagi farqdir.

$$F_{sm} = B_{xh} - B_{kt}$$

Foizsiz sof marja miqdoridagi o‘zgarishlar bank xizmatlari bo‘yicha o‘rnatiladigan haqlar hajmini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi.

[285]. Erkin foiz siyosatini o‘tkazish uchun kredit muassasasi eng avvalo bank xizmatining ichki qiymati qanday oraliqda bo‘lishi va bu koeffitsiyent qanday daraja atrofida bo‘lishini bilishi shart. Bu ko‘rsatkich bank tomonidan joylashtirilgan mablag‘ va uning har bir so‘mi sarflangan xarajatlarning har bir so‘mini qanchalik darajada qoplaganini ifodalaydi.

Bu ko‘rsatkich minimal foizli marja ( $M_{fm}$ ) deb atalib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{fm} = \frac{X_{bf} - X_t}{A_d} \cdot 100$$

Bu yerda:

$X_{bf}$  – joriy davrda bank faoliyatini ta‘minlash uchun sarflangan xarajatlar;

$X_t$  – bankning boshqa turli xarajatlari (aktiv operatsiya xarajatlaridan tashqari);

$A_d$  – bankning ishlayotgan aktivlari.

$X_{bf}$  – ya‘ni joriy davrda bank faoliyatini ta‘minlash uchun sarflangan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

□ ma‘muriyatni saqlash va ijtimoiy-maishiy maqsadlar uchun xarajatlar;

□ to‘langan to‘lovlar, shu jumladan, kassa, hisob operatsiya va olingan kafolatlar bo‘yicha xarajatlar;

□ boshqa operatsion xarajatlar, shu jumladan, texnika qarovi uchun to‘lovlar, axborot xizmati, blankalarni tayyorlash, ko‘paytirish, jo‘natish bo‘yicha xarajatlar, amortizatsiya to‘lovlari, bino va inshootlarni saqlash, pochta, telegraf xarajatlari va h.k.;

□ boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, shu jumladan, kredit muassasasidagi anjomlarni sotish, akt qilish, hisobdan chiqarib tashlash, debitorlik qarzlarni o‘chirish, o‘g‘irlangan naqd pulni, moddiy mablag‘larni, qalbaki qog‘oz pullar va tangalarni hisobdan chiqarish (akt qilish) uchun qilingan xarajatlar, ijara to‘lovlari, arbitraj ishlari bo‘yicha sud xarajatlari, auditorlik tekshiruvlar va hisobotlarni ko‘paytirish uchun qilingan xarajatlar.

$X_{bf}$  va  $X_t$  xarajatlar bank hisobotidagi foyda va zarar **bo‘limi**

ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

[286]. Har qanday korxonada intilgani kabi bank ham sarflagan xarajatlarini to'liq qoplabgina qolmay, balki rejada ko'zda tutilgan foydani olishga ham erishishi lozim. Buni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$T_{mf} = 0,1 \cdot JQR + M_{mf} + M_{fm}$$

Bu yerda:

$0,1 \cdot JQR$  – majburiy zaxiralar fondini shakllantirish maqsadida jalb qilingan resurslarning o'rtacha joriy qiymatiga qo'shilgan qiymat (jalb qilingan resurslar qiymatidan 10 foizi);

$M_{mf}$  – minimal foizli marja;

$M_{fm}$  – minimal risk ehtimoli bilan qo'yilmalar bo'yicha bank aktiv operatsiyalari foydaliligining minimal me'yori. Bu ko'rsatkich joriy kvartalning moliyaviy rejasi va aktiv operatsiyalar hajmini kengaytirish yoki kamaytirish rejasi asosida hisoblanadi.

[287]. Bu ko'rsatkich bankning aktiv operatsiyalari, xususan kredit bitimlari natijasida oladigan minimal daromadini ifodalaydi. Uni hisoblashda quyidagi ma'lumotlar asos qilib olinadi:

$$M_D = JQR_{yu} + 0,1 \cdot JQR + M_{mf} + M_{fm}$$

Bu yerda:

$JQR_{yu}$  – bank bo'yicha jalb qilingan resurslarning joriy o'rtacha qiymati. Bu ko'rsatkich jalb qilingan ayrim resurs (instrument) larning individual haqiqiy qiymatlarini tortilgan summasining nisbatiga teng.

### 9.3. Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari

[288]. Kreditning asosiy sharti – olingan qarz uchun haq to'lash. Bu haq olingan qarz yig'indisiga nisbatan foiz hisobida olinganidan uni qarz foizi yoki kreditning **foiz stavkasi** deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, kreditning foiz stavkasi berilayotgan kreditga nisbatan foizda belgilanib, kreditning narxini ifoda etadi. Kredit narxi, odatda, bir yil uchun belgilanadi. Foiz stavkasining o'sishi kreditning qimmatlashuvini, pasayishi esa uning arzonlashganini ifodalaydi. «**Arzon pullar siyosati**» yoki «**Qimmat pullar siyosati**» kabi iboralarning iste'molga kirib kelishi ham kreditning qimmatlashuvi yoki arzonlashishidan kelib chiqqan.

Kredit foizi pul bozorida amal qiladi. Bozorda foiz stavkasining

o'zgarishiga qarab foiz stavkasi ikki turga bo'linadi:

- qat'iy belgilangan foiz stavkasi;
- suzib yuruvchi foiz stavkasi.

**Qat'iy belgilangan foiz stavkasi** – zayom mablag'idan foydalaniladigan barcha davr uchun o'zgarmaydigan bir xil darajada o'rnatilgan stavkadir. Bu stavkalar kredit shartnomasi bajarilgunga qadar o'zgarishdan qoladi.<sup>1</sup> Bu tijorat banki uchun noqulay stavkadir. Bunda bank o'z aktivlarining ma'lum qismini yo'qotishi mumkin. Masalan, bank 30% stavkada bir yillik kredit berdi, deylik. Uch oydan keyin ssuda kapitali bozorida bir yillik kreditlarning foiz stavkasi 35%ga ko'tarilsa, bu zarardir.

**Suzib yuruvchi foiz stavkasi** – bu o'rta va uzoq muddatli kreditlarga o'rnatiladigan stavka bo'lib, uning darajasi pul-kredit bozoridagi konyunkturaga bog'liq ravishda tebranib turadi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi ikki asosiy ajralmas qismdan tashkil topadi. Birinchi qismi pul-kredit bozoridagi konyunkturaga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Uning vazifasini odatda taklifdagi kredit resurslarining banklararo stavkalari, ya'ni Londonda – LIBOR, Parijda – PIBOR, Singapurda – SIBOR, Quvaytda – KIBOR, Lyuksemburgda – LYUKSIBOR va hokazolar qo'llaniladi.

[289]. LIBOR – Londondagi jahon ssuda kapitali bozorida etakchi erkin almashadigan valutarlar, ya'ni AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi kabi valutalardagi depozitlarga to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasidir. U har kuni London vaqti bilan soat 12<sup>00</sup> da butun dunyoga «Faynenshil tayms» London gazetasi orqali e'lon qilinadi.

LIBOR eng yirik London banklari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi bo'lib, unga asoslanib London banklari yevrovaluta bozorida birinchi toifali banklarga ssuda taqdim etadi. Amaliyotda LIBOR valuta turlari va muddatlari bo'yicha (1, 3, 6 va 12 oyga) tabaqalanadi. LIBORning rasmiy holda qayd etilishi mavjud emas. Yevro-valuta bozorida operatsiyalar olib boradigan har bir yirik London banklari pul bozorida vujudga kelgan konyunkturaga ko'ra uni belgilaydi va o'zgartiradi.

LIBOR odatda o'zgarib turuvchi foiz stavkalari shartlari bilan o'rta muddatli bank kreditlari berilishida bazis sifatida qo'llaniladi. Bunda LIBOR har bir kelishilgan foiz davri davomida kreditning o'zgarib turuvchi quyi chegarasi narxini belgilaydi, odatda u 3-6 oyni tashkil

---

<sup>1</sup> Stavka o'zgarish darajada turadigan vaqt (odatda 3-6 oy) foiz davri deb yuritiladi.

etadi.

O'zgaruvchi stavkada bank aktivlari foizlarning o'zgarishi natija-sida zararga uchramaydi. Bu stavkalarni yevrodollarli kreditlar misolida ko'rib chiqish mumkin. Aytaylik, LIBORning darajasi 6 %, bank belgilangan - 1 %. Demak, yevrodollarli kreditning foiz stavkasi - 7 %. Agar LIBOR 5 %ga tushdi deylik. Bunda kreditning foiz stavkasi 6 % bo'ladi. Bank bundan zarar ko'rmaydi. Chunki spread o'zgarmasdan qoladi. Bu yerda faqat LIBOR o'zgaryapti.

[290]. Nominal foiz stavkasi deganda kredit shartnomasida ko'zda tutilgan foiz stavkalariga aytiladi. U **bozor joriy stavkasi** deb yuritiladi. Real foiz stavkasi esa – bu inflatsiya darajasini hisobga olgan holdagi stavkadir. Har ikkala stavka o'rtasidagi bog'lanishni J.Fisher quyidagicha ifodalagan:

$$\text{Real foiz stavkasi} = \text{Nominal foiz stavkasi} - \text{Inflatsiya darajasi}$$

Agar inflatsiyaning o'sish sur'ati foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, u holda real foiz stavkasi salbiy ko'rsatkichga aylanadi.

[291]. Xorijiy mamlakatlar tajribasida kredit narxini belgilashning «qiymat plyus» va «narx bo'yicha ustunlik» usullari mavjud. Kredit amaliyotida «**qiymat plyus**» usulidan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, uning asosida berilayotgan kredit summasiga bankning kredit bilan bog'liq xarajatlarini qoplash va uning foydasini ta'minlash darajasidagi **foiz** belgilanadi. Ushbu usulni qo'llashda quyidagilar hisobga olinadi:

□ qarz oluvchini kreditlash uchun jalb qilingan mablag'larning bankka qanchaga tushishi;

□ bankning kreditni rasmiylashtirish va qaytarilishini na-zorat qilish bilan bog'liq operatsion xarajatlari;

□ majburiyatlarni bajara olmaslik xatari uchun bankka to'lanadigan marja;

□ kreditdan olinishi kutilayotgan foyda.

Qayd qilinganlarning barchasi kredit summasiga yillik foiz asosida aniqlanishi mumkin. «Qiymat plyus» usulining asosiy kamchiligi bank o'z xarajatlarini hisobga olgani holda kredit bozoridagi raqobat va raqobatchilar narxini e'tiborga olmaydi.

«Narx bo'yicha ustunlik» usuli yordamida narxni belgilash dast-lab AQShda XX asrning “buyuk Depressiya” yillarida qo'llanilgan. Uning zamirida kreditni qaytarish qobiliyati yuqori bo'lgan qarz oluvchi uchun

---

<sup>1</sup> **Spread** – bu narx, kurs va stavkalar orasidagi farq.



qisqa muddatli kreditning eng minimal foiz stavkasini belgilash va shu bevosita stavkadan kelib chiqib, boshqalarga kredit narxini shakllantirish yotadi. Ushbu amaliyotni «praym-reyt» deb ham atashadi.

[292]. «Praymreyt» usulida boshqa qarz oluvchilarga beriladigan kreditning haqiqiy foiz stavkasi ( $F_s$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$F_s = \begin{array}{l} \text{Praym-} \\ \text{reyt} \\ \text{bazaviy} \\ \text{stavkasi} \end{array} + \begin{array}{l} \text{Birinchi sinf bo'lmagan} \\ \text{qarzdorlar to'laydigan} \\ \text{majburiyatlarni bajara} \\ \text{olmaslik riski uchun} \\ \text{mukofot} \end{array} - \begin{array}{l} \text{Uzoq muddatli kredit} \\ \text{qolgan qarz oluvchi} \\ \text{to'laydigan xatar} \\ \text{uchun mukofot} \end{array}$$

«Praym-reyt» stavkasi – tijorat banklari tomonidan ishonchli va kreditni qaytarish qobiliyati yuqori firmalarga beriladigan kredit bo'yicha eng past foiz stavkasidir. Umumiy holda ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{bs} = \frac{K_{sb} \cdot PO_{fs}}{K_q}$$

Bu yerda:

$F_{bs}$  – umumiy bazaviy foiz stavkasi;

$K_{sb}$  – samara beruvchi kredit resurslari;

$PO_{fs}$  – passiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalari;

$K_q$  – kredit qo'yilmalari hajmi.

«GEP» usulida foiz stavkasini aniqlashda kreditlash muddati davomida pul bozoridagi stavkalarni o'zgarishlaridan qat'iy nazar, tomonlar kelishuvida eng yuqori foiz darajasi belgilab qo'yiladi.

Masalan, «praym-reyt + 2» uchun 5% eng yuqori stavka. Agar «praym-reyt = 12 %» bo'lsa, kreditning eng yuqori stavkasi 19% bo'lishi mumkin, xolos. Uzoq muddatga berilgan kreditlarda bunday foiz hisob-kitobi kreditorga zarar keltirishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotda foiz stavkasini aniqlashning eng **oddiy shartnoma usuli** keng tarqalgan. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$F_m = \frac{a \cdot i \cdot d}{100 \cdot 360}$$

Bu yerda:

F – foiz miqdori;

a – bank schyotidagi mablag'larning o'rtacha qoldig'i;

$i$  – kredit uchun foiz stavkasi;

$d$  – davrdagi kunlar soni.

Bank kreditlari uchun foiz stavkalarining darajasi pul bozoridagi talab va taklif nisbatiga bog‘liq. Agar bu nisbat muvozanatda bo‘lsa, u holda bazaviy stavka va foiz marjasi miqdorini aniqlash mumkin bo‘ladi.

[293]. Tijorat banklari mijozga iste‘mol kreditini berayotganda, u bilan kelishgan holda, kreditga foiz stavkasini quyidagi usullarda belgilashi mumkin:

- yillik foiz stavkalari;
- oddiy foiz stavkalari;
- diskont foiz stavkalari;
- murakkab foiz stavkalar;
- qo‘shish usuli.

**Yillik foiz stavkasi** bir yil uchun to‘langan yalpi to‘lovlarning kredit summasiga bo‘lgan nisbatini ifodalaydi. Bu stavka jismoniy shaxslarga eng qulay kreditlarni tanlashga yordam beradi.

**Oddiy foiz stavkasi** eng avvalo qisqa muddatli kreditlar uchun qo‘llaniladi. Bunda har chorakda yoki boshqa muddat uchun bir marta shartnomaga binoan kreditorga foiz to‘lanadi. Bu usulda qarzdorning to‘laydigan umumiy to‘lov summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$S = P(1 + ni)$$

Bu yerda:

$S$  – boshlang‘ich qarzni hisobga olgan holda kredit uchun to‘lanadigan to‘lov summasi;

$P$  – boshlang‘ich qarz;

$i$  – foiz stavkasi;

$n$  – ssudaning davomiyligi (yil yoki ssudadan foydalanish kunlarining qo‘llaniladigan bazaga nisbati: 360 yoki 365 kun).

Oddiy foiz stavkasining xususiyati shundaki, mijoz kreditni bosqichma-bosqich to‘lashi natijasida foiz stavkasi qolgan qarz hisobidan olinadi.

Masalan, mijoz 2000 \$ hajmida kredit olgan va uni bosqichma-bosqich har chorakda bir marta 500 \$ dan to‘lash to‘g‘risida shartnomada kelishilgan bo‘lsin. Har bir chorakda foiz to‘lovi quyidagicha bo‘ladi:

$$\text{I chorak} = \text{foiz to‘lovi} = 2000 \cdot 0,12 \cdot 0,25 = 60 \$$$

$$\text{II chorak} = \text{foiz to‘lovi} = 1500 \cdot 0,12 \cdot 0,25 = 45 \$$$

III chorak = foiz to'lovi =  $1000 \cdot 0,12 \cdot 0,25 = 30$  \$

IV chorak = foiz to'lovi =  $500 \cdot 0,12 \cdot 0,25 = 15$  \$

Jami 1 yillik foiz to'lovi 150 \$ ni tashkil qiladi. Har chorakda to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar:

I chorak =  $500 + 60 = 560$  \$

II chorak =  $500 + 45 = 545$  \$

III chorak =  $500 + 30 = 530$  \$

IV chorak =  $500 + 15 = 515$  \$

Jami yillik to'lov 2150 \$ teng.

Ushbu ko'rsatkichlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, kreditga oddiy foiz stavkasi o'rnatilganda to'lov muddati yaqinlashgan sari mijozning mablag'i tejaladi.

[294]. Diskont inglizcha «discount» so'zidan olingan bo'lib, hisob-lamoq ma'nosini beradi. U uch xil ma'noda qo'llanilishi mumkin:

□ banklar tomonidan qimmatli qog'ozni muddatidan ilgari qaytarib sotib olish (aksiya hisobi);

□ qimmatli qog'ozni qayta sotib olgani uchun bank undiradigan foiz;

□ tovar narxi (masalan, sifatli standartga to'g'ri kelmaganda), birja va valuta bitimlarida valuta narxidan chegirma (tashlama).

Kreditga o'rnatiladigan **diskont foiz stavkasining** xususiyati shundaki, bu usulda foiz oldindan to'lanishi ko'zda tutiladi. Ya'ni to'lanadigan foiz miqdori oldindan hisoblanadi va kredit berilayotganda ushbu miqdor (summa) ushlab qolinadi. Aniqrog'i, kredit shu summa hisobiga kam beriladi.

Masalan, mijoz 2000 \$ kredit olmoqchi. Foiz stavkasi 12 %. 2000 \$ kredit uchun to'lanadigan 240 \$ miqdordagi foiz to'lovi kreditning asosiy hajmidan chegirib tashlanadi va mijozga 1760 \$ kredit beriladi. Ammo mijoz kreditni qaytarayotganda 2000 \$ qaytarishi lozim.

[295]. Yuqoridagi usullardan tashqari bank amaliyotida murakkab foiz stavkasi usuli ham qo'llaniladi. Undan uzoq muddatli kreditlashda foydalaniladi. Bu usulda asosiy summaning ustiga qo'shib hisoblangan summa bitimning oxirgi muddatigacha kreditorga berilmaydi, ammo mijozning qarzi ko'payib boraveradi. Bugungi amaliyotda bu usul jismoniy shaxslarning depozit schyotlari hisobida juda keng tarqalgan.

Murakkab foiz stavkasini qo'llashda qo'shib hisoblanadigan summa qarz summasiga qo'shiladi va unga foizni qo'shib hisoblash davom etilaveradi. Buni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$S = P(1+i)^n$  – o‘zgarmas foiz stavkasi bilan bo‘lganda;

$S = P(1+i_1)^n \cdot (1+i_2)^n \cdot 2 \cdot \dots \cdot (1+i_k)^n \cdot k$  – o‘zgaruvchi foiz stavkasi bilan bo‘lganda.

Bu yerda:

S – K yildan keyin bo‘ladigan qarz;

P – berilgan ssuda summasi;

$i_f$  – foiz stavkasi;

$n_k$  – berilgan ssudaning davomiyligi (yillarda), ya’ni mazkur stavkani qo‘llanilish davri.

Quyidagi shartli misolda murakkab stavkani qo‘llash tartibini ko‘rib chiqamiz. Aytaylik, bank mijozga:

R = 10000 so‘m qarzni 5 yil muddatga 10 foiz yillik stavka bilan berdi.

5 yildan keyingi bo‘ladigan qarzni hisoblang:

$$S_5 = 10000 \cdot (1+0,1)^5 = 16105 \text{ so‘m.}$$

Demak, qo‘shilgan foizlar 5 yil ichida:

$$S_5 - R = (16105 - 10000) = 6105 \text{ so‘mni tashkil qiladi.}$$

Agar bank oddiy foiz stavkalarini qo‘llaganda, u holda qarzni har yili undirib olardi va uning daromadi 5000 so‘mga teng bo‘lardi:

$$P_{x_i x_k} = (10000 \cdot 1,10 - 10000) \cdot 5 = 5000 \text{ so‘m}$$

Ko‘rib turibmizki, bank oladigan daromadlar o‘rtasidagi farq anchagina, ya’ni:

Bank daromadi = 6105 – 5000 = 1105 so‘m. Shunda bankning sof daromadi 1105 so‘mga ko‘payadi.

Agar har yili bir necha marta foiz qo‘shilib borsa, u holda yuqoridagi murakkab foizlarni hisoblash formulasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$S = P(1+Im)^N$$

Bu yerda:

m – yilda qo‘shilgan foizlar soni;

N – foiz qo‘shiladigan davrlarning umumiy soni.

Bank qaysi operatsiyalar tufayli yoki qaysi usulni qo‘llasa ko‘proq foyda olishini har tomonlama tahlil qilishi lozim. Masalan, inflatsiyani hisobga olganda bank qancha foyda yoki zarar ko‘rishi mumkin? Yoki qarzni so‘rab olmay qo‘shilgan foizlar yig‘ilgani ma’qulmi? Yoki har yili kreditlarni kredit to‘lovlarini talab qilgan ma’qulmi?

Shunga qarab foizlarni qo‘shishning turli usullari mavjud: ular

ssudadan foydalanadigan kunlarning o'zgarishi va yildagi kunlarning davomiyligi bilan belgilanadi. Masalan, ssudadan foydalanish kunlari aniq yoki taxminan aniqlanishi mumkin (bunda, har bir oyda 30 kun bo'lgan deb hisoblanadi). Yildagi kunlar esa (365 yoki 366), yoki taxminan 360 kun deb qabul qilinadi.

Shundan kelib chiqib, murakkab foiz stavkalari tegishli ravishda quyidagi usullarda hisoblanishi mumkin.

### **1. Ssuda kunlarining haqiqiy sonini aniq hisobga olgan holdagi aniq foizlar usuli.**

Bu usul aniq bo'lgani sababli markaziy va tijorat banklari tomonidan juda keng foydalaniladi. Uning xususiyati shundaki, foizni hisoblashda ssudadan foydalanadigan kunlar va yillardagi kunlar ham aniq beriladi. Masalan:

R – berilgan kredit summasi - 100000 so'm;

i – foiz stavkasi - 9 % yillik;

K – ssudadan foydalanadigan aniq kunlar soni;

$S_1$  – o'stirilgan qarz summasi.

$$S_1 = 100000 \cdot (1 + 0,09 \cdot 260 \text{ kun} : 365 \text{ kun}) = 106411 \text{ so'm}$$

### **2. Ssuda kunlarining haqiqiy sonini aniq hisobga olgan holdagi oddiy foizlarni qo'llash usuli.**

Bunda hisoblash uchun ssudadan foydalanadigan aniq kunlar olinib, yildagi kunlar esa 360 kun deb qabul qilinadi. Agar kredit kunlari 360 kundan oshsa, u holda qo'shilgan foiz yillik foiz stavkasidan yuqori bo'ladi (masalan, ssuda kunlari 364 kun bo'lib qolsa, u holda  $364:360 = 1,011$  bo'ladi).

Buni yuqoridagi ma'lumotlar misolida ko'rib chiqamiz.

$$S_2 = 100000 \cdot (1 + 0,09 \cdot 260 : 360) = 106499 \text{ so'm.}$$

### **3. Ssuda kunlarining haqiqiy sonini taxminiy olgan holdagi foizlarni qo'llash usuli.**

Bunda ssuda kunlari taxminan olinib 360 kun deb qabul qilinadi. Odatda, kunlarning aniq soni taxminiyga qaraganda ko'proq bo'lishi mumkin, shu sababli aniq kunlar soni bilan qo'shilgan foizlar taxminiyga qaraganda ko'proq bo'ladi deb hisoblanadi. Bizning misolimizda ssuda kunlarining taxminiy soni 257 kunga teng deb olingan. Shuni hisobga olgan holda:

$$S_3 = 100000 \cdot (1 + 0,09 \cdot 257 : 360) = 106424 \text{ so'm.}$$

Qo'llangan usullardan ikkinchi usul, ya'ni ssuda kunlarining haqiqiy sonini aniq hisobga olgan holdagi oddiy foizlarni qo'shish usuli boshqa usullarga nisbatan bankka ko'proq foyda keltirar ekan.

[296]. Real foiz stavkasini aniqlash bevosita inflatsiya darajasini aniqlash bilan bog'liq. Tasodifiy yoki tez inflatsiya sur'atlari sharoiti pul mablag'larini qarzga oluvchilar uchun qulay hisoblanib, ular keyinchalik qarzlarni qadrsizlangan pul bilan qoplaydilar. Kreditorlar esa narxlarning to'xtovsiz o'sishi sharoitida yutqazadilar.

Masalan, bank qarz oluvchiga bir yil muddatga 1200 ming so'mni 120 foiz bilan murakkab foiz asosida berdi. Agar inflatsiya yil davomida 140 foizni tashkil etsa, pulning xarid qobiliyatini topish lozim bo'lsin. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$S = \frac{P(1+i)^n}{(1+y)^n}$$

Bu yerda:

S – inflatsiyani hisobga olib qo'shilgan summa;

n – kredit muddati, yilda;

i – foiz stavkasi;

p – boshlang'ich summa;

y – inflatsiya darajasi;

(1 + y) – inflatsiya indeksi.

Bizning misolimizda:

$$S = \frac{1200(1+1,2)}{(1+1,4)} = 1100 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1200 ming so'm pulning xarid qobiliyati bir yildan so'ng 1100 so'mga pasayadi. Pulning qadrsizlanishi qarz oluvchiga 100 ming so'mlik samara keltiradi.

Agar kredit muddati bir yil bo'lib, inflatsiya sur'atlari aniq bo'lsa, u holda kreditning foiz stavkasi quyidagicha aniqlanadi:

$$i_{(y)} = i + y + i \cdot y$$

Qoplanishi lozim bo'lgan summa oddiy foizni hisoblash usulida quyidagicha aniqlanadi:

$$S = P [1 + n \cdot i(y)]$$

Agar yillik inflatsiya sur'atlari aniq bo'lib, u yil davomida

mutanosib o'zgarsa, bir yilgacha muddatga berilgan kreditlarning foiz stavkasi quyidagicha aniqlanadi:

$$i_{(y)} = i + y + r : n \cdot i \cdot y$$

Masalan, 25 mln. so'mlik qarz 90 kunga berilgan bo'lsin. Kutilayotgan inflatsiya 130 %. Agar kredit operatsiyasining daromadlilik darajasi 110 % ni tashkil etishi lozim bo'lib, bir yil 360 kun deb olinsa, qarz berishdagi oddiy foiz stavkasining qaytarilishi lozim bo'lgan summa qanchaga teng?

Buni, ya'ni foiz stavkasini quyidagicha aniqlaymiz:

$$i(y) = 1,1 + 1,3 + 90 : 360 \cdot 1,1 \cdot 1,3 = 2,7575 \text{ yoki } 275,7 \%$$

Inflatsiyani hisobga olgan holda qaytariladigan summa:

$S = 25\,000\,000 (1 + 90 : 360 \cdot 2,7575) = 42\,234\,375$  so'mni tashkil etadi.

Foiz stavkasini belgilashda foiz oluvchining talab-ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Agar inflatsiya sur'atlari yiliga 700-800 foizni tashkil etib, tijorat banklari kredit uchun foiz stavkasini shu yoki undan ortiq darajada belgilasa, bu kreditni olishga talabgorlar chiqmaydi. Shuning uchun ham, kredit uchun foizlarni belgilashda mijozlarning imkoniyatlari va talablari hisobga olinishi lozim.

[297]. Iste'mol kreditlari bank uchun eng daromadli kreditlardan hisoblanib, ularga o'rnatiladigan foiz stavkalari jalb qilingan mablag'larga belgilanadigan foiz stavkalaridan ancha yuqori bo'ladi. Agar jalb qilingan mablag'larning foiz stavkasi ko'tarilib ketsa, bank uchun iste'mol kreditlariga o'rnatiladigan foiz stavkasi o'z kuchini yo'qotish riskini vujudga keltirishi mumkin.

Iste'mol kreditlariga quyidagilar eng yuqori foiz stavkasining o'rnatilishiga sabab bo'ladi:

□ Iste'mol kreditlari juda riskli va bank uchun qimmatga tushadigan qo'yimalardan hisoblanadi.

□ Iste'mol kreditlari mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarga ham bog'liqdir. Iqtisodiyotning rivojlanishi iste'mol kreditlari hajmining oshish omili bo'lsa, uning tanazzulga yuz tutishi yoki rivojlanishining sekinlashishi iste'mol kreditlari hajmining keskin qisqarib ketishiga olib keladi. Chunki jismoniy shaxslar o'zlarining kelajagiga umidsizlik bilan qaraydilar. Bu hol ayniqsa ishsizlik ko'payganda yaqqol seziladi va bankdan qarz olish hajmi keskin kamayadi.

□ Iste'mol kreditini olish uchun bankka murojaat qilgan mijozlar kreditning oylik to'lovlarini muntazam ravishda to'lab borishlari mumkin. Lekin foiz stavkasiga kelganda, u oylik to'lovlar bilan birga to'lanib borsa ham mijozlarga xush kelmaydi.

□ Iste'mol kreditidan foydalanish asosan bilimlari darajasi va ularning daromadlari darajasiga bog'liq. Serdaromad kishilar iste'mol kreditidan ko'proq foydalanadilar. Shuningdek, oila boshlig'ining yoki oila boquvchisining bilim va ma'lumot darajasi yuqori bo'lsa, bunday kishilar ham iste'mol kreditidan ko'proq foydalanadilar. Ular iste'mol kreditini ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish omili deb hisoblaydilar.

[298]. Foiz darajasi unga ta'sir etuvchi omillar tufayli o'zgarib turadi. Ulardan asosiylari quyidagilar (61-jadval).

### 61-jadval.

#### Foiz stavkasiga ta'sir etuvchi omillar

№	Omillar	Izoh
1.	Pul bozorida talab va taklifning nisbati	□ Ya'ni bozorda qanday miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarzga beriladigan pul chiqarilgan. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif oshsa, u kamayadi.
2.	Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi	□ Aniqrog'i shu pulning iste'mol qiymati. Qarz puli tadbirkor uchun ko'p foyda keltirsa, yoki iste'molchi ehtiyojini to'laroq qondirsa, foiz yuqori bo'ladi, aks holda u pasayib ketadi. Bunda pulni hozir ishlatishdan tegadigan naf taqqoslanadi.
3.	Qarzni to'lash muddati va sharti	□ Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin-asta kichik-kichik qismlarga bo'lib, bimalol qaytarish mumkin bo'lsa, qarzdor past foizni ma'qul ko'radi. Gap shundaki, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, shunchalik uni ishlatib daromad ko'rish mumkin va shu hisobdan foiz to'lash engil bo'ladi.
4.	Qarzning qanday pul bilan berilishi	□ Agar qarz erkin konvertirlangan valutada berilsa, foiz yuqori belgilanadi, agar u oddiy valutada berilsa, foiz nisbatan past o'rnatiladi. Konvertirlangan pul obro'e'tiborli bo'lganidan uni ishlatish oson, undan tezda yaqin daromad ko'rish mumkin.
5.	Inflatsiya darajasi	□ Inflatsiya yuz bersa, qarzga beriladigan pul egasiga qaytib kelguncha o'z qadrini qisman yo'qotadi. Bunda pul egasi yutqazadi. Shu sababli foiz inflatsiyani hisobga olib o'rnatiladi. Foiz inflatsiya shiddatiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi.
6.	Pulni qarzga	□ Bunda pul egasining afzal ko'rish tamoyili amal qiladi.



	berishdan ko'ra boshqa yo'sinda ishlatishdan tushadigan daromad	Agar aksiya dividendi yuqori bo'lsa, foiz pasayadi va aksincha. Agar aksiyaga 15 % dividend berilsa, foiz undan yuqori bo'lishi shart. Aks holda pul egasi uni qarzga bermay, aksiya sotib olishni afzal ko'radi.
7.	Qarz berishning risk darajasi	<input type="checkbox"/> Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu xatarli bo'lib, qarz qaytishi shubhali bo'lsa, foiz yuqori bo'ladi. Odatda moliyaviy baquvvat va nufuzli firmalar uchun foiz tayinlanadi. Yuqori va past foiz o'rtasidagi farq pul egalari uchun ma'lum darajada qarz riskini kamaytiradi, chunki bir yerda foizning kamligi, boshqa yerda uning ortiq bo'lishi bilan qoplanadi.

Xalqaro kredit aloqalarida **foiz stavkasi** milliy kredit tizimidagi foiz darajasiga bog'liq holda belgilanadi. Ssuda foiziga ta'sir etuvchi omillarning xalqaro-valuta va moliya-kredit munosabatlari bilan bog'liqligi tufayli foiz stavkasining darajasi milliy stavkalardan birmuncha farq qiladi.

Jahon bozoridagi raqobatchilik natijasida foiz stavkalarining tez-tez o'zgarishi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda beqarorlik, inflatsiyaning kuchayishi, valuta kursining tebranishi kabilar bilan izohlanadi.

Xalqaro kredit aloqalarida foiz stavkasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- qarz oluvchining mamlakatdagi valuta, moliya-kredit, iqtisodiy va siyosiy ahvol;
- loyiha riski xarakteri;
- kredit manbalari;
- kredit qiymatini tartibga solish bo'yicha xalqaro kelishuvlar;
- foiz stavkasi turlari (suzib yuruvchi, qat'iy va aralash);
- raqobatdagi takliflarning mavjudligi;
- kredit muddati;
- inflatsiya sur'ati;
- kreditning tijorat operatsiyalariga bog'liqligi;
- jahon va milliy bozorda ssuda kapitalining holati;
- qarz oluvchi va kreditorning maqomi, nufuzi va moliyaviy holati;
- kreditning ta'minot sifati;
- kredit bo'yicha sug'urta qoplamasining mavjudligi;
- qarz oluvchining olingan kreditdan kelishilgan muddatda foydalanish majburiyatining mavjudligi;

- tijorat bitimlariga nisbatan kredit kelishuvi tuzilgan vaqt;
- bitim summasi;
- kredit va to'lov valutasini;
- valuta kursi dinamikasi va boshqalar.

#### 9.4. Tayanch iboralar

<input type="checkbox"/> ssuda foizi	<input type="checkbox"/> murakkab foiz stavkalari
<input type="checkbox"/> bank foizi	<input type="checkbox"/> eng yuqori foiz stavkalari
<input type="checkbox"/> tijorat krediti foizi	<input type="checkbox"/> bank aktivlari bo'yicha foiz
<input type="checkbox"/> iste'mol krediti foizi	<input type="checkbox"/> marja
<input type="checkbox"/> lizing shartnomalari bo'yicha foiz	<input type="checkbox"/> foizli marja
<input type="checkbox"/> davlat krediti bo'yicha foiz	<input type="checkbox"/> foizsiz sof marja
<input type="checkbox"/> Markaziy bank hisobiga foiz	<input type="checkbox"/> qat'iy belgilangan foiz stavkasi
<input type="checkbox"/> lombard krediti bo'yicha foiz	<input type="checkbox"/> suzib yuruvchi foiz stavkasi
<input type="checkbox"/> depozit foizi	<input type="checkbox"/> LIBOR
<input type="checkbox"/> banklararo kredit foizi	<input type="checkbox"/> nominal foiz stavkasi
<input type="checkbox"/> «Narx bo'yicha ustunlik» usuli	<input type="checkbox"/> real foiz stavkasi
<input type="checkbox"/> yillik foiz stavkalari	<input type="checkbox"/> «Qiymat plyus» usuli
<input type="checkbox"/> oddiy foiz stavkalari	<input type="checkbox"/> «Praym-reyt» usuli
<input type="checkbox"/> diskont foiz stavkalari	<input type="checkbox"/> «KEP» usuli
	<input type="checkbox"/> inflatsiyani hisobga olgan holda foiz stavkasi

#### 9.5. Test topshiriqlari va masalalar

##### 1. Ssuda foizi – bu:

a) vaqtincha muddatga berilgan qiymatdan foydalanganligi uchun to'lanadigan o'ziga xos to'lovdur;

b) Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida etakchi erkin almashadigan valutarlar, ya'ni AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi kabi valutalardagi depozitlarga to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasidir;

c) zayom mablag'idan foydalanadigan barcha davr uchun o'zgarmaydigan bir xil darajadagi o'rnatilgan stavkadir;

d) olingan qarz yig'indisiga nisbatan foiz hisobida olinadigan stavkadir.

##### 2. Quyida qayd qilingan ssuda foizining qaysi biri kredit shakllari bo'yicha foiz turiga kiradi?

a) lombard krediti bo'yicha foiz;

b) Markaziy bank hisobiga foiz;

c) iste'mol krediti bo'yicha foiz;

*d) aylanma mablag'lar uchun berilgan kredit bo'yicha foiz.*

**3. Quyida qayd qilingan ssuda foizining qaysi biri kredit tashkilotlari bo'yicha foiz turiga kiradi?**

*a) lizing shartnomalari bo'yicha foiz;*

*b) depozit foizi;*

*c) asosiy fondlar uchun berilgan kredit bo'yicha foiz;*

*d) Markaziy bank hisobiga foiz.*

**4. 3-test topshirig'idagi javoblarning qaysi biri «Qat'iy belgilangan foiz stavkasi» deb ataladi?**

*a) b*

*b) c*

*c) d*

*d) a*

**5. 3-test topshirig'idagi javoblarning qaysi biri «Foiz stavkasi» deb ataladi?**

*a) c*

*b) d*

*c) a*

*d) b*

**6. 3-test topshirig'idagi javoblarning qaysi biri «LIBOR foiz stavkasi» deb ataladi?**

*a) b*

*b) d*

*c) a*

*d) c*

**7. Suzib yuruvchi foiz stavkasi – bu:**

*a) qisqa muddatli kreditlarga o'rnatiladigan stavkadir;*

*b) o'rta muddatli kreditlarga o'rnatiladigan stavkadir;*

*c) uzoq muddatli kreditlarga o'rnatiladigan stavkadir;*

*d) b + c.*

**8. SPRED – bu:**

*a) stavka o'zgarish darajada turadigan vaqt (odatda 3 - 6 oy);*

*b) yuanka bo'yicha jalb qilingan resurslarning o'rtacha qiymati;*

*c) narx, kurs va stavkalar orasidagi farq;*

*d) bozor joriy stavkasidir.*

**9. Foiz davri deganda:**

*a) kreditdan olinishi kutilayotgan foyda davri tushuniladi;*

b) stavka o'zgarmas darajada turadigan vaqt (odatda 3 – 6 oy) tushuniladi;

c) bozor joriy stavkasi o'zgarmas darajada turadigan vaqt tushuniladi;

d)  $a + d$ .

**10. Nominal foiz stavkasi deganda:**

a) kredit shartnomasida ko'zda tutilayotgan foiz stavkalari tushuniladi;

b) bozor joriy stavkasi tushuniladi;

c) inflatsiya darajasini hisobga olgan stavka tushuniladi;

d)  $a + b$ .

**11. Qisqa muddatli kreditlar uchun eng avvalo:**

a) oddiy foiz stavkasi qo'llaniladi;

b) yillik foiz stavkalari qo'llaniladi;

c) diskont foiz stavkalari qo'llaniladi;

d) murakkab foiz stavkalari qo'llaniladi.

**12. Diskont inglizcha «discount» so'zidan olingan bo'lib:**

a) hisoblamoq ma'nosini beradi;

b) tovar narxi (masalan, sifati standartga to'g'ri kelmaganda), birja va valuta bitimlarida valuta narxidan chegirma (tashlama) ma'nosini beradi;

c) qimmatli qog'ozni qayta sotib olgani uchun bank undiradigan foiz ma'nosini beradi;

d)  $a + b + c$ .

**13. Diskont foiz stavkasining xususiyati shundaki, bu usulda:**

a) foiz oldindan to'lanishi ko'zda tutiladi;

b) to'lanadigan foiz miqdori oldindan hisoblanadi va kredit berilayotganda ushbu summa ushlab qolinadi;

c) kredit  $n$  - summa hisobiga kam beriladi;

d) noto'g'ri javob yo'q.

**14. Murakkab foiz stavkasi o'zgaruvchi foiz stavkasi bilan bo'lganda quyidagicha hisoblanadi:**

a)  $S = P(1 + i_1)^n \cdot (1 + i_2)^n \cdot \dots \cdot (1 + i_k)^n \cdot k$

b)  $S = P(1 + i_1)^n$

c)  $S = P(1 + m)^N$

$$d) S = \frac{P(1+i)^n}{(1+y)^n}$$

**15. Iste'mol kreditidan ko'proq:**

- a) kam daromadli kishilar foydalanadilar;
- b) serdaromad kishilar foydalanadilar;
- c) o'rta daromadli kishilar foydalanadilar;
- d) kambag'al kishilar foydalanadilar.

**16. Iste'mol kreditlari bank uchun:**

- a) eng daromadsiz kreditlardan hisoblanadi;
- b) eng arzonga tushadigan qo'yilmalardan hisoblanadi;
- c) eng daromadli kreditlardan hisoblanadi;
- d) juda risksiz kreditlardan hisoblanadi.

**17. Quyida qayd qilingan omillarning qaysi biri foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi?**

- a) pul bozoridagi talab va taklif nisbati;
- b) inflatsiya darajasi;
- c) qarzning qanday pul bilan berilishi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**18. Quyida qayd qilingan omillarning qaysi biri foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi?**

- a) qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi;
- b) qarzni to'lash muddati va sharti;
- c) qarz berishning risk darajasi;
- d)  $a + b + c$ .

**9.6. Nazorat uchun savollar**

1. Ssuda foizi va uning turlari to'g'risida nimalar deya olasiz?
2. Bank foizidan foydalanishning qanday mexanizmlarini bilasiz?
3. Ssuda foizi darajasi qanday usullarda shakllanadi?
4. Tayanch foiz stavkasi deganda nimani tushunasiz? U qanday hisoblanadi?
5. Foiz riski foiz stavkasiga bog'liqmi?
6. Foizli marja ham bo'ladimi?
7. Minimal marja foizi nima va u qanday hisoblanadi?
8. Taxminiy marja foizi ko'rsatkichi qanday hisoblanadi?
9. Bank aktiv operatsiyalarining minimal daromadliligi ( $M_d$ ) ko'rsatkichi qanday hisoblanadi?

10. Foiz stavkasi nima? Qat'iy belgilangan va suzib yuruvchi foiz stavkalari bir-biridan nima bilan farq qiladi?

11. LIBOR nima?

12. Nominal va real foiz stavkalari xususida nimalar deya olasiz?

13. «Qiymat plyus» va «Narx bo'yicha ustunlik» usullarida aniqlanadigan foiz stavkalarining mohiyati nimada?

14. «Praym-reyt» va «KEP» usullarida foiz stavkalari qanday hisoblanadi?

15. Oddiy foiz stavkalari qanday o'rnatiladi?

16. Diskont foiz stavkasi usuli oddiy foiz stavkasidan nima bilan farq qiladi?

17. Murakkab foiz stavkasi qanday hisoblanadi?

18. Inflatsiyani hisobga olgan holda foiz stavkalari qanday o'rnatiladi?

19. Nima uchun iste'mol kreditlariga odatda eng yuqori foiz stavkasi o'rnatiladi?

20. Foiz stavkasiga qanday omillar ta'sir qiladi? Xalqaro kredit aloqalaridagi stavkalarga-chi?

## 10-BOB. BANK REYTINGI VA UNI ANIQLASH USULLARI

### 10.1. Bank reytingini aniqlash usullari

[299]. XX asr oxirida har bir sohada o‘z yetakchilarini bilish istagi kuchaydi. Eng yaxshi korxonalar, eng yaxshi banklar, eng yaxshi mutaxassislar, eng rivojlangan tumanlar, viloyatlar, mamlakatlar va hokazolalar.

O‘z o‘rnini aniqlab olishga harakat qilish biznesga ham xos. Bu sohada ham dastlabki o‘nta eng yirik banklar, ishonchli orasida eng ishonchli sug‘urta agentliklari, dunyoning yuzta eng yirik korxonasi va boshqalar aniqlanmoqda. Reyting bo‘lmasa, na butun amaliy hayotni, na shaxsiy hayotni tasavvur qilish mumkin. Chunki «Kimga qarab ish tutish kerak, kim bilan bitim tuzsa bo‘ladi, mening ishonchli sherigim kim?» degan muammolarga duch kelamiz.

**Reyting** – bu muayyan obyekt yoki subyekt to‘g‘risidagi natijaviy baho bo‘lib, qaror qabul qilish bo‘yicha g‘oyat muhim vosita hisoblanadi. Chunki u, aytaylik, banklarga bankning taraqqiy etish yo‘nalishini, ishbilarmonlikning jonlanishini, demak, foyda olish imkoniyatlarini ham hech shubhasiz ko‘rsatib beradi. Shuningdek, reyting tizimi:

- banklar faoliyatini xalqaro amaliyotda qabul qilingan me‘yorlar asosida qiyosiy tahlil qilishda;
- mazkur bankning moliyaviy bozordagi o‘rnini, nufuzini, shuningdek, muammoli banklarni aniqlashda;
- banklar taraqqiyotidagi mayl (tendensiya)larni kuzatish, umumlashtiruvchi va xususiy ko‘rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilishda;
- banklar samaradorligiga baho berishda juda ham zarur.

Barcha manfaatdor tomonlarning xohish va istaklarini inobatga oluvchi reyting usuli yordamida aholi omonatlari qayerlarda ko‘proq, qaysi banklarda qanday foizlarda joylashtirilyapti, depozitlar bo‘yicha ahvol qanday, sertifikat va aksiyalarning sotib olinishi qay darajada kabi savollarga ham javob olish mumkin.

[300]. Xalqaro amaliyotda bank reytinglarini baholashning juda ko‘p turlari mavjud. Ular ichida quyidagi ikki usul eng ko‘p tarqalgan:

- miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali baholash;
- sifat ko‘rsatkichlari orqali baholash.

**Miqdoriy ko‘rsatkichlar** orqali baholash usuli asosan banklar faoliyatining rivojlanishini tahlil qilish maqsadida qo‘llanilib, ularga quyidagilar kiradi:

- aktivlar summasi;

- depozitlar;
- kreditlar;
- o'z kapitalining summasi;
- daromad summasi.

Bu ko'rsatkichlar orqali banklar faoliyati ommalashtiriladi.

Baholashning ommaviy axborot vositalari yordamida ikkinchi turi **sifat ko'rsatkichlari** bo'lib, ular bankning ishonchlilik darajasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar turkumiga quyidagilar kiradi:

- kapitalning yetarliligi;
- aktivlar sifati;
- daromadlilik darajasi;
- bank likvidligi.

Chet el mamlakatlarida bank ishonchliligi hukumat tomonidan nazorat qilinadi. Banklar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha bir qator me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi nazoratda bo'ladi.

[301]. Jahon amaliyotida tijorat banklari faoliyatini baholashning bir necha tizimi mavjud. Masalan, qator mamlakatlarda riskni baholash va diagnostika uchun bir nechta tizimlardan foydalaniladi. Ularning ayrimlari mavjud muammolarni aniqlab bersa, ayrimlari joriy tavakkalchiliklar asosida kelgusida ehtimoliy yondashuvlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Umuman bunday tizimlar quyidagi vazifalarni hal etadi:

- kredit tashkilotlarini inspeksiya va masofadan monitoring doirasida bir tizimga keltirilgan tarzda rasman baholash;
- banklarni va muammolar mavjud bo'lgan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni identifikatsiya qilish;
- nazorat idoralari resurslarini maqbul taqsimlash uchun tekshiruvlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- nazorat organining o'z vaqtida ish boshlashini uyushtirish.

62-jadvalda turli rivojlangan mamlakatlarda foydalanilayotgan tizimlarni keltiramiz.

Tizimlar quyidagi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi:

- tekshiruvlarning chuqurligi va davriyligi;
- hisobotlar xususiyati;
- boshqa haqqoniy manbalardan foydalana olish imkoniyatining mavjudligi;
- o'tgan davrlardagi tanazzullar va bankrotlik holatlari haqidagi statistik axborotlar;



Erta diagnostika va riskni baholash<sup>1)</sup>

Mamlakat	Nazorat organi	Tizim	Tizim joriy qilingan yil	Tizim toifasi
Fransiya	Bank komissiyasi	ORAP	1997	Masofadan monitoring (MM)
Germaniya	Federal nazorat organi	BAKIS	1997	Moliya koeffitsiyentlari va guruhlab tahlil qilish tizimi
Italiya	Italiya banki	PATROL	1933	MM, baholashning reyting tizimi
Niderlandiya	Niderlandiya banki	RAST	1999	Riskni baholashning yalpi tizimi
Angliya	Moliya xizmatlarini boshqarish	RATE	1998	Riskni baholashning yalpi tizimi
AQSh	Barcha nazorat organlari	CAMELS	1978	Tekshiruv natijalari bo'yicha joyida reyting berish.

- texnik ta'minot darajasi;
- pul va inson omili.

Xalqaro hisob-kitoblar bankida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra diagnostika tizimini shakliy belgilariga qarab to'rtta keng toifalarga ajratish mumkin:

- banklarni baholashning reyting tizimi;
- moliyaviy koeffitsiyentlar va guruhlab tahlil qilish tizimlari;
- bank riskini baholashning yalpi tizimlari;
- statistik modellar.

Qator tizimlardan foydalanish, hech bo'lmasa, ulardan bittasining muammoli bankni aniqlab berishi ehtimolini oshiradi. Tizimlar sifatini baholashda asosan kompyuter yordamida amalga oshiradilar. Ularning ayrimlarida ekspert xulosalar asosiy o'rin tutsa, boshqalarida kompyuter dasturlarining hisob-kitoblari ustunlik qiladi.

[302]. Reyting asosan, bankning yillik faoliyati natijalari asosida beriladi. Banklarni baholash (audit)ning bugungi kunda xalqaro amaliyotda o'rin olgan usullaridan biri «CAMEL» reyting tizimidir.

1978 yilda AQSh banklaridan biri bo'lgan «Sheshunoff Bank» ning

<sup>1)</sup> Qarang: BPK, 2001, 12-son, 14-bet

ekspertlari bank faoliyatini quyidagi 7 guruh omillar asosida tahlil qilish va baholash uslubini ishlab chiqdilar:

- bankning o‘sishi (rivojlanishi);
- bankning kategoriyasi (bank faoliyatining ma’lum guruhga kirishi);
- risk darajasi yuqori bo‘lgan sohalarga investitsiyalar;
- bankning ishonchliligi (uning «kapital» mavqeyi);
- muammoli kreditlar summasi va tendensiyalari;
- daromad manbalari, boshqa banklarga nisbatan umumiy foydalilik;
- yirik «beqaror» majburiyatlar bo‘yicha bankning darajasi.

Bank mutaxassislari ushbu omillarning barchasini muhim deb bilgan holda, ulardan oxirgi 5 tasi (4, 7-chilari) ga alohida e’tibor beradilar va ularning bosh harflari birlashtirilib «CAMEL» - omillar deb yuritila boshlandi.

Shunday qilib, banklar faoliyatini baholashning «CAMEL» reyting tizimiga asos solindi. Ushbu baholash uslubiga ko‘ra omillar quyidagicha tavsiflanadi ( 63-jadval).

Ushbu besh tarkibiy qism aniqlangach, bankning yakuniy umumiy reytingini belgilash imkoni tug‘iladi.

«CAMEL» reyting tizimining asosiy jihatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

- «CAMEL» tizimi, ko‘proq masofaviy nazoratga asoslangan yevropacha usuldan farqli o‘laroq, joyida tekshirishga asoslangan bo‘lganligi sababli, banklarni tashqi audit qilishda juda ham qo‘l keladi.

- Mazkur tizim AQSh tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishda qo‘llaniladigan andozalashtirilgan reyting tizimi bo‘lib, aniq va mukammal bo‘lganligi sababli, foydalanish uchun qulaydir.

Ushbu tizim orqali tijorat banklari moliyaviy mustahkamligining asosiy komponentlari:

- kapitalning yetarliligi (S);
- aktivlar sifati (A);
- bank menejmenti (M);
- daromadlilik (E);
- likvidlik (L) tahlil etilishi natijasida bankning moliyaviy mustahkamligini har tomonlama to‘laqonli tahlil qilish va baholash mumkin.

## «CAMEL» omillari tavsifi

№	Omillar	Izoh
1	2	3
1.	“C” (Capital adequacy)	<input type="checkbox"/> <b>Kapitalning yetarliligi</b> , ya’ni bankning o‘z mijozlarini kafolatlash uchun zarur bo‘lgan xususiy sarmoyasi miqdori. Etarli sarmoyaga ega bo‘lgan banklar jiddiy zarar ko‘rgan taqdirda ham mijozlar o‘z pullaridan ajrab qolishlariga yo‘l qo‘ymaydi.
2.	“A” (Asset quality)	<input type="checkbox"/> <b>Aktivlar sifati</b> . Bu omil aktivlarning darajasini va balansdan tashqari moddalarni, shuningdek, gumonli aktivlar va zararlarni tasniflash asosida muammoli qarzlarning moliyaviy ta’sirini aniqlaydi.
3.	“M” (Management quality)	<input type="checkbox"/> <b>Bankni boshqaruv sifati</b> . Bu ko‘rsatkichni tahlil qilish yordamida ish samaradorligi, bank siyosati, qonun va yo‘riqnomalarga amal qilish darajasi baholanadi. Va shu asosda bank siyosatining qay darajada maqsadga muvofiq shakllantirilganligi, uning yozma ravishda belgilangan tartibda hujjatlashtirilganligi va unga rioya qilinganligi aniqlanadi. Shu sababli menejment sifatini tahlil etish eng oxirida amalga oshiriladi.
4.	“E” (Earning record)	<input type="checkbox"/> <b>Bankning daromadlilik darajasi</b> . Bu bankning kelgusida o‘sishi uchun yetarli bo‘lishi nuqtayi nazaridan uning daromadi yoki foydasini tavsiflovchi omil – ko‘rsatkichdir.
5.	“L” (Liquidity)	<input type="checkbox"/> <b>Bankning likvidlik darajasi</b> . Bu bankning oddiy va kutilmagan majburiyatlarni yo‘qotishlarsiz bajara olish uchun zarur darajada mablag‘ bilan ta’minlanganligini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir.

[303]. Banklar faoliyati va ishonchliligini baholashni «CAMEL» reyting tizimi misolida ko‘rib chiqamiz. Unga binoan banklar 5 ball bo‘yicha baholanadi. Nazoratdan o‘tgan bankka har bir komponent bo‘yicha alohida reyting bahosi berilib, so‘ngra barcha faoliyat bo‘yicha umumiy reyting bahosi asosida baholanadi. Reyting bahosining eng yuqori darajasi 1 ko‘rsatkichi bilan belgilanib, bunda qaysi komponentda bunday baho berilsa, demak u **xalqaro me’yorlarga** to‘liq javob berish darajasida tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Bunday banklar bir yarim yilda bir marta tekshiriladi.

2000-yil oxirida ana shunday xalqaro baho o‘zbek banklaridan yana

biri (TIF Milliy bankidan soʻng) ikkinchi boʻlib - «Paxtabank»ka berildi. Jahonning 95 dan ortiq mamlakatidagi mingdan ziyod mashhur bank-moliya institutlari faoliyatini oʻrganib, tahlil qilishga ixtisoslashgan eng yirik reyting agentligi – «Tomson Faynenshial Benk Votch» kompaniyasi xulosasiga koʻra, xalqaro miqyosda oʻz mavqeyini egallayotgan aksiyadorlik tijorat «Paxtabank» Oʻzbekistonning yirik va moliyaviy barqaror banki ekanligi tan olinib, unga xalqaro reyting bahosi berildi.

U oʻz aktivlari boʻyicha respublika banklari orasida ikkinchi, ustav kapital miqdori boʻyicha esa uchinchi oʻrinni egalladi. Bank respublikada 13 ta viloyat boshqarmasi, 184 ta tuman boʻlimlari hamda 400 dan ziyod minibanklardan iborat strategik ahamiyatga ega boʻlgan keng tarmoqli tizimga ega. Shuningdek, koʻp sonli intiluvchan, iqtidorli hamda etuk mutaxassislardan iborat bank jamoasining koʻp yillik, ulkan va boy tajribaga egaligi taʼkidlab oʻtilgan.

Ayni paytda ushbu reyting kompaniyasi tomonidan bank faoliyatining har bir jabhasi atroflicha tahlil qilinib, munosib ravishda LC-2 hamda JC-C/D reyting koʻrsatkichlari bilan baholandi.

LC-2 koʻrsatkichi – baholashda ikkinchi eng yuqori kategoriya hisoblanib, asosiy mablagʻ va foizlarni oʻz vaqtida qaytarish qobiliyati kuchli boʻlganda beriladigan bahodir. Respublikamizda «Paxtabank» ushbu reytingga (TIF Milliy bankidan soʻng) ikkinchi boʻlib erishdi.

Bankka JC-C/D reyting bahosining berilishi esa shuni anglatadiki, u oʻz aktivlari sifatini yaxshiligi hamda barqaror muvozanatlashtirilgan balansi bilan keng omma ishonchi va hurmatiga sazovor boʻlmoqda. Shunisi eʼtiborga molikki, «Paxtabank»ka berilgan bunday reyting baholari, avvalambor, uning:

- istiqbolini belgilashda;
- xorijiy sarmoyalarni yanada faolroq jalb etishda;
- xalqaro bank-moliya tashkilotlari bilan oʻzaro hamkorlik munosabatlarni oʻrnatish borasida zaruriy shart-sharoitlar, yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Qolaversa, bank mavqeyining respublika ichida va uning tashqarisida yanada yuksalganidan, jahon moliya olamida ulkan yutuqlarini munosib namoyon etganidan dalolat beradi.

Bank SWIFT jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar hamjamiyati aʼzoligiga qabul qilingan. Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligiga xizmat koʻrsatuvchi eng nufuzli banklardan biri ekanligi jahon moliya olami tomonidan ham eʼtirof etildi. Jumladan, moliya muassasasining

1998-yildayoq qishloq va qishloq xo‘jaligini kreditlovchi Osiyo-Tinch ummoni assotsiatsiyasi (APRAKA)ga a‘zo bo‘lib kirganligining o‘ziyoning jahon bank tizimida o‘zining munosib o‘rnini egallab borayotganligini ko‘rsatuvchi dalildir. Osiyo va Tinch ummoni mintaqasidagi 21 mamlakatning qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi 57 ta bank va moliya institutlaridan iborat jahondagi salohiyatli va nufuzli moliya institutlaridan biri hisoblanuvchi ushbu Assotsiatsiya qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy tamoyillarini rejalashtirishni rag‘batlantirish, qishloq va qishloq xo‘jaligini moliyalash va kreditlash sohasidagi davlatlararo tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, tarmoqqa moliyaviy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha axborotlarni o‘zaro muntazam ayirboshlash va ularni amaliyotga joriy etishni muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan.

«Paxtabank»ning jahon bank hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi yil sayin chuqurlashib borayotganiga yana bir misol uning qishloq xo‘jaligini kreditlash xalqaro Konfederatsiyasi (KIKA)ga a‘zo bo‘lganligidir. Ushbu nufuzli tashkilot Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng G‘arbiy Yevropaning bir guruh qishloq xo‘jalik va kooperativ banklari tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, o‘zining hozirgi ko‘rinishida 1989-yilda ta‘sis etilgan. Hozirgi paytda, qishloq xo‘jaligi sohasida kreditlar beruvchi yoki uni olishga ko‘maklashuvchi jahonning barcha qit‘alaridan 36 davlatning qishloq xo‘jalik yo‘nalishidagi 165 ta banklari hamda moliya tashkilotlari, shuningdek, faoliyat maqsadi qishloq xo‘jalik kreditini rivojlantirish yoki uni o‘rganishdan iborat bo‘lgan mintaqaviy, milliy yoki xalqaro tashkilotlar KIKA a‘zolari sanaladi. Ular sirasiga Fransiyaning «Kredi Agrikol», Niderlandiyaning «Rabobank», Germaniyaning «Doychegegenschaftsbank», Avstriyaning «Rayffayzensentralbank» kabi banklari va boshqa yirik hamda taniqli banklar kiradi. «Paxtabank» boshqaruvining raisi KIKA Markaziy qo‘mitasi a‘zosi hisoblanadi.

Odatda, CAMEL reyting tizimida 5 komponentdan bir yoki ikki holatda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lish mumkin. Bankrotlikka yaqin, ya‘ni muammoli banklar deb tan olingan banklar esa 5 yoki 4 ball oladilar va ular tez-tez tekshirilib turiladi. To‘g‘ri, 5 holatdan 4 tasida ham yuqori ko‘rsatkichga erishish hollari ham yo‘q emas, lekin bitta holatda ham yuqori ko‘rsatkichdan past bo‘lgan reyting bahosiga ega bo‘lganda umumiy reyting bahosi yuqori bo‘lmaydi. Respublika bank tizimida umumiy reyting bahosining eng ko‘pi 2 va 3 ta bo‘lib, bular

«yaxshi» va «qoniqarli» faoliyat yurituvchi banklar qatoriga kiradi.

Shunday qilib, bank faoliyatini baholashning «CAMEL» tizimi:

- bank faoliyatini oydinlashtirishga yordam beradi;
- bank hisobotlarining to‘g‘riligini tasdiqlaydi;
- obyektни xalqaro audit kiritilishiga tayyorlaydi.

Ushbu afzalliklar umumlashib, eng oliy maqsad, ya’ni bankni bankrotlikdan saqlab qoladi va shu orqali jismoniy hamda yuridik shaxslarning omonatlari, depozitlarining behudaga sarflanib ketishining oldini oladi.

[304]. «CAMEL» tizimining tahlil qilinadigan birinchi ko‘rsatkichi – **bank kapitalining yetarliligi** hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich ikki ko‘rsatkichni tahlil qilish orqali aniqlanadi, ya’ni:

- jami kapitalning □K riskka tortilgan aktivlarga nisbati (Art);
- asosiy kapitalning (AK) riskka tortilgan aktivlarga nisbati (Art);

Kapital yetarliligining minimal xalqaro normasi 8 foiz qilib belgilangan. Bazel shartnomasidagi talablarga binoan bank asosiy kapitalining jami kapitaldagi ulushi 50 foizdan kam bo‘lmasligi kerak.

Umuman, Bazel shartnomasiga muvofiq, bank kapitali ikki darajaga bo‘linadi;

□ birinchi daraja **asosiy kapitaldan** iborat bo‘lib, unga to‘langan aksiyalar summasi, aktivlarni sotishdan yuzaga kelgan kursdagi farqlar summasi, zaxira fondining ustav fondini mustahkamlashga doir qismi, taqsimlanmagan foyda, sug‘urta fondi kiradi.

□ ikkinchi darajada zaxira fondining bir qismi va balans hisobvaraqlarda hisobga olinadigan fond mablag‘larini o‘z ichiga oladigan qo‘shilgan kapitaldir.

Shunday qilib, CAMEL reyting tizimi bo‘yicha kapital nazorati ushbu jarayonning birinchi komponenti bo‘lib, bunda bank kapitalining yetarlilik darajasi, kapitalni ko‘paytirish borasida olib borilayotgan faoliyat va dividendlarni to‘lash siyosati tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, kapital tahlili jarayoni bank aksiyadorlarining yangilangan ro‘yxati, jami aksiyadorlar ulushining balans hisobotidagi to‘langan kapital summasiga tengligi hamda bank kapitali Markaziy bankning 2000-yil 26 apreldagi «Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi 420-sonli Nizomi talablariga javob bera olishini tekshirish masalalarini qamrab oladi.

[305]. Ikkinchi tahlil ko‘rsatkichi **aktivlar sifatini** baholashdir. Bundan asosiy maqsad muayyan bank aktivlarining riskka tortilganlik

darajasini tahlil qilishdir. «CAMEL» tizimida risklar bo'yicha aktivlarni tasniflash 4 guruhga bo'linadi:

- 0 foiz – maxsus aktivlar;
- 20 foiz – standart bo'lmagan aktivlar;
- 50 foiz – shubhali aktivlar;
- 100 foiz – zarar keltiradigan aktivlar.

Tijorat bankning moliyaviy ahvolini aniqlashda aktivlar sifatini baholash muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning haqiqiy qiymati buxgalterlik hisobida aks ettirilgan qiymatga to'g'ri kelmaydi. Aktivlarning sifatini tahlil qilish uchun muammoli qarzlarni tasniflash asosida berilgan ssudalar va boshqa aktivlarni baholash zarur.

Aktivlarni andozaviy, shubhali va zarar keltiradigan turlariga tasniflash tizimi barcha aktivlar reytingini miqdor jihatdan aniqlash, shuningdek, kreditlardan zarar ko'rish hollariga mo'ljallangan zaxiralarning yetarliligini baholash imkonini beradi. Asosan uzoq muddatli ssudalar naqd pullar va vakillik hisobvaraqlari, ssudalar va boshqa aktivlar tekshiriladi.

Aktivlar sifatining tahlilida asosiy e'tibor aktivlarning qaytishiga qaratiladi. Ularning holati aniqlanganda, haqiqatan ham, kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi o'ta muhimdir. Respublikamiz tijorat banklarida mavjud o'z vaqtida qaytarilmagan kreditlar jami summasi kredit qo'yilmalarining 1 foizga ham etmagan holda MDH tarkibidagina emas, balki jahon miqyosida ham bu eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Lekin mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar maqsadi har qanday mablag' yuqori darajada samarali bo'lishiga qaratilgan.

Aktivlar sifati bankning kredit tavakkalchiligi bilan ham bevosita bog'liq va eng yirik kreditlar tekshiriladi.

[306]. Bank faoliyatining asosiy maqsadi, yuqori daromad olishdan iborat. Odatda, yuqori daromad oladigan banklar samarali faoliyat yuritayotgan bank deb tan olinadi. Biroq **aktivlar sifati** bilan tushum o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka unchalik e'tibor berilmaydi. Biron bir bankda aktivlar sifati muammoli bo'lsa, uning aktivlari bahosi yomonlashadi. Bahodagi bu o'zgarish tushum hisobiga qoplanadi va natijada bank daromadi kamayadi.

Demak, bankning daromadlilik darajasi aktivlarning iqtisodiy mohiyatiga, aniqrog'i, sifatiga bog'liq. Unga ko'ra aktivlar:

- daromad keltiruvchi;
- daromadni «eb qo'yuvchi» turlarga bo'linadi.

**Daromad keltiruvchi** aktivlarga ishlayotgan aktivlar (barcha kredit qo'yilmalar va qimmatli qog'ozlar) kiradi. Daromad keltirmaydigan aktivlarga nomoddiy xarajatlar, binolar, kapital xarajatlar va to'lov muddati 90 kundan oshgan kreditlar, shuningdek, kreditlar va amal qilmaydigan deb tan olingan kreditlar bo'yicha foizlar taalluqlidir.

Daromad keltiruvchi aktivlar kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi. Shu bois bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash ham uning daromadlilikiga bog'liq. Bankning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalar hajmi va bank likvidlilikiga bog'liq.

Bank daromadlarni quyidagi manbalardan oladi:

- operatsiyalardan (olingan foizlar);
- qimmatli qog'ozlar savdosidan;
- foizsiz daromad hisobidan;
- mulkni va boshqa aktivlarni sotishdan;
- boshqa manbalardan.

«CAMEL» tizimi daromadlarni miqdor va sifat tomonlarini hisobga olgan holda baholashni tavsiya etadi. Daromadlilik darajasi quyidagi ikki ko'rsatkichni tahlil qilishni taqozo etadi:

- balans foydasining aktivlarga nisbati;
- soliqlar chegirib tashlangan foydaning aktivlarga nisbati.

Daromad yo'nalishining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish va baholashda dastlab quyidagi masalalar:

- tushumning o'zgarishligi yoki jami aktivlarga nisbatan foiz hisobida kamayishi;
- operatsion xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbatan o'zgarishi;
- foizli xarajatlar bilan foizli daromadlar o'rtasidagi marjaning o'zgarishi;
- foizsiz xarajatlar va daromadlarning o'zgarishlari inobatga olinadi.

Bank daromad va xarajatlarining salbiy va ijobiy moddalarini aniqlashda asosan quyidagi omillarga ahamiyat beriladi:

- aktivlarning foydaliligi;
- kapitalning foydaliligi;
- aktivlar va passivlar asosiy kategoriyalarining o'sish koefitsiyenti;
- daromadning asosiy manbalari;



□ xarajatlarning barcha asosiy kategoriyalari.

Qayd qilingan barcha ko'rsatkichlar boshqa o'xshash banklarga taqqoslangan holda qiyosiy tahlil qilinadi.

[307]. Likvidlik ko'rsatkichi to'rtinchi tahlil qilinadigan omil hisoblanadi. CAMEL tizimiga muvofiq, likvidlik bankning majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida bajarish layoqati va xizmat ko'rsatilayotgan mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojini qondirishga tayyorlik darajasini ifodalaydi. Likvidlik darajasi ham shular orqali baholanadi.

Baholashda likvidlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni:

- aktiv va passivlarning tarkibi;
- aktiv va passivlarni boshqarish sifati;
- depozit bazasining holati kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Bankning majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida bajarish layoqati, pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi ko'p jihatdan **aktiv va passivlar** tarkibiy tuzilishining muvofiqlik darajasiga bog'liq. Bank tomonidan likvidlikni yetarli darajada saqlab turish foyda olishga qaratilgan harakat bilan muvozanatlashgan holda amalga oshirilishi darkor, ya'ni ko'proq foyda olish maqsadida aktivlarning samarasiz joylashtirilishi likvidlik holatining yomonlashuviga olib keladi.

**Aktiv va passivlarni boshqarish sifati** bankning pul fondlarini tashkil etish, ular narxlarini shakllantirish va joylashtirish jarayonlariga taalluqlidir. Ushbu jarayon asosan balans hisobotida aks ettiriladi. Aktiv va passivlarni boshqarishning eng maqbul yo'li qisqa muddatli likvidlikni past bo'lgan instrumentlarga joylashtirish orqali yuqori foyda olish orasidagi muvozanatni ta'minlashdan iborat.

**Depozitlar bazasi** holatiga, ya'ni depozitlarning doimiylikiga jahon amaliyotida juda katta ahamiyat beriladi. Bundan tashqari, likvidlikni tahlil qilishda banklarning tashqi manbalarga chiqish imkoniyatlari alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, likvidlikni baholashda aktivlarning naqdlikka aylanish darajalari ham tahlil qilib chiqiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, likvidlik darajasi bankning likvidlik holatini to'laligicha yoritib bera olmaydi va unga umumiy bahoning bir qismi sifatida qaraladi. Shunday ekan, likvidlik koeffitsiyenti boshqa ko'rsatkichlar bilan qiyoslangan va to'ldirilgan holda tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Likvidlik holati tekshiruvining yakuniy bosqichlarida bank

tomonidan qonunchilikning buzilish holatlari ro'yxati tuzilishi hamda ularga tegishli qonun va nizomlar ilova qilinishi ko'zda tutiladi.

[308]. CAMEL tizimining yuqoridagi to'rtta ko'rsatkichi aniqlanganidan so'ng mazkur reyting tizimining beshinchi baholash ko'rsatkichi – **menejment**, ya'ni bankni boshqarish darajasi tahlil etiladi. Bu ko'rsatkich bank ishonchliligini baholashning oxirgi ko'rsatkichidir.

Mazkur ko'rsatkich oldingi ko'rsatkichlar natijalariga bog'liq bo'ladi. Chunki kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, daromadliligi va yuqori likvidlik darajasiga ega bo'lgan banklarning, xususan, menejment ham yuqori bo'ladi. Bunda:

- kadrlarning bilim darajasi;
- me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi;
- bank, kadr, kredit, investitsiya, foiz siyosatlarining mukammalligi va to'g'ri yo'lga qo'yilganligi tahlil qilinadi.

Bankni boshqarish darajasi ko'pincha bank siyosatining qay darajada maqsadga muvofiq shakllantirilganligi, uning yozma ravishda belgilangan tartibda hujjatlashtirilganligi va unga rioya qilinishi bilan xarakterlanadi. Ma'muriyat faoliyatiga baho berishda esa quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

- sardorlik va rahbarlik qilish qobiliyati;
- bank faoliyati qoidalariga rioya qilish darajasi;
- o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda to'g'ri qarorlarni qabul qila olish va unga tez moslasha olish qobiliyati;
- muvaffaqiyat qozonish;
- bank xizmatlariga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga intilish va boshqa ko'rsatkichlar.

Shunday qilib, bankni boshqaruv sifati bank rahbariyati tomonidan olib borgan siyosatning samaradorlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, qator omillar va ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.

## 10.2. «Axbor-reyting» agentligi

[309]. Iqtisodiyotning rivojlanishida chet el investitsiyalarini yurtimizga olib kirish va aholidagi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb qilish juda muhim ahamiyatga ega. Ana shu maqsadda 1996-yil sentabr oyida O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan «Axbor – reyting» banklararo kompaniyasi har chorakda investorlar va bozor iqtisodiyotining barcha qatlamlari uchun respublikamiz banklari faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarni berib kelmoqda.

Ya'ni kompaniya tomonidan tijorat banklarining reyting tadbirlari

o‘tkazilib, ushbu natijalar barcha ommaviy axborot vositalarida, radio va televideniya muntazam ravishda e‘lon qilib borilyapti. 2007-yil birinchi yarim yillik yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan reytingda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan 29 ta tijorat bankidan 21 tasi qatnashib quyidagi natijalarga erishdilar ( 65,66 -jadvallar)<sup>1</sup>.

Tijorat banklari faoliyatining 2007-yil 1 yarim yillik yakunlari bo‘yicha reytingining o‘rtacha ko‘rsatkichi 40,95 ballni tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. (2006-yilning birinchi yarim yilligida ushbu ko‘rsatkich 34,10 ballni tashkil etgan). Bunga banklar faoliyatining ko‘lamlilik va rentabellik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi sabab bo‘ldi.

#### 64-jadval.

<b>Yirik tijorat banklari faoliyatining reyting baholari</b>	
<b>Bank nomi</b>	<b>Yakuniy reyting bali</b>
“O‘zsanoatqurilishbank”	80.61
“Paxtabank”	76.88
“Ipotekabank”	70.14
“G‘allabank”	57.12
“Kapitalbank”	51.52
“Ipak yo‘li banki”	50.12
ABN AMRO BANK MB O‘zbekiston AJ	12.24

Ko‘lamlilik ko‘rsatkichining o‘sishi tijorat banklari jami aktivlari va umumiy daromadlarining ijobiy dinamikasi evaziga yuz berdi. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida reytingda ishtirok etgan tijorat banklari aktivlari 45,2 foizga o‘tdi. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida aktivlarning yuqori o‘shish sur‘atlari Alp Jamol bank (145 foiz), Trastbank (137 foiz), ABN AMRO Bank (hozirgi RGB) MB O‘zbekiston AJ (109 foiz), Ipotekabank (62 foiz) va O‘zsanoatqurilishbank (52 foiz) larda kuzatilmoqda. Jalb qilingan mablag‘larning 45,0 foizga o‘shishi banklar aktiv operatsiyalari hajmining kengayishini ta‘minladi.

Nomoliyaviy sektor depozitlari va olingan ssudalar banklarning jalb qilingan mablag‘larining asosiy manbasi hisoblanadi. Ularning umumiy hajmi banklarning umumiy majburiyatlarining 80 foizdan ko‘prog‘ini tashkil qilmoqda. Banklarning depozit bazasi 56,1 foizga o‘tdi. Depozitlarning o‘shishi asosan talab qilib olinguncha (63,5 foizga) va

<sup>1</sup> “Bank axborotnomasi” 2007 yil sentabr №36

muddatli (51,8 foizga) depozit hisobvaraqlari qoldiqlarining ortishi evaziga yuz berdi. Ularning jami depozitlar tarkibidagi ulushi tegishli ravishda 71,5 foiz va 22,1 foizni tashkil qildi. Boshqa banklardan jalb qilingan mablag‘lar qoldig‘i 96,6 foizga o‘ydi. Depozit bazasining yuqori o‘shish sur‘ati Trastbank (164 foiz), Alp Jamol bank (96 foiz), O‘zsanoatqurilishbank (87 foiz), G‘allabank (85 foiz) va Paxtabank (66 foiz) larda kuzatilmoqda.

Bank aktivlarining asosiy qismini kredit qo‘yilmalar va likvid mablag‘lari tashkil qilib, ularning umumiy hajmi banklar aktivlarining 85,4 foizini tashkil qilmoqda. Kredit qo‘yilmalari (sof qoldiq) tahlil qilinayotgan davr mobaynida 35,4 foizga o‘ydi. O‘tgan davr mobaynida banklarning lizing faoliyati jadallashib, ularning lizing portfeli 52,1 foizga o‘ydi. Banklarning likvid mablag‘lari (naqd pul qoldig‘i, Markaziy bankdagi va boshqa banklardagi hisobvaraqlar qoldig‘i) 58,5 foizga o‘ydi. Natijada tijorat banklari likvid mablag‘larining jami aktivlardagi ulushi 33,9 foizga oshdi.

2007-yilning birinchi yarim yilligi davomida banklarning umumiy daromadi 29,2 foizga ortdi. Umumiy daromadlarning 52,6 foizini foizli daromadlar tashkil qilmoqda. Foizli daromadlar tahlil qilinayotgan davr mobaynida 36,6 foizga o‘ydi. Ssuda va lizing operatsiyalaridan olingan

#### 65-jadval.

<b>O‘rta tijorat banklari faoliyatining reyting baholari</b>	
<b>Bank nomi</b>	<b>Yakuniy reyting ball</b>
“Trastbank”	61,15
“Alp Jamol bank”	58,64
“O‘zKDB-bank”	43,06
“O‘T Bank”	27,21
“O‘ktambank”	10,44

daromadlar (71 foiz) va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha daromadlar (8 foiz) foizli daromadlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tahlil qilinayotgan davrda foizsiz daromadlar 21,9 foizga o‘ydi.

Banklar faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbayi bo‘lgan aksiyadorlik kapitali asosan taqsimlanmagan foyda (56, foiz) va ustav kapitali (43,9 foiz) hisobiga shakllanmoqda. Tijorat banklarining aksiyadorlik kapitali tahlil qilinayotgan davr ichida 20 foizga o‘ydi. Banklarning kapitallashuv darajasi barqarorligi ta‘minlanmoqda. Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti (jami kapitalning aktivga nisbati,

xatarni hisobga olgan holda) 2007-yilning birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha 23,2 foizni tashkil qildi, bu esa me'yoriy ko'rsatkichdan (10 foiz) sezilarli darajada yuqoridir. O'z ustav kapitalini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining minimal talablariga binoan shakllantirilgan banklar o'rtasida kapital yetarliligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar O'T bank (52,9 foiz), O'zQDB bank (39,2 foiz), Mikrokredit-bank (23,4 foiz), G'allabank (21,2 foiz)larda kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-iyundagi PP-670 sonli "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotning modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'risida"gi qarorining qabul qilinishi tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### 66-jadval.

<b>Kichik tijorat banklari faoliyatining reyting baholari</b>	
<b>Bank nomi</b>	<b>Yakuniy reyting ball</b>
"Davr bank"	63,86
"Universalbank"	19,26
"Turkistonbank"	12,07
"Samarqandbank"	1,41

Banklarning umumiy aktivlari va aksiyadorlik kapitalining yuqori sur'atlarda o'sishiga qaramasdan, banklar faoliyatining rentabellik ko'rsatkichlari ijobiy dinamikasi ko'zatilmoqda. Banklarning sof foydasi o'tgan yilning shu davrga nisbatan 91,3 foizga o'sdi. 2007-yilning birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha banklar ustav kapitali rentabelligining o'rtacha qiymati 63,1 foizni, umumiy kapital rentabelligi 22,4 foizni, jami aktivlar rentabelligi 4 foizni tashkil qildi.

Shunday qilib, respublikamiz tijorat banklari, umuman, bank tizimi yildan-yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, ular o'rtasida haqiqiy raqobat muhiti vujudga kelyapti. Buning natijasida tijorat banklarining o'z mijoziga xizmat ko'rsatish darajasi oshib boryapti, ularga yanada ko'p yangi xizmat turlari ko'rsatilishi taklif qilinyapti. Bu holatni reytingda qatnashib, o'z axborot erkinliklarini namoyish qilayotgan banklar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

[310]. Hozirgi vaqtda banklarning umumlashtirilgan reytinglarini aniqlashning tan olingan bir qancha usullari mavjud.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, AQShda «CAMEL» tizimidan foydalaniladi. Unga ko'ra tijorat banki faoliyati besh balli tizim bo'yicha

baholanadi. Raqamli reytinglar, kapital, aktivlar sifati, boshqaruv, foyda ko‘rish va mijozlar tahlili asosida beriladi. Ana shu besh ko‘rsatkich «CAMEL» reytingi deb atalgan yagona ko‘rsatkichga jamlanadi. Bu xilda reytingni aniqlashga bank ishonchliligining asosiy mezon sifatida qaralib, u bank nazorati organlari uchun mo‘ljallangan, ammo matbuotda ochiq e’lon qilinmaydi.

Rossiyada har bir reyting muassasasi (bank axborot agentligi, «Kommersant – Daily» ekspert guruhi, Orgbank, «PAKK» firmasi, «Reyting» axborot markazi, Moliyaviy axborot tahliliy markaz) o‘z umumlashtiruvchi usuliga ega. Ular muayyan moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan bo‘lib, banklar ishonchliligini baholashda ayrim ko‘rsatkichlar ahamiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar to‘plami, soni va salmoq koeffitsiyentlarini taqsimlashda bir-biridan farqlanadi. So‘ngra muayyan ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida har bir bank ishonchliligining jamlanma ko‘rsatkichi chiqariladi. Mustaqil agentliklar tomonidan aniqlanadigan Rossiya banklarining shunday reytinglari ochiq matbuotda e’lon qilib boriladi.

O‘zbekiston banklarining muayyan reytinglari mamlakat bank tizimi xususiyatlarini albatta hisobga olishni talab qiladi. «Axbor-reyting» agentligi mutaxassislari G‘arb va Rossiya nazariyotchilari tomonidan ishlab chiqilgan uslublardan farqli o‘laroq o‘zlarining umumlashtirilgan reytinglarini aniqlash usulini, ya’ni respublikaning o‘ziga xos rivojlanishini inobatga olgan holda qo‘llaniladigan usulni ishlab chiqdilar.

Ushbu usulning mohiyati quyidagidan iborat. Eng avvalo banklar balanslariga asoslanib, mutlaq moliyaviy ko‘rsatkichlar aniqlanadi (67-jadval).

**67-jadval.**

**Bank balansi:  
Mutlaq moliyaviy ko‘rsatkichlar manbalari**

№	Mutlaq ko‘rsatkichlar	B a l a n s d a g i			
		shakl raqami	qator	ustun	jadval (izoh)
1	2	3	4	5	6
1.	Kapital A	0110BS	32	–	–
2.	Kapital V	–	VII	G	3004CAB “Bank kapitali hisobi”
3.	Jami aktivlar	0110BS	14	–	–

4.	Riskni hisobga olgan holdagi jami aktivlar	–	8	–	3006CAR “Riskni hisobga olgan holda aniqlangan aktivlar” (Balansorti aktivlar)
5.	Likvid aktivlar	–	6	–	1-jadval 0022AAL “Likvidlik tahlili”
				B (2 va 3 qator)	0024 AAL “Bank aktivlari tahlili”
6.	Zudlik bilan likvid shaklini oluvchi aktivlar	–	1+2+3+4	B	0024AAL “Bank aktivlari tahlili”
7.	Daromad keltiruvchi aktivlar	0110BS	3+4+5+6+7++8+9	–	–
8.	Jami majburiyat	0110BS	25	–	–
9.	Talab qilib oluvchi majburiyatlar	–	13	B	0026AAL “Bank majburiyati tahlili”
					jadvalining B ustunidagi 1.2; 1.3; 5 va 9 qatorlari qiymatlarisiz
10.	Depozitlar	–	1+4+8	J	0026AAL “Bank majburiyati tahlili”
	Yoki	–	4	–	2106DMS «Mijozlar turlari bo‘yicha depozitlar to‘g‘risida hisobot»
11.	Jalb qilingan mablag‘lar	0110BS	16+17+18++19+21	–	–
12.	Sof foyda (zarar)	0204 IS	11	–	«Foyda va zarar to‘g‘risida hisobot»
13.	Foizdan daromad	0204 IS	11	–	«Foyda va zarar to‘g‘risida hisobot»
14.	Foizdan xarajat	0204 IS	21	–	«Foyda va zarar to‘g‘risida hisobot»
15.	Daromadlar (yalpi daromad)	0204 IS	11+4e	–	«Foyda va zarar to‘g‘risida hisobot»
16.	Xarajatlar	0204 IS	21+5e+7z	–	«Foyda va zarar to‘g‘risida hisobot»

Aniqlangan mutlaq ko‘rsatkichlar asosida har bir bank faoliyatining turli tomonlarini tavsiflovchi moliyaviy ko‘rsatkichlar hisoblanadi (68-jadval).

68-jadval.

**Reyting: Nisbiy ko‘rsatkichlar**

№	Nisbiy ko‘rsatkichlar	Hisoblash tartibi	I z o h
1	2	3	4
1.	<p>Kapitalning yetarliligi (<math>F_1</math>)</p> <p><input type="checkbox"/> Tavakkalchilik koeffitsiyenti (<math>X_1</math>)</p> <p><input type="checkbox"/> Qarz bo‘yicha kapital (<math>X_2</math>)</p> <p><input type="checkbox"/> Kapital koeffitsiyenti (<math>X_3</math>)</p>	<p><math>F_1 = X_1, X_2, X_3</math></p> <p><math display="block">X_1 = \frac{K_B}{A_P}</math></p> <p><math display="block">X_2 = \frac{K_B}{M}</math></p> <p><math display="block">X_3 = \frac{K_A}{A}</math></p>	<p><input type="checkbox"/> Bu ko‘rsatkich uchta moliyaviy koeffitsiyent asosida hisoblanadi. U bank kapitalining yetarlilik darajasini, ya’ni tavakkal qo‘yilgan mablag‘larni bankning o‘z kapitali bilan qoplay olish darajasini ifodalaydi.</p> <p><input type="checkbox"/> <math>K_V</math> – kapital V</p> <p><math>A_R</math> – riskni hisobga olgan holda jami aktivlar</p> <p><input type="checkbox"/> M – jami majburiyatlar</p> <p><input type="checkbox"/> <math>K_A</math> – kapital A</p> <p>A – jami aktivlar</p>
2.	<p>Bankning daromadliligi (<math>F_2</math>)</p> <p><input type="checkbox"/> Aktivlar bo‘yicha qaytim (<math>X_4</math>)</p> <p><input type="checkbox"/> Aktivlar bo‘yicha daromad (<math>X_5</math>)</p> <p><input type="checkbox"/> Kapital bo‘yicha daromad (<math>X_6</math>)</p>	<p><math>F_2 = X_4, X_5, X_6</math></p> <p><math display="block">X_4 = \frac{\Phi_C}{A}</math></p> <p><math display="block">X_5 = \frac{D_\Phi}{A_D}</math></p> <p><math display="block">X_6 = \frac{\Phi_C}{K_B}</math></p>	<p><input type="checkbox"/> Bu ko‘rsatkich bankning qay darajada foyda bilan ishlayotganini ifodalaydi, ya’ni bankning o‘z va jalb qilingan moliyaviy mablag‘larini ko‘paytirish qobiliyati (<math>F_s</math>) – sof foyda</p> <p><input type="checkbox"/> <math>D_f</math> – foiz(dan)li daromad</p> <p><math>A_d</math> – daromad keltiruvchi aktivlar</p>
3.	<p>Bank likvidligi (yetarlilik darajasini, ya’ni tavakkal qo‘yilgan mablag‘larni bankning o‘z kapitali bilan qoplay olish</p>	<p><math>F_3 = X_7, X_8, X_9</math></p>	<p><input type="checkbox"/> Bu ko‘rsatkich bankning o‘z majburiyatlarini darhol bajarish qobiliyatini anglatadi, ya’ni bankning mijozlar oldida o‘z majburiyatlarini vaqtda bajarish imkoniyatini ifodalaydi.</p>



darajasini ifodalaydi.) <input type="checkbox"/> Umumiy likvidlik koeffitsiyenti ( $X_7$ ) <input type="checkbox"/> Qarzlarning depozitlarga nisbati ( $X_8$ ) <input type="checkbox"/> Xususiy likvidlik koeffitsiyenti ( $X_9$ )	$X_7 = \frac{A_{\text{Л}}}{M_{\text{Ж}}}$ $X_8 = \frac{K_B}{\text{Д}}$ $X_9 = \frac{A_3}{M_{\text{ТК}}}$	<input type="checkbox"/> A – likvidlik aktivlari <input type="checkbox"/> $M_{\text{J}}$ – ja’mi majburiyatlar <input type="checkbox"/> D – depozitlar  <input type="checkbox"/> $A_{\text{Z}}$ – zudlik bilan likvid shaklini oluvchi aktivlar <input type="checkbox"/> $M_{\text{TK}}$ – talab qilib oluvchi majburiyatlar.
---	--	--

Qayd qilingan har bir ko‘rsatkich ( $F_1$ ,  $F_2$ ,  $F_3$ ) uchtadan nisbiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga qamrab oladi. «Yakuniy reyting» esa oxirgi pirovard baho bo‘lib, agregatlangan (kompleks) reyting ( $F$ ) deb yuritiladi. Tahlil yakunida banklar beshta ko‘rsatkich natijalaridan kelib chiqqan holda baholanadilar:

### Yakuniy reyting mezonlari

1 ball – Sog‘lom bank faoliyatidan dalolat beradi. 2 ball – Bank barqarorligiga ta’sir qiluvchi kamchiliklarni inobatga olgan holda bank umuman sog‘lom hisoblanadi. 3 ball – Bankning moliyaviy kamchiliklari mavjudligidan dalolat beradi. 4 ball – Bankning jiddiy kamchiliklari mavjudligi sababli bosh nazorat organlarining darhol aralashuvi talab qilinadi. 5 ball – Kelajakda bankning bankrotlikka uchrashi xavfi mavjud, tashqi manba va aksionerlarning moliyaviy yordamlariga muhtoj.
--

### 10.3. Test topshiriqlari va masalalar

#### 1. Reyting – bu:

- a) faqat muayyan obyekt to‘g‘risidagi natijaviy baho bo‘lib, qaror qabul qilish bo‘yicha g‘oyat muhim vosita hisoblanadi;
- b) faqat muayyan subyekt to‘g‘risidagi natijaviy baho bo‘lib, qaror qabul qilish bo‘yicha g‘oyat muhim vosita hisoblanadi;
- c) muayyan obyekt va subyekt to‘g‘risida natijaviy baho bo‘lib, qaror qabul qilish bo‘yicha g‘oyat muhim vosita hisoblanadi;
- d) faqat biznes sohasiga baho berish vositasidir.

#### 2. Quyida qayd qilingan ko‘rsatkichlarning qaysi biri bank reytinglarini aniqlashning miqdoriy ko‘rsatkichlariga taalluqli?

- a) kapitalning yetarlilik darajasi;
- b) aktivlar summasi;
- c) aktivlar sifati;

*d) daromadlilik darajasi.*

**3. Quyida qayd qilingan ko'rsatkichlarning qaysi biri bank reytinglarini aniqlashning sifat ko'rsatkichlariga taalluqli?**

- a) bank likvidliligi;*
- b) depozitlar;*
- c) kreditlar;*
- d) daromad summasi.*

**4. Quyida qayd qilingan ko'rsatkichlarning qaysi biri bank reytinglarini aniqlashning sifat ko'rsatkichlariga taalluqli?**

- a) kapitalning yetarlilik darajasi;*
- b) bank likvidliligi;*
- c) daromadlilik darajasi;*
- d) noto'g'ri javob yo'q.*

**5. «CAMEL» tizimi 1978-yilda:**

- a) Fransiya banklarining birida ishlab chiqilgan;*
- b) Germaniya banklarining birida ishlab chiqilgan;*
- c) AQSh banklarining birida ishlab chiqilgan;*
- d) Italiya banklarining birida ishlab chiqilgan.*

**6. «CAMEL» tizimida «S» harfi:**

- a) aktivlar sifatini ifodalaydi;*
- b) kapitalning yetarlilik darajasini ifodalaydi;*
- c) bankning boshqaruv sifatini ifodalaydi;*
- d) bankning likvidlilik darajasini ifodalaydi.*

**7. «CAMEL» tizimida aktivlar sifati, ya'ni «A»:**

*a) bankning o'z mijozlarini kafolatlash uchun zarur bo'lgan xususiy sarmoyasi miqdorini ifodalaydi;*

*b) bankning kelgusida o'sishi uchun yetarli bo'lish nuqtayi nazaridan uning daromadi yoki foydasini tavsiflaydi;*

*c) bankning oddiy va kutilmagan majburiyatlarni yo'qotishlarsiz bajara olish uchun zarur darajada mablag' bilan ta'minlanganligini tavsiflaydi;*

*d) aktivlarning darajasini va balansdan tashqari modalarni, shuningdek, gumonli aktivlar va zararlarni tasniflash asosida muammoli qarzlarning moliyaviy ta'siri aniqlaydi.*

**8. 274-test topshirig'ida qaysi bir javob «CAMEL» tizimidagi «E» harfini, ya'ni «Bankning daromadlilik darajasi»ni ifodalaydi?**

- a) b
- b) a
- c) d
- d) c

**9. 274-test topshirig‘ida qaysi bir javob «CAMEL» tizimidagi «L» harfini, ya’ni «Bankning likvidlilik darajasi»ni ifodalaydi?**

- a) b
- b) c
- c) d
- d) a

**10. «CAMEL» tizimida «M» harfi, ya’ni «Bankni boshqaruv sifati»ni tahlil qilish yordamida:**

- a) bank faoliyatining samaradorlik darajasini;
- b) bank siyosati, qonun va yo‘riqnomalarga amal qilish darajasi;
- c) bank siyosatining qay darajada maqsadga muvofiq shakllantirilganlik darajasi baholanadi;
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

**11. «CAMEL» tizimida eng yuqori baho:**

- a) 1 ko‘rsatkichi bilan belgilanadi;
- b) 2-3 ko‘rsatkichi bilan belgilanadi;
- c) 4 ko‘rsatkichi bilan belgilanadi;
- d) 5 ko‘rsatkichi bilan belgilanadi.

**12. Agar bankning yakuniy reytingi «5» ball bilan baholansa, u holda:**

- a) sog‘lom bank faoliyatidan dalolat beradi;
- b) bank barqarorligiga ta’sir qiluvchi kamchiliklarni inobatga olgan holda bank umuman sog‘lom hisoblanadi;
- c) kelajakda bankning bankrotlikka uchrashi xavfi mavjud, tashqi manba va aksionerlarning moliyaviy yordamlariga muhtoj;
- d) bankning jiddiy kamchiliklari tufayli bosh nazorat organlarining darhol aralashuvi talab qilinadi.

**13. Bank balansida qaysi bir ko‘rsatkichlar mutlaq moliyaviy ko‘rsatkichlar hisoblanadi?**

- a) kapitalning yetarliligi;
- b) likvid aktivlar;
- c) bankning daromadliligi;
- d) xususiy likvidlik koeffitsiyenti.

**14. Ushbu kitobning ilovasida keltirilgan «O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari to‘g‘risidagi qisqacha ma‘lumotlar», xususan, banklarning balans hisobotlariga asoslanib ularni (30 ta) quyidagi belgilar bo‘yicha uch guruhga (teng interval asosida) bo‘ling:**

- a) kapitalning yetarlilik darajasi;*
- b) bank likvidligi darajasi;*
- c) daromadlilik darajasi;*
- d) moliyaviy holat ko‘lami.*

Olingan natijalardan foydalanib banklar reytingini aniqlang. Ularni egallagan o‘rinlari bo‘yicha ranjirlang.

#### **10.4. Nazorat uchun savollar**

1. Bank reytingini aniqlash zaruriyati nimada?
2. Bank reytingi qanday usullarda aniqlanadi?
3. Banklarni baholash (reytingini aniqlash) ning qanday tizimlarini bilasiz?
4. «CAMEL» tizimi to‘g‘risida nimalar deya olasiz?
5. «CAMEL» reyting tizimida eng yuqori baho necha ball hisoblanadi?
6. «S» – bank kapitalining yetarliligi qanday hisoblanadi?
7. «A» – aktivlar sifati qanday baholanadi?
8. «E» – bankning daromadlilik darajasi qanday aniqlanadi?
9. «L» – bankning likvidlik darajasi qanday aniqlanadi?
10. «M» – bankni boshqaruv sifati qanday aniqlanadi?
11. «Axbor-reyting» agentligi to‘g‘risida nimalar deya olasiz?
12. Banklarning umumlashtirilgan (agregatlangan) reytingi qay tartibda aniqlanadi?

## BANK ISHI FANIDAN MASALALAR TO‘

### I. Tijorat banklarining resurslari va aktivlari

#### 1.1-topshiriq

#### Tijorat banki balansi (ming so‘m)

№	Balans-dagi hisob raqam	Hisob raqamlar nomi	Tijorat banki		Filial
			Yil boshiga	Yil oxiriga	1 yanvar holatiga
		<b>Aktiv</b>			
1	10101	Aylanma kassadagi naqd pullar	6700	56100	1430
2	10107	Bankomatlardagi naqd pullar	300	500	
3	10301	O‘zR MB dagi vakillik hisob varag‘i	4400	11500	
4	10309	O‘zR MBdagi majburiy zaxiralar hisob varag‘i	300	2800	
5	10501	Boshqa banklardagi vakillik hisob varaqlari	11000	7900	
6	10701	Davlat xazina veksellari	1700	2200	980
7	11100	Diskonsiz sotib olingan debitorlik qarzdorlik (faktoring)	1100	2800	
8	12100	Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar	2400	3000	
9	12501	Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli ssudalar	10	14800	
10	12600	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli ssudalar	840	900	
11	12700	Davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar	10150	8700	21370
12	12901	Qo‘shma korxonalariga berilgan qisqa muddatli	20	700	

<sup>1</sup> Ushbu masalalar to‘plami “Bank ishi” kafedrasining dotsenti H.Kashapov tomonidan yozilgan.

		ssudalar			
13	13100	Xususiy korxonalar va korporatsiyalarga berilgan qisqa muddatli ssudalar	10580	13700	
14	12605, 13105	Muddati o'tgan ssudalar	100	200	
15	14900	Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli ssudalar	300	900	
16	15000	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli ssudalar	3400	6800	
17	15100	Davlat korxonalariga berilgan uzoq muddatli ssudalar	22200	26300	
18	15300	Qo'shma korxonalariga berilgan uzoq muddatli ssudalar	2100	2900	
19	15500	Xususiy korxonalariga berilgan uzoq muddatli ssudalar	10400	22900	
20	15700	Sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan ssudalar	100	300	
21	15900	Investitsiyalar	1100	2200	630
22	16300	Hisoblangan foizlar	4200	5500	30
23	16500	Bankning molmulki	6500	11600	3570
24	17519	Respublika budjeti (maxsus xarajat)	1400	2200	
25	19900	Boshqa aktivlar	1000	1700	27030
		<b>Jami aktivlar</b>	<b>102300</b>	<b>209500</b>	<b>55030</b>
		Qayta ko'rib chiqilgan ssudalar	4200	5200	
		<b>Passiv</b>			
1.	20206	Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha depozitlari	4300	57100	25830
2.	20200	Yuridik shaxslarni talab qilib olguncha depozitlari	15100	32800	
3.	20406	Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari	1700	5000	10
4.	20200	Yuridik shaxslarning	400	1600	

		jamg'arma depozitlari			
5.	20606	Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari	2600	7000	3340
6.	20600	Yuridik shaxslarning muddatli depozitlari	700	500	
7.	21602	O'zR MB qisqa muddatli ssudalari	5400	140	10
8.	21605	Byudjetdan tashqari fondlarning qisqa muddatli ssudalari	10		
9.	22000	O'zR MBning uzoq muddatli ssudalari	20200	22000	
10.	22005	Byudjetdan tashqari fondlarning uzoq muddatli ssudalari	2800	5100	
11.	22006	Boshqa banklarning uzoq muddatli ssudalari	5200	13200	
12.	22400	hisoblangan foizlar	220	400	10
13.	22602	Akkreditlar bo'yicha depozitlar	8400	4600	
14.	22613	Mijozlarning valuta bozorlarida konvertatsiya qilingan mablag'lari	1620	3400	
15.	22618	Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlari	10	100	
16.	23202	Kliring tranzaksiyalari	500	1100	
17.	23620	Moliya vazirligi fondidan olingan maqsadli mablag'lar	1800	2600	
18.	23400	Byudjet daromadlari va mablag'lari, hamda boshqa tushumlar	4000	14300	
19.	29800	Chiqarilgan jamg'arma va depozit sertifikatlari	180	300	
20.	29800	Boshqa majburiyatlar	1220	2360	20840
		<b>Jami majburiyatlar</b>	<b>76500</b>	<b>173600</b>	<b>50400</b>
		<b>Kapital</b>			
1.	30315	Imtiyozli aksiyalar	150	150	140
2.	30318	Oddiy aksiyalar	9850	9850	1950
3.	30309	Umumiy zahira fondi	4400	6000	
4.	30904	Imtiyozli kreditlash	2900	5200	

		uchun zahira fondi			
5.	31200	Taqsimlanmagan foyda	8490	12000	4530
6.	31501	O‘shini baholangan qiymatining boshlang‘ich qiymatdan ortishi	10	2700	380
		<b>Kapital jami</b>	<b>25800</b>	<b>35900</b>	<b>7000</b>
		<b>Jami passiv</b>	<b>102300</b>	<b>209500</b>	<b>55030</b>
		Ma’lumot uchun			
1.		Balans aktivi bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilgan ssudalar summasi	4200	5200	
2.		Shu jumladan berilgan ssudalar: A) davlat korxonalariga B) xususiy korxonalar va korporatsiyalarga	3400	4500	
3.		Balans passivining 29800 hisob raqami bo‘yicha zaxira majburiyatlariga quyidagilar kiradi: A) mijozlar bilan hisobkitoblar B) harakatsiz depozitlar V) boshqa majburiyatlar	700 10 20 1000	700 10 20 870	
		<b>Jami</b>	<b>1030</b>	<b>900</b>	

Yil boshi va oxiriga tijorat banki balansi bo‘yicha quyidagilarni aniqlang:

1.1. Bank kapitali, depozitlar, olingan ssudalar (banklararo kreditlar) va boshqa resurs guruhlarini bo‘yicha resurslar tarkibi va tuzilishini.

1.2. Pul shaklidagi likvid aktivlar, qimmatli qog‘ozlar, berilgan ssudalar, investitsiyalar, xorijiy valuta va bank mulki bo‘yicha aktivlar tarkibi va tuzilishini.

1.3. Bank daromadlilik nuqtayi nazaridan aktivlar tahlilini.

1.4. Ssuda turi va subyektlari bo‘yicha kredit qo‘yilmalar tarkibini.

1.5. Qayta ko‘rib chiqilgan, muddati o‘tgan, sud jarayonidagi, ya’ni o‘z vaqtida qaytarilmagan ssudalar tahlilini amalga oshirishni.

1.6. Bankning I va II darajali kapitali, ularning salmog‘i va o‘shin sur‘atlarini.

1.7. Depozitlar tarkibini.



1.8. Banklararo kreditlar tarkibi va tuzilishini.

1.9. Bank kapitali yetarlilik darajasini.

1.9. Riskka tortilgan aktivlar hisobini tuzing.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida majburiy zaxira fondiga deponentlanishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobini tuzing. Zaxira talablariga tegishli depozitlarning me'yori 15% o'rnatilgan.

1.11. Tijorat banki filiali bo'yicha aktivlar va passivlar tarkibini tahlil qiling va ular bo'yicha xulosa qiling.

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarishda analitik jadvallar tuzib, unda summa, salmoq va o'zgarish sur'atlarini ko'rsatilishi tavsiya etiladi. Har bir topshiriq bo'yicha xulosa bering.

## II. Tijorat banki faoliyatining moliyaviy natijalari va ularni prognozlash

### 2.1-topshiriq

#### Foyda va zararlar to'g'risida hisobot (mln.so'mda)

№	Nomi	o'tgan davrda	hisobot davrida
	<b>1. Foizli daromadlar</b>		
1.1.	O'zR MB dagi hisob varaqalar bo'yicha foizli daromadlar	240	150
1.2.	Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha foizli daromadlari	-	10
1.3.	Berilgan ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	8170	12470
1.4.	Investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar	-	60
1.5.	Boshqa foizli daromadlar	290	630
<b>1.6.</b>	<b>Jami foizli daromadlar</b>	aniqlang	
	<b>2. Foizli xarajatlar</b>		
2.1.	Depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	4410	2620
2.2.	O'zR MB va boshqa banklardagi hisob raqamlari bo'yicha foizli xarajatlar	10	30
2.3.	Olingan ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	1600	1600
2.4.	Boshqa operatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar	300	630
<b>2.5.</b>	<b>Jami foizli xarajatlar</b>	aniqlang	
2.6.	Ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zahiraga to'lovlar	360	730
	<b>3. Sof foizli daromadlar (foyda)</b>	aniqlang	
	<b>4. Foizsiz daromadlar</b>		
4.1.	Hisob-kitob kassa xizmatlari uchun komission daromadlar	21140	29160

4.2.	Xorijiy valutadagi foyda	430	1900
4.3.	Qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisi hisob raqami bo'yicha foyda	320	300
4.4.	Investitsiyalar bo'yicha foyda va divid.	430	500
4.5.	Boshqa foizsiz daromadlar	150	360
	<b>Jami foizsiz daromadlar</b>	aniqlang	
	<b>5. Foizsiz xarajatlar</b>		
5.1.	Komission xarajatlar	1180	2540
5.2.	Xorijiy valutada yo'qotishlar	90	900
5.3.	Qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisi hisob raqamlari bo'yicha yo'qotishlar	10	10
5.4.	Boshqa foizsiz xarajatlar	4800	6900
	<b>5.5. Jami foizsiz xarajatlar</b>	aniqlang	
	<b>6. Operatsion xarajatlar</b>		
6.1.	Ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar	4270	6740
6.2.	Ofis ijarasi va saqlanishi	13330	2080
6.3.	Xizmat safari va transport xarajatlari	190	260
6.4.	Ma'muriy xarajatlar	1180	1730
6.5.	Reprezentatsiya va xomiylik	220	320
6.6.	Asosiy vositalarni eskirishiga xarajatlar	720	1370
6.7.	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	1820	2720
6.8.	Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxira	10	50
	<b>6.9. Jami operatsion xarajatlar</b>	aniqlang	
	<b>7. Sof foyda</b>		
7.1.	Foydaning umumiy summasi	aniqlang	
7.2.	Daromad solig'i (33%)	aniqlang	
	<b>7.3. Sof foyda (zarar)</b>	aniqlang	

Yuqoridagi "Foyda va zararlar to'g'risida hisobot"dan foydalanib quyidagilarni aniqlang:

1. Sof foizli daromadlar (foyda)ni, umumiy summasini va umuman bank bo'yicha sof foydani.

2. "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobot ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlarini.

3. Bankning barcha daromad (foizli va foizsiz birga olinganda) larining tarkibi va tuzilishini.

4. Tahlil natijalari bo'yicha xulosa va takliflar keltiring.

## 2.2-topshiriq

Hisobot yilida tijorat bankining kredit qo'yilmalari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilarni tashkil etdi: (mln. so'mda)

1/I-62. 1/V- 70. 1/IX- 70.  
 1/II-60. 1/VI- 69. 1/X-82.  
 1/III-66. 1/VII-63. 1/XI-80.  
 1/IV-68. 1/VIII-67. 1/XIII-78.

Ssudalar bo'yicha hisobot yilidagi foizli daromadlar - 18900 ming so'mni tashkil etdi. Kelgusi yilda kredit qo'yilmalarning o'rtacha 20% ga yillik o'sishi bashorat qilinmoqda, ssudalar bo'yicha foiz stavkasi 2 foiz punktiga pasayishi kutilmoqda.

**Quyidagilarni aniqlang:**

1. Hisobot yili uchun:
  - A) kredit qo'yilmalarning o'rtacha yillik summasini;
  - B) ssudalar bo'yicha foiz stavkasining o'rtacha darajasini.
2. Kelgusi yil uchun: kreditlar uchun foizlar bo'yicha daromadlarning bashorat qilinayotgan summasini.
3. Kreditlar uchun foizlar bo'yicha daromadlarning oshishi yoki kamayishiga omillarning ta'sirini.

**2.3-topshiriq**

Hisobot yilida tijorat bankining qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha aylanmasi 6 mln so'mni tashkil etdi. Sotib olish va sotish narxlari o'rtasidagi farq 2 % ni tashkil etdi. Aksiya kursining o'rtacha o'sishi 10%ni tashkil etdi.

Kelgusi yil prognozi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha aylanma 25% ga o'sadi, sotib olish va sotish o'rtasidagi o'rtacha farq esa 0,2 punktga kamayadi.

Hisobot yilida boshqa foizli daromadlar 380 ming so'mni tashkil etdi. Kelgusi yilda foizli daromadlarni 135 ming so'mga o'sishi kutilmoqda.

**Aniqlang:**

1. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobot yili va kelgusi yil uchun daromadni.
2. Boshqa foizli daromadlar summasini.
3. 2.1 va 2.3-topshiriqlar asosida quyidagi shakl bo'yicha foizli daromadlarning umumiy summasini:

№	Foizli daromadlar	Hisobot yili uchun	Kelgusi yil uchun	O'zgarish (+/-)
1.	Ssudalar bo'yicha			
2.	Qimmatli qog'ozlar bo'yicha			
3.	Boshqa foizli daromadlar			
	Jami foizli daromadlar			

## 2.4-topshiriq

1. Hisobot yilida depozitlarning o'rtacha yillik qiymati 32 mln. so'mni tashkil etdi. 4 mln. so'm foizlar to'langan. Kelgusi yilda depozitlarni 50 % ga o'sishi bashorat qilinmoqda. Kredit bahosining pasayishi munosabati bilan depozitlar bo'yicha foizlarning o'rtacha darajasi 2,5 punktga tushishi kutilmoqda.

2. Olingan banklararo kreditlarning o'rtacha yillik qiymati 30 mln. so'mni tashkil etdi, ular bo'yicha yillik foiz stavkasi 29% tashkil etdi. Bank kapitali va depozitlarining qiymatining ko'payishi bilan banklararo kreditlar summasi 5 mln. so'mga kamayadi. Ular bo'yicha foiz stavkasi 2 punktga pasayadi.

3. Hisobot yilida boshqa foizli xarajatlar 1 mln so'mni tashkil etdi, kelgusi yilda 10% ga o'sishi kutilmoqda.

### Aniqlang:

depozitlar bo'yicha to'lanadigan foizlarni bashorat qilinayotgan qiymatini;

banklararo kreditlar bo'yicha to'lanadigan foizlarni bashorat qilinayotgan qiymatini;

boshqa foizli xarajatlar va umumiy foizli xarajatlar qiymatini.

## 2.5-topshiriq

Hisobot yili va kelgusi yilga mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiraga ajratmalar kredit qo'yilmalar summasidan 1% ni tashkil etadi. (2.2-topshiriq)

### Aniqlang:

1. Ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiraga ajratmalarni hisobot va kelgusi yil uchun summasini.

2. 2.2-2.5 topshiriq ma'lumotlari asosida hisobot va kelgusi yil uchun foizli daromad (foyda)ni va sof foizli daromadni hamda quyidagi shakl bo'yicha ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini:

t/r	Ko'rsatkichlar	Hisobot yilida	Kelgusi yilda	O'sish sur'atlari (%)
1.	Foizli daromadlar			
2.	Foizli xarajatlar			
3.	Foizli foyda			
4.	Ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiraga ajratmalar			
5.	Sof foizli foyda			

2. Kelgusi yil uchun foizli foyda bashorat bo'yicha xulosa tuzing.

## 2.6-topshiriq

### Foizsiz daromadlar

Tijorat banki hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirgani uchun belgilangan tariflar bo'yicha yillik debet aylanmasi summasi, kassa operatsiyalari bo'yicha pul cheklarini to'lash bo'yicha aylanmadan kelib chiqqan holda komission to'lovlarni oladi. Belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha bank quyidagi ma'lumotlarga ega:

T/r	Operatsiya	Tarif	Hisobot yili uchun		Kelgusi yilga bashorat	
1.	Mijozlar hisobvaraqlari bo'yicha debet aylanmasi bo'yicha olingan komission to'lovlar differentsiatsiyasi					
	1 mln. so'mgacha	0,6	15		11,1	
	1 mln. – 10 mln. so'm	0,5	100		12,0	
	10 mln. – 100 mln. so'm	0,4	625		8,0	
	100 mln. so'm va undan ortiq	0,3	400		15,0	
2.	Jami to'langan yo'l cheklari	0,5	400		10,0	

3. Hisobot yilida depozit hisobvaraqlarini ochish, akkreditiv va boshqalar bo'yicha operatsiyalar 100 birlikni tashkil etdi. Tarif – har bir operatsiya bo'yicha 4 ming so'm etib belgilangan. Kelgusi yilda shunday operatsiyalar 10 % ga ko'payadi.

4. Hisobot yilida boshqa foizsiz daromadlar 2 mln. so'mni tashkil etdi. Kelgusi yilda ular 20 %ga ko'payadi.

### Aniqlang:

Hisobot yili uchun va kelgusi yil prognozi bo'yicha hisob-kitob, kassa va boshqa operatsiyalar uchun komission to'lovlar uchun summasini, foizsiz daromadlarning umumiy summasini aniqlang.

## 2.7-topshiriq

Hisobot yilida tijorat bankining foizsiz xarajatlari 12000 ming so'mni tashkil etdi, shu jumladan (ming so'm):

1. MB hisob markazlari va boshqa banklarning xizmatlari uchun xarajatlar – 600 ming so'm.

2. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar – 400 ming so'm.

3. Boshqa xarajatlar – 200 ming so'm.

Kelgusi yilda hisob markazi xizmatlar hajmi 25% ga va tarifi 5%ga, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar -20% ga va boshqa xarajatlar 10%ga o'sishi bashorat qilinmoqda. Keyingi yil bashorat bo'yicha foizsiz xarajatlar summasini aniqlang.

## **2.8 - topshiriq**

Hisobot yilida tijorat bankining operatsion xarajatlari 10400 ming so'mni tashkil etdi, shu jumladan (ming so'mda):

1. Ish xaqi, mukofot va xodimlarga qo'shimcha to'lovlar – 800
2. Xonalarni saqlash - kommunal xarajatlar – 8000
3. Pochta-telegraf, kanselyariya xarajatlari – 600
4. Asosiy vositalar eskirishi – 300
5. Boshqa operatsion xarajatlar – 700

Kelgusi yilda xodimlarni va ish haqi fondini 20% ga qisqartish ko'zda tutilgan. Qolgan xodimlarning mehnat haqi 10% ga oshiriladi. Yangi yil boshidan uch shtat birligidan iborat yangi bo'lim tuzish ko'zda tutilgan. Oylik ish haqi fondi 150 ming so'm qilib belgilangan.

Kelgusi yilning 1 iyulidan kommunal xarajatlar 25% ga, pochta-telegraf xarajatlari 20% ga oshiriladi.

Kelgusi yilning 1 aprelidan 2000 ming so'mlik yangi asosiy vositalar kiritiladi, ularning yillik eskirishi 8%. Boshqa operatsion xarajatlar 80 ming so'mga oshadi.

Kelgusi yil bashorati bo'yicha operatsion xarajatlarning umumiy summasini **aniqlang**.

## **2.9-topshiriq**

2.2 - 2.8 topshiriqlar ma'lumotlari va ularning echimi asosida tijorat banki foydasining umumiy summasini aniqlang.

## **2.10-topshiriq**

Tijorat banki imtiyozli kreditlash fondiga foydaning umumiy summasidan 20% ni o'tkazadi.

Umumiy summadan (soliqqa tortiladigan foyda) 50% foydadan soliq budjetga o'tkaziladi.

Aksionerlar yig'ilishining qarori bo'yicha sof foyda quyidagicha taqsimlanadi:

1. Zaxira fondiga – 25 %
2. Aksionerlarga dividendlar to'lashga – 20 %
3. Bank infratuzilmasini rivojlantirishga – 25 %

4. Ijtimoiy maqsadlarga – 15 %
5. Boshqa maqsadlarga – 5 %
6. Taqsimlanmagan foydaga – 10 %

Tijorat bankining sof foydasi va uning taqsimlanishini hisobot yili va kelgusi davr uchun aniqlang.

### **III. Naqd pulsiz hisob-kitoblar**

#### **3.1-topshiriq**

1 sentabr holatiga tikuv firmasining depozit hisob raqamida 90 ming so‘m mavjud edi. Sentyabr oyida quyidagi pullik operatsiyalar amalga oshirildi (ming so‘m):

1. Savdo korxonalarini va boshqa buyurtmachilardan tayyor mahsulot (tikuv mahsulotlari)larini sotishdan mablag‘lar kelib tushdi – 4540.

2. Savdo firmasiga (tijorat) kreditga uch oy muddatga tikuvchilik mahsulotlari jo‘natildi – 300.

3. Ish haqini to‘lashga chek bo‘yicha bankdan naqd pul olindi – 600.

4. Sotib oluvchidan sud qaroriga asosan debitorlik qarzi undirildi – 110.

5. Mahsulot yetkazib beruvchilardan turli tovar-moddiy qiymatliklar sotib olindi:

– gazlama, ip - 2200

– furnitura - 200

– tikuv mashinalari -120

6. Naqd hisob-kitob bo‘yicha mayda xo‘jalik materiallari sotib olindi – 10

7. Firma magazini orqali tikuvchilik mahsulotlari sotishdan bankka naqd pullar topshirildi - 190

8. To‘landi:

– elektr energiyasi uchun-150

– transport xarajatlari uchun-80

– reklama uchun -20

9. Oldindan to‘lov sifatida sotib oluvchilardan mablag‘lar kelib tushdi – 185

10. Davlat budjetiga to‘landi

– foyda solig‘i -170

– ish haqidan soliq -180

11. Uch oylik (tijorat) kreditga elektr moslamalar sotib olindi-280

12. Firma ishchilariga ish haqi to‘landi -590

13. Pensiya fondiga pul mablagʻlari oʻtkazildi -160
  14. Bankning qisqa muddatli ssudasi qaytarildi - 400
  15. Toʻlangan soliqlardan ortgan summani soliq inspeksiyasi qaytardi-40
  16. Mahsulot yetkazib beruvchilar va sotib oluvchilar bilan munosabatlarda shartnoma intizomini buzganligi uchun jarima sanksiyalari:
    - toʻlangan - 25
    - olingani - 35
  17. Xomiylik sifatida bolalar uyiga oʻtkazildi - 30
  18. Bankka toʻlandi:
    - kredit uchun foiz -15
    - hisob-kitob-kassa xizmatlari uchun komission toʻlovlar - 130
  19. Xizmat safari uchun firma xodimiga naqd pul berildi - 40
  20. Fond birjasida ishonchli AJning aksiyalari sotib olindi - 500
  21. Firma xodimlariga mukofotlar toʻlandi -70
- Firmaning qaysi pullik operatsiyalari depozit hisob raqamida aks ettirilishini koʻrsating. 1 oktabrga saldoni chiqaring.

### **3.2-topshiriq**

Fevral oyida korxonada depozit hisob raqamiga 4 mln. soʻm pul mablagʻlari kelib tushdi. Ish kunlar soni – 20, shartnomada zaruriy ehtiyojlar uchun oʻrtacha kunlik tushumning 5% miqdorida limit koʻzda tutilgan. Mart oyiga zaruriy ehtiyoj uchun limit summasini hisoblang va amaliyot boʻlimiga topshiriq bering.

### **3.3-topshiriq**

Ulgurji savdo firmasining depozit hisob raqamiga I chorak uchun 18600 ming soʻm, qurilish tashkilotining hisob raqamiga 8680 ming soʻm pul mablagʻlari kelib tushdi. I chorakda ish kunlari soni 62, zaruriy ehtiyojlar uchun limit firma uchun 2% belgilangan, qurilish tashkiloti uchun-5% (oʻrtacha kunlik tushumdan).

II chorakda mablagʻlarni berish limitini hisoblang va amaliyot boʻlimiga topshiriq bering.

### **3.4-topshiriq**

Korxonada hisob raqamiga 10 mart kuni mahsulot sotishdan tushum kelib tushdi:



A) I variant bo'yicha 610 ming so'm

B) II variant bo'yicha 280 ming so'm

Zaruriy ehtiyojlar uchun limit 10 ming so'm. Korxonaning №2-kartotekasida balansdan tashqari 90963 "muddatida to'lanmagan hisob hujjatlari" hisob raqamida quyidagi hujjatlar mavjud:

№	Hujjat nomi	2-kartotekaga joylashtirilgan sana	Ming so'm
1.	Mahsulot yetkazib beruvchining to'lov talabnomasi	25-fevral	120
2.	To'lovlar bo'yicha to'lov talabnomalari: A) budjetga soliqlar B) sug'urta bo'yicha V) pensiya fondiga	5 mart 2 mart 6 mart	80 20 10
3.	Ish haqini to'lashga ariza, to'lash muddati 9 mart	9 mart	150
4.	Ish haqidan soliqlarni to'lash bo'yicha to'lov topshiriqnomasi	9 mart	100

Shu kuni o'zida korxonaga to'lov topshiriqnomasini taqdim etdi:

A) zaruriy ehtiyojlar limitni hisobidan 10 ming so'mga ehtiyot qismlar uchun

B) 40 ming so'mga transport xizmati uchun

Belgilangan ketma-ketlikda hisob-kitob va pul hujjatlarni to'lovini I va II variantlar bo'yicha alohida to'lovni amalga oshirish va korxonaning balans va balansdan tashqari hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish lozim.

### **3.6.-topshiriq**

#### **(3.5. topshiriqning davomi)**

I variant bo'yicha har bir kalendar kun uchun 0,1% penya hisoblanishini inobatga olib, hisob-kitob hujjatlari to'lovini amalga oshirish kerak

### **3.7-topshiriq**

O'zSQB ning Xamza filialiga mahsulot yetkazib beruvchi 10 aprel (chorshanba) kuni tovar-transport hujjatlari bilan quyidagi sotib oluvchilarga to'lov talabnomalari qo'yildi:

1. №301 Namangan shahar “Paxtabank” filiali tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan “A” sotib oluvchiga 250 ming so‘mlik tovar summasiga;

2. №302 O‘zSQB Chilonzor filialida xizmat ko‘rsatiladigan “B” sotib oluvchiga xizmatlar uchun 90 ming so‘mga

3. Xamza filialini o‘zida xizmat ko‘rsatiladigan mijozlarga:

A) №303 “V” sotib oluvchiga 150 ming so‘mga tovarlar uchun

B) №304 Issiqlik energiyasi uchun 85 ming so‘mga, shu jumladan “G” sotib oluvchiga QQS 15 ming so‘m.

Shu bankni o‘zida xizmat ko‘rsatiladigan sotib oluvchilarni depozit hisob raqamlarida to‘lov hujjatlari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetarli miqdorda pul mablag‘lari mavjud. O‘zSQB Xamza filialini harakatlarini ko‘rsating va operatsiyalarni balans va balansdan tashqari hisobvaraqlarida aks ettiring.

### 3.8-topshiriq

“O‘zpaxtabank” amaliyot bashqarmasiga 10-14 may kunlari to‘lovchi- sotib oluvchilarga to‘lov talabnomalari kelib tushdi.

15,16,22 va 23 may kunlari – dam olish kunlari.

№	Ma’lumotlar	Sotib oluvchi-to‘lovchilar				
		A	B	V	G	D
1.	To‘lov talabnomalar raqami	301	402	503	604	705
2.	Kelib tushish sanasi	12.05	10.05	11.05	10.05	14.05
3.	Qiymati - ming so‘m	120	150	40	180	230
	Shu jumladan QQS	-	-	-	-	80
4.	To‘lov talabnomasi turi	bir shahar	shahar-lararo	bir shahar	bir shahar	shahar-lararo
5.	Maqsadi	tovar	xizmat	elektr energiya	tovar	tovar
6.	Aksept muddati (sana)	aniqlang				
7.	To‘lov muddati (sana)	aniqlang				
8.	Sotib oluvchilar munosabati	aksept	aksept	-	rad etilgan	aksept
9.	To‘lov kuniga depozit hisob raqamida mablag‘lar mavjudligi	140	200	30	250	280

Bank operatsiyalarini ko‘rsatib, aksept va to‘lov muddatini aniqlang, balans va balansdan tashqari provodkalarini o‘tkazing.

### 3.9- topshiriq

O‘zSQB Chilonzor filialiga 10 aprel (chorshanba) kuni Andijon to‘qimachilik kombinatining to‘lov talabnomasi kelib tushdi. Talabnoma tikuv firmasiga 3200 ming so‘mga gazlama uchun to‘lovga taqdim etilgan. 16 aprelda tovarga buyurtma berilmaganligi sababli 700 ming so‘mga aksept rad etildi.

Firmaning depozit hisob raqamida shu kunda 500 ming so‘m bor edi. 20 aprel kuni to‘lov talabnomasi qisman 800 ming so‘mga to‘landi. Yakuniy to‘lov 26 aprel kuni amalga oshirildi. Shartnomada to‘lovni kechiktirganlik uchun har bir kunga 0.1 % penya to‘lash ko‘zda tutilgan.

Bankning balans va balansdan tashqari operatsiyalarini provodkalar bilan ko‘rsating:

- a) to‘lov talabnomasi kelib tushgan sanada;
- b) vaqtinchalik to‘lov kunida;
- g) yakuniy to‘lov sanasida.

### 3.10-topshiriq

To‘lovchining bankida 11,12,13-sonli to‘lov talabnomalari 2-kartotekaga joylashtirildi va har bir kechiktirilgan kun uchun 0.1 % penya hisoblagan holda mablag‘ paydo bo‘lishi bilan to‘lovlar amalga oshirildi.

T/r	To‘lov talabnomasi raqami	Ming so‘m	2-sonli kartotekaga joylashtirilishi	To‘lov	
				sana	ming so‘m
1.	11	500	1.04	16.04	300
				25.04	yakuniy
2.	12	80	21.04	21.04	to‘liq
3.	13	320	30.04	15.05	200
				20.05	yakuniy

Penyani hisoblagan holda to‘lov talabnomalari bo‘yicha to‘lovning amalga oshirilishini ko‘rsating.

### 3.11-topshiriq

O‘zSQB ning Yakkasaroy filialiga 2 iyun (payshanba) kuni O‘zSQB Xamza filialidan to‘lov talabnomasi kelib tushdi. Talabnoma bo‘yoq uchun 900 ming so‘mga, to‘lovchi-to‘qimachilik kombinatiga yozilgan. Kombinat 6 iyun kuni “baho ko‘tarilgan” sababini ko‘rsatib,

180 ming soʻmni qisman rad etdi.

Toʻlov talabnomasini toʻlash kunida kombinat depozit hisobvaragʻida 500 ming soʻm bor edi. Oxirgi toʻlov 21 iyun kuni amalga oshirildi.

Talabnoma kelib tushgan kunda, aksept rad etilgan kunda va toʻlov amalga oshirilgan kunda bank operatsiyalarini balans va balansdan tashqari provodkalarda aks ettiring.

### **3.12-topshiriq**

Sotib oluvchi korxonaga bankka toʻlov topshiriqnomasini taqdim etdi:

A) shu bankni oʻzida xizmat koʻrsatiladigan mahsulot yetkazib beruvchiga olingan mahsulot uchun 500 ming soʻmga, 202-sonli topshiriqnomaga;

B) mahsulot yetkazib beruvchiga (boshqa bankda xizmat koʻrsatiladigan) tovarlar uchun oldindan toʻlov boʻyicha 150 ming soʻmga, 203-sonli topshiriqnomaga.

Toʻlovchining depozit hisobvaragʻida pul mablagʻlari mavjud:

A) I variant boʻyicha -800 ming soʻm;

B) II variant boʻyicha -120 ming soʻm;

V) III variant boʻyicha -200 ming soʻm.

Har bir variant boʻyicha bank operatsiyalarini aniqlang va ularni hisobvaraqlarda aks ettiring.

### **3.13-topshiriq**

Toʻlovchi depozit hisobvaragʻida mablagʻlar:

A) I variant boʻyicha yoʻq

B) II variant boʻyicha 660 ming soʻm

Korxonaga toʻlov uchun bankka toʻlov topshiriqnomasini taqdim etdi, (ming soʻm):

№51 Mahsulot yetkazib beruvchiga 300

№52 Byudjetga QQS 400

№53 Pensiya fondiga 100

№54 Transport xarajatlari uchun 150

№55 Ish xaqidan budjetga soliqlar 250

№56 Elektr energiyasi uchun zaruriy ehtiyojlar limiti chegarasida

20

№57 Aliment 10

№58 Ijtimoiy sugʻurta boʻyicha 40

I va II variantlar bo'yicha bank xatti-harakatlarini ko'rsating. Qaysi to'lov topshiriqlari ijro uchun qabul qilinmaydi?

### **3.14-topshiriq**

“Malika” firmasi O‘zSQB ning Sobir Raximov filialiga 200 ming so‘mga qoplangan chaqirib olinmaydigan akkreditiv ochish uchun elektron ariza Andijon “Elektroapparat” zavodi bilan hisob-kitob qilish uchun berildi. Mahsulot yetkazib beruvchiga “Paxtabankning” Andijon shahar filialida xizmat ko‘rsatildi. Shartnoma bo‘yicha akkreditivni amal qilish muddati mahsulot yetkazib beruvchi bankida 15 kunni tashkil etadi. Sotib oluvchi bankining xatti-harakatini ko‘rsatish lozim. Barcha operatsiyalarni bank hisobvaraqlarida aks ettiring.

### **3.15-topshiriq**

#### **(3.14-topshiriqning davomi)**

“Paxtabank”ning Andijon filialiga 10 iyun kuni “Malika” firmasidan “Elektroapparat” zavodi bilan hisoblashish uchun akkreditiv kelib tushdi. Mablag‘lar vakillik hisobvarag‘iga kelib tushdi. Shartnoma bo‘yicha akkreditivning amal qilish muddati 15 kun.

Zavod tovar-transport hujjatlari bilan “Malika” firmasiga elektrodvigatellar jo‘natilganligi to‘g‘risidagi hisobvaraqlar reestrini 15 iyunda 120 ming so‘mga va 20 iyunda 70 ming so‘mga hisobvaraqlar reestrini taqdim etdi.

#### **Quyidagilarni:**

1. “Paxtabank”ning Andijon filialiga kelib tushgan akkreditiv bo‘yicha operatsiyalarni hisob raqamlari bo‘yicha aks ettiring.
2. Akkreditivdan to‘lovlar bo‘yicha operatsiyalarni aks ettiring.
3. Mahsulot yetkazib beruvchi bankida akkreditivni yopilish muddatini va mijoz harakatlarini aniqlang.

### **3.16-topshiriq**

SQBning Sobir Raximov filiali va “Paxtabank” Andijon filiali hamda “Malika” firmasi o‘rtasida kafolatlangan (qoplangan) akkreditiv bo‘yicha hisob-kitob qilish to‘g‘risida shartnomalar imzolangan. Boshqa shartlari 3.14 va 3.15-topshiriqlardagi bilan bir xil. Kafolatlangan akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha bank xizmatlari haqi 1% qilib belgilangan.

#### **Quyidagilarni aniqlang:**

1. Sotib oluvchi bankida akkreditivni qo'yish bo'yicha harakatlari va operatsiyalarini.

2. Akkreditiv kelib tushishi, to'lanishi va yopilishida mahsulot yetkazib beruvchi bankida bank harakatlari va operatsiyalarini.

3. Sotib oluvchi bankida akkreditiv ishlatilishi va yopilishi hamda bank xizmatlarini to'lash bo'yicha harakatlar va operatsiyalarni ko'rsating.

### **3.17-topshiriq**

“Zafar” firmasida quyidagi moliyaviy holat yuzaga kelgan (ming so'm):

1. Xo'jalik sudi undirib olish to'g'risida buyruq chiqardi:

A) mebel fabrikasidan debitorlik qarzdorligini “Zafar” firmasi foydasiga – 80;

B) “Zafar” firmasi foydasiga oldin olingan tovar uchun asossiz akseptni rad etilgan summa – 70.

2. “Zafar” firmasidan undirishga:

A) muddati o'tgan soliq to'lovlari bo'yicha soliq inspeksiyasi tomonidan -70

B) kechiktirilgan badallar bo'yicha Nafaqa fondi tomonidan-30

Pul mablag'lari to'lovchilari va oluvchilariga bir bankda xizmat ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan barcha to'lovlar bo'yicha hujjatlar bankka bir kunda, 20 avgustda taqdim etilgan. Mebel fabrikasi to'lovni amalga oshirish uchun yetarli mablag'ga ega, “Zafar” firmasini hisobvarag'ida esa 15 ming so'm mavjud.

#### **Quyidagilarni bajaring:**

1. Ko'rsatilgan to'lovlar bo'yicha qaysi hisob-kitob shakllari qo'llanadi va ular qanday amalga oshiriladi (qaysi to'lov hujjati va kim tomondan bankka taqdim etiladi)

2. “Zafar” firmasining bankdagi hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarni aks ettiring.

#### IV. Aylanma mablag‘lar va korxonaning kreditga layoqatliligi

##### 4.1-topshiriq

Korxonada balans bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud:

<b>№</b>	<b>Modda nomi</b>	<b>Yil boshiga</b>	<b>Yil oxiriga</b>
1.	Ustav kapitali	760	7800
2.	Qoldiq qiymat bo‘yicha asosiy vositalar	5500	5500
3.	Kapital qo‘yilmalar	900	700
4.	Zaxira kapitali	150	200
5.	Maqsadli tushumlar va fondlar	250	300
6.	Taqsimlanmagan foyda	400	600
7.	Qisqa muddatli kreditlar	3100	2500
8.	Ishlab chiqarish zaxiralari	2800	2900
9.	Tugallanmagan ishlab chiqarish	800	900
10.	Mahsulot yetkazib beruvchilar-kreditorlar	1300	800
11.	Tayyor mahsulot	1800	1200
12.	Debitorlar - sotib oluvchilar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	1500	1200
13.	Ish haqi bo‘yicha qarzdorlik	200	250
14.	Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha qarzdorlik	100	150
15.	Avans to‘lovlari	400	300
16.	Sotib oluvchi va buyurtmachilardan olingan avanslar	500	250
17.	Pul mablag‘lari	1300	1500
18.	Byudjet bo‘yicha qarzdorlik	400	350
19.	Uzoq muddatli kreditlar	1000	1000
20.	Nazorat summasi	30000	28400

Yil boshi va oxiriga quyidagilarni aniqlash lozim:

1. O‘zaro nisbatni, ya’ni:

A) uzoq muddatli va aylanma aktivlar o‘rtasidagi;

B) O‘z va jalb qilingan mablag‘lar (majburiyatlar) o‘rtasidagi.

2. Aylanma mablag‘larning tuzilishi va joylashtirilishi tarkibini.

Yil boshiga me’yor 1000 ming so‘m va yil oxiriga mahsulot za-

xirasi holatini aniqlang.

3. Yil boshida me'yor 4000 ming so'm va yil oxiriga-1400 ming so'm bo'lsa, o'z aylanma mablag'larini mavjudligi, ularni saqlanishi, ortiqchasi yoki yetishmasligini aniqlang.

4. Aylanma mablag'lar shakllanish manbalarining tuzilishi va tarkibi.

Yuqorida ko'rsatilgan topshiriqlarni quyidagi shakl bo'yicha bajarish tavsiya etiladi:

№	Modda nomi	Yil boshiga		Yil oxiriga		Tarkibining o'zgarishi
		Ming so'm	salmog'i	Ming so'm	salmog'i	
	Jami					

#### 4.2-topshiriq

A va B korxonalar bo'yicha aylanma mablag'lar me'yorini aniqlash uchun quyidagi ma'lumotlar mavjud:

№	Ko'rsatkichlar	Korxonalar	
		A	B
1.	Yillik biznes reja bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari	28800	16000
2.	Aylanma mablag'lar me'yori:		
	A) kunlarda	60	90
	B) 1 so'mlik xarajatga tiyinlarda	11,7	25
	C) absolut summada	aniqlang	

Aylanma mablag'lar me'yorini aniqlang.

#### 4.3-topshiriq

“O'zbekengilsanoat” korxonasi bo'yicha aylanma mablag'lar me'yori 45 kun va 1 so'mga xarajatlar me'yori 12,5 tiyin qilib belgilangan. Yillik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari 54 mln.so'm. Absolut summada aylanma mablag'lar me'yorini aniqlang.

#### 4.4-topshiriq

Korxonalar balansi bo'yicha (4.1.-topshiriq) asosiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini aniqlashda yaqin 3 oyda qaytarilishi lozim bo'lgan uzoq muddatli kreditlar yil boshiga mavjud emas, yil oxiriga 400 ming so'm.

Yil boshi va oxiriga ko'ra quyidagilarni aniqlang:



- A) qoplash koeffitsiyentini;
- B) likvidlik koeffitsiyentini;
- C) muxtorlik koeffitsiyentini.

#### 4.5-topshiriq

Korxonada aylanma mablag'larini aylanishini va savdo rentabelligini hisoblashda balans ma'lumotlaridan (4.1-topshiriq) tashqari quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

1. Hisobot yilida 40 mln. so'm va oldingi yilda 36 mln. so'mlik mahsulot sotilgan.

Foyda hisobot yilida 6000 ming so'm va oldingi yilda 5040 ming so'mni tashkil etgan.

2. Hisobot yilida aylanma mablag'lar qoldig'i 1/IV ga-8200 ming so'm, 1/VIIga-7800 ming so'm, 1/Xga-7700 ming so'mni tashkil etdi.

3. Aylanma mablag'larning o'tgan yildagi o'rtacha qoldig'i 8800 ming so'mni tashkil etdi.

#### Hisoblang:

1) Hisobot va o'tgan yillarda aylanish koeffitsiyenti va aylanma mablag'larning kunlarda aylanishini.

2) Mahsulot sotish rentabelligini.

#### 4.6-topshiriq

4,1; 4,4 va 4.5-topshiriqlar ma'lumotlari va echimlari asosida, umumlashtiriladigan kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari jadvalini tuzing, kreditga layoqatlilik sinfini va korxonani kreditlash shartlari quyidagi shakl bo'yicha aniqlang:

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		o'zgarishi
		koeffitsiyent	klass	koeffitsiyent	klass	
1.	Qoplash koeffitsiyenti					
2.	Likvidlik koeffitsiyenti					
3.	Muxtorlik koeffitsiyenti					
4.	O'z aylanma mablag'larini mavjudligi					
5.	Aylanma mablag'lar aylanishi:					
	A) aylanish koeffitsiyenti					

	B) kunlarda aylanishi					
6.	Mahsulot realizatsiyasi					
7.	Sotish rentabelligi					
8.	Noto'lovlar:					
	A) bank ssudalari bo'yicha					
	B) hisob hujjatlari bo'yicha					

#### 4.7-topshiriq

Korxonada tijorat banki filialiga tovar moddiy qimmatliklar garovi asosida xomashyo sotib olish maqsadida ssuda olish uchun murojaat qildi.

Zayomchi bankka kredit hujjatlarini to'liq paketini taqdim etdi. Kreditga layoqatlilikni aniqlash va tahlil qilish uchun yil oxiriga balans va hisobotlar, hamda boshqa hisob-kitob ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud (mln so'm):

№	Ko'rsatkich	Tikuv AJ	Trikotaj AJ	Poyafzal AJ	To'qimachilik AJ
<b>I. Hisobot ma'lumotlari</b>					
1.	Balans jami	40	18	32	26
2.	Uzoq muddatli aktivlar	15	6	14	10
3.	Aylanma aktivlar	25	12	18	16
4.	Shu jumladan zaxira va xarajatlar	13	7	10,5	11
5.	Qisqa muddatli majburiyatlar	12	7,5	15	17
6.	Uzoq muddatli ssuda, kredit va zayomlar	1	2	1,5	-
7.	O'z mablag'lar manbalari	27	9,5	15,5	9
8.	Hisobot yilida sotuvdan tushum	189	126	144	54
9.	Foyda	21	18	10,8	0,5
<b>II Boshqa ma'lumotlar</b>					
1.	Aylanma mablag'lar me'yor	12,5	5,4	3,5	7
2.	Hisobot yili uchun aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i	29,4	23,1	16	16,5

3.	O'tgan yilda aylanma mablag'larni kunlarda aylanishi	61	63	36	90
4.	O'tgan yilda samaradorlik (%da)	10,5	14,0	8,0	6,0

1. Korxonada kredit qobiliyati ko'rsatkichlarini aniqlang, ya'ni:
  - qoplash koeffitsiyentini;
  - likvidlik koeffitsiyentini;
  - muxtorlik koeffitsiyentini;
  - me'yorlarga nisbatan o'z aylanma mablag'larining mavjudligi;
  - aylanma mablag'lar aylanishini;
  - mahsulot sotish samaradorligini;
  - kreditga layoqatlilik sinfini.

2. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish natijasida ssudani berish yoki arizani qaytarish to'g'risida xulosa berish.

## V. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni qisqa muddatli kreditlash

### 5.1-topshiriq

Firma bankka xomashyo va materiallarni sotib olishga 4,3 mln. so'mga ssuda olishga ariza berdi. Firma quyidagi mulkni ssuda bo'yicha garov uchun qo'yishi mumkin:

mln. so'm

1. Bino va inshootlar - 6,0
2. Asbob va uskunalar - 6,0
3. Ishlab chiqarish zaxiralari - 5,8
4. Tayyor mahsulot qoldiqlari - 2,5
5. Davlat xazina majburiyatlari (DXM) - 3,0

Ssudaning maksimal summasini DXM bo'yicha garovga nisbati - 90% va boshqa qimmatliklar bo'yicha - 80% ni tashkil etadi.

#### Aniqlang:

1. Garovga qabul qilish uchun bankka qaysi mulk turi ma'qulroq.
2. Garov turi va summasi.

### 5.2-topshiriq

5 mart kuni korxonada mahsulot ishlab chiqarishni oshirish uchun material sotib olishga 4 mln. so'mlik ssuda olish uchun ariza bilan murojaat qildi. Kredit paketining boshqa hujjatlari bilan bir qatorda

bankka ssudadan foydalanish davriga pul oqimlari tahlili kiritilgan biznes-rejani taqdim etdi.

Ssudalarni olish va qaytarishdan tashqari pul oqimlari (ming soʻmda)

№	Oylar	Pul oqimlarini tushumi-kirib kelishi	Toʻlovlar-chiqib ketishi
1.	Mart	16	20
2.	Aprel	22	22
3.	May	25	23
4.	Iyun	27	24

**Aniqlang:**

1. Oylik summalarni ikki sanaga boʻlib ssudani qaytarish muddatini.
2. Operatsiyalarni bankning balansdan tashqari hisobvaragʻi boʻyicha aks ettiring.

**5.3- topshiriq**

Tijorat banki tomonidan 5 mart kuni 4 oy muddatga ishlab chiqarish uchun materiallarni sotib olishga korxonaga ssuda rasmiylashtirildi.

Foiz stavkasi – yillik 24%. Ssuda tovar-moddiy qimmatliklar uchun hisob-kitob hujjatlarini toʻlash uchun berildi: 6 mart -1200 ming soʻm, 11 mart – 1500 ming soʻm va 16 mart - 1300 ming soʻm. Qaytarish muddatlari 11 va 16 may, hamda 16 va 26 iyun kunlari 1 mln. soʻmdan qilib belgilangan. Ssuda oʻz vaqtida hisob raqamiga tayyor mahsulot sotishdan tushgan mablagʻlar hisobidan qaytarildi.

**Quyidagilarni bajaring:**

1. Ssuda hisob raqami boʻyicha ssudani berish va qaytarish operatsiyalarini aks ettiring.
2. Mart, aprel, may va iyun oylari uchun foiz summasini hisoblang.

**5.4-topshiriq**

Bank tomonidan 11 aprel kuni korxonaga 6 mln. soʻmga ssuda berildi. Foiz stavkasi – yillik 18%. Ssudani qaytarish muddatlari 16 may va 16 iyun 3 mln soʻmdan belgilangan.

Ssuda shartnomasida muddati uzaytirilgan ssudalar boʻyicha birinchi oyda foiz stavkasini 1,5 marta va ikkinchi oyda 1,5 marta koʻpayishi koʻzda tutilgan.

**Aniqlang:**

1. Muddatli va muddati oʻtgan ssuda hisobvaraqlari boʻyicha operatsiyalarni aks ettiring.

2. Aprel, may va iyun uchun muddatli va muddati o'tgan ssuda hisobvaraqlari bo'yicha foizlarni hisoblang.

### **5.5-topshiriq**

Bank va tikuv firmasi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasida gazlama sotib olishga 4 oyga ssuda berilishi ko'zda tutilgan. 20 avgust kuni shu summa hisobidan 500 ming so'mga akkreditiv ochildi va avans to'lovi bo'yicha to'lov topshiriqnomasi to'landi. Oldindan to'lov mahsulot yetkazib beruvchi bilan 2 mln. so'mlik shartnoma summasini 15% ini tashkil etadi. Ssudaning qolgan qismi gazlama uchun mahsulot yetkazib beruvchilarni hisob-kitob hujjatlarini to'lash uchun ishlatildi.

#### **Aniqlang:**

1. Gazlamalar uchun hisob-kitob hujjatlari summasini.
2. Ssuda hisob raqami bo'yicha ssudani berish operatsiyalarini aks ettiring.

### **5.6-topshiriq**

#### **(5.5-topshiriqning davomi)**

3500 ming so'mga tikuv firmasiga berilgan ssuda bo'yicha qaytarish muddatlari quyidagicha o'rnatilgan:

15 oktabr -1000 ming so'm;

15 noyabr – 1000 ming so'm;

15 dekabr-1500 ming so'm.

15 /X va 15/XI ga olingan muddatli majburiyatlar bo'yicha ssuda o'z vaqtida qaytarildi. 2 dekabrda firma 400 ming so'mga ssudani muddatidan oldin qaytarishga to'lov topshiriqnomasini taqdim etdi.

Ssudani oxirgi qaytarish kunida (15/XII) firma hisob raqamida 600 ming so'm mavjud edi.

#### **Quyidagilarni bajaring:**

1. Ssuda hisob raqami bo'yicha ssudani qaytarish bo'yicha operatsiyalarni aks ettiring.
2. Ssudani berish va qaytarish bo'yicha operatsiyalarni 91901 "Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha zayomchilar majburiyatlari" balansdan tashqari hisobvarag'i bo'yicha aks ettiring.

### **5.7-topshiriq**

Yillik (choraklik) balans va moliyaviy hisobotlar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarga ega mahsulot yetkazib beruvchilar tijorat banking mijozlari hisoblanadi:

№	Ko'rsatkichlar	Korxonalar				
		A	B	V	G	D
<b>I Moliyaviy natijalar</b>						
1.	Mahsulot sotishdan tushum	24	12	15	30	40
2.	QQS	4	2	3	5	6
3.	Sof tushum					
4.	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari	14	11	14	20	27
5.	Foyda (+), zarar (-)	aniqlang				
<b>II Balans ma'lumotlari</b>						
1.	O'z mablag'lar manbalari	4	1	3	6	8
2.	Uzoq muddatli aktivlar	3	2	5	4	3
3.	Uzoq muddatli kredit va zayomlar	1	-	1	1	-
4.	O'z mablag'larining mavjudligi (+), balans nolikvidligi (-)	aniqlang				

Qaysi mahsulot yetkazib beruvchilar bilan bank faktoring xizmatini ko'rsatadi yoki bu xizmatni ko'rsatishga rad etadi?

### 5.8-topshiriq

Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudrat tashkilotlari quyidagi sotib oluvchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha faktoring ssudasini olish imkoniyatini aniqlash maqsadida bankka mahsulotlar oldi-sotdisi va bajarilgan ishlar bo'yicha shartnomani tijorat bankiga taqdim etdi:

t/r	Mahsulot yetkazib beruvchi va pudratchi	Sotib oluvchi va shartnomaning ayrim shartlari	Nima uchun
1.	A mebel firmasi	1. Viloyat kasalxonasi 2. Ma'rifat bazasi 3. Tibbiy ta'minot bazasi 4. "Rustam" savdo firmasi	Mebel uchun Mebel uchun Mebel uchun Mebel uchun
2.	B asbob-uskuna quruvchi zavod	1. Mashinasozlik zavodi 2. Asbob-uskunalarni butlash bazasi	Asbob-uskunalar uchun Asbob-uskunalar uchun
3.	V to'qimachilik fabrikasi	1. Tikuv fabrikasi 2. Barter bo'yicha modellar uyi 3. To'qimachi savdo bazasi 4. "Gazlamalar" do'koni to'lovni sotuvdan keyin amalga oshirish sharti bilan	Gazlamalar uchun Gazlamalar uchun Gazlamalar uchun Gazlamalar uchun

4.	G qurilish tashkiloti	1. Konditer fabrikasi 2. "Sharq" AJ	Uy qurilish uchun Tsex binosini qurish uchun
----	-----------------------	--	--

Qaysi to'lovchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha bank fakto-ring xizmati ko'rsatadi yoki uni rad etadi, sababini tushuntiring?

### 5.9-topshiriq

Faktoring ssudasini olish maqsadida mahsulot yetkazib beruvchilar bankka sotib oluvchilar tomonidan akseptlangan to'lov talabnomalari nusxalarini yuk hujjatlari bilan taqdim etdi.

T/r	Ko'rsatkichlar	Mahsulot yetkazib beruvchilar		
		A	B	V
1	To'lov talabnomalari summasi, mln. so'm	400	900	600
2	Shartnoma bo'yicha ssuda summasi, % da	70	80	75

#### Aniqlang:

- A) har bir mahsulot yetkazib beruvchi bo'yicha ssuda summasini;  
B) bankda faktoring ssudasini berish bo'yicha operatsiyalarni balans va balansdan tashqari hisob varaqlari bo'yicha aks ettiring.

### 5.10-topshiriq

To'lov talabnomalari bo'yicha (5.9-topshiriq) to'lov amalga oshirildi, ular bo'yicha:

T/r	Ko'rsatkichlar	Mahsulot yetkazib beruvchilar		
		A	B	V
1	Ssuda berilgan sana	11/IX	16/IX	21/IX
2	Ssudani to'lash va qaytarish sanasi	31/X	26/X	21/X
3	Oylik qayta moliyalashtirish stavkasi, % da	2,0	1,25	1,5
4	To'lov talabnomasi summasidan faktoring xizmatlari uchun komissiya, % da	2,5	2,0	2,0

#### Aniqlang:

- A) faktoring ssudasi bo'yicha foiz stavkasini;  
B) kredit uchun foiz va komission to'lovlari summasini;  
C) to'lov talabnomalari to'lovi bo'yicha hisob raqamiga kelib tushgan mablag'lar summasini;  
D) ssuda qaytarilishi, bank daromadlarini olishi va mablag'larni mahsulot yetkazib beruvchilar hisob raqamlariga o'tkazilishi bo'yicha operatsiyalarni bankning balans va balansdan tashqari hisobvaraqlari

bo'yicha aks ettiring.

### **5.11-topshiriq**

Bank tomonidan mahsulot yetkazib beruvchi bilan 500 ming so'mga 90 kundan keyin to'lab berish muddati bilan sotib oluvchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitor qarzdorlikni sotib olish (regress huquqisiz faktoring) ga maxsus shartnoma tuzildi.

Kredit uchun foiz – 4%, bank xizmatlari uchun komission haq – 3%, risk uchun to'lov – 5%.

#### **Aniqlang:**

1. Bankni mahsulot yetkazib beruvchi va sotib oluvchi bilan hisob-kitoblar qanday amalga oshirilishini.

2. Mahsulot yetkazib beruvchining to'lov talabnomasi diskonti va to'lov summasini.

3. Operatsiyalarni balans va balansdan tashqari hisobvaraqlari bo'yicha aks ettiring.

### **5.12-topshiriq**

Toshkentdagi "Mebel" AJ O'zSQB filialiga regress huquqisiz faktoring xizmatlari, ya'ni Farg'ona shahrida joylashgan "A" sotib oluvchi bank bilan 900 ming so'mga hisob-kitoblar bo'yicha 3 oydan keyin to'lovni amalga oshirish muddati bilan bankka debitorlik qarzini sotish haqida murojaat qildi. Farg'ona banklarining ma'lumoti bo'yicha "A" korxonasi moliyaviy barqarordir, "B" korxonasi esa 700 ming so'mga muddati uzaytirilgan ssudalar va 1500 ming so'mga 2-kartotekasi mavjud.

MBning qayta moliyalashtirish stavkasi oyiga 2%, ko'payish koeffitsiyenti 1,8 marta, bank riski bilan bog'liq komission to'lovlar – 6%.

#### **Aniqlang:**

1. Qaysi sotib oluvchi bilan hisob-kitoblar bo'yicha bank faktoring xizmatlarini ko'rsatish mumkin.

2. Mahsulot yetkazib beruvchi to'lov talabnomasini bank diskonti va to'lovi summasini.

### **5.13-topshiriq**

Aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida ssuda berish uchun korxonalar balansi bo'yicha 1 oktabr holatiga quyidagi ma'lumotlar berilgan:



T/r	Ko'rsatkichlar	Korxonalar	
		A	B
1	O'z mablag'lari manbalari	7000	5200
2	Uzoq muddatli aktivlar	4500	3900
3	Uzoq muddatli kreditlar	800	500
4	O'z aylanma mablag'larining mavjudligi	aniqlang	
5	Me'yoriy ko'rsatkich	4800	4000
6	O'z aylanma mablag'larining yetishmasligi	aniqlang	

Aylanma mablag'larni to'ldirishga berilishi mumkin bo'lgan kredit summasini aniqlang.

#### 5.14-topshiriq

Korxonaga dekabrda aylanma mablag'larni to'ldirishga ssuda 1 oktabr holatidagi balans bo'yicha 1500 ming so'm miqdorida berildi.

Tashkiliy-texnik chora-tadbirlar rejasi bo'yicha yanvardan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, mahsulot sifatini oshirish va tannarxni tushirish imkoniyatini beradigan yangi texnologik liniyani kiritish ko'zda tutilgan. Korxonada har oyda 70 ming so'm miqdorida qo'shimcha foyda oladi.

I chorak uchun kredit foizi va ssudani qaytarilishi, hamda uni to'liq qaytarilishi muddati (chorak) ni aniqlang.

#### 5.15-topshiriq

Joriy yilning 1 iyul holatidagi balans bo'yicha sentabrda korxonaga aylanma mablag'larini to'ldirishga yillik 24 % stavkasi bilan 1750 ming so'm miqdorida ssuda berildi.

Tashkiliy-texnik chora-tadbirlarda qo'shimcha foyda olish ko'zda tutilgan:

A) Joriy yilning oktabr oyidan mahsulotning yangi turlarini o'zlashtirish va ishlab chiqarish.

B) Kelgusi yilning apreldan har oyda 50 ming so'm, 1 iyuldan 60 ming so'm qo'shimcha foyda beradigan yangi texnologik liniyani ishga tushirish.

Ssuda bo'yicha foiz va asosiy qarzni qaytarish har chorak oxirida amalga oshiriladi.

Quyida keltirilgan shakl bo'yicha choraklar bo'yicha qo'shimcha foyda, kredit uchun foiz, asosiy qarzni qaytarish va ssuda qaytarilishining oxirgi muddatini aniqlang.

T/r	Ko'rsatkichlar	Joriy yilning IV choragi	Kelgusi yil			
			I ch	II ch	III ch	IV ch
1	Chorak boshiga ssuda bo'yicha qarzdorlik					
2	Qo'shimcha foyda					
3	Kredit uchun foiz to'lash					
4	Ssuda bo'yicha asosiy qarzni qaytarish					

Izoh: kredit uchun foizlarni ming so'mgacha yaxlitlash mumkin.

### 5.16-topshiriq

A va B korxonalari dekabrda aylanma mablag'larini to'ldirishga ssuda oldi. Keyingi yil 1 iyul holatiga balans bo'yicha aylanma mablag'larni to'ldirish jarayonini nazorat qilishda quyidagilar aniqlandi:

T/r	Ko'rsatkichlar	Korxonalar	
		A	B
1	O'z aylanma mablag'larining yetishmasligi	1150	1400
2	Ssuda bo'yicha qarzdorlik	1200	1300

Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. A va B korxonalari bo'yicha aylanma mablag'lar yetishmasligini to'ldirish jarayoniga baho bering.
2. Bank va korxonalar harakatlarini ko'rsating.

### 5.17- topshiriq

"Navro'z" shirkat xo'jaligining kelgusi yilga pullik daromad va xarajatlari 300 mln. so'm miqdorida ko'zda tutilgan. Ular choraklar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan (% da):

T/r	Ko'rsatkichlar	I ch	II ch	III ch	IV ch	Yil
1	Pul daromadlari	10	15	30	45	100
2	Pul xarajatlari	15	25	25	35	100

Kreditga bo'lgan ehtiyoj va uni qaytarish muddatlarini aniqlang.

### 05.18-topshiriq

Fermer bankka joriy ishlab chiqarish xarajatlari uchun (urug'lik, mineral o'g'it, yoqilg'i, mashina, traktor narxi xizmatlari va b.) 2200 ming so'm miqdorida 6 oy muddatga ssuda olish uchun murojaat qildi.

Kredit oyiga 1 %.

Fermer bug'doy etishtiradi va biznes-reja bo'yicha quyidagilar ko'zda tutilgan.

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori
1	Er maydoni	ga	20
2	1 hektardan hosil	ts	40
3	Yalpi yig'im	tonna	aniqlang
4	o'z ehtiyojlariga xarajatlar	tonna	aniqlang
5	Sotishga mo'ljallangan	tonna	aniqlang
6	1 kg sotish bahosi	so'm	120
7	Tushum	ming so'm	aniqlang
8	Bug'doy ishlab chiqarishga xarajatlar	ming so'm	4640
9	Sof daromad	ming so'm	aniqlang
10	Tushumning 40 % shaxsiy iste'molga sarflanadi	ming so'm	aniqlang
11	Bo'sh pul mablag'lari: <input type="checkbox"/> kredit bo'yicha foizlarni to'lash <input type="checkbox"/> ssuda bo'yicha asosiy qarzni qaytarishga yo'naltiradi	ming so'm	aniqlang

### **Aniqlang:**

1. Biznes rejadagi barcha ko'rsatkichlarni.
2. Fermerga suda berilish imkoniyati va qaytarilishini ta'minlash imkoniyati to'g'risida xulosa bering.

### **5.19-topshiriq**

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan fermer bankka qoramolni boqish va go'shtga topshirish uchun sotib olishga ssuda berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qildi. Shartnomaga asosan qoramol boshqa fermer xo'jaligidan naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha bir boshga 250 ming so'mdan 12 bosh olinadi. Biznes rejada quyidagilar ko'zda tutilgan:

1. Sotib olinayotgan molning o'rtacha tirik vazni – 200 kg
2. Vazni o'rtacha kunlik qo'shilishi - 450 g.
3. O'rtacha sotish bahosi, 1 kg tirik vazn – 1800 so'm
4. Qoramolni saqlash va boqish bo'yicha xarajatlar fermerning o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.
5. Ikki ishchiga oyiga 25 ming so'mdan ish haqi beriladi.
6. Emning bir boshga o'rtacha kunlik xarajatlari – 8 kg.
7. 1 kg emning o'rtacha bahosi – 20 so'm.
8. Binolarni saqlash, transport va boshqa xarajatlar – 709 ming so'm.
9. Byudjetga soliqlarni to'lash, har oyda – 100 ming so'm.

Fermer 2 yilga 12 oy imtiyozli davr bilan ssuda berishni so‘ragan. Ssudani qaytarish muddatlari ikkinchi yilda har chorakda – 16 fevral, 16 may, 16 avgust va 16 noyabrda teng summalarda belgilangan. Foiz stavkasi – yillik 20 %.

Birinchi yili ssuda bo‘yicha foizlar hisoblanadi, lekin to‘lanmaydi. Ularni to‘lovi ikkinchi yilda teng bo‘laklarda asosiy qarz va shu yilga hisoblangan foizlar bilan birga amalga oshiriladi.

Qoramol sotishdan tushum ikkinchi yilda choraklar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I va II choraklarda – 26 % dan, II va III choraklarda yillik summani 24 % dan. Qoramolni saqlash va boqish bo‘yicha xarajatlar I va IV choraklarda 27 foizdan, II va III choraklarda 23 % ni tashkil etadi.

### **Aniqlang:**

1. Ssuda hajmi va yo‘nalishini.
2. Ssuda ishlatilishini ikkinchi yilida qoramol sotishdan tushumni.
3. Qoramolni saqlash va etishtirish bo‘yicha fermerni yillik xarajatlarini.
4. Birinchi va ikkinchi yillarda hisoblangan foizlar va ikkinchi yilda ularni to‘lanishi summasini.
5. Pul oqimlarining hisob-kitobini tuzing va ssudadan foydalanishning ikkinchi yilida ssudani qaytarish imkoniyati amalda mavjudligini choraklar bo‘yicha aniqlang.

Hisob-kitobda quyidagi shakldan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>I ch</b>	<b>II ch</b>	<b>III ch</b>	<b>IV ch</b>	<b>Yil</b>
1	Tushum					
2	Xarajatlar					
3	Foizlarni to‘lash					
4	Ssudani qaytarish					
5	Pul mablag‘larining bo‘sh qoldig‘i					

### **5.20-topshiriq**

Fermer va paxta tozalash zavodi paxta xomashyosi yetishtirish va sotib olish hamda pul avansini berish va uni qaytarish to‘g‘risida kontraktatsiya shartnomalarini tuzishdi.

Fermer 120 ga maydonda paxta etishtiradi, hosildorlik 1 ga dan 30 s, 1 tonna paxta xomashyosi terilgan navini sotib olish bahosi 500 ming so‘mni tashkil etadi.

Paxta tozalash zavodi mart oyida, bankdan kredit olib, shartnoma

bo'yicha paxta sotib olishning umumiy miqdorining 30 % i miqdorida pul avansini fermer hisob raqamiga o'tkazdi.

Sentyabr oyida fermer zavodning tayyorlov punktiga 40 tonna paxta xomashyosini topshirdi, konditsion og'irlik – 95 %.

**Aniqlang:**

1. Fermerning yalpi daromadini.
2. Fermer olgan pul avansining miqdorini. Bu operatsiyani bank hisobvaraqlari bo'yicha aks ettiring.
3. Tayyorlov punkti tomonidan paxta xomashyosi uchun to'langan summani.
4. Ssudani qaytarish, pul avansi bo'yicha operatsiyalarni aks ettiring.

**5.21-topshiriq**

Paxta tozalash zavodi tuman shirkat xo'jaliklari va fermerlari bilan kontraktatsiya shartnomalarini, tijorat banki bilan kredit liniyasini ochish yo'li bilan paxta xomashyosini sotib olish uchun ssuda olish to'g'risida kredit shartnomasini tuzgan.

Sentyabr oyida paxta zavodining tayyorlov punktlari qishloq xo'jaligi korxonalaridan I o'n kunlikda konditsion og'irlik bo'yicha 1 tonnasi uchun 5 ming so'm, II – 7 ming so'm, III o'n kunlikda 8 tonnasining har 1 tonnasi uchun 8 ming so'mdan qabul qildi. Paxta tozalash zavodi bankka depozit hisobvarag'idan paxta tolasi va boshqa paxta mahsulotlaridan tushumning 80% ini ssuda qaytarishga o'tkazish to'g'risida topshiriq berdi.

Sentyabr oyida tushum I o'n kunlikda 100 mln. so'm, II – 175 mln. so'm va III-20 mln. so'mni tashkil etdi.

Paxta tozalash zavodining ssudani olish va qaytarish bo'yicha operatsiyalarini aks ettiring.

**5.22- topshiriq**

Yillik biznes-reja bo'yicha savdo tashkilotining chakana tovar aylanmasi 720 mln. so'mni tashkil etdi. Ustama miqdori – 20%. Mahsulotni kiritish bo'yicha transport xarajatlari – 2%. Tovar zaxiralarining me'yorini – 30 kun.

**Aniqlang:**

1. Tannarx bo'yicha tovar aylanishini.
2. Absolut summada tovar zaxiralarining me'yorini.

### 5.23- topshiriq

Universal magazin bankdan kundalik ehtiyoj tovarlarining majburiy assortimentni sotib olishga ssuda oldi. Savdo tushumi har kuni (shanba, yakshanbada ham) soat 18<sup>00</sup> da inkassatsiya qilinadi. Savdo tushumi inkassatsiyasi quyidagicha:

Sana	Kunlar	Inkasso qilingan tushum summasi	Shu jumladan, majburiy assortiment tovarlarini sotishdan tushum
1	Dushanba	650	150
2	Seshanba	700	180
3	Chorshanba	650	200
4	Payshanba	850	220
5	Juma	800	190
6	Shanba	750	210
7	Yakshanba	900	230

Muomala xarajatlarini belgilash va foyda olish uchun majburiy assortiment tovarlari bo'yicha savdo ustamasi 20 % ni tashkil etadi. Savdo tushumi maxsus hisob raqamidan asosiy depozit hisob raqamiga juma kuni dushanba-payshanba uchun, seshanba kuni juma –yakshanba uchun o'tkaziladi.

Tushumning qolgan qismi kundalik ehtiyoj tovarlarining majburiy assortimentiga olingan ssudani qaytarishga yo'naltiriladi.

#### **Aniqlang:**

1. Savdo tushumini asosiy depozit hisob raqamiga va majburiy assortiment tovarlaridan tushumining hisobi bo'yicha maxsus depozit hisob raqamiga o'tkazilishi bo'yicha operatsiyalarini aks ettiring.

2. Majburiy assortiment tovarlari bo'yicha juma va seshanba savdo ustamasining asosiy depozit hisob raqamiga o'tkazing.

3. Majburiy assortiment tovarlari bo'yicha ssuda qaytarilishini amalga oshiring.

### 5.24-topshiriq

Tijorat banki tomonidan berilgan kreditlarning sifati va yuzaga kelishi mumkin yo'qotishlarni qoplashga shakllantirilgan zaxirasi hajmi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud:

T/r	Kredit sifati	Yil boshicha mln. so'm	Yil oxiriga, mln. so'm	Zahira me'yor, %da
1	Yaxshi	34,2	61,0	-
2	Standart	12,0	22,0	10

3	Qoniqarli	6,3	17,0	25
4	Shubhali	4,8	6,0	50
5	Umidsiz	2,7	2,5	10
<b>Jami</b>		<b>60,0</b>	<b>100</b>	<b>-</b>

Quyidagilarni bajaring:

1. Yil boshi va oxiriga bank kredit portfelining sifatini tahlil qiling.
2. Ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zaxiralar summasini hisoblang va bank hisobvaraqlarida aks ettiring.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni, 1995-yil 21-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bank va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 1996-yil 25-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 1997-yil 24-aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 1998-yil 2-oktabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat-tijorat Xalq bankini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 1998-yil 25-dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2000-yil 21 – mart.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 1999-yil 15-yanvar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tijorat banklarining kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2000-yil 19 – may.
9. O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 15-aprelda 1122-son bilan ro‘yxatga olingan).
10. O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma (Adliya vazirligi tomonidan 2001-yil 10 noyabrda 1080-son bilan ro‘yxatga olingan).
11. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma (Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 30-yanvarda 615-son bilan ro‘yxatga olingan).
12. O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi depozitlar to‘g‘risida Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 16-noyabrda 534-son bilan ro‘yxatga olingan).
13. O‘zbekiston Respublikasi banklari o‘rtasida elektron to‘lovlar



- tizimi bo'yicha hisob-kitoblar yuritish to'g'risida Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2001-yil 19-fevralda 1010-son bilan ro'yxatga olingan).
14. O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida Yo'riqnoma (Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 14-yanvarda 1201-son bilan ro'yxatga olingan).
  15. O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida Yo'riqnoma (Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 14-yanvarda 1199-son bilan ro'yxatga olingan).
  16. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida – T.: “O'zbekiston”, 2005. – 528 b.
  17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari – T.: O'zbekiston, 2009. – 54 b.
  18. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi/ F.M.Mullajonov tahriri ostida. –T.: “O'zbekiston”, 2001. – 296 b.
  19. Abdullayeva Sh. va boshqalar Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. – 118 b.
  20. Абдуллаева Ш. Банковский менеджмент и маркетинг. Учебное пособие./ Ш. Абдуллаева, М. Файзуллаева, О. Галак, Д. Абидинова. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 182 с.
  21. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik/ – T.: Toshkent, 2003. – 312 b.
  22. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. – 304 b.
  23. Abdullayeva Sh.Z. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik/ – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. - 576 b.
  24. Денги. Кредит. Банки./ О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2007. – 319 с.
  25. Кашапов Х. Сборник задач по курсу "Банковское дело"/ Х. Кашапов. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005. – 36 с.
  26. Norqobilov S. Bank auditi. O'quv qo'llanma. – T.: TMI, 2004. – 150 b.
  27. Pul, kredit va banklar. Darslik./ Sh.Z. Abdullayeva. – T.: TMI, 2007. – 347 b.
  28. Селищчев А.С. Денги. Кредит. Банки./ А. С. Селищчев. – СПб.: Питер, 2007. – 432 с.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-bob. BANK ISHI – MUSTAQIL FAN</b>	
1.1. Bank ishi fanining predmeti va obyekt.....	6
1.2. Bankning vazifalari.....	15
1.3. Bank faoliyatini tashkil qilish va bank tarkibi.....	20
1.4. Bank ishi va uning davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi.....	27
1.5. Tayanch iboralar.....	30
1.6. Test topshiriqlari va masalalar.....	30
1.7. Nazorat uchun savollar.....	33
<b>2- bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI</b>	
2.1. Markaziy bank – yuridik shaxs.....	35
2.2. Markaziy bankni boshqarish.....	39
2.3. Markaziy bankning pul-kredit siyosati va uni amalga oshirish vositalari.....	44
2.4. Markaziy bankning pul tizimi va pul muomalasini tashkil etishdagi hamda valutani tartibga solishdagi roli.....	50
2.5. Markaziy bankning nazorat funksiyasi.....	80
2.6. Markaziy bankning moliyaviy ahvoli.....	88
2.7. Tayanch iboralar.....	92
2.8. Test topshiriqlari va masalalar.....	93
2.9. Nazorat uchun savollar.....	100
<b>3- bob. TIJORAT BANKLARI</b>	
3.1. Tijorat banklari to‘g‘risida umumiy tushunchalar.....	103
3.2. Tijorat banklari resurslari va ularning kapital bazasi.....	115
3.3. Bank aktivining tarkibi va sifati.....	123
3.4. Bank aktivi va passivini boshqarish.....	136
3.5. Tijorat bankining daromadi va foydasi.....	142
3.6. Tijorat bankining to‘lov qobiliyati va likvidligi.....	153
3.7. Bank hisoboti.....	177
3.8. Tayanch iboralar.....	195
3.9. Test topshiriqlari va masalalar.....	196
3.10. Nazorat uchun savollar.....	203
<b>4- bob. TIJORAT BANKLARI OPERATSIYALARI</b>	
4.1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari.....	207
4.2. Tijorat banklarining investitsion funksiyalari.....	218
4.3. Bankning komission (vositachilik) va trast operatsiyalari.....	228
4.4. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari.....	232
4.5. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari.....	262
4.6. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari.....	268
4.7. Tayanch iboralar.....	283
4.8. Test topshiriqlari va masalalar.....	284
4.9. Nazorat uchun savollar.....	291
<b>5- bob. TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI</b>	
5.1. Kredit siyosatining mohiyati.....	294
5.2. Kredit, uning funksiyalari va turlari.....	298
5.3. Kredit shakllari.....	306
5.4. Kreditlash tamoyillari va kredit berish tartiblari.....	314
5.5. Mikro kreditlash.....	325
5.6. Imtiyozli kredit berish.....	331

5.7. Tayanch iboralar.....	336
5.8. Test topshiriqlari va masalalar.....	336
5.9. Nazorat uchun savollar.....	341
<b>6- bob. BANK MIJOZLARINING KREDIT OLISH LAYOQATLILIGINI BELGILOVCHI OMILLAR</b>	
6.1. Mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi mezonlar.....	344
6.2. Pul oqimi va uning kreditga layoqatlilikni baholashdagi roli.....	344
6.3. Tayanch iboralar.....	372
6.4. Test topshiriqlari va masalalar.....	373
6.5. Nazorat uchun savollar.....	378
<b>7- bob. KREDIT SHARTNOMALARI</b>	
7.1. Shartnoma to‘g‘risida tushuncha va uning turlari.....	380
7.2. Kredit va qarz shartnomalari.....	386
7.3. Bank omonatlari va hisobvarag‘i shartnomalari.....	391
7.4. Tayanch iboralar.....	399
7.5. Test topshiriqlari va masalalar.....	399
7.6. Nazorat uchun savollar.....	401
<b>8- bob. BANK RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI</b>	
8.1. Bank risklari va ularning turlari.....	403
8.2. Risklarni aniqlash tartibi.....	423
8.3. Risklarni boshqarish usullari.....	423
8.4. Tayanch iboralar.....	431
8.5. Test topshiriqlari va masalalar.....	431
8.6. Nazorat uchun savollar.....	442
<b>9- bob. BANK FOIZI VA FOIZ STAVKALARI</b>	
9.1. Bank foizi va undan foydalanish mexanizmi.....	444
9.2. Foiz riski, ularni baholash va boshqarish usullari.....	450
9.3. Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari.....	453
9.4. Tayanch iboralar.....	465
9.5. Test topshiriqlari va masalalar.....	465
9.6. Nazorat uchun savollar.....	468
<b>10- bob. BANK REYTINGI VA UNI ANIQLASH USULLARI</b>	
10.1. Bank reytingini aniqlash usullari.....	470
10.2. «Axbor-reyting» agentligi.....	481
10.3. Test topshiriqlari va masalalar.....	488
10.4. Nazorat uchun savollar.....	491
<b>Bank ishi fanidan masalalar to‘plami.....</b>	<b>492</b>
<b>Adabiyotlar .....</b>	<b>527</b>

**Yorqin Abdullayev, To‘raboy Qoraliyev,  
Shuxrat Toshmurodov, Sevara Abdullayeva**

**BANK ISHI**

O‘quv qo‘llanma

Muharrir  
Kompyuterda sahifalovchi

H.Teshaboyev  
M.Ikromov

Bosishga ruxsat etildi 26.08.2010. Qog‘oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Hisob-nashr tabog‘i 33,25 b.t. Adadi 500. Buyurtma № 54

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI» bosmaxonasi  
100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39-uy.